

**E.SH.SHODMONOV, D.SH.BABABEKOVA
B.O.TURSONOV**



KORXONA IQTISODIYOTI VA INNOVATSIYALARNI BOSHQARISH



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

**E.SH.SHODMONOV, D.SH.BABABEKOVA,
B.O.TURSUNOV**

KORXONA IQTISODIYOTI VA INNOVATSIYALARNI BOSHQARISH

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining
Muvofiqlashtiruvchi kengashi tomonidan 5A230102-Iqtisodiyot
(tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) magistratura mutaxassisligi uchun
darslik sifatida tavsiya etilgan*

**TOSHKENT
“IQTISOD-MOLIYA”
2020**

UO‘K: 338.3:334.7(075.8)

KBK: 65.304.12-4

Sh 74

Taqrizchilar: E.G.Nabiyev – i.f.d., professor
U.A.Burxanov – i.f.d., professor

Korxonalar iqtisodiyoti va innovatsiyalarni boshqarish:
*Darslik / E.Sh.Shodmonov., D.Sh.Bababekova., B.O.Tursunov; – T.:
“Iqtisod-Moliya”, 2020. – 528 b.*

Mazkur darslikda O‘zbekistonda real sektorni jadal sur‘atlar bilan rivojlantirish, tarmoq korxonalarida istiqbolli loyihalarni amalga oshirish orqali yangi zamonaviy texnika, dastgoh va uskunalar, texnologiya va nou-xaularni joriy etish, samarali investitsion faoliyatni tashkil etishni va to‘g‘ri yo‘naltirilgan investitsion siyosatni amalga oshirish, korxonalar faoliyatini innovatsion rivojlantirish bilan bog‘liq jarayonlar doirasida tegishli tahlillarni amalga oshirish va korxonalar faoliyatini istiqbolli rivojlantirish yo‘nalishlarining konseptual asoslari yoritib berilgan.

«Korxonalar iqtisodiyoti va innovatsiyalarni boshqarish» fanidan darslikni tayyorlashda korxonalar faoliyatiga daxldor qonunchilik, korxonalarda innovatsion faoliyatni tashkil etishga doir davlat dasturlari va mazkur yo‘nalishda xalqaro tajribalarning o‘rni bilan bog‘liq jarayonlarning ilmiy-nazariy asoslaridan keng qamrovli tartibda foydalanilgan.

UO‘K: 338.3:334.7(075.8)

KBK: 65.304.12-4

ISBN 978-9943-13-871-1



© E.Sh.Shodmonov.,
D.Sh.Bababekova., B.O.Tursunov, 2020

© “IQTISOD-MOLIYA”, 2020

KIRISH

Hozirgi zamon sharoitida, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, o'qitishning bugungi kun talablari va yangi pedagogik texnologiyalar asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Yangi pedagogik texnologiyalarni ahamiyati shundaki, unda qo'yilgan maqsadlarga erishish kafolatini beruvchi o'quv jarayoni rejalashtiriladi va amalga oshiriladi. Darhaqiqat, mashg'ulotlarning muvaffaqiyatli o'tishining 80 foizi ta'lim jarayonini to'g'ri loyihalashtirish, tashkil etish va uni amalga oshirishga bog'liqdir.

O'quv jarayonlarini loyihalashtirishda ta'limning mazmun va maqsadi, kutilayotgan natijani aniq belgilash, ta'lim metodlari, shakllari va vositalarini to'g'ri tanlash, o'quvchi va talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholashni real mezonlarini oldindan ishlab chiqish, mashg'ulotga ajratilgan vaqt ichida ularni samarali amalga oshirish va bir-biri bilan uyg'unlashuviga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir.

Zamonaviy pedagogik texnologiya o'zining pedagogika va boshqa fan yutuqlari bilan bog'liq rivojlanish qoquniyatlariga ega; u birinchi galda o'quv-tarbiyaviy jarayonni ilmiy asosda qurishga yo'naltirilgan; o'qitishning axborotli vositalaridan, didaktik materiallardan, faol metodlardan keng foydalanishga asoslangan o'qituvchi va talabalarning birgalikdagi faoliyatiga zamin yaratadi.

Ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalarda esa, ular egallanayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. Pedagog – bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olish va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Talabalar ta'lim jarayonida asosiy bo'g'inga aylanadi.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayonlarga ya'ni o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan, interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar – bu jamoa bo'lib fikrlashdan iborat, ya'ni u pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib, ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Jamiyat taraqqiyoti, milliy farovonlik hamisha yosh avlodning ta'lim-tarbiyasi, zamonaviy bilimlarni chuqur egallagan yangi kadrlar, ularning yuksak malakasi bilan bog'liq bo'lib kelgan. Keksa avlod erishgan yutuqlarga, ular to'plagan tajribaga tayanib, mamlakatning ilmiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy salohiyatini yanada ko'tarish hamisha yoshlar zimmasiga tushgan. Shu boisdan ham istiqbolimizning ilk qadamlaridan boshlab, mamlakatimizda yangi zamon avlodini tarbiyalash, ular dunyoqarashini yangicha qadriyatlar asosida shakllantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Bu boradagi islohotlar samaradorligini oshirish o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish borasida tizimli tadqiqot-larni amalga oshirish jarayonini dolzarb ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Respublikamizda ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlarning asosiy maqsadi rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga qaratilganligi sababli o'quv jarayonini tashkil etishda o'quv adabiyotlarining sifati bilan bog'liq muammolarni tizimli asosda tahlil qilish alohida ahamiyatga ega. Bu borada o'quv adabiyotlari sifati asosiy mezonni ta'lim tizimining barcha bosqichlarida o'qitishning yangi usul va texnologiyalaridan maqsadli foydalanish orqali talabalarni yangi bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, ularning bilim egallashga bo'lgan ehtiyojlarini samaraliroq qondirish darajasini o'zida aks etadi.

Yuqoridagi holatlar o'quv adabiyotlarini yaratishda pedagog xodimlardan yuksak bilim va mahoratni talab etadi. Shu sababdan mazkur sohada amalga oshirilayotgan islohotlar ko'lamini kengaytirishning o'ziga xos muhim ahamiyat kasb etishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev quyidagicha to'xtalib o'tgan edi: ...pedagoglar va professor-o'qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta'lim olish, ma'naviy-ma'rifiy kamolot masalalari va huquqiy qadriyatlarni

shakllantirish jarayonlariga faol ko'mak beradigan muhitni yaratish zarur.¹

Mamlakatimiz iqtisodiyotida tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish sharoitida ishlab chiqarish sohasiga qaratilinayotgan e'tibor, mazkur sohaning barqaror rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shunga qaramay iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash va modifikatsiyalash orqali soha taraqqiyotini mustahkamlash, aholi bandligini ta'minlashda maqsadli yo'nalishlarni shakllantirish bilan bog'liq jarayonlarni innovatsion boshqaruvga yo'naltirish iqtisodiyotning tarmoq va sohalari taraqqiyotiga mustahkam asos yaratadi.

Mazkur jarayonning tizimli tahlil qilish va istiqbolli yo'nalishlar doirasida tegishli prognozlarni amalga oshirish bugungi kun iqtisodiyoti oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanganligi sababli, soha faoliyatini chuqurroq o'rganishga qaratilgan ilmiy-metodik adabiyotlar yaratishga bo'lgan talab ortib boradi.

So'nggi yillarda ta'lim sohasida yetakchi tajribaga ega bo'lgan ko'plab mamlakatlar tajribasi ta'lim sifatini oshirishda ta'lim oluvchining talabiga nisbatan yondashuv jarayoni kuchayib borayotganligini ko'rsatmoqda. Ushbu tajribaning eng muhim jihati ta'lim sifatining tizimli shaklda, iste'molchining fan va uning turli sohalaridagi bilim va tajribasini ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning o'zgaruvchan sharoitlarida samarali qo'llay olishlariga imkoniyat yaratadi. Mazkur holat nazariy va amaliy hayot uyg'unligini hosil qilishning eng murakkab shakli hisoblanadi. Shu sababli, ta'lim tizimida ushbu holatga o'ziga xos prinsipial yondashuvni tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

5A230102 – Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) mutaxassisligida ta'lim olayotgan magistrantlar uchun “Korxonalar iqtisodiyoti va innovatsiyalarni boshqarish” fanidan tayyorlangan ushbu darslikda iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish sharoitida korxonalar faoliyatini tashkil etish, raqobatbardoshligini oshirish, ishlab

¹ *Sh.M.Mirziyoyev*. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017-yil 14-yanvar. – T.: O'zbekiston, 2017. 45-bet

chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmadagi loyihalarni amalga oshirishga qaratilgan aktiv investitsiya siyosatini olib borish, sanoatni yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini, iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobatbardosh muhitni shakllantirish, ichki va tashqi bozorlarda milliy tovarlarning raqobatbardoshligini ta'minlashga yo'naltirilgan investitsion loyihalarni amalga oshirish yo'llari tizimli tadqiq etilgan.

Darslikdagi ma'lumotlar talabalarning ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda olgan bilimlarini mustahkamlash, fanni chuqur o'rganishga, materiallarni yozma va og'zaki tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi. Kitobxonlar e'tiboriga havola etilayotgan ushbu darslik Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimi o'quv yurtlarining iqtisodiy fakultetlarida bilim oluvchi talabalar va o'quvchilar, sanoat korxonasini boshqarish, rejalashtirish va bashoratlash, tashkil etish sohaslarida xizmat qilayotgan mutaxassislar ham foydalanishlari mumkin.

Mualliflar jamoasi darslikning mazmuni, mavzular doirasida ko'tarilgan muammolarning uslubiy bayoni, nazariy ma'lumotlar sharhi, nazariy ma'lumotlarga kitobxon diqqatini yo'naltirish uchun tanlangan metodlar foydalanish yo'llari bilan bog'liq har qanday taklif va tanqidiy mulohazalarni samimiy qabul qilgan holda o'z minnatdorliklarini izhor qiladi va keyingi o'quv adabiyotlarini tayyorlash jarayonlarida hisobga oladi.

I BO'LIM. KORXONA IQTISODIYOTINING UMUMIY ASOSLARI

I BOB. KORXONA IQTISODIYOTI VA INNOVATSIYALARNI BOSHQARISH KURSINING MAZMUNI VA VAZIFASI

Mazkur bobda "Korxonalar iqtisodiyoti va innovatsiyalarni boshqarish" fanining o'rganish obyekti va predmeti, vazifalari, uslubiyoti, turli iqtisodiy tizimlar sharoitida korxonalar faoliyatini tashkil etish masalalari, bozor iqtisodiyoti va bozor modeli, uning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq jarayonlar to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

1.1. "Korxonalar iqtisodiyoti va innovatsiyalarni boshqarish" fanining o'rganish obyekti va predmeti

"Korxonalar iqtisodiyoti va innovatsiyalarni boshqarish" fani boshqa iqtisodiy fanlar qatori birinchi o'rinda o'rganish funksiyasini bajaradi. Ushbu fan mahsulot ishlab chiqarish moddiy-texnik resurslarni safarbar qilish, xodimlar mehnatiga haq to'lash va ular mehnat faoliyatini rag'batlantirishning boshqa shakllari, daromad hajmi va xarajatlar miqdorini, bahoni shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan jarayonlardagi o'rnini tadqiq etadi. Shuningdek, korxonalar faoliyatini tahlil qilishda oddiy tarzda konstansiya qilishda emas, balki korxonalar iqtisodiy hayotining mohiyatini, ularning iqtisodiy ahvolini yaxshilash yo'llarini tanlash, baholash va tahlil qilish orqali ular faoliyatiga innovatsiyalarni jalb etishni prognozlashtirish va modellashtirish bilan bog'liq jarayonlarni tizimli tartibda o'rganadi.

Mazkur fanning **tadqiqot obyekti** turli mulk shaklidagi kichik va yirik korxonalar hisoblanadi. Hozirgi kunda iqtisodiy faoliyatda moddiy ishlab chiqarishning joriy va istiqbolli rivojlanish strategiyasi hamda

innovatsiyalarni tashkil etish va boshqarish bilan bog'liq holatning asosiy og'irligi aynan korxonalar zimmasiga yuklatilmoqda.

Bugungi kunda korxonalarni iqtisodiyotning asosiy bir bo'g'ini ekanligi hisobga olinsa, malakali kadrlarning samarali boshqaruvi-menejmentini tashkil etish, mavjud resurslardan oqilona foydalanish va zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanish masalalarini ijobiy hal etish innovatsion jarayonlarga borib taqaladi.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning yuqori sifat ko'rsatkichlarini saqlagan holda xarajatlarni minimallashtirish va foydani maksimallashtirish jarayonida innovatsion omillardan samarali foydalanish korxonaning asosiy iqtisodiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Fanning **predmeti** bozor munosabatlari sharoitlarida korxonalar faoliyatining nazariy va amaliy asoslari, korxonalar faoliyatida iqtisodiy qonuniyatlarning namoyon bo'lishi, shuningdek, ularning ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyati samaradorligini resurslardan oqilona foydalanish, ratsional boshqaruv orqali, investitsion va innovatsion faolligini oshirish yo'llarini aniqlash bilan ifodalanadi.

Fanning **predmetini** tashkil qiluvchi eng asosiy muammo va masalalar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

– bozor munosabatlarida korxonaning xatti-harakatlarini innovatsion jarayonlar bilan o'zaro aloqadorligi;

– korxonaning tashkiliy strukturasi va boshqaruv mexanizmlarini innovatsion omillardan samarali foydalanish darajasiga bog'liqligi;

– ishlab chiqarishni rejalashtirish va prognozlashtirishdagi o'rnini baholash;

– korxonaning innovatsion va investitsion faolligini oshirish orqali resurs salohiyatidan foydalanish jarayonlarini maqbullashtirish;

– korxonalarni ishlab chiqarish samaradorligini baholashda innovatsion omillardan foydalanish jarayonlarini tahlil qilish;

– innovatsion boshqaruv jarayonlarini tashkil etish orqali korxonalar tijorat siri va iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashni tartiblash.

Fanning **maqsadi** talabalarga korxonalar faoliyatiga daxldor amaliy iqtisodiy bilimlarni, korxonalar iqtisodiyoti innovatsion jarayonlarni boshqarishdagi muammoli masalalar bo'yicha tegishli qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Shuningdek, bo'lajak iqtisodchi mutaxassislarni ishlab chiqarishni tashkil qilish, rejalashtirish, boshqarish vazifalarini malakali tarzda hal qilish, korxonalarda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning innovatsion imkoniyatlari

mavjud bo'lgan yo'llarini shakllantirishga doir bilim va malakani shakllantirishga xizmat qiladi.

1.2. Fanni o'rganish uslubiyoti va usullari

Korxonada xo'jalik mexanizmi ko'p qirrali va murakkab jarayon hisoblanadi. Xo'jalik mexanizmi korxonada faoliyatida ro'y berayotgan iqtisodiy hodisalar va jarayonlarga baho berish, ularni rejalashtirish va tashkil etish yo'llarini aniqlash imkoniyatini beradi.

Barcha iqtisodiy fanlar qatori fanni o'rganishning falsafiy asosi va umumiy bilish quroli sifatida *dialektik usul* ishlatiladi. Shu bilan birga bilish jarayonining rivojlanishini ta'minlashda ilmiy fikr yuritishning umumiy usullari ham keng qo'llaniladi. Ular qatoriga induksiya, deduksiya, analiz (tahlil) va sintez kabilari kiradi.

Dialektika grekcha "dialektike" so'zidan olingan bo'lib, tabiat va jamiyat rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini o'rganish usuli sifatida vujudga kelgan, ya'ni fanning jamiyat tafakkurini yuksaltirishdagi o'rni asoslashga xizmat qiladi.

Induksiya lotincha "induction" so'zidan olingan bo'lib, xabar olish ma'nosini bildiradi. U fikr yuritishni tadqiq qilish usuli hisoblanadi. Induksiya tadqiqot qilishda, xulosalarni asoslashda xususiylikdan, ayni voqelikdan umumiylikka o'tish usulidir. Iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishda umumiy nazariy bilimga ega bo'lish uchun uning alohida tomonlari, empirik asosda o'rganilib, xulosa qilinadi.

Deduksiya lotincha "deduction" so'zidan olingan bo'lib, "chiqarish" ma'nosini bildiradi. Deduksiya ham induksiya kabi fikr yuritishni tadqiq qilish usuli bo'lib, induksiya usulining teskarisini ifoda etadi. Deduksiya usuli qo'llanilganda umumiylikdan xususiylikka qarab fikr yuritiladi va tadqiqot olib boriladi.

Analiz (tahlil) va sintez grekcha "analysis" va "synthesis" so'zlaridan olingan bo'lib analiz – bo'lish, ajratish va sintez – muvofiqlik, munosiblik ma'nolarini bildiradi.

Analiz va sintez tadqiqot usullari sifatida umumiy mazmuni yaxlitlikni alohida tarkibiy bo'limlarga ajratish va yaxlitlikni alohida tarkibiy bo'limlardan yaratish jarayoni uchun xizmat qiladi. Korxonalarga doir iqtisodiy adabiyotlarda bu kabi qator usullardan keng foydalaniladi.

“Korxonalar iqtisodiyoti va innovatsiyalarni boshqarish” ilmiy fan sifatida yuqorida keltirilgan o‘rganish usullaridan va boshqa fanlarda ishlatiladigan ko‘plab usullardan ham keng foydalanadi. Bu usullar korxonalarda iqtisodiy jarayon va hodisalarni tahlil qilish, ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish, prognozlash va rejalashtirish quroli sifatida ishlatiladi. Shuningdek, son va sifat tahlili, solishtirish, kuzatish, tajribasinov o‘tkazish, tizimli tahlil, modellashtirish, ekstrapolatsiya, interpolatsiya kabi usullar ham keng qo‘llaniladi.

1.3. Fanning boshqa iqtisodiy fanlar bilan aloqasi

Korxonalar faoliyatiga daxldor jarayonlarni tashkil etish va boshqarishga doir bilimlar doimiy ravishda to‘ldirilib va takomillashtirilib borilmasa korxonaning bozor konyunkturasiga moslashuvchanligi pasayib, uning hayotiylik davri qisqarib boradi. Shu sababdan, fan-texnika va iqtisodiyotning rivojlanishi qo‘shimcha bilimlar chegarasini kengaytiradi hamda korxonalar xodimlarining hozirgi kun talablariga javob beruvchi bilim, ko‘nikma va malakaga ega bo‘lishlarini talab qiladi. Ayniqsa innovatsion iqtisodiyotni tashkil etish sharoitida to‘plangan axborotlar, o‘rganilgan atama va kategoriyalar bilan cheklanib qolish yaramaydi. Ularni doimiy ravishda to‘ldirib, fan va xo‘jalik amaliyotining so‘nggi yutuqlari asosida rivojlantirib borish talab etiladi. Olingan bilimlar faqat shu asosdagina amaliyotga joriy etilib, jamiyatning bevosita ishlab chiqarish kuchiga aylanishi uchun xizmat qilishi mumkin.

“Korxonalar iqtisodiyoti va innovatsiyalarni boshqarish” fani boshqa iqtisodiy fanlar jumladan, “Iqtisodiyot nazariyasi”, “Mikro iqtisodiyot”, “Sanoat iqtisodiyoti”, “Korxonalarni rivojlantirish strategiyasi”, “Korxonalarda ishlab chiqarishni tashkil qilish va boshqarish”, “Korxonalar iqtisodiyoti” va “Innovatsion menejment” kabi qator fanlar bilan chambarchas bog‘liq.

“Korxonalar iqtisodiyoti va innovatsiyalarni boshqarish” fani korxonalar faoliyati iqtisodiy rivojlanishining miqdor ko‘rsatkichlarini sifat ko‘rsatkichlaridan ajralmagan holda o‘rganuvchi “Iqtisodiy statistika”, shuningdek, joriy va istiqboldagi ishlab chiqarishni hamda ishlab chiqarish texnologiyalarini rivojlantirishning strategik

yo'nalishlarini tadqiq etuvchi "Korxonalarni rivojlantirish strategiyasi" kabi fanlar bilan ham bog'liq.

Fan-texnika taraqqiyoti sharoitida texnika va texnologiyalarning jadal sur'atlar bilan o'zgarishi nafaqat ishlab chiqarish xususiyatlarida, balki ayirboshlash, taqsimlash va iste'mol natijalarida ham aks etadi. Shu sababli mazkur fanni o'rganish iqtisodiy fanlar tizimida o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Ushbu fanni o'rganishda "Korxonalar xo'jalik faoliyatining tahlili" fani bilan o'zaro aloqasini alohida ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiq. Ushbu fan korxonada ishlab chiqarishning moliyaviy va boshqa jihatlariga baho berish, zaxiralarni aniqlashdan tashqari, bashoratlash yordamida korxonada rivojlanishining istiqbollari aniqlash imkoniyatini beradi. Xorijiy mamlakatlar amaliyotida korxonada, firma va kompaniyalarning ko'pchiligi ishlab chiqarish menejerlari va iqtisodchilarning yuqori kasb malakasi va o'z sohasidagi chuqur bilimlari evaziga muvaffaqiyatlarga erishib, yuqori daromadga va ishlab chiqarish imidjiga ega bo'lib bormoqda. Shu sababli "Korxonada iqtisodiyot va innovatsiyalarni boshqarish" fanini bilishning o'zi kamlik qiladi. Bo'lajak mutaxassislarining iqtisodiy fikrlash doirasini kengaytirish va ularning xalq xo'jaligiga doir bilimlarini shakllantirishga xizmat qiladigan boshqa iqtisodiy, texnikaviy hamda texnologik fanlar majmuasini ham bilish talab qilinadi.

1.4. Iqtisodiy tizimlarning turli modellari

Har bir davrda va makonda amal qilayotgan iqtisodiy munosabatlar – iqtisodiyotni tashkil qilish shakllari, xo'jalik mexanizmi va iqtisodiy muassasalar bilan birgalikda iqtisodiy tizimni tashkil qiladi.

Iqtisodiyot nazariyasida iqtisodiy tizim tushunchasini ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi bilan bog'lab turkumlashga harakat qilinadi. Shu asosda dunyodagi rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy tizimining uchta shakli: an'anaviy iqtisodiyot, ma'muriy buyruqbozlik iqtisodiyoti va bozor iqtisodiyoti tizimlari mavjud.

An'anaviy iqtisodiyot – hozirgi davrda iqtisodiy jihatdan qoloq mamlakat-larda mavjud bo'lib, ularda urf-odatlar, udumlarga, an'analarga asoslangan iqtisodiy jarayonlar amal qiladi. Natural yoki mayda tovar xo'jaligi hukmron bo'ladi. Ishlab chiqarish, ayirboshlash,

daromadlarni taqsimlash oʻrnatiladigan urf-odatlariga asoslangan holda amalga oshiriladi.

Merosxoʻrlik va sulola iqtisodiy munosabatlarda hukmronlik qiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy turgʻunlik aniq oʻz ifodasini topadi. Texnika taraqqiyoti va yangiliklarni joriy qilish jarayoni keskin cheklanadi. Ular anʼanalar bilan ziddiyatli hisoblanganligi sababli ijtimoiy tuzum barqarorligiga xavf tugʻdiradi. Iqtisodiy faoliyatga nisbatan diniy va madaniy tartiblar birlamchi hisoblanadi. Har xil madaniyat va tarixiy oʻtmish, har xil urf-odat va anʼanalar, qarama-qarshi mafkuraviy qarashlarga ega boʻlgan turli jamiyatlar aniq iqtisodiy muammolarni hal qilish uchun turli tartiblardan foydalanadi.

Maʼmuriy-buyruqbozlik iqtisodiyoti – bozor iqtisodiyotiga qarama-qarshi tizim hisoblanadi. Bu tizim amalda barcha moddiy resurslarga ijtimoiy aniqrogʻi davlat mulkchiligining hukmronligi va maʼmuriy organlar tomonidan iqtisodiy qarorlarning markazlashgan tartibda qabul qilinishi bilan xarakterlanadi. Foydalaniladigan resurslarning hajmi, mahsulotlarning tarkibi va taqsimlanishi, ishlab chiqarishni tashkil qilishga doir barcha qarorlar markaziy boshqarish organlari tomonidan qabul qilinadi.

Bozor iqtisodiyoti – iqtisodiy taraqqiyotda muhim bosqich hisoblangan iqtisodiy tizimdir. Ushbu tizim rivojlanish xususiyatiga koʻra ikki bosqichga ega. Birinchisi bosqich erkin raqobatga asoslangan klassik bozor iqtisodiyoti boʻlib, baʼzi adabiyotlarda sof bozor iqtisodiyoti deb nomlanadi. Ikkinchi bosqich hozirgi zamon rivojlangan bozor iqtisodiyoti hisoblanib, aralash bozor iqtisodiyoti tizimi deb ham yuritiladi.

Erkin raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyoti – resurslarga xususiy mulkchilik, iqtisodiy faoliyatda va tadbirkorlikda erkinlik, iqtisodiy jarayonlarni tartiblashda va uygʻunlashtirishda bozor mexanizmidan foydalanish orqali tavsiflanadi. Shuningdek, bozor subyektlari oʻz xulq-atvori va shaxsiy manfaatiga asoslanadi. Har bir iqtisodiy birlik, alohida qabul qilingan qarorlar asosida, oʻzlarining daromadlarini oshirishga intiladi.

Bozor tizimi yordamida alohida qabul qilingan qarorlar uygʻunlashtiriladi. Raqobat sharoitida tovarlar (xizmatlarning) ishlab chiqarilishi, resurslarning taklif qilinishi shuni bildiradiki, har bir mahsulot va resurslarning koʻplab mustaqil harakat qiluvchi xaridor va sotuvchilari mavjud boʻladi. Bu yerda iqtisodiy jarayonlarga davlatning aralashuvi

cheklangan tavsifga ega bo'ladi. Shu sababli davlatning roli, xususiyl mulkni himoya qilish va erkin bozorning amal qilinishini ta'minlashda ishonchli huquqiy tartiblar o'rnatishdan iborat bo'ladi.

Hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti – bozor mexanizmi va rejali iqtisodiyot unsurlarini o'zida mujassamlashtiradi. Mulkchilikning turli shakllari, tadbirkorlikning turli yo'nalishlari mavjud bo'ladi. Shuningdek, rejalashtirish, prognozlash, aholini sotsial himoyalash bilan bog'liq chora-tadbirlarni amalga oshirishda davlat ishtiroki kengayib boradi. Masalan, AQSH iqtisodiyoti hozirgi davrda oldingi erkin bozor iqtisodiyotidan sezilarli tarzda farq qiladi. Bu farqlar quyidagilar orqali namoyon bo'ladi:

- birinchidan, mulkning bir qismi davlat qo'lida bo'lib, u iqtisodiyotda faol rol o'ynaydi. Bu iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlash uchun sharoit yaratishda, bozor tizimi yetarli darajada ishlab chiqarmaydigan yoki umuman yetkazib bermaydigan ayrim tovarlar va xizmatlar bilan ta'minlashda, daromadlar taqsimlanishini o'zgartirish kabi holatlar orqali namoyon bo'ladi.

- ikkinchidan, erkin raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyotidan farqli ravishda AQSH iqtisodiyotida yirik korporatsiyalar va kuchli kasaba uyushmalari shaklidagi qudratli iqtisodiy tashkilotlar mavjud. Bu yerda, shuni alohida ta'kidlash lozimki, xususiyl mulkchilik va bozor tizimiga suyanish, ijtimoiyl mulkchilik va markazdan rejalashtirish har doim ham bir vaqtda mavjud bo'lmasligi mumkin.

- Masalan, Germaniya iqtisodiyoti avtoritar kapitalizm deb atalgan bir vaqtda mulkchilik xususiyl bo'lib qolsada, mamlakat iqtisodiyoti qattiq nazorat ostiga olingan va markazdan boshqarilgan. Buning teskarisi, bozor sotsializmi deb atalgan sobiq sotsialistik Yugoslaviya iqtisodiyotida resurslarga ijtimoiyl mulkchilik xos bo'lgan va bir vaqtda iqtisodiy faoliyatni tashkil qilish va boshqarishda erkin bozor asosida olib borilgan.

Shvetsiya iqtisodiyotida ham 90 foizdan ortiq xo'jalik faoliyati xususiyl firmalarda to'plangan bo'lsada, davlat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va daromadlarni qayta taqsimlashda ishtirok etadi.

Hozirgi vaqtda Xitoy Xalq Respublikasida davlatning markazlashgan holda iqtisodiyotga aralashuvi va rejalashtirish tizimi saqlanib qolgan holda bozor mexanizmlari muvaffaqiyat bilan qo'llanilib, barqaror va tez o'sish sur'atlari ta'minlanmoqda.

1.5. Bozor iqtisodiyoti va bozor modeli

Bozor iqtisodiyotining mohiyati uning asosiy belgilarida namoyon bo'ladi:

Bozor iqtisodiyotining eng muhim belgilari:

1. Iqtisodiy erkinlik, mulkchilikning turli shakllari va xo'jalik yuritish shakllarining ko'pligi bilan belgilanadi. Mulkdorlar faoliyati erkin bo'lib, mulkchilikning yagona shakliga ustunlik berilmaydi. Xo'jalik yuritish yakka tartibda, jamoaga uyushib sherikchilik, paychilik, aksionerlik asosida, o'z mablag'iga yoki qarzga olgan mablag' hisobiga xo'jalik yuritish yer va boshqa vositalarni ijaraga olish hamda ishlatish birgalikda olib boriladi. Erkinlik mulkdorlarni ishlab chiqarish omillariga, yaratilgan tovarlarga egalik qilishiga o'z tovarini, pulini o'z bilganicha ishlatish uchun imkoniyat yaratib beradi. Har bir korxonada, tashkilot, fuqaro o'ziga ma'qul ish bilan ixtiyoriy ravishda shug'ullanadi. Foydasini ham, zararini ham o'zi ko'radi. Ishlab chiqaruvchilarning aloqalari bozor orqali bir-biri bilan bog'lanadi.

2. Bozor iqtisodiyotida tovar taqchilligi bo'lmaydi. Bozorda sotuvchi bilan xaridor bir-birini erkin tanlaydi. Bozorda ishlab chiqaruvchi emas, balki iste'molchi o'z hukmini o'tkazadi. Tovar va xizmatlarning sifatiga va narxiga qarab, tanlab olish imkoniyati paydo bo'ladi.

3. Bozorda narxlar erkin tashkil topadi. Narxni yuqoridan davlat belgilab bermaydi, u bozorda talab va taklif asosida, xaridor bilan sotuvchining shartlashuvi, savdolashuvi asosida yuz beradi. Bozorda kelishilgan narx shakllanadi. Narx pul bilan o'lchanadi. Pulsiz bozor bo'lmaydi. Pul bozor iqtisodiy munosabatlarining asosini tashkil etadi. Pulning aylanishi, emissiyasi, valuta kursi bozordagi vaziyatni ko'rsatib turadi.

4. Bozor iqtisodiyotida raqobat asosiy o'rin egallaydi. U ishlab chiqaruvchilarning alohidalashgan manfaatlarini aks ettiradi. Manfaatlarda raqobat kurashi asosida jamiyat uchun zarur tovarlarni, ishlab chiqarishni talab etadi. Raqobat resurslarni kam sarflab ulardan samarali foydalanib, sifatli tovarlar ishlab chiqarishga undaydi. Shuning uchun raqobat bozor iqtisodiyotining harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi.

5. Bozor iqtisodiyoti manfaatlar uyg'unlashuvidan iborat. Bozordagi har bir subyekt o'z manfaati uchun ishlaydi. Shuningdek, har bir subyekt bozor bilan hisoblashishga majbur, aks holda uning ishi

yurishmaydi, daromad olmaydi, xonavayron bo'ladi. Ishlab chiqaruvchiga va xaridorga nima kerakligini bozordagi narx aniqlab beradi.

6. Bozor iqtisodiyoti ijtimoiy kafolatlar, adolat qoidalariga asoslanadi. Resurslarning miqdori va samarasiga qarab ishlab chiqish, tovarlar hamda xizmatlarni taqsimlash va shunga mos daromadga ega bo'lish, yuqori farovonlik darajasiga erishish adolatli hisoblanadi. Bu hammani teng qilish emas, balki jamiyatni tabaqalanishini anglatadi. Iqtisodiy subyektlar mehnatiga, ishbilarmonligiga va mulkiga qarab bir-biridan farqlanadi. Shu tufayli ularni daromadi, turmush darajasi va jamiyatdagi mavqei bir xil bo'lmaydi.

7. Bozor iqtisodiyoti ishlab chiqarish faoliyatini rag'batlantiruvchi kuchga aylantiradi. U moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarni zarur tovarlar hamda xizmatlar ishlab chiqarishga qaratadi. Behuda mehnat va resurs sarfini amalga oshirganlarni jazolaydi.

8. Bozor iqtisodiyoti moslashuvchan iqtisodiyot. U har qanday o'zgarishlarga hozirjavob, bozorda nima yetishmasa, uni tezda ishlab chiqarishga kirishadi. Shu bilan birga fan-texnika yangiliklarini tezda qabul qiladi. Yangi texnologiyani va ishlab chiqarishni boshqarishning keng ko'lamli usullarini joriy etadi. Bozor iqtisodiyoti tovarlar va xizmatlar to'kinchiligini ta'minlaydi. Tovarlarini tanlab olgan holda ehtiyojni qondirish imkoniyati yaratiladi.

Bozor iqtisodiyotining boshqa iqtisodiy tizimlar kabi o'z rivojlanish qonunlari mavjud bo'lib, ular ikki guruhga bo'linadi:

a) umumiiqtisodiy, lekin bozor iqtisodiyotiga asoslangan umumiiqtisodiy qonunlarga amal qilish. (mehnat unumdorligini oshirish, vaqtni tejash, ishlab chiqarish munosabatlarini ishlab chiqarish kuchlarining o'sishiga mos kelishi va boshqalar).

b) bozor iqtisodiyotining o'ziga xos bo'lgan qonunlar (qiymat qonuni, talab va taklif; pul muomalasi qonuni).

Bozor iqtisodiyoti iqtisodiyotni jadal rivojlantiruvchi uchta omilni yuzaga keltiradi:

1) iqtisodiy faoliyat erkinligi bu ishbilarmonlik, uddaburonlik uchun imkoniyat yaratish;

2) raqobat, kim o'zdi qoidasini yuzaga keltirish, yangilikni joriy etishga undash, texnika – texnologiya, mehnat unumdorligi va ish

sifatini oshirish, qattiq mehnat intizomini joriy etish kabi eng zarur bo'lgan omillarni yuzaga keltirish;

3) daromadlarning cheklanmasligi – qo'shimcha daromad topishga intilishni kuchaytiradi.

Bozor iqtisodiyotini uchta asosiy rivojlantiruvchi kuchi mavjud:

- talab va taklif;

- raqobat kurashi;

- narx.

Shunday qilib, bozor iqtisodiyoti, iqtisodiyotni tashkil etish, faoliyat ko'rsatish, tartibga solish va boshqarishning murakkab shakli bo'lib, tovar – pul munosabatlariga asoslanadi. Ishlab chiqaruvchilar bilan iste'molchilar o'rtasidagi aloqalar, shuningdek, o'zaro hamkorlik aloqalari faqat bozor orqali yuzaga keladi.

Bozor iqtisodiyoti erkin iqtisodiy faoliyatga asoslangan tovar munosabatlari yaxlitligini, har bir insonga o'z faoliyati natijasini o'ylab, oqilona xo'jalik yuritishni rag'batlantiruvchi demokratik iqtisodiyotni vujudga keltiradi.

Tayanch iboralar

Korxonada iqtisodiyoti, prognozlash va modellashtirish, bozor modeli, bozor munosabatlari, moslashuvchan iqtisodiyot, ishlab chiqarish kuchlari, iqtisodiy faoliyat erkinligi, an'anviy iqtisodiyot, ma'muriy buyruqbozlik iqtisodiyoti, erkin iqtisodiy faoliyat, innovatsion jarayonlar, istiqbolli rivojlanish strategiyasi, innovatsion faollik, investitsion faollik.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. "Korxonada iqtisodiyoti va innovatsiyalarni boshqarish" fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.

2. Iqtisodiy fanlar tizimida "Korxonada iqtisodiyoti va innovatsiyalarni boshqarish" fani qanday o'rin tutadi?

3. Ishlab chiqarish korxonalarini bozorning xo'jalik yurituvchi boshqa subyektlaridan qaysi xususiyatlari bilan farqlanadi?

4. Korxonaning bozor va ishlab chiqarish aloqalarini yoritib bering.

5. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar faoliyatining asosiy maqsadi nimalardan iborat?

6. Korxonalarda iqtisodiy faoliyati bilan shug'ullanuvchi zamonaviy mutaxassislar qanday xislatlarga ega bo'lishi talab etiladi?

7. "Korxonada iqtisodiyoti va innovatsiyalarni boshqarish" fani "Mikroiqtisodiyot" va "Makroiqtisodiyot", "Sanoat iqtisodiyoti" fanlaridan nimasi bilan farqlanadi?



II BOB. KORXONA – MUSTAQIL XO‘JALIK YURITUVCHI BOZOR SUBYEKTI

Ushbu bobda milliy iqtisodiyotni rivojlanishida korxonalarining o‘rni, korxonalarining funktsiya va vazifalari, korxonalarni tasniflash, mamlakatimizda iqtisodiy o‘rni ta’minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining o‘rni, korxonalar tuzilmasi va uni belgilovchi omillar bilan bog‘liq ma’lumotlar berilgan.

2.1. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida milliy iqtisodiyotni rivojlanishi va aholi bandligini ta’minlashda korxonaning o‘rni va roli

Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotini liberallashtirish orqali uni mustahkamlashga yo‘naltirilgan bozor munosabatlariga o‘tishning strategik modeli ishlab chiqilgan bo‘lib, ushbu model asosini iqtisodiyotni isloh qilishning besh tamoyili hamda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning erkinligi, xususiy mulkchilik va tadbirkorlikni himoya qiluvchi qonunchilik tizimi tashkil etadi. Bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarning samarali natijasi albatta korxonalar faoliyatiga bog‘liq bo‘lib, ishlab chiqarish munosabatlariga nisbatan talab etilgan samarali yondashuv iqtisodiy islohotlarning tub mazmun-mohiyatini ifoda etadi.

Korxonalar iqtisodiyotning rivojlanishi uchun talab qilinuvchi qator vazifalarni amalga oshirilishda xususan, iqtisodiyotning asosiy ishlab chiqarish-ning asosiy bo‘g‘ini bo‘lish bilan birga, mahsulot ishlab chiqarish va turli maishiy xizmatlar ko‘rsatish orqali aholining mavjud talablarini qondiradilar. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmi va assortimenti, mahsulot va xizmatlarga erkin bahoni shakllantirish, mavjud resurslardan samarali foydalanish, yuqori texnika va texnologiya orqali ishlab chiqarishni sifat bosqichiga chiqarishda qator vazifalar-ning amaliy ijrosi korxonalar ijrosi korxonalar faoliyatiga bog‘liqdir.

Korxonalar faoliyati milliy iqtisodiyot va uning tarmoqlariga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi. Bozor iqtisodiyoti korxonalar

faoliyatini erkinlashtiradi. Ular faoliyatini erkinlashtirish orqali mustaqilligini ta'minlaydi. Ishlab chiqarishni samarali tashkil etish va rentabellikning yuqori ko'rsatkichlariga erishishlari uchun keng imkoniyatlar yaratib beradi. Zamonaviy korxonalarining ko'p qirrali faoliyati yuqorida sanab o'tilgan yo'nalishlar bilan cheklanib qolmaydi. Amaliyotda ular fan-texnika taraqqiyoti va davlat tomonidan amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatning yangi talablari bilan to'ldirilishi mumkin.


Hozirgi kunda korxonaning ijtimoiy faoliyati va sha'ni o'zaro bog'liq bo'lgan bir paytda biznesning ijtimoiy mas'uliyat masalasi birinchi o'ringa chiqqan. Agar korxonalar o'z xodimlarini ijtimoiy kafolatlar bilan ta'minlagan va realizatsiya qilinayotgan tovar va xizmatlar sifati va xavfsizligini kafolatlagan holda ijtimoiy dasturlarga mablag' kiritisa, istiqbolda korxonalar qulay ijtimoiy muhitga, oqibatda esa barqaror moliyaviy-iqtisodiy holatga erishadi. Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra O'zbekistonda 2018-yilning 1-yanvar holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni 300,2 mingtaga yetdi, shundan faoliyat ko'rsatayotganlari soni 285,5 mingtani yoki jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning 95,1 foizini tashkil qildi. Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Toshkent shahrida (20,8 foiz), Toshkent (10,2 foiz), Farg'ona va Andijon (8,7 foiz) viloyatlari hissalariga to'g'ri keladi. Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 22,1 foiz savdoda, 17,2 foiz sanoatda, 8,5 foiz qurulishda, 7,4 foiz qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 6 foizi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 4,2 foizi tashish va saqlash, 2,2 foiz axborot va aloqa, 2,0 foiz sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 30,4 foiz boshqa faoliyat sohalariga to'g'ri keladi¹.

Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotgan subyektlarning ulushi 95,1 foizni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 4,9 foizni tashkil etgan (2.1-rasm).

Bandlik muammosining hal qilinishi iqtisodiy o'sishning bosh omili hisoblanganligi sababli, yangi ish o'rinlarini yaratishda tez o'sib boruvchi korxonalar muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Bunday tez o'suvchi korxonalar (high-growth enterprises) va "g'izol" (gazelle)

¹ www.stat.uz- O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy axborot sayti ma'lumotlari

atamasi 1980-yillarda amerikalik iqtisodchi Devid Berch tomonidan kiritilgan. Tez o'suvchi korxonalar yuqori darajada izchil va barqaror o'sishga ega bo'lib, ular boshlang'ich 100 ming AQSH doll. savdo aylanmasini oxirgi 3 yil ichida yiliga 20 foizdan kam bo'lmagan miqdorda o'sishga erishadilar. Bunday korxonalar uzoq davrda tez va yuqori sur'atda o'sib boradi².



2.1-rasm. 2017–2018-yillarda korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonidan faoliyat ko'rsatayotgan va faoliyatsizlar ulushi (foizda)³

Aholi bandligini ta'minlash mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy omillaridan hisoblanganligi sababli, bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotida aholi bandligini ta'minlashda korxonalar ulushini oshirish borasida quyidagi vazifalarni amalga oshirish yuqori e'tibor berilmoqda:

- tez o'suvchi korxonalarni aniqlash metodologiyasi asosida iqtisodiyotda faoliyat yuritayotgan "g'izol" korxonalarni aniqlash;
- tez o'suvchi korxonalar faoliyatini rag'batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish;
- korxonalar o'sishi, natijada esa yangi ish o'rinlari yaratilishining asosiy omili sifatida korxonalarda innovatsion faoliyatga katta e'tibor

² <http://www.oecd-ilibrary.org/economics/eurostat-oecd-manual-on-businessdemography-statistics>

³ www.stat.uz. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy axborot sayti ma'lumotlari

qaratish va yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarish turlarini kengaytirish.

2.2. Korxonalar majburiyatlarining iqtisodiy mohiyati va uning tarkibiy tuzilishi

Bozor iqtisodiyoti korxonalar faoliyatini erkinlashtiradi, ularning mustaqilligini mustahkamlaydi hamda ishlab chiqarishni tashkil etish va rentabellikning yuqori ko'rsatkichlariga erishishga keng imkoniyatlar yaratadi, deb hisoblanadi. Balki haqiqatan ham shundaydir. Biroq korxonalar, ayniqsa, davlatga tegishli bo'lgan korxonalar qanday ishlashi, uning jamiyatga keltiruvchi foydasi, rentabellik darajasi, xodimlarning bandligi qanday bo'lishi faqat korxonalarining emas, davlatning ham ko'z oldida bo'lishi zarur.

Xuddi shuning uchun ham davlat korxonalariga katta imkoniyatlar yaratib berish bilan birga ularni belgilangan tartibda nazorat qilib ham boradi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, bozor iqtisodiyoti sharoitlarida barcha korxonalar ham raqobatchilikni yengib, samarali ishlab keta olmaydi hamda daromad yoki foyda olmaydi. Natijada minglab korxonalar tashkil qilinib, xo'jalik faoliyati doirasiga qo'shiladi va deyarli shunchasi turli sabablarga ko'ra tugatiladi.

Zamonaviy korxonalar – mustaqil xo'jalik yurituvchi subyektlar bo'lib, korxonalar *mulkdorlik shakliga* ko'ra, davlat va nodavlat, *tarmoq belgilariga* ko'ra, mashinasozlik, energetika, metallurgiya, neft va gaz sanoati, qurilish kompleksi, oziq-ovqat, yengil sanoat, savdo va hokozolar, *ishlab chiqarish miqyosi va xodimlar soniga* ko'ra, yirik, o'rta va kichik, *faoliyat yuritish muddatiga* ko'ra, uzluksiz, mavsumiy va uzlukli korxonalar bo'linadi. Biroq ushbu belgilardan qat'i nazar, deyarli har bir korxonalar **Nizom** asosida faoliyat yuritadi. Nizomda korxonaning nomi, manzilgohi, yuqori turuvchi organi va bu organing nomi, Nizom jamg'armasi, bank muassasalaridagi rekvizitlari, korxonalar rahbariyatining lavozimlari, rahbar shaxslarning majburiyatlari, tuzilmaviy bo'linmalar ro'yxati, hisobot tartibi va hokozolar ko'rsatilgan bo'ladi.

Agar Nizomda korxonaning tashkiliy-huquqiy funksiyalari belgilangan bo'lsa, uning ishlab chiqarish va iqtisodiy faoliyati tarkibiga asosiy va aylanma fondlar, pul mablag'lari va boshqa aktivlar kiruvchi **Nizom jamg'armasiga** tayanadi.

Nizom jamg'armasi qonunga asosan korxonani tashkil qilish jarayonida muassislar-davlat, huquqiy va jismoniy shaxslar tomonidan shakllantiriladi. Korxonani rivojlanishi va ishlab chiqarishning kengayib borishi, daromad hajmi va boshqa moliyaviy tushumlarning ortishi natijasida Nizom jamg'armasi ko'paytirilishi mumkin. Umuman olganda, Nizom jamg'armasi korxonaning iqtisodiy barqarorligi va moliyaviy jihatdan baquvvatligini aks ettiradi.

Korxonani turli belgilariga ko'ra tavsiflash mumkin:

- *ishlab-chiqarish va texnika munosabatlarida korxonani* – bu, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmi va turlari, ularni tayyorlash texnologiyasiga miqdor va sifat jihatidan mos keluvchi mashinalar tizimi;

- *ijtimoiy munosabatlarda korxonani* – bu, turli kategoriyadagi xodimlar o'rtasida ularning huquq va majburiyatlari asosida yuzaga keluvchi munosabatlar;

- *tashkiliy-huquqiy munosabatlarda korxonani* huquqiy shaxs sifatida faoliyat yuritadi;

- *moliyaviy-iqtisodiy munosabatlarda korxonani* – bu, tarmoqning mustaqil bo'lg'ini bo'lib, o'z-o'zini moliya bilan ta'minlash, o'z-o'zini boshqarish, ya'ni bozor munosabatlari tamoyillarida faoliyat yuritadi.

Korxonani o'ziga xos bo'lgan ma'lum xususiyatlarga ega:

- *birinchidan*, korxonani o'ziga tegishli va xo'jalik boshqaruvidagi xususiy mulkka ega bo'lib, ushbu mulk uning faoliyati moddiy-texnikaviy imkoniyatlarini, iqtisodiy mustaqilligi va ishonchligini ta'minlaydi;

- *ikkinchidan*, korxonani kreditorlar, jumladan, davlat bilan o'zaro munosabatlardagi majburiyatlar yuzasidan o'z mulki bilan javob berish xususiyatiga ega bo'ladi;

- *uchinchidan*, korxonani xo'jalik aylanmasida o'z nomidan harakat qilishi mumkin, ya'ni qonunga asosan xo'jalik faoliyati yurituvchi hamkorlar, mahsulot (ish, xizmat) iste'molchilari, xomashyo va asbob-uskuna yetkazib beruvchilar hamda boshqa huquqiy va jismoniy shaxslar bilan shartnoma tuzish huquqiga ega;

- *to'rtinchidan*, korxonani qonunchilikka asosan sudda da'vogar va javobgar sifatida qatnashish huquqiga ega;

- *beshinchidan*, korxonani mustaqil balans yoki smetaga ega bo'lib, ishlab chiqarish va mahsulot savdosi xarajatlarini hisobga olib boradi

hamda davlat organlari tomonidan belgilangan tartibda o'z vaqtida hisobotlarni taqdim etadi;

-*oltinchidan*, korxonaga o'z nomiga ega bo'lib, unda korxonaning tashkiliy-huquqiy shakli o'z aksini topadi.

Korxonaning ishlab chiqarish sohasidagi faoliyati – yangi mahsulotni ishlab chiqarishga tayyorlash va ishlab chiqarishni tashkillashtirishda namoyon bo'ladi. Qayta ishlab chiqarish sohasidagi faoliyat - ishchi kuchini yollash, kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish, ishlab chiqarish vositalarini yangilash va kengaytirish jarayonlarida aks etadi. Muomala sohasidagi faoliyat esa ishlab chiqarishning moddiy-texnika ta'minotini tashkillashtirish, mahsulot (ish, xizmat)larni sotish va foydalanilgan ishlab chiqarish vositalarining daromad shaklida qaytib kelishida ko'zga ko'rinadi.

Korxonalarni ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida tadqiq etishda uni tashkil qiluvchi ikkita tarkibiy qism - tizimning o'zi(korxonaga) va ushbu tizim faoliyat yurituvchi tashqi muhitni ko'rib chiqish lozim. Korxonaning ichki muhiti ishlab chiqarish vositalari, pul mablag'lari, axborotlar va inson resurslaridan tashkil topadi. Ichki muhitning o'zaro aloqalari natijasida tayyor mahsulot paydo bo'ladi, ishlar bajariladi va xizmat ko'rsatiladi, ya'ni to'g'ri yo'lga qo'yilgan ishlab chiqarish va mehnatga haq to'lash faoliyati yuzaga keladi. Korxonalarning tashqi muhit bilan aloqasi ularning tashqi tizimga chiqishida ro'y berib (resurslarni jalb qilish, ularning qiymatini aniqlash, xomashyo, material va yoqilg'ining o'z vaqtida yetkazib turilishi va hokazo), tashqi muhitga ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar oqimi yordamida ta'sir ko'rsatish jarayonida namoyon bo'ladi. Korxonalar faoliyati samaradorligini aniqlab beruvchi tashqi muhit – bu, birinchi o'rinda mahsulot iste'molchilari, xomashyo va boshqa material yetkazib beruvchilar, shuningdek davlat organlari hamda korxonaga yaqin joyda yashovchi aholi hisoblanadi.

Bozor munosabatlari sharoitida korxonalar faoliyatining asosiy yo'nalishlari quyidagilar hisoblanadi:

-bozor va uning rivojlanish istiqbollari kompleks ravishda o'rganish yordamida, xaridorlarning mahsulot va xizmat turlariga mavjud va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan talablarini aniqlash;

-mahsulotning yangi modellari va namunalarini yaratish bo'yicha ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil qilish;

-xaridorlar talablariga mos keluvchi tovarlarni ishlab chiqarish;

-ishlab chiqarishni rejalashtirish, dasturlash, muvofiqlashtirish va moliyalashtirish;

-mahsulotni taqsimlash va sotish tizimini tashkil qilish va uni mukammallashtirish;

-korxonaning barcha faoliyatini, jumladan, ishlab chiqarish, sotish, reklama, texnik xizmat ko'rsatish va hokazolarni boshqarish.

Korxonalarining eng muhim xususiyatlari ularning qaysi tarmoqqa qarashliligi; hajmi; ishlab chiqarishning turli jabhalarini qamrab olganligi; ixtisoslashtirish darajasi va bir turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish miqyosi; ishlab chiqarishni tashkillashtirish usuli hamda uni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish; tashkiliy-huquqiy shakllarini prognozlashtirishga bog'liq bo'ladi.

Qaysi tarmoqqa qarashliligiga ko'ra korxonalar ishlab chiqarish va noishlab chiqarish (mashinasozlik, ko'mir qazib chiqarish, sug'urta va hokazo) sohalariga mansub bo'lishi mumkin.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulot turi va ko'rinishiga ko'ra, korxonalar sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, moliya-kredit va boshqalarga bo'linadi.

Texnologik umumiyligiga ko'ra, korxonalar ishlab chiqarish jarayonini uzluksiz va diskret ravishda, kimyoviy yoki mexanik jarayonlarning ustunligi asosida yurituvchilarga bo'linadi.

Tayyor mahsulotning maqsadlariga ko'ra, barcha korxonalar ikkita katta guruhga bo'linadi: ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqaruvchilar va iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar.


Foydalaniluvchi xomashyo turiga ko'ra, sanoat korxonalari qazib chiqaruvchi va qayta ishlovchi korxonalariga taqsimlanadi.

Yil davomida ishlash muddatiga ko'ra, korxonalar mavsumiy va yil bo'yi faoliyat yurituvchilarga bo'linadi.

Hajmiga ko'ra, korxonalar yirik, o'rta va kichik korxonalariga taqsimlanadi. Har bir ishlab chiqarish korxonasi ishlab chiqarish bo'linmalari, boshqaruv organlari va korxonada xodimlariga xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlardan iborat bo'ladi. Tuzilma (struktura) tushunchasini korxonaning tarkibi, tuzilishi sifatida ko'rib chiqish mumkin. Korxonada qanchalik yirik bo'lsa, uning ishlab chiqarish tuzilmasi shunchalik murakkab bo'ladi. Sanoat korxonalarining umumiy va ishlab chiqarish tuzilmalari mavjud. Ishlab chiqarish bo'g'inlari, korxonada boshqaruvi hamda xodimlarga xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar, ularning miqdori, kattaligi va egallab turgan maydoni, xodimlarining

soni va ishlab chiqarish imkoniyatlari *korxonaning umumiy tuzilmasini* ifodalaydi.

Korxonalarining moliyaviy holatini ifodalovchi muhim ko'rsatkichlardan biri bu korxonalarining majburiyatlari hisoblanadi. Korxonalarining majburiyatlari korxonalar balansining passiv bo'limlar qismida joylashgan.



2.2.1-rasm. Korxonalar buxgalteriya balansining tarkibiy tuzilishi

Korxonalar mulki va mablag'larining kelib chiqish manbalari balansning passivida ko'rsatiladi. Bular o'ziga qarashli va chetdan jalb qilingan manbalarga ajratiladi. Jalb qilingan manbalarga bank kreditlari va kreditorlik qarzlari kiradi. Passiv ham xuddi balansning aktiv qismi singari ikkita bo'limdan iborat. Ya'ni balans passivining birinchi bo'limi – "O'z mablag'lari manbalari" deb nomlanib, bunda ustav kapitali, qo'shilgan kapital, rezerv kapital, taqsimlanmagan foyda yoki qoplanmagan zarar, maqsadli tushum va fondlar kelgusi davr sarflari va to'lovlari uchun rezervlar, kelgusi davr daromadlari aks ettiriladi. Passivning "Ustav kapitali" bandida xo'jalik faoliyatini yuritish uchun ajratilgan mablag'lari ko'rsatiladi. Hissadorlik jamiyatlarida esa har bir qatnashchining qo'shgan hissasi ustav fondida ko'rsatiladi. Dividend sifatida taqsimlanmagan sof foyda hajmi ham qo'shilgan hissaga qarab aniqlanadi. Demak ustav fondi bozor iqtisodiyoti sharoitida yuridik shaxs sifatida korxonaning o'ziga tegishli mablag'i va aksionerlarning qo'shgan hissasidan iborat bo'ladi. Har bir qatnashchi shaxsiy hissasiga qarab korxonaning xo'jalik va moliyaviy faoliyatiga aralashadi. Hamkorlikdagi, hissadorlik, qo'shma va kichik korxonalarining nizom jamg'armasi hajmi qo'shgan badallar miqdoriga bog'liq bo'ladi.

2.3. Korxonaning ichki va tashqi muhiti.

Korxonaning ishlab chiqarish va bozor munosabatlari

Har bir korxonaning faoliyati ishlab chiqarish, qayta ishlab chiqarish va muomala jarayonlaridan iborat bo'ladi. Korxonaning ishlab chiqarish sohasidagi faoliyati - yangi mahsulotni ishlab chiqarishga tayyorlash va ishlab chiqarishni tashkillashtirishda namoyon bo'ladi. Qayta ishlab chiqarish sohasidagi faoliyat - ishchi kuchini yollash, kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish, ishlab chiqarish vositalarini yangilash va kengaytirish jarayonlarida aks etadi. Muomala sohasidagi faoliyat esa ishlab chiqarishning moddiy-texnika ta'minotini tashkillashtirish, mahsulot (ish, xizmat)larni sotish va foydalanilgan ishlab chiqarish vositalarining daromad shaklida qaytib kelishida ko'zga ko'rinadi.

Korxonalarni ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida tadqiq etishda uni tashkil qiluvchi ikkita tarkibiy qism - tizimning o'zi (korxonona) va ushbu tizim faoliyat yurituvchi tashqi muhitni ko'rib chiqish lozim. Korxonaning ichki muhiti ishlab chiqarish vositalari, pul mablag'lari, axborotlar va inson resurslaridan tashkil topadi.

Ichki muhitning o'zaro aloqalari natijasida tayyor mahsulot paydo bo'ladi, ishlar bajariladi va xizmat ko'rsatiladi, ya'ni to'g'ri yo'lga qo'yilgan ishlab chiqarish va mehnatga haq to'lash faoliyati yuzaga keladi.

Korxonalarining tashqi muhit bilan aloqasi ularning tashqi tizimga chiqishida ro'y berib (resurslarni jalb qilish, ularning qiymatini aniqlash, xomashyo, material va yoqilg'ining o'z vaqtida yetkazib turilishi va hokazo), tashqi muhitga ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar oqimi yordamida ta'sir ko'rsatish jarayonida namoyon bo'ladi.

Korxonalar faoliyati samaradorligini aniqlab beruvchi tashqi muhit - bu, birinchi o'rinda mahsulot iste'molchilari, xomashyo va boshqa material yetkazib beruvchilar, shuningdek davlat organlari hamda korxonaga yaqin joyda yashovchi aholi hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida korxonalar faoliyatining asosiy yo'nalishlari quyidagilar hisoblanadi:

-bozor va uning rivojlanish istiqbollarini kompleks ravishda o'rganish yordamida, xaridorlarning mahsulot va xizmat turlariga mavjud va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan talablarini aniqlash;

- mahsulotning yangi modellari va namunalarini yaratish bo'yicha ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil qilish;
 - xaridorlar talablariga mos keluvchi tovarlarni ishlab chiqarish;
 - ishlab chiqarishni rejalashtirish, dasturlash, muvofiqlashtirish va moliyalash-tirish;
 - mahsulotni taqsimlash va sotish tizimini tashkil qilish va uni mukam-mallashtirish;
 - korxonaning barcha faoliyatini, jumladan, ishlab chiqarish, sotish, reklama, texnik xizmat ko'rsatish va hokazolarni boshqarish.
- Xo'jalik faoliyatining joriy va istiqboldagi vazifalarini bajarish korxonalaridan quyidagi funksiyalarni amalga oshirishni talab qiladi:
- ishlab chiqarish va shaxsiy iste'mol uchun mahsulotlarni tayyorlash;
 - mahsulotlarni iste'molchilarga yetkazib berish va sotish;
 - sotuvdan keyin xizmat ko'rsatish;
 - ishlab chiqarishning moddiy-texnika asosini ta'minlash;
 - xodimlar mehnatini tashkil qilish va boshqarish;
 - soliqlarni to'lash, budjetga to'lanuvchi ixtiyoriy yoki majburiy badal va to'lovlarni amalga oshirish ;
 - amaldagi standartlar, normativlar va davlat tomonidan chiqarilgan qonun-qoidalarga rioya qilish.

Korxonalarining hajmi, qaysi tarmoqqa mansubligi, ijtimoiy infratuzilmaning mavjudligi, mahalliy hokimiyat idoralari bilan munosabatlarga asoslanib aniqlashtiriladi.

Bugungi bozor iqtisodiyoti va fan-texnika taraqqiyoti korxonalarining amalga oshiruvchi funksiyalarini kengaytirishi hamda ularning faoliyatidagi ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini yanada yaxshilash uchun yangi vazifalar belgilab berishi mumkin.

2.4. Xo'jalik yuritishning zamonaviy bozor tizimi tomonidan korxonaga faoliyatiga qo'yiladigan talablar

Albatta, zamonaviy korxonalarining ko'p qirrali faoliyati yuqorida sanab o'tilgan yo'nalishlar bilangina cheklanib qolmaydi. Amaliyotda ular fan-texnika taraqqiyoti va davlat tomonidan amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatning yangi talablari bilan to'ldirilishi mumkin.

Biroq, yuqorida aytib o'tilganlardan qat'i nazar, xo'jalik rivojlani-
shining har bir bosqichida korxonalar faoliyati quyidagi vazifalarni
bajarishga qaratilishi zarur:

- korxonaga egasining daromad olishi;
- iste'molchilarni ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar bilan ta'minlash;
- xodimlarni ish haqi bilan ta'minlash;
- korxonaga yaqin joylarda yashovchi aholi uchun ish joylari yaratish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish;
- korxonaga faoliyatida to'xtab qolishga yo'l qo'ymaslik;
- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish shakllarini mukammal-lashtirish;
- ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida tejamkorlikka rioya qilish.

Xo'jalik faoliyatining joriy va istiqboldagi vazifalarini bajarish korxonalardan quyidagi funksiyalarni amalga oshirishni talab qiladi:

- ishlab chiqarish va shaxsiy iste'mol uchun mahsulotlarni tayyorlash;
- mahsulotlarni iste'molchilarga yetkazib berish va sotish;
- sotuvdan keyin xizmat ko'rsatish;
- ishlab chiqarishning moddiy-texnika asosini ta'minlash;
- xodimlar mehnatini tashkil qilish va boshqarish;
- soliqlarni to'lash, budjetga to'lanuvchi ixtiyoriy yoki majburiy to'lovlarni amalga oshirish ;
- amaldagi standartlar, normativlar va davlat tomonidan chiqarilgan qonun-qoidalarga rioya qilish.

Tayanch iboralar

Bozor munosabatlari, milliy iqtisodiyot, tez o'suvchi korxonaga, mulkchilik shakllari, ishlab chiqarish miqyosi, kreditor korxonaga, korxonaga ichki muhiti, korxonaga tashqi muhiti, mahsulotni taqsimlash, ustav fondi, majburiy to'lovlar.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Milliy iqtisodiyotni rivojlanishi va aholi bandligini ta'minlashda korxonaning rolini baholang.
2. Korxonalarining mustaqilligi va mas'uliyati nimalardan iborat?
3. Bozor munosabatlari sharoitida davlat va korxonalar o'rtasidagi munosabatlarga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
4. Korxonalar faoliyatining erkinligi va cheklanishlarini izohlab bering.
5. Korxonaning ichki va tashqi muhiti ishlab chiqarish va bozor munosabatlariga qanday ta'sir ko'rsatadi?
6. Xo'jalik yuritishning zamonaviy bozor tizimida korxonalar faoliyatiga qanday talablar qo'yiladi?

III BOB. KORXONANI TASHKIL ETISH VA FAOLIYATINI TO'XTATISH

Mazkur bobda bozor munosabatlari sharoitida korxonalar faoliyatini tashkil qilishni tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar, korxonalar faoliyatini tashkil etish bosqichlari, qonunchilik tizimida korxonalarni davlat ro'yxatidan o'tkazish shartlari bilan bog'liq jarayonlar to'g'risida ma'lumotlar berilgan bo'lib, korxonalarni tugatishning huquqiy shartlari, sanatsiya davlat, bank yoki boshqa muassasalar tomonidan bankrot bo'lishning oldini olish va raqobatbardoshlik darajasini oshirish yo'nalishlari bilan bog'liq holatlar tizimli tartibda tadqiq etilgan.

3.1. Korxonani tashkil etishning huquqiy asoslari va tamoyillari

O'zbekiston Respublikasining "Korxonalar to'g'risida"gi qonuniga asosan, korxonalar mulk egasi yoki u tayinlagan vakillik organi, mehnat jamoasi yoki muassislar guruhining qarori bo'yicha belgilangan qonun-qoidalarga asosan tashkil qilinishi mumkin. Shuningdek, korxonalar agar korxonalar mulki egasi yoki u tayinlagan vakillik organining roziligi bo'lsa, faoliyat yuritayotgan korxonalar tarkibidan bir yoki bir nechta tarkibiy bo'linmalarni, ushbu bo'linmalarning mehnat jamoalari tashabbusiga ko'ra, ajratib chiqarish natijasida ham tashkil etilishi mumkin.

Korxonalar joriy va hisob-kitob raqamlari ochish va ular to'g'risidagi holatlarni tasdiqlash huquqiga ega bo'lgan, mustaqil huquqiy shaxs maqomidagi sho'ba korxonalari, filiallar, vakolatxonalar, bo'lim va bo'linmalarni tashkil qilishi mumkin. Korxonalar qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan tartibda mahsus davlat organlarida ro'yxatga olingan kundan boshlab tashkil qilingan hisoblanadi va huquqiy shaxs maqomiga ega bo'ladi.

Iqtisodiyotning jadal rivojlanishi va ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi faoliyat yuritayotgan korxonalardan tashqari, yangi korxonalarni

tashkil qilish va ishga tushirishga asoslanadi. Bunday qadam iqtisodiy jihatdan maqbullikka, resurslar imkoniyati va korxonalar mahsulotlariga bo'lgan talabga asoslanadi. Biron-bir mahsulotning taqchilligi yoki umuman yo'q bo'lishi ham, yangi korxonalar faoliyatini tashkil qilishga sabab bo'lishi mumkin.

Yangi korxonalar tashkil qilish quyidagi tamoyillar asosida amalga oshiriladi:

- korxonalar tashkil qilish fikrining paydo bo'lishi;
- korxonalar muassislari tanlash;
- taklif qilinayotgan mahsulotga bozor talabini o'rganish;
- korxonalar Nizom jamg'armasini tuzish uchun moliya manbalarini aniqlash va shakllantirish;
- korxonalar ta'sis hujjatlari va biznes-rejasini tayyorlash;
- davlat ro'yxatidan o'tkazish;
- muhr, shtamp va boshqa rekvizitlarni tayyorlash;
- soliq idoralari ro'yxatidan o'tish.

Korxonalar tashkil qilishdan tashqari, uning moliyaviy barqarorligi va samarali faoliyatini ta'minlash, bozor munosabatlari va raqobatchilik sharoitlarida juda muhimdir. Amaliyotdan olingan xulosalarga ko'ra, bu qoidalarga rioya qilmaslik natijasida korxonalar tashkil qilishga ketgan barcha sa'y-harakatlar o'zini oqlamaydi hamda ijtimoiy ishlab chiqarish rivojlanishining mikro va makroiqtisodiy ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni moliyaviy jihatdan barqaror bo'lmagan korxonalar endi tashkil qilingan yoki faoliyat yuritayotganligidan qat'i nazar, bankrotlik holatiga tushib qolishi mumkin.

Yangi tashkil etilgan korxonalar faoliyatidan quyidagi maqsadlar ko'zlanadi:

- iste'molchilar talab qilayotgan mahsulotlarni ishlab chiqarishni ko'paytirish va uni sotishdan foyda olish;
- ishlab chiqarishda band bo'lmagan aholini jalb qilish va shu orqali ish bilan ta'minlashdagi ijtimoiy muammolarni hal qilish;
- ishlab chiqarishga mavjud qo'shimcha resurslarni jalb qilish;
- fan-texnika yutuqlaridan foydalangan holda yangi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish;
- yakka tarzda yoki hamkorlikda faoliyat yuritish uchun kichik korxonalar (o'rtoqchilik kabi) tashkil qiluvchi alohida fuqarolar yoki shaxslar guruhi a'zolarining shaxsiy ehtiyojlarini qondirish;

– ishlab chiqarishni mustahkamlash va rivojlantirish orqali bozor faoliyatini kengaytirish.

3.2. Korxonani tashkil etishning zaruriy ta'asis hujjatlari

Ta'asis hujjatlarini tayyorlash korxonani tashkil etish va keyingi faoliyat yuritish jarayonidagi muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Ta'asis hujjatlari faoliyat yurituvchi korxonalarining huquq va majburiyatlarini hamda sharoitlarini ifodalaydi.

Korxonalar faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlarida ikki xil ta'asis hujjatlari belgilab berilgan:

- korxonani Nizomi;
- ta'asis shartnomasi.

Amaliyotda korxonani faqat Nizom yoki faqat ta'asis shartnomasi asosida, shuningdek, bir vaqtning o'zida Nizom va ta'asis shartnomasiga muvofiq holda faoliyat yuritish hollari mavjud. Shuni qayd qilib o'tish kerakki, korxonaning ta'asis shartnomasi kelishuv asosida tuziladi. Korxonani Nizomni esa muassislar tomonidan tasdiqlanadi. Bitta ta'asischi tomonidan tuzilgan huquqiy shaxs shu ta'asischi tomonidan tasdiqlangan Nizom asosida faoliyat olib boradi.

Korxonani Nizomni asosiy ta'asis hujjati hisoblanib, unda korxonaning tashkiliy-huquqiy shakli, nomi, manzili, huquq va majburiyatlari aks etadi. Shuningdek, Nizomning jamg'armasining miqdori, daromadlarining tarkibi va taqsimlanish tartibi hamda korxonani fondlarini tashkil qilish tartibi, korxonani tugatish va qayta tashkil qilish tartibi ko'rsatilishi shart. Boshqacha qilib aytganda, korxonani Nizomni uning huquqiy maqomini va majburiyatlarini belgilab beradi.

Shuningdek, Nizomda korxonani faoliyat ko'rsatuvchi soha va tarmoq, atrof-muhit va odamlar sog'lig'ini muhofaza qilish kafolati, boshqaruv shakli, hisobga olish va hisobot tizimi ham aks ettirilishi lozim. Korxonani to'g'ri va to'liq tayyorlangan Nizom asosida mahalliy hokimiyat organlari tomonidan ro'yxatga olinadi, keyin esa o'z muhri bilan ega bo'lish va bankda hisobraqami ochish huquqini qo'lga kiritadi. O'z muhri va hisobraqamiga ega bo'lmagan korxonani, huquqiy shaxs hisoblanmaydi va mustaqil korxonalar qatoriga kiritilmaydi.

Ta'asis shartnomasi korxonani tashkil qilinishi va yakka tarzda yoki hamkorlikdagi faoliyatining boshlanishini tavsiflovchi hujjat hisob-

lanadi. U shuningdek, tashkil etilayotgan korxonaning Nizomini to'ldiruvchi hujjatdir. Ta'sis shartnomasida korxonani tashkil qilish tartibi, daromad va xarajatlarni qatnashchilar o'rtasida taqsimlash shartlari, korxonani tashkilotchilari tarkibidan chiqish shartlari belgilab qo'yiladi.

Ta'sis shartnomasi asosida ko'pincha kichik korxonalar, xo'jalik birlashmalari kabi subyektlar faoliyat yuritadi. Masalan, korxonaning ta'sis shartnomasida boshqaruv faqat barcha ishtirokchilarning roziligi bilangina emas, balki qaror ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinishi mumkinligini ham belgilab qo'yish mumkin. Biroq ta'sis shartnomasida ishtirokchilar ovozini aniqlashning boshqa tartibi ham ko'rsatib o'tiladi. To'liq o'rtoqchilik korxonalarining daromad va xarajatlari agar shartnomada boshqa tartib ko'rsatilmagan bo'lsa, ishtirokchilar o'rtasida ularning umumiy kapitaldagi ulushiga mos ravishda taqsimlanishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Korxonani mulkini shakllantirish va undan foydalanish Nizom va ta'sis shartnomasining muhim qismi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining "Korxonalar to'g'risida"gi qonuniga asosan quyidagilar korxonani mulkini shakllantirishning manbalari hisoblanadi:

- muassislarning pul va moddiy ko'rinishdagi badallari;
- mahsulot (ish, xizmat) sotishdan va boshqa turdagi faoliyatdan olingan daromadlar;
- qimmatbaho qog'ozlardan olingan daromadlar;
- banklar va boshqa kreditorlardan olingan kreditlar;
- budjetdan olinuvchi mablag'lar, kapital qo'yilmalar;
- korxonani, tashkilot va fuqarolarning beg'araz va xayriya badallari, shuningdek, almashish, meros va sovg'a tariqasida olinuvchi mulk;
- qonun bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Davlat korxonalarining mulkiy huquqlarini kafolatlaydi. Davlatning korxonalar mulkini (asosiy fondlar, aylanma mablag'lar va hokazo) tortib olishiga yo'l qo'yilmaydi, qonunchilikda ko'zda tutilgan hollar bundan mustasno.

3.3. Korxonani davlat tomonidan ro'yxatga olinishi

Yuqorida aytib o'tilganidek, korxonani joylashgan manzilgohi bo'yicha davlat organlarida ro'yxatga olingan kundan boshlab tashkil

qilingan hisoblanadi. Bu vazifani asosan hokimiyatlar bajarib, ular korxonani ro'yxatga olish to'g'risidagi ma'lumotlarni 10 kun mobaynida Moliya Vazirligiga yagona davlat reyestriga kiritish uchun taqdim etishlari shart.

Davlat ro'yxatidan o'tish uchun korxonani tashkil qilish to'g'risidagi qaror, korxonani Nizomi (ta'sis shartnomasi) va Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilab beriluvchi ro'yxatdagi boshqa hujjatlar taqdim etiladi.

Korxonani davlat tomonidan ro'yxatga olish zarur hujjatlar ilova qilingan ariza berilgan kundan boshlab 30 kun mobaynida amalga oshirilish lozim. Korxonalarni ro'yxatga olishdan, ularni tashkil qilish maqsadga muvofiq emas, degan sabab bilan bosh tortishga yo'l qo'yilmaydi.

Agar korxonani ro'yxatga olish o'z vaqtida amalga oshirilmasa yoki ta'sischi ro'yxatga olinmaslik sabablarini asossiz deb hisoblagan taqdirda ta'sischi sudga murojaat qilishi mumkin. Korxonani ro'yxatga olishdan asossiz ravishda bosh tortish mahalliy hokimiyat organlarining moddiy javobgarlikka tortilishiga olib kelishi mumkin.

Korxonani ro'yxatga olish uchun quyidagi hujjatlar talab qilanadi:

1. Korxonani ro'yxatga olish to'g'risidagi ariza.
2. Ta'sis shartnomasi yoki korxonani tashkil qilish to'g'risidagi qaror.

3. Korxonani Nizomi.

4. Ta'sis shartnomasi yoki korxonani tashkil qilish to'g'risidagi qarorda ko'rsatilgan Nizom jamg'armasining kamida 50 foiz miqdoridagi qismi to'langanligini tasdiqlovchi hujjatlar.

5. Davlat bojini to'langanlik haqida guvohnoma.

6. Monopoliyaga qarshi muassasaning korxonani tashkil qilishga roziligini tasdiqlovchi hujjat.

7. Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvatlash qo'mitasi yoki uning quyi idoralari roziligi haqidagi hujjat.

Ro'yxatga olish korxonaga kelib tushuvchi hujjatlarni qayd qilish kitobida tartib raqami berish orqali amalga oshiriladi. Ko'rsatilgan jarayonlar amalga oshirilgach, korxonani joylashgan manzilgohi bo'yicha soliq idoralarida hisobda turishi va buni tasdiqlovchi hujjat olishi hamda bankda hisobraqami ochishi mumkin.

Korxonani ro'yxatga olishda ularni tashkil qilish maqsadga muvofiq emas, degan sabab bilan bosh tortishga yo'l qo'yilmaydi. Agar

korxonani ro'yxatga olish o'z vaqtida amalga oshirilmasa yoki ta'sischi ro'yxatga olinmaslik sabablarini asossiz deb hisoblagan taqdirda sudga murojaat qilishi mumkin. Korxonani ro'yxatga olishdan asossiz ravishda bosh tortish mahalliy hokimiyat organlarining moddiy javobgarlikka tortilishiga olib kelishi mumkin.

3.4. Korxonani tugatish va qayta tashkil qilish

Korxonani faoliyatini to'xtatish uni tugatish yoki qayta tashkil qilish shaklida amalga oshirilishi mumkin. Ishlab chiqarishning barqaror emasligi, moliyaviy qiyinchiliklar, surunkali zarar ko'rish va to'lov qobiliyatining yo'qolishini korxonalarni tugatish yoki qayta tashkil qilishga asosiy sabab qilib ko'rsatish mumkin.

Korxonani qayta tashkil qilish – bu uning birlashib ketishi, qo'shilishi, bo'linishi, ajralib chiqish va shaklini o'zgartirishi degani. Korxonani qayta tashkil qilish ta'sischi (ta'sischi) yoki korxonani boshqaruvi qaroriga muvofiq amalga oshiriladi. Qayta tashkil qilish korxonaning ishlab chiqarish ko'rsatkichlari, moliyaviy va iqtisodiy ko'rsatkichlari avvalgiga nisbatan yaxshilanishiga xizmat qilishi lozim.

Korxonani tugatish huquqiy xatti-harakat bo'lib, ishlab chiqarish va xo'jalik yuritish faoliyatining to'xtatilishini anglatadi. Korxonani tugatilganda u davlat ro'yxatidan chiqariladi, uning bankdagi hisobraqami yopiladi hamda muhr, shtamp va boshqa rekvizitlari haqiqiy emas deb hisoblanadi.

Korxonani tugatishga quyidagilar sabab bo'lishi mumkin:

- ishlab chiqarilayotgan mahsulot (ish, xizmat)ga bo'lgan talabning pasayib ketishi yoki unuman yo'qolishi;
- ishlab chiqarishning zarar keltirishi;
- ishlab chiqarishning atrof-muhit hamda aholi hayotiga xavf tug'dirishi;
- korxonaning bino va inshootlari, asbob-uskunalari va boshqa vositalaridan iqtisodiy jihatdan unumliroq, yanada sifatli va iste'molchilar talabiga javob beruvchi mahsulotlar ishlab chiqarishda foydalanish imkoniyatining yuzaga kelishi.

Korxonani tugatishda tugatish komissiyasi tuzilib, unga kreditorlarga korxonani tugatilganini xabar qilish, kreditorlarni aniqlash va debitorlik qarzini undirish choralarini ko'rish, shuningdek, korxonaning

tugatilishi sababli ishsiz qolgan xodimlar ish bilan ta'minlanishiga yordamlashish vazifasi yuklanadi. Korxonani tugatish jarayonida oraliq tugatish balansi tuzilib, unga tugatilayotgan korxonaning mulki, kreditorlarning talablari va ularni ko'rib chiqish natijalari ro'yxati kiritilishi lozim. Ushbu balans korxonaning ta'sischisi (ta'sischilari) yoki korxonani tugatish to'g'risida qaror chiqargan idora tomonidan tasdiqlanadi. Tugatish komissiyasi uning aybi bilan keltirilgan zarar uchun javobgar hisoblanadi.

Tayanch iboralar

Tashkil qilish tamoyillari, korxonalar mulki, sho'ba korxonalari, vakolat-xonalar, huquqiy shaxs maqomi, korxonalar Nizomi, ta'sis shartnomasi, korxonalar mulkini shakllantirish, korxonalar davlat tomonidan ro'yxatga olinishi, korxonani qayta tashkil qilish, korxonani tugatish, tugatish komissiyasi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Yangi korxonalar tashkil qilish asosida nimalar yotadi?
2. Qaysi omillar yangi korxonalar tashkil qilish zaruriyatini asoslab beradi?
3. Yangi korxonalar tashkil qilishdan maqsad nima?
4. Korxonalar tashkil qilishning asosiy tamoyillarini sanab o'ting.
5. Korxonalar qachondan boshlab tashkil qilingan deb hisoblanishi mumkin?
6. Korxonalar Nizomi nimani anglatadi?
7. Ta'sis shartnomasi nimani anglatadi?
8. Korxonani tugatishga nima sabab bo'ladi?
9. Korxonani qayta tashkil qilishdan maqsad nima va u qanday amalga oshiriladi?
10. Korxonalar bankrotligining asosiy sabablarini sanab o'ting.
11. Korxonani moliyaviy jihatdan sog'lomlashtirish nimani anglatadi?

IV BOB. KORXONANI BOSHQARISH

Mazkur bobda bozor munosabatlarining rivojlanishi sharoitida xo'jalik yuritishning yangi shakl va usullari, ishlab chiqarishni boshqarishni subyektlar va organlar tomonidan odamlar va iqtisodiy obyektlarga boshqaruvning maqsad va vazifalarini belgilash, boshqaruvning optimal tashkiliy-strukturasini yaratish, boshqaruv qarorlarini bajarish ustidan nazorat yuritishda boshqaruvni rejalashtirish, tashkilashtirish va muvofiqlashtirish bilan bog'liq jarayonlar tadqiq etilgan.

4.1. Boshqaruv korxonada faoliyatidagi obyektiv zarurat

Boshqaruv jamiyat munosabatlarining muhim ko'rsatkichi sifatida jamiyat hayotining barcha jabhalariga tegishlidir. U insonning jamiyatdagi mohiyati, mehnati taqsimoti, kooperatsiya va muomala zarurati, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy munosabatlardan kelib chiqadi. Boshqaruvsiz tabiatni o'zgartirish, mehnat qurollari va predmetlarini yagona ishlab chiqarish jarayonida birlashtirishga yo'naltirilgan faoliyat yuritishning iloji yo'q. Boshqacha qilib aytganda, boshqaruv ishlab chiqarishning barcha qatnashchilari va elementlari o'rtasida kelishuvni yo'lga qo'yib, yuzaga kelgan munosabatlarning mazmuni va me'yorini tartibga soladi hamda resurslardan foydalanishning samarali yo'llarini topishga o'z hissasini qo'shadi. Boshqaruvning mohiyati va obyektiv zaruriyatini yanada osonroq va tezroq tushunish uchun adabiyotda mashhur bo'lgan misol - orkestr va dirijorga murojaat qilish lozim. Orkestr va dirijorning o'zaro aloqasini ilg'ab olish uchun musiqiy qobiliyat talab qilinmaydi. Konsert tomoshalarida bo'lgan har bir kishi dirijorning sahnada paydo bo'lish chog'ini ko'rgan, albatta. Orkestr tomon o'girilgach, dirijor tayoqchasini ko'taradi va musiqachilar musiqa chalishni boshlaydilar. Shunga o'xshash holat boshqaruvda ham ro'y beradi - yo'lga qo'yilgan tashkilotchilik tizimi boshqaruv komandalari asosida ishlaydi. Bundan kelib chiqqan holda boshqaruv-ijtimoiy mehnat jarayoniga ishlab chiqarish rivojlanishining obyektiv qonunlari asosida yo'naltirilgan tarzda ta'sir o'tkazish tizimi, har bir ishchining va butun

jamoaning mehnatini bir vaqtning o'zida nazorat qilish, motivatsiya va tartibga solish usulidir. Moddiy boyliklar va ne'matlar hamda ularga tenglashtirilgan qadriyatlarni taqsimlash, iste'mol qilish va ayirboshlash ham boshqaruvni talab qiladi.


Hozirgi paytda, iqtisodiy va ilmiy-texnik o'zgarishlar davrida boshqaruv usullari, tamoyillari va texnikasida sezilarli o'zgarishlar ro'y bermoqda. Boshqaruv alohida tizim sifatida tobora ko'proq tajriba almashish sohasi, reklama, ishlab chiqarish vazifalarini tezkor hal qilish vositasi bo'lib bormoqda. Bunga esa boshqaruvni professionalashtirish, biznes va tadbirkorlik maktablari hamda maslahat markazlarining ochilishi sabab bo'lmoqda.

Ma'muriy-buyruqbozlik tizimi borgan sari xo'jalik yuritishning iqtisodiy usullariga asoslangan boshqaruv tizimiga o'rnini bo'shatib bermoqda. Boshqaruvga yondashishdagi zamonaviy usullarning muhim ahamiyati inson omilini faollashtirish, o'z-o'zini boshqarish va tashabbuskorlikni rivojlantirish, bozor iqtisodiyoti talablariga javob beruvchi yangi tashkiliy tuzilmalarni yaratishda namoyon bo'ladi. Ma'lumki, o'z korxonasi yoki sexida, o'z ish yoki xizmat joyining "xo'jayini" bo'lmay turib iqtisodiyotning har tomonlama rivojlanishini talab qilib bo'lmaydi.

Insoniyat hayotida shu narsa isbotlab berilganki, moddiy to'kin-sochinlik o'zidan o'zi paydo bo'lmaydi, uni mehnat faoliyati va oqilona boshqaruv yordamida yuzaga keltirish mumkin. Bu holatni aniq tushunish va unga to'g'ri baho berish zamonaviy menejmentni boshqaruv to'g'risidagi fan sifatida qabul qilishni asoslab beradi. Mehnat taqsimoti va uning ijtimoiy tavsifini kuchaytirishda boshqaruvni, mustaqil faoliyat shaklida alohida ajratib ko'rsatish mumkin. Bundan korxonalar va xalq xo'jaligi miqyosida mahsus boshqaruv tizimlarining vujudga kelishi va faoliyat yuritishiga obyektiv zaruriyat kelib chiqadi. Bunday tizim o'zining gorizontaal va vertikal aloqalari bilan birga fan-texnika taraqqiyoti va ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi, shuningdek, siyosiy kayfiyatlar va ishlab chiqarish munosabatlaridagi o'zgarishlar ta'siri ostida doimiy harakatda va yangilanishda bo'ladi. Shu sababli, boshqaruvni baholash va tahlil qilish jarayonida, biz xalq xo'jaligi rivojlanishining har bir tarixiy bosqichida shakllanuvchi boshqaruv tizimini o'rganamiz.

Boshqaruv tizimi deganda nimani tushunish lozim? Agar jamiyatning butun iqtisodiy tizimini oladigan bo'lsak, uning tarkibiga

kiruvchi ko'plab kichik tizimlarni - tarmoqlar, korxonalar, birlashmalar va hokazolarni ko'rishimiz mumkin. Ularning har birini ikki jihatidan: mustaqil faoliyat yuritish nuqtayi nazaridan yoki butun birlikning tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqish mumkin. Masalan, korxonalar (firma) mustaqil boshqaruv tizimi yoki tarmoqning (ishlab chiqarishning) bo'linmasi, bo'g'ini sifatida faoliyat yuritishi mumkin. Bunga bog'liq bo'lgan holda boshqaruvning tashkiliy tuzilmasi, uning vazifalari va funksiyalari shakllantiriladi. Amaliyotda shu narsa isbot qilinganki, boshqaruvning juda ham yirik tashkiliy strukturasi bozor iqtisodiyotida maqsadga muvofiq bo'lmaydi. U kutilgan natijalarni bermaslikdan tashqari, boshqaruv qarorlarini bajarishda muammolarning yuzaga kelishiga, boshqaruvning yakuniy maqsadini oraliq vazifalar bilan almashib ketish xavfi kuchayishiga olib keladi. O'zaro aloqada va ma'lum jihatdan bir-biriga bo'ysunuvchi bo'lgan boshqaruv obyektlari va subyektlari faoliyatning alohida ko'rinishi sifatida boshqaruvning muhim elementlari hisoblanadi. Bu aloqani quyidagi tarzda rasm orqali ko'rsatish mumkin:



4.1-rasm. Boshqaruv obyekti va subyekting o'zaro aloqasi

Korxonada boshqaruvning ta'siri boshqaruv obyektiga yo'naltirilgan bo'lib, ishlab chiqarish va xo'jalik yuritish jarayonlari, ishlab chiqarish uskunalarni ekspluatatsiya qilish, turli miqyosdagi mehnat kooperatsiyasi va hokazolalar boshqaruv obyekti bo'lishi mumkin. Boshqaruv subyekti esa qoidaga ko'ra, korxonalar rahbari yoki boshqaruv obyektlarini maqsadli ravishda boshqarishni amalga oshiruvchi xizmat rahbarlaridir. Agar yuqorida keltirilgan misolga qaytadigan bo'lsak, orkestr, bu – boshqaruv obyekti, dirijor esa, boshqaruv subyektidir. Boshqaruv obyektlari va subyektlari doimo o'zaro aloqada bo'lib, bunda asosiy o'rin boshqaruv obyektiga, ya'ni boshqaruvchi tizimga ajratiladi.

Boshqaruv obyektining mazmuni, unda yuz berayotgan o'zgarishlar boshqaruv subyektini vazifalari va harakatlarini belgilab beradi. Bu esa boshqaruv shakllari va usullarini mukammallashtirishda aks etadi. Albatta, bu boshqaruv subyektlarining passivligini anglatmaydi, aksincha, boshqaruv tizimining bo'limlari shu boshqaruv tizimining eng faol qismini tashkil etadi va tavsiflaydi.

Aynan boshqaruv subyektini ishlab chiqarish resurslari va asbob-uskunalaridan foydalanish siyosatini belgilaydi, ishlab chiqarish vositalarining ishchi kuchi bilan birlashuviga ko'maklashadi. Ya'ni korxonaning nima, qachon, qayerda, kimga ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan siyosati, birinchi o'rinda boshqaruv subyektini tomonidan hal qilinadi. Shu sababli, boshqaruv obyektlari va subyektlari orasidagi aloqa, jumladan, ularning ichki tashkil qilinishi qanchalik mustahkam bo'lsa, bir xil sharoitlarda ishlab chiqarish hamda boshqaruv tizimining samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi. Boshqaruv faoliyati — boshqaruvchi shaxs yoki organ tomonidan boshqaruv amallarini bevosita va bilvosita komandalar (buyruq, tavsiya va ko'rsatmalar) shaklida ishlab chiqish va amalga oshirishdir.

Boshqaruv amallari ishlab chiqarish jarayonining yakunlanishi uchun moddiy shart-sharoit vazifasini bajaradi.

Aytish mumkinki, boshqaruv amallari boshqaruv faoliyati va natijalari o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in bo'lib xizmat qiladi. Faoliyatning ushbu turi ahamiyati, aynan boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida korxonaning joriy va istiqboldagi siyosati shakllanishida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan kadrlarni to'g'ri tanlash va joylashtirish, ularning malakasi, o'zlariga yuklatilgan vazifalarni to'g'ri tushunishlari ham muhim ahamiyatga egadir. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, hozirgi boshqaruvchilar uchun yaxshi muhandis, texnolog, konstruktor bo'lishning o'zigina kamlik qilib, ishlab chiqarish iqtisodiyoti, biznes-strategiya, marketing, xo'jalik huquqi va shu kabilarni bilish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Faqat ushbu bilimlar majmuasiga va boy mehnat tajribasiga ega bo'lgan taqdirdagina boshqaruvchilar bozor iqtisodiyoti vazifalarini muvaffaqiyatli ravishda bajarishlari mumkin. Shuni ham e'tiborga olish kerakki, boshqaruv faoliyati boshqaruv apparati (organi) tushunchasiga qaraganda keng talqin qilinadi. Boshqaruv faoliyati tarkibiga jamoatchilik tashkilotlaridagi faoliyat, ish joylarida ijodiy tashabbuskorikning yuzaga kelishi hamda ishlab chiqarishda band bo'lgan xodimlarning taklif va

maslahatlarini ham kiritish mumkin. Bu esa boshqaruv faoliyatini, bevosita boshqaruv (korxonada boshqaruv apparatining faoliyati) va o'zini-o'zi boshqarish (boshqaruv faoliyatining jamoatchilik shakli) turlariga ajratilgan holda tasniflash imkonini yaratadi.

Faoliyatning ikkala turi ham amalda birgalikda yuritilib, ularning o'zaro aloqalari ishlab chiqarishni boshqarishning samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ishlab chiqarishning, jumladan, boshqaruv faoliyatining o'zining samaradorligini oshirishda, ishlab chiqarishning alohida elementlari va bo'g'inlari o'rtasida yuzaga keluvchi boshqaruv munosabatlari muhim o'rin egallaydi. Bu yerda boshqaruv organi (subyekti) yoki boshqaruvchi shaxs tomonidan boshqariluv organiga nisbatan ta'sir ko'rsatishning o'zigina kamlik qiladi.

Boshqarilayotgan obyektдан boshqaruv obyektiga javob tariqasida teskari aloqa ham bo'lishi zarur. Agar bunda teskari aloqa bo'lmasa yoki boshqaruv organi tomonidan qabul qilinmasa, boshqarilayotgan obyekt nazorat ostidan chiqishi hamda boshqarilmaydigan obyektga aylanishi mumkin. Bu vazifa amalda boshqaruvning har bir elementi yoki bo'g'ini tomonidan ma'lum bir vazifani bajarishni, ko'zda tutuvchi bir-biriga bo'ysunuvchanlik tizimi yordamida bajariladi. Ya'ni gap korxonada direktori, bosh muhandisi va boshqalardan, to sex boshliqlari va boshqa ishlab chiqarish bo'linmalarining boshliqlarigacha korxonaning boshqaruvchilari yoki mahsus xizmatlariga yuklatiluvchi funksional vazifalar haqida bormoqda. Munosabatlarning bunday ko'rinishdagi bir-biriga bo'ysunuvchanligi boshqaruv tizimining samarali tarzda faoliyat yuritishi uchun muhim shart hisoblanadi. Shu tariqa, boshqaruv tizimi ishlab chiqarish samaradorligiga erishish va korxonaning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlashda muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan bir paytda ishlab chiqarish samaradorligining o'sish sur'ati, qabul qilingan yoki amalga oshirilayotgan boshqaruv tizimi progressivligining o'lchovi xizmatini ham o'taydi. Bundan kelib chiqqan holda, qo'yilgan maqsadga qisqa muddatda va ishlab chiqarish resurslaridan unumli foydalangan holda yaqinlashish darajasini korxonani boshqarish samaradorligining bevosita mezon sifatida ko'rsatish mumkin. Bugungi bozor munosabatlari sharoitida boshqaruv tizimi birinchi o'rinda korxonaning barqarorligini ta'minlashi, xo'jalik tavakkalchiligini kamaytirishi, sifatli va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga ko'maklashishi zarur. Shuningdek, u xodimlarning o'z

mehnatlari natijasiga qiziqish darajasi ortishiga, ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlar va yo'qotishlarga yo'l qo'ymaslikka hamda mehnat va ishlab chiqarish intizomini mustahkamlashga xizmat qilishi lozim. Korxonada yopiq tizim bo'lmaganligi sababli, boshqaruv tizimiga korxonada yuzaga keluvchi ichki muhitdan tashqari, tashqi muhit, avvalo, aholining turmush tarzi, jamiyat qurilmasi, davlat siyosati va hokozolar ta'sir ko'rsatishi mumkin. Biroq har qanday holda ham boshqaruv tizimi, xo'jalik hayotining zamonaviy talablari va korxonaning raqobatchilik muhitidagi barqarorligiga javob berishi lozim.

Korxonada miqyosida va undan tashqarida mavjud ishlab chiqarish va boshqa iqtisodiy jarayonlarni tahlil etish, vaziyatning rivojlanishini oldindan bashoratlash, shu asosda ishlab chiqarish hamda moliyaviy rejalarni tuzish imkonini beradi. Vaziyatni modellashtirish rejalarning ko'p variantlilikini ta'minlaydi va kutilayotgan xatar darajasini kamaytiradi. Korxonada bo'linmalarining o'zaro munosabati va moliyachilar tomonidan ishlab chiqarish hamda moliyaviy reja ko'rsatkichlari hisob-kitoblarni olib borish va baholashlarni muvofiqlashtirish, korxonada barcha tuzilmalari faoliyati natijalarining o'zaro aloqasi va o'zaro bog'liqligini ta'minlaydi.

Moliyaviy boshqarish jarayonida ayrim tuzilmalarning samarali o'zaro munosabatlarini ta'minlash budjetlashtirish tizimini qo'llash orqali amalga oshirilishi mumkin. Mehnatga haq to'lash, moddiy xarajatlar, amortizatsiya, soliqlar, kreditlarni qaytarish va boshqa xarajatlarning yig'ma budjeti nafaqat pul oqimlari harakatlarini tashkil etish imkonini beradi, balki ularni samarali boshqarishni amalga oshirish imkonini ham yaratadi.

Korxonada faoliyatini rejali tashkil etishda uning sof xususiy kapitali va savdoning foydaliligini, bozorda tovarning sotilishi, bozor pozitsiyalarining barqarorligi, samarali kredit siyosati va bozor segmentining kengayishini ta'minlaydigan baho siyosati asosiy o'rinni egallaydi. O'zgaruvchan baho siyosati raqobat pozitsiyalarining mustahkamlanishi va korxonada daromadlarining o'sishiga ko'maklashadi.

Korxonada moliyaviy xizmatining tezkor faoliyati xaridorlar va mol yetkazib beruvchilar bilan hisob-kitoblarni, kelishmovchiliklar yuzaga kelgan hollarda kontragentlar bilan muammoli masalalarni, kassa va boshqa bank operatsiyalarini, qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarini, moliya-kredit rejalashtirish, ilgari qabul qilingan qarorlarning bajarilishi

ustidan nazorat, olingan natijalarni va yuzaga kelayotgan bozor kon'yunkturasini tahlil qilishni o'z ichiga oladi.

Tezkor faoliyat xaridorlarga o'z vaqtida to'lovlar ishonchligini ta'minlaydigan schetlarni taqdim etishi, bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlar uchun mablag'lar olishni ta'minlagani holda, barqaror moliyaviy holatni ham ta'minlashi lozim. Bozor sharoitida pul mablag'larining kattagina qismi muomalada bo'lganda, pul mablag'larining oqib kelishini boshqarish moliyaviy faoliyatda muhim bo'lib qoladi.

Ilgari qabul qilingan boshqaruv qarorlari ustidan muntazam va tezkor nazorat korxonaning samarali ishlashini ta'minlaydi. Yirik korxonalarda bu maqsadlarda mahsus ichki nazorat (audit) xizmati tashkil etilib, u xo'jalik va moliyaviy jarayonlarni kuzatadi. Tahlilning asosiy obyektlari sifatida moliyaviy holat, savdo, daromad va rentabellik rejalarining bajarilishi, asosiy va aylanma fondlarning ishlatilish samaradorligi, kredit va soliq siyosati hisoblanadi. Korxonalar moliyaviy xizmatlarining tahliliy ish faoliyatlari zaxiralarni aniqlash va safarbar etish, xarajatlarni tejash va mavjud bo'lgan barcha resurslarni ishlatish samaradorligini oshirishga qaratilgan. Bunda asosiy e'tibor mahsulotni sotish masalalarini tashkil etishga qaratilgan bo'lib, chunki aynan ular moliyaviy natijani shakllantiradi. Erishilgan natijalarni biznes-reja ko'rsatkichlari bilan solishtirish, tahlil qilish, ilgari belgilangan ko'rsatkichlarni to'g'rilash bo'yicha tadbirlar majmuasini ishlab chiqish imkonini beradi hamda korxonaning barqaror moliyaviy holatini va bozorda o'z pozitsiyalarini saqlab qolishni ta'minlaydi.

Asosiy yo'nalishni korxonaning investitsion faoliyati tashkil etadi. Korxonalar investor sifatida ishtirok etib, yangidan barpo etilayotgan yoki modernizatsiyalashtirilayotgan asosiy fondlar va aylanma vositalarni (kapital mablag'larni) moliyalashtiradi, qimmatli qog'ozlarga qo'yilmalar ajratadi, fond bozorining turli ishlab chiqarish instrumentlariga, maqsadli pul qo'yilmalariga mablag'lar kiritadi, mulkiy huquqlar va intellektual mulk, ilmiy-texnik mahsulot va mulkchilikning boshqa subyektlariga bo'lgan huquqlarni sotib oladi.

Investor – korxonaning investitsion yo'nalishlari, hajmlari, kattalıkları va samaradorligini mustaqil tarzda belgilaydi. Investitsion qarorlarni qabul qilish bozor kon'yunkturasini (avvalambor narxlarning o'zgarishi), inflatsion kutilishlar, siyosiy vaziyat va h.k.larni inobatga olgan holda qabul qilinadi. Ayrim hollarda xatarlarni kamaytirish va

investorga kafolatlarni ta'minlash maqsadida investitsiyalar majburiy sug'urta qilinadi. Menejer tomonidan korxonada moliyaviy faoliyatining asosiy yo'nalishlarini to'g'ri aniqlash yaqin va uzoq kelajakda pul mablag'larining kelib tushish va sarflanish sur'atlarini belgilash qobiliyatini anglatadi. Pul oqimlari muamala jarayonida butun kapitalning aylanishini, moliyaviy resurslarning shakllanishi va samarali ishlatilishini ta'minlaydi.

4.2. Boshqaruvning obyekti va subyekti

Ijtimoiy mehnat taqsimotiga ko'ra boshqaruv: sanoat ishlab chiqarishini, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini, transportni, savdoni va hokazolarni boshqarishga bo'linadi. Hududiy boshqarish darajasiga ko'ra boshqaruv: tuman viloyat, mamlakat miqyosidagi ishlab chiqarishni boshqarish turlariga bo'linadi. Boshqarishga korxonada nuqtaiy nazaridan quyidagicha ta'rif berish mumkin.

Korxonani boshqarish – bu xo'jalik rahbar organlari, korxonada ma'muriyati hamda jamoat tashkilotlarining iqtisodiy va ijtimoiy natijalarga erishishini ko'zda tutgan holda kishilar jamoasiga, ular orqali ishlab chiqarishning moddiy-buyum unsurlariga ularning o'zaro amal qilishini uyushtirish uchun maqsad yo'nalishida tartibli ta'sir ko'rsatishdir. Har qaysi ishlab chiqarish xoh u korxonada darajasida, xoh u mamlakat miqyosida bo'lsin o'zining boshqariluvchisi (obyekti) va boshqaruvchisi (subyekti) ga ega bo'ladi.

Boshqariluvchi yoki boshqaruv obyekti ko'p qirrali ishlab chiqarish jarayoni bo'lib u:

- moddiy va texnikaviy tayyorgarlik (asosiy va aylanma fondlar);
- tashkiliy mehnat tayyorgarligi (kadrlarni tanlash, ishga qabul qilish, joy-joyiga qo'yish, o'qitish va h.k.);
- xizmat ko'rsatishni tashkil qilish (energiya berish, ta'mirlash, tashish va h.k.);
- mahsulot ishlab chiqarishning bevosita jarayoni va uni sotishni tashkil qilishni o'z ichiga oladi.

Boshqaruvchi yoki boshqaruv subyekti – bu bir guruh kishilar hamda boshqaruv organlaridan iborat bo'lib, turli shakllar, usullar va texnikaviy vositalar yordamida boshqariluvchi obyektga ta'sir o'tkazadi. Boshqarish obyektlari bo'lmasa, uning subyektlari ham bo'lmaydi.

Demak, boshqaruvchi ichki tizimning negizida boshqaruvchi kichik tizim yotadi. Masalan: korxonada bo'g'inida subyekt bo'lib, shu korxonaning direktori va unga bo'ysunuvchi butun boshqaruv apparati hisoblanadi. Obyekt bo'lib esa shu korxonadagi barcha sexlar va uchastkalar hisoblanadi.

Sex bo'g'inida subyekt bo'lib, sex boshlig'i va unga bo'ysunuvchi barcha boshqaruv apparati hisoblanadi, boshqariladigan obyektning esa barcha sexlar tashkil qiladi. Uchastka bo'g'inida boshqariluvchi obyektga ishchilarning ish joylari kiradi. Boshqaruv subyekt bo'lib, uchastka boshliqlari hisoblanadi. Ish joylarida ham boshqarish mavjud bo'lib, u boshqa ko'rinishda amalga oshiriladi. Bunday boshqarish mehnat vositalarini, ya'ni buyum boshqarish deyiladi.

4.1-jadval

**Ishlab chiqarishni boshqarishda “obyekt” va
“subyekt” tushunchalari**

Ishlab chiqarish bo'g'inlari	Boshqariluvchi tizim (obyekt)	Boshqariluvchi tizim (subyekt)
Korxonada	- Sexlar, uchastkalar	Direktor va unga bo'ysunuvchi barcha boshqaruv apparati
Sexda	- Uchastkalar	Sex boshlig'i va unga bo'ysunuvchi barcha boshqaruv apparati
Uchastkada	- Ishchilarning ish joylari	Uchastka boshlig'i va unga bo'ysunuvchi barcha boshqaruv apparati
Ish joylarida	- Mehnat vositalari	- Ishchilar, xizmatchilar va boshqa xodimlar

Boshqaruvning har ikkala tizimi o'zaro aloqador bir butunni tashkil qiladi va bir-biriga ta'sir ko'rsatadi. Bir tomondan, boshqaruvchi tizimga ta'sir ko'rsatgan holda uning tarkibini o'zgartiradi, uni muayyan eng qulay va eng muvofiq nisbatga keltiradi. Ikkinchi tomonda esa, boshqariluvchi tizim boshqaruvchi tizimga aks ta'sir ko'rsatadi.

Ishlab chiqarish ikki turdagi boshqarishni tashkil qiladi: buyumni, ya'ni:


- mehnat vositalarini boshqarish;
- odamlar (ishchilar)ni boshqarish.

Buyumni boshqarish uning o'zini ishlab chiqarish jarayonidan iborat. Bu jarayonda ishchilar moddiy boylik olish maqsadida mehnat buyumlariga ta'sir ko'rsatadilar va boshqarish subyektini rolini bajaradilar. Moddiy boylik olish uchun mehnat buyumlariga bevosita ta'sir ko'rsatadigan ishchilar.

- boshqaruvchi tizimda boshqarishning obyektini (odamlarni boshqarish);

- boshqariladigan tizimda boshqarishning subyektini (buyumni boshqarish) sifatida ishtirok etadilar (4.2-rasm).

Ishlab chiqarishni boshqarish – ishchilarni boshqarishdan iborat bo'lib, ular, o'z navbatida, mehnat vositalarini boshqaradilar. Odamlarni boshqarish ishlab chiqarishda ularning munosabatlariga ham ta'sir ko'rsatishdir. Masalan: har bir korxonada sexlararo asosiy va yordamchi sexlar o'rtasida, har bir sexda esa uchastkalararo; o'z navbatida, har qaysi uchastka yoki brigadalarning ishchilari o'rtasida ishlab chiqarish aloqalari va munosabatlari mavjud bo'ladi. Shuningdek, korxonalar boshqa korxonalar bilan mahsulot sotish, ishlab chiqarish vositalari bilan taminlash borasida ham ishlab chiqarish aloqalarini o'rnatadi. Bu munosabatlar kooperatsiya va mehnatni, ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish darajasiga bog'liq.



4.2-rasm. Boshqaruv obyektini va subyektini

Iqtisodiy faoliyat ishlab chiqarishdan boshlanadi. Har qanday ishlab chiqarishda ikki omil shaxsiy insoniy omil va moddiy ashyoviy omil ishtirok etadi. Ishlab chiqarish jarayonida mahsulot yaratiladi va u taqsimot, ayriboshlash orqali iste'mol qilish bilan tugallanadi.

Ishlab chiqarish muhitida boshqarish faoliyatining asosiy maqsadi – bu ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va yuqori foyda olishdir. Foyda olish esa:

- ishlab chiqarish omillaridan foydalanish samaradorligiga;
- investitsiya samaradorligiga;
- mahsulot sifati va uning raqobatbardoshligiga;
- tez va samarali qarorlarning qabul qilinishiga;
- yangi texnika va texnologiyaning joriy qilish darajasi kabi qator omillarga bog'liqdir.

Demak, ishlab chiqarishni boshqarish bevosita, ishlab chiqarish jarayoniga ta'sir qiluvchi tashqi va ichki omillarni boshqarish jarayonlarini o'z ichiga oladi.

- ishchi kuchini boshqarish;
- ishlab chiqarish vositalarini boshqarish;
- texnika va texnologiyani boshqarish;
- ishlab chiqarish samaradorligini boshqarish;
- mahsulot sifatini boshqarish;
- investitsiya samaradorligini boshqarish;
- innovatsion jarayonni boshqarish va boshqa.

Qayd qilingan obyektlarni boshqarish dastlab rejalashtirishdan boshlanib, ishlab chiqarishni tashkil qilish, uni tartibga tushirish, muvofiqlashtirish bilan davom ettirilib, nazorat bilan tugaydi. Bu yerda rag'batlantirish ishlab chiqarishni boshqarishning barcha funksiyalari jarayonida o'z aksini topadi.

4.3. Boshqaruvning tashkiliy tuzilmalari

Agar jamiyatning butun iqtisodiy tizimini oladigan bo'lsak uning tarkibiga kiruvchi ko'plab kichik tizimlarni – tarmoqlar, korxonalar, birlashmalar va hokazolarni ko'rishimiz mumkin. Bularni hammasini o'ziga yarasha boshqaruv tizimi mavjud.

Korxonada boshqaruvning ta'siri boshqaruv obyektiga yo'naltirilgan bo'lib, ishlab chiqarish va xo'jalik yuritish jarayonlari, ishlab chiqarish uskunalarini ekspluatatsiya qilish, turli miqyosdagi mehnat kooperatsiyasi va hokazolar boshqaruv objekti bo'lishi mumkin.

Boshqaruv subyekti esa qoidaga ko'ra, korxonalar rahbari yoki boshqaruv obyektlarini maqsadli ravishda boshqarishni amalga

oshiruvchi xizmat rahbarlaridir. Bunga misol qilib bir korxonaning direktori, uning muovnlari, bosh muhandis, bosh texnolog, moliyaviy bo'limlar rahbarlari, sex boshliqlari va hokazolarni ko'rsatish mumkin.

Umuman olganda korxonada umumiy boshqaruv – rejalashtirish, mehnatni tashkil etish, oylik maosh, texnik nazoratni uyushtirish, sifatni oshirish ta'mirlash, moddiy texnika ta'minoti, sotish, kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, hisob-kitob va tahlil, moliya, xizmat ko'rsatish, muhofaza qilishni o'z ichiga oladi.

Korxonaning korporativ (guruhiy) manfaatini amalga oshirishning muhim omili – bu korxonada ishini yaxshi boshqarish hisoblanadi. Korxonada ichki va tashqi aloqalarga ega. Korxonaning ichki tuzilishi uning turli bo'linmalari o'rtasidagi aloqalardan, xodimlari bilan boshqaruvchilar (menejerlar) o'rtasidagi munosabatlardan iborat. Uning tashqi aloqalari bozor bilan yuz beradi. Bozorda korxonada o'ziga resurslar yetkazib beruvchilar va o'z tovarining xaridorlari bilan aloqa bog'laydi.

Korxonaning pul bilan bo'ladigan aloqalari banklar, moliyaviy kompaniyalar, sug'urta firmalari orqali yuz beradi. Korxonaning bozor iqtisodiyoti sharoitida ish faoliyatini samarali bo'lishi uchun menejment ishi (boshqaruv ishi) yaxshi yo'lga qo'yilishi kerak.

Bozor munosabatidagi korxonada boshqaruvining bunday ko'rinishdagi bir-biriga bog'liqligi, bo'ysunuvchanligi boshqaruv tizimining samarali faoliyat yuritishi uchun shart hisoblanadi.

Har qanday holatda boshqaruv tizimi xo'jalik hayotining zamonaviy talablari va korxonalarning raqobatchilik muhitidagi barqarorligiga javob berishi lozim. Shunday qilib, boshqaruv tizimi ishlab chiqarish samaraorligiga va korxonaning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlashda muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Har bir korxonaning ishlab chiqarish tuzilmasi mavjud. Korxonada qanhalik yirik bo'lsa, uning ishlab chiqarish tuzilmasi ham shunchalik murakkab bo'ladi.

Ishlab chiqarish tuzilmasiga asosiy, yordamchi, xizmat ko'rsatish jarayonlari amalga oshiriluvchi sex va uchastkalar kiritiladi. Ishlab chiqarish bo'g'inlari, korxonada boshqaruvi hamda xodimlarga xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar, ularning miqdori, kattaligi va egallab turgan maydoni, xodimlarning soni va ishlab chiqarish imkoniyatlari korxonaning umumiy tuzilmasini ifodalaydi.

Sanoat korxonalari ishlab chiqarish tuzilmasining uch xil turi mavjud: texnologik, predmetli va aralash.

Texnologik tuzilmali korxonalarda sexlar va ishlab chiqarish uchastkalari texnologik jihatdan bir xillik tamoyili asosida tashkil qilinadi (masalan, to'qimachilik kombinatlarida yigiruv va to'quv sexlari).

Predmetli tuzilmaga asoslangan korxonalarda har bir sex ma'lum bir mahsulot yoki uning bir qismini ishlab chiqaradi (masalan, avtomobil zavodida motor sexi, shasse sexi va hokazo).

Aralash (predmetli texnologik) tuzilma tayyorlov sexlarini texnologik tamoyilda (temirchilik, cho'yan quyish, po'lat quyish va hokazo), ishlov berish va mahsulot ishlab chiqarish sexlarini esa predmetli tamoyil asosida tashkil etishni nazarda tutadi.

Sanoat korxonalarining ishlab chiqarish tuzilmasi doimo vaziyatdan kelib chiqib takomillashib boradi.

Yuqoridagi boshqaruv tizimidagi barcha ishlarni samarali olib borilishi milliy iqtisodiyotda umumiy iqtisodiy ahamiyatga ega, chunki u qanchalik rivoj topsa, yaxshi yo'lga qo'yilsa, shunchalik ishlab chiqarish jamiyatdagi talab-ehtiyojni to'laroq hisobga oladi, barqaror iqtisodiy rivojlanish jarayoni amalga oshadi.

4.4. Islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida boshqaruvning maqsadi, vazifalari va tamoyillari

Korxonani boshqarishda samaradorlikka erishish uchun, avvalo, boshqaruvning maqsadlari, shuningdek, vositalari va unga erishish usullarini aniq belgilab olish zarur. Shu bilan bir paytda boshqaruv maqsadlari tushunarli bo'lishidan tashqari, ular barcha bajaruvchilar tomonidan amalga oshirilishiga ham e'tibor berish lozim. To'g'ri qo'yilgan maqsad korxonah rahbarining, shuningdek, butun jamoa va har bir xodimning manfaatlarini ifodalaydi. Bunday natijaga maqsadga korxonaning joriy va istiqboldagi rivojlanishi bo'yicha vazifalar majmuasining bir bo'lagiga aylangan holda erishish mumkin. Bunday yondashuv, ishlab chiqarish maqsadining ishlab chiqarishni boshqarish bilan moslashuvini ta'minlovchi eng qisqa yo'lga olib keladi. Boshqaruvning ham tizim sifatida, ham alohida faoliyat turi sifatida maqsadga muvofiqligidan darak beradi. Deyarli har bir korxonaning maqsad va vazifalari bugungi kunda "Korxonalar to'g'risida"gi qonunda belgilab berilgan va shu qonun asosida tartibga solib turiladi. Yuqori

sifatli va raqobtbardosh mahsulotlarni eng kam xarajatlar asosida ishlab chiqarish eng ko'p daromad olishni ta'minlab, inqirozga uchrashdan saqlaydi hamda har bir korxonaning asosiy vazifasi hisoblanadi. Boshqaruvning barcha vazifalari ushbu maqsad amalga oshishiga xizmat qilishi lozim. Boshqaruvning samaradorligiga ko'p jihatdan korxonada oldiga qo'yilgan maqsadlar va bajariluvchi vazifalarning o'zaro munosabatlari yordamida erishiladi.

Korxonani boshqarishning maqsadlarini quyidagi turlarga bo'lib tasniflashimiz mumkin:

- amalga oshirish muddatiga ko'ra - joriy va istiqbolli;
- ahamiyat darajasiga ko'ra - asosiy (strategik) va ikkinchi darajali (taktik);
- boshqaruv obyektiga munosabatiga ko'ra - xususiy va umumiy;
- natijaga erishish darajasiga ko'ra - yakuniy va oraliq yoki bosqichli.

Boshqaruv jarayonida joriy maqsadlarni istiqboldagi maqsadlarga, xususiy maqsadlarni umumiy maqsadlarga, oraliq maqsadlarni yakuniy maqsadlarga mos kelishi va bo'ysunishini ta'minlash zarur. Asosiy maqsadlarni amalga oshirishga ko'proq e'tibor qaratish kerak.


Korxonada yoki unga tenglashtirilgan xo'jalik subyektlarini boshqarish faoliyati to'raligicha shu vazifalarni bajarishga qaratilishi lozim. Asosiy maqsadni ikkinchi darajali vazifalardan ajrata olish qobiliyati, zamonaviy menejerlarning eng muhim professional ko'rsatkichlaridan biridir. Boshqaruv jarayoni asosan davriy (sikllik) xarakterga ega bo'ladi. U maqsad va vazifalarni belgilash bilan boshlanib, ularni bajarish, ya'ni muayyan bir natijalarga erishish bilan tugallanadi.

Natijalar to'g'risida (maqsadga erishish darajasi) olingan axborotlar asosida yangi vazifalar belgilanadi va boshqaruv siklli qaytadan boshlanadi. Bunday sikllarning soni bir nechta bo'lib, ular birinchi o'rinda boshqaruv obyektining o'ziga xos xususiyatlari va boshqa ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi.

Amaliyotda turli xil sabablarga ko'ra, ishlab chiqarish belgilangan parametrlardan chetga og'ishi, boshqaruv esa qo'yilgan maqsadga erishmasligi mumkin. Bunday hollarda operativ tartibga solish yo'li bilan chetga og'ishlar olib tashlanadi va ishlab chiqarish jarayonining me'yoriy tarzda faoliyat yuritishi ta'minlanadi. Umuman olganda,

boshqaruv siklini - maqsad va vazifalarni belgilashdan natijalarga erishishgacha quyidagi chizma shaklida ko'rsatish mumkin (4.3-rasm).

Korxonani boshqarishning samaradorli, maqsadlarni shakllantirish va amalga oshirishga qanchalik kam vaqt sarflansa, shunchalik natija yuqori bo'ladi. Bunga korxonani rahbari (menejeri) va boshqaruv funksiyalarini bajarishga mas'ul bo'lgan boshqa shaxslarning tajribasi va malakasidan tashqari, boshqaruv amaliyoti va ish tartibiga sarflanuvchi vaqtning qisqartirilishi, boshqaruv jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish va amalga oshirishni oqilona tashkil qilish bo'yicha tashkiliy-texnikaviy chora-tadbirlar majmuasini qo'llash hisobga erishiladi.



4.3-rasm. Boshqaruv sikli

Ijodiy natijaga erishishga qaratilgan qarorni to'g'ri qabul qilish uchun bu qarorni qabul qilish oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan natijalarni oldindan ko'ra bilish, rivojlanish istiqbollarning turli variantlariga to'g'ri baho berish zarur. Bu esa korxonani boshqarishning asosiy strategik vazifalarini belgilab beradi. Ular qatoriga nafaqat maksimal daromad olishni, balki ishlab chiqarishni qayta ta'mirlash va modernizatsiyaashtirish, iste'molchilar talabiga javob beruvchi zamonaviy mahsulotlarni ishlab chiqarish, faoliyat yo'nalishlarini bugungi kun va kelajakdagi istiqbolarini e'tiborga olib belgilash ham kiritiladi. Sanab o'tilganlarning oxirgisi, o'z navbatida, ijodiy

yondashuvni va boshqaruv qarorlarining yangi yo'nalishlarini izlashni talab qiladi.

Boshqaruv qarori - boshqaruv faoliyati texnologiyasidagi muhim bo'g'indir.

Boshqaruvning maqsad va vazifalarini amalga oshirish ko'p jihatdan qarorlarning to'g'ri qabul qilinishiga bog'liq bo'ladi. Boshqaruv qarori bir tomondan asosan korxonaning rahbarlari tomonidan amalga oshiriluvchi mantiqiy-fikriy faoliyat bo'lsa, ikkinchi tomondan, emotsionalpsixologik xatti-harakatdir. U insonning boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonlarida to'plagan tajribasi, bilimi va fikrlash doirasining chuqurligiga bog'liq bo'ladi. Boshqaruv qarorlari quyidagi belgilar bo'yicha tasniflanadi:

-kompetentlik va mas'uliyat bo'yicha - yakka tarzda yoki kollegial (jamo) boshqaruv qarorlari;

-mazmuni bo'yicha - ilmiy-texnik, iqtisodiy, tashkiliy, ijtimoiy boshqaruv qarorlari;

-xarakteri bo'yicha - operativ-taqsimlovchi, xo'jalik-raxbarlik va me'yoriy boshqaruv qarorlari;

-ta'sir ko'rsatish darajasi bo'yicha - bir va ko'p darajali boshqaruv qarorlari;

-ta'sir ko'rsatish yo'nalishi bo'yicha - ichki va tashqi;

-ta'sir ko'rsatish miqyosi bo'yicha - xususiy va umumiy (majmuaviy);

-ta'sir ko'rsatish davri bo'yicha - bir martalik va ko'p martalik.

Boshqaruv qarorlari amalga oshirish imkoniyatlari, o'z vaqtida amalga oshirish, aniqlik, qonuniylik va shu kabi talablarga javob berishi lozim. Bajarish jarayonida eng kam o'zgartirish va tuzatishlarga uchraydigan qaror eng yaxshi qaror hisoblanadi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, hozirgi paytda ko'plab korxonalarining rahbarlari boshqaruv faoliyati jarayonida to'g'ri qaror qabul qilish uchun yetarli bilim va tajribalarga ega.

Ma'lumki, boshqaruv qarorlari ishlab chiqarish vositalariga qaraganda, ko'proq muayyan shaxslarga yo'naltirilgan bo'ladi. Shu sababli boshqaruv va boshqaruv qarorlari - birinchi o'rinda ishlab chiqarish jarayonida odamlar o'rtasida yuzaga keluvchi munosabatlardir. Bu yerda o'z vakolatlari doirasida boshqaruv qarorini qabul qiluvchi shaxs yoki boshqaruv idorasining qanday tamoyillarga tayanib ish ko'rishini muhim ahamiyatga ega. Tamoyil - mahsus kategoriya bo'lib,

alohida shaxs yoki jamoa qaror qabul qilishda unga tayanadi. Tamoyil faqat insongagina xosdir.

Mashinalar va jonivorlar biron-bir tamoyilga ega bo'lmaydi. Ma'lum bir tamoyillardan kelib chiqqan holda aynan inson o'zini o'rab turgan dunyo bilan munosabatlarini yaratadi (uy, ko'prik quradi, kemasozlik va hokazolarni amalga oshiradi).

Korxonadagi boshqaruv faoliyati shuningdek, ma'lum bir tamoyillar asosida amalga oshiriladi.

Bu tamoyillar birinchidan, ishlab chiqarish qatnashchilari orasidagi kelishuvlarni o'rnatib, ikkinchidan, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatolarning oldini oladi hamda boshqaruv mehnatining samaradorligini oshiradi. Zamonaviy fan va menejment amaliyoti korxonalarni boshqarishning quyidagi tamoyillarini eng asosiylari sifatida qabul qiladi:

- 1) ilmiylik;
- 2) tizimlilik va komplekslilik;
- 3) yakka boshqaruv va kollegiallik;
- 4) tartib va adolat;
- 5) xodimlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish;
- 6) tejamkorlik va samaradorlik;
- 7) tashabbuskorlik va korporativ ruhiyat;
- 8) vakolat va majburiyat.

Boshqaruvning ilmiylik tamoyili o'zaklarning o'zagidir. Amalda bu tamoyil, avvalo jamiyat rivojlanishining obyektiv qonunlari va fan-texnika yutuqlaridan xabardor bo'lishni talab qiladi. Uning yordami bilan ishlab chiqarish va boshqaruvning zaruriy mutanosibligi ta'minlanadi, boshqaruv qarorlaridagi xatolar kamaytiriladi, og'irlik markazi eng katta sifat va miqdor yutuqlariga erishishga o'tkaziladi.

Ilmiylik tamoyili ishlab chiqarish masalalarini hal qilishda iqtisodiy-matematik usullardan keng foydalanish, boshqaruvning maqsadli dasturiy usullarini amalga kiritish, zamonaviy elektron-hisoblash texnikasi va boshqaruvning avtomatlashtirilgan tizimlaridan foydalanishni ko'zda tutadi. Tizimlilik va komplekslilik tamoyili ilmiylik tamoyilining davomi bo'lish bilan birga, o'zining mustaqil ahamiyatiga ham ega. U boshqarilayotgan tizimning vertikal va gorizontal yo'nalishlari bo'yicha barcha xususiyatlarini qamrab olishni ko'zda tutadi. Tizimlilik va komplekslilik tamoyili boshqaruv usullarining tarqoqlikdagi tamoyillariga hamda bir daqiqalik foyda va

ehtiros tufayli yuzaga keluvchi qarorlarga qarshi qo'yiladi. U ishlab chiqarishning bir maromda amalga oshirilishini ta'minlashga xizmat qiladi, ishlab chiqarish uchun qulay sharoit yaratadi.

Yakka boshqaruv va kollegiallik korxonani boshqarishning muhim tamoyillaridan biridir. Bu tamoyil, ayniqsa, aksionerlik sharoitlarida faoliyat yurituvchi korxonalarda aniq ko'zga ko'rinadi. Yakka boshqaruv har bir xo'jalik rahbari o'z vakolati doirasidagi masalalarni hal qilishda qonun tomonidan berilgan huquqlarga asosan bir o'zi (yakka tarzda) qaror qabul qilishini hamda korxonada faoliyati uchun shaxsan javobgarligini anglatadi. Bundan tashqari, yakka boshqaruv xodim buyruqlarni faqat bitta bevosita (to'g'ridan to'g'ri) boshliqdan olishi mumkin yoki shart bo'lgan hollarni ham anglatadi. Kollegiallik korxonada jamoasining ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan qarorlarni qabul qilishdagi faol ishtirokida ifodalanadi. Ma'lum bir ma'noda, ayniqsa, boshqaruvning iroda bilan bog'liq bo'lgan usullarida kollegiallik yakka boshqaruv qarama-qarshilikni anglatadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida ushbu tamoyilning imkoniyatlari sezilarli ravishda kengaytirilgan. Tartib va adolat – bu, boshqaruvning har bir qadamda o'zini eslatib turuvchi tamoyilidir. Ko'p hollarda aynan shu tamoyilga ko'ra korxonada va uning rahbariga tavsifnoma beriladi.

Korxonada rahbari qanchalik bilimli va tajribali, uning kasb mahorati va madaniyati qanchalik yuqori bo'lsa hamda u jamoa to'g'risida qanchalik ko'p qayg'ursa, tartib va adolat ko'rsatkichlari shunchalik yuqori bo'ladi. Qisqaroq qilib aytganda, tartib – bu, har bir kishi va hamma narsa o'z joyida bo'lishini, adolat esa rahmdillik va odillikning uyg'unligini anglatadi. Boshqaruvning tartib va adolat tamoyili kadrlar tez-tez almashishini oldini olib, korxonada obro'sining o'sishiga hamda bunga korxonada jamosini qiziqtirishga xizmat qiladi.

Xodimlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tamoyili mehnat unumdorligini oshirishda muhim turtki bo'lib hisoblanadi va boshqaruv tizimining samaradorligini aks ettiradi. Xodimlarning sadoqati va qo'llab-quvvatlashiga erishish maqsadida ular o'z xizmatlari uchun, ishchilar esa bajarilgan ishning sifati va miqdori uchun adolatli tarzda haq olishlari zarur. Bundan tashqari, ma'naviy rag'batlantirish moddiy rag'batlantirishdan kam ahamiyatga ega emas. Rahbarning iqtidori, xodim (xodimlar, ishchilar)ning tashabbus va yutuqlarini o'z vaqtida ilg'ab olib, munosib baholash hamda ularni ham moddiy ham ma'naviy rag'batlantirish tizimini mohirona qo'llashida ko'zga tashlanadi.

Tejamkorlik va samaradorlik tamoyili – bu, korxonada boshqaruvning barcha bo‘g‘inlarida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan tamoyildir. Bu tamoyilning mohiyati moddiy va mehnat resurslaridan tejamkorlik bilan foydalanish, eng kam xarajatlar bilan eng ko‘p natijalarga erishish, ishlab chiqarish zaxiralaridan to‘liq foydalanishda ifodalanadi. Biroq bu tamoyil istisno tariqasida qo‘llanmay, faqat korxonada rahbarining emas, balki butun jamoa va birinchi o‘rinda xomashyo va materiallardan tayyor mahsulot yaratuvchi ishchilarning mehnat qoidasiga aylangan taqdirdagina haqiqiy tasdig‘ini topadi.

Tashabbuskorlik va korporativ ruhiyat boshqaruvning muhim tamoyili bo‘lish bilan birga, korxonaning bozor tizimida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga turtki hamdir. Umuman olganda, boshqaruv tashabbuskorliksiz, istiqbolni ko‘rmasdan, ijodiy yondashuvsiz muvaffaqiyatlarga erishishi amrimaholdir. Boshqaruv ijodiy negizni, tashabbuskorlikni korporativlik bilan bog‘lagan holda boyitadi. Agar korporativ ruhiyat ishlab chiqarish bilan shug‘ullanuvchi jamoa uyg‘unligining natijasi, ittifoqi bo‘lsa, tashabbuskorlik faol harakatlarni anglatib, korxonada jamoasiga va har bir xodimga ishlab chiqarishni rivojlantirishning turli xil dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda qo‘shimcha kuch-quvvat baxsh etadi. Vakolat va majburiyat tamoyili boshqaruvning ratsional, aniq va yo‘lga qo‘yilgan tashkiliy tizimini yaratish, lavozimlarga oid yo‘riqnoma hamda rahbar va mutaxassislarning huquq va burchlari to‘g‘risidagi hujjatlarni ishlab chiqish, bajarilgan ish uchun moddiy javobgarlikni belgilash, buyruq va ko‘rsatmalarni o‘z vaqtida tayyorlashni anglatadi.

Har bir lavozim egasi - bo‘lim yoki xizmat boshlig‘idan, to‘ korxonada rahbarigacha - boshqaruv faoliyatidagi o‘z vakolatlarini yashirmasligi va majburiyatlarini kamaytirmasligi - boshqalarning, ya‘ni unga bo‘ysunuvchi shaxslarning zimmasiga yuklamasligi lozim. Yuqorida ko‘rsatilgan tamoyillar ham alohida, ham birgalikda boshqaruv tizimining ishonchlilikiga va korxonada rahbari hamda har bir boshqaruv tuzilmasining obro‘cini o‘stirishga xizmat qilishi lozim.

Bundan tashqari, ular doimiy ravishda mukammallashtirib borilishi hamda zamon ruhi va xo‘jalik yuritish mexanizmi talablariga javob beruvchi yangi tamoyillar bilan to‘ldirilishi zarur. Bu esa boshqaruv tizimi va jarayonlarining yangi shakl va usullarini rivojlantirishga imkon yaratadi.

4.5. Boshqaruv tizimini ishlab chiqarishning samaradorligiga erishish va korxonaning iqtisodiy barqarorligiga yo'naltirish

Ishlab chiqarishni boshqarish tizimini takomillashtirib borish mulkchilik shakli, faoliyat natijasi va yuzaga kelgan tashkiliy tuzilmaning qandayligidan qat'i nazar, har bir korxonaga uchun muhim vazifa hisoblanadi. Ushbu vazifani muvaffaqiyatli hal qilish korxonalariga, birinchi o'rinda, boshqaruv tizimining samaradorligini oshirishga, ikkinchidan, xarajatlarni kamaytirish va ishlab chiqarish faoliyatining iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilashga imkon yaratadi.

Bugungi kunda boshqaruv tizimini mukammallashtirish sohasida quyidagi tendensiyalar yuzaga kelmoqda: boshqaruv faoliyatining maqsadli tavsifini kuchaytirish; boshqaruvning moslashuvchan tuzilmalarini yaratish va boshqaruv apparatining faoliyatini yaxshilash, jumladan, ortiqcha boshqaruv bo'g'inarini qisqartirish hisobiga; ishlab chiqarishni boshqarishda jamoalar rolining o'sishi va ularning yuqori natijalarga erishishga yo'naltirilganligi; mehnat faoliyati ijtimoiy sharoitlarining yaxshilanishi. Bu tendensiyalarga asosan korxonalarining boshqaruv organlari tuzilmalarini takomillashtirish yo'nalishlari ham aniqlanib, ularga avvalo sifat ko'rsatkichlari asos qilib olingan. Bu ko'rsatkichlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

Optimallik – tuzilma bo'linmalari o'rtasida eng kam boshqaruv bo'g'inariga ega bo'lgan holda o'zaro aloqalarni ratsional tarzda o'rnatishdir. Shu sababli ko'p bo'g'inlilikni qisqartirish boshqaruv tizimini takomillashtirish oldiga qo'yiluvchi asosiy talablardan biri hisoblanadi.

Tezkorlik (operativlik) – barcha funksional bo'linmalarining, zarur hollarda ishlab chiqarish bo'linmalarining, boshqaruv qarorlari o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash uchun o'zaro aloqalar aniqlik bilan olib borilishi.

Ishonchlilik – axborotlarni o'z vaqtida olish va boshqaruv qarorlarini bajaruvchilarga va bajarish joylariga o'z vaqtida yetkazishni ta'minlaydi. Ishonchlilik va tezkorlik joriy va istiqboldagi boshqaruv tizimining samaradorligida muhim turtki hisoblanadi.

Tejamkorlik – bu, asosan boshqaruv tizimida maksimal samaraga erishgan holda boshqaruv apparati va uning xarajatlarini kamaytirishga, ya'ni ishlab chiqarish samaradorligining o'sishiga erishishdir. Aytib

o'tish kerakki, korxonalar jamoasi va ishlab chiqarishni boshqarishni takomillashtirish sohasida barcha uchun bir xil yo'l mavjud emas.

Mazkur vazifa muayyan sharoit, holat va imkoniyatlardan kelib chiqqan holda yuzaga keladi va hal qilinadi. Biroq bunda ham o'zgarishlar mavjud bo'lib, unga ko'ra, har bir o'zgartirish, yaxshilanish va shakl o'zgartirishlar avvaldan o'ylab chiqilishi hamda ilmiy jihatdan asoslab berilishi zarur. Masalan, hozirgi paytda korxonalarini boshqarishni takomillashtirishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimini (ABT) yaratish va amaliyotga kiritish hamda ish vaqti yo'qotilishining oldini olish, uskunalarning bekor turib qolishini qisqartirish, mehnat va moddiy resurslardan oqilona foydalanishga ko'maklashuvchi kompyuter texnikasidan foydalanishni ko'rsatish mumkin.

Amaliyotdan shu narsa ma'lumki, korxonalarini boshqarishning seksiz tuzilmasi yuqori darajada samarali bo'lib, boshqaruvni markazlashtirishni qisqartirish hamda kichik va o'rta korxonalarining ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlantirishdagi ahamiyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshqaruv tizimini takomillashtirishning muhim yo'nalishlaridan biri - korxonaning funksional xizmatlari va bo'limlari faoliyatini ortiqcha tuzilmaviy bo'linmalarni tugatish, xizmat ko'rsatuvchi bo'limlarni optimallashtirish, birlamchi hisobga olish hamda hisob-kitob va boshqa boshqaruv amallarini soddalashtirish yo'li orqali muvofiqlashtirishdir. Bu yerda ishlab chiqarishni tezkor boshqarishning ko'plab funksiyalarini avtomatlashtirish va mexanizatsiyalashtirish imkonini beruvchi, boshqaruvning yangi texnikasidan, ishlab chiqarish ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan turli xil hisob-kitob va tahlil vositalaridan foydalanish katta ahamiyatga ega.

Boshqaruv tizimini takomillashtirishda texnik vositalar, boshqaruv jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish, jumladan, ABT asosidagi faoliyat, boshqaruv tadqiqotlari va loyihalari o'z-o'zidan yoki avtomatik ravishda kerakli natijalarga olib kelmaydi. Bu yerda ko'p narsa insonlarning, ayniqsa, menejrlarning faoliyatiga bog'liq bo'ladi. Shu sababli ijtimoiy omillarning rivojlanishi, ishlab chiqarish jamoasining ishlab chiqarishni boshqarishdagi roli kuchayishi, ayniqsa, korxonalariga boshqarishning ratsional shakllarini tanlashga keng imkoniyatlar yaratib berilgan hozirgi paytda muhim ahamiyatga ega. Mustaqillikni kengaytirish va ishlab chiqarish jamoasining ishlab chiqarishni

boshqarishdagi roli o'sishi iqtisodiy fikrlashning kerakli tomonga yo'naltirilishiga xizmat qiladi hamda boshqarishni yaxshilashni korxonada rahbaridan tashqari butun jamoaning vazifasi qilib belgilaydi.

Zamonaviy texnika vositalari va yangi usullardan tashqari korxonalarini boshqarishda ishlab chiqarish jamoalarida zarur bo'lgan *ijtimoiy-psixologik muhitni* shakllantirish ham katta ahamiyatga ega. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy-psixologik muhit boshqaruvning natijalari va amaliyligini yo'qqa chiqarishi yoki aksincha kuchaytirishi mumkin.

Psixologik muhit nodir va qaytarilmas holatdir. Ikkita bir xil jamoa bo'lmagani kabi, bir-biriga mos keluvchi psixologik muhitning ham mavjud bo'lishi mumkin emas: jamoadagi har bir shaxs jamoani boyitadi va bir vaqtda o'zi ham boyib, unga nodirlik va qaytarilmaslikni baxsh etadi. Psixologik muhit orqali zarur bo'lgan ishlab chiqarish ruhiyati shakllanadi va boshqaruvning maqsadli funksiyalari muvaffaqiyatli amalga oshiriladi.

Tayanch iboralar

Boshqaruv, boshqaruv tizimi, boshqaruv obyekti, boshqaruv subyekti, boshqaruv faoliyati, bevosita boshqaruv, o'zini-o'zi boshqarish, boshqaruv munosabatlari, boshqaruv qarori, tashkiliy tuzilma, chiziqli tuzilma, boshqaruvning funksional tuzilmasi, boshqaruvning matritsali tuzilmalari, boshqaruv funksiyalari, optimallik, tezkorlik, ishonchlilik, tejamkorlik, ijtimoiy-psixologik muhit.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. "Boshqaruv" va ishlab chiqarishni boshqarish tushunchalarining mohiyatini ochib bering.
2. Ishlab chiqarishni tashkil etishda menejmentning asosiy maqsadi qanday?
3. Korxonada xo'jalik yuritish mexanizmi nimani anglatadi?
4. Korxonada boshqaruv organlarining asosiy vazifalarini sanab bering.
5. Ishlab chiqarishni boshqarishning asosiy texnik qoidalari (talablari) va ularning zamonaviy bosqichda qanday tarzda o'zgarishini tushuntirib bering.

6. Ishlab chiqarishni boshqarishning qanday stil va usullarini bilasiz?

7. Korxonada ishlab chiqarishni boshqarishning har xil tuzilmalarini tavsiflab bering.

8. Boshqaruv organlarining korxonalaridagi asosiy funksiyalarini ko'rsatib bering.

V BOB. KORXONA FAOLIYATINI REJALASHTIRISH VA BASHORAT QILISH

Ushbu bobda korxonalar faoliyatini boshqarishda eng muhim vazifa hisoblangan rejalashtirish va uning ustunlik tomonlari, biznes-reja, loyiha, texnik-iqtisodiy asoslash va umumiy rejalashtirish bilan bog'liq jarayonlar o'rganilgan. Shuningdek, rejalashtirish orqali korxonaning turli tuzilmaviy bo'linmalari oldiga qo'yiluvchi bir qator vazifalarni kompleks ravishda hal qilish imkoniyatini yaratuvchi ko'rsatkichlar va bo'limlardan iborat bo'lgan yo'nalishlari to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

5.1. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida biznes-rejalashtirish korxonani boshqarishdagi muhim qurol sifatida

Iqtisodiyot bo'yicha zamonaviy adabiyotlarda va qo'llanmalarda *reja-lashtirishga* mo'ljallangan ish yoki ma'lum bir harakatlarni bajarish muddati, tartibi va ketma-ketligini ko'zda tutuvchi chora-tadbirlar tizimi sifatida izoh berilgan. Har bir inson o'z ish kuni, dam olish kuni, bayramlar, yozgi ta'til, to'y va boshqa tadbirlarni qanday o'tkazishni rejalashtiradi. Aynan rejalashtirish va bashorat qilish yo'li bilan korxonalar **nimani, kim uchun, qachon va qancha** mahsulot ishlab chiqarish, qaysi hamkorlar yoki sheriklar bilan shartnoma tuzish yoki kooperatsiyani rivojlantirish, zarur bo'lgan moddiy tovar boyliklari zaxirasini yaratish kabi bir qator masalalarni hal qiladi.

Bozor munosabatlariga o'tgandan so'ng rejalashtirish biroz yoddan ko'tarilib qoldi. Hattoki rejalashtirish xo'jalik yuritishning bozor mexanizmiga to'g'ri kelmaydi yoki bozor rejalashtirishga ziddir, degan fikrlar ham paydo bo'ldi. Deyarli har bir korxonaga "yuqoridan" direktiva vazifalari, nazorat raqamlari, qat'iy normativ va limitlarni belgilab beruvchi rejalashtirish, haqiqatan ham bozor mexanizmiga to'g'ri kelmaydi va korxonalarning mustaqilligini yo'qqa chiqaradi. Shu

sababli O'zbekiston Respublikasining "Korxonalar to'g'risida"gi qonunida, korxonalarining iste'molchilar talabi, foyda yoki daromad olish nuqtayi nazaridan o'z faoliyatini mustaqil ravishda tanlashi va ishlab chiqarishni rivojlantirish istiqbollarini belgilab olishi ko'rsatilgan.

Xalq maqollarida aytilganidek, "tog'oradagi suvni ichidagi bola bilan birga sepib yuborish yaramaydi". Avvalgi xo'jalik yuritish tizimida mavjud bo'lgan, "markaz"dan boshqariluvchi markazlashgan rejalashtirishni inkor qilish bilan rejalashtirishdan umuman voz kechish mumkin emas.

Rejalashtirish tufayligina korxonalar ishlab chiqarishni tashkil etish va texnologiyalarning optimal varinatlarini tanlaydi, resurslar bilan o'z vaqtida ta'minlash vazifasini bajaradi, asosiy va aylanma vositalarga ehtiyojni belgilab beradi, mahsulotni sotish kanallari va usullarini aniqlaydi. Bundan tashqari, rejalashtirish ishlab chiqarish zaxiralari va raqobatdagi ustunliklardan maksimal darajada foydalanish, iqtisodiyotdagi yangi oqimlarni anglab olish, korxonada faoliyatidagi kamchiliklarni yo'qotish va turli xil tavakkalchiliklarni kamaytirishga imkon beradi. Har bir korxonani tashkil qilinishi va faoliyat yuritishi aynan rejalashtirishdan boshlanadi.

Rejalashtirish tartibga soluvchi jarayon sifatida korxonada faoliyatini yaqin va uzoq istiqbol sari ilgari surish, asoslab berish, muayyanlashtirish va izohlab berishni ifodalaydi. Oxirgi holatda gap korxonada faoliyatini bashorat qilish haqida borishi mumkin. Bashorat qilishni rejalashtirishning boshlanishi va uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan davomi sifatida ko'rib chiqish mumkin. Rejalashtirish va prognozlashtirish o'zaro aloqada bo'lgan ikkita jarayon bo'lib, xo'jalik faoliyatini avvaldan bajarilgan hisob-kitoblar, eng kam tavakkalchilik va eng yuqori natijalarga erishish asosida yuritishni ko'zda tutadi.

Rejalashtirish korxonada tomonidan bajariluvchi vazifalar muayyanlashtirilgan rejalarda o'z aksini topadi. Bozor iqtisodiyotida reja "yot unsur" yoki "yuqoridan" keluvchi buyruq sifatida qabul qilinishi sababli, hozirgi xo'jalik yuritish faoliyatida **indikativ reja va prognoz** deb nomlanuvchi, lekin mohiyatiga ko'ra rejalashtirishning barcha hollarda obyektiv zaruriyatini tasdiqlovchi tushunchalardan foydalaniladi. Demak, **rejalashtirish**, jumladan, indikativ reja va prognoz – bu, korxonalarining xo'jalik faoliyati uchun mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish uchun barcha omillardan foydalanish va

tayyorgarlikning o'z vaqtida bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan qulay sharoitlarni yaratishdir.

Reja va rejalashtirish orasidagi farqni anglash muhim ahamiyat kasb etadi. *Rejalashtirish* indikativ reja yoki prognoz kabi rejalarni ishlab chiqish jarayoni bo'lsa, *reja* korxonaning ma'lum bir vaqt mobaynida amalga oshiruvchi texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini o'zida aks ettiruvchi hujjatni ifodalaydi. Boshqacha qilib aytganda, reja – bu, korxonaning maqsadli funksiyalari va ularni amalga oshirish yo'llarini belgilab beruvchi rejalashtirishning moddiylashgan shaklidir. Shu tariqa rejalashtirish bozor va bozor mexanizmiga qarama-qarshi bo'lmasdan, aksincha, ishlab chiqarishning maqbul yo'nalishlarini aniqlash, foydalanilmagan zaxira va imkoniyatlarni qo'llash, korxonaning oqilona baho siyosatini shakllantirish hamda xo'jalik yuritish aloqalarining samarali shakllarini o'rnatishga ko'maklashadi. Rejalashtirish va bashorat qilish yordami bilan ichki va tashqi bozordagi iste'molchilar talabi aniqlanadi, korxonaning tashqi iqtisodiy faoliyati kuchaytiriladi. Biroq rejalashtirish imkoniyatlarini mobilizatsiya qilish rejalashtirishning o'zidagina ifodalanmaydi.

Rejalashtirish odamlar, birinchi o'rinda mutaxassislar tomonidan amalga oshirilishi sababli istalgan reja yoki prognozning hayotga tatbiq etilishi ko'p jihatdan iqtisodchilarning malakasiga, ular rejalashtirishning uslubiy asoslarini yaxshi bilishiga, shuningdek, ishlab chiqarish rejalarining bozor talablarini hamda korxonaning mo'ljallangan daromadga erishishini hisobga olishiga ham bog'liq. Rejani ishlab chiqish qanchalik asoslab berilgan bo'lsa, uning haqiqiyli va iqtisodiyotdagi ahvol bilan bog'liqligi shunchalik yuqori bo'ladi.

5.2. Korxonada rejalashtirishning uslubiy asoslari, tamoyillari va vazifalari

Rejalashtirish uslubiyoti – bu iqtisodiyotni boshqarishning turli bo'g'inlarida, jumladan, korxonalarni boshqarishda rejalarni ishlab chiqish usullari majmuasidir. Avvalgi rejali iqtisodiyot sharoitlarida u avvalo reja organlarining, ham sobiq ittifoq miqyosida, ham alohida respublikalar miqyosida amal qilgan *iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqish bo'yicha uslubiy*

ko'rsatmalarga tayanar edi. Iqtisodiyotning muhim soha va tarmoqlarini joriy va istiqbolli rejalashtirish ushbu ko'rsatmalar asosida amalga oshiriladi.

Mazkur holatda rejalashtirish uslubiyotiga ko'ra, "yuqoridan pastga" tamoyili asosida nazorat raqamlari, limit va normativlar tushirilar, keyin esa "pastdan yuqoriga" tamoyili asosida, ya'ni korxonalaridan yuqori turuvchi organlarga qayta uzatilar edi. "Yuqori" darajada reja ko'rsatkichlari yiriklashgan tavsifli bo'lsa, korxonalar miqyosida esa ishlab chiqarish bilan bog'liq holda muayyan va detalli tavsifga ega bo'ladi. Rejalashtirishda ushbu tizimning kamchiligi shunda ediki, deyarli har bir korxonaning faoliyat rejasi majburiy tarzda "yuqoridan" tasdiqlanishi zarur edi. Busiz reja o'z realligini yo'qotar edi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida korxonalar o'z faoliyatini rejalashtirishni mustaqil ravishda amalga oshiradi. Biroq bu rejalashtirishning tekshirib ko'rilgan va foydali usullaridan voz kechishni anglatmaydi. Bugungi sharoitlarda ham korxonalar faoliyatini rejalashtirish texnik-iqtisodiy hisob-kitoblar, progressiv norma va normativlar, iqtisodiy tahlil, muqobil variantlarni tanlashga asoslanadi.

Rejalashtirishning eng ko'p tarqalgan usullari qatoriga quyidagilarni: balans, normativ, iqtisodiy-matematik, statistik, omillar bo'yicha, ko'p variantli hisob-kitob usuli kabilarni kiritish mumkin. Rejalarning asoslanganlik darajasini oshiruvchi va ularni tezda amalga oshirilishiga xizmat qiluvchi, shuningdek, tavakkalchilik va vujudga kelishi mumkin bo'lgan talofatlarni kamaytiruvchi usul eng samarali usul hisoblanadi.

Hozirgi paytda *balans usulining* ahamiyati oshib bormoqda. Ushbu usulning mohiyati, o'zaro aloqada bo'lgan ko'rsatkichlarni solishtirish bilan ifodalanadi. Balans usuli asosida korxonaning ishlab chiqarish vositalari, ishchi kuchi, ishlab chiqarish quvvatiga bo'lgan talablari va ularning manbalari aniqlanadi. Bundan kelib chiqqan holda *moddiy balans, ishlab chiqarish quvvatlari balansi, ishchi kuchi balansi, ish vaqti balansi, qiymat balansini* ajratib ko'rsatish mumkin. Balanslar, qoidaga ko'ra, ehtiyojlar va ularga mos keluvchi resurslarning mavjudligi yoki manbalarini o'z ichiga oluvchi, o'zaro moslashuvchi jadval shaklida tuziladi.

Balans usuli *normativ usuli* bilan birgalikda qo'llanadi. Normativ usulida resurslarni sarflashning yo'l qo'yish mumkin bo'lgan eng yuqori

va eng quyi chegaralari aniqlanadi. Bunda ishlab chiqarishni rejalashtirish va tashkil etishda norma va normativ kabi tushunchalardan foydalaniladi.

Norma (me'yor) – bu, belgilangan sifatdagi mahsulot birligi (ish, xizmat) tayyorlash uchun sarflanuvchi xomashyo, material, yoqilg'i, energiya va boshqa resurslardan foydalanishning yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan maksimal yoki minimal chegarasidir. Agar resurslardan foydalanish normalarini kamaytirish mahsulot sifatining pasayishiga yoki belgilangan standartlar talablarining buzilishiga olib keladigan bo'lsa, u holda bu normalarni kamaytirish mumkin emas.

Normativ – bu, nisbiy kattalik bo'lib, asosan foizlar yoki koeffitsiyentlar yordamida aks ettiriladi. U mehnat vositalari va predmetlaridan foydalanish darajasini, ularning har bir maydon birligi, og'irlik birligi, hajm birligiga sarflanishini tavsiflab beradi. Masalan, asosiy fondlarning birlik qiymatiga mahsulot ishlab chiqarish (fond qaytimi), sutning moylilik, vinoning spirtlilik darajasi (foizlarda), avtomashinaning bosib o'tgan yo'li, avtomobil shinasining ekspluatatsiyasi va hokazo.

Norma va normativlar progressiv tavsifga ega bo'lishi, ya'ni ularni ishlab chiqishda zamonaviy fan, texnika va texnologiya rivojlanishining darajasi, mehnat va ishlab chiqarishni tashkil etish, ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanish hamda ilg'or korxonalarining tajribalarini hisobga olish zarur. Shuningdek, ular doimiy ravishda qayta ko'rib chiqilishi, eskirgan norma va normativlar yangi, xo'jalik hayoti va davr talablariga javob beruvchi norma va normativlar bilan almashtirilishi lozim.

Norma va normativlar quyidagi asosiy guruhlar asosida ishlab chiqiladi:

- *tirik mehnat xarajati normalari* (mahsulot birligiga sarflanuvchi ish vaqti normasi, vaqt birligida ishlab chiqarish normasi, xizmat ko'rsatish normasi, miqdor normativi);

- *moddiy xarajat normalari* (xomashyo, material, yoqilg'i, energiya, butlovchi qismlar);

- *ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish normativlari* (ishlab chiqarish siklining davomiyligi, tugallanmagan ishlab chiqarish hajmi, ishlab chiqarish zaxiralari va hokazo);

- *mehnat vositalaridan foydalanish normalari* (mashinalar, asbob-uskunalar, mexanizmlar, qurilmalar);

-korxonada, sex, asbob-uskunalarining loyiha quvvatiga chiqish vaqti normalari.

Ko'rinib turibdiki, rejalashtirish juda murakkab va mehnat talab qiluvchi jarayon bo'lib, korxonada faoliyatining resurslar xarajatini normalashtirishdan to mahsulot ishlab chiqarish va realizatsiya qilishgacha barcha ko'rsatkichlarini inobatga oladi. Rejalashtirishning ***asosiy vazifalari*** quyidagilar:

- maqsadni belgilash;
- korxonada faoliyatining turli xil yo'nalishlari, ayniqsa, xalq xo'jaligi va aholi uchun zarur bo'lgan masulot ishlab chiqarishning iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligini asoslab berish;
- zaruriy moddiy-texnika asosini shakllantirish;
- moliyalashtirish manbalarini aniqlash;
- yakuniy natijalarning ijobiy bo'lishiga erishish.

Amaliyotda bu vazifalarni korxonada direktori yoki iqtisodiy-rejalash xizmatining o'zi bajaraydi yoki bajarishi lozim emas. Bunda butun jamoa, ayniqsa, agar bu korxonada aksiyadorlik jamiyati shaklida faoliyat ko'rsatayotgan bo'lsa, ishtirok etishi zarur. Afsuski, korxonada xodimlari ko'pincha "rahbarga ko'proq narsa ko'rinadi" tamoyili asosida ishlaydilar va yaxshiroq natijalarga erishish uchun tashabbuskorlik ko'rsatmaydilar. Tajribalar esa korxonada muammolarini hal qilish barcha xodimlar, jumladan, ishchilarga ham bo'lgan holdagina bu korxonalar gullab-yashnashi mumkinligini ko'rsatadi.

Bugungi kunda bozor iqtisodiyoti korxonaning ishlab chiqarish faoliyatini rejalashtirish va ratsional boshqarish tizimi hamda maksimal ravishda qulay sharoitlarni yaratmoqda. Bunday sharoitlarda rejalashtirish bozor iqtisodiyoti va bozor munosabatlarining barcha imkoniyatlaridan foydalanishga xizmat qilishi lozim. Korxonada faoliyatini umuman emas, balki har bir muayyan holdagi vazifalarni hal qilishga yo'naltirgan holda rejalashtirish zarur. Buning uchun rejalashtirishning ilmiylik, komplekslik, uzluksizlik, optimallik, moslashuvchanlik kabi tamoyillariga tayanish zarur.

Korxonada, ayniqsa, agar u yirik bo'lsa, asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatuvchi sexlardan iborat bo'lib, ularning har biri faqat o'ziga xos bo'lgan vazifani bajaradi va shunga mos holda faoliyatni rejalashtirish va tartibga solishning o'ziga xos xususiyatiga ega bo'ladi. Shundan kelib chiqqan holda ***yetakchi bo'g'inni ajratib ko'rsatish*** rejalashtirishning asosiy tamoyillaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Bunda korxonaning

asosiy ishlab chiqarish vazifalari bajarilishini ta'minlovchi bo'linmasini rivojlantirishga ko'proq e'tibor qaratiladi. Masalan, bunday bo'g'in sifatida mashinasozlik zavodida yig'uv sexi, to'qimachilik kombinatida yigiruv va to'quv sexlari, qandolatchilik fabrikasida tayyor masulot sexini ko'rsatish mumkin.

Yetakchi bo'g'inni ajratib ko'rsatish korxonaning barcha bo'linmalarini birgalikda kompleks ravishda rivojlantirishni ko'zda tutadi. Chunki busiz rejalashtirish bir tomonlama bo'lib qolishi hamda ishlab chiqarishni tashkil etishda "tor joylar" va disproporsiyaning vujudga kelishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli korxonada faoliyatining iqtisodiy-ishlab chiqarish rejasi ko'rsatkichlari va bo'limlarining o'zaro aloqada bo'lishini hamda kompleks rejalashtirishni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yerda ham rejalashtirishning balans usuli katta ahamiyatga ega.

Rejalashtirishning yana bir muhim tamoyili **ilmiylik** bo'lib, u avvalo tayyorlanayotgan rejalar va ishlab chiqarishni rivojlantirish dasturlariga, shuningdek, fan-texnika taraqqiyoti talablari, raqobatchilik va bozor talablarini hisobga olishga asoslanadi. Rejalashtirishning ilmiyligi, jonli mehnat va mahsulotga aylangan mehnat xarajatlarining eng kam miqdorida iloji boricha yuqori natijalarga erishishga, shuningdek, korxonada xodimlari manfaatdorligini oshirishga ko'maklashadi.

Komplekslilik tamoyili ishlab chiqarishni, birinchidan, zamon va makonda, ikkinchidan, ishlab chiqarishni boshqarishning gorizont va vertikalida, uchinchidan, ishlab chiqarishning resurs asoslarini ta'minlashda, to'rtinchidan, ishlab chiqarishdagi "tor joylarni" hisobga olish va ularni yo'qotish chora-tadbirlarida, beshinchidan, xodimlarning o'z mehnatlari natijasidan moddiy va ma'naviy qoniqishida, oltinchidan, korxonaning mo'ljallanayotgan daromad yoki foyda olishini amalga oshirishni ko'zda tutadi.

Proporsionallik nafaqat ishlab chiqarishni rejalashtirishda, balki ishlab chiqarishni boshqarishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zarur proporsiyalarga amal qilish ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchining sexlar va ish joylari bo'yicha hamda ishlab chiqarish bosqichlarida to'g'ri taqsimlanishiga va ulardan to'g'ri foydalanishga ko'maklashadi.

Proporsiyalarga amal qilmaslik esa, aksincha, ishlab chiqarishning ba'zi uchastkalarda kuchayib, boshqalarida pasayishiga, ya'ni

disproporsiyalarning vujudga kelishiga hamda korxonalarining noritmik tarzda faoliyat yuritishiga sabab bo'ladi. Zaruriy proporsionallikni ta'minlashda ishlab chiqarishni tashkil etishni texnik-iqtisodiy normalashtirish katta rol o'ynaydi.

Rejalashtirishning uzluksizligi ishlab chiqarishni va umuman, korxonada faoliyatini tashkil etishning muhim tamoyili hisoblanadi. Bu tamoyil amalda joriy rejalarning istiqboldagi rejalar bilan, istiqboldagi rejalarning esa bashoratlar (prognoz) bilan bog'liq bo'lishida o'z aksini topadi. Boshqacha qilib aytganda, rejalashtirish qisqa muddatli tavsifga ega bo'lgan indikativ reja tabiatiga mos kelmovchi, yanvardan martgacha yoki martdan dekabrgacha, ya'ni "...dan" "...gacha" tamoyili asosida amalga oshirilmasligi lozim. Rejalashtirishning "...dan" "...gacha" tamoyilini inkor qilganda biz avvalo vaqt bo'yicha rejalashtirish uzilishining oldini olishni ko'zda tutamiz. Masalan, o'sha indikativ reja o'z davomiga ega bo'lishi, ya'ni korxonada o'z faoliyatini yanvar-mart oylariga rejalashtirganda keyingi davrlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vazifalarni ham, albatta, bozor kon'yunkturasi, iste'molchilar manfaati va ishlab chiqarish holatlarining o'zgarishini ko'zda tutishi lozim. Bu vazifa asosan yil davomida amalga oshiriluvchi rejalarni aniqlashtirish va muayyanlashtirish yo'li bilan bajariladi.

Optimallik ham rejalashtirish tamoyillari qatoriga kiradi. Rejalar barcha ishlab chiqarish resurslaridan chiqitlar va yo'ldosh mahsulotlardan keng foydalanishni inobatga olgan holda iloji boricha ratsional va unumli foydalanishni ta'minlashi hamda yuqori natijalarga erishish uchun eng samarali yo'llarni tanlashi kerak.

Rejalashtirishning optimalligiga iqtisodiy-matematik usullar va elektron hisoblash mashinalarini qo'llash, rejalarning bir nechta variantlarini ishlab chiqish yordamida erishiladi. Ko'p variantlilik eng tejamkor reja varianti yoki korxonada faoliyati dasturini tanlashga imkon yaratadi.

Moslashuvchanlik rejalashtirishning bozor sharoitlaridagi muhim tamoyili hisoblanadi. U ishlab chiqarish rejalariga o'z vaqtida o'zgartirishlar kiritish, iste'molchilar va xaridorlar talablarini hisobga olish, ishlab chiqarishning yuzaga kelishi mumkin bo'lgan pasayishi va inqirozlarning oldini olishga yordam beradi. "Korxonalar to'g'risida"gi qonun ishlab chiqarishni rejalashtirishda ushbu tamoyilni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan sharoitlarni yaratadi. Biroq hech qanday tamoyil, jumladan, yuqorida sanab o'tilgan tamoyillar ham, o'zidan o'zi,

ya'ni shu tamoyillar uchungina kerak emas. Agar amaliyotda qo'llanmasa bu tamoyillar faqat qog'ozda qolib ketishi yoki oddiy chaqiriq bo'lib qolishi mumkin. Shu sababli korxonalar rahbarining rejalashtirish jarayonini, aniqrog'i, rejaning bajarilishi hamda rejalashtirishning belgilangan va boshqa tamoyillari qanday aks ettirilganligini **nazorat qilishi** muhim ahamiyat kasb etadi. Nazorat kerakli natijalarga erishish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan disproporsiyalarni aniqlash va ularning oldini olish, shuningdek, zaxiralarni aniqlash va ulardan foydalanish yo'llarini belgilashga imkon berdi.

Korxonaning taktik rejasini strategik rejasining bir qismi bo'lib, unga qo'yilgan maqsadlarga erishishning vositalari, usullari aniqlanadi. Agar strategik rejalashtirishni asosiy mezon uzoq muddatlilik hisoblanadi, unda marketingni taktik rejalashtirishda o'rta muddatli strategik chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Marketingni operativ rejalashtirishning mezon bo'lib qisqa muddatlilik hisoblanadi. Taktik rejalarda umumiy sotish rejasini, har bir tovar guruhi bo'yicha ta'minot va sotish rejasini, daromadlar rejasini, xarajatlar rejasini, foyda rejasini, savdo uchun zarur jihozlarni, asbob-uskunalar bilan ta'minlanish rejasini, bozorning hozirgi holatiga baho berish, korxonalar imkoniyatlari va xavf-xatarlari ifodalanadi.

Taktik rejalarda o'tgan yildagi ko'rsatkichlardan, jumladan korxonaning tovar oboroti ko'rsatkichidan o'sish, ustunlikka ega bo'lish mo'ljallansa, bu o'sishga imkon beruvchi vositalar (xususan, sotishni rag'batlantirish, reklama va boshqalar) ham keltiriladi. Bozordagi sotiladigan tovarlar xaridori, asosiy segmenti, iste'molchilarning zarurati, raqobatchilar va mol taqsimoti yo'llari ko'rsatib beriladi.

Ayniqsa korxonani faoliyat davomida kutayotgan xavf-xatarini bilish, imkoniyatlarini aniqlash muhimdir. Korxonalar rahbariyati bularni doim diqqat markazida saqlashi va xavf-xatarining salbiy ta'siri oldini olish choralarini izlashi kerak.

Tovarni sotish imkoniyatlarida avvalo korxonaning bozordagi tovar ulushi, raqobatchilar o'rtasidagi mavqei hisobga olinadi. Agar korxonalar tovarining sotilish hajmi oshayotgan bo'lsa, bu yoki umumiy iqtisodiy holatning yaxshilanishi hisobiga (bunda barcha firmalar oboroti oshadi) yoki raqobatchilariga nisbatan korxonalar faoliyatining takomillashgani hisobiga bo'lishi mumkin. Rahbariyat korxonaning bozordagi ulushi o'zgarishini muntazam ravishda nazorat qilib borishi kerak. Agar bu

ulush oshib borsa, korxonaning raqobat qobiliyati kuchayganini bildiradi, va aksincha.

Korxonah rahbariyati, menejeri mijozlar munosabatiga, ularning o'zgaruvchan ehtiyojiga ehtiyotkorlik bilan qarashi, ularni yo'qotmaslikka yo'naltirilgan tadbirlar ishlab chiqishi va hayotga tatbiq etish yo'llarini belgilashi kerak. Bu boradagi axborotlar mijozlarning imkoniyati yoki takliflari orqali fikrlari yoki mahsus to'latiladigan so'rovlarni yordamida to'planadi. Bozor talabi asosidagi joriy ko'rsatkichlar mo'ljallangan reja ko'rsatkichlaridan keskin farq qila boshlasa, mo'ljallangan rejaga tuzatishlar kiritiladi.

Iqtisodiyotlarni tarkibiy qayta qurish va ularning jadal rivojlanishi sharoitida budjetlarni soliq tushumlarini baholashning asosida yotuvchi xalq xo'jaligini prognozlashtirish ko'rsatkichlari bilan muvofiqlashtirish zarurati paydo bo'ldi. Bu hol o'rta va uzoq muddatli prognozlarning ishlab chiqilishiga olib keldi, masalan, Yaponiyada "Milliy daromadni ikki marta oshirishning o'n yillik rejasini" (1961–1970), Kanadada "Iqtisodiy o'sish yo'llarini tanlash" (1976–1985), AQSHda Mehnat vazirligining 1986–1995-yillarga mo'ljallangan prognozi shular jumlasidandir. Prognoz faoliyatining takomillashuvi va murakkablashuviga qarab u budjetlashdan ham uslubiy, ham tashkiliy jihatdan ajrala boshladi: agar dastlabki bosqichda milliy iqtisodiy rejalar (prognozlari) moliya vazirliklarida tuzilgan bo'lsa, 60- yillarning boshidan boshlab mahsus reja organlari (Fransiyada rejalashtirish bo'yicha Bosh komissariat, Kanadada Iqtisodiy kengash, Yaponiyada Iqtisodiy maslahat kengashi, Niderlandiyada Markaziy reja byurosi va h.k.) tuzildi. Yevropa Ittifoqida rejalashtirish tezda milliy darajadan yuqoriga chiqdi, Ittifoq organlari mintaqah xo'jaligini rivojlantirishning qisqa va o'rta muddatli dasturlarini tayyorlay boshlashdi va ular asosida milliy iqtisodiyotlar uchun tavsiyalar tayyorlandi. 1962-yilda "1960–1970-yillarga mo'ljallangan Elni iqtisodiy rivojlantirish istiqbollari" paydo bo'ldi, so'ngra 1971–1975 va 1976–1980-yillarga mo'ljallangan o'rta muddatli iqtisodiy siyosat dasturlari ishlab chiqildi.

Mamlakatimizda rejalashtirish nazariyasi va amaliyoti murakkab vaziyatda turibdi. O'tmishda ortirilgan tajribani yangi iqtisodiy sharoitda qo'llashning iloji bo'lmay qoldi. Bozor vazifalarini hal etishda uni yangilash uchun vaqt talab etiladi. Agar rejalashtirish tamoyillari tubdan o'zgarsa, uslubiy salohiyat kamroq o'zgaradi. Bir tomondan, bozor muvozanatiga erishish, ikkinchi tomondan, xo'jalik ichida

rejalashtirish qator umumiy belgilar mavjud. Hozirgi vaqtda ko'plab mamlakatlar hukumatlari o'z vazifalarini hal etish uchun dasturlash va indikativ rejalashtirishdan faol tarzda foydalanishmoqda. Jahonning sanoati rivojlangan mamlakatlari rejalashtirish va prognozlardan foydalanish orqali butun jamiyatni rivojlantirish maqsadlariga erishish uchun bozor jarayonlariga ta'sir ko'rsatishga urinishadi. Firma darajasida reja ko'rsatkichlari mulkdor yoki rahbar tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi. Bu yerda biznes rejalashtirish usuli faol qo'llaniladi. Ayniqsa, yirik firmalarda strategik rejalashtirishning barqaror amaliyoti yaxshi natija bermoqda. Ushbu jahon tendensiyalari sho'rolar tuzumidan keyingi mamlakatlar iqtisodiyotida ham amal qila boshladi. Tegishli adabiy manbalar tahlili indikativ rejalashtirish evolutsiyasining mohiyati va shakllari, uning davlat yo'li bilan tartibga solish va aralash iqtisodiyotning bozor usuli bilan o'zini o'zi tartibga solishi o'zaro nisbati yuzasidan boshlang'ich fikrlarni shakllantirishga yordam berdi.

5.3. Korxonalarda rejalashtirish va bashorat qilish

Korxonalar faoliyati va iqtisodiyotda rejalashtirishdan tashqari **bashorat qilish** ham katta rol o'ynaydi. Bashorat qilish xo'jalik faoliyati yurituvchi subyektning istiqbolda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan holatlarni ilmiy asoslagan holda avvaldan ko'ra bilishini ifodalaydi. U yuzaga kelayotgan yoki kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan iqtisodiy, ilmiy-texnik va ijtimoiy holatlarni baholash va tahlil qilish asosida yaratiladi hamda muqobil qarorlarni tanlashga imkon yaratadi.

Bashorat qilish rejalashtirish tavsifida o'z aksini topadi: ishlab chiqarish va korxonada iqtisodiy hayotining boshqa jihatlarini **strategik rejalashtirish** - o'rta va uzoq muddatli bashoratlar asosida hamda **joriy rejalashtirish**-qisqa muddatli bashoratlar asosida ishlab chiqiladi. Bu yo'nalishlarning ikkalasi ham o'zaro uzviy aloqada bo'lib, ishlab chiqarish strategiyasini fan-texnika taraqqiyoti va hayotning real voqeligi bilan bog'laydi.

Bashoratlarning maqsadi - bozorga ta'sir qiluvchi omillarni, shu bilan birga, xo'jalikning umumiy ahvoli, tuzilmaviy siljishlar, investitsion faollik, fan-texnika taraqqiyotining iste'molchi va ishlab chiqaruvchilarga ta'sir ko'rsatishi, an'anaviy mahsulotlardan tashqari

korxonaning barqarorligi va raqobatbardoshligiga olib keluvchi «pioner» (yangi) mahsulot ishlab chiqarish istiqbolida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan holatlarini belgilashdadir. Korxonalar uchun talabni prognozlash-tirish muhim ahamiyatga ega bo'lib, u ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar turi va miqdorining o'zgarishini avvaldan aniqlab beradi. Umuman olganda, prognoz rejalashtirishning ilmiy asosidir.

Basharot – bu, korxonada, obyekt yoki hodisaning kelajakdagi ahvoli va ularni amalga oshirish variantlari va muddati to'g'risidagi ilmiy jihatdan asoslangan mulohazadir. Bashoratlarni ishlab chiqish jarayoni bashorat qilish, ya'ni kelajakni hozirgi paytdan kelib chiqqan holda oldindan ko'ra bilish, deb ataladi.

Korxonada hamda butun iqtisodiyot miqyosida bashorat qilishning obyektlari sifatida iqtisodiy, ijtimoiy, fan-texnika va boshqa jarayon va hodisalarni ko'rsatish mumkin. Korxonalar faoliyatida *iqtisodiy bashoratlarni* alohida va yetakchi o'rin egallaydi. Ularning asosiy vazifalari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: rivojlanish maqsadlarini belgilash, optimal yo'nalishlar va ularga erishish vositalarini izlab topish, resurslarni va qo'yilgan vazifalarni bajarish muddatlarini belgilash, korxonada rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan cheklashlarni aniqlash.

Rejalashtirish – qaror qabul qilishning uzluksiz bir jarayoni bo'lib, bu jarayon davomida korxonada faoliyati va rivojlanishining maqsad va vazifalari atrofida ro'y berayotgan o'zgarishlarni inobatga olgan holda vaqt bo'yicha aniqlanadi va belgilanadi hamda ularni amalga oshirish uchun resurslar aniqlanadi. Mazmuniga ko'ra, rejalashtirish texnik-iqtisodiy va tezkor-ishlab chiqarish turlariga bo'linadi.

Texnik-iqtisodiy rejalashtirish korxonada faoliyatining barcha (iqtisodiy, texnik, ijtimoiy va hokazo) jihatlarini qamrab oluvchi rejalashtirish turi bo'lib, asosan bir yilga mo'ljallangan iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish rejasi shaklida amalga oshiriladi. Mazkur rejalashtirish turining soddalashtirilgan ko'inishi ko'pincha korxonada faoliyatining yillik rejasi deb ataladi.

Tezkor-ishlab chiqarish rejalashtirish texnik-iqtisodiy rejalashtirishning davomi bo'lib, korxonada faoliyati yillik rejasini yanada qisqaroq muddatga-sutka, o'n kunlik, oyga bo'lib muayyanlashtirish bilan tavsiflanadi. Tezkor-ishlab chiqarish rejalashtirish-kalendar rejalashtirish va dispetcherlashdan iborat bo'ladi.

Kalendar rejalashtirishda korxonada yillik rejasida va birinchi o'rinda ishlab chiqarish dasturi (mahsulot tayyorlash rejasini) o'n kunlik, hafta, kun va smena bo'yicha aniqlashtirish hamda bu ko'rsatkichlarni bajaruvchilarga yetkazish ko'zda tutilgan.

Dispetcherlashtirish oylik, o'n kunlik, kunlik sutka-smenalik rejalarni bajarishni tezkor boshqarishda ifodalanadi. Shuni qayd qilish kerakki, yuqorida ko'rsatib o'tilgan rejalashtirish turlari asosan mashinasozlik, samolyotsozlik, avtomobilsozlik kabi sohalarning yirik va ba'zi hollarda o'rta korxonalari uchun xosdir. Garchi, biznes-reja hozirgi kunda "ommaviy" bo'lib yirik va o'rta korxonalarda qo'llansada, asosan ishlab chiqarish hajmi katta bo'lmagan hamda xodimlar soni 100 kishigacha bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalar biznes-rejalarda asosida faoliyat yuritadi.

Hozirgi paytda iqtisodiyotga oid bo'lgan adabiyotlarda rejalashtirishga nisbatan *strategik, uzoq muddatli, qisqa muddatli va joriy rejalashtirish* kabi tushunchalar qo'llanmoqda. Ularning har biri o'z shakli, ko'rsatkichlarni ishlab chiqarish va hisoblash usullariga ega.

Strategik rejalashtirish xo'jalik yuritishning bozor tizimidagina vujudga kelib, 10-15 yillik davrni o'z ichiga oladi. U korxonalar rahbariyatining mas'uliyatli vazifasi hisoblanadi hamda rivojlanishning ustivor yo'nalishlarini topish va bozorda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan talabni inobatga olgan holda resurs bilan ta'minlashga qaratilgan.

Strategik rejalashtirish asosida yaqin 3-5 yilga mo'ljallangan *uzoq muddatli rejalashtirish* amalga oshiriladi. U korxonalar faoliyatining ishlab chiqarish, sotish, xarajatlar, moliya kabi turlarini o'z ichiga oladi hamda o'z mazmuni va maqsadli funksiyalariga ko'ra, strategik rejalashtirishdan farq qilmaydi.

Qisqa muddatli rejalashtirishda korxonalar faoliyati va rivojlanishi 1-3 yilga mo'ljallab rejalashtiriladi. Uning o'ziga xosligi shundaki, birinchi yil ko'rsatkichlari har chorakda, ikkinchi va uchinchi yil ko'rsatkichlari esa har yarim yil yoki bir yilda aniqlashtiriladi va to'g'rilashlar kiritilib boriladi. Buning maqsadi sifatida esa, reja ko'rsatkichlarining iqtisodiy muhit, bozor va fan-texnika taraqqiyotida yuz berayotgan o'zgarishlarni to'laroq aks ettirishga intilishni ko'rsatish mumkin.

Bozor munosabatlarida raqobatchilikni kuchaytirish hamda xo'jalik yuritish va hayotiy jarayonlar dinamikasi hisobiga *joriy rejalashtirish* amalga oshirilib, unga choraklarga bo'lingan yillik rejalarda asos qilib

olinadi. Ushbu rejalar qoidaga ko'ra, o'zgaruvchan bo'lib, joriy yilning birinchi uch oyi uchun *qat'iy, hayotiy ko'rsatkichlar* belgilanib, keyingi to'qqiz oy davomida ularga to'g'rilashlar (korrektirovka) kiritiladi. Ular qisqa muddatli rejalariga qaraganda, ayniqsa, ishlab chiqarish harakati va moddiy-tovar boyliklari zaxirasi, bahoni shakllantirish qismida yanada aniqroq hisoblanadi. Umuman olganda, korxonaning turli bo'lim va xizmatlari vazifalari bunday rejalarda o'zaro bog'lanadi.

Rejalashtirishning istalgan turi korxonada faoliyatining biron-bir jihatini aks ettiruvchi, umumiy va xususiy, sifat va miqdor ko'rsatkichlariga asoslanadi.

Umumiy va umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar korxonada ishlab chiqarish rivojlanishining yo'nalishi va darajasini aks ettiradi. Bunday ko'rsatkichlar qatoriga ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmi, mehnat, tannarx va jamg'armalar bo'yicha ko'rsatkichlarni kiritish mumkin.

Xususiy ko'rsatkichlar umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar asosini tashkil qiluvchi alohida elementlarni, masalan, material, yoqilg'i, energiya va shu kabilarning mahsulot tannarxidagi salmog'ini tavsiflaydi. Shuningdek, bu ko'rsatkichlar asosiy ko'rsatkichlar darajasiga ta'sir o'tkazuvchi alohida omillarni ham tavsiflab beradi. Masalan, yordam ko'rsatuvchi ishchilar salmog'ining mehnat, ishlab chiqarishi darajasiga ta'siri; asbob-uskunalar ish bilan ta'minlash koeffitsiyentining ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmi va korxonada ishlab chiqarish dasturining bajarilishiga ta'siri; xomashyo va materiallardan foydalanish koeffitsiyentining mahsulot tannarxi pasayishiga ta'siri va hokazolar.

Umumlashtiruvchi hamda xususiy ko'rsatkichlar ikkita kategoriyaga - miqdor (absolut) va sifat (nisbiy) kategoriyalariga bo'linishi mumkin.

Miqdor ko'rsatkichlari korxonaning ishlab chiqarish va xo'jalik yuritish faoliyatini hajm o'lchamida izohlaydi. Bunday ko'rsatkichlar qatoriga ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar miqdori, ishlayotgan xodimlar soni va mehnatga haq to'lash fondi, mashina va asbob-uskunalar parki, ishlab chiqarish dasturini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan materiallar miqdori, sex hamda ish joylari soni va hokazolarni kiritish mumkin.

Sifat ko'rsatkichlari korxonaning ishlab chiqarish faoliyatidagi o'zgarishlarni nisbiy kattaliklar: mehnat mahsuldorligining o'sishi, mahsulot tannarxining bazis davrga (yoki reja hisobotiga) nisbatan

foizlarda kamayishi, mahsulotning to'liq tannarxiga nisbatan foizlarda daromad hajmi, korxonalar rentabellik darajasining o'sishi va shu kabilar yordamida tavsiflaydi.

Sifat ko'rsatkichlari aksari hollarda pul qiymatida ifodalanishi sababli, korxonalarining xo'jalik faoliyatini rejalashtirish va tahlil qilish amaliyotida asosiy va aylanma fondlar, asbob-uskunalar, sarflanayotgan yoqilg'i, energiya va boshqa materiallar kabi *qiymat ko'rsatkichlaridan* foydalaniladi. Qiymat ko'rsatkichlari korxonalar faoliyatida qo'llaniluvchi turli xildagi vositalarni statika va dinamikada taqqoslash imkonini beradi. Bundan tashqari, soliqlar va turli xil to'lovlar hamda korxonalar daromadi foizlardan tashqari pul ko'rinishida ham o'lchanadi.

Korxonalar faoliyatini rejalashtirish korxonalar va uning bo'linmalari faoliyatini tahlil qilishdan boshlanishini aytib o'tish muhim. Mazkur tahlil davomida rejalashtirish sifat, miqdor va qiymat ko'rsatkichlari bo'yicha bajarilishiga baho beriladi hamda talofat va yo'qotishlar aniqlanib, korxonalar faoliyatini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqiladi. Aynan shu chora-tadbirlar va yangi maqsadlardan kelib chiqqan holda joriy rejalashtirish amalga oshiriladi hamda yangi reja davriga korxonalar faoliyati rejalari ishlab chiqiladi.

5.4. Rejalashtirish texnologiyasi va korxonalar rejalari tuzilmasi

Rejalashtirish korxonalar boshqarish jarayoni sifatida o'z texnologiyaiga ega bo'lib, bu texnologiya korxonalarining rejalashtirilayotgan davrdagi maqsad va vazifalarini aniqlash, bajaruvchilarga muayyan vazifalarni belgilash, vazifalarni turi, kattaligi va muddatiga ko'ra, aniqlashtirish, shuningdek, ishlab chiqarish faoliyati natijasi – daromad yoki foyda olishni o'z ichiga oladi. Kichik korxonalarda bu vazifalarni bajarish katta korxonalariga nisbatan yengilroq bo'lsada, barcha hollarda quyidagi omillarni hisobga olish talab qilinadi:

- ishlab chiqarish quvvatining mavjudligi va tuzilmasi;
- xodimlar soni, ixtisos tarkibi va malakasi;
- moliyaviy resurslar;
- aylanma mablag'lar mavjudligi va unga bo'lgan ehtiyojlar, jumladan, moddiy-tovar boyliklari zaxiralari;

- ilmiy-texnik tadqiqotlar tuzilmasi va tayyorlik darajasi;
- mahsulotni sotish kanallari.

Rejalashtirish, reja loyahasini uning mahsulot ishlab chiqarish va sotish rejasi, moddiy-texnika ta'minoti rejasi, kadrlar va oylik maosh bo'yicha reja, yangi texnika va kapital qo'yilmalar rejasi, moliyaviy reja kabi asosiy qismlari doirasida tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan **rejadan avvalgi davrni** o'z ichiga oladi. Ularning moddiy va moliyaviy resurslar hamda bajarish muddati bo'yicha to'liq o'zaro bog'liqligi va balanslashganligi rejalashtirish jarayoni va korxonalar rejasining ishonchliligini ta'minlovchi muhim jihatdir. O'z navbatida, mahsulot ishlab chiqarish ishchi kuchining mavjudligi, shartnomalar bo'yicha mahsulot yetkazish rejaları va ishlab chiqarish quvvatlari bilan, tannarx rejaları esa ishlab chiqarish dasturlari va moliyaviy reja bilan bog'liq bo'ladi.

Rejalarni ishlab chiqishda korxonaning barcha sexlari va funksional bo'linmalari, jumladan, moliya va reja bo'limi, mehnat va ish haqi bo'limi, marketing xizmati, buxgalteriya, texnik bo'lim, sex rahbarlari ishtirok etishlari zarur. Korxonalar rejasi va uning bo'limlari qanchalik sinchkovlik bilan ishlab chiqilgan bo'lsa, uni bajarish shunchalik yengillashadi, resurslar kamroq talab qilinadi hamda ish sifati yuqori darajada bo'ladi.

Afsuski, rejaning balanslashtirilmaganligi, unda xatolar mavjudligi, shuningdek, rejani bajaruvchilarning intizomsizligi (amalga oshirishni sust nazorat qilish natijasida) tufayli ko'p vaqt hamda mablag'lar isrof qilinmoqda. Xuddi shu sababli mahsulot sifati pasayib, daromad olish o'rniga xarajatlar yuzaga kelmoqda. Bundan kelib chiqqan holda rejalashtirishni korxonalar jamoasining funksiyasi, deb atashimiz mumkin.

Rejalashtirish tizimi quyidagi talablarga javob bergan taqdirdagina samarali va ishonchli hisoblanadi:

1. Rejalashtirishning har bir elementi va bosqichi qat'iy ravishda asoslab berilishi.


2. Rejadagi vazifalarning aniq va o'z vaqtida bajarilishi, ya'ni rejaning adresliligi.

3. Reja bajarilishini doimiy va uzluksiz ravishda hisobga olish, nazorat qilish va unga zarur hollarda o'zgartirishlar kiritish.

4. Ichki va tashqi muhitdagi o'zgarishlarni ijobiy qabul qilish, shuningdek, korxonalar faoliyatini ro'y bergan o'zgarishlarga mos

ravishda, o'z vaqtida qayta tashkil qilish (rejalashtirishning moslashuvchanligi).

5. Fan-texnika taraqqiyoti va xo'jalik yuritishning ilg'or tajribalariga tayanish.



5.1- rasm. Korxonada rejalashtirish jarayoni texnologiyasi

Rejalashtirish davomida bugungi kundan tashqari, kelajakni, ertangi kuni ham inobatga olish zarur.

Korxonada istiqboli va bozordagi holatining barqarorligi, ko'p jihatdan uning ilg'or texnika va fan yordamida yaratilgan eng yaxshi mahsulotlar namunasini tezlik bilan o'zlashtirib olish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi. Shu sababli korxonalarda axborot tizimini yaxshi yo'lga qo'yish hamda reklama faoliyatini rivojlantirish lozim.

Reklama iste'molchilarni (xaridorlarni) mavjud mahsulot bilan tanishtirishdan tashqari, xuddi xorijdagi kabi, ularni aynan shu mahsulotni sotib olishga undashi kerak.

Rejalashtirishning har bir turi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bu xususiyatlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- belgilangan rejalashtirish oraliq'ining aniqligi;
- integratsiya va differentsiatsiya darajasi, shuningdek, rejalashtirilayotgan ko'rsatkichlar miqdori;

- ishlab chiqarish xarajatlari va natijalarini hisob-kitob qilish darajasiing aniqligi;

- rejani tayyorlovchilar va amalga oshiruvchilar o'rtasida majburiyatarni taqsimlash tartibi.

Rejalashtirishda "korxonamuhit-holat" munosabatlari asosiy o'ringa egadir. Bunda ishlab chiqarish shunday rejalashtiriladiki, natijada korxonaning bozordagi barqarorligini saqlab qolish, yuzaga keladigan holat va tashqi muhitni hisobga olishdan tashqari, mahsulotni tezda sotish va ishlab chiqarish rentabelligining o'sishiga imkon yaratiladi. Buning uchun korxonam anchadan beri ishlab chiqarilayotgan an'anaviy mahsulotlardan tashqari, yangi mahsulot turlarini, jumladan, o'xshashi bo'lmagan mahsulotlarni ishlab chiqarishi, mahsulotlar turini ko'paytirishi zarur.

Barcha xodimlar, ayniqsa, rahbarlar, bugungi kunda kelajakdagi faoliyat uchun qulay istiqbol yaratish nisbatan oson bo'lsada, xuddi shu ishni 3-5 yildan so'ng, ya'ni istiqboldagi kunga aylangan paytda bajarish qiyinlashadi yoki bunga umuman imkon bo'lmaydi. Shu sababli rejalashtirish joriy holatdan tashqari iqtisodiyot va fan-texnika taraqqiyoti sohalaridagi ro'y berishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni qanchalik ko'p hisobga olsa, uning natijalari shunchalik yuqori bo'ladi.

Bu yerda korxonaning yo'lga qo'yilgan marketing xizmati, xodimlar malakasi hamda mamlakatimizda va chet elda ishlab chiqarilayotgan turli mahsulotlar haqidagi ilmiy-texnik ma'lumotlar muhim o'rin egallaydi. Umuman olganda korxonada rejalashtirish tuzilmasi va mazmunini quyidagi model ko'rinishida aks ettirish mumkin (5.2-rasm).

Hozirgi paytda korxonalarning aksar qismi asosan joriy rejalar (biznes-rejalar) tayyorlash bilan shug'ullanmoqda. Biznes-rejalarda eng muhim rejalashtirish ko'rsatkichlari quyida keltirilgan:

- ishlab chiqarilayotgan mahsulot(ish, xizmat) nomenklaturasi va hajmi (natural ko'rinishda);

- mahsulot sotish hajmi (pul ko'rinishida);

- mahsulot birligining tannarxi;

- foyda (daromad);

- kategoriyalar bo'yicha xodimlar soni;

- mehnatga haq to'lash fondi va o'rtacha ish haqi darajasi;

- omborlardagi xomashyo va materiallar, tugallanmagan ishlab chiqarish va tayyor mahsulot zaxiralari;

- aylanma vositalar hajmi - umumiy va guruhlar bo'yicha;

- kapital qo'yilmalar hajmi, jumladan, qo'yilma obyektlari va yo'nalishlari bo'yicha;

- yangi texnika va texnologiyaga oid chora-tadbirlar;
- boshqa ko'rsatkichlar (zarurligi va aniqlanishiga ko'ra).

5.2-rasm

Rejalashtirish korxonani boshqarish tizimi sifatida

Ishlab chiqarishni rejalashtirish turlari

Uzoq muddatli rejalashtirish	Joriy rejalashtirish	Kalendar rejalashtirish	Dispetcherlashtirish va kuzatuv
<p>Uzoq muddatli rejalar Sotish hajmi bashorati Ishlab chiqarish vositalariga ehtiyojlar Aylanma vositalar(mablag'lar)ning moddiy-tovar boyliklari zaxiralarga kiritilishi Qisqa muddatli rejalar Sotish hajmi bashorati Ishlab chiqarish quvvati Moddiy-tovar boyliklari zaxiralari miqdori Ishlab chiqarish darajasi Yangi mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish Realizatsiya hajmini baholash Ishlab chiqarish vositalariga ehtiyoj Aylanma vositalar(mablag'lar)ning moddiy-tovar boyliklari zaxiralarga kiritilishi Koordinatsiya va vaqt muddatini tanlash</p>	<p>Joriy rejalar Mahsulotlar nomi va turlari bo'yicha Sotish bashorati Zavodning ishlab chiqarish quvvati Zaxiralarda darajasi, Ishlab chiqarish darajasi Bandlik darajasi Iste'molchi buyurtmasi bilan ishlab chiqarish Joriy buyurtmalar hajmini solishtirish Bashorat O'tgan yillar uchun buyurtmalar hajmi Tayyor mahsulot zaxiralari boshqarish Mahsulotni taqsimlash Yuklash muddati bo'yicha majburiyatlar Buyurtma qabul qilinganini tasdiqlash Yuklashga sanksiya berish Ishlab chiqarishga buyurtma berish Buyurtma hajmi Buyurtmani bajarish vaqtini tanlash</p>	<p>Harakatlar yo'nalishi Detallar ro'yxati (tasnifi) Moddiy tasniflar Texnik nazorat uchun ma'lumotlar Operatsiyalar ketma-ketligi Sozlashga ajratiluvchi vaqt Operatsiyalarni bajarish va harakatlanish Ishlab chiqarish buyurtmalari bilan ishlab chiqarish Detal va qismlarga ehtiyoj Yig'uv detallari va qismlari Xomashyo va materiallar Rejali boshqarish Tugallanmagan ishlab chiqarish Tayyor mahsulot zaxiralari Bosh (asosiy) kalendar dasturi Detallar bo'yicha kalendar dasturlar Asbob-uskunalarini ish bilan ta'minlash</p>	<p>Kalendar dasturlarini muvofiqlashtirish Materiallarga bo'lgan talab Uskunalar bo'lgan talab Ishni bajarish bo'yicha yo'riqnomalar Nazorat hujjatlari Axborot yetkazish Foydalangan materiallar Foydalangan uskunalar Ishlab chiqarish: ishlab chiqarishning borishi va to'xtab qolishlar Mehnat xarajatlari Tayyorlangan mahsulotlar soni, (dona) Vaqt, uskunalar va stanoklardan foydalanish Mahsulot tayyorlash ustidan bevosita nazorat Tayyorlanayotgan mahsulotlar hisobi va yaroqliligi Operatsiyalar oraliqida materiallarning detallar dastgohiga Jismoniy harakatlanish: Ko'zda tutilmagan to'xtab qolishlarni bartaraf etish To'xtab qolish va zaif joylarni yo'qotish To'xtab qolishlarning oldini olish</p>

Yangi mahsulotlar va texnologiyalarni qo'llash loyihalari, shuningdek, investitsiyalar va qurilish bilan bog'liq bo'lgan chora-tadbirlarning bir qismi alohida rejalariga kiritiladi. Ular chora-tadbirlarni amalga oshirishning butun davriga tuziladi.

Rejalashtirish tizimi maqbul yo'lga qo'yilganda rejada belgilangan ko'rsatkichlarning raqamlarda belgilanishi kiritilgan mutlaq kattalik sifatida ko'rib chiqilishi lozim.

Rejalarning bajarilishi ustidan nazorat qilish ko'p hollarda chetga og'ishlarga nisbatan yuritilib, ular tahlil qilinadi, chetga og'ishning sabablari aniqlanadi hamda chetga og'ishlar salbiy xarakterli bo'lsa, ularga nisbatan zaruriy choralar qo'llanadi.

Rejalashtirishda mohiyatiga ko'ra, korxonada turgan ishlab chiqarish vazifalari va korxonaning iste'molchilar talabiga munosabatiga tavsiflovchi buyurtmalar "portfeli"ni shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi.

5.5. Biznes-reja, uning mazmuni va ishlab chiqish tartibi

Tadbirkorlik – korxonalar xo'jalik yuritish faoliyatining uzluksiz qismi bo'lib, foyda (daromad) olish va uni ko'paytirishga qaratilgan bo'ladi. Korxonalar hayotida u, boqibeg'amlikka berilish, turg'unlik va isrofgarchilikni inkor qilishni anglatadi. Korxonada rahbari yoki mutaxassis tadbirkorlik va tashabbuskorlik "ruhiga" ega bo'lmasa, demak, u bo'sh yoki yomon xodim, xizmatda belgilangan soatlarni o'tkazib o'tiruvchi shaxs hisoblanadi. Aksincha, tadbirkorlik va tashabbuskorlik "ruhiga" ega bo'lgan mutaxassis yoki mansabdor shaxslar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va rivojlantirish, mehnat sifatini ko'tarish va korxonaning oladigan daromadlarini ko'paytirish yo'llarini izlab topadilar.

Tadbirkorlikni ko'pincha muayyan shaxsga "bog'lab qo'yadilar" hamda bu shaxsni tadbirkor yoki biznesmen deb ataydilar. Bundan tashqari bir guruh shaxslardan tashkil topuvchi jamoa tadbirkorligi ham mavjud. Bu holatni jamoa biznesi yoki jamoa tadbirkorligi deb atash mumkin.

Agar yakka shaxs individual tarzda yoki kichik bir jamoa vositachilik, oldi-sotdi, maslahat va boshqa xizmatlar bilan shug'ullansa, u holda biznes-reja talab qilinmaydi. Boshqa hollarda **biznes-reja** yangi

korxonaga tashkil qilish yoki biron-bir tijorat loyihasini amalga oshirish uchun mo'ljallanayotgan asoslangan xatti-harakatlarni o'z ichiga oluvchi hujjat hisoblanadi.

Uning asosiy vazifasi, korxonaga o'z imkoniyatlarini baholash, bozordagi istiqbolni, zaruriy xarajatlarni aniqlash, korxonaga faoliyatining birinchi yillarida "suv ostidagi toshlar"ni aniqlash hamda mazkur faoliyat turining foydali yoki zararli ekanligini baholash ko'rsatkichlari yordamida hisoblashga yordam berishda deb belgilanadi.

Biznes-rejani tayyorlash natijasida "*Ishni nimadan boshlash kerak?*", "*Samarali ishlab chiqarishni qanday tashkil qilish lozim?*", "*Birinchi foyda yoki daromad qachon olinadi?*", "*Investorlar va kreditorlar bilan qachon hisob-kitob qilish mumkin?*", "*Yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarni qanday kamaytirish mumkin?*", "*Raqobatchilar bilan kurashda qanday choralardan foydalanish mumkin?*" kabi savollarga javob olinadi.

Biznes-rejani tuzishda quyidagi shartlarga alohida e'tibor qaratish zarur:

-biznes-reja professional va shu bilan bir paytda sodda, bajarish uchun tushunarli va oson bo'lishi lozim;

-biznes-reja investor yoki boshqa manfaatdor shaxs o'ziga kerakli ma'lumotlarni qidirib topishi uchun bo'limlarga bo'linishi lozim;

-biznes-rejani tayyorlashda korxonaning bosh rahbari albatta qatnashishi shart, chunki investor, bank yoki boshqa moliya idorasi korxonaga rahbari qatnashmaganligi yoki boshqa shaxsga topshirilganligi haqida xabar topsa, biznes-rejaning ishonchligiga shubha uyg'onishi mumkin;

-biznes-rejaning obyektiv baholanishiga erishish kerak, ya'ni unda xatolar va noto'g'ri hisob-kitoblar bo'lmasligi lozim;

-biznes-rejaning tarqatib yuborilmasligini nazorat qilish zarur, chunki unda biznes to'g'risidagi maxfiy ma'lumotlar joy olgan bo'ladi.

Rejalarning har bir turi kabi, biznes-reja ham, bo'lim va ko'rsatkichlardan iborat bo'ladi. O'ntagacha bo'limni o'z ichiga oluvchi biznes-reja mazmuni va tuzilishiga ko'ra, eng maqbul hisoblanadi. Mavjud adabiyotlarda quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oluvchi biznes-rejalar taklif qilinadi:

1. Tanlangan biznes konsepsiyasi.
2. Hozirgi paytdagi holat (maqsad, vazifa va niyatlar).

3. Tashkil qilinayotgan korxonaga va uning mahsulot hamda xizmatlari tavsifnomasi.
4. Boshqaruv (menejment).
5. Bozor tadqiqoti va tahlili.
6. Marketing harakatlari rejasini.
7. Ishlab chiqarish rejasini.
8. Tavakkalchilikni baholash.
9. Moliyaviy reja.
10. Biznes-loyihaning samaradorligini.

Tanlangan biznes yo'nalishining konsepsiyasini tuzishda uning raqobatbardoshligi (sifat, narx, iste'molchiga yetkazib berish shakli, tayyorlash texnologiyasi va hokazo); mablag'larga bo'lgan ehtiyojlar; o'ziga jalb qilishning asoslanganligi (taklif qilinayotgan mahsulotning boshqa mahsulotlardan afzalliklari, mahsulot ishlab chiqarishning qaysi bosqichda ekanligi va hokazo)ga katta e'tibor qaratish lozim.

Konsepsiyada tanlangan tovar bozoridagi ahvol; korxonaning tanlangan biznes sohasidagi kuchli va kuchsiz tomonlari; boshqa bozorga chiqish imkoniyatlari; bozorga ta'sir o'tkazuvchi qonunchilik, siyosat, demografik holat kabi omillar aks ettiriladi. Bundan tashqari konsepsiya bahoning o'zgarishi, inflatsiyaning o'sishi, kapital olib chiqish yoki mahsulot olib kirishni cheklovchi qonun hujjatlarini qabul qilinishi kabi sharoitlarda, mahsulotni sotishni ko'paytirish uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlarni ham o'z ichiga oladi. Ushbu bo'lim tanlangan biznes yo'nalishi maqsadlari va niyatlarining shakllanishi bilan yakunlanadi.

Korxonaga, uning mahsulot va xizmatlari tavsifnomasi bo'limida korxonaning joylashgan manzili, bozorga chiqish shakli, bozordagi ulushi, asosiy raqobatchilari va ularning kuchli tomonlari, texnologiya darajasi va xarajatlar tahlili aks ettiriladi.

Mulkchilik shakli, xodimlarning malakasi, tashqi muhit bilan munosabatlar "**Boshqaruv**" bo'limida ko'rsatiladi.

"**Bozor tadqiqoti va tahlili**" bo'limida tanlangan bozor asoslab beriladi, xaridorlarni korxonaga mahsulotlariga jalb etuvchi raqobatchilik usullari hamda bozorda bahoni shakllantirish va hokazolarni ko'rib chiqiladi.

Marketing rejasining asosiy vazifasi korxonaning bozordagi imkoniyatlariga baho berishdir. Marketing rejasining asosiy elementlari sifatida tovarlarni tarqatish tizimi, bahoni shakllantirish,

reklama, savdoni rag'batlantirish usullari, sotilgandan keyingi xizmat ko'rsatishni tashkil qilish, korxonada (firma) va uning mahsulotlari haqida jamoatchilik fikrini shakllantirish kabilarni ko'rsatib o'tish mumkin.

"Ishlab chiqarish rejasi" potensial xaridorlarga kerakli mahsulotlar hajmini o'z vaqtida ishlab chiqarish imkoniyatining mavjudligini ko'rsatadi.

Mazkur bo'limda quyidagilar o'z aksini topadi: yangi tashkil qilingan yoki faoliyat yuritayotgan korxonada tovar ishlab chiqarish joyi; buning uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish quvvatlari va ularning o'sish istiqbollari; xomashyo va material yetkazib beruvchilar; ishlab chiqarish kooperatsiyasi; ishlab chiqarish oqimlari tizimini tuzish; sifatni nazorat qilish jarayoni; foydalaniladigan standartlar; vujudga kelishi mumkin bo'lgan ishlab chiqarish xarajatlari.

"Tavakkalchilik va sug'urtalashni baholash" bo'limi ikki qismga bo'linadi. Birinchi qismda tavakkalchilikning barcha turlari (yong'in, zilzila, soliqni boshqarishdagi o'zgarishlar va valuta kursining tebranishi) oldindan hisoblab chiqiladi.

Ikkinchi qismda esa tavakkalchilik xavfining oldini olish, ya'ni tavakkalchilik va zararlarni qisqartirish chora-tadbirlari ko'rsatiladi, shuningdek, tavakkalchilik xavfidan sug'urtalash dasturi amalga oshiriladi.

Moliyaviy reja biznes-rejaning yakunlovchi bo'limi bo'lib, korxonada faoliyatining natijalarini tavsiflaydi. U quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi:

- savdo hajmining bashorati;
- pul daromadlari va xarajatlari balansi;
- foyda va zarar bo'yicha reja.

Mazkur rejaning ko'rsatkichlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- tovarlarni sotishdan tushgan daromad;
- ishlab chiqarish xarajatlari;
- savdodan tushgan umumiy foyda;
- sof foyda;
- korxonada aktiv va passivining solishtirma balansi;
- zararsizlikka erishish grafigi.

Shuningdek, mazkur bo'limda ishlab chiqarishni tashkil qilish yoki kegaytirish uchun mablag' jalb qilish rejalarini ham ifodalanadi. Bo'limda

korxonaning moliviy barqarorligi yoki nochorligini aniqlash imkonini beruvchi mahsus ko'rsatkichlar hisob-kitobi ham keltiriladi.

Tayanch iboralar

Rejalashtirish, indikativ reja, prognoz, strategik rejalashtirish, joriy rejalashtirish, bashoratning maqsadi, rejalashtirish uslubiyoti, balans usuli, normativ usuli, norma, normativ, rejalashtirishning asosiy vazifalari, rejalashtirishning tamoyili, texnik-iqtisodiy rejalashtirish, tezkor-ishlab chiqarishni rejalashtirish, kalendar rejalashtirish, umumlashtiruvchi ko'ratkichlar, xususiy ko'rsatkichlar, sifat ko'rsatkichlari, biznes rejalashtirish.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Korxonada faoliyatining samaradorligini qanday sabab va omillar belgilaydi?
2. Reja, rejalashtirish kabi tushunchalar nimani anglatadi?
3. Bozor va reja o'zaro qanday kelishuvga keladi?
4. Bozor sharoitlarida rejalashtirish vazifalari va ahamiyati.
5. Rejalashtirishdan talab qilinuvchi asosiy talablarni sanab o'ting.
6. Rejalashtirishning qaysi tarkibiy elementlari sizga ma'lum?
7. Reja bilan bashoratning farqi nimada?
8. Loyiha bilan texnik-iqtisodiy asoslashning farqi nimada?
9. Biznes-reja nima va uning tuzilmasi qanday?
10. Biznes-rejani tayyorlashning maqsad va vazifalarini aytib o'ting.

VI BOB. ISHLAB CHIQUARISHNING IQTISODIY VA IJTIMOY SAMARADORLIGI

Ushbu bobda ishlab chiqarishning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini korxonada muvaffaqiyati va iqtisodiy jihatdan barqarorligiga ta'siri, saaradorlikni iqtisodiy xarajatlarni minimallashtirish va foydani maksimalashtirishdagi o'rni, korxonada xo'jalik yuritishining samaradorligini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlar, korxonada ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari bilan bog'liq ma'lumotlar berilgan.

6.1. Bozor munosabatlari sharoitida samaradorlikning o'rni va ahamiyati

Ishlab chiqarish samaradorligi har bir korxonada faoliyatining eng asosiy vazifasi hisoblanadi. U xo'jalik yuritishning sifat va miqdor ko'rsatkichlarini, shuningdek, buyumlashgan va jonli mehnat xarajatlari hamda olingan natijalar o'rtasidagi munosabatni ifodalaydi.

Bozor sharoitlarida "samaradorlik" tushunchasi, garchi, daromad olish, xarajatlarni kamaytirish, mehnat samaradorligining o'sishi, fond qaytimi, rentabellik va hokazolar samaradorlik tabiatiga mos kelib, bozor iqtisodiyoti talablariga zid kelmasa-da, baho, foyda, daromad, xarajat kabi tushunchalarga qaraganda kam qo'llanilmoqda. Samarali ishlash degani o'z mohiyatiga ko'ra, mo'ljallangan (rejalashtirilgan) foydani olish, noishlab chiqarish xarajatlari va yo'qotishlarni kamaytirish, ishlab chiqarish quvvatlari va ishchi kuchidan yaxshiroq foydalanish, mehnat samaradorligini oshirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifatini yaxshilashni anglatadi.

"Samara", "samaradorlik", "ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik" kabi tushunchalarning orasidagi farqni anglab olish zarur.

Samara – bu, ishlab chiqarilayotgan mahsulot (ish, xizmat), foyda va daromad hajmini oshirish, mahsulot tannarxini kamaytirish, sifatsiz mahsulot ishlab chiqarishni kamaytirish yoki umuman, yo'q qilish bilan bog'liq bo'lgan korxonada faoliyatining ijobiy natijalaridir. Bu yutuqlar

natural shaklda *ishlab chiqarish samarasini*, pul shaklida esa *iqtisodiy samarani* tavsiflaydi.

Samaradorlik, avvalo, korxonada faoliyatining sifat jihatlarini tavsiflovchi tushunchadir. U “samara” toifasidan kelib chiqadi hamda unga qaraganda murakkab va kompleks tavsifga ega.

Samaradorlik chora sifatida ko‘plab texnik, iqtisodiy, loyiha va xo‘jalik qarorlarini avvaldan belgilab beradi. Korxonada o‘zining xo‘jalik, ilmiy-texnik va investitsion siyosatini belgilashda samaradorlikdan kelib chiqadi.

Iqtisodiy samaradorlik samaradorlikka qaraganda bir muncha tor ma‘noni anglatadi. U qabul qilinayotgan qarorlarning xo‘jalik yuritishda maqsadga muvofiqligini tavsiflaydi hamda barcha hollarda samaraning unga erishish uchun ketgan xarajatlar (ishlab chiqarish resurslari)ga nisbati sifatida aniqlanadi. Xarajatlar qanchalik kam bo‘lsa (mahsulot sifatiga ta‘sir qilmagan holda), samara shunchalik ortadi, demak, iqtisodiy samaradorlik ham ortadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik ishlab chiqarish samaradorligini mehnat sharoitlarini, uning ijodkorlik mazmunini boyitish, aqliy va jismoniy mehnat o‘rtasidagi farqni yo‘qotishni inobatga olgan holda tavsiflaydi. Ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik bir vaqtning o‘zida, ishlab chiqarish samaradorligini kuchaytirish, korxonaning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi, shaxsning har tomonlama rivojlanishi va uning barcha qobiliyatlaridan foydalanishning sabab va natijasi hisoblanadi. Bevosita ijtimoiy samara, xodimlarning bilim va malakasi, tajriba va madaniyatining o‘sishi, aholi sog‘lig‘ining yaxshilanishi va umr ko‘rishining uzayishida aks ettiriladi.

Korxonada iqtisodiy mexanizmining samaradorlik ko‘rsatkichlarini aniqlash va hisoblash bo‘yicha an’anaviy yondashuvlar xo‘jalik yuritish faoliyatining barcha tomonlarini miqdoriy izohlashni o‘z ichiga oladi. Samaradorlikni o‘z navbatida, ichki va tashqi toifaga ajratish mumkin.

Ichki samaradorlik – bu tejamkorlik (iqtisod qilish), ya‘ni mavjud resurslarni eng yaxshi (optimal) ravishda taqsimlash va foydalanish imkoniyatidir.

Tashqi samaradorlik – tashkilotning maqsadlariga erishish darajasini belgilaydigan menejment natijaviyligini bildiradi. Ishlab chiqarish samaradorligi deganda yakuniy natijalarning qo‘llaniladigan yoki sarflangan resurslarga nisbati (munosabati), ya‘ni ishlab chiqarish natijasi samaradorligi va xarajatlari o‘rtasidagi tafovut tushuniladi. Bu

tushuncha ishlab chiqarish tartibining dinamik jarayoniga baho beradi va undagi sifat o'zgarishlarini aks ettiradi. Keng ma'nodagi ijtimoiy samaradorlikning umumshtiruvchi ko'rsatkichlari bo'lib, quyidagilar hisoblanishi mumkin:

- iste'molchilar buyurtmalarini bajarish darajasi;
- korxonaning bozorga chiqargan mahsulotlari hajmi va hokazolar.

Bozor sharoitlari tegishli ko'rsatkichlar va iqtisodiy samaradorligi baholanishi mezonlarining ishlab chiqilishini talab qiladi. Bir necha bazaviy ko'rsatkichlar mezonlarini kiritish ehtiyoji tug'iladi, ular asosida boshqaruv tizimi natijaviyligi baholanishi amalga oshiriladi; funksional tizimostilar va boshqaruv darajalari bo'yicha samaradorlik baholanishi talab qilinadi.

Iqtisodiy samaradorlik tashkilot ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi natijaviyligini aks ettiradi. Ushbu holatda boshqarish samaradorligi korxonada butun faoliyatida erishgan unumdorlik ko'rsatkichlarida namoyon bo'ladi. Samaradorlik unumdorlik ko'rsatkichi sifatida natija bilan xarajatning o'zaro o'lchamli bo'lishini talab qiladi.

Iqtisodiyotimizning jahon xo'jalik va moliyaviy-iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuv jarayoni tobora chuqurlashib borayotganini inobatga oladigan bo'lsak, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik yangilash va diversifikatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki, ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hozirgi bosqichda iqtisodiy taraqqiyotning eng muhim masaalaridan biri hisoblanadi. Texnik taraqqiyot va ishlab chiqarishni jadalashtirish, boshqaruv nazariyasi va amaliyoti, shuningdek, yangi texnika, texnologiya, tashkillashtirish, boshqaruv hamda qurilish materiallari va konstruksiyalaridan foydalanishni tanlash iqtisodiy samaradorlikning hisob-kitobi bilan uzviy bog'liq.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini boshqarish masalalari mahsus iqtisodiy adabiyotlarda oxirgi yillarda keng miqyosda o'rganilmoqda. Ammo kapital qo'yilmalar, yangi texnologiyalar, ilmiy-tadqiqot taraqqiyotidan optimal foydalanish maqsadlarida ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini aniqlashda asosiy e'tibor nisbiy iqtisodiy samaradorlik masalalariga qaratiladi. Ammo keltirilgan xarajalar minimumi nisbatan samarali, qisqa qoplanish muddati (kapital qo'yilmalar iqtisodiy samaradorlik koeffitsiyenti normativ koeffitsiyentlarga nisbatan ortadi)ga erishishni ta'minlashi lozim.

Mutlaq iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari kamroq ahamiyatga ega. Adabiyotlarda, ayniqsa ishlab chiqarish samaradorligi ko'rsatkichlarining o'zaro aloqalarini aniqlashga oz e'tibor qaratilgan. Ma'lumki, ishlab chiqarish samaradorligi ko'rsatkichlari ko'p hollarda har xil ko'rinishda o'zgaradi: ayrimlari yaxshilanadi, boshqalar esa yomonlashadi. Masalan, mehnat unumdorligining o'sishida tannarx va fond sig'imi bir vaqtning o'zida pasayishi (iqtisodiy o'sishning intensiv omillari) va yomonlashuvi (bunday o'sish alohida maqsadli vazifalar nuqtayi nazaridan oqlanishi mumkin) mumkin. Bu yerda hamma narsa ayon: ko'rsatkichlarning birinchi dinamikasi ijobiy, ikkinchisi esa salbiy. Lekin, ko'p hollarda tannarx pasayadi, fond sig'imi esa ortadi. Bunday sharoitda iqtisodiyotni boshqarish bosqichida ishlab chiqarishni qanday qilib asoslash va baholash mumkin. Bunday holda ko'rsatkichlarning o'zaro aloqalarini aniqlash va shu asosda iqtisodiy taraqqiyot turlarini tasniflashgina yordam bera oladi. Shu bilan birga, adabiyotlarda iqtisodiy o'sishning intensiv omillari bo'yicha noaniq, ayrim hollarda zid fikrlar ham uchrab turadi. Xususan, ishlab chiqarish intensivikasi ularning mutlaq iqtisodiy samaradorlik dinamikasi ko'rsatkichlari bilan to'liq baholanmaydi. Ishlab chiqarish intensivikasi zaxiralari har bir konkret sharoitda katta ahamiyatga ega va ularni qo'llash uchun hamma vaqt ham alohida tashkiliy-iqtisodiy choralar talab qilinmaydi, ko'p narsa ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligi hisoboti qay tarzda amalga oshirilishi va iqtisodiyotni umumiy boshqarish qaysi tamoyilga asoslanishiga bog'liq.

Ishlab chiqarish samaradorligi muayyan iqtisodiy kategoriya sifatida mazkur ishda natija va xarajatlarning o'zaro muvofiqligi sifatida qaralib, xorijiy tajribaga mosligi bilan namoyon bo'ladi. Samaradorlik korxonada ishlab chiqarish faoliyatida muhim o'lchov birligidir. Ishlab chiqarish samaradorligi har bir korxonada faoliyatining eng asosiy vazifasi hisoblanadi. U xo'jalik yuritishning sifat va miqdor ko'rsatkichlarini, shuningdek, buyumlashgan va jonli mehnat xarajatlari hamda olingan natijalar o'rtasidagi munosabatni ifodalaydi.

Afsuski, bozor sharoitlarida "samaradorlik" tushunchasi, garchi, daromad olish, xarajatlarni kamaytirish, mehnat samaradorligining o'sishi, fond qaytimi, rentabellik va hokazolar samaradorlik tabiatiga mos kelib, bozor iqtisodiyoti talablariga zid kelmasa-da, baho, foyda, daromad, xarajat kabi tushunchalarga qaraganda kam qo'llanilmoqda. Samarali ishlash degani, o'z mohiyatiga ko'ra, mo'ljallangan

(rejalashtirilgan) foydani olish, noishlab chiqarish xarajatlari va yo'qotishlarni kamaytirish, ishlab chiqarish quvvatlari va ishchi kuchidan yaxshiroq foydalanish, mehnat samaradorligini oshirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifatini yaxshilashni anglatadi.

Samaradorlik, avvalo, korxonada faoliyatining sifat jihatlarini tavsiflovchi tushunchadir. U "samara" toifasidan kelib chiqadi hamda unga qaraganda murakkab va kompleks tavsifga ega. Samaradorlik chora sifatida ko'plab texnik, iqtisodiy, loyiha va xo'jalik qarorlarini avvaldan belgilab beradi. Korxonada o'zining xo'jalik, ilmiy-texnik va investitsion siyosatini belgilashda samaradorlikdan kelib chiqadi.

Iqtisodiy samaradorlik umumsamaradorlikka qaraganda birmuncha tor ma'noni anglatadi. U qabul qilinayotgan qarorlarning xo'jalik yuritishda maqsadga muvofiqligini tavsiflaydi hamda barcha hollarda samaraning unga erishish uchun ketgan xarajatlar(ishlab chiqarish resurslari)ga nisbati sifatida aniqlanadi. Xarajatlar qanchalik kam bo'lsa(mahsulot sifatiga ta'sir qilmagan holda), samara shunchalik ortadi, demak, iqtisodiy samaradorlik ham ortadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik ishlab chiqarish samaradorligini mehnat sharoitlarini, uning ijodkorlik mazmunini boyitish, aqliy va jismoniy mehnat o'rtasidagi farqni yo'qotishni inobatga olgan holda tavsiflaydi. Ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik bir vaqtning o'zida, ishlab chiqarish samaradorligini kuchaytirish, korxonaning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi, shaxsning har tomonlama rivojlanishi va uning barcha qobiliyatlaridan foydalanishning sabab va natijasi hisoblanadi. Bevosita ijtimoiy samara, xodimlarning bilim va malakasi, tajriba va madaniyatining o'sishi, aholi sog'lig'ining yaxshilanishi va umr ko'rishining uzayishida aks ettiriladi.

Ishlab chiqarish samaradorligi ijtimoiy samaradorlikka nisbatan bir-amchi hisoblanadi: iqtisodiy yutuqlar korxonaning ijtimoiy muammolarini hal qilishga yordamlashadi. Masalan, foydaning o'sishi, jamg'armalarning ortishi korxonaga ijtimoiy vazifalar doirasini kengaytirish va ularni hal qilish imkonini beradi. Biroq samaradorlik va uning asosiy ko'rsatkichi – foyda (daromad) o'z-o'zidan, avtomatik ravishda yuzaga kelmaydi. Turli sanoat korxonalarida samaradorlikka erishish uchun mavjud ishlab chiqarish quvvatlari va boshqa xususiyatlardan kelib chiqqan holda, turli vosita va yo'llardan foydalaniladi. Bunda vaqt omili, ya'ni samaradorlikka qisqa yoki uzoq muddatlarda erishishni mo'ljallash, asosiy rollardan birini o'ynaydi.

Masalan, korxonada olayotgan foydasini qisqa vaqt mobaynida mahsulot sifatini yaxshilashni mablag' bilan ta'minlash, ishlab chiqarishni qayta qurollantirish va modernizatsiya qilish, xodimlar malakasini oshirishga ajratilayotgan mablag'larni kamaytirish yo'li bilan ko'paytirishi mumkin. Uzoq muddatli rejalarda esa bu, foydaning kamayishiga va hattoki korxonaning bozordagi o'rnini yo'qotishi natijasida bankrotga uchrashiga olib kelishi mumkin.

Ishlab chiqarish samaradorligi ijtimoiy samaradorlikka nisbatan birlamchi hisoblanadi: iqtisodiy yutuqlar korxonaning ijtimoiy muammolarini hal qilishga yordamlashadi. Masalan, foydaning o'sishi, jamg'armalarning ortishi korxonaga ijtimoiy vazifalar doirasini kengaytirish va ularni hal qilish imkonini beradi. Biroq samaradorlik va uning asosiy ko'rsatkichi-foyda (daromad) o'z-o'zidan, avtomatik ravishda yuzaga kelmaydi. Turli korxonalarda samaradorlikka erishish uchun mavjud ishlab chiqarish quvvatlari va boshqa xususiyatlardan kelib chiqqan holda, turli vosita va yo'llardan foydalaniladi. Bunda vaqt omili, ya'ni samaradorlikka qisqa yoki uzoq muddatlarda erishishni mo'ljallash, asosiy rollardan birini o'ynaydi. Masalan, korxonada olayotgan foydasini qisqa vaqt mobaynida mahsulot sifatini yaxshilashni mablag' bilan ta'minlash, ishlab chiqarishni qayta qurollantirish va modernizatsiya qilish, xodimlar malakasini oshirishga ajratilayotgan mablag'larni kamaytirish yo'li bilan ko'paytirishi mumkin. Uzoq muddatli rejalarda esa bu, foydaning kamayishiga va hattoki korxonaning bozordagi o'rnini yo'qotishi natijasida bankrotga uchrashiga olib kelishi mumkin.

Xorijiy firma va korxonalar o'z faoliyatlarida samaradorlikka erishish uchun ishlab chiqarish texnika va texnologiyalariga e'tiborni kuchaytirishdan tashqari, mahsulot sifatini oshirish va uni reklama qilishga alohida e'tibor qaratmoqdalar. Masalan, Yaponiyaning "Omron" firmasi o'ziga "Barchaning yaxshi hayoti, yaxshi dunyo uchun" degan iborani shior qilib olgan. Amerikaning "Katerpillar" kompaniyasining shiori "Dunyoning har bir burchagida 48 soat xizmat ko'rsatish" bo'lsa, "Ribok" firmasi "Yaxshi bahodagi narx" iborasini shior qilib olgan. Bunday misollardan yana bir nechtasini keltirib o'tish mumkin.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqadiki, samara va samaradorlik qotib qolgan kategoriyalar qatoriga kirmaydi hamda faqatgina pul ko'rinishida o'lchanmaydi. Samaradorlik va sifatli mehnat tufayli korxonada *birinchidan*, o'zining iqtisodiy barqarorligi va bozordagi raqobatchilikka bardosh berishini ta'minlaydi, *ikkinchidan*, o'z imidjini

yaxshilaydi va hamkorlar bilan aloqalarini mustahkamlaydi, *uchinchidan*, xodimlarning iqtisodiy va ijtimoiy ahvolini yaxshilaydi. Demak, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo'llarini qidirish, xarajat va natijalarni to'g'ri solishtirish, mulkchilik shakli, qaysi tarmoqqa tegishliligi, hududiy joylashishi va faoliyat turidan qat'i nazar, har bir korxonaga uchun muhim vazifa hisoblanadi.

6.2. Ishlab chiqarish samaradorligining mohiyati, mezonlari va ko'rsatkichlari

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish – korxonaga rahbariyatining doimiy vazifasidir. Bu vazifani yechish amaliyotida quyidagi omillar bilan bog'liq bo'ladi:

- bozor talablariga javob beruvchi yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishda eng kam xarajatlarni bilan ishlab chiqarishning maksimal hajmini ta'minlovchi, optimal ishlab chiqarish jarayonini tanlash;

- iste'molchilarga talabini qondirishga yo'naltirilgan mahsulotni sotish va yuqori daromad (foйда) olish;

- aylanma vositalarni tejash imkoniyatini yaratuvchi optimal ishlab chiqarish zaxiralarini yaratish.

6.1 - jadval

Mahsulot ishlab chiqarish va uni sotishdagi xarajatlarni va resurslarning o'zaro aloqasi

Moddiy va buyumlashgan shaklda		Pul shaklda	
Resurslar	Xarajatlarni	Resurslar	xarajatlarni
Ishchi kuchi soni	Mehnat (sifat va miqdor)	Mehnat haqi fondi	To'langan oylik miqdori, jumladan, mukofot va qo'shimchalar
Bino, inshoot, mashina va uskunalarni (mehnat qurollari)	Mehnat qurollarining eskirishi	Asosiy kapital	Amortizatsiya ajratmalar
Mehnat predmetlari	Iste'mol, talab, materiallar, yoqilg'i, energiya va hokazo	Aylanma kapital	Sarflangan xomashyo, material va hokazolarni qiymati
Tayyor mahsulot	Dizayn, reklama, qadoqlash, tovar yo'qotishlari	Muomala fondlari	Qo'shimcha xarajatlarni (qiymat)
-	-	Pul mablag'lari	Kredit uchun foiz

Samaradorlikni oshirish omillarining yuqorida sanab o'tilgan har biri, faoliyat yuritishning turli shakl va ko'rinishlari yordamida, ishlab chiqarish samaradorligi asosida yotuvchi xarajatlar va resurslarning o'zaro aloqasini inobatga olgan holda amalga oshiriladi (6.1-jadval).

Samaradorligini baholash, korxonada foydalaniladigan resurs turlari bo'yicha amalga oshirilishi va miqdor jihatidan o'lchanishi mumkin. Masalan, *ishchi kuchidan* foydalanish samaradorligini mehnat unumdorligi va mahsulotning mehnat sig'imi ko'rsatkichlari yordamida quyidagi formula asosida baholash mumkin:

$$P_t = \frac{Q}{Ch}$$

Bu yerda:

P_t - mehnat unumdorligi;

Q - mahsulot hajmi qiymat ko'rinishida;

Ch - ishlovchilar (ishchilar) soni.

Mahsulotning mehnat sig'imi mehnat unumdorligiga teskari kattalik bo'lib, sarflangan mehnat miqdorining ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga nisbati sifatida aniqlanadi:

$$T = \frac{Ch}{Q}$$

Mehnat qurollari (asosiy fondlar)dan foydalanish samaradorligi mahsulotning fond sig'imi va fond qaytimi ko'rsatkichlari yordamida aniqlanadi. Bunda fond qaytimi korxonada asosiy fondlarining bir birligiga to'g'ri keluvchi ishlab chiqarilgan mahsulotni anglatadi, fond sig'imi esa fond qaytimiga teskari kattalik bo'lib, yangi asosiy fondlarni tashkil qilish uchun zarur bo'lgan kapital qo'yilmalarni aniqlash vazifasini bajaradi.

Fond qaytimi (f_o) va fond sig'imini (f_e) aniqlash formulasi quyidagicha:

$$f_o = \frac{Q}{F}$$

Bu yerda:

Q - mahsulot hajmi, qiymat pul ko'rinishida;

F - asosiy ishlab chiqarish fondlari qiymati.

$$f_e = \frac{F}{Q}$$

Fond qaytimi qanchalik yuqori va fond sig'imi qanchalik past bo'lsa, ishlab chiqarish va mehnat qurollaridan foydalanish samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi va aksincha. Mashina va uskunalardan unumli foydalanish, ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish hamda xodimlar malakasini oshirish, fond qaytimini ko'paytirishning muhim zaxirasi hisoblanadi.

Mehnat qurollaridan foydalanish samaradorligi, mahsulotlarning material sig'imi yordamida sarflangan xomashyo, material, yoqilg'i, energiya va mehnat predmetlarining umumiy qiymatini ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga nisbati orqali aniqlanadi. Uning formulasi quyidagicha:

$$m = \frac{M}{Q}$$

Bu yerda:

m - mahsulotlarning material sig'imi;

M - mahsulot ishlab chiqarish uchun ketgan moddiy xarajatlarning umumiy miqdori pul ko'rinishida;

Q - ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, qiymat ko'rinishida.

Mahsulotning material sig'imi qanchalik past bo'lsa, ishlab chiqarish samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi. Biroq mahsulot material sig'imini kamaytirish, uning sifatini pasaytirish yoki texnologiya norma va qoidalarini buzish hisobiga amalga oshirilmasligi lozim. Material sig'imining bu tarzda kamaytirilishi iqtisodiy jinoyat hisoblanadi va qonunga asosan jazoga tortiladi.

Bozor sharoitlarida korxonalar xo'jalik faoliyati samaradorligining umum-lashtiruvchi yoki mezon ko'rsatkichi sifatida rentabellik yoki kapitalning daromadlilikini qabul qilish mumkin. Bu ko'rsatkich quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$R = \frac{P}{A} * 100$$

Bu yerda:

R - rentabellik, xo'jalik faoliyatining natijasini foyda shaklida ko'rsatadi va foizlarda o'lchanadi;

P - korxonaning balans foydasi;

A - avanslangan kapital(asosiy va aylanma).

Nisbatning kattalashishi mehnat, moliya, texnologiya va moddiy resurslaridan unumliroq foydalanishni anglatadi. Chunki aynan ular

ishlab chiqarish hajmi va xarajatlari, mahsulot bahosiga ta'sir o'tkazadi. Xo'jalik faoliyati minimal xarajatlar bilan yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan joylarda samaraliroq bo'ladi.

Korxonalar rentabelligini aniqlashda ba'zida korxonalar olgan umumiy foyda emas, balki mahsulot tannarxini pasaytirish hisobiga olinuvchi foyda ulushidan foydalaniladi. Bunday yondashuv korxonani ishlab chiqarish mahsuldorligini oshirish, ishlab chiqarish quvvatlaridan tejamkorlik bilan ratsional tarzda foydalanish, natijada esa mahsulot ishlab chiqarishga sarflanuvchi barcha xarajatlarni kamaytirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar sari chorlaydi. Yuqorida keltirilgan xo'jalik samaradorligini baholash usullari va ko'rsatkichlaridan tashqari bugungi kunda amaliyotda O'zbekiston Respublikasi Davlat Mulk Qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan korxonalarining iqtisodiy nochorlik belgilarini aniqlash uchun mezonlar tizimi ham qo'llaniladi. Ularning qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- to'lov qobiliyati koeffitsiyenti (K_{pl});
- xususiy va qarzga olingan mablag'lar nisbati koeffitsiyenti (K_{ss});
- moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti (K_{fn});
- xususiy aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti (K_{os});

Bu ko'rsatkichlar bir qarashda mahsulot ishlab chiqarish sohasiga, ishlab chiqarish samaradorligiga aloqasi yo'qday tuyuladi. Aslida esa aynan ular orqali korxonaning samarali faoliyatini anglatuvchi iqtisodiy va moliyaviy barqarorlik aks ettiriladi. Bundan tashqari, mahsulotning material sig'imi, fond qaytimi, mehnat unumdorligi va rentabellik ko'rsatkichlari, ishlab chiqarishni rejalashtirish va tahlil qilishda qo'llansa, mezonlar tizimi yordamida esa korxonalar o'zlarining faoliyat yuritish qobiliyatini ko'rsatadi hamda turli xil muammoli vaziyatlarda xo'jalik sudlarida o'z manfaatlarini himoya qiladi.

To'lov qobiliyati koeffitsiyenti (K_{pl}) korxonaning debitorlar bilan o'z vaqtida hisob-kitob qilish hamda tayyor mahsulot va boshqa moddiy vositalarini sotishning qulay sharoitlarda sotish orqali baholanadigan to'liq imkoniyatlarini ko'rsatadi. U quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$K_{pl} = \frac{A_2 - P_{dz}}{P_2 - D_{zk}}$$

Bu yerda:

A_2 – aylanma aktivlar (ishlab chiqarish zaxiralari, tayyor mahsulot, pul mablag‘lari, debitorlik qarzlari va hokazolar);

P_2 – majburiyatlar (qisqa muddatli qarzlilar, qisqa muddatli kreditlar, budjet oldidagi qarzlilar, kreditorlik qarzlari va hokazo);

P_{dz} – muddati o‘tib ketgan debitorlik qarzlari;

D_{zk} – uzoq muddatli qarz va kreditlar.

Xususiy va qarzga olingan mablag‘lar nisbati koeffitsiyenti (K_{ss}) ularning shakllanish manbalarini inobatga olgan holda, pul mablag‘lari bilan ta‘minlanganlik darajasini aniqlaydi. U quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$K_{ss} = \frac{P_1}{P_2 - D_{zk}}$$

Bu yerda:

P_1 – xususiy mablag‘lar manbalari (Nizom jamg‘armasi, qo‘shilgan kapital, taqsimlanmagan foyda va hokazo).

Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti (K_{fn}) korxonalar moliyaviy mustaqilligining kamayishi (ko‘payishi), kelajakda moliyaviy qiyinchiliklarga uchrash xavfining kuchayishi (pasayishi) haqida ma‘lumot beradi hamda korxonalar o‘z majburiyatlari oldida javob berishining kafolatlarini belgilab beradi. U quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$K_{fn} = \frac{P_1}{IB}$$

Bu yerda:

IB - korxonalar balansi aktivi yoki passivining yakuni.

Xususiy aylanma mablag‘lar bilan ta‘minlanganlik koeffitsiyenti (K_{os}) korxonaning barqaror ishlab chiqarish-xo‘jalik faoliyatini yuritish uchun zarur bo‘lgan aylanma vositalar mavjudligini tavsiflaydi. Shuningdek u, korxonalar egalari va kreditorlar manfaatlaridagi munosabatlarni ham aks ettiradi. Mazkur koeffitsiyent quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$K_{os} = \frac{P_1 - A_1}{A_2}$$

Bu yerda:

A_1 – uzoq muddatli aktivlar (asosiy vositalar, kapital qo‘yilmalar, nomoddiy aktivlar va hokazo).

Ko‘rsatkichlar tizimini tayyorlagan mualliflar tomonidan korxonaning to‘lovga qobiliyatligi yoki nochorligini aniqlovchi parametrlar belgilab berilgan. Masalan, to‘lov qobiliyati koeffitsiyenti hamda xususiy va qarzga olingan mablag‘lar nisbati koeffitsiyenti 2 dan kichik bo‘lsa ($K_{pl} < 2$; $K_{ss} < 2$), moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti 0,5 dan kichik bo‘lsa ($K_{fn} < 0,5$), xususiy aylanma mablag‘lar bilan ta‘minlanganlik koeffitsiyenti 0,1 dan kichik bo‘lsa ($K_{os} < 0,1$) korxonalar nochor deb topiladi. Korxonalar nochorligi, demak, xo‘jalik faoliyatining samarasizligi to‘g‘risidagi yakuniy qaror, nochorlik parametrlarining umumiy summasi 4,6 dan kichik bo‘lgan holda qabul qilinadi.

Xo‘jalik faoliyati samaradorligini oshirish juda ham murakkab jarayon bo‘lib, buning hamma uchun to‘g‘ri keluvchi yagona yo‘li mavjud emas. Har bir korxonalar bu masalani yechishda o‘z imkoniyatlari va yuzaga kelgan iqtisodiy shart-sharoitlaridan kelib chiqqan holda harakat qiladi. Biroq barcha hollarda ham samaradorlikning asosida *foydani maksimalashtirish* yoki *xarajatlarni minimallashtirish* yotadi.

Shartli misol keltirib o‘tamiz. Aytaylik, korxonaning 10 mln so‘m miqdorida mablag‘i bo‘lib, bu mablag‘larni ishlab chiqarishni kengaytirishga sarflash mo‘ljallangan. Hisob-kitoblar shuni ko‘rsatadiki, korxonalar 10 mln so‘m sarf qilganda qo‘shimcha 11 mln so‘mlik mahsulot ishlab chiqaradi, ya‘ni foyda 1 mln so‘mni yoki qo‘shilgan kapitalning 10 foiz qismini tashkil qiladi.

Agarda korxonalar ushbu mablag‘ni bankka yiliga 12 foizli depozit hisobiga qo‘yganida, foizlar uchun 1,2 mln so‘m foyda olgan bo‘lar edi. Demak, muqobil xarajatlarni hisoblaganda korxonalar 0,2 mln so‘m miqdoridagi qo‘ldan chiqarib yuborilgan foydani ham hisobga olishi lozim. Biroq ishga bunday yondashishning, bugungi bozor munosabatlari sharoitlarida keng tarqalgan bunday usulida, ya‘ni eng ko‘p foydaga ega bo‘lish tamoyili asosidagi usulda, korxonalar foydani maksimal darajaga chiqarsada, ishlab chiqarishni kengaytirishga erisha olmaydi. Ishlab chiqarishni kengaytirish esa, barchaga ma‘lum bo‘lganidek, iqtisodiyotning rivojlanishi uchun eng muhim talablardan biri hisoblanadi.

6.3. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xo'jalik yuritishning bozor tizimi hamda har qanday davrning muhim talabidir. Samaradorlik istalgan korxonaning iqtisodiy barqarorligi va faoliyat yuritish qobiliyatini aks ettiradi. Har qanday ishda, jumladan, korxonalar faoliyatida samaradorlikning, ijobiy natijalarning mavjud bo'lmashligini, obrazli qilib aytganda, ovoragarchilik, vaqt, kuch va resurslarni yo'qotish bilan izohlash mumkin.

Fan-texnika taraqqiyoti korxonalarning ishlab chiqarish faoliyati samara-dorligini oshirishda muhim omil bo'lib kelgan va hozirda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Mazkur omildan quyidagi yo'llar bilan foydalanish mumkin:

- ishlab chiqarish va mehnatni mexanizatsiyalashtirish, avtomatlashirish hamda kompleks ravishdagi mexanizatsiyalashtirish;
- asosiy texnologik jarayonlarni robotlashtirish;
- progressiv, mehnat hamda resurslarni tejashga yo'naltirilgan texnologik jarayonlarni amaliyotga kiritish va ulardan keng foydalanish;
- xomashyo va materiallar (mehnat predmetlari) zamonaviy turlarini yaratish va ulardan foydalanish;
- ishlab chiqarishni tashkil qilish, rejalashtirish va boshqarish jarayonlarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan, hisoblash texnikasidan foydalanish;
- ishlab chiqarish va mehnatni ilmiy tashkil qilish.

Amaliyotda fan-texnika taraqqiyotining, jumladan, uning tarkibiy qismlari-ning ahamiyati va rolini inkor qiluvchi yoki tushunmovchi korxonani topish amrimahol. Biroq ushbu omilni amalga oshirish uchun faqatgina xohish va istaklarning o'zigina yetarli emas. Buning uchun *birinchidan*, fan-texnika taraqqiyotining ayni paytda zarur bo'lgan yo'nalishlarini izlash va aniqlash, *ikkinchidan*, pul mablag'larini va boshqa zarur bo'lgan resurslar (investitsiyalar) izlab topish, *uchinchidan*, zamonaviy ilmiy-texnikaviy ishlamalarga ixtisoslashgan ilmiy-tadqiqot institutlari, konstruktorlik, texnologik va boshqa ilmiy muassasalar bilan kerakli aloqalarni "bog'lash", *to'rtinchidan*, o'z ilmiy-texnikaviy maqsad-larining samaraliligini hisoblab chiqish talab qilinadi.

Fan-texnika taraqqiyoti so'nggi paytlargacha evolutsion ravishda rivojlanib kelmoqda edi. Asosiy e'tibor amaldagi texnologiyalarni

takomillashtirish, mashina va uskunalarni qisman zamonaviylashtirishga qaratilgan edi. Bunday chora-tadbirlar ma'lum bir cheklangan natijalarga olib kelardi.

Yangi texnikalarni ishlab chiqish va amaliyotga kiritishdan manfaatdorlik talab darajasida emasdi. Ishlab chiqarish va mehnatni tashkil qilishning xorijiy progressiv texnologiyalari "ekspluatorlik belgisi" sifatida, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va mexanizatsiyalashtirish esa ishsizlikning asosi sifatida qabul qilinar edi. Xorij tajribalariga kapitalistik tajriba deb qaralardi hamda bu tajribalarning keng tarqalishiga yo'l qo'yilmas edi.

Bozor munosabatlari shakllanayotgan hozirgi sharoitlarda, chuqur sifat o'zgarishlari, tamoyillari yangi texnologiyalar va so'nggi avlod texnikasiga o'tish, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini fan va texnikaning eng yangi yutuqlari asosida qayta qurollantirish zarur. Shu bilan bir qatorda olimlar, konstruktorlar, muhandis va ishchilarning ijodiy ruhda mehnat qilishlari uchun iqtisodiy va ijtimoiy manfaatdorlikni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, Yaponiya korxonalar va firmalarida ijodiy guruhlar, sifat guruhlari tashkil qilingan, ya'ni fan-texnika taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq bo'lmish universitetlar, ilmiy markaz va laboratoriyalar bilan aloqalar rivojlantirilmoqda. Yaponiyaning bugungi kunda robotlar hamda zamonaviy texnika va texnologiyalarning boshqa turlarini yaratishda birinchi o'rinlarda turishi ham bejiz emas.

Korxonalar ishlab chiqarish faoliyatining samaradorligini oshirishning muhim omillaridan yana biri sifatida *mavjud ishlab chiqarish salohiyati* – asosiy va aylanma fondlar, ishchi kuchidan tejamkorlik asosida, iloji boricha unumliroq foydalanishni ko'rsatish mumkin. Bundan tashqari ularga buyumlashgan mehnat sarflanganligi, ya'ni korxonaning bugungi egalariidan tashqari avvalgi avlod vakillarining ham mehnati mavjudligi bilan izohlash mumkin.

Bozor sharoitlarida ishlab chiqarish salohiyatidan unumli foydalanish zaruriyati haqida qayta ta'kidlashga ehtiyoj yo'q: birinchidan, bozor "vakuumni", harakatsizlikni, xo'jasizlikni va yo'qotishlarni kechirmaydi, ikkinchidan, o'z imkoniyatlari va resurslaridan yetarlicha foydalanmaydigan korxonalar istiqbolga ega bo'lmaydi hamda bankrotga uchrashga asos yaratadi. Shu sababli barcha turdagi resurslardan samarali foydalanish va ayniqsa ishlab

chiqarishning barcha bo'g'larida tejamkorlikka rioya qilish har bir korxonada faoliyatining muvaffaqiyat qozonishining garovi hisoblanadi.

Korxonalar ishlab chiqarish faoliyatining samaradorligini oshirishda *tashkiliy-iqtisodiy omillar*, jumladan, boshqaruv ham muhim o'ringa ega. Ularning ahamiyati ishlab chiqarish miqyosining o'sishi va xo'jalik aloqalarining murakkablashishi bilan ortib boradi. Bu omillar qatoriga birinchi o'rinda, oqilona ishlab chiqarish shakllarini yaratish va mavjudlarini takomillashtirish-konsentratsiya, ixtisoslash-tirish, kooperatsiya va kombinatsiya qilishni kiritish mumkin.

Boshqaruvda esa, boshqarish, rejalashtirish, iqtisodiy rag'batlantirishning usul va shakllarini, ya'ni korxonada faoliyatining butun xo'jalik mexanizmini takomillashtirishda ifodalanadi. Korxonada rahbarining ish stili va usullari fan-texnika taraqqiyoti va bozor iqtisodiyotiga mos kelishi zarur. Masalan, korxonada direktori bilimi, tajribasi va professional malakasiga ko'ra, oddiy xodimlar va bo'linma (xizmat) rahbarlaridan yuqori turishi lozim. Aks holda u jamoani kerakli tarzda boshqara olishi hamda muvaffaqiyatga erishishi va imidjga ega bo'lishi qiyin.

Rejalashtirishda rejalarning balanslashtirilishi, ko'rsatkichlar tizimini optimal shakllantirish, rejalashtirilayotgan maqsadlar resurslar bilan ta'minlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa, o'z navbatida, korxonadagi iqtisodiy faoliyatni kuchaytirishni, rejalashtirish va iqtisodiy hisob-kitoblarni hamda zamonaviy kompyuter texnikasi va uning reja iqtisodiy hisob-kitoblarini amalga oshirishdagi imkoniyatlarini yaxshi biluvchi, savodli va malakali iqtisodchilarni tanlashni talab qiladi.

Korxonada faoliyatining samarali bo'lishida *ishlab chiqarishni intensivlashtirish*, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning turi va sifatini oshirish hamda jahon standartlari darajasiga yetkazish, korxonaning ishlab chiqarish tuzilmasini yaxshilash kabi omillar ham muhim o'rinni egallaydi. Bunga esa zamonaviy mashina va asbob-uskunalar, zamonaviy texnologiyalar, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil qilishning ilg'or usullaridan foydalanish orqali erishiladi.

Albatta, yuqorida keltirib o'tilgan omillarni amalga oshirish ma'lum bir resurslar va vaqt sarflashni talab qiladi. Biroq bu muammolarning mohiyati va ahamiyatini o'zgartirmaydi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, zamon bilan hamnafas holda harakat qiluvchi, barcha faoliyat turlarida tejamkorlikka rioya etuvchi, o'z salohiyatidan unumliroq foydalanuvchi,

zamonaviy fan va texnika yutuqlariga tayanuvchi korxonalar o'zining bugungi kundagi muvaffaqiyatlaridan tashqari, kelajakda ham muvaffaqiyatlarga erishishini, jumladan, bozordagi o'z o'rnini va raqobatchilik muhitida qulay ahvolda bo'lishini ta'minlaydi.

Tayanch iboralari

Ishlab chiqarish samaradorligi, iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik, samaradorlikni oshirish omillari, ishchi kuchidan foydalanish samaradorligi, mehnat qurollari (asosiy fondlar)dan foydalanish samaradorligi, rentabellik yoki kapitalning daromadlilikligi, korxonalarining iqtisodiy nochorlik belgilari, to'lov qobiliyati koeffitsiyenti, xususiy va qarzga olingan mablag'lar nisbati koeffitsiyenti, moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti, xususiy aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti, korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish yo'llari.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Ishlab chiqarish samaradorligining mohiyati nimada va u korxonalar umumiy faoliyati samaradorligidan qanday farq qiladi?

2. Samaradorlikning qanday turlarini bilasiz? Samaralar samaradorlikdan farqi nimada?

3. Korxonalar ishlab chiqarish faoliyati samaradorligining muhim ko'rsatkichlari mazmunini ochib bering. Bu ko'rsatkichlarni hisoblash usuli qanday?

4. Sizing fikringizcha, qaysi ko'rsatkich korxonalar faoliyati samaradorligini ko'proq aks ettiradi?

5. Korxonalar faoliyati samaradorligini oshirishning asosiy yo'llari va omillarini sanab bering.

6. Bozor sharoitlarida samaradorlikni iqtisodiy ko'rsatkich hamda tushunchalar sifatida qabul qilish mumkinmi?

7. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda asosiy o'rin kimga tegishli: insonlarga, resurslarga yoki fan-texnika taraqqiyotiga?

VII BOB. KORXONANING ASOSIY FONDHLARI VA ISHLAB CHIQUARISH QUVVATI

Mazkur bobda asosiy fondlar ishlab chiqarish moddiy-texnika bazasi, korxonada ishlab chiqarish quvvati va mehnatning texnik jihatdan qurollanish darajasi, asosiy fondlarning eskirishi bilan bog'liq bo'lgan yo'qotishlar, ulardan foydalanishni yaxshilash, asosiy fondlar tuzilmasini mukammallashtirish, mehnat va ishlab chiqarishni takomillashtirish, xo'jalik yuritishning yangi shakllarini rivojlantirish bilan bog'liq jarayonlar to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

7.1. Asosiy fondlarning mohiyati va ularning korxonada faoliyatidagi o'rni

Zamonaviy iqtisodiyot fani asosiy fondlarni ma'lum bir iste'mol qiymati ko'rinishida ijtimoiy mehnat asosida yaratiluvchi, ishlab chiqarishning moddiy-buyumlashgan material omillari qatoriga kiritadi.

Hozirgi bozor sharoitlarida korxonada kuchi va vositalari yordamida yaratilgan asosiy fondlar ishlab chiqarish quvvatlarini shakllantirish va ulardan foydalanishga faol ravishda ta'sir ko'rsatuvchi mulk hisoblanadi. Butun xalq xo'jaligi miqyosida asosiy fondlar mamlakatning milliy boyligini tashkil qiladi.


Asosiy fondlar korxonada ishlab chiqarish vositalarining bir qismi bo'lib, ishlab chiqarish jarayonida uzoq vaqt ishtirok etadi va o'zining natural-moddiy holatini yo'qotmaydi hamda o'z qiymatini tayyorlanayotgan mahsulotlarga qismlab o'tkazib beradi. Asosiy fondlar qiymatini tayyorlanayotgan mahsulotga o'tkazish jarayoni amortizatsiya deb, ushbu jarayonda to'plangan mablag'lar esa amortizatsiya ajratmalari deb ataladi.

Iqtisodiy maqsadlariga ko'ra, asosiy fondlar ishlab chiqarish va noishlab chiqarish fondlariga taqsimlanadi. Ishlab chiqarish asosiy fondlari o'z mohiyatiga ko'ra, korxonaning ishlab chiqarish potensialini tashkil qilib, ularning tarkibiga quyidagilar kiradi:

- ishlab chiqarish bino va inshootlari;

- uzatish qurilmalari;
- quvvat mashinalari va uskunalari;
- ishchi mashinalar va uskunalari;
- transport vositalari;
- o'lov va tartibga solish asboblari va qurilmalari;
- foydalanish muddati bir yildan kam bo'lgan va qonunchilikda belgilab qo'yilgan qiymatlardagi asboblari va ishlab chiqarish inventari.

Asosiy ishlab chiqarish fondlari ishlab chiqarishda band bo'lgan barcha mutaxassis va xodimlar soni bilan birgalikda, **korxonaning ishlab chiqarish apparati** deb ataladi.



7.1- rasm. Korxonaning asosiy fondlarining tarkibi

Noishlab chiqarish asosiy fondlari korxonaning asosiy fondlarining ishlab chiqarishda bevosita ishtirok etmaydigan qismi bo'lib, shu sababli o'z qiymatini tayyor mahsulotga o'tkazmaydi. Bular qatoriga asosan korxonaning balansida turuvchi turarjoy (uy-joy fondi), oshxona, profilaktoriya, klub, bolalar bog'chasi va yashilar, sport-sog'lomlashtirish va boshqa obyektlar kiritiladi. Madaniy-maishiy va sog'lomlashtirish yo'nalishidagi noishlab chiqarish asosiy fondlari ishlab chiqarish asosiy fondlari bilan foydalanish muddati, natural shaklining

saqlanishi, o'z qiymatini sekin-asta yo'qotishi kabi ko'p jihatlari bilan o'xshashdir.

Mehnat predmetiga o'tkazuvchi ta'siriga ko'ra, asosiy ishlab chiqarish fondlari **aktiv** va **passiv** turlarga bo'linadi. Asosiy ishlab chiqarish fondlarining passiv turiga bino va inshootlar, aktiv turiga esa quvvat mashina va uskunalari, ishchi mashina va uskunalari, transport vositalari, texnologik liniyalar, ya'ni biron-bir turdagi mahsulot yaratishda foydalaniluvchi mehnat qurollari kiritiladi.

Korxonaning aktiv asosiy ishlab chiqarish fondlari eng harakatchan va ahamiyatli hisoblanadi. Fan-texnika taraqqiyoti davomida ko'plab korxonalarda aktiv ishlab chiqarish fondlarining salmog'i ortadi, ularning tarkibi va ko'rinishi o'zgaradi, asosiy fondlar guruh va turlarining ma'naviy eskirish tufayli almashinish sur'ati tezlashadi.

Ishlab chiqarish miqyosining o'sishi va boshqa ijobiy o'zgarishlar sharoit-larida, ba'zan korxonaning asosiy fondlari, jumladan, ishchi mashinalar va uskunalari, ishlab chiqarish binolari, qurilmalar va hokozolar yetmay qoladi. Bunday hollar ro'y berganda korxonalar shartnoma asosida o'ziga kerakli bo'lgan asosiy fondlarni yollaydi va ular ijaraga olingan hisoblanadi. Ijaraga beruvchi va ijaraga oluvchi o'rtasida yuzaga keluvchi mulk munosabatlari **lizing** deb ataladi (ingl. Lease - ijara).

Asosiy fondlarning umumiy hajmida alohida guruhlarining qiymat bo'yicha o'zaro nisbati *asosiy fondlarning turlar bo'yicha tuzilmasini* aks ettiradi hamda amaliyotda foizlarda o'lchanadi. Korxonalar asosiy ishlab chiqarish fondlari tuzilmasining, birinchi o'rinda uning aktiv qismini - mashina va asbob-uskunalarni ko'paytirishga yo'naltirilgan takomillashtirishdan manfaatdor bo'lishi lozim. Ularning ulushi qanchalik yuqori bo'lsa, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar miqdori shunchalik katta bo'ladi va aksincha.

Korxonalar asosiy fondlarining turlar bo'yicha tuzilmasi, ko'p jihatdan kapital qo'yilmalarning texnologik tuzilmasi orqali, jumladan, ularning yangi qurilish va qayta ta'mirlash, amaldagi ishlab chiqarishni kengaytirish va qayta qurollantirish bilan avvaldan belgilab qo'yilgan bo'ladi. Asosiy fondlarning turlar bo'yicha tuzilmasiga ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va konsentratsiya qilish darajasi ham katta ta'sir o'tkazadi. Yirik korxonalar, ishlab chiqarishni fondlar bilan ta'minlashda va fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan keng foydalanishda kichik va o'rta korxonalar qaranganda ko'proq imkoniyatga ega. Biroq

kichik korxonalar harakatchanroq, ularning boshqaruvi moslashuvchanroq bo'lib, natijada ishlab chiqarishni texnik jihatdan qayta qurollantirish osonroq kechadi.

“Korxonada iqtisodiyoti”ga **ekspluatatsiya qilinayotgan asosiy fondlarning yoshi**, birinchi o'ringda mashina va asbob-uskunalarining yoshi katta ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi paytda mashina va sanoat uskunalarini yosh bo'yicha guruhlashda taxminan quyidagi muddatlardan kelib chiqiladi: 5 yilgacha, 5 yildan 10 yilgacha, 10 yildan 15 yilgacha, 15 yildan 20 yilgacha, 20 yildan 25 yilgacha va hokazo.

Mashina va uskunalarining ekspluatatsiya muddati qanchalik yuqori bo'lsa, korxonaning ishlab chiqarish quvvatlari shunchalik past bo'ladi, mahsulotlar sifati pasayadi, bekor turib qolish va talofatlar ko'payadi hamda aksincha. Bundan tashqari, korxonada asbob-uskunalaridan uzoq vaqt mobaynida foydalanilganida ta'mirlash uchun ham ko'p xarajatlar sarflanadi.

7.2. Korxonalarda asosiy fondlarni eskirishi, ularni baholash va ta'mirlash

Xo'jalik amaliyotida asosiy fondlar natural va qiymat ko'rinishida hisobga olinadi.


Agar asosiy fondlarni *natural baholash*-ishlab chiqarishni texnik jihatdan qayta qurollantirish va zamonaviylashtirish masalalarini hal qilish, asbob-uskunalarini ta'mirlash uchun ularning guruh va turlari bo'yicha grafiklar tuzish, shuningdek, ta'mirlash vositalariga bo'lgan ehtiyojni aniqlash imkonini bersa, *qiymat bo'yicha baholash* esa, asosiy fondlarni qayta ishlab chiqarishni rejalashtirish, ularning mavjud hajmini aniqlash, amortizatsiya hajmini belgilash, asosiy fondlar va ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasini tahlil qilish va hokazolarda muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy fondlarni baholashning quyidagi usullari mavjud: **boshlang'ich qiymat bo'yicha** - asosiy vositalarni yaratish yoki sotib olish uchun sarflangan xarajatlar majmuidan iborat bo'lib, asosiy fondlar yoki ularning alohida qismlarini foydalanishga topshirish uchun yaroqli holga keltirish bilan bog'liq bo'lgan ularni keltirish, o'rnatish kabi xarajatlarni hisobga olgan holda yuzaga keluvchi qiymat. Masalan, bitta

mashina yoki uskunaning boshlang'ich qiymati – bu, korxonaning mazkur mashina yoki uskunani ma'lum bir sanada sotib olgan va bu haqda buxgalteriya hujjatlarida qayd qilingan sotib olish narxidir.

Tiklanish qiymati bo'yicha – asosiy fondlar yoki ularning biron-bir qismini (binolar, qurilmalar, mashinalar, ishlab chiqarish uskunalari va hokazo) hozirgi paytdagi inflatsiya va boshqa omillarni hisobga olgan holda baholash.

Baholashning bu usuli obyektning hozirgi paytdagi qayta ishlab chiqarish davrida qancha turishini ko'rsatadi. Korxonada asosiy fondlarining tiklanish qiymati, taftish va inventarizatsiya paytida, mamlakat miqyosida va davlat chora-tadbiri sifatida esa, asosiy fondlarni qayta baholash paytida amalga oshiriladi.



7.1-rasm. Korxonada asosiy fondlarini baholashning turlari

Qoldiq qiymati bo'yicha – asosiy fondlarning eskirishini inobatga olgan holda, birlamchi va qayta tiklash qiymatlari o'rtasidagi farq ko'rinishidagi baholashdir. Boshqacha qilib aytganda, bu asosiy fondlarning ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga hali o'tkazilmagan qismidir.

Korxonalar tomonidan foydalanilmaydigan hamda hisobdan chiqarish yoki sotib yuborish mo'ljallangan asosiy fondlar ham,

ko'pincha qoldiq qiymati bo'yicha, mazkur xo'jalik yilidagi narxlarda baholanadi.

Korxonada asosiy fondlarini baholashning turlarini quyidagi chizma ko'rinishda aks ettirish mumkin.

Iqtisodiyotning globallashuvi hamda hisob va hisobotlarning mukammal-lashuvi, jumladan, milliy hisob standartlarining jahon standartlari talablari darajasiga keltirilishi tufayli, garchi asosiy vositalar, asosiy fondlarning pul ko'rinishidagi ifodasi sifatida avvaldan qo'llanib kelgan bo'lsada, hayotimizga "asosiy kapital", "asosiy vositalar" kabi atamalar endilikda keng ravishda kirib kelmoqda.

Hozirgi kunda amaliyotda asosiy vositalarning korxonada balansi va hisobotlarida aks ettiriluvchi (ya'ni, boshlang'ich, belgilangan tartibda o'tkaziluvchi qayta baholashdan keyin esa tiklanish), hisobga olish qiymati **balans qiymati** deb ataladi. Bundan asosiy vositalarning qoldiq qiymatini asosiy vositalarning balans qiymatidan eskirish summasini ayirib tashlash yordamida topish mumkinligi anglashiladi.

Qabul qilingan baholash usuli va korxonada balansida aks ettiriluvchi buxgal-teriya hisoboti ma'lumotlari asosida, **korxonada asosiy ishlab chiqarish fondlari-ning o'rtacha yillik qiymati** (F_{or}) belgilanib, u quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$F_{or} = F_n + \frac{F_p * T_1 - F_v * T_2}{12}$$

Bu yerda:

F_n – asosiy ishlab chiqarish fondlarining yil boshidagi qiymati;

F_p – yil davomida kelib tushgan (foydalanishga topshirilgan) asosiy ishlab chiqarish fondlari qiymati;

F_v – yil davomida ishlab chiqarishdan chiqarilgan (yo'q qilingan) asosiy fondlar qiymati;

T_1 – foydalanishga topshiriluvchi asosiy ishlab chiqarish fondlari amalda bo'luvchi o'rtacha muddati (oylarda), qabul qilingandan keyingi oydan boshlab;

T_2 – ishlab chiqarishdan chiqarilgan (yo'q qilingan) asosiy ishlab chiqarish fondlari foydalanilmaydigan o'rtacha muddat (oylar) chiqarilgan oydan to yil oxirigacha).

Asosiy fondlarni boshlang'ich yoki tiklanish qiymati bo'yicha baholashdan tashqari eskirish summasi ham hisobga olinadi. Asosiy fondlar jismoniy va ma'naviy jihatdan eskirishi mumkin.

Jismoniy (moddiy) eskirish asosiy fondlarning birlamchi xislatlarini ishlab chiqarishda foydalanish va tabiiy eskirish natijasida yo'qotishdan yuzaga keladi. U asosan bir xilda kechmaydi hamda ko'p jihatdan iqlimning ta'siri, asosiy fondlardan foydalanish qoidalariga rioya qilish, jumladan, xodimlarning malakasiga ham bog'liq bo'ladi.

Jismoniy eskirishni (IF) quyidagi formula asosida hisoblab topish mumkin:

$$\frac{T_f}{T_n} \times 100; \text{ yoki } IF = \frac{I}{P_s} \times 100.$$


Bu yerda:

T_f - asosiy fondlarning haqiqiy xizmat qiluvchi muddati;

T_n - asosiy fondlar xizmat qilishi kerak bo'lgan normativ muddat;

I - hisoblangan amortizatsiya summasi (eskirish summasi);

P_s - asosiy fondlarning boshlang'ich (qayta tashkil qilish) qiymati.



7.2-rasm. Asosiy fondlarning eskirish turlari

Ma'naviy eskirish - asosiy fondlarning qadrsizlanishi yoki texnik jihatdan muddatidan avval ish qobiliyatini yo'qotilishidir. U ikki shaklda yuzaga keladi: birinchi shaklda asosiy fondlar ularning ishlab chiqarish qiymatlari pasayishi natijasida qadrsizlansa, ikkinchi shaklda asosiy fondlarning qadrsizlanishi yangi, fan-texnika taraqqiyoti ta'siri ostida,

yanada samaraliroq fondlarning paydo bo'lishi natijasida ro'y beradi. Asosiy fondlar ma'naviy eskirishining yuqorida keltirilgan shakllarini quyidagi tarzda aniqlash mumkin:

$$IM_1 = \frac{P-V}{P} \times 100$$

$$IM_2 = \frac{P_n - P_s}{P_n} \times 100$$

Bu yerda:

P - asosiy fondlarning to'liq boshlang'ich qiymati;

V - asosiy fondlarning tiklanish qiymati;

P_n - yangi texnikaning unumdorligi.

Asosiy fondlarni qayta ishlab chiqarish, ya'ni jismoniy va ma'naviy jihatdan eskirgan asosiy fondlarning o'rmini iqtisodiy to'ldirish uchun korxonalar bu vositalar qiymatidan *amortizatsiya ajratmalarini* ayirib tashlaydi hamda bu ajratmalar keyinchalik xarajatlar sifatida mahsulot tannarxiga kiritiladi.

Amortizatsiya ajratmalari quyidagi formula asosida aniqlanuvchi amortizatsiya normalari (N_a) asosida amalga oshiriladi:

$$N_a = \frac{A}{P} * 100$$

Bu yerda:

A - amortizatsiya ajratmalari;

P - asosiy fondlarning to'liq boshlang'ich qiymati.

Yillik amortizatsiya ajratmalari (AO) miqdori quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$A = \frac{P + P_k + M - O}{T}$$

Bu yerda:

R_k - asosiy fondlar xizmat qilgan muddat davomida kapital ta'mirlashga sarflangan xarajatlar;

M - uskuna, mashina va qurilmalarni, ular xizmat qilgan davr mobaynida modernizatsiya qilishga sarflangan xarajatlar;

O - asosiy fondlarning qoldiq (likvidatsion) qiymati;

T - asosiy fondlarning xizmat qilish muddati, yil.

Amalda amortizatsiya mablag'lari asosiy fondlarni to'liq qayta tiklash (renovatsiya), kapital ta'mirlash va uskunalarni modernizatsiya qilish uchun alohida ravishda yo'naltiriladi. Bundan kelib chiqqan holda amortizatsiya normasi ikki qismdan - fondlarni renovatsiya qilish (N_v) hamda kapital ta'mirlash va modernizatsiya qilish (N_r) uchun ajratiluvchi mablag'dan iborat bo'ladi.

Birinchi holda amortizatsiya normasi quyidagi formula:

$$N_v = \frac{P - O}{TP} \times 100;$$

ikkinchi holda esa:

$$N_r = \frac{R_k + M}{TP}$$

asosida aniqlanadi.

Ishlab chiqarish jarayonida asosiy fondlar asta-sekinlik bilan eskirishi sababli, ularning ish qobiliyatini ta'mirlash orqali tiklash zaruriyati tug'iladi.

O'z vaqtida ta'mirlash asosiy fondlar muddatidan oldin ishdan chiqishining oldini oladi hamda ularning xizmat qilish muddati va unumdorligini oshiradi.

Asosiy fondlarni ta'mirlash kapital, o'rta va joriy turlarga bo'linadi. Bino va inshootlarni ta'mirlash o'z mazmuni, talab qilinuvchi muddat va mablag'larga ko'ra, mashina va uskunalarni ta'mirlashdan farq qiladi.


Masalan, mashina va asbob-uskunalarni **kapital ta'mirlashda** ular to'liq qismlarga bo'linadi va eskirgan qismlar almashtiriladi. Uskunalarni ikki marta kapital ta'mirlash orasidagi muddat *ta'mirlash sikli* deb ataladi. Mashina va uskunalar, qoidaga ko'ra, maxsus zavodlarda ta'mirlanadi.

O'rtacha ta'mirlash texnik mazmuni, murakkabligi, bajariladigan ish hajmi va davriyligiga ko'ra, kapital ta'mirlashdan farq qiladi hamda sarflanuvchi mablag', vaqt va kuchni nisbatan kamroq talab etadi. Joriy ta'mirlash kabi u ham mashina yoki uskunadan foydalanuvchi korxonaning o'zida amalga oshirilishi mumkin.

Joriy ta'mirlashda asosan asbob-uskunalar tozalanadi, moylanadi, tekshiriladi, mayda kamchiliklari bartaraf qilinadi, ya'ni uskunalarining foydalanishga doimiy tayyorligi ta'minlanadi.

Asosiy fondlarni ta'mirlash va ularga xizmat ko'rsatish majmuasi *rejali-oldini oluvchi ta'mirlash tizimiga* (ROOT) birlashtiriladi va korxonada bosh mexanigi tomonidan boshqariladi. Deyarli har bir korxonada ROOT o'tkazilishini qayd qilish jurnallari mavjud bo'lib, ularda profilaktika va ta'mirlash tadbirlarini o'tkazish tartibi va grafigi belgilab qo'yiladi.

Ta'mirlash ishlari tufayli korxonada asosiy fondlarning joriy ekspluatatsiyaga tayyorligini ta'minlaydi. Biroq shu bilan bir qatorda korxonada asosiy fondlarni yaratish, foydalanish, amortizatsiya, qayta tiklash kabi bosqichlarni o'z ichiga oluvchi takror ishlab chiqarish amallarini doimiy ravishda bajarishga intilishi lozim. Bu bosqichlarni quyidagi chizma yordamida aks ettirish mumkin (7.3-rasm).



7.3-rasm. Korxonada asosiy fondlarini qayta ishlab chiqarish bosqichlari

Takror ishlab chiqarish siklida asosiy fondlarni yaratish jarayoni korxonadan tashqarida amalga oshiriladi hamda asosan qurilish sohasi, mashinasozlik, asbobsozlik hamda asosiy fondlarni yaratish bilan shug'ullanuvchi boshqa sohalar bilan bog'liq bo'ladi.

Asosiy vositalarni takror ishlab chiqarishning qolgan bosqichlari korxonada hududida amalga oshiriladi.

Biroq barcha hollarda ham asosiy fondlarni takror ishlab chiqarish tufayli korxonalar ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish hamda rivojlanib borayotgan bozor munosabatlari sharoitlarida iqtisodiy va texnik barqarorlikka erishishlarini ta'minlaydi.

7.3. Asosiy fondlardan foydalanishni yaxshilash yo'llari va ko'rsatkichlari

Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishning turli xil ko'rsatkichlari mavjud bo'lib, ularni shartli ravishda ikki guruhga bo'lish mumkin:

birinchi guruh - *umumlashtiruvchi* va *qiymat* ko'rsatkichlari bo'lib, ular asosiy fondlarning turli guruhlarini dinamika va statikada baholash, tahlil qilish, zaxiralarni aniqlash va bashorat qilish imkonini yaratadi. Bunday ko'rsatkichlarga fond qaytimi, fond sig'imi, fond rentabelligi va boshqalarni kiritish mumkin.

ikkinchi guruh - *xususiy* va *natural* ko'rsatkichlar bo'lib, ko'proq asosiy ishlab chiqarish fondlarining faol qismi - ishchilar, mashina va asbob-uskunalaridan foydalanish bilan bog'liq.

Ko'rsatkichlarning bu guruhi tarkibiga quyidagilar kiradi:

- asosiy ishlab chiqarish fondlari (mashina va asbob-uskunalar)dan ekstensiv foydalanish koeffitsiyenti, ulardan vaqt bo'yicha foydalanganlik darajasini aks ettiradi;

- asosiy ishlab chiqarish fondlari(mashina va asbob-uskunalar)dan intensiv foydalanish koeffitsiyenti, ulardan quvvat bo'yicha foydalanganlik (unumdorlik) darajasini aks ettiradi;

- asosiy ishlab chiqarish fondlaridan integral foydalanish koeffitsiyenti, barcha ekstensiv va intensiv omillardan birgalikda foydalanishni hisobga oladi.

Ko'rsatilgan ko'rsatkichlarning har biri amaliyotda mustaqil ma'noga ega bo'lib, turli maqsadlarga erishish uchun foydalaniladi. Masalan, asosiy ishlab chiqarish fondlaridan vaqt bo'yicha qanday foydalanilganligini (ekstensiv foydalanish) baholash asbob-uskunalarining smenalik koeffitsiyenti, uskunalarni koeffitsiyenti, smena davomida uskunalarning bekor turib qolishi, uskunalardan smenalarda foydalanish koeffitsiyenti kabi ko'rsatkichlar qo'llaniladi.

Asbob-uskunalaridan ekstensiv foydalanish koeffitsiyenti mazkur uskunalardan amalda haqiqiy foydalanilgan vaqtning ulardan reja bo'yicha foydalanish muddatiga nisbati orqali aniqlanadi.

$$K_{eks} = \frac{t_{haq}}{t_{rej}}$$

Bu yerda:

t_{haq} – uskunalardan haqiqiy foydalanilgan vaqt, soatlar;

t_{rej} – uskunalarning normaga asosan foydalanish muddati, soatlar.

Misol. Agar 8 soatlik smena mobaynida ta'mirlash uchun 1 soat rejalashtirilib, amalda 5 soat sarflangan bo'lsa, u holda ekstensiv foydalanish koeffitsiyenti $0,71$ ($5/(8-1)$) ni tashkil qiladi. Bu esa asbob-uskunalardan smena davomida faqat 71 foiz foydalanilganligini anglatadi.

Korxonalarda bunday uskunalarning bir emas, bir nechta – o'nta yoki yuztasidan foydalaniladi. Shu munosabat bilan uskunalarning smenalik koeffitsiyenti sutka davomida mashina-smenalarning o'rnatilgan uskunalarning umumiy soni yoki ishchi o'rinlariga nisbatini aniqlash zaruriyati tug'iladi. Bu holda smenalilik koeffitsiyenti quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$K_{sm} = \frac{MS}{KO}$$

Bu yerda:

MS - sutka davomida haqiqiy ishlangan mashina-smenalar yig'indisi;

KO - o'rnatilgan asbob-uskunalarning umumiy soni.

Misol. Korxonada 200 dona metall qirquvchi stanok sutka mobaynida 360 mashina-smena, 60 ta temir presslovchi stanok 50 mashina-smena, 40 ta quyuv stanoklari esa 30 mashina-smena ishlagan. Ushbu holda barcha stanoklardan foydalanishning smenalilik koeffitsiyenti quyidagicha topiladi:

$$K_{sm} = \frac{360 + 50 + 30}{200 + 60 + 40} = 1,47$$

Uskunalarning smenalilik koeffitsiyentini aniqlashning yana bir yo'li bo'lib, unga ko'ra korxonalarning bir emas, ikki yoki uch smenada ishlashi va bunda uskunalarning barchasidan ham to'liq foydalanilmasligi ko'zda tutiladi. Masalan, sexda 270 dona uskuna o'rnatilgan bo'lib, birinchi smenada ulardan 200 tasi, ikkinchi smenada esa 190 tasi ishlagan. Bu holda uskunalarning smenalilik koeffitsiyenti $1,44$ ($200+190/270$) ni tashkil qiladi.

Uskunalarni yuklanish koeffitsiyenti ham uskunalardan vaqt bo'yicha foydalanishni tavsiflaydi. Smenalilik koeffitsiyentidan farqli ravishda, u mahsulotning mehnat sig'imini hisobga oladi. U mazkur uskunada tayyorlangan barcha mahsulotlar mehnat sig'imining uning

ishlash vaqti fondiga nisbati orqali aniqlanadi. Mazkur misolda ushbu koeffitsiyent quyidagicha bo'ladi:

$$K_{yuk} = \frac{1,44}{2} = 0,72$$

Korxonada asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishni to'liq baholash uchun ekstensiv ko'rsatkichlardan tashqari, ularning quvvat bo'yicha yuklanish tabiatini o'rganish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yerda yuqorida aytib o'tilganidek, texnologik uskunalar amaldagi unumdorligining, ya'ni texnik asoslangan progressiv unumdorlikning normativ unumdorlikka nisbati asosida, ya'ni **uskunalardan intensiv foydalanish koeffitsiyentidan** foydalanish, uni quyidagi formula bo'yicha hisoblash mumkin:

$$K = \frac{V_f}{V_p};$$

Bu yerda: V_f – vaqt birligida uskunada ishlab chiqarilgan haqiqiy mahsulot miqdori;

V_p – vaqt birligida uskunada texnik jihatdan asoslangan mahsulot ishlab chiqarish normasi.

Misol. Pasport ma'lumotlari bo'yicha dastgohda bir soatda 100 ta detal yasash mumkin, amalda esa shu vaqt ichida faqat 80 ta detal tayyorlandi. U holda $K_{int}=0,8$ (80:100), ya'ni dastgohdan quvvat bo'yicha foydalanish 80 foizni tashkil qildi.

Uskunadan integral foydalanish koeffitsiyenti uskunadan ekstensiv va intensiv foydalanish koeffitsiyentlarining ko'paytmasi orqali aniqlanib, uning vaqt va quvvat bo'yicha band bo'lishini (foydalanilishini) kompleks xarakterlaydi.

Bizning misolimizda $K_{eks}=0,71$ va $K_{int}=0,8$ bo'lganligi tufayli, uskunadan integral foydalanish koeffitsiyenti quyidagiga teng bo'ladi:

$$K_{integral} = K_{eks} * K_{int} = 0,71 * 0,8 = 0,57$$

Korxonaning asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishning umumiy va qiymat ko'rsatkichlari nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda, avvalo **fond qaytimi** haqida to'xtalib o'tish kerak. U asosiy fondlar birligiga (qiymati bo'yicha) to'g'ri kelgan mahsulot ishlab chiqarishni xarakterlaydi.

U mahsulot sotishdan tushgan bir yillik tushumning (V) asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymatiga nisbati sifatida aniqlanadi:

$$F_k = \frac{V}{F_s}$$

Mahsulotning fond sig'imi – fond qaytimiga teskari qiymat bo'lib, quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$F_s = \frac{F_{or}}{V}$$

Fond sig'imi kapital qo'yilmalari (investitsiyalar)ni tejash yoki ko'paytirish bilan uzviy ravishda bog'liq bo'ladi. Masalan, mahsulot fond sig'imi pasayib, uning ishlab chiqarish hajmi doimiy yoki o'suvchi bo'lganda asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanish sharoitlari yaxshilanadi, demak, kapital qo'yilmalarini tejash uchun imkoniyat tug'iladi. Uni topish uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$E_x = F_e \times V$$

Bu yerda:

E_k – kapital qo'yilmalarni tejash, so'm;

F_e – hisobot yilida mahsulot fond sig'imining o'tgan yildagiga nisbatan o'zgarishi, so'm.

Har bir korxonada o'z tasarrufidagi asosiy ishlab chiqarish fondlaridan iloji boricha unumli foydalanishga intilishi lozim. Bunga fondlarni ish bilan ta'minlashni yaxshilash tufayli ishlab chiqarish va mahsulotlarni sotish hajmini oshirish, nisbiy xarajatlarni kamaytirish, foydani oshirishdan tashqari asosiy fondlarda jamiyatning o'tmishda narsa holiga aylangan mehnati mujassamlanganligi ham zaruriyat tug'diradi.

Korxonada asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishni yaxshilashning asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- smena davomida uskunalar bekor turib qolishini qisqartirish va uning oldini olish;

- uskunalarining smenalik koeffitsiyentini oshirish;

- bekor turuvchi uskunalarini qisqartirish va tugatish;

- ta'mirlash va profilaktika tadbirlarini o'z vaqtida va sifatli ravishda amalga oshirish;

- uskunalarini ekspluatatsiya qiluvchi xodimlarning malakasini oshirish;

- ishlab chiqarishni tashkil etishni va resurslar bilan ta'minlashni yaxshilash.

Asosiy fondlarning va ishlab chiqarish quvvatining muvaffaqiyatli ishlashi ulardan foydalanishni yaxshilash ekstensiv va intensiv omillar qanchaga to'la bajarilishiga bog'liq. Asosiy fondlar va ishlab chiqarish quvvatlaridan ekstensiv foydalanishni yaxshilash bir tomondan taqvim davr ichida, harakatda bo'lgan jihozlarning ish vaqti oshadi, ikkinchi tomondan esa – korxonada mavjud hamma jihozlarning tarkibidagi ishlab turgan jihozlar salmog'i ko'tariladi. Asosiy fondlarni va ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni yaxshilashning ekstensiv yo'li hozircha to'la ishlatilmagan bo'lsa ham, u o'zining chegarasiga ega. Intensiv yo'lining imkoniyati ancha keng. Asosiy fondlar va ishlab chiqarish quvvatidan foydalanishni intensiv yaxshilash, vaqt birligida jihozlarni ish bilan yuklash darajasini oshirish belgilaydi. Jihozlarni intensiv ish bilan yuklashni oshirish harakatdagi (ishlab turgan) mashinalar va mexanizmlarni modernizatsiyalash, ularga optimal ish rejimi o'rnatish bilan erishish mumkin. Hozirgi sharoitda asosiy fondlar va ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish samaradorligini ko'tarishga ta'sir ko'rsatuvchi yana bir omil paydo bo'ldi. Bu xo'jalik yuritishning hissdorlik shaklining va korxonalarni xususiylashtirishning rivojlantirishidir. Har ikkala voqeada ham, mehnat jamoasi (kollektivi) asosiy fondlarning egasi bo'ladi, ishlab chiqarish vositalarini real boshqarishga, imkonga ega bo'ladi, asosiy fondlar ishlab chiqarish tarkibini mustaqil shakllantira oladi, maqsadli investitsiyalashni oshirishga imkon beradigan korxonada foydasidan mustaqil foydalana oladi.

7.4. Korxonaning ishlab chiqarish quvvati

Asosiy ishlab chiqarish fondlari hajmi va ulardan foydalanish darajasi korxonaning ishlab chiqarish quvvati kattaligini belgilaydi. U ishlab chiqarish dasturini asoslashda katta rol o'ynaydi hamda korxonaning belgilangan nomenklatura va sifatli mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha potensial imkoniyatlarini tavsiflaydi.

Bundan kelib chiqadiki, **ishlab chiqarish quvvati** – bu, ma'lum bir vaqt davomida ilg'or texnologiyalardan foydalanish, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil qilishning ilg'or sharoitlarida ishlab chiqarish mumkin bo'lgan mahsulotlarning maksimal darajasidir. U qoidaga ko'ra, ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmining natural ko'rinishda, ushbu

korxonaning ixtisoslashganligi va mahsulotning alohida turlari o'rtasidagi o'zaro nisbatiga ko'ra aniqlanadi.

Korxonaning ishlab chiqarish quvvati ilg'or (asosiy) sexlar quvvati bilan, sexlar quvvati bosh uchastkalar quvvati bilan, uchastkalar quvvati esa bosh uskunalar quvvatiga asosan aniqlanadi. Korxonada ishlab chiqarish quvvati kattaligini belgilab beruvchi ko'rsatkichlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- uskunalar tarkibi va turlar bo'yicha soni;
- uskuna, agregat va dastgohlardan foydalanishning texnik-iqtisodiy norma (normativ) lari;
- uskunalarining ishlash vaqti fondi;
- ishchilar soni;
- ishlab chiqarilayotgan mahsulot nomenklaturasi va assortimenti (turlari va xilma-xilligi).

Korxonada ishlab chiqarish quvvatining *boshlang'ich* (yil boshida), *yakuniy* (yil oxirida), *o'rtacha* yillik hamda *loyiha quvvati* turlari mavjud. Loyiha quvvati qurilish loyihasida ko'zda tutilgan bo'ladi. Qayta tiklash, kengaytirish va texnik jihatdan qayta qurollantirish davomida loyiha quvvati kattalashtirilishi mumkin. Shu sababli amaliyotda loyiha quvvati ko'pincha korxonaning amaldagi quvvati bilan solishtiriladi. Korxonaning amaldagi quvvati korxonada ishlab chiqarish dasturini tayyorlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Korxonada ishlab chiqarish quvvatini aniqlashda zaxiradagi uskunalaridan tashqari, barcha o'rnatilgan uskunalar hisobga olinadi. Ba'zi bir sexlarda (yig'uv, quyuv va boshqa sexlarda) ishlab chiqarish quvvati ishlab chiqarish maydonlariga asosan hisoblanadi.

Ishlab chiqarish quvvatini aniqlashda mahsulot birligiga sarflanuvchi vaqt normasi yoki har bir uskunaning unumdorlik normalari muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular ilg'or hamda progressiv bo'lishi talab qilinadi.

Korxonada bosh bo'g'inining (asosiy sexining) ishlab chiqarish quvvati quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$M = \frac{n \times F_{maks}}{M_i}$$

Bu yerda:

M - sex yoki uchaskaning qabul qilingan o'lchov birligidagi ishlab chiqarish quvvati;

n - sex yoki uchastkadagi ilg'or uskunalar soni;

F_{maks} – bosh uskunadan foydalanish mumkin bo'lgan maksimal muddat, soat;

M_1 –bosh uskunada mahsulot tayyorlashning progressiv mehnat sig'imi, soat.

Amaliyotda ishlab chiqarish quvvati va uskunalarning yuklanishini hisoblashda ba'zida xatolar, ular o'rtasidagi farqni sezmaslik hollari ham uchrab turadi.

Korxonada quvvati asosiy ishlab chiqarish fondlari, yangi texnika va aniqlangan zaxiralardan foydalangan holda mahsulot ishlab chiqarish mumkin bo'lgan maksimal darajani tavsiflaydi, uskunalarning yuklanishini hisoblash natijalari esa, ushbu quvvatlardan rejadagi davrda foydalanishning darajasini aniqlaydi.

Demak, ular o'rtasidagi prinsipial farq shundaki, birinchi holatda korxonada ishlab chiqarishi mumkin bo'lgan mahsulotlarning maksimal darajasi aniqlansa, ikkinchi holda mazkur davr mobaynida uskunalardan qanchalik foydalanilishi aniqlanadi.

Ishlab chiqarish dasturining korxonada mavjud bo'lgan quvvatlarga mos kelishini aniqlash uchun, o'rtacha yillik ishlab chiqarish quvvati hisoblab topiladi. Uni hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$M_{o'r.yil} = Mn + \frac{M_v \times n_1}{12} - \frac{M_1 \times n_2}{12}$$

Bu yerda:

$M_{o'r.yil}$ – korxonaning o'rtacha yillik quvvati;

M_n – korxonaning yil boshidagi quvvati;

M_v – yil mobaynida kiritiluvchi quvvati;

M_1 – yil davomida ishlab chiqarishdan chiqariluvchi (yo'q qilinuvchi) quvvat;

n_1, n_2 – ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirishdan yoki tugatilgan ishlab chiqarish quvvatlari yo'q qilingandan to yil oxirigacha o'tgan to'liq oylar soni.

Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishni yaxshilash bilan bog'liq bo'lgan mazkur chora-tadbirlar, ko'pincha ishlab chiqarish quvvatlari balansini tuzish yo'li bilan amalga oshirilib, korxonaning ishlab chiqarish quvvatlari va ularni ta'minlash manbalariga bo'lgan ehtiyoji aniqlanadi.

Tayanch iboralar

Asosiy fondlar, korxonaning ishlab chiqarish apparati, noishlab chiqarish asosiy fondlari, aktiv va passiv, lizing, korxonaga asosiy fondlari tarkibi, ekspluatatsiya qilinayotgan asosiy fondlarning yoshi, natural baholash, qiymat bo'yicha baholash, boshlang'ich qiymat, tiklanish qiymati, qoldiq qiymati, balans qiymati, asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymati, jismoniy (moddiy) eskirish, ma'naviy eskirish, amortizatsiya ajratmalari, amortizatsiya normalari, kapital ta'mirlash, o'rtacha ta'mirlash, joriy ta'mirlash, ishlab chiqarish quvvati.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Asosiy fondlar nima va ularning kengaytirilgan ishlab chiqarishdagi roli qanday?

2. Asosiy ishlab chiqarish fondlari tuzilmasi deganda nima tushuniladi hamda ularning sanoat tarmoqlari bo'yicha farqlanishiga nima sabab bo'ladi?

3. Zamonaviy amortizatsiya siyosatining mohiyati va ahamiyati nimada?

4. Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishning ekstensiv va intensiv ko'rsatkichlari qanday?

5. Korxonaga va sanoat tarmog'ining ishlab chiqarish quvvatlarini hisoblash usuli, turi va tushunchalari qanday?

6. Zamonaviy sharoitlarda asosiy fondlar va korxonaga ishlab chiqarish quvvatidan foydalanishni yaxshilashning qanday yo'nalishlari mavjud?

VIII BOB. KORXONANING AYLANMA MABLAG'LARI

Mazkur bobda korxonaning aylanma mablag'lardan foydalanish darajasi va tuzilmasi, Aylanma mablag'lardan foydalanish ko'rsatkichlari, aylanish koeffitsiyenti, aylanish davomiyligi va yuklanish koeffitsiyenti oqali korxonada moddiy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlash yo'nalishlari bilan bog'liq ma'lumotlar berilgan.

8.1. Aylanma mablag'lar tushunchasi, iqtisodiy tabiati va ularning korxonada faoliyatidagi ahamiyati

Korxonalar ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilishda mehnat qurollari (asosiy fondlar) va ishchi kuchidan tashqari, **aylanma mablag'larga** ham ega bo'lishlari zarur. Aylanma mablag'lar ishlab chiqarishning aylanma fondlari va muomala fondlarini tashkil qilishga mo'ljallangan pul mablag'laridan iborat. Aylanma mablag'lar, qoidaga ko'ra, korxonaning hisobraqamida naqd pul ko'rinishida jamg'ariladi. Har bir korxonaning aylanma mablag'lari asosiy fondlarning texnik holati va mahsulot ishlab chiqarish dasturi bilan bog'liq. Korxonada qanchalik katta va uning ishlab chiqarayotgan mahsulotlari turlari ko'p bo'lsa, aylanma mablag'lar shunchalik ko'p talab qilinadi. Aylanma mablag'lar ishlab chiqarish va uning uzluksizligini ta'minlashning moddiy asosi hisoblanadi.

“Aylanma mablag'lar” atamasidan tashqari “aylanma kapital” iborasi ham ko'p qo'llanilib, asosan iqtisodiy nazariya va xo'jalik yuritishning xorijiy tajribasidan olinadi. Mohiyatiga ko'ra, **aylanma kapital** korxonada ishlab chiqarish kapitalining bir qismi bo'lib, uning qiymati ishlab chiqarishning har bir siklida ishlab chiqarilgan mahsulotga o'tkaziladi hamda ushbu tovarni sotgandan so'ng korxonaga qaytariladi. Aylanma kapital ko'pincha korxonaning pul mablag'lari hisoblanuvchi yoki ishlab chiqarish jarayonida pul mablag'lariga aylantiriluvchi harakatchan aktivlari qatoriga kiritiladi.

Iqtisodiy tabiati, bajaruvchi vazifalari va ishlab chiqarish jarayonidagi o'rniga ko'ra, "aylanma mablag'lar" va "aylanma kapital" o'rtasida sezilarli farq yo'q. Korxonada doimiy kapitalning tarkibiy qismi sifatida ular xomashyo, yoqilg'i, energiya resurslari, yordamchi va boshqa materiallarda yuzaga keladi, shuningdek, ishchi kuchlarini yollash va ularning mehnatiga haq to'lashga bo'nak (avans) tariqasida beriladi. Aylanma mablag'larga bo'lgan qo'shimcha talab banklardan olinadigan kreditlar hisobiga qoplanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida korxonalarining aylanma mablag'larga yetarli tarzda ega bo'lishi ularning normal faoliyat yuritishi garovi hisoblanadi. Shuni ham unutmaslik zarurki, ishlab chiqarayotgan mahsulot birligiga sarflanuvchi xomashyo, material, yoqilg'i va energiya miqdori mahsulot sifatiga ta'sir ko'rsatmagan holda qanchalik kam bo'lsa, mahsulot shunchalik arzonlashadi hamda aylanma mablag'lar kamroq sarflanib, ulardan foydalanish samaradorligi yuqori bo'ladi.

Korxonalarining aylanma mablag'lari aylanma fondlari va muomala fondlariga taqsimlanadi. Bunday taqsimlash ularning moddiy buyumlashgan tuzilishidan tashqari, ishlab chiqarish jarayoni va umuman, korxonaning iqtisodiy faoliyatidagi ishtiroki asosida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, taqsimlash rejalashtirishni tashkil qilishda hamda korxonaning ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalarida aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyojini aniqlashda katta rol o'ynaydi.

Aylanma ishlab chiqarish fondlari – korxonada ishlab chiqarish fondlarining bir qismi bo'lib, bitta ishlab chiqarish sikli davomida sarflanadi hamda natural shaklini o'zgartirib, o'z qiymatini to'lig'icha tayyor mahsulot tannarxiga o'tkazadi. Shu sababli aylanma ishlab chiqarish fondlari ishlab chiqarish jarayonining majburiy elementi va ishlab chiqarish xarajatlarning asosiy qismi hisoblanadi.

Korxonada aylanma ishlab chiqarish fondlari qatoriga xomashyo va materiallar zaxirasi, yarimtayyor mahsulotlar, yoqilg'i va energetika resurslari, qadoqlash va o'rov materiallari, ehtiyot qismlar, tugallanmagan ishlab chiqarish va kelajakdagi xarajatlarni kiritish mumkin. Rejalashtirish, sistemali hisob va hisobotni tashkil qilish uchun qulaylik yaratish maqsadida aylanma ishlab chiqarish fondlari uch guruhga bo'linadi:

- ishlab chiqarish zaxiralari;
- tugallanmagan ishlab chiqarish va korxonada tayyorlangan yarimtayyor mahsulotlar;

-kelgusi davr xarajatlari.

Muomala fondlari korxonaning tayyor mahsulot zaxirasini yaratish uchun mo'ljallangan pul mablag'lari, shuningdek, chek va veksellar, aksiyadorlarning qarzlari, turli xil debitorlik qarzlari, bank va kassalarning hisobraqamlaridagi mablag'lardan iborat bo'ladi. Muomala fondlari va aylanma ishlab chiqarish fondlari majmuasi, korxonaning aylanma mablag'lari (kapitali)ni tashkil qiladi.

Ishlab chiqarishda band bo'lgan aylanma mablag'lar kattaligini belgilovchi asosiy omillar – bu, mahsulot tayyorlashning ishlab chiqarish sikli uzunligi, mehnatni tashkil qilish, texnika va texnologiyaning rivojlanish darajasi, mehnat predmetlari va qurollaridan foydalanish normalaridir. Aylanma mablag'lar kattaligi, shuningdek, mahsulotlarni sotish sharoitlari, ta'minot va mahsulotni sotish tizimini tashkil qilish darajasi bilan ham bog'liq bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan holatlardan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, aylanma mablag'lardan quyidagi hollarda foydalaniladi:

– xomashyo, material, ehtiyot qismlar hamda ishlab chiqarishni tashkil qilishda zarur bo'lgan boshqa mehnat predmetlari;

– ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilinuvchi elektr energiyasi, yoqilg'i kabi resurslar uchun haq to'lash;

– korxonani tashkil etish va faoliyat yuritish davrida oylik ish haqi to'lanishi;

– soliq va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash.

Bozor munosabatlari va deyarli barcha resurslar taqchilligi sharoitlarida aylanma mablag'lar, birinchi o'rinda moddiy resurslardan ratsional foydalanish va ularni shakllantirish zaxiralarini izlab topish har bir korxonada oldida turgan muhim vazifa hisoblanadi. Bunda **zaxira** deganda, moddiy va pul resurslarini yaxshilashning yuzaga kelgan yoki yuzaga kelayotgan, lekin hali foydalanilmagan (to'liq yoki qisman) imkoniyatlarini tushunish lozim.

Bu zaxiralar kelib chiqishi va foydalanilishiga ko'ra xalq xo'jaligiga va tarmoqlarga tegishli yoki tarmoqlararo, ishlab chiqarish ichidagi (zavod, sex va hokazo) turlariga bo'linadi. "Korxonada iqtisodiyoti"da **ichki ishlab chiqarish zaxiralari** – ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil qilish hamda texnika va texnologiyani takomillashtirish, mahsulotlarning yangi va yanada mukammal turlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini oshirish bilan bevosita bog'liq bo'lgan moddiy resurslardan foydalanishni yaxshilash imkoniyatlari, katta ahamiyat kasb

etadi. Zaxiralar shuningdek, moddiy resurslarni sarflashni normallashtirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning mehnat sig'imini kamaytirish, mehnatni tashkil qilishning ratsional usullarini qo'llash natijasida ham aniqlanadi. Qisqacha aytganda har bir korxonalar, ayniqsa, yirik va mashinasozlik korxonalar hamda ularga yaqin bo'lgan korxonalar, moddiy va pul resurslaridan, ya'ni xususiy kapital va boshqa aktivlardan ratsional foydalanish bo'yicha puxta ishlab chiqilgan chora-tadbirlar majmuasiga ega bo'lishi zarur.

Resurslardan samarali foydalanishning texnik-ishlab chiqarish yo'nalishlari qatoriga, birlamchi xomashyoni ishlab chiqarishda foydalanishga sifatli ravishda tayyorlash, mashina va uskunalar konstruksiyasini takomillashtirish, xomashyo, material, yoqilg'ilarning tejamkor turlaridan foydalanish, ishlab chiqarish chiqitlarini kamaytiruvchi hamda ikkilamchi resurslardan maksimal darajada foydalanish va barcha turdagi yo'qotishlarning oldini olishni ta'minlovchi yangi texnika va texnologiyalarni joriy qilishni kiritish mumkin.


Resurslardan oqilona foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy yo'nalishlari qatoriga, mahsulotlar material sig'imini rejalashtirish va normalashtirishning ilmiy darajasini oshirish, resurslarni sarflashning texnik jihatdan asoslab berilgan norma va normativlarini ishlab chiqish, "eski" va "yangi" mahsulot ishlab chiqarish o'rtasida progressiv proporsiyalarni belgilash, mehnatni tashkil qilishning samarali usullarini rag'batlantirish bilan bog'liq bo'lgan chora-tadbirlar kiritiladi.

Aylanma mablag'lar va ularning tarkibiy qismlaridan samarali foydalanishning asosiy yo'nalishlari ish joylarida (brigada, sex va ishlab chiqarish uchastkalarida) bitta miqdordagi xomashyo va materiallardan tayyorlanuvchi yakuniy mahsulotlarni ko'paytirishdadir. U ishlab chiqarishni texnik jihatdan ta'minlash, xodimlarning malakasi, moddiy-texnika ta'minoti, moddiy resurslar zaxiralarini sarflash normalariga bog'liq bo'ladi.

8.2. Aylanma mablag'larning tuzilmasi va harakati hamda ularning korxonalar iqtisodiyotiga ta'siri

Aylanma tuzilmalarni rejalashtirish va boshqarishning hozirgi paytdagi amaliyotida ushbu mablag'larning tarkibi va tuzilmasini

baholash va tahlil qilishga, shuningdek, ularning funksional roli va harakatiga katta e'tibor qaratiladi. Aylanma ishlab chiqarish fondlari korxonada aylanma mablag'larining eng faol qismi bo'lsa, muomala fondlari ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishtirok etmaydi hamda yangi iste'mol qiymatini yaratmaydi. Bu yerda umumiy qoida shundayki, aylanma mablag'lar doimo aylanishda bo'lishi zarur, ularning samaradorligi va korxonada iqtisodiyotiga ta'siri aynan shunda ko'zga tashlanadi.



8.1-rasm. Korxonada aylanma mablag'larining namunaviy tuzilmasi

Aylanma ishlab chiqarish fondlari korxonada aylanma mablag'larining asosiy va salmoqli qismi sifatida o'z tarkibiga quyidagilarni qamrab oladi:

- **ishlab chiqarish zaxiralari** – bu ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqarishga kiritish uchun tayyorlangan hamda xomashyo, asosiy va

yordamchi materiallar, yoqilg'i, xarid qilinuvchi yarimtayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar, qadoqlash va o'rov materiallari, asosiy fondlarni ta'mirlash uchun ehtiyot qismlar, yoqilg'i oylash materiallaridan tashkil topuvchi mehnat predmetlari;

- **tugallanmagan ishlab chiqarish va korxonada tayyorlangan yarimtayyor mahsulotlar** – bu, ishlab chiqarish jarayonida foydalanishga topshirilgan hamda ishlov berish va yig'uv jarayonida bo'lgan, lekin ishlab chiqarish jarayoni to'liq tugallanmagan hamda ushbu korxonada keyinchalik ishlov berilishi lozim bo'lgan mehnat predmetlari;

- **kelgusi davr xarajatlari**-ayni paytda ishlab chiqarilayotgan, lekin kelajakdagi mahsulotlarga mansub bo'lgan yangi turdagi mahsulotlarni tayyorlash va o'zlashtirish xarajatlari (masalan, asbob-uskunalarni qayta rejalashtirish, mahsulotlarning yangi turlarini tayyorlash va loyihalashtirishga sarflanuvchi xarajatlar va boshqalar).

Aylanma ishlab chiqarish fondlari alohida tarkibiy qismlari yoki elementlari o'rtasidagi foizlarda ifodalanuvchi o'zaro munosabatlar **aylanma ishlab chiqarish fondlarining tuzilmasini** tashkil qiladi. Aylanma ishlab chiqarish fondlari va muomala fondlari o'rtasidagi xuddi shunday foizlardagi munosabatlar korxonada aylanma mablag'larining tuzilmasi deb ataladi.

8.1-rasmdan ko'rish mumkinki, ishlab chiqarish zaxiralari aylanma ishlab chiqarish fondlarining asosiy qismini tashkil qiladi. Biroq bozor iqtisodiyoti, ayniqsa, barcha resurslar taqchilligi sharoitlarida ishlab chiqarish zaxiralarining haddan tashqari oshirib yuborilishi korxonada iqtisodiyotiga salbiy ta'sir qilishidan tashqari, resurslarni "bog'lab" qo'yadi hamda ularning yo'qotilishiga olib keladi. Shu sababli aylanma mablag'lar hajmini optimallashtirish va ularni mahsulot ishlab chiqarish dasturlariga mos holga keltirish korxonaning tejamkorlik rejimida faoliyat yuritishi katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Iqtisodiyotning turli tarmoqlaridagi korxonalarining aylanma mablag'lari ishlab chiqarishning texnologik tashkil etish xususiyatlariga ko'ra, bir-biridan farq qiladi. Bu xususiyatlarning xarakteri ishlab chiqarilayotgan mahsulot turi va murakkabligi, ixtisoslashtirish darajasi, mahsulotni realizatsiya qilish sharoitlari va shu kabilar bilan izohlanadi. Aylanma mablag'lar tuzilmasining tarmoqlar bo'yicha farqlanishini quyidagi jadval orqali bilib olish mumkin (8.1-jadval).

Aylanma fondlar tuzilmasi nafaqat sanoatning turli tarmoqlarida, hattoki bir tarmoq va bir korxonaning o'zida ham farqlanadi. Bunday farqlanishga turli xildagi xomashyo va materiallar, ishlab chiqarish texnologiyasi va texnikasidagi farqlar, korxonalarning geografik joylashuvi, ishlab chiqarishning tashkil etilishi va mehnat taqsimoti, moddiy-texnika ta'minoti sabab bo'lishi mumkin.

8.1-jadval

Aylanma mablag'larning tarmoqlar bo'yicha taqsimlanishi

Aylanma fondlarning guruh va elementlari	Butun sanoat	Qora metallurgiya	Mashina -sozlik	Energti ka	Yengil sanoat	Oziq-ovqat sanoati
1. Ishlab chiqarish zaxiralari- jami	70,2	65,0	55,3	98,3	90,0	78,8
Jumladan: xomashyo va asosiy materiallar, yarimtayyor mahsulotlar	46,2	23,8	37,5	-	76,7	52,2
Yordamchi materiallar	6,6	11,0	2,3	24,1	5,7	6,1
Yoqilg'i	1,7	2,0	0,7	37,4	0,5	1,6
Ta'mirlash uchun ehtiyot qismlar	3,9	11,0	2,0	23,0	1,7	2,0
Qadoqlash va o'rov materiallari	3,0	0,5	0,6	0,3	1,2	11,3
Instrumentlar, xo'jalik asboblari va qimmat bo'lmagan, tez eskiruvchi boshqa predmetlar	9,8	16,7	12,2	19,5	3,2	5,6
2. Tugallanmagan ishlab chiqarish va korxonada tayyorlangan yarimtayyor mahsulotlar	24,0	18,3	42,2	0,5	9,8	19,5
3. Kelgusi davr xarajatlari va boshqa mehnat predmetlari	5,8	16,7	2,5	1,2	0,2	1,7
Jami aylanma ishlab chiqarish fondlari	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

Korxonalar aylanma mablag'lari tarkibi va tuzilmasiga xo'jalik yuritish qobiliyati va uning samaradorligiga rioya qilish qoidalari katta ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni korxonalar ishlab chiqarish zaxiralari va aylanma mablag'larning ta'minlanganligini haddan tashqari oshirishga intilmasligi zarur. Amaliyotning guvohlik berishicha, bu, resurslarning halok bo'lishiga va sun'iy tanqislikning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Shu sababli xomashyo va materiallarni sarflashning texnologik

normalariga rioya qilish, ularni saqlashni to'g'ri yo'lga qo'yish, chiqitlar va yo'qotishlarni kamaytirish, zamonaviy va arzon material-lardan foydalanish katta ahamiyat kasb etmoqda. Biroq arzon materiallardan foydalanish doim ham korxonalar imkoniyatlari va xohishidan kelib chiqavermaydi va tashqi muhit, birinchi o'rinda ishlab chiqarishdagi hamkorlar, bahoni shakllantirish, umumiy iqtisodiy barqarorlik va boshqa omillar bilan ham bog'liq bo'ladi.

Korxonalar iqtisodiyotiga aylantirish mablag'larning tarkibi va tuzilmasidan tashqari, ularni ishlab chiqarish, takror ishlab chiqarish va muomalaning turli bosqichlarida izlab topish katta ta'sir ko'rsatadi. Aylantirish mablag'larning to'liq aylanishi uch bosqichdan iborat bo'lib, bu jarayonda mahsulot ishlab chiqariladi va sotiladi.

Birinchi bosqichda aylantirish mablag'lar pul shaklidan moddiy boyliklarning ishlab chiqarish zaxiralari aylantiradi, ya'ni pul tovar (D-T).

Ikkinchi bosqich ishlab chiqarish, ya'ni mahsulotni tayyorlash jarayonini o'z ichiga oladi. Bu bosqichda aylantirish mablag'lar va birinchi o'rinda aylantirish foydalar tugallanmagan ishlab chiqarish va yarimtayyor mahsulotlar holiga keltirilib, tovar shaklini oladi (T).

Uchinchi bosqichda aylantirish mablag'lar tovar mahsuloti shaklida muomala-ga kiritilib, sotiladi va yana pul shaklini oladi (T-P).

Shu tariqa aylantirish mablag'lar barcha bosqichlardan o'tib, to'liq aylanishni amalga oshirishini quyidagi tarzda aks ettirish mumkin:

- 1-bosqich - pul-tovar (P-T);
- 2-bosqich - ishlab chiqarish (I.Ch);
- 3-bosqich - tovar-pul (T-P).

Shuni qayd qilib o'tish muhimki, korxonaning aylantirish mablag'lari bir vaqtning o'zida uchala bosqichda ham pul mablag'lari, ishlab chiqarish zaxiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish, yarimtayyor va tayyor mahsulotlar ko'rinishida mavjud bo'lishi mumkin.

Korxonaning aylantirish mablag'lari harakati ma'lum bir iqtisodiy qonunlar asosida ishlashi hamda ulardan ishlab chiqarish va takror ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida oqilona foydalanishni ko'zda tutishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu qonunlardan va aylantirish mablag'lardan foydalanish qoidalaridan chetga chiqish aylantirish mablag'larning yetishmasligiga yoki samaradorlikning pasayishiga olib kelishi mumkin.

8.3. Aylanma mablag'larni normalashtirish

Shakllanish manbaiga ko'ra, aylanma mablag'lar xususiy va qarzga olingan turlarga bo'linadi.

Xususiy aylanma mablag'lar doimo korxonada ixtiyorida bo'lib, xususiy resurslar, asosan foyda hisobiga shakllanadi. Korxonaning xususiy aylanma mablag'lari qatoriga ish haqi bo'yicha qarzlari, ta'minotchilar yoki hamkorlar qarzlari, buyurtmachilarning tayyorlangan mahsulot uchun to'lagan pullari kabilarni kiritish mumkin. Bu mablag'lar xususiy mablag'larga tenglashtirilgan mablag'lar yoki korxonaning barqaror passivlari, deb ataladi.

Qarzga olingan aylanma mablag'lar doimo harakatda bo'lmaydi hamda korxonaning mahsulotlarni sotishdagi qiyinchiliklar, moddiy-tovar boyliliklar bilan ta'minlash, mahsulot ishlab chiqarish dasturini oshirib bajarish va boshqa vaqtinchalik ehtiyojlarni qoplash uchun foydalaniladi. Ular qatoriga bank kreditlari, kreditorlik qarzlari (tijorat kreditlari) va boshqa passivlarni kiritish mumkin.

Aylanma mablag'larni boshqarish mahsulot ishlab chiqarish va sotish jarayonining uzluksizligini ta'minlashda aylanma mablag'lardan iloji boricha kamroq foydalanishda ifodalanadi. Bu esa korxonada aylanma mablag'lari aylanishining barcha bosqichlarida mos ravishda minimal, lekin yetarli tarzda ratsional taqsimlanishi zarurligini anglatadi. Bu vazifa, o'z navbatida, moddiy resurslar zaxiralari va xarajatlarini normalashtirish tufayli muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

Aylanma mablag'larni normalashtirish korxonaning uzluksiz ishlashi ta'minlaydigan moddiy boyluk va boshqa resurslarning minimal, lekin yetarli zaxiralarni shakllantirish uchun zarur bo'lgan pul mablag'larini aniqlashda ifodalanadi. U ichki zaxiralarni aniqlash, ishlab chiqarish sikli davomiyligini qisqartirish va tayyor mahsulotni tezroq sotishga imkon yaratadi.

Biroq amaliyotda korxonalarning barcha aylanma mablag'lari ham norma-lashtirilmaydi. Shu sababli aylanma mablag'lar normalashtiriluvchi va normalash-tirilmaydigan turlarga taqsimlanadi va ular hozirgi bozor munosabatlari sharoit-larida ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Normalashtiriluvchi aylanma mablag'lar qatoriga korxonada ombor-laridagi ishlab chiqarish zaxiralari (xomashyo, materiallar, yoqilg'i, unchalik qimmat bo'lmagan predmetlar va jihozlar), tugallanmagan

ishlab chiqarish, kelgusi davr xarajatlari va ombordagi tayyor mahsulotlar kiritiladi.

Normalashtirilmaydigan aylanma mablag'lar, bu – xaridorlarga berib yuborilgan tayyor mahsulot yoki tovarlar, hisobraqamidagi pul mablag'laridir.

Korxonalar faoliyatida barcha aylanma mablag'lar salmog'ida 70-80 foizni tashkil qiluvchi normalashtiriluvchi aylanma mablag'lar asosiy o'rin tutadi. Aylanma mablag'larni normalashtirish tejamkorlik rejimiga rioya qilish va resurslardan oqilona foydalanish imkonini yaratadi.

Resurslarni normalashtirish jarayonida aylanma mablag'larning norma va normativlari belgilanadi.

Aylanma mablag'larning normasi, korxonada moddiy-tovar boyligining minimal zaxiralarini tavsiflaydi hamda ishlab chiqarilayotgan mahsulot birligiga to'g'ri keluvchi pul o'lchovida, zaxira kunlari va zaxira normalarida hisoblanadi.

Aylanma mablag'larning normativi aylanma mablag'lar normasini, normasi aniqlangan ko'rsatkichga ko'paytirishni ifodalaydi hamda qoidaga ko'ra, pul ko'rinishida o'lchanadi. U quyidagi formula asosida hisoblanishi mumkin:

$$N_{ay.m} = N_{ich.z} \cdot Q \cdot N_{t.ich} \cdot Q \cdot N_{t.m}$$

Bu yerda:

$N_{ich.z}$ - ishlab chiqarilgan zaxiralar normasi;

$N_{t.ich}$ – tugallanmagan ishlab chiqarish normasi;

$N_{t.m}$ - tayyor mahsulot normasi.

Aylanma mablag'larni normalashtirish va ayniqsa, moddiy resurslarni sarflash normalarini belgilashda quyidagi tamoyillarga amal qilish lozim:

- normalarning progressivligi va dinamikligi;
- normalarning iqtisodiy va ishlab chiqarish texnikaviy jihatdan asoslanganligi;
- xomashyo, material, yoqilg'i, elektr energiyasi va boshqa resurslar o'lchamini to'g'ri tanlash;
- chiqit va yo'qotishlarning oldini olish;
- eskirgan normalarni qayta ko'rib chiqish hamda ularni fan-texnika taraqqiyoti yutuqlariga mos holga keltirish.

Moddiy va boshqa resurslarni normalashtirishda bir nechta usullar qo'llaniladi. Amaliyotda quyidagi usullar ko'proq uchraydi:

1. O'tgan yillar davomida amalda sarflangan resurslar to'g'risidagi hisobot ma'lumotlarini o'rganish hamda bir necha yillar davomida ro'y bergan pasayishlarni hisoblashga asoslanuvchi statistika tajriba usuli.

2. Laboratoriya tajribalariga asosan yaratilgan hamda instrumentlar va yordamchi materiallar sarflanishi normasini aniqlashda qo'llaniluvchi -laboratoriya-texnikaviy usuli.

3. Yuzaga kelgan ishlab chiqarish sharoitlaridan tashqari boshqa korxo-nalarning ilg'or tajribalari va yutuqlarini ham hisobga olish imkonini beruvchi, moddiy resurslardan foydalanishni normalashtirishning mukammalroq usuli hisoblanuvchi – hisob-tahliliy usuli.

Korxonada aylanma mablag'larini normalashtirish tadbirlari ishlab chiqarish zaxiralarini normalashtirish, shuningdek, tugallanmagan ishlab chiqarishning optimal kattaligi, tayyor mahsulot qoldiqlari va kelgusi davr xarajatlarini aniqlash bilan bog'liq vazifalarni yechishga olib keladi.

Ishlab chiqarish zaxiralarini normalashtirish, korxonaning uzluksiz faoliyat yuritishini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladi. Agar ishlab chiqarish zaxiralari normativlardan past bo'lsa, ishlab chiqarish jarayonining izdan chiqishi, ishchi kuchi va uskunalarning bekor turib qolishi, korxonaning ishlab chiqarish va iqtisodiy ko'rsatkichlari pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu bilan bir paytda, ishlab chiqarish zaxiralarning belgilangan norma va normativlardan oshib ketishiga ham yo'l qo'ymaslik kerak, chunki bu mablag'larning "muzlab" qolishiga va natijada korxonada va davlatning zarar ko'rishiga olib keladi.

Ishlab chiqarish zaxiralari joriy, sug'urta (kafolatli), tayyorlov (texnologik) va mavsumiy turlarga bo'linadi.

Joriy zaxira – bu, materiallar yetkazib berish oraliq'ida ishlab chiqarishni moddiy resurslar bilan ta'minlash uchun zarur bo'lgan zaxiradir. Joriy zaxiralar material yetkazib berish davri, oraliq'i hamda xomashyo va boshqa materiallarning sutkalik sarflanishiga to'g'ridan to'g'ri bog'liq bo'ladi.

Misol. Non kombinati bir sutkada 10 tonna un sarflaydi, tegirmondan esa bir oyda bir marta un qabul qiladi. Ya'ni yetkazib berish oraliq'i 30 kunni tashkil qiladi. Demak, unning maksimal darajadagi joriy zaxirasi 300 (10x30) tonnani, o'rtacha joriy zaxirasi 150 (10x30:2) tonnani, un har o'n kunda yetkazib berilgandagi minimal joriy zaxirasi

esa 50 (10x10:2) tonnani tashkil qiladi. Shu tariqa joriy zaxiralar hajmi ko'p jihatdan yetkazib berish oraliq'iga bog'liq bo'ladi: oraliq qanchalik kichik bo'lsa, zaxira shunchalik kam bo'ladi. Bundan kelib chiqqan holda joriy zaxira miqdorini quyidagi formula asosida topish mumkin:

$$Z_{\max} = M_{o'r} \times T_{t,ts}$$

Bu yerda:

$M_{o'r}$ – ushbu materialdan o'rtacha sutkalik foydalanish miqdori ($T_{t,ts}$ dona);

$T_{t,ts}$ – yetkazib berish oraliq'i yoki ta'minot sikli, kunlar.

Sug'urta (kafolat) zaxirasidan ta'minotda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan uzilishlar yoki ko'zda tutilmagan holatlarda foydalanish mo'ljallanadi. Ko'pincha sug'urta zaxirasining miqdori joriy zaxira normasining 50 % miqdorida belgilanadi hamda quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$Z_{str} = M_{o'r} \times (T_1 Q T_2 Q T_3 Q T_4)$$

Bu yerda:

T_1 – materialni yuklash uchun ketadigan vaqt;

T_2 – materiallar yo'lda bo'ladigan vaqt;

T_3 – materiallarni omborga qabul qilish vaqti;

T_4 – materiallarni foydalanishga tayyorlash vaqti.

Sug'urta zaxirasi omborda joriy zaxira bilan birgalikda saqlanadi hamda undan umuman farq qilmasada, alohida hisobga olinadi va faqat korxonaga rahbariyatining ruxsati bilangina sarflanadi.

Tayyorlov (texnologik) zaxirasidan xomashyo va materiallarni ishlab chiqarishga kiritish uchun tayyor holga keltirishda foydalaniladi. Bunday zaxiralar ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlari va texnologiyalariga ega bo'lgan korxonalaridagina yaratiladi. Bunday korxonalar qatoriga yog'-moy kombinati, yog'ochni qayta ishlash korxonasi kabilarni kiritish mumkin. Mazkur hollarda tayyorlov zaxirasi miqdori tayyorlov texnologiyasi va operatsiyalariga mos holda normaga solinadi.

Mavsumiy zaxiralar asosan uchta sababga ko'ra yuzaga keladi: birinchidan, xomashyo tayyorlashning mavsumiyliigi; ikkinchidan, uni iste'mol qilishning mavsumiyliigi; uchinchidan, materiallarni yetkazib berishning mavsumiyliigi. Mavsumiy zaxiralar hajmi xuddi joriy zaxiralar hajmi kabi, o'rtacha bir sutkada iste'mol qilish va mavsumiy zaxiralar yaratilishi lozim bo'lgan vaqtga asosan aniqlanadi.

Ishlab chiqarish zaxiralarini normalashtirish, ishlab chiqarishda qo'llaniluvchi har bir mehnat predmeti (xomashyo va materiallar, yordamchi materiallar va boshqalar) uchun alohida amalga oshiriladi hamda bu, o'z navbatida, ishlab chiqarish zaxiralarini yaratishda aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyojni aniqlashga asos bo'lib xizmat qiladi.

Misol. Poyabzal ishlab chiqaruvchi korxonada (xarajatlar smetasiga ko'ra) 1-chorak uchun 180 ming so'm miqdordagi xomashyo va asosiy materiallarni 30 kunlik zaxira normasida; 54 ming so'm miqdordagi yordamchi materiallarni 40 kun zaxira normasida; 27 ming so'm miqdoridagi qadoqlash va o'rov materiallaridan 20 kun zaxira normasida sarflash ko'zda tutilgan. Bunday sharoitlarda asosiy vositalar normativi (ehtiyoji) quyidagicha bo'ladi:

Xomashyo va asosiy materiallar bo'yicha	$\frac{180}{90} \times 30 = 60$ ming so'm
Qo'shimcha materiallar bo'yicha	$\frac{54}{90} \times 40 = 24$ ming so'm
Qadoqlash va o'rov materiallari bo'yicha	$\frac{27}{90} \times 20 = 6$ ming so'm

Tugallanmagan ishlab chiqarishni normalashtirish.

Tugallanmagan ishlab chiqarish bo'yicha aylanma mablag'lar normativini aniqlash korxonada faoliyatidagi eng murakkab va ko'p mehnat talab qiluvchi jarayon hisoblanadi. Tugallanmagan ishlab chiqarish sifatida ishlab chiqarishning turli bosqichlarida - xomashyoni texnik nazorat bo'limi (TNB) tomonidan qabul qilishdan to tayyor mahsulot omboriga topshirgunga qadar ishlov berilayotgan mahsulotlarni ko'rsatish mumkin.

Tugallanmagan ishlab chiqarish bo'yicha aylanma mablag'lar normativi miqdori quyidagilarga bog'liq bo'ladi:

1. Mahsulot ishlab chiqarish hajmi.
2. Mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflanuvchi joriy xarajatlar, ya'ni tannarx.
3. Xomashyo va materiallarni ishlab chiqarishga kiritish vaqtidan to tayyor mahsulot chiqishigacha bo'lgan ishlab chiqarish siklining davomiyligi. Ishlab chiqarish siklining davomiyligini topishda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$T_{ich.s} = t_{texn} + t_{kontr} + t_{trans} + t_{tan}$$

Bu yerda:

t_{texn} - mahsulot ishlab chiqarishdagi barcha operatsiyalarga sarflanuvchi vaqti;

t_{tan} - operatsiyalar oralig'idagi vaqt (tanaffuslar);

t_{trans} - transportda tashish vaqti;

t_{kontr} - mahsulotni yig'ish, qabul qilish va TNBga topshirish vaqti.

Tugallanmagan ishlab chiqarishga jalb qilingan aylanma mablag'larning o'sishi xomashyo va materiallarni ishlab chiqarishga kiritish bilan boshlanadi hamda ishlab chiqarish sikli yakunida (tayyor mahsulot omborga topshirilganda) eng yuqori nuqtasiga chiqadi. Tugallanmagan ishlab chiqarish normativini hisoblashda ishlab chiqarish sikli kunlarda belgilanadi hamda bunda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$N_{t,ich} \text{ q } M_k \times T_{ich.s} \times K_{x.o.}$$

Bu yerda:

M_k - o'rtacha bir kunlik xarajatlar, so'mlarda;

$T_{ich.s}$ - ishlab chiqarish sikli davomiyligi, kunlarda;

$K_{x.o.}$ - xarajatlarning o'sish koeffitsiyenti.

Xarajatlarning o'sish koeffitsiyenti asosiy materiallar (M_a) to'liq qiymatda olinuvchi kattalik sifatida hisoblanadi. Ishlab chiqarish xarajatlari (M_{ich}) butun ishlab chiqarish sikli mobaynida bir xil suratda o'sib boradi hamda 50 foiz qiymatda hisobga olinadi:

$$K_{nz} = (M_a \text{ Q } 0,5M_{ich}) : S$$

Bu yerda:

S - mahsulot birligining rejadagi tannarxi.

Agar keyingi xarajatlar (M_{ich}) bir xil surat bilan o'zgarmasa, u holda o'sish koeffitsiyenti quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$K_{x.o.} \text{ q } (M_a \text{ Q } k \cdot S_{yaf} \text{ Q } k \cdot S_{but} \text{ Q } 0,5M_{ich}) : S$$

Bu yerda:

k , k - yarimtayyor mahsulotlar va butlovchi qismlarni mos ravishda pasaytiruvchi koeffitsiyentlari;

S_{yaf} - yarimtayyor mahsulotlar qiymati;

S_{but} - butlovchi qismlar qiymati.

Pasaytiruvchi koeffitsiyentlar yarimtayyor mahsulotlar va butlovchi qismlarga ishlov berilgan kunlarning ishlab chiqarish sikli davomiyligiga nisbatini ifodalaydi. Masalan, agar ishlab chiqarish sikli

20 kun bo'lib, butlovchi qismlar 8 kun davomida ishlab chiqarishda bo'lgan bo'lsa, pasaytiruvchi koeffitsiyent 0,4 (8:20) ga teng bo'ladi.

Tayyor mahsulot qoldiqlarini normalashtirish. Ishlab chiqarish jarayoni tugallangandan so'ng mehnat predmetlari tayyor mahsulot ko'rinishida muomalaga kiritiladi.

Aylanma mablag'larning tayyor mahsulotga aylanish normativi miqdori, o'rtacha bir sutkalik ishlab chiqarilgan mahsulotning (tannarxi bo'yicha) aylanma mablag'larning kunlardagi tayyor mahsulot normasiga sifatida, ya'ni tayyor mahsulotning korxonada omborida saqlanish muddati sifatida aniqlanadi:

$$G_n = V : T \times N_{l,m}$$

Bu yerda:

G_n – tayyor mahsulot normativi;

V - rejalashtirilgan davrda rejadagi tannarx bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulot;

N_{gn} – tayyor mahsulotlardagi aylanma mablag'lar zaxiralari normasi, kunlarda;

T - rejadagi davrda kalendar kunlar miqdori.

Tayyor mahsulotning omborda saqlanish muddati tayyor mahsulotni transportirovka qilish va sotishga bog'liq bo'ladi. Aylanma mablag'larning ushbu normasidagi kunlar soni mahsulotni tayyorlash, yuklash, hujjatlarni tayyorlash va ularni bankka topshirish uchun zarur bo'lgan kunlardan iborat bo'ladi.

8.1-jadval

Aylanma mablag'larning kelgusi davr xarajatlari normativini hisoblash bo'yicha misol

Xarajatlar turi yoki guruhi	Yil boshiga qoldiq, ming so'm	Bir yillik xarajatlar, ming so'm	Bo'lishi kerak	Yil oxiriga qoldiq, ming so'm
Yangi turdagi mahsulotlarni o'zlashtirish bo'yicha xarajatlar, jami	180	348	448	80
Jumladan:				
A mahsulot	90	148	238	-
B mahsulot	90	200	210	80

Kelgusi davr xarajatlarni normalashtirish. O'sib borayotgan fan-texnika taraqqiyoti sur'atlari aylanma mablag'larning kelgusi davr xarajatlari ahamiyatini oshirmoqda. Bu xarajatlar korxonaning mahsus buxgalteriya hisobida uchta manba: yangi texnikani o'zlashtirish fondi (agar korxonada shunday fond mavjud bo'lsa), bank krediti va foyda (xarajatlarni mahsulot tannarxiga kiritish yo'li bilan) hisobiga yig'iladi. Aylanma mablag'larning kelgusi davr xarajatlari (N_{kd}) normasini hisoblashda quyidagi formulaga amal qilinadi:

$$N_{kd} = R Q R_{ich} Q R_t$$

Bu yerda:

R-yil boshida kelgusi davr xarajatlari uchun sarflanishi mo'ljallangan mablag'lar miqdori (buxgalteriya hisoboti bo'yicha);

R_{ich} – rejadagi yilda loyiha-smetalarda ko'zda tutilgan ishlab chiqarish xarajatlari;

R_t - o'zlashtirilayotgan mahsulot tannarxiga kiritiluvchi hamda smetalarda ko'zda tutiluvchi yoki mahsus manbalar hisobiga qoplanuvchi xarajatlar.

Alohida elementlar bo'yicha aylanma mablag'lar xarajatlari normalari aniqlangandan so'ng, aylanma mablag'larga bo'lgan umumiy ehtiyojlar (normativ) miqdori hisoblanadi. Korxonada aylanma mablag'lariga bo'lgan umumiy ehtiyoj, ishlab chiqarish zaxiralari (xomashyo va asosiy materiallar, yordamchi materiallar, yarimtayyor mahsulotlar, xarid qilinuvchi mahsulotlar, qadoqlash va o'rov materiallari, yoqilg'i va hokozolar), tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot va kelgusi davr xarajatlaridan iborat bo'ladi.

8.4. Aylanma mablag'lardan foydalanish ko'rsatkichlari va ularning aylanishini tezlashtirish yo'llari

Aylanma mablag'lar aylanishini tezlashtirish nafaqat korxonaga uchun, balki butun xalq xo'jaligi uchun ham katta ahamiyat kasb etadi.

U resurslarning nisbiy ozod qilinishi, ijtimoiy xarajatlarning kamaytirilishiga ko'maklashadi va iqtisodiy rejalashtirish sur'atini oshiradi.

Korxonada aylanma mablag'laridan samarali foydalanish uchta asosiy ko'rsatkichni tavsiflaydi:

- 1) aylanish ko'effitsiyenti;
- 2) aylanma mablag'larning yuklanish ko'effitsiyenti;
- 3) vositalarning bir marta aylanishi davomiyligi.

Aylanish ko'effitsiyenti korxonada aylanma mablag'larining ma'lum bir vaqt (yil, chorak) davomida amalga oshiruvchi aylanishini tavsiflaydi yoki aylanma mablag'larning har 1 so'miga to'g'ri keluvchi sotilgan mahsulotlarni ko'rsatadi.

U quyidagi formula asosida hisoblab topiladi:

$$K_a = R_m : S_a$$

Bu yerda:

R_m – sotilgan mahsulot hajmi, pul o'lchovida;

S_a – aylanma mablag'larning o'rtacha qoldiq hajmi, pul o'lchovida (aylanma mablag'lar normativi).

Misol. Korxonaning bir yil mobaynida sotilgan mahsulotlari hajmi 800 mln so'mni tashkil qiladi. Bu holda aylanma mablag'lar normasi 200 mln so'mni tashkil qiladi. Demak $K_a = 4,4$ (880:200).

Aylanma mablag'larni yuklanish ko'effitsiyenti aylanish ko'effitsiyentiga teskari bo'lgan qiymatdir. U sotilgan har 1 so'm mahsulotga sarflangan aylanma mablag'larni tavsiflaydi hamda quyidagi formula asosida hisoblab topiladi:

$$K_{yu} = S_a : R_m$$

Bir marta aylanish davomiyligi kunlarda o'lchanadi hamda shu davrdagi kunlar sonini aylanish ko'effitsiyentiga nisbati orqali quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$T = D : K_a$$

Bu yerda:

D - shu davrdagi kunlar soni (360, 90).

Aylanma mablag'larning to'liq aylanish muddati qanchalik kichik yoki bu aylanishlar soni qanchalik ko'p bo'lsa, aylanma mablag'lar shunchalik kam talab qilinadi va aksincha, aylanma mablag'lar qanchalik tez aylanishda bo'lsa, shunchalik samarali ishlatiladi.

Bugungi kunda aylanma mablag'larda, ayniqsa, korxonalarining moddiy-tovar boyliklarida band bo'lgan yirik miqdordagi pul mablag'lari ularning to'liq saqlanishiga e'tibor qaratish, ulardan maqsadlarga muvofiq va samarali foydalanish, shuningdek, ularning aylanishini tezlashtirishni talab qiladi. Korxonalar oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarish quyidagilarni amalga oshirishni talab qiladi:

- fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini keng qo'llash;

- ishlab chiqarishning barcha jarayonlarida ilmiy jihatdan asoslangan norma va normativlar tizimini yaratish;

- korxonalarni uzoq muddatli xo'jalik aloqalari yuritishga o'tkazish va kooperatsiya qilishni rivojlantirish;

- mahsulotlar, moliyaviy, moddiy va kuch-quvvat resurslarining sifat balansini tuzish;

- boshqarish tizimini tashkil etishning va rag'batlantirishning optimal shakllarini qo'llash.

Aylanma mablag'larning aylanishini tezlashtirish uchun kurashda har bir korxonada ularning ishlab chiqarish va muomalada bo'lish muddatini qisqartirishga erishishi zarur. Gap shundaki, aylanma mablag'larning muomala sohasida sekin harakatlanishi korxonaning bu vositalardan ishlab chiqarishda foydalanishda erishgan yutuqlarini yo'qqa chiqarishdan tashqari, ularning umumiy aylanishini ham sekinlashtirishi mumkin. Shu sababli tayyor mahsulotni iste'molchiga yetkazib berishni tezlashtirish yoki mahsulotni realizatsiya qilish muddatini qisqartirish ham aylanma mablag'larning aylanishini tezlashtirishning muhim yo'li hisoblanadi.

Aylanma mablag'larning aylanishini tezlashtirish samarasi, ulardan foydalanishni yaxshilash tufayli kamroq iste'mol qilinishi yoki qisman ozod qilinishida aks etadi. Aylanma mablag'lar mutlaq yoki nisbiy ozod qilinishi mumkin.

Mutlaq ozod qilish korxonaning aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyojini kamaytirishni tavsiflaydi hamda mavjud resurslardan ratsional foydalanishga oid turli tashkiliy-texnik chora-tadbirlar hisobiga amalga oshiriladi.

Misol. Korxonada aylanma mablag'larining o'rtacha miqdori 2000-yilda 100 mln so'mni tashkil qiladi. 2001-yilda ishlab chiqarish hajmini o'zgartirmagan holda 90 mln so'm miqdorida ehtiyoj rejalashtirilmoqda. Bu holda asosiy vositalarning mutlaq ozod qilinishi 10 mln so'mni tashkil qiladi.

Nisbiy ozod qilish aylanma mablag'lari hajmining o'zgarishi hamda sotilgan mahsulot hajmining o'zgarishini aks ettiradi. Uni aniqlash uchun hisobot yilida aylanma mablag'larga ehtiyojni, mahsulotni mazkur davr mobaynida sotish bo'yicha haqiqiy aylanish hamda o'tgan davrdagi aylanishni (kunlarda) inobatga olgan holda hisoblash zarur. Ular o'rtasidagi farq ozod qilingan vositalar miqdorini beradi.

Misol. Korxonada 1999-yilda sotilgan mahsulot qiymati 360 mln so'mni, 2000-yilda esa 400 mln so'mni tashkil qilgan. Aylanma mablag'-larning o'rtacha qoldig'i 1999-yilda 100 mln so'm, 2000-yilda esa 95 mln so'mni tashkil qilgan. Aylanish muddati 1999-yilda 100 kun ($100 \times 360 : 360$). 2000-yilda aylanma mablag'larga ehtiyoj 111 mln so'm ($400 \times 100 : 360$). 1999-yilda aylanma mablag'larning o'rtacha qoldig'i 95 mln so'mni tashkil qilganini hisobga oladigan bo'lsak, vositalarning nisbiy ozod qilinishi 16 mln so'mni ($111 - 95$) tashkil etadi.

Hozirgi davrda korxonalar o'rtasidagi naqd pulsiz to'lovlarning 60 foizdan ortiq qismi to'lov topshiriqnomasi orqali o'tkazilgan to'lovlarning hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa, akkreditivlar vositasida amalga oshiriladigan naqd pulsiz hisob-kitob shakllaridan foydalanish amaliyotining takomillashmaganligidan dalolat beradi. Respublikamiz amaliyotida qo'llanilayotgan akkreditivlarning naqd pulsiz to'lovlar hajmidagi salmog'i juda kichik. Buning ustiga, hujjatlashtirilgan akkreditivlarning asosiy qismi ta'minlangan akkreditivlarning hissasiga to'g'ri kelmoqda. Buning natijasida xo'jalik subyektlariga tegishli pul mablag'larining ma'lum qismi ularning xo'jalik aylanmasidan chiqib qolmoqda. Tovarlarini o'z vaqtida yetkazib berilmasligi deponent qilingan mablag'larning real qiymatini pasayishiga olib keladi. Bunda inflatsiya va devalvatsiya darajalarining o'zgarishi e'tiborga olinmoqda. Hujjatlashtirilgan akkreditivlarning ta'minlanmagan va chaqirib olinmaydigan shakllaridan foydalanish korxonalar o'rtasidagi to'lovsizlik miqdorini kamaytirish, tijorat banklariga katta daromad olish imkonini beradi.

Tayanib boralar

Aylanma mablag'lar, aylanma kapital, aylanma ishlab chiqarish fondlari, muomala fondlari, zaxira, ichki ishlab chiqarish zaxiralari, ishlab chiqarish zaxiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish va korxonada tayyorlangan yarimtayyor mahsulotlar, kelgusi davr xarajatlari, aylanma ishlab chiqarish fondlarining tuzilmasi, xususiy aylanma mablag'lar, qarzga olingan aylanma mablag'lar, aylanma mablag'larni normalashtirish, ishlab chiqarish zaxiralarini norma-lashtirish, joriy zaxira, sug'urta (kafolat) zaxirasi, tayyorlov (texnologik) zaxirasi, mavsumiy zaxiralar, tugallanmagan ishlab chiqarishni normalashtirish, tayyor mahsulot qoldiqlarini normalashtirish, kelgusi davr xarajatlarni

normalashtirish, aylanish koeffitsiyenti, aylanma mablag'larni yuklanish koeffitsiyenti, bir marta aylanish davomiyligi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Aylanma mablag'lar ishlab chiqarish aylanma fondlaridan qanday farq qiladi?

2. Aylanma mablag'larni tashkil qiluvchi asosiy elementlar qaysilar?

3. Aylanma mablag'lar tuzilmasi deganda nima tushuniladi? Qaysi omillar uning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadi?

4. Qaysi ko'rsatkichlar ishlab chiqarish aylanma fondlari va aylanma mablag'lardan foydalanish darajasini tavsiflaydi?

5. Qaysi omillar aylanma mablag'larning aylanish darajasiga ta'sir ko'rsatadi?

6. Korxonaning normativ bazasi deganda nima tushuniladi?

7. Korxonaning normativ bazasini mukammallashtirish qanday ahamiyatga ega?

8. Korxonada mahsulotning material sig'imini kamaytirish qanday ahamiyat kasb etadi?

9. Aylanma mablag'larni normalashtirishning mohiyati va ahamiyati qanday?

10. Korxonada mahsulot material sig'imini kamaytirishning asosiy yo'llari va yo'nalishlari qanday?

- **rahbarlar** - direktor, direktor o'rinbosarlari, bosh mutaxassislar, bo'lim va xizmat boshliqlari, ya'ni muhandis-texnik personal (MTP);

- **xizmatchilar** - hujjatlarni tayyorlash, hisob-kitob va nazorat qilish, xo'jalik xizmati xodimlari (agentlar, g'aznachilar, ish yurituvchilar, kotiblar, statistlar va hokazo).

Korxonada S.ICh.P ning asosiy va ko'p sonli qismini **ishchilar** tashkil qilib, ular mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish, ish bajarish), ta'mirlash va uskunalarga xizmat ko'rsatishda (*ta'mirlovchi ishchilar*) qatnashadilar, mehnat predmetlarini tashish va mahsulot tayyorlashni amalga oshiradilar (*transport ishchilari*), qurilish-ta'mirlash ishlarini bajaradilar (*quruvchi ishchilar*).

Korxonada faoliyatini rejalashtirish va tahlil qilishda, ayniqsa, mehnat unumdorligi, o'rtacha ish haqi, kadrlar aylanishi va oqimini hisoblashda **o'rtacha ro'yxat soni** ko'rsatkichi qo'llaniladi. Bu ko'rsatkich yil yoki chorak uchun korxonada faoliyat ko'rsatgan barcha oylar uchun ishchilarning o'rtacha ro'yxatdagi sonini qo'shish va hosil bo'lgan yig'indisini mos ravishda 3 (12) ga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. Bu ko'rsatkichni to'g'ri aniqlash uchun xodimlarni ishga qabul qilish, boshqa ishga o'tkazish va mehnat shartnomasini bekor qilishni inobatga olgan holda har kuni hisobga olib borishni yo'lga qo'yish zarur.

Kadrlarning korxonada harakatlanishini tavsiflash uchun quyidagi ko'rsatkichlar hisoblanadi va tahlil qilinadi:

$$K_{pr} = \frac{\text{Ishga qabul qilingan personal soni}}{\text{Personalning o'rtacha ro'yxat soni}}$$

Ishdan ketish bo'yicha aylanish koeffisienti (K_g)

$$K_x = \frac{\text{Ishdan bo'shagan xodimlar soni}}{\text{Personalning o'rtacha ro'yxat soni}}$$

Kadrlar oqimi koeffisienti

$$K_r = \frac{\text{O'z xoxishiga ko'ra va mehnat intizomini buzganligi uchun ishdan bo'shagan xodimlar soni}}{\text{Personalning o'rtacha ro'yxat soni}}$$

Korxonada personalni tarkibining doimiylik koeffisienti - K_{dr}

$$K_{dr} = \frac{\text{Butun yil davomida ishlagan xodimlar soni}}{\text{Personalning o'rtacha ro'yxat soni}}$$

Kadrlar salohiyati miqdoriy tavsif berishdan tashqari *korxonaning personalining sifat tavsifi* ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, u korxonaning xodimlarining mazkur ishlab chiqarishga kasbiy va malakaviy jihatdan yaroqlilik darajasi bilan aniqlanadi. Bu yerda birinchi o'ringa "mutaxassislik", "kasb", "malaka" kabi tushunchalar chiqadi.

Mutaxassislik insonda ma'lum bir turdagi ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar majmuasining mavjudligi bilan tavsiflanadi. Masalan, iqtisodchi, buxgalter, moliyachi yoki texnik tilda - mexanik, quruvchi, energetik, geolog va boshqalar. Ishchilarning bilim va qobiliyatlariga bo'lgan talab yagona tarif-malakaviy ma'lumotnomasida (YaTMM), (MTP) va xizmatchilarga esa lavozimlar malakasi ma'lumotnomada aks ettirilgan. Bu hujjatlar asosida korxonalar ishchi va xizmatchilar tariflariga o'zgartirishlar kiritadilar.

Kasb - faoliyatning mahsus va tor ko'rinishdagi turi bo'lib, mutaxassislik kabi nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talab qilsada, mutaxassislikdan farqli ravishda ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib qo'shimcha ko'nikmalarni ham talab qiladi.

Malaka deganda biron-bir kasb yoki mutaxassislik bo'yicha murakkab ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan mehnat ko'nikmalari va bilimlar darajasi tushuniladi. Ishchilar malakasi darajasini baholashda o'rtacha tarif koeffitsiyenti va o'rtacha tarif razryadi hisoblanadi. Tarif razryadlari va koeffitsiyentlari bir vaqtning o'zida bajarilayotgan ishlar murakkabligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar hisoblanadi.

Kadrlar salohiyatining yuqorida sanab o'tilgan va boshqa tushuncha va ko'rsatkichlari korxonaning personalining miqdoriy, sifat va tuzilmaviy holatlari haqida va ularni personalni va umuman ishlab chiqarishni boshqarish, jumladan, korxonaning mehnat resurslari samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish, tahlil qilish va rejalashtirish maqsadlari uchun o'zgartirishlar kiritish yo'nalishlari haqida ma'lumot beradi.

9.2. Bozor munosabatlari sharoitlarida korxonaning kadrlar siyosati

Yuqorida aytib o'tilganidek, ishchi kuchi va umuman, kadrlar, ishlab chiqarishning muhim elementi hisoblanadi. Shu sababli korxonaning ishlab chiqarish faoliyatining joriy va istiqboldagi strategiyasi **kadrlar**

siyosati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- ishchi kuchini yollash, joylashtirish va rejalashtirish;
- xodimlarni o‘qitish, tayyorlash va malakasini oshirish;
- kadrlarni xizmat lavozimlari bo‘yicha yuqori pog‘onaga ko‘tarish;
- yollash shartlari, mehnat va unga haq to‘lash sharoitlari;
- mehnat jamoasida qulay ruhiy (psixologik) muhitni yaratish.

Korxonalarining kadrlar siyosatini, garchi yagona javobgar shaxs sifatida ishlab chiqarish va xo‘jalik faoliyatining barcha jabhalari, jumladan, kadrlarni tanlash va joylashtirishda asosiy javobgarlikni korxonada direktori o‘z bo‘yniga olsada, faqatgina uning o‘zi amalga oshirmaydi. Bunda direktordan tashqari bo‘lim va xizmat boshliqlari, kadrlar bo‘limi, iqtisodiy va ishlab chiqarish bo‘limi, mehnat va haq to‘lash bo‘limi, texnik bo‘lim va boshqalar ham ishtirok etadi.

Korxonada kadrlar siyosati sog‘lom va mehnat qobiliyatiga ega bo‘lgan jamoani shakllantirish, kadrlarning jinsi va yoshiga ko‘ra tarkibi va malakasi hamda ularning ishlab chiqarishda to‘g‘ri joylashtirilishini hisobga olishdan tashqari, ishlab chiqarish va mehnat sharoitlarining o‘zgarib borishiga o‘z vaqtida e‘tibor qaratishi, fan va texnikaning yangi, ilg‘or yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy qilish, xodimlarning mehnat unumdorligini oshirishni rag‘batlantirishi lozim. Boshqacha qilib aytganda, kadrlar siyosati birinchi o‘rinda, insonning ishlab chiqarish va turmushdagi yangi axloqini shakllantirish, ikkinchidan, novatorlik va yuqori mehnat unumdorligiga mafaatliligini rivojlantirishi lozim.

Korxonaning kadrlar siyosati amaliyotda faqat ichki vazifa va muammolarni hal qilishdan tashqari, bandlik sohasida davlat siyosatiga tayanadi va quyidagilarni ko‘zda tutadi:

- fuqarolarning mehnat huquqi va kasb tanlash erkinliklarini amalga oshirishda bir xil imkoniyatlarga ega bo‘lishini ta‘minlash;
- fuqarolarning mehnat va tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, ularning ishlab chiqarish qobiliyatlarini rivojlantirishga bandlik sohasidagi faoliyatni iqtisodiy va ijtimoiy faoliyatning boshqa yo‘nalishlari bilan uyg‘unlashtirish orqali ko‘maklashish;
- mehnat faoliyati davrida va nafaqaga chiqqandan so‘ng ham xodimlarning ijtimoiy muhofazasini ta‘minlash;
- aholi bandligi muammolarini yechishda, qo‘shma korxonalar tuzish va ishlab chiqarish bilan bog‘liq loyihalarni amalga oshirish yo‘li bilan xalqaro hamkorlik yuritish va boshqalar.

Iqtisodiyotni boshqarishning turli darajasida, jumladan, korxonalarda ham kadrlar siyosati ko'p qirrali, murakkab va uzoq muddatli jarayon bo'lib, bir qancha resurs va vaqt sarflanishini talab qiladi. Ishchilar yoki oliy ma'lumotli mutaxassislar, ya'ni turli kadrlar bilan turli darajadagi xarajatlar ko'zda tutiladi. Agar ishchilar zamonaviy korxonalar personalni tuzilmasida 70-80 foiz va undan ortiqni tashkil qilsa, oliy ma'lumotli mutaxassislar 15-20 foizni tashkil etadi. Shunga mos ravishda ularni tayyorlash ham turlicha bo'ladi: ishchilar korxonalar, ixtisoslashtirilgan maktab va kasb-hunar bilim yurtlarida tayyorlansa, oliy ma'lumotli mutaxassislar bir necha yil davomida oliy o'quv yurtlarida tahsil oladilar.

Afsuski, ba'zi korxonalarining rahbarlari, bugungi kunda tahlillarning ko'rsatishicha, ko'proq buyurtmalar "portfeli"ni shakllantirish, resurs va investitsiyalar izlash, mahsulotlarni sotish kanallarini aniqlash, debitorlik va kreditorlik qarzlarini qisqartirish, turli xo'jalik muammolarini hal qilish bilan band bo'lib, bularning barchasi bozor munosabatlari sharoitlarida muhim ahamiyat kasb etsada, ularning ahamiyati kadrlar siyosatini to'g'ri olib borishning ahamiyatidan kamdir. Bu masalada yirik korxonalar unchalik yutuqlarga ega bo'lmasada, mazkur holatlar asosan shaxsiy tarkibi 100 kishigacha bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun xosdir.

Shunday bo'lsada, kadrlar siyosatiga, jumladan zarur bo'lgan kadrlar salohiyatini shakllantirish va uning tarkibiga ijobiy o'zgarishlar kiritish, xodimlar malakasini oshirishga e'tiborni qaratmasdan, ishlab chiqarishni rivojlantirish vazifalarini muvaffaqiyatli hal qilish, korxonalar hayotiga fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini joriy qilish, eng asosiysi, korxonaning barqaror va daromad keltiruvchi faoliyat yuritishini ta'minlash qiyin. Masalan, Yaponiyada korxonalar va firmalarning kadrlar siyosati birinchi o'rinda universitetlar va ilmiy markazlar bilan aloqalarni kuchaytirishga, ikkinchidan, sanoatni robotlashtirish sohasida mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan bo'lib, bu ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirishning o'sishidan tashqari, ishchi va mutaxassislar o'rtasida raqobatchilik muhiti yaratilishiga ham xizmat qiladi.

Germaniyada iqtisodiyot va ishlab chiqarish sohasidagi deyarli barcha o'zgarishlar kadrlar siyosati bilan bog'liqdir. Korxonalarining kadrlar salohiyatini shakllantirishda xodimlar malakasi va ma'lumot darajasi asosiy omil hisoblanadi. Germaniya korxonalar va firmalari har

yili xodimlarning ma'lumot olishi va malakasini oshirishi uchun 10 mlrd markadan ortiq mablag' sarflaydi. Bundan tashqari, ular mutaxassislariga ishdan bo'sh vaqtlarda qatnab kerakli bilimlarni olishlari mumkin bo'lgan o'quv markazlari va kurslar haqida ma'lumot beradilar.

Kadrlar siyosati Fransiya va Italiya korxonalarida ham yetakchi o'rinni egallaydi. Gretsiyada raqobatchilik tufayli kompaniya va firmalar ishlab chiqarishni doimiy ravishda modernizatsiya qilishlari, yangi texnologiyalarni qo'llashga yirik miqdordagi mablag'larni sarflashlariga to'g'ri keladi. Biroq modernizatsiyalashning yakuniy maqsadlariga xodimlar malakasi ishlab chiqarishning texnik darajasiga mos kelgan holdagina erishish mumkin. Shu sababli ko'plab sanoat korxonalari ishchi va mutaxassislarning malakasini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar majmuasini keng ravishda amalda qo'llaydilar.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqadiki, kadrlar siyosati barcha mamlakatlarda korxonalarining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun asosiy omillardan biri hisoblanadi.

9.3. Korxonalarda mehnatga haq to'lash

Korxonalarda mehnatga haq to'lashni oqilona tashkil qilish xodimlar faoliyatini rag'batlantirish, tayyor mahsulot va mehnat bozorida raqobatchilikni, rentabellikni va mahsulotlarning daromadlilikini ta'minlashi lozim. Mehnatga haq to'lashni oqilona tashkil etishdan maqsad uning hajmi va xodimning korxonaga xo'jalik faoliyatiga mehnat faoliyatida qo'shgan hissasiga mos kelishini ta'minlash, ya'ni mehnat o'lchami va iste'mol o'lchami o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlashdir.

Ish haqi – har bir xodimning sarflagan mehnati miqdori va sifatiga mos ravishda taqsimlanuvchi va xodim tasarrufiga pul shaklida kelib tushuvchi milliy daromadning bir qismidir. Ish haqi–bu mehnat uchun mukofotdir.

Xodimlar mehnatiga haq to'lash ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilingan mehnat resurslarining bahosidir. Boshqacha qilib aytganda, ish haqi – bu, mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining korxonaga xodimlari mehnatiga haq to'lash uchun sarflanuvchi qismidir.

Ish haqining *nominal* va *real* turlari mavjud.

Nominal ish haqi – bu xodimning ma’lum bir vaqt mobaynida bajargan mehnati uchun hisoblangan va to’langan ish haqidir.

Real ish haqi – nominal ish haqiga sotib olish mumkin bo’lgan tovar va xizmatlar miqdori; real ish haqi – bu, nominal ish haqining “iste’mol qobiliyati”dir.

Korxonalarda ish haqi sohasidagi siyosatni ishlab chiqish va uni tashkil etishda quyidagi tamoyillarni inobatga olish zarur:

- adolatlilik, ya’ni bir xil mehnat uchun bir xil haq to’lash;

- bajarilayotgan ishning murakkabligi va mehnat malakasi darajasini hisobga olish;

- mehnatning zararli sharoitlari va og’ir jismoniy mehnatni hisobga olish;

- sifatli, sidqidildan mehnat qilishni rag’batlantirish, yo’l qo’yilgan yo’qotishlar yoki o’z majburiyatlariga mas’uliyatsiz yondashishni moddiy jazolash;

- mehnat unumdorligi sur’atini o’rtacha ish haqining o’sish sur’atlariga nisbatan tezroq o’stirish;

- ish haqi miqdorini inflatsiya sur’atlariga mos ravishda muvofiqlashtirish;

- mehnatga haq to’lashning korxonada ehtiyojlariga to’liq javob beruvchi ilg’or shakl va tizimlarini qo’llash.

Zamonaviy sharoitlarda korxonalarda mehnatga haq to’lashning turli tizim va shakllari qo’llanilib, ulardan eng ko’p tarqalganlari sifatida ishbay va vaqtbay usulni ko’rsatish mumkin.

Mehnatga ishbay haq to’lash ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish, ko’rsatilgan xizmat) uchun to’lanadigan haqni anglatadi.

Korxonalarda ko’pincha faqat ishbay emas, balki ishbay-mukofotli haq to’lashdan foydalaniladi.

Mehnatga ishbay-mukofotli haq to’lashda ishchi bajargan ishiga haq olishdan tashqari, mukofotga ham ega bo’ladi. Mukofot asosan ma’lum bir ko’rsatkichlarga erishish - mahsulot ishlab chiqarish rejasini bajarish, mahsulot sifatini oshirish, xomashyo va materiallarni tejash va shu kabilar uchun beriladi.

Mehnatga vaqtbay haq to’lash tarif tizimida ko’zda tutiluvchi ishlab berilgan vaqt - kalendar vaqt emas, balki normativ vaqt uchun to’lanadigan haqni anglatadi.

Vaqtbay-mukofotli haq to'lashda ishchi ishlab bergan vaqtiga haq olishdan tashqari, ushbu ish haqiga ma'lum bir foiz hisobida mukofot ham oladi.

Mehnatga akkord haq to'lash tizimi mehnatga ishbay haq to'lashning bir turi bo'lib, uning mohiyatiga ko'ra, bunda bajarilishi kerak bo'lgan ishlarni muddatini ko'rsatgan holda baholash amalga oshiriladi.

Korxonada quyidagi hollarda akkord haq to'lash tizimidan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

-korxonada biron-bir buyurtmani o'z vaqtida bajara olmasa va buning uchun shartnomaga asosan yirik miqdorda jarima to'laydigan bo'lsa;

-korxonaning to'xtab qolishiga sabab bo'luvchi favqulodda vaziyatlar (yong'in, sel, zilzila, suv toshqini yoki jiddiy sabablarga ko'ra asosiy texnologik liniyalarning ishdan chiqish hollari) ro'y berganda;

-alohida ishlarni bajarishga o'ta zarurat tug'ilganda yoki korxonada yangi asbob-uskunalar ishga tushirilganda.

Ko'pchilik korxonalarda ish haqini hisoblash tarif tizimi, ayniqsa uning tarif stavkasi va tarif setkalari kabi elementlari asosida amalga oshiriladi.

Tarif stavkasi – turli guruh va kategoriyadagi ishchilarning vaqt birligidagi mehnati uchun to'lanuvchi haqning mutlaq (absolut) o'lchamidir. Minimal tarif stavkasi yoki birinchi razryadli stavka boshlang'ich hisoblanadi. U eng oddiy mehnat turiga to'lanuvchi haq darajasini belgilab beradi.

Tarif setkalari mehnatga haq to'lashdagi mutanosibliklarni malaka darajasini hisobga olgan holda, belgilash uchun xizmat qiladi. U tarif razryadlari va ularga mos keluvchi tarif koeffitsiyentlari yig'indisini ifodalaydi. Tarif koeffitsiyentining eng past razryadi birga teng deb olinadi. Undan keyingi tarif razryadlari mos keluvchi tarif stavkalari birinchi razryadli tarif stavkasidan necha marta katta bo'lishini ko'rsatadi.

Kadrlar, mehnat unumdorligi va ish haqi o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan tushunchalar hisoblanadi. Har bir korxonada mehnat va ish haqi bo'yicha reja tuzilib, uning maqsadlari ishchi kuchidan foydalanishni yaxshilash zaxiralarini topish va bu asosda mehnat unumdorligini oshirishga qaratilgan bo'lishi lozim. Bu rejalarga ko'ra mehnat unumdorligining o'sish sur'ati o'rtacha ish haqi suratlaridan tezroq o'sishi lozim.

Tayanch iboralar

Kadrlar salohiyati, kadrlar, mehnat resurslari, korxonada personalni, ishchi kuchi, mehnat uchun ijtimoiy sharoitlar, mehnat yuklamasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, sanoat-ishlab chiqarish personalni, noishlab chiqarish personalni, rahbarlar, xizmatchilar, o'rtacha ro'yxat soni, ko'rsatkichlar, korxonada personalining sifat tavsifi, kasb, malaka, kadrlar siyosati, ish haqi, xodimlar mehnatiga haq to'lash, nominal ish haqi, real ish haqi, mehnatga ishbay haq to'lash, mehnatga ishbay-mukofotli haq to'lash, mehnatga vaqtbay haq to'lash, vaqtbay-mukofotli haq to'lash, mehnatga akkord haq to'lash tizimi, tarif stavkasi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Bozor munosabatlari sharoitlarida korxonaning kadrlar siyosatini qay tarzda tasavvur qilasiz?
2. Kadrlar tuzilmasi deganda nima tushuniladi va uni belgilab beruvchi omillar qanday?
3. Real ish haqi nominal ish haqidan nimasi bilan farq qiladi?
4. Mehnatga haq to'lashning qanday tizim va shakllarini bilasiz?
5. Qaysi hollarda vaqtbay va ishbay haq to'lashdan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi?
6. Nima sababli korxonada mehnat unumdorligi sur'atlari o'rtacha ish haqi sur'atlaridan ortiq bo'lishi lozim?
7. Mehnat unumdorligi nima? Korxonada mehnat unumdorligining o'sishi qanday ahamiyat kasb etadi?
8. Korxonada mehnat unumdorligini aniqlashning qanday usularini bilasiz?
9. Mehnat unumdorligi va ish haqini rejalashtirish mohiyati nimada?
10. Qaysi omillar korxonada ishlab chiqarishning o'sishini belgilab beradi?

X BOB. ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI, FOYDA VA RENTABELLIK

Ushbu bobda ishlab chiqarish xarajatlari, foyda va rentabellik, rentabellik ko'rsatkichlarini korxonada faoliyatiga ta'siri, ishlab chiqarishning barcha omillaridan foydalanish samaradorligini oshirishni rentabellik ko'rsatkichlarini oshirishdagi o'rni, rentabellik ko'rsatkichlarining tahlili bilan bog'liq ma'lumotlar berilgan.

10.1. Xarajatlar tushunchasi va uning tasniflanishi

Korxonalar faoliyat yuritish jarayonida moddiy va pul xarajatlarini sarflaydilar. Korxonaning umumiy xarajatlari ichida ishlab chiqarish xarajatlari eng katta salmoqqa ega. Ishlab chiqarish xarajatlari majmuasi korxonaga mahsulot ishlab chiqarish qanchaga tushishini ko'rsatadi, ya'ni mahsulotning ishlab chiqarish tannarxini tashkil qiladi.

Korxonalar, shuningdek, mahsulotni sotish bo'yicha xarajatlarni, ya'ni ishlab chiqarishdan tashqari yoki tijorat (tashish, qadoqlash, saqlash, reklama qilish va hokazo) xarajatlarini ham amalga oshiradilar.

Mahsulot (ish, xizmat) tannarxini tashkil qiluvchi xarajatlar iqtisodiy mazmuniga ko'ra, quyidagi elementlarga asosan guruhlariga taqsimlanadi:

- moddiy xarajatlar;
- asosiy fondlar amortizatsiyasi;
- mehnatga haq to'lash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar;
- ijtimoiy ehtiyojlarga mo'ljallangan xarajatlar;
- boshqa xarajatlar.

Moddiy xarajatlar ishlab chiqarish xarajatlarning eng katta qismi bo'lib, umumiy xarajatlarning 60 - 80 foizini tashkil qilishi mumkin.

Moddiy xarajatlar o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi:

- xomashyo va materiallar xarajatlari;
- texnologik maqsadlar va xo'jalik ehtiyojlari uchun sarflanuvchi yoqilg'i va energiya;
- xarid qilinuvchi butlovchi qismlar va yarimtayyor mahsulotlar;

- sotib olingan qadoqlash va o'rov materiallari xarajatlari;
- mashina va asbob-uskunalarni ta'mirlash uchun ehtiyot qismlar;
- boshqa korxonalar va tashkilotlar tomonidan ko'rsatiladigan ishlab chiqarish xizmatlari;

- xizmat davri bir yilgacha bo'lgan kichik qiymatli va tez eskiruvchi predmetlarning eskirishi yoki har bir instrument, inventar, laboratoriya uskunalar va mahsus kiyim-bosh uchun eng kam oylik ish haqining 50 baravar miqdorigacha qiymati;

- tabiiy xomashyodan foydalanish bilan bog'liq soliq, yig'im va boshqa to'lovlar;

- ishlab chiqarishda bekor turib qolish va sifatsizlik (brak) tufayli yuzaga keladigan yo'qotishlar;

- tabiiy yo'qotishlar bilan bog'liq bo'lgan yoki aybdor shaxslar mavjud bo'lmagan holda yuzaga keladigan yo'qotishlar.

Amortizatsiya ajratmalari miqdoriga teng bo'lgan asosiy ishlab chiqarish fondlarining eskirishi xarajatlarning yirik elementlaridan biri hisoblanadi. Bular qatoriga asosiy fondlarning tezlashgan amortizatsiyasi va uning indeksatsiyasini kiritish mumkin.

Mehnatga haq to'lash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlilar – korxonaning asosiy ishlab chiqarish personalini mehnatiga haq to'lashga sarflanadigan xarajatlilar bo'lib, ishlab chiqarishdagi yuqori natijalar uchun mukofotlar, rag'batlantiruvchi va kompensatsiya to'lovlari, jumladan, qonunchilikda belgilangan normativlar chegarasida narxlarning o'sishi va indeksatsiya uchun to'lovlar, shuningdek, korxonalar xodimlari shtatida bo'lmagan, lekin asosiy ishlab chiqarishda band bo'lgan ishchilar uchun to'lanuvchi haqni o'z ichiga oladi.

Mazkur xarajatlilar elementlari qatoriga quyidagilar kiritilgan:

- amalda bajarilgan ish uchun tarif stavkalari, lavozim maoshlari va shu kabilar asosida to'lanuvchi ish haqi;

- xodimlarga natural to'lov shaklida beriluvchi mahsulotlar qiymati;

- ishlab chiqarishdagi yuqori natijalar uchun beriluvchi mukofot va boshqa to'lovlar;

- qonunchilikka asosan ba'zi tarmoqlardagi xodimlarga bepul beriluvchi kiyim-kechak, oziq-ovqat, uy-joy, kommunal xizmat va hokazolalar qiymati;

- har yillik mehnat va o'quv ta'tili uchun amalga oshiriluvchi to'lovlar;

-korxonani qayta tashkil qilish, shtatlar qisqarishi tufayli ishdan bo'shatilgan xodimlarga to'lanuvchi mablag'lar.

Ijtimoiy ehtiyojlar uchun xarajatlar nobudjet ijtimoiy fondlariga (nafaqa fondi, ijtimoiy sug'urta fondi, bandlik fondi va hokazo) ajratiluvchi mablag'larni anglatadi.

Mahsulot (ish, xizmat) tannarxidagi boshqa xarajatlar – bu, qonunchilikda belgilangan tartibda mahsus nobudjet fondlariga o'tkaziluvchi to'lovlar va soliqlar; yo'l qo'yish mumkin bo'lgan miqdordagi chiqindilar uchun to'lovlar; korxonada mulkini majburiy sug'urtalash; ratsionalizatorlik takliflari uchun mukofotlar; qonunchilikda belgilangan stavkalarda kreditlar bo'yicha to'lovlar; mahsulotni sertifikatlash uchun bajarilgan ishlarga haq to'lash; qonunchilikda belgilangan normalar bo'yicha xizmat safarlariga haq to'lash; yong'inga qarshi kurash va qo'riqlash muassasalariga haq to'lash; kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish, xodimlar tanlashni tashkil qilish, aloqa xizmati, hisoblash markazlari, banklar xizmatiga haq to'lash; asosiy ishlab chiqarish fondlarini ijaraga olganlik uchun haq to'lash; nomoddiy aktivlarning eskirishi va hokazolar.

Ishlab chiqarish xarajatlariga, asosiy ishlab chiqarish fondlarini ishga tayyor holatda saqlab turish – kapital, o'rta va joriy ta'mirlash, mashina va asbob-uskunalariga qarash va ekspluatatsiya qilish uchun sarflanuvchi barcha xarajatlar kiradi. Asosiy ishlab chiqarish fondlarini ta'mirlash bo'yicha murakkab ishlar amalga oshirilib, xarajatlar bir xilda taqsimlanmaganda korxonalar (Moliya Vazirligi ruxsati bilan) mahsulot tannarxi hisobiga asosiy fondlarni ta'mirlash uchun zaxira (rezerv) fondlari tashkil qilishi mumkin.

Xorijiy valutatadagi xarajatlar Markaziy bankning operatsiyalar amalga oshirilgan kundagi kursiga asosan so'mlarda belgilanadi. Mahsulot ishlab chiqarish va sotishga qilinadigan xarajatlarni o'sishiga, xomashyo, materiallar, yoqilg'i, energiya, asbob-uskunalar narxining o'sishi, transport xizmati tariflarining yuqoriligi, reklama va vakillik xarajatlarining o'sishi kabilar ta'sir qiladi.

Amortizatsiya ajratmalari miqdori ham o'sib bormoqda. Narxlar erkinligi va ijtimoiy ziddiyatlar kuchaygan sharoitlarda xarajatlar tuzilmasida ish haqining salmog'ini oshirish katta ahamiyat kasb etadi. Shu bilan bir vaqtning o'zida ijtimoiy va tibbiy sug'urtalash, nafaqa ta'minoti, aholi bandlik fondlari, turli xil kompensatsion to'lovlarga ajratiluvchi mablag'lar miqdori ham ortib bormoqda.

10.2. Foyda va uning shakllanish manbalari, taqsimlash tartibi hamda ko'paytirish yo'llari

Foyda muhim iqtisodiy kategoriya (toifa) bo'lib, har bir tijorat tashkilotining asosiy maqsadi hisoblanadi. Iqtisodiy kategoriya sifatida foyda – moddiy ishlab chiqarish sohasida yaratilgan sof daromadni aks ettiradi.

Foydaning asosiy qismiga korxonalar ishlab chiqarilayotgan mahsulotni sotish orqali ega bo'ladilar. Zamonaviy xo'jalik yuritish sharoitlarida foydaning asosiy vazifasi korxonalar faoliyati samaradorligini aks ettirishda deb belgilanadi. Bunga foyda miqdori, korxonaning mahsulot ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq bo'lgan mahsulot tannarxi shaklidagi individual xarajatlar, mahsulot bahosi shaklidagi ijtimoiy zaruriy xarajatlarni o'z ichiga olishi lozimligini sabab qilib ko'rsatish mumkin.

Bozor munosabatlariga o'tish sharoitlarida korxonalar faoliyati foydaning rag'batlantiruvchi ahamiyatining ortishi bilan bog'liq. Foydadan baholashning asosiy ko'rsatkichi sifatida foydalanish, mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmining ortishi, sifatning yaxshilanishi, mavjud ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish unumining ortishi bilan asoslanadi. Shu bilan birga foydaning ahamiyati ortishiga amaldagi foydani taqsimlash tizimi ham sabab bo'ladi va unga ko'ra esa, korxonalarining ishlab chiqarish va ijtimoiy rivojlanishni ta'minlash uchun hamda xodimlarni bajargan mehnati sifati va miqdoriga asosan moddiy rag'batlantirishga sarflanuvchi foydani oshirishga bo'lgan qiziqishning ortishi kuzatiladi. Shu tariqa foyda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xodimlarning o'z korxonasi erishadigan yuqori natijalardan moddiy manfaatdorligini kuchaytirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Korxonada foyda turli xil faoliyat natijasida olinishi mumkin. Barcha foydalar yig'indisi korxonaning yalpi foydasini tashkil qiladi. Yalpi foydaning tarkibiy elementlari quyidagilardan iborat:

- bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat va mahsulot sotishdan olingan foyda;

- asosiy fondlar, shuningdek, korxonaning boshqa mulki sotishdan olingan foyda;

- korxonaning moliyaviy faoliyati orqali olinuvchi foyda.

Korxonada daromadi ikki ko'rsatkich, ya'ni mahsulot bahosi va uni ishlab chiqarishga sarflanuvchi xarajatlarga bog'liq bo'ladi. Mahsulotning bozordagi bahosi talab va taklif munosabatlari natijasida kelib chiqadi. Erkin raqobat sharoitlarida bahoni shakllantirish qonunlari asosida mahsulot bahosi ishlab chiqaruvchi yoki xaridor xohishiga ko'ra emas, balki avtomatik ravishda tartibga solinadi.

Foyda korxonada faoliyati natijasida olingan iqtisodiy samarani tavsiflaydi. Korxonaning foyda olishi daromadlarning korxonada faoliyati bilan bog'liq bo'lgan xarajatlardan ko'p bo'lishini anglatadi hamda u rag'batlantirish vazifalarini ham bajaradi. Bu esa foyda bir paytning o'zida moliyaviy natija bo'lish bilan birga korxonada moliyaviy resurslarining asosiy elementi ekanligi; daromadning turli darajadagi budjet shakllanishi uchun asosiy manba bo'lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Foyda olishning asosiy manbalari quyidagilar:

birinchi manba korxonaning mahsulotning u yoki bu turini ishlab chiqarishdagi monopoliya holati yoki mahsulotning nodirligi hisobiga shakllanadi. Bu manbaning saqlanishi mahsulotni doimiy ravishda yangilab borishni ko'zda tutadi;

ikkinchi manba ishlab chiqarish va tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq. Undan foydalanish samaradorligi bozor kon'yunkturasini bilish hamda ishlab chiqarishning rivojlanishini, doimiy ravishda o'zgarib turuvchi bozor konyunkturasiga moslashtirish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi. Foyda miqdori korxonaning mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yo'nalishini to'g'ri tanlash (doimiy ravishda talab darajasi yuqori bo'lgan mahsulotni tanlash); mahsulotlarini sotish va xizmat ko'rsatish uchun raqobatbardosh sharoitlarni yaratish (baho, yetkazib berish muddati, xaridorlarga xizmat ko'rsatish, sotuvdan keyingi xizmat ko'rsatish va hokazo); ishlab chiqarish hajmi (ishlab chiqarish hajmi qanchalik katta bo'lsa, daromad miqdori shunchalik ko'p bo'ladi); ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish tuzilmasi bilan bog'liq bo'ladi;

uchinchi manba korxonaning innovatsion faoliyatidan kelib chiqadi. Undan foydalanish doimiy ravishda texnologiyalarni takomillashtirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni yangilash, uning raqobatbardoshligini ta'minlash, mahsulot sotish hajmi va foyda miqdorini oshirishni anglatadi.

Korxonaning balans foydasi foydani taqsimlash obyektidir. Foydani taqsimlash deganda uning bir qismini budjetga jo'natish tushuniladi.

Qonunchilikka asosan foydaning soliq va boshqa majburiy to'lovlar shaklida budjetga kelib tushuvchi qismi tartibgi solinadi. Korxonada ixtiyorida qoluvchi daromad qismi, undan foydalanish yo'nalishlari korxonada zimmasida bo'ladi.

Foydani taqsimlash tamoyillari quyidagilardan iborat bo'ladi:

- korxonaning ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyat natijasida oladigan foydasi davlat va korxonada o'rtasida xo'jalik subyekti sifatida taqsimlanadi;

- foydaning davlatga to'lanuvchi bir qismi soliq va yig'imlar ko'rinishida budjetga kelib tushadi. Soliqlar tarkibi va foizi, ularni hisoblash tartibi va budjetga to'lanuvchi boshqa to'lovlar qonunchilik tomonidan belgilanadi;

- soliqlar to'langandan so'ng korxonada tasarrufida qoluvchi foyda miqdori, uning ishlab chiqarish hajmini oshirish hamda ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyat natijalarini yaxshilashdan manfaatdorligini kamaytirmasligi lozim.

Korxonada foydani taqsimlash va undan foydalanish tartibi uning Nizomida belgilab qo'yiladi hamda vakolatli iqtisodiy xizmat xodimlari tomonidan tayyorlanib, korxonada rahbariyati tomonidan tasdiqlanuvchi qoidalar yordamida aniqlanadi.

Mahsulotni sotishdan olinadigan foyda miqdori ichki va tashqi omillarga bog'liq bo'ladi. Ichki omillar, bu – korxonada zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy qilish, xo'jalik yuritish darajasi, rahbariyat va menejmentning mas'uliyati, mahsulotning raqobatbardoshligi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etish darajasidir. Korxonada faoliyatiga bog'liq bo'lmagan tashqi omillar qatoriga esa, bozor kon'yunkturasi, iste'mol qilinuvchi moddiy-texnik resurslarning bahosi, amortizatsiya normasi, soliq tizimi kabilar kiradi.

Korxonada foydani oshirishning asosiy yo'llari. Har bir korxonada foydani oshirish bo'yicha rejali chora-tadbirlar ko'zda tutilishi kerak. Umuman olganda, bunday chora-tadbirlar quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- ishlab chiqarilayotgan mahsulot miqdorini oshirish;
- ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini oshirish;
- ortiqcha asbob-uskunalar yoki boshqa mulkni sotib yuborish yoki ijaraga berish;

- moddiy resurslar, ishlab chiqarish quvvatlari va maydonlari, ishchi kuchi va ish vaqtidan unumliroq foydalanish hisobiga mahsulot tannarxini pasaytirish;

- ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish;

- mahsulot bozorini kengaytirish va hokozolar.

Foyda korxonada faoliyatining muhim iqtisodiy ko'rsatkichi bo'lsada, uning samaradorligini to'la tavsiflab bermaydi. Korxonada faoliyati samaradorligini aniqlash uchun natijalarni (foydani) xarajatlar yoki bu natijalarga erishish uchun sarflangan resurslar bilan solishtirish lozim.

10.3. Rentabellikning mohiyati va ko'rsatkichlari

Bozor munosabatlariga o'tish sharoitlarida rentabellikning ahamiyati va o'rni o'sib bormoqda. U korxonada faoliyati va kapital qo'yilmalar iqtisodiy samaradorligining asosiy mezonini, korxonada va xo'jalik yurituvchi tashkilotlarni baholashning sintetik ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi.

Yangi sharoitlarda korxonalarining faoliyatlarida yuqori moliyaviy natijalarga erishishga intilishi sezilarli darajada ortib bormoqda.

Har qanday xo'jalik mexanizmi uchun asos bo'lib korxonada faoliyatini rejalashtirish va unga obyektiv baho berish, ta'lim olish, mehnatga haq to'lash va iqtisodiy rag'batlantirish fondlaridan foydalanish, ishlab chiqarish jarayonining turli bosqichlarida xarajat va natijalarni solishtirish ko'rsatkichlari xizmat qiladi.

Foyda korxonada samaradorligining yagona va universal ko'rsatkichi emas.

Ishlab chiqarish rivojlanishining samaradorligi va intensivligini baholashda amaliyotda rentabellik ko'rsatkichlari tizimi keng qo'llanib, unga ko'ra foydaning miqdori belgilangan hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, rentabellik daromadlilik, foydalilikni anglatadi. Biroq rentabellikni faqat daromadlilik deb qabul qilish uning iqtisodiy mazmunini keng ochib bermaydi. Ular o'rtasida tenglikning yo'qligidan daromad miqdori va rentabellik darajasi turli nisbatlarda, ko'pincha turli yo'nalishlarda o'lchanishi dalolat beradi.

Istalgan muddat uchun iqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash ko'plab turli xil omillar ta'siri ostida amalga oshiriladi.

Rentabellik va foyda ko'rsatkichlarini tahlil qilishda ularga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan barcha omillarni bilish, bu omillarning samaradorlikning umumlashtiruvchi ko'rsatkichlariga ta'sirini hisoblash uslubiyotini egallash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu omillarni boshqarish orqali korxonada daromadni oshirish zaxiralarini izlab topish va rentabellikning talab qilinuvchi darajasiga erishish mexanizmini yaratish mumkin.

Rentabellik va foydaga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni turli xil belgilariga ko'ra tasniflash mumkin. Masalan, bu omillar ichki va tashqi bo'lishi mumkin. Ichki omillarga korxonada faoliyatiga bog'liq bo'lgan hamda korxonada faoliyatining turli yo'nalishlarini tavsiflovchi omillar mansub bo'ladi. Tashqi omillarga korxonada faoliyatiga bog'liq bo'lmagan, biroq ishlab chiqarish rentabelligi va daromadning o'sish sur'atiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan omillar kiradi. Tahlil jarayonida ichki va tashqi omillarni aniqlash samaradorlik ko'rsatkichlarini tashqi ta'sirlardan "tozalash" imkonini beradi hamda korxonada yutuqlarini obyektiv baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'z navbatida ichki omillar ham ishlab chiqarish va noishlab chiqarish omillariga bo'linadi. Noishlab chiqarish omillari asosan mehnat va sotish sharoitlari, korxonaning tijorat, tabiatni saqlash va shu kabi faoliyat turlari bilan bog'liq bo'ladi. Ishlab chiqarish omillari esa foydaning shakllanishida ishtirok etuvchi ishlab chiqarish jarayonining asosiy elementlari - mehnat predmetlari va vositalari hamda mehnatning o'zi - mavjudligi va ulardan foydalanishni aks ettiradi.

Xo'jalik faoliyatini amalga oshirish jarayonida mahsulot ishlab chiqarish, sotish va foyda olish bilan bog'liq bo'lgan korxonalarda bu omillar o'zaro aloqada va bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'ladi.

Rentabellikning mohiyatini faqat foyda shakllanishini tahlil qilish asosida ochib berish mumkin. Korxonada mahsulotni sotish natijasida o'z xarajatlarini qoplashdan tashqari foyda ham olgan taqdirda rentabelli hisoblanadi.

Rentabellik ko'rsatkichlari korxonada faoliyati qanchalik foyda keltirishini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkichlar moliyaviy hisobotning ichki va tashqi foydalanuvchilarda qiziqish uyg'otib, korxonada resurslaridan foydalanish samaradorligi hamda uning investitsiyalarni jalb qilish qobiliyatini aniqlaydi. Xususiyl yoki qarzga olinuvchi kapitalning rentabelligi korxonaga mablag'lar kiritishning rentabelligini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlardir. Bu ko'rsatkichlarning iqtisodiy turlanishi

- moddiy resurslar, ishlab chiqarish quvvatlari va maydonlari, ishchi kuchi va ish vaqtidan unumliroq foydalanish hisobiga mahsulot tannarxini pasaytirish;

- ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish;

- mahsulot bozorini kengaytirish va hokazolar.

Foyda korxonada faoliyatining muhim iqtisodiy ko'rsatkichi bo'lsada, uning samaradorligini to'la tavsiflab bermaydi. Korxonada faoliyati samaradorligini aniqlash uchun natijalarni (foydani) xarajatlar yoki bu natijalarga erishish uchun sarflangan resurslar bilan solishtirish lozim.

10.3. Rentabellikning mohiyati va ko'rsatkichlari

Bozor munosabatlariga o'tish sharoitlarida rentabellikning ahamiyati va o'rni o'sib bormoqda. U korxonada faoliyati va kapital qo'yilmalar iqtisodiy samaradorligining asosiy mezoni, korxonada xo'jalik yurituvchi tashkilotlarni baholashning sintetik ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi.

Yangi sharoitlarda korxonalarning faoliyatlarida yuqori moliyaviy natijalarga erishishga intilishi sezilarli darajada ortib bormoqda.

Har qanday xo'jalik mexanizmi uchun asos bo'lib korxonada faoliyatini rejalashtirish va unga obyektiv baho berish, ta'lim olish, mehnatga haq to'lash va iqtisodiy rag'batlantirish fondlaridan foydalanish, ishlab chiqarish jarayonining turli bosqichlarida xarajat va natijalarni solishtirish ko'rsatkichlari xizmat qiladi.

Foyda korxonada samaradorligining yagona va universal ko'rsatkichi emas.

Ishlab chiqarish rivojlanishining samaradorligi va intensivligini baholashda amaliyotda rentabellik ko'rsatkichlari tizimi keng qo'llanib, unga ko'ra foydaning miqdori belgilangan hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, rentabellik daromadlilik, foydalilikni anglatadi. Biroq rentabellikni faqat daromadlilik deb qabul qilish uning iqtisodiy mazmunini keng ochib bermaydi. Ular o'rtasida tenglikning yo'qligidan daromad miqdori va rentabellik darajasi turli nisbatlarda, ko'pincha turli yo'nalishlarda o'lchanishi dalolat beradi.

Istalgan muddat uchun iqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash ko'plab turli xil omillar ta'siri ostida amalga oshiriladi.

Rentabellik va foyda ko'rsatkichlarini tahlil qilishda ularga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan barcha omillarni bilish, bu omillarning samaradorlikning umumlashtiruvchi ko'rsatkichlariga ta'sirini hisoblash uslubiyotini egallash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu omillarni boshqarish orqali korxonada daromadni oshirish zaxiralarini izlab topish va rentabellikning talab qilinuvchi darajasiga erishish mexanizmini yaratish mumkin.

Rentabellik va foydaga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni turli xil belgilariga ko'ra tasniflash mumkin. Masalan, bu omillar ichki va tashqi bo'lishi mumkin. Ichki omillarga korxonada faoliyatiga bog'liq bo'lgan hamda korxonada faoliyatining turli yo'nalishlarini tavsiflovchi omillar mansub bo'ladi. Tashqi omillarga korxonada faoliyatiga bog'liq bo'lmagan, biroq ishlab chiqarish rentabelligi va daromadning o'sish sur'atiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan omillar kiradi. Tahlil jarayonida ichki va tashqi omillarni aniqlash samaradorlik ko'rsatkichlarini tashqi ta'sirlardan "tozalash" imkonini beradi hamda korxonada yutuqlarini obyektiv baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'z navbatida ichki omillar ham ishlab chiqarish va noishlab chiqarish omillariga bo'linadi. Noishlab chiqarish omillari asosan mehnat va sotish sharoitlari, korxonaning tijorat, tabiatni saqlash va shu kabi faoliyat turlari bilan bog'liq bo'ladi. Ishlab chiqarish omillari esa foydaning shakllanishida ishtirok etuvchi ishlab chiqarish jarayonining asosiy elementlari - mehnat predmetlari va vositalari hamda mehnatning o'zi - mavjudligi va ulardan foydalanishni aks ettiradi.

Xo'jalik faoliyatini amalga oshirish jarayonida mahsulot ishlab chiqarish, sotish va foyda olish bilan bog'liq bo'lgan korxonalarda bu omillar o'zaro aloqada va bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'ladi.

Rentabellikning mohiyatini faqat foyda shakllanishini tahlil qilish asosida ochib berish mumkin. Korxonada mahsulotni sotish natijasida o'z xarajatlarini qoplashdan tashqari foyda ham olgan taqdirda rentabelli hisoblanadi.

Rentabellik ko'rsatkichlari korxonada faoliyati qanchalik foyda keltirishini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkichlar moliyaviy hisobotning ichki va tashqi foydalanuvchilarda qiziqish uyg'otib, korxonada resurslaridan foydalanish samaradorligi hamda uning investitsiyalarni jalb qilish qobiliyatini aniqlaydi. Xususiy yoki qarzga olinuvchi kapitalning rentabelligi korxonaga mablag'lar kiritishning rentabelligini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlardir. Bu ko'rsatkichlarning iqtisodiy turlanishi

(interpretatsiyasi) yaqqol koʻzga tashlanadi: sarflangan har bir soʻm qarzga olingan (xususiy) kapitalga necha soʻm foyda toʻgʻri keladi (hisob-kitoblarda korxonaning balans yoki sof foydasidan foydalanish mumkin).

Rentabellikni zamon va makon qoidalariga koʻra tahlil qilishda asosli xulosalarga kelish uchun zarur boʻladigan uchta xususiyatni inobatga olish zarur.

Birinchi xususiyat korxonada faoliyatining vaqt jihati bilan bogʻliq. Masalan, mahsulotni sotish rentabelligi koeffitsiyenti hisobot davridagi faoliyat natijalari orqali aniqlanadi; uzoq muddatli investitsiyalarning yuzaga kelishi mumkin boʻlgan va rejalashtirilayotgan samarasi inkor qilinmaydi. Agar korxonada katta miqdordagi investitsiyalar talab qiluvchi yangi texnologiyalar va yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarishga oʻtadigan boʻlsa, u holda rentabellik koʻrsatkichlari vaqtinchalik pasayishi mumkin.

Ikkinchi xususiyat tavakkalchilik muammosi bilan bogʻliq boʻlib, tavakkalchilik darajasi yuqori boʻlgan loyihalar baʼzida katta foyda keltirishi ham mumkin.

Uchinchi xususiyat baholash muammosi bilan bogʻliq. Masalan, xususiy kapitalning rentabellik koʻrsatkichi surʼati va maxraji turli xil xarid qobiliyatiga ega boʻlgan pul birligida keltiriladi.

Koʻrsatkichning surʼati, yaʼni foyda oʻzgaruvchan (dinamik) boʻlib, faoliyat natijalarini hamda tovar va xizmatlarning asosan oʻtgan yilda yuzaga kelgan bahosini aks ettiradi. Koʻrsatkichning maxraji, yaʼni xususiy kapital bir qator yillar davomida shakllanadi. U joriy bahodan ancha farq qilishi mumkin boʻlgan, hisobga olish bahosida aks ettiriladi.

Demak, xususiy kapital rentabellik koeffitsiyentining katta boʻlishi, doim ham korxonaga kiritilayotgan kapital qaytimiga mos kelavermaydi; moliyaviy qarorlarni qabul qilishda bu koʻrsatkichni eʼtiborga olishdan tashqari, korxonaning bozordagi bahosini (bozor kapitalizatsiyasi) ham inobatga olish zarur.

Aktivlar rentabelligi korxonada 1 soʻm foyda olish uchun qancha mablagʻ jalb qilish talab etilishi (bu mablagʻlar manbaidan qatʼi nazar)ni aks ettiradi. Ushbu koʻrsatkich korxonada raqobatbardoshligining eng muhim koʻrsatkichlaridan biri hisoblanadi.

Sotish rentabelligi sotilgan mahsulotning har bir soʻmi qancha sof foyda keltirganini aks ettiradi.

Xususiy kapital rentabelligi korxonada mulkdorlari ya'ni, egalari kiritgan kapitaldan foydalanish samaradorligini aniqlash va bu ko'rsatkichni xuddi shu mablag'larni boshqa qimmatbaho qog'ozlarga kiritganda olish mumkin bo'lgan foyda bilan taqqoslash imkonini beradi. G'arb mamlakatlarida bu ko'rsatkich kompaniya aksiyalarining kotirovkasiga sezilarli ravishda ta'sir ko'rsatadi.

Quyida formulalar ko'rinishida korxonada faoliyatining samaradorligini tavsiflovchi rentabellikning asosiy ko'rsatkichlari keltirilgan.

Bitta aksiya keltiruvchi foyda ko'rsatkichi korxonaning bozordagi faoliyatini tavsiflovchi muhim ko'rsatkichlardan biridir.

Shu tariqa, tavsiya qilinuvchi ko'rsatkichlar tahlil jarayonida korxonaning moliyaviy barqarorligini aniqlash, ishlab chiqarish samaradorligi va korxonaning bozordagi raqobatbardoshligini oshirishga oid chora-tadbirlar belgilashga imkoniyat yaratadi.

$$\text{Aktivlar rentabelligi } (R_a) = \frac{\text{Sof foyda (SF)}}{\text{Aktivlarning o'rtacha yillik qiymati}}$$

$$\text{Sotish rentabelligi } (R_s) = \frac{\text{Sof foyda (SF)}}{\text{Mahsulot sotishdan tushgan tushum (ST)}}$$

$$\text{Xususiy kapital rentabelligi } (X_k) = \frac{\text{Sof foyda (SF)}}{\text{Xususiy kapital o'rtacha yillik qiymati (XK)}}$$

$$\text{Bitta aksiya daromadi } (A_f) = \frac{\text{Sof foyda (SF)}}{\text{Muomaladagi aksiyalar soni (NA)}}$$

Tayanch iboralar

Moddiy xarajatlar, asosiy fondlar amortizatsiyasi, mehnatga haq to'lash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar, ijtimoiy ehtiyojlarga mo'ljallangan xarajatlar, moddiy xarajatlar, xorijiy valyutadagi xarajatlar, foyda, foyda olishning asosiy manbalari, foydani taqsimlash tamoyillari,

korxonada foydani oshirishning asosiy yo'llari, rentabellik, aktivlar rentabelligi, sotish rentabelligi, xususiy kapital rentabelligi, bitta aksiya daromadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Ishlab chiqarish xarajatlari tushunchasi va uning mohiyati.
2. Ishlab chiqarish xarajatlarini tasniflash.
3. Boshqa xarajatlar tarkibiga nimalar kiradi?
4. Foyda iqtisodiy kategoriya sifatida hamda uning korxonaning tijorat va ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilishdagi ahamiyati.
5. Foydani shakllantirish manbalari.
6. Foydani taqsimlash va uni ko'paytirish yo'llari.
7. Rentabellikning iqtisodiy mohiyati.
8. Rentabellik ko'rsatkichlari va ularni aniqlash uslubiyoti.

XI BOB. KORXONANING INVESTITSION FAOLIYATI

Ushbu bobda investitsiya faoliyatini amalga oshirishda to'g'ri tanlangan taktika (siyosat) to'g'risida so'z boradi. Bu siyosat birinchidan, kapital qo'yimalarning ustivor yo'nalishlarini, ikkinchidan, ishlab chiqarish kuchlarini to'g'ri joylashtirish va rivojlantirish, uchinchidan, fan-texnik taraqqiyoti va butun iqtisodiyotning rivojlanishini belgilab beradi. Investitsiyalarning "xo'jayini" sifatida korxonalarining o'zidan tashqari, davlatni, mahalliy hokimiyat idoralari va xususiy tadbirkorlarni ko'rsatish mumkin.

Ko'pincha investitsiya deganda kapital qo'yimlar ko'zda tutiladi, bu narsa investitsiyalar tabiatini inkor qilmaydi va ularning mohiyatini noto'g'ri aks ettirmaydi. Investitsiyalar, bozor iqtisodiyotidagi boshqa, jumladan, biznes, raqobatchilik, ishbilarmonlik tushunchalari kabi, ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan bozor iqtisodiyotiga o'tilayotgan bugungi kunlarda xo'jalik yuritish nazariyasi va amaliyotida o'z o'rmini topmoqda. Shu bilan birga, "kapital qo'yimlar" atamasining o'z izohlari ham mavjud.

Kapital qo'yimlar asosiy fondlarni qayta tiklash va o'stirish uchun sarflanuvchi moddiy, mehnat va pul resurslaridir. Ular asosan bir vaqtning o'zida amalga oshiriladigan xarakterga ega bo'lib, ishlab chiqarish xarajatlari yoki mahsulot tannarxi shaklidagi, joriy xarajatlardan farq qiladi. Kapital qo'yimlar maqsadli xarakterga ega bo'ladi hamda xodimlarga mukofot to'lash, xizmat safari (komandirovka) xarajatlari va hokazolarga sarflanishi mumkin emas.

Moliyaviy investitsiyalar qimmatbaho qog'ozlar, aksiya va obligatsiyalar sotib olish, pul mablag'larini banklarga foiz olish maqsadida depozit hisobraqamlariga qo'yish bilan ifodalanadi.

Real investitsiyalar pul mablag'larini kapital qurilish, ishlab chiqarishni rivojlantirish va kengaytirishga kiritishni ifodalaydi. Real investitsiyalar korxonalar, tarmoq va butun xalq xo'jaligining kuch-quvvatini belgilab beradi.

Investitsiyalar avvaldan o'ylab ko'rilgan maqsad va birinchi o'rinda investitsion loyiha asosida korxonada ishlab chiqarish potensialini mustahkamlash va rivojlantirish vazifasini bajaradi.

Investitsiya loyihasi kapitalni korxonani uning ishlab chiqarish quvvati va boshqa sifat ko'rsatkichlarini kuchaytirish maqsadida rivojlantirish va kengaytirishga kiritishni rejalashtirish va amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar majmuasidir. Investitsiya loyihasini tayyorlash va amalga oshirish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- investitsiyaviy g'oya(fikr)ni shakllantirish;
- g'oyaning dastlabki asoslanishi;
- loyihada ko'zda tutilgan texnik qarorning tahlili;
- sertifikat talablarining bajarilishini tekshirish;
- investitsiya loyihasi bo'yicha davlat boshqaruv idoralari bilan kelishuv yuzaga keltirish;
- axborot memorandumini tayyorlash.

Yuqorida ko'rsatilganlarni amalga oshirgandan so'ng loyihani ishlab chiqish va texnik-iqtisodiy asoslab berish (tushuntirish xatidan boshlab investitsion mo'ljallarning maqsad va vazifalari hamda kutilayotgan natijalar aks ettiriluvchi loyiha-smeta hujjatlarigacha) zarurati tug'iladi.

Investitsiyalar, ayniqsa gap yangi qurilish, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni kengaytirish yoki qayta tiklash haqida ketganda, investitsion jarayonlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu jarayonlar investitsion maqsadlarni zamon va makonda bog'laydi. Investitsion jarayonlarning quyidagicha tarkibiy qismlari mavjud: loyihalashtirishdan avvalgi asoslash, loyihalashtirish, bevosita obyekt qurilishi (korxonani kengaytirish yoki qayta tiklash) va ishga tushirilishi. Korxonalar uchun investitsiya jarayonining so'nggi bosqichi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu bosqichda amalga oshirilgan yangiliklar ekspluatatsion sinovlardan o'tkazilib, amaldagi va loyiha ko'rsatkichlari baholanadi hamda investitsiya jarayonining xuddi shu jarayonida hal qilinishi lozim bo'lgan chetga og'ish va kamchiliklar aniqlanadi.

11.1. Korxonalarda investitsiyalashning asosiy manbalari va yo'nalishlari

Sanoat korxonalarida moliyaviy resurslarni shakllantirish ular moliyasini tashkil etish asosini namoyon etuvchi moliyaviy munosabatlar

natijasida vujudga keladigan turli xil pul fondlarini va moliyaviy aktivlarni hosil qilishni bildiradi.

Sanoat korxonasi moliyasi o'z munosabatlarini amalga oshirishda to'rtta guruhga bo'linadi.

1. Boshqa korxonasi va tashkilotlar bilan.
2. Korxonaning ichki moliyasi
3. Yuqori tashkilotlar bilan.
4. Moliya-kredit tizimi bilan.

Moliya-kredit tizimi bilan o'rnatiladigan aloqalari quyidagilar:

1. Har xil daromadagi budjet bilan.
2. Banklar bilan.
3. Sug'urta tashkilotlari bilan.
4. Budjetdan tashqari fondlar bilan.
5. Fond bozorlari bilan.
6. Investitsiya fondlari bilan.

Sanoat korxonasi pul fondlari bilan:

- Ustav kapitali;
- Asosiy vositalar fondi;
- Aylanma mablag'lar fondi;
- Qo'shimcha kapital;
- Zaxira kapital;
- Jamg'arma fondi;
- Valuta fondi;
- Investitsiya fondi;
- Iste'mol fondi;
- Amotizatsiya fondi;
- Budjetga to'lovlar fondi va boshqa fondlar shakllantiriladi.

Moliyaviy mablag'larning iqtisodiy tabiati, ularning ijtimoiy vazifalari shunday chegaralarni ham shart qilib qo'yadiki, bunda moliyaviy mablag'lar ijtimoiy ishlab chiqarishga ta'sir ko'rsatish vositasi sifatida qo'llaniladi. Moliyaviy mablag'lar xo'jalik yuritishning iqtisodiy omili sifatida ijtimoiy ishlab chiqarishga sifat va miqdoriy jihatdan ta'sir ko'rsatadi. Miqdoriy jihatdan ta'sir – sarflangan, taqsimlangan va foydalanilayotgan moliyaviy mablag'lar nisbati bilan xarakterlanadi, sifat jihatdan ta'sir esa – ishlab chiqarish jarayoni qatnashchilarining moddiy manfaatlariga moliyaviy munosabatlarni

tashkil etish shakllari orqali moliyaviy ta'sir ko'rsatishda aks etishi bilan belgilanadi.

Ijtimoiy yoki jamoat ishlab chiqarishiga miqdor jihatidan ta'sir ko'rsatish imkoniyati yaratilgan va taqsimlanayotgan moliyaviy mablag'larning hajmi bilan belgilanadi. Moliyaviy mablag'larning hajmi va ularni tasarruf etishga yo'naltirish ishlab chiqarishning qo'shimcha vositalarini taqsimlash (ular bilan ulgurji savdo qilingan taqdirda), korxonaning texnikaviy ta'minlanganligi darajasi va boshqalar nisbatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Xo'jalik subyektlari ixtiyorida qoldirilgan moliyaviy mablag'lar miqdorini o'zgartirib, mablag'lardan nihoyatda samarali foydalanish yo'llarini belgilab, moliyaviy mablag'larni eng muhim sohalarga yo'naltirilishiga erishib, jamiyat ishlab chiqarishi o'z talabiga mos yo'nalishda rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Moliyaviy mablag'larning sifat jihatidan qayta ishlab chiqarish jarayoni qatnashchilarining moddiy manfaatlariga ta'sir ko'rsatish imkoniyatlariga bog'liq bo'lib, moliyaviy jihatidan ta'sir ko'rsatishda moliyaviy mablag'larning yirikligi emas, balki qay tariqa shakllantirilishi, ularning harakati va harakatlanishi, ulardan foydalanish qanday shakl va shart-sharoitlarda ro'y berilishi muhimdir, sifat ta'siri moliyaviy mablag'larning iqtisodiy taraqqiyot stimulgiga aylanishi bilan bog'liq. Agar moliyaviy mablag'larni shakllantirish tartibi, pul fondlari va shakllantirish shartlari, qoidalari va usullari, shuningdek, ularni yo'naltirish xilma-xil xo'jalik subyektlarining iqtisodiy manfaatlari bilan uyg'unlashtirilgandagina shunday aylanish sodir bo'ladi.

Moliyaviy mablag'larning ijtimoiy ishlab chiqarishga miqdor va sifat jihatidan ta'sir ko'rsatish imkoniyatlaridan yaqin vaqtlargacha to'la foydalanilmadi. Yaqin o'tmish shundan dalolat beradiki, xo'jalik yuritishning quyi bo'g'ini, o'rta va oliy hokimiyat tabaqalarida ham faoliyatning moliyaviy tomoniga bepisandlik bilan qarab kelindi. Qattiq ma'muriy-buyruqbozlik tizimi sharoitlarida yaxshi ish natijalari hisobiga yirik miqdorlarda moliyaviy mablag'larning olinishi sanoat korxonalariga ishlab chiqarishni kengaytirish, texnikaviy va texnologik yangilash, mablag'larni o'zlari istagan sohalarga safarbar etishi imkonini berar edi. Moliyaviy mablag'lar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish davlat rejasiga ko'ra olinar va taqsimlanardi, bunda muayyan korxonada xo'jalik yuritish samaradorligi inobatga olinmas edi.

Sanoat korxonalari moliyaviy mablag'lari korxonada iqtisodiyotga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu ikki narsaga bog'liq. Birinchidan,

moliyaviy mablag'lar taqsimot kategoriyasi bo'lgani holda, ishlab chiqarish jarayoniga umumiy xizmat ko'rsatadi, ularning ta'sir doirasi taqsimot, ayirboshlash va ishlab chiqarishning boshqa darajalariga ta'sir bilan cheklanmaydi. Ikkinchidan, moliyaviy mablag'lar taqsimlash xususiyatidan kelib chiqadigan iqtisodiy jarayonlarning katalizatori xususiyatiga ega ekani bilan belgilanadi.

Moliyaviy usul bilan amalga oshiriladigan taqsimot moddiy ishlab chiqarish sohasidan boshlanadi va moddiy ishlab chiqarish jarayonining to'rt bosqichi bilan belgilanadi. Bunda ayni mahsulot ishlab chiqarish bosqichi hal qiluvchi bosqich bo'lib, shu bosqichda ijtimoiy mahsulot yaratiladi.

Taqsimot bosqichi ishlab chiqarish bilan yaqindan bog'liq bo'lib, unga bevosita dahldordir, chunki ishlab chiqarilgan mahsulotning taqsimlash mumkin.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni moliyaviy jihatdan ta'minlash – bu barcha ishlab chiqarish xarajatlarini xo'jalik subyektlari va davlat qo'lidagi moliyaviy resurslar hisobiga qoplashdir.

Moliyaviy resurslar – bu YaIM va milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash natijasida xo'jalik yurituvchi subyektlar va davlatning qo'lidagi u yoki bu vaqtda bo'lgan pul daromadlari va jamg'armalari yig'indisidir.

Moliyaviy resurslarning hajmi va tarkibi ishlab chiqarishning rivojlanish darajasiga, uning samaradorligiga bevosita bog'liq. Ishlab chiqarish masshtablari qancha yirik, uning samaradorligi yuqori bo'lsa, moliyaviy resurslarining hajmi shuncha katta bo'ladi. O'z navbatida, ishlab chiqarishga jalb qilingan moliyaviy resurslar uning o'sishiga va takomillashuviga shart-sharoit yaratadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida sanoat korxonalarini faoliyatini asosiy moliyalashtirish resurslarning manbalari quyidagilardir:

1. **Sof daromad.** Sanoat korxonasi yalpi daromadining *sof daromad* qismi moliyaviy resurslarning asosiy manbasi hisoblanadi.

2. **Tashqi iqtisodiy aloqalardan tushumlar.** Bu manbaga ayniqsa, mustaqillik yillarida alohida ahamiyat berilmoqda. Korxonada tashqi iqtisodiy aloqalar asosida amalga oshirgan eksport operatsiyalari natijasida olgan valuta tushumlaridan hosil bo'ladi.

3. **Korxonada ustav fondining bir qismi** – Ustav kapitali mablag'larining yildan-yilga o'tuvchi qoldiqlari:

- sug'urta tashkilotlaridagi rezerv fondlari;
- korxonada tasarrufida bo'lgan qimmatli qog'ozlarni bir qismini sotishdan tushgan tushum;

- ortiqcha mulklarni sotishdan tushum va boshqa.

4. Qarzga olingan va jalb qilingan mablag'lar:

- bank kreditlari;

- kreditorlik qarzlari;

- davlat va xorijiy hamda xalqaro tashkilotlar grantlari;

- aksiya va obligatsiyalar chiqarishdan tushum;

Moliyaviy munosabatlarning turli-tumanligi moliyaviy resurslarning ham turli tumanligini keltirib chiqaradi. Moliyaviy resurslarning asosiy elementlari quyidagilardir:

- foyda;

- turli soliqlar (*S*, aksizlar, foyda solig'i, mulkiy soliqlar, daromad);

- sug'urta tashkilotlarining mablag'lari;

- amortizatsiya ajratmalari;

- tashqi iqtisodiy aloqalardan tushum;

- aholidan tushumlar.

Moliyaviy resurslarning o'sishiga bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi. Moliyaviy resurslarning o'sishi sanoat korxonasi daromadining hajmi va uning o'sishiga bog'liq ekan, daromadning o'sishiga ta'sir etuvchi barcha omillar moliyaviy resurslarning ham o'sishiga ta'sir ko'rsatadi.

Ularga quyidagilar kiradi:

1. *Ishlab chiqarish hajmi va samaradorligining oshishi.*

2. *Mehnat unumdorligi.*

3. *Fond sig'imining kamayishi.*

4. *Fond qaytimining oshishi.*

5. *Fond bilan qurollanishning yaxshilanishi.*

Shuningdek, sanoat korxonasi moliyaviy resurslarining har bir elementlarining oshishiga ta'sir qiluvchi omillar korxonada moliyaviy resurslarining absolut va nisbiy miqdorlarda o'sishiga ta'sir ko'rsatadi.

Sanoat korxonalari ixtiyorida moliyaviy resurslar markazlashmagan

moliyaviy resurslar bo'lib, ular:

- kapital quyilmalarga;

- aylanma mablag'larning oshishiga;

- fan - texnika yutuqlarini joriy qilishni moliyalashtirishga;

- tabiat muhofazasiga va ijtimoiy maqsadlarga sarflanishi mumkin.

Sanoat korxonalarini rivojlantirish va ularda tashkil etiladigan xo'jalik faoliyatining elementlaridan biri investitsiya hisoblanadi.

"Investitsiya" lotincha "investire" (kiyintirish, yasantirish), nemischa "investition" so'zidan kelib chiqib, ma'nosi qonun bilan ta'qiqlanmagan tadbirkorlik faoliyatining barcha turlariga foyda yoki ijtimoiy samara

olish maqsadida yo'naltirilgan moddiy, moliyaviy va intellektual boyliklarni ifodalaydi.

Moliyaviy va nomoliyaviy investitsiyalarni joriy qilish bo'yicha amaliy faoliyatlar majmuasi investitsion faoliyat deb yuritiladi. Asosiy fondlarni ishga tushirish, rekonstruksiya va modernizatsiya qilish kapital qurilish deb yuritiladi.

Sanoat korxonalarini investitsiyalari - moliyaviy (pul) va real investitsiyalarga bo'linadi. U pul mablag'lari, kredit, qimmatbaho qog'oz shaklida olib boriladi va ko'chma, ko'chma bo'lmagan mol-mulkka, intellektual mulkka, ne'matlarga bo'lgan huquqqa va boshqa qiymatliklarga qo'yiladi, ya'ni korxonaning barcha aktivlariga ishlatiladi. Moliyaviy investitsiyaga qimmatli qog'ozlar, aksiyalar, aksiyalarni sotib olish, foiz evaziga banklarda depozit hisob raqamlarga pul quyish kiradi.

Real investitsiya esa kapital qurilish, ishlab chiqarishni rivojlantirish va kengaytirishga kapital quyilishini anglatadi. Mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirishda, uning rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy olishida ishlab chiqarishning jahon andozalari asosida yuritilishi muhimdir. Ishlab chiqarishga yangi texnika va texnologiyalarni jalb etishda xorijiy sarmoyalarga keng o'rin berilmoqda.

Nomoliyaviy aktivlarga, ya'ni real kapitalga qo'yilgan investitsiya asosiy kapitalni yangilash va takror ishlab chiqarishga xizmat qiladi. Moliyaviy (pul) kapitaliga (moliyaviy mablag'larga kredit sifatida, qimmatbaho qog'ozlarga) qo'yilgan investitsiyani bir qismi tezlik bilan real kapitalga aylanishi mumkin, ikkinchisi - kengroq, ya'ni qandaydir vaqt o'tgandan keyin, uchinchisi esa - umuman real kapitalga aylanmasligi mumkin (Masalan: chiqarilgan yoki sotib olingan qimmatbaho qog'oz o'z qiymatini yo'qotsa, oddiy so'z bilan aytganda sinza). Shu sababli moliyaviy investitsiyada investorga moliyaviy xatar ko'proq bo'ladi.

Korxonada darajasida iqtisodiy jihatdan investitsiya asosiy va aylanma mablag'larni jamg'arishni anglatadi. Moliyaviy nuqtayi nazardan moliyaviy resurslarni daromad (foйда) olish uchun to'plashni ko'rsatadi.

Buxgalteriya hisobi nuqtayi nazardan hisobotning aktiv va passivining bir necha moddalariga ishlatilgan kapital xarajatlarni birlashishini ifodalaydi.

Investitsiyalarning amal qilinishi tarmoq yoki korxonada nuqtayi nazardan yondashilgan holatda ham umumiy xususiyat kasb etishi bo'yicha quyidagi turlarga tasniflanadi:

1. Maqsadi bo'yicha - foйда olish uchun, ijtimoiy va ekologik ehtiyojlar uchun.

2. Obyekti bo'yicha - ishlab chiqarish va noishlab chiqarish.

3. Natural-moddiy ko'rinishi bo'yicha - moddiy, nomoddiy va moliyaviy.

4. Hududiy kelib chiqishi bo'yicha - milliy va chet elli

5. Moliyalashtirish manbalari bo'yicha - xususiy (amortizatsiya, foйда, sotilgan narsalardan tushum) va omonatga olingan (kredit, lizing va boshqalar).

6. Ishlab chiqarish yo'nalishlari bo'yicha - asosiy kapitalni yangilashga, qo'zg'almas mulkni, aylanma mablag'ni ko'paytirish uchun, yangi mahsulot yaratish uchun, mahsulotni sifatini oshirish uchun.

7. Korxonani boshqarish huquqiga ega bo'lish omili bo'yicha: to'g'ridan to'g'ri yoki bevosita; portfel.

8. Amal qilish muddati bo'yicha - qisqa va uzoq muddatli investitsiyalar mavjud.

9. Kelib chiqish hududi bo'yicha - milliy va xorijiy investitsiyalar.

10. Tavvakalchilik darajasi bo'yicha - tavvakalchiligi past, ishonchli va tavvakalchiligi yuqori, spekulativ investitsiyalar.

Korxonada nuqtayi nazardan investitsiya manbalari ular o'z mablag'lari (foйда, amortizatsiya, boshqa pul jamg'armalari); qarzga olingan mablag'lar (bank krediti va boshqa tashkilotlarni omonatlari); boshqa jalb qilingan mablag'lar (aksiya va boshqa qimmatbaho qog'ozlarni sotishdan kelgan daromadlar); budget va budgetdan tashqi mablag'lar tashkil qiladi.

Investitsiya faoliyati alohida tarkibiy qismlardan iborat bo'lib, investitsiya strategiyasini aniqlash, strategik rejalashtirish,

investitsiyaviy loyihalashtirish, loyihalarni tahlil qilish hamda investitsiyani samarasini aniqlash kabilardan iborat bo'ladi.

Sanoat korxonasi misolida investitsiya strategiyasini aniqlash – bu kelajak davrga korxonalarni asosiy faoliyatlarini rivojlantirish yo'llarini aniqlash, shu jumladan o'z mablag'lari hisobidan va boshqa investorlar hisobidan xarajatlarni qoplanish miqdorini aniqlash.

Korxonada aktivlari hajmini va rentabelligini prognoz qilish. Strategik rejada aktivlarga bo'lgan ehtiyoj va uni ta'minlash resurslari uzoq muddatga aniqlanadi.

Sanoat korxonalarida investitsiyalarni moliyalashtirishning ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etib, eksportga mo'ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantiradi;

- import o'rini bosuvchi tovar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va buning uchun investitsiyalarni iqtisodiyotning ustuvor sohalariga yo'naltirish va pirovardida aholining me'yordagi turmush darajasini ta'minlash imkonini yaratadi;

- tarmoqda yangi korxonalarni tashkil etish, ularni kengaytirish asosida yangi ish o'rinlarini yaratish hisobiga o'sib borayotgan aholini ish joylari bilan ta'minlaydi;

- korxonalarining eskirgan ishlab chiqarish quvvatlarini, moddiy texnik bazasini yangilaydi va texnik qayta qurollantiradi;

- tabiiy resurslarni qayta ishlovchi korxonalarni barpo etishga, mahalliy xomashyolarning ichki va tashqi bozorga tovar shaklida olib chiqilishiga ko'maklashadi;

- korxonada va tarmoqning raqobatbardoshligini yanada oshirishga imkon beradi.

Deyarli barcha faoliyat ko'rsatuvchi korxonalar davlatga tegishli bo'lgan sobiq ma'muriy-buyruqbozlik tizimi sharoitlarida investitsiyalarning asosiy manbai davlat (budjet) mablag'laridan tashkil topar edi. Garchi o'sha sharoitlarda ham jamg'arma fondlar - asosiy investitsion manbalar korxonalar foydasi (daromadi) hisobiga amalga oshirilgan bo'lsada, korxonalarining mablag'larni qayerdan olish va qayerga joylashtirish to'g'risida "boshi" og'rimas edi. Qo'shimcha manba sifatida korxonalarining amortizatsiya fondi xizmat qilardi.

Mazkur tushunchalar (jamlama fondi, amortizatsiya fondi, foyda) hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan bo'lib, investitsiyalarning asosiy manbai hisoblanadi. Masalan, davlat korxonalari uchun asosiy investitsiya manbai quyidagilar: foyda, amortizatsiya fondi va budget mablag'lari, qo'shma korxonalar uchun - foyda, amortizatsiya fondi va kredit resurslari.

Rejalashtirish va boshqaruv tizimida shuningdek, investitsiya manbalarini aniqlashning ichki va tashqi turlaridan ham foydalaniladi.

Investitsiyalarning *ichki manaballari* quyidagilar:

- ishlab turgan asosiy kapitalga hisoblanuvchi amortizatsiya ajratmalari natijasida shakllanuvchi, korxonaning o'z moliyaviy vositalari;

- foydaning investitsiya ehtiyojlariga ajratiluvchi qismi;

- sug'urta kompaniyalari va muassasalari tomonidan tabiiy ofat va boshqa hodisalarda to'lanuvchi mablag'lar;

- korxonaning aksiyalar chiqarishi va sotishi natijasida olinuvchi mablag'lar;

- yuqori turuvchi va boshqa organlar tomonidan qaytarib bermaslik asosida ajratiluvchi mablag'lar;

- xayriya va shu kabi boshqa mablag'lar.

Investitsiyalarning *tashqi manballari* quyidagilar:

- markaziy va mahalliy budgetdan, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlovchi turli xil fondlar tomonidan ajratiluvchi qaytarib bermaslik asosidagi mablag'lar;

- korxonalar Nizom jamg'armasida moliyaviy yoki boshqa moddiy va nomoddiy ishtirok shaklida, shuningdek, xalqaro moliya institutlari va alohida shaxslarning to'g'ridan to'g'ri qo'yilmalari shaklida kiritiluvchi xorijiy investitsiyalar;

- davlat va turli xil fondlar tomonidan qaytarib berish sharti bilan beriluvchi kreditlar, jumladan imtiyozli kreditlar.

Korxonalarining mustaqil xo'jalik faoliyati sharoitlarida ichki mablag'lar tarkibida amortizatsiya ajratmalari asosiy o'rinni egallaydi. Uning korxonaga investitsion resurslaridagi ulushi 50 foiz va undan ko'proqni tashkil etadi.

Investitsion maqsadlarga yo'naltiriluvchi mablag'lar tanqisligi sharoitida lizing investitsion faoliyatni faollashtiruvchi muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Lizing - moliyaviy-kredit munosabatlarining shakllaridan biri bo'lib, korxonalarining qurilma va asbob-uskunalarini ishlab chiqaruvchi korxonalar yoki mahsus tashkil qilingan lizing kompaniyalaridan uzoq muddatga ijaraga olishini anglatadi. Lizing bitimida ko'rsatilgan tomonlardan tashqari investitsion loyihalarni moliyalashtirish hamda ularni buning uchun zarur bo'lgan mablag'lar bilan ta'minlash imkoniyatiga ega bo'lgan tijorat yoki investitsion banklar ham ishtirok etishi mumkin.

Investitsiyalardan (kapital qo'yilmalardan) foydalanishning asosiy yo'nalishlari quyidagilar hisoblanadi:

- yangi qurilish;
- korxonani kengaytirish va qayta tiklash;
- ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish va texnik jihatdan qayta qurollantirish;
- harakatdagi quvvatlarni takomillashtirish.

Yangi qurilishga yangi maydonlarda mahsus ishlab chiqilgan loyihalar asosida quriluvchi korxonalar, bino, inshoot va qurilmalar mansubdir.

Faoliyat yuritayotgan **korxonani kengaytirish** qo'shimcha ishlab chiqarish majmualarining navbatdagi qismlarini yangi loyiha asosida qurish yoki asosiy, qo'shimcha, yordamchi va xizmat ko'rsatuvchi ishlab chiqarishning amaldagi sexlarini kengaytirish yoki qurishni anglatadi. U asosan, faoliyat yuritayotgan korxonalar hududida yoki unga tutash maydonlarda amalga oshiriladi.

Qayta tiklash – bu, faoliyat yuritayotgan korxonani ma'naviy va jismoniy eskirgan qurilma va asbob-uskunalarini ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish, texnologik bo'g'inlar va yordamchi xizmatdagi nomutanosibliklarni yo'qotish yo'li bilan almashtirish yordamida to'liq yoki qisman o'zgartirishni anglatadi. Qayta tiklashda eski sexlar o'rniga yangi sexlarni qurishga ruxsat beriladi.

Texnik qayta qurollantirish alohida ishlab chiqarish turlarini zamonaviy talablarga asosan yangi texnika va texnologiyalarni kiritish, ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish, eskirgan qurilma va uskunalarini yangilash va almashtirish, ishlab chiqarish tuzilmasi va tashkil etilishini yaxshilash yo'li bilan, korxonaning texnik darajasini oshirish bo'yicha choratadbirlar majmuasidir. U ishlab chiqarish intensivligini kuchaytirish,

ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini yaxshilashga yo'naltirilgan.

Moliyaviy resurslar va yer tanqisligi sharoitlarida, ikkinchi tomondan esa, mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan unumliroq foydalanish uchun yangi qurilishni nisbatan cheklangan holatda, asosan juda zarur hollardagina amalga oshiriladi. Shu sababli bugungi kunda investitsiyalarning eng ko'p tarqalgan yo'nalishlari sifatida, umuman olganda yangi turdagi mahsulot ishlab chiqarishni ham ko'zda tutuvchi mavjud ishlab chiqarishni kengaytirish, qayta tiklash va texnik jihatdan qayta qurollantirishni ko'rsatish mumkin.

Yangi qurilish hamda mavjud ishlab chiqarishni kengaytirish va qayta tiklashga yo'naltiriluvchi kapital qo'yilmalar asosan quyidagi elementlardan iborat bo'ladi:

- qurilish-montaj ishlari xarajatlari;
- mashina va uskunalar sotib olishga sarflanuvchi xarajatlar;
- loyiha-qidiruv va boshqa ilmiy ishlanmalarga sarflanuvchi xarajatlar.

Kapital qo'yilmalarning yuqoridagi turlari *investitsiyalarning texnologik tuzilmasini* tavsiflaydi. Hozirgi paytda iqtisodiyot rivojlanishiga kiritiluvchi kapital qo'yilmalarning umumiy hajmida quyidagi tuzilma vujudga keldi: qurilish-montaj ishlari xarajatlari- 55-60 foiz, mashina va uskunalar sotib olishga sarflanuvchi xarajatlar - 35-30 foiz, loyiha-qidiruv va boshqa ilmiy ishlanmalarga sarflanuvchi xarajatlar – 10 foiz.

Kapital qo'yilmalarning mulk shakliga ko'ra tuzilmasi - bu, investitsiyalarning davlat, aksiyadorlik, qo'shma, ijara va boshqa turdagi jamoa korxonalarini o'rtasida taqsimlanishidir.

U kapital qo'yilmalardan foydalanish, shuningdek, ularning shakllanish tartibi va manbalari nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, kapital qo'yilmalarning samarali tuzilmasi ularni tejash, eng kam xarajatlar bilan eng ko'p foyda olishga tengdir.

Investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tuzilmasi yangi qurilish hamda mavjud ishlab chiqarishni kengaytirish, qayta tiklash va texnik jihatdan qayta qurollantirishga sarflanuvchi xarajatlari o'rtasidagi o'zaro nisbatni ifodalaydi.

11.2. Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholash

Umuman olganda samaradorlik muayyan natijalarga erishishni anglatadi. U saraflangan xarajatlar va olingan natijalar nisbati asosida aniqlanadi. Xarajatlar qanchalik kam va natijalar qanchalik ko'p bo'lsa, samaradorlik ham shunchalik yuqori bo'ladi.

Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligi butun ishlab chiqarish samaradorligining tarkibiy qismidir. Turli darajadagi xo'jalik faoliyatida investitsiyalarning iloji boricha ko'proq foyda, qaytim keltirishi asosiy vazifa qilib belgilanadi. Bu qoidadan chetga chiqish resurslarni yo'qotish, jamiyatning ilgarigi va hozirgi mehnatini yo'qqa chiqarishga olib kelishi mumkin.

Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholash zarurati, qo'shimcha kapital qo'yilmalar kiritilishini talab qiluvchi yangi qurilish, mavjud ishlab chiqarishni kengaytirish, qayta tiklash va texnik jihatdan qayta qurollantirish, ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish va tashkiliy-texnik chora-tadbirlarni ishlab chiqish kabi barcha hollarda yuzaga keladi. Ba'zan mahsulotlarning yangi turini ishlab chiqarish ham investitsiya va boshqa mablag'lar kiritilishini, demak, xarajat va natijalar nisbatini avvaldan baholashni talab qiladi.

Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholashda korxonalar ikkita vazifani hal qilishlari lozim:

birinchisi - kapital qo'yilmalarning qoplanish muddati va daromadliligi nuqtayi nazaridan, eng maqbul variant tanlash imkoniyatini yaratuvchi investitsion loyiha samaradorligini baholash;

ikkinchisi - mavjud ishlab chiqarishga ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini yaxshilash maqsadida kiritiluvchi investitsiyalar samaradorligini baholash (qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarish, tannarxni kamaytirish, foydani oshirish va hokazo).

Birinchi vazifaning yechimi mos keluvchi marketing tadqiqotlarini amalga oshirishni ko'zda tutib, bu tadqiqot davomida talab va undan kelib chiquvchi taklif, bozor segmentatsiyasi, bahoni shakllantirish strategiyasi, moliyalashtirish manbalari va boshqalar aniqlanishi lozim. Investitsion loyihani muqobillik asosida tanlagandan so'ng birlamchi-ruxsat beruvchi hujjatlarni, texnik va boshqa qarorlarni, jumladan, muhandislik ta'minoti, atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha chora-tadbirlar tayyorlashishlari amalga oshiriladi.

Investitsion loyihani tayyorlash va shunga mos ravishda investitsiyalar samaradorligini baholash zarurati ko'p holarda yangi korxonalar, sexlar qurish yoki mavjud ishlab chiqarishni qayta tiklash va kengaytirish bilan bog'liq bo'ladi. Bularning barchasi nafaqat makonda, ya'ni ma'lum bir hududda, yer maydonida, balki vaqtda amalga oshirilishi sababli, vaqt muddati loyihani amalga oshirish, jumladan, korxonani tashkil qilish (qayta tiklash, kengaytirish) hamda ekspluatatsiya qilish va tugatish muddatidan kelib chiqqan holda hisoblanadi.

Investitsion loyihalarning samaradorligini baholashda quyidagilar asosiy ko'rsatkich hisoblanadi:

1) **Sof diskontlangan daromad (SDD)** - butun hisobot davri uchun joriy samaralar yig'indisining boshlang'ich qadamga keltirilgan miqdori yoki integral natijalarning integral xarajatlardan oshib ketishi. U quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$SDD = \sum_{t=0}^T (N_t - X_t) \frac{1}{(1+E)^t}$$

Bu yerda:

N_t - hisob-kitoblarning t -qadamida erishiluvchi natijalar;

X_t - xuddi shu qadamda amalga oshiriluvchi xarajatlar;

T - hisob-kitoblarning vaqt muddati;

E - diskont normasi.

Agar investitsion loyihaning SDD miqdori ijobiy bo'lsa, u holda loyiha samarali, ya'ni investitsiya mablag'lari darajasining qabul qilingan diskont normasini ta'minlovchi hisoblanadi.

Xarajatlar va ularning natijalari miqdorini keltirish ularni *diskontlash koeffitsiyenti* (d_t) ga ko'paytirish asosida amalga oshirilib, bunda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$d_t = \frac{1}{(1+E)^t}$$

Bu yerda:

t - natijalarni olish (xarajatlarni amalga oshirish) davridan taqqoslash davrigacha bo'lgan muddat bo'lib, yillarda o'lchanadi.

Diskont normasi (E) - boshqa investorlar o'z mablag'larini xuddi shu turdagi loyihalarni amalga oshirish uchun kiritishga rozi bo'luvchi, kapitalning daromadlilik koeffitsiyenti (daromad miqdorining kapital qo'yilmalarga nisbati).

Agar diskont normasi vaqt davomida o'zgaradigan bo'lsa, diskont koeffitsiyenti (d_t) quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$d_t = \frac{1}{\prod_{k=1}^t (1 + E_k)}$$

Bu yerda:

E_k – k-yildagi diskont normasi;

t- hisobga olinuvchi vaqt muddati, yil.

Investitsion loyihalarning samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlashda mahsulot va iste'mol qilinuvchi resurslarning bazis, bashorat qilinuvchi, jahon va hisobiy baholaridan foydalaniladi.

2) Investitsiyalarning daromadlilik indeksi (ID) - keltirilgan samaraning investitsiyalar miqdoriga (K) nisbati bo'lib, quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$ID = \frac{1}{K} \sum_{t=0}^T (N_t - X_t) \frac{1}{(1 + E)^t}$$

Agar daromadlilik indeksi birga teng yoki undan katta bo'lsa, investitsion loyiha samarali, aks holda esa samarasiz hisoblanadi.

3) Ichki daromadlilik normasi (IDN) - keltirilgan samara miqdori keltirilgan investitsiya miqdoriga teng bo'lgan holdagi diskont normasi (E_{ich}), ya'ni E_{ich} (IDN) quyidagi tenglik orqali aniqlanadi:

$$\sum_{t=0}^T (N_t - X_t) \frac{1}{(1 + E_{ich})^t} = \sum_{t=0}^T \frac{K_t}{(1 + E_{ich})^t}$$

Ushbu formula asosida aniqlangan daromadlilik normasi miqdori investorning kapitalga talab qiluvchi daromad miqdori bilan taqqoslanadi. Agar IDN talab qilinuvchi daromad normasiga teng yoki undan katta bo'lsa, u holda loyiha samarali hisoblanadi.

4) Investitsiyalarning qoplanish muddati (T_i) - investitsion loyihani amalga oshirishni boshlashdan to natijalarga erishishgacha bo'lgan minimal vaqt muddati. U quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$T_i = \frac{I}{P_m}$$

Bu yerda:

I_s – sof investitsiyalar;

P_m – loyiha keltiruvchi o'rtacha yillik pul mablag'lari oqimi, so'm.

Shu bilan birga qoplanish muddati loyihaning daromadlilik ko'rsatkichi hisoblanmaydi. Shu sababli amaliyotda investitsiyalar birlamchi kapital (qo'yilma)ga nisbatan daromadlilik ko'rsatkichi orqali ko'rib chiqiladi hamda quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$D_i = \frac{M_n}{K} \times 100$$

Bu yerda:

D_i – investitsiyalar daromadi, foizda;

M_n – soliqlar to'langandan so'ng qolgan foyda, so'm;

K - investitsiyalar (boshlang'ich).

U yoki bu investitsion loyihani tanlash to'g'risida qaror qabul qilishda korxonalar quyidagi savollarga javob berishi lozim:

- ishlab chiqarishdagi bugungi holat qancha davom etishi mumkin va bozorda mahsulotga (ish, xizmatga) bo'lgan talab qanday;
- kapital kiritish uchun imkoniyatlar qanday;
- raqobatchilik faoliyati qanday;
- qanday muvaffaqiyat omillari mavjud;
- yangi bozorga kirish uchun qanday imkoniyatlar mavjud.

Iqtisodiy samaradorlikni baholashning *ikkinchi holatida*, ya'ni mablag'larni mavjud ishlab chiqarishga kiritishda quyidagi ko'rsatkichlar qo'llaniladi:

a) investitsiyalarning har bir so'miga to'g'ri keluvchi qo'shimcha mahsulot quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$E = \frac{(YaM_1 - YaM_0)}{I_k}$$

Bu yerda:

E – investitsiyalar samaradorligi;

YaM_0 , YaM_1 – yalpi mahsulot, mos ravishda birlamchi va qo'shimcha investitsiyalarda;

I_k – qo'shimcha investitsiyalar miqdori.

b) investitsiyalarning har bir so'miga tannarxning pasayishi:

$$E = \frac{Q (TH_0 - TH_1)}{H_x}$$

Bu yerda:

TN_0 , TN_1 - mahsulot birligi tannarxi, mos ravishda, birlamchi va qo'shimcha investitsiyalarda;

Q – qo‘shimcha investitsiyalar kiritilgandan keyingi yillik mahsulot hajmi, natural o‘lchov birligi;

v) investitsiyalarning har bir so‘miga mahsulot ishlab chiqarishdagi mehnat xarajatlarini qisqartirish:

$$E = \frac{Q (M_0 - M_1)}{I_d}$$

Bu yerda:

M_0, M_1 – mahsulot birligiga ishlab chiqarishda sarflanuvchi mehnat xarajatlari, mos ravishda qo‘shimcha investitsiyalar kiritilguncha va undan so‘ng

g) investitsiyalarning har bir so‘miga foydani oshirish:

$$E = \frac{Q (F_1 - F_0)}{I_d}$$

Bu yerda:

F_0, F_1 – mahsulot birligiga to‘g‘ri keluvchi foyda, mos ravishda qo‘shimcha investitsiyalar kiritilguncha va undan so‘ng.

e) investitsiyalarning qoplanish muddati.

Investitsiyalar samaradorligini keltirilgan formulalar asosida (boshqaruv darajasini inobatga olgan holda) aniqlash ishlab chiqarishni rivojlantirishga qancha miqdorda investitsiya kiritilgan va uning natijasi qanday degan savolga javob beradi, ya‘ni u investitsiyalarning mutlaq (absolut) samaradorligini tavsiflaydi.

Amaliyotda ko‘pincha investitsion qarorlarning turli xil variantlari ko‘rib chiqilib, ulardan eng maqbulini tanlab olishga harakat qilinadi. Bu maqsadda kapital qo‘yilmalarning solishtirma iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari qo‘llanib, ular quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$E_n = TN \cdot Q \cdot E_n \times K \longrightarrow \min$$

Bu yerda:

TN - mahsulot tannarxi;

K - kapital qo‘yilmalar;

E_n - kapital qo‘yilmalarning samaradorlik normasi.

Agar investitsion qarorlarning bir nechta variantlari ko‘rib chiqiladigan bo‘lsa, keltirilgan xarajatlar eng minimal bo‘lgan variant tanlab olinadi.

Iqtisodiy samardorlikni baholash jarayonida kiritiluvchi investitsiyalarning qoplanish muddatini aniqlashning o'ziga xos o'rni bo'lib, u quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$T_{ok} = K / (F_{r1} - F_{r0})$$

Bu yerda:

K- asosiy ishlab chiqarish fondlariga kiritiluvchi kapital qo'yilmalar hajmi;

F_{r1} - rejalashtirilayotgan davrning so'nggi yilidagi foyda;

F_{r0} - bazis yildagi foyda (rejadan oldingi davrning so'nggi yili).

Kapital qo'yilmalarning samardorlik koeffitsiyenti qoplanish muddatiga teskari bo'lgan kattalikdir. U quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$E = (F_{r1} - F_{r0}) / K$$

Vaqt omili, ayniqsa, investor (buyurtmachi) nuqtayi nazaridan kiritilayotgan resurslarning haqiqiy samardorligini ta'minlashda katta ahamiyat kasb etadi. Shu sababli qurilish, qayta tiklash va kengaytirish, shuningdek, mavjud ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish ishlari qanchalik tez bajarilsa, investor va pudratchi uchun shunchalik foydali bo'ladi.

Qurilgan obyektни muddatidan avval foydalanishga topshirishdan olinuvchi qo'shimcha foyda (E_{kf}) orqali iqtisodiy samara quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$E_{kf} = E_n F (T_{sh} - T_a)$$

Bu yerda:

E_n - samardorlikning normativ koeffitsiyenti;

F-muddatidan avval foydalanishga topshiriluvchi asosiy fondlar qiymati;

T_{sh} - obyektни foydalanishga topshirishning shartnomadagi muddati;

T_a - obyektни foydalanishga topshirishning amaldagi muddati.

Obyektlarni foydalanishga topshirishning shartnomadagi va amaldagi muddatlari o'rtasidagi farq mazkur formulada ($T_{sh} - T_a$) yil ulushida aks ettirilishi lozim (vaqt ko'rsatkichi).

Agar $T_{sh} < T_a$ bo'lsa, ya'ni obyektни foydalanishga topshirish muddati o'tib ketadigan bo'lsa, investor kutilayotgan foydani olishdan mahrum bo'ladi va boshqa chiqimlarga duch kelib, bu narsa hisobiy samaraning salbiy bo'lishiga olib keladi. Shu sababli qurilish yoki korxonani qayta tiklash va kengaytirish ishlari, obyektlarning sifat ko'rsatkichlariga ta'sir ko'rsatmagan holda qanchalik tez amalga

oshirilsa, investitsiyalar samaradorligi mos ravishda shunchalik yuqori bo'ladi.

Misol. Mini-zavod qurilishining smetaga ko'ra qiymati 14,5 mln so'mni tashkil etadi.

Qurilishning normativ muddati - 2,5 yil. Amalda zavodni 2 yilda qurib bitkazish mo'ljallanmoqda. Zavodning asosiy fondlari qiymati oshishiga olib kelmaydigan xarajatlar qiymati 450 ming so'mga teng. Samaradorlikning normativ koeffitsiyenti - 0,2.

Zavodni muddatidan oldin qurib bitkazishning iqtisodiy samarasi quyidagicha:

$$E_{dp} q 0,2 (14,5 - 0,45) * (2,5 - 2) = 1,4 \text{ mln. so'm.}$$

Tayanch iboralar

Investitsiyalar, kapital qo'yilmalar, moliyaviy investitsiyalar, real investitsiyalar, investitsiya loyihasi, investitsiyalarning ichki manbalari, investitsiyalarning tashqi manbalari, lizing, yangi qurilish, korxonani kengaytirish, qayta tiklash, texnik qayta qurollantirish, kapital qo'yilmalarning mulk shakliga ko'ra tuzilmasi, investitsion loyihalarning samaradorligini baholash, investitsiyalarning qoplanish muddati.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Investitsion siyosat nima va u davlat va korxonalar miqyosida qanday maqsadlarni ko'zda tutadi?

2. "Investitsiyalar" va "kapital qo'yilmalar" tushunchalari o'rtasidagi farqlarni tavsiflab bering.

3. Investitsion jarayonlarni qaysi asosiy bosqichlar tavsiflaydi?

4. Investitsiyalar tarkibi va strukturasi nima va ularning korxonalar iqtisodiyotiga ta'siri qanday?

5. Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini aniqlashning qaysi usullari sizga ma'lum?

6. Korxonalar investitsion siyosatining mohiyati nimada?

7. Investitsiyalarning eng samarali variantini tanlashda qaysi usuldan foydalanish maqsadga muvofiq?

8. Investitsiyalar samaradorligini oshirishning asosiy yoʻnalishlaridan qaysilarini bilasiz?

9. Investitsiyalarning qoplanish muddati nima va u qanday aniqlanadi?

10. Respublikada amalga oshirilayotgan eng mashhur investitsion loyihalarni aytib bera olasizmi?

XII BOB. CHET EL INVESTITSİYALARI VA ULARNI JALB ETISH BO'YICHA INVESTITSION SIYOSAT

12.1. Davlatning investitsion siyosati

Investitsiyalashni ko'p tomonlama jarayon sifatida ko'rib chiqish mumkin. Ta'rifga ko'ra, "Investitsiya (lotin tilidan investire – qo'yish, joylashtirish; ingliz tilidan investmens – kapital qo'yilmalar) – yuridik mustaqil korxonaga uzoq muddatga (minimum 1 yildan ortiq muddatga) qo'shimcha foyda olish maqsadida yoki ta'sir o'tkazish maqsadida kapitalni joylashtirishdir".

Investitsiya siyosati–investitsiya faoliyatini jonlantirish, iqtisodiyotni yuksaltirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va ijtimoiy muammolarni hal qilish maqsadida iqtisodiy subyektlar uchun qulay xo'jalik yuritish sharoitlarini yaratishga qaratilgan maqsadli tadbirlar majmuidir. Davlatning tashqi investitsiya siyosati – bu tashqi investitsion oqimlarni davlat tomonidan tartibga solish chora-tadbirlari tizimidir.

Investitsiya siyosati davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi borasidagi aniq maqsadga qaratilgan faoliyatning eng muhim doimiy vositalaridan biri hisoblanadi. Bunday siyosat davlatning butun siyosiy sohasining asosiy o'zagini tashkil etadi yoki boshqacha aytganda, bu butun davlat siyosiy faoliyatining negizidir. Mamlakat ishlab chiqarish salohiyatining oshishi, iqtisodiy o'sish sur'atlari, moddiy va ma'naviy ne'matlarni ishlab chiqarish hajmi va sifatining oshishi, jamiki infratuzilmaning rivojlanishi ko'p jihatdan investitsiyalarga va investitsiya siyosatiga bog'liq bo'ladi. Investitsiya siyosati davlatning jamiyatda moddiy ne'matlarni takror ishlab chiqarishni tashkil etishga investitsiya vositalarini safarbar qilishga doir funksiyasidir. Davlat siyosatining ushbu sohasi tashkiliy-huquqiy jihatdan olganda, uning tegishli organlarining bunday siyosatning maqsadlari va vazifalarini belgilash, uni amalga oshirish uchun mablag'larni qidirib topish borasidagi faoliyatidan iborat bo'ladi.

Iqtisodiy o'sishda oqilona investitsiya siyosatini ishlab chiqish yetakchi o'rin tutadi. Investitsiya siyosatini samarali amalga oshirish uchun qulay investitsiya muhitini yaratishga xizmat qiladigan qator institutlarni tashkil etish lozim. Jahon iqtisodiyotida samarali amal qiluvchi model bozor tizimiga tayanadi va milliy iqtisodiyotning afzalliklaridan to'liq foydalanadi. O'zbekistonda investorlar uchun ko'p jihatdan beqiyos, o'ta qulay investitsion muhit, imtiyoz va preferensiyalar tizimi yaratilgan deb aytishga barcha asoslarimiz bor. Iqtisodiyotimizga jalb qilinayotgan xorijiy investitsiyalar hajmi yildan yilga ortib borayotgani ham buning yorqin dalilidir.

Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish, korxonalarining investitsiya faoliyatini jadallashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirish dasturini amalga oshirishda xorijiy investitsiyalar, avvalo, to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarning o'rnini beqiyosdir. Bunda ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish, yangi ish o'rinlari yaratish va shu asosda mamlakatimiz iqtisodiyotining barqaror va bir maromda rivojlanishini ta'minlash imkoniyati yaratiladi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, chet el investitsiyasi jalb qilinishi mazkur davlatlarning yuksak darajada taraqqiy etishida hal qiluvchi omillardan biri bo'lgan.

Iqtisodiyotdagi tarkibiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, korxonalarining investitsion faoliyatini yanada jonlantirish, xorijiy investitsiyalarni, avvalo, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish va ulardan samarali foydalanish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta qurollantirish, yangi ish o'rinlarini shakllantirish va shu asosda milliy iqtisodiyotimizni barqaror va jadal rivojlantirishni ta'minlash maqsadida respublika budjetidan katta miqdorda mablag'lar ajratilmoqda.

O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilishning hozirgi bosqichida investitsion faoliyatni amalga oshirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish talab etilmoqda. Investitsiya bozorini shakllantirish investitsiya resurslarini to'plash, jang'armalarni investitsiyalarga aylantirish, ulardan foydalanish samaradorligini oshirish muammolarini hal etishning zaruriy sharti hisoblanadi.

Ko'plab mamlakatlar xorijiy qo'yilmalarni jalb etish maqsadida imtiyozli sharoitlarni yaratadi, xususan, kapitalni saqlash va zararlarini qoplashni kafolatlaydi, imtiyozli soliq olishni kiritadi va foydani xorijga erkin o'tkazishga ruxsat beradi, olingan daromadlar boshqalarni qayta investitsiyalashga sharoitlar yaratadi. O'zbekiston ham xorijiy

mablag'larni jalb qilishdan manfaatdordir. Hozirgi vaqtda ular asosan xalqaro tashkilotlar va boshqa mamlakatlar hukumatlari krediti tarzida kelmoqda. Shu bilan birga, respublika xorijiy investitsiyalarga ehtiyoj sezadi, chunki kreditdan farqli ravishda investitsiyalar qarzdor qilib qo'ymaydi, balki ishlab chiqarishni kengaytirish va zamonaviylashtirishga, ilmiy ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirishga bevosita yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasida tarkibiy o'zgarishlarni, iqtisodiyotning soha va tarmoqlarini diversifikatsiya va modernizatsiya qilishni izchil davom ettirish, ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilash, shuningdek, transport, muhandislik, kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish jarayonlarini yanada chuqurlashtirishga qaratilgan faol investitsiya siyosati olib borilmoqda.

Bu mablag'lar, avvalo, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashni amalga oshirayotgan korxonalarining o'z mablag'larini ko'paytirishi, soliq yukini yanada kamaytirish, tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash va aholining tadbirkorlik faoliyatidan oladigan daromadlarini oshirish hisobidan hosil bo'ladi.

Huquqiy jihatdan investitsiya tushunchasi "Iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga sarflanadigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga doir huquqlar" deb ta'riflangan. To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni va yuqori texnologiyalarni, boshqaruv ko'nikmalarini jalb qilish milliy firmalarning ishlab chiqarish usullariga muayyan o'zgarishlarni olib kiradi. Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni modernizatsiyalash nuqtayi nazaridan to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimini rag'batlantirish kerak, ularsiz yuqori texnologiyalarni qo'llab bo'lmaydi. Texnologiyalarning o'zini sotib olish ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlar hamda o'tish iqtisodiyoti davlatlari uchun qimmatga tushadi va ko'pincha buning iloji ham bo'lmaydi. To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar mahalliy firmalarda mavjud yuqori texnologiyalar paketini oshirishi mumkin. Yangi texnologiyalarni mahalliy sharoitlarda moslashtirish ham muhimdir.

12.2. O'zbekiston iqtisodiyotiga chet el investitsiyalarini jalb qilishning zaruriyati

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash, diversifikatsiyalash va tarkibiy o'zgartirish sharoitida oqilona ishlab chiqilgan investitsion siyosat va uzoq muddatga mo'ljallangan keng qamrovli investitsiya dasturlarining

amalga oshirilishi o'zining ijobiy samarasini bermoqda. Mazkur jarayonlarda investitsion faoliyatni jadallashtirish borasidagi ustuvor xalqaro tajribalarga ham tayanilmoqda. Binobarin, O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga dadil va qat'iyatlik bilan kirib borayotganligi mamlakat oldiga investitsion imkoniyatlardan faol tarzda foydalanish, mazkur jarayonlarda tijorat banklarining faol ishtirokini ta'minlash kabi dolzarb va ustuvor vazifalarni qo'yadi. O'zbekistonning bugungi kunda yirik xorijiy investitsiyalarni qabul qiluvchi mamlakatlar qatoriga kirishi uchun barcha iqtisodiy, siyosiy va huquqiy asos hamda shart-sharoitlar yaratilgan. Ushbu yaratilgan shart-sharoitlar mamlakatimizning investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida qulay investitsion faoliyatni shakllantirish mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishining muhim asoslaridan biri hisoblanadi. U kengaytirilgan takror ishlab chiqarish, ilmiy-texnika taraqqiyotining o'sish sur'atlari va ko'lamiga faol ta'sir ko'rsatadi, aholi salmoqli qismining bandligini ta'minlashga sharoit yaratadi. Iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar, mamlakatdagi ishlab chiqarish kuchlarining oqilona joylashtirilishi va rivojlanishi ko'p hollarda investitsiya faoliyatining darajasiga bog'liq bo'ladi. Yangi ishlab chiqarish quvvatlarini va asosiy kapitalarni yaratish hamda amalda faoliyat yurituvchilarini qo'llash uchun yo'naltirilgan kapital qo'yilmalarining ancha qismi investitsiya sohasi orqali o'tishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Investitsiya siyosati har qanday davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida eng muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Chunki shu siyosat orqali mamlakat ishlab chiqarish quvvatining yuqori darajada o'sishi, ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi va sifatining ortishi, moddiy va ma'naviy ehtiyoj qondirilishi, butun davlat infratuzilmasining rivojlanishini ta'minlash mumkin. Hozirgi zamon investitsiya siyosati iqtisodiy tuzilmani o'zgartirishni amalga oshiruvchi asosiy dastak bo'lib, qishloq xo'jaligini zamonaviylashtirish, tabiiy resurs va hududlarni o'zlashtirish, aholini ish bilan ta'minlash, fan-texnikani rivojlantirish, ekologik muammolarni bartaraf etish kabilarni hal etishga qaratilishi kerak. Investitsiya sohasi hozirgi sharoitda bozor iqtisodiyotining milliy va jahon darajasiz mavjud bo'lishi mumkin emas. Chet el investitsiyalaridan foydalanish mamlakat iqtisodiyotining xalqaro mehnat taqsimotidagi ishtiroki va tadbirkorlikning erkin tarmoqlariga kapitalning oqib o'tishi tizimi bilan shartlashgan obyektiv zarurat

hisoblanadi. Yana shuni alohida qayd etish muhimki, investitsiya siyosiy, iqtisodiy huquqiy kafolatlangan sharoitdagina samarali natija berishi mumkin. Ayniqsa, bozor munosabatlariga o'tish davrini boshidan kechirayotgan mamlakatlarda davlat investitsiya jarayonining bosh tashkilotchisi bo'lish va uning asosiy vazifasi bo'lgan ijtimoiy siyosat nuqtayi nazaridan bosh investor bo'lishi zarur.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiya faoliyatining maqsadi bo'lib tadbirkorlik daromadi yoki foizni olish hisoblanadi. Investitsiyalar ularning qaysi soha yoki obyektga qo'yilishi hamda kapitalning ishlab chiqarishdagi ishtirokidan kelib chiqqan holda moliyaviy va real investitsiyalarga bo'linadi.

Moliyaviy investitsiyalar davlat va xususiy kompaniyalar tomonidan chiqarilgan aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar, shuningdek, tezevratsiya obyektlari, bank depozitlariga uzoq muddatli qo'yilmalarni ifodalaydi. Shuningdek, ba'zi manbalarda moliyaviy investitsiyani qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalarni o'z ichiga oluvchi xalqaro moliya-kredit faoliyati sifatida ko'rsatiladi. Fikrimizcha, bu jarayonga faqat xalqaro darajadagi faoliyat sifatida qaralishi noto'g'ri hisoblanadi. Moliyaviy investitsiyadan farqli o'laroq, real investitsiyalar asosiy kapital hamda material ishlab chiqarish zaxiralarning o'sishiga qo'yilmani aks ettiradi.

Rivojlangan mamlakatlarda real investitsiyalarning aksariyat qismini xususiy investitsiyalar tashkil etadi. Iqtisodiyotning davlat sektorida kapital real investitsiyalar orqali, shuningdek, kredit, subsidiyalar berish yo'li bilan iqtisodiy tartibga solish siyosati asosida qo'yiladi. Davlat investitsiyalari eng avval infratuzilma tarmoqlariga yo'naltiriladi. Investitsiyalarning samaradorligi, odatda, faol elementlarning ulushi o'sishi bilan oshib boradi.

Davlat, yuridik shaxslar va fuqarolarning investitsiyalarni amalga oshirish bo'yicha barcha amaliy xatti-harakatlarining yig'indisi investitsiya faoliyatini tashkil etadi. Xususan, qarzga olingan va jalb etilgan mulkiy va intellektual boyliklarni investitsiyalashning u yoki bu obyektlariga qo'yish to'g'risidagi qarorini investitsiya faoliyatining sub'ektlari (investorlar) qabul qiladilar. Investitsiya faoliyatining sub'ekti bo'lib investor yoki bir necha investorlar – tadbirkorlik yoki boshqa faoliyat ishtirokchilari hisoblanishi mumkin. Shuningdek, investitsiyaning mamlakat miqyosi yoki undan tashqarida amalga oshirilishiga qarab ichki va tashqi (xorijiy) investitsiyalarga ajratiladi.

Agar ichki investitsiyada bir mamlakat ichidagi qo'yilmalar nazarda tutilsa, investorlar foyda (daromad) olish maqsadida tadbirkorlik faoliyatiga va boshqa turdagi faoliyat obyektlariga qo'shayotgan mulkiy boyliklarning va ularga nisbatan huquqlarning, shuningdek, intellektual mulkka nisbatan huquqlarning barcha turlari xorijiy investitsiyalari hisoblanadi.

Xorijiy kapital qabul qiluvchilar, ayniqsa, bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida bo'lgan mamlakatlar investitsiya oqimi modelini ishlab chiqishi lozim. Bu model ular uchun har tomonlama asoslangan tashqi iqtisodiy aloqalarni aniqlab beruvchi vosita vazifasini o'taydi. Uning asosiy yo'nalishlari xorijiy sarmoya qabul qiluvchilar uchun quyidagilardan iborat:

- xorijiy investorlarga ta'sir ko'rsatuvchi omillar to'g'risida aniq tushunchaga ega bo'ladi;
- o'z mamlakatidagi iqtisodiy holatni chuqurroq baholash imkoniyatini beradi;
- xorijiy sarmoyadarning xulq-atvorini har tomonlama chuqur bilishga imkoniyat yaratadi.

Demak, o'tish davrida bo'lgan mamlakatlar uchun xorijiy investitsiyalar quyidagi jarayonlarni ta'minlovchi omil hisoblanadi:

- iqtisodiy va texnik jarayonni jadallashtiruvchi;
- ishlab chiqarish apparatini yangilovchi va modernizatsiyalovchi;
- ishlab chiqarishni tashkil qilishning ilg'or usullariga erishuvchi;
- bozor iqtisodiyoti talablariga javob beruvchi kadrlar tayyorlash.

Bu esa yana bir bor qulay investitsion sharoitni yaratish faoliyati hamda uni har tomonlama tartibga solish, maqsadga muvofiq holda yo'naltirishdan iborat bo'lgan investitsiya siyosatining o'tish davrida bo'lgan mamlakatlardagi ahamiyati juda katta ekanligini ko'rsatadi.

12.3. Investitsion muhitning jozibadorligini oshirish

Investitsiya kiritishga oid qaror qabul qilish uchun zarur umumiy mezonlardan biri makro darajada investitsion muhit yaratish va sarmoya kiritilayotgan obyektning investitsion jozibadorligini oshirish hisoblanadi.

Iqtisodiy mavzudagi adabiyotlarda investitsion muhit va investitsion jozibadorlik ko‘pincha sinonim tushunchalar sifatida talqin etiladi. Ammo ularning dastlabkisi juda keng va katta ma‘noga ega. U, ta‘bir joiz bo‘lsa, mamlakat, mintaqa, iqtisodiy hududlar yoki tarmoqdagi investitsiya muhitining asosiy tavsifidir. Investorga investitsiya muhitining reyting bahosini hisobga olgan holda, muayyan obyekt yoki investitsiya loyihasining investitsion jozibadorligini baholash tavsiya etiladi.

Aksariyat mualliflar investitsion muhit muammolariga murojaat etganlarida tadqiq etilayotgan kategoriyalar mazmunini turlicha ta‘riflamoqdalar. Ba‘zilarining fikricha, “investitsion muhit” tushunchasi ma‘lum mintaqada o‘z ijtimoiy-iqtisodiy tizimida amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan investitsiyalar bo‘yicha rivojlanayotgan vaziyatning maqbul darajasini aks ettiradi. Ko‘pincha u “Har qanday davlatda mavjud tadbirkorlik infratuzilmasi sifati, investitsiyalar samaradorligi va kapitalni investitsiyalashda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavf-xatar darajasini belgilovchi siyosiy, ijtimoiy-madaniy, moliyaviy, iqtisodiy va hududiy sharoitlar majmui” deb talqin etiladi. Bu ta‘rifdan “Investitsion muhit korxonaning tashqi muhiti omillaridan biri bo‘lib, korxonaga uchun salohiyatli investorlarning afzal tomonlarini belgilab beradi” degan xulosa chiqarish mumkin. Shunday ekan, investitsion muhit moliyaviy qo‘yilmalar jozibadorligining ma‘lum bir darajasini yaratuvchi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa sharoitlar majmuadir.

Ushbu tushunchani yanada aniqroq talqin etuvchi ta‘riflar ham mavjud. Biroq ko‘pincha investitsion muhitni oldindan belgilab beruvchi investitsion risklar e‘tiborga olinmaydi. Shu bois moliya-kredit ensiklopedik lug‘atida keltirilgan ta‘rif eng to‘g‘ri va to‘liq deb aytilmoqda. Unga ko‘ra, investitsion muhit omillari quyidagilardan iborat:

– iqtisodiy omillar – mahalliy hokimiyat vakolatlari, qonunchilik va jamiyat tuzilmasi barqarorligi, hokimiyatning turli siyosiy guruh va partiyalar o‘rtasida taqsimlanishi, xalqaro munosabatlar holati, qonunchilik bazasining rivojlanish darajasi, investitsiyalarni kafolatlash va himoyalash mexanizmlari mavjudligi, biror-bir sohaga investitsiya kiritishning huquqiy shartlari;

– ijtimoiy omillar – aholi turmushining ijtimoiy sharoitlari, ijtimoiy keskinlik darajasi, ijtimoiy nizolar mavjudligi, ijtimoiy sohaning rivojlanish darajasi;

– iqtisodiy omillar eng ta’siri omillar – mintaqa iqtisodiyotining tuzilmasi, mintaqaning iqtisodiy rivojlanish darajasi, investitsion faollikning ustunlik darajasi, mavjud mahalliy bozorning imkoniyatlari, investitsiya kiritilayotgan tarmoqlar rivojlanishi bo’yicha hukumatning iqtisodiy siyosati, dividendlarni xorijga o’tkazish imkoniyatlari, inflatsiya darajasi, yuqori samaradorlikka ega investitsion obyektlar mavjudligi;

– moliyaviy omillar – hududiy budjet va korxonalar moliyalari o’rtasidagi muvozanat darajasi, soliqqa tortish tizimi, to’lov balansining holati va mintaqadagi korxonalarining rentabelligi;

– resurslar va xomashyo omillari mintaqaning tabiiy resurslar bilan ta’minlangani;

– mehnat omillari mehnat resurslari mavjudligi va ularning malaka darajasi, mehnat resurslarining kasbiy-malakaviy darajasi;

– ishlab chiqarish omillari – soha mutaxassisligi xususiyatlari, ishlab chiqarish uchun kerakli resurslar mavjudligi va joylashtirilishi;

– innovatsion omillar – ilm-fanning rivojlanish darajasi, mintaqadagi ITT yutuqlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, aholining intellektual va ta’lim darajasi;

– infratuzilmaviy omillar – mintaqaning hududiy-geografik holati, infratuzil-maning o’zlashtirilishi, mintaqaning tashkil etilishi va xavfsizligi, telekommu-nikatsiya tizimlari rivojlanishi, investitsion infratuzilmalar mavjudligi, bozor iqtisodiyoti infratuzilmasining rivojlanish darajasi;

– ekologik omillar – atrof-muhitning ifloslanish darajasi, mintaqadagi tabiiy-iqlim sharoitlari;

– jinoiy omillar – hokimiyat tuzilmasining korrupsiyalashgani, mintaqadagi jinoyatchilik darajasi.

Qoidaga binoan, investitsion muhit omillari jamiyatning ularga ta’siri doirasidagi, ya’ni obyektiv va subyektiv imkoniyatlari bo’yicha tasniflanadi. Dastlabki omillar turli-tuman, keyingi omillar esa inson faoliyatiga bog’liq bo’ladi. Shuningdek, investitsiya muhitining ijobiy va salbiy ta’sir ko’rsatuvchi jihatlarni ajratish mumkin. Mana bular mamlakatda qulay investitsiya muhitini yaratish va investitsion faollikni oshirishga yordam beruvchi shartlar sanaladi:

– ichki bozorning yuqori salohiyati;

– daromadning yuqori me’yori;

– raqobatning past darajasi;

– barqaror soliq tizimi;

- resurslarning past narxi: xomashyo, mehnat va moliyaviy resurslar;
- davlat tomonidan ko'rsatiladigan samarali ko'mak.

Quyidagilar esa investitsiya jarayonlari rivojiga to'sqinlik qiladigan va mamlakatda investitsiya muhiti yomonlashuviga olib keladigan omillardir:

- siyosiy beqarorlik;
- ijtimoiy keskinlik, bosqinchilik, mafiya tuzilmalari urushi, diniy va etnik to'qnashuvlar;
- inflatsiyaning yuqori darajasi;
- qayta moliyalashtirishning yuqori stavkasi;
- tashqi va ichki qarzlarning yuqori darajasi;
- budget defitsiti;
- to'lov balansining passiv saldosini;
- qonunchilik yaxshi rivojlanmagani, jumladan, investitsion muhitni tartibga soluvchi qonunlarning bajarilmasligi;
- yuqori tranzaksiya xarajatlar.

Demak, investitsion muhitni salohiyatli investorlarni jalb etuvchi yoki o'zidan uzoqlashtiruvchi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, moliyaviy, tashkiliy-huquqiy va geografik omillar yig'indisi kesimida ko'rib chiqish mumkin.

Mamlakatning tadbirkorlik infratuzilmasi sifati, investitsiyalash samaradorligi va kapital kiritilishida duch kelinadigan risklarning ehtimollik darajasini belgilovchi siyosiy, ijtimoiy-madaniy, moliyaviy-iqtisodiy, huquqiy shart-sharoitlari yig'indisidir. Boshqacha aytganda, investitsiyalash samaradorligining balansi va investitsion xatarlarni investitsion muhit belgilab beradi.

Investitsion xatarlarni belgilovchi omillar. O'rganilayotgan toifa mohiyatini tushunish va uning mazmuni bo'yicha muallif nuqtayi nazarini shakllantirish uchun investitsion muhit rivojlanishiga sabab bo'lgan omillarni tahlil qilish kerak. Investor imtiyozlariga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi mintaqadagi investitsiya muhitning eng muhim elementlaridan biri bo'lgan umumiy omillar orasidan, iqtisodiy mavzudagi adabiyotlarga ko'ra, quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

Investitsion muhitni baholash. Investitsiya muhitni aniq miqdori bo'yicha baholash juda mushkul. Uni ijobiy, salbiy, betaraf (neytral) jihatdan baholash ma'qullangan. Investitsiya muhitini baholash kapital qo'yilmalar oqimlarini maqbullashtirish omili sifatida xizmat qiladi. U konsalting firmalari, banklar, gazetalar, jurnallar, davlat idoralari,

masalan, AQSHda Savdo vazirligi, sug'urta kompaniyalari, pensiya jamg'armalari tomonidan olib boriladi.

Investitsion muhit negizida investitsion jozibadorlik yotadi. Buni investorming investitsiya obyektini tanlashiga ta'sir etuvchi muayyan shartlar mavjudligi deb tushuniladi. Ushbu shartlarga:

– investitsiya salohiyati–investitsion jozibadorlikning miqdor bo'yicha tavsifi;

– investitsion xatar – investitsion jozibadorlik miqdor bo'yicha tavsifi;

– investitsion jozibadorlikni sifatli baholash kiradi.

Investitsion muhitning tadqiq etilayotgan obyektini mamlakatlar, ulardagi mintaqalar, shahar va tarmoqlar hisoblanadi. Investitsion muhitni baholash usullari juda ko'p bo'lib, foydalaniluvchi uslubiyotlar turlichadir. Bir qator davlatlarda, chunonchi, Yaponiyada hech qanday miqdoriy baholovlarsiz tavsiflanuvchi usullar qo'llaniladi. Lekin iqtisodiy ko'rsatkichlarning raqamlar bilan ifodalangan usuli juda keng tarqalgan. Ba'zi davlatlar o'rtasida muhim iqtisodiy va siyosiy farqlarni hisobga olgan holda, milliy iqtisodiyotning turli yo'nalishlari bo'yicha aniq afzalliklarni oydinlashtirish o'ta qiyin ish. O'tish iqtisodiyotiga ega mamlakatlar, jumladan, Rossiya Beri indeksi usulidan foydalanadi. Baholash 15 ta mezon bo'yicha olib borilib, foizlarda o'lchanadi: siyosiy barqarorlik – 12, iqtisodiy o'sish sur'ati – 10, valuta konvertatsiyasi va hokozalar – 10, uzoq muddatli kreditlash imkoniyati va xorijiy investor tomonidan kapitalning ulushiga hissa qo'shish shartlari – 8, qisqa muddatli kreditlash imkoniyati – 8, ish haqi va mehnat samaradorligiga xarajatlar – 8, devalvatsiya – 8, to'lov balansining holati – 6, shartnomani amalga oshirish imkoniyati – 6, xorijiy investitsiyalar va daromadlarga munosabat – 6, milliy lashtirish imkoniyati: ommaviylashtirishdan boshlab to rezidentlar afzalliklarigacha – 6, byurokratik tartibotlarni davlat tomonidan tartibga solish darajasi – 4, mahalliy boshqaruv va hamkorlik – 4, transport va aloqani tashkillashtirish – 4, ekspertlar va xizmatlardan foydalanish imkoniyati – 2.

Har bir mezon birdan nomaqbul to'rtgacha juda qulay ballarda baholandi. Beri indeksi sintetik ko'rsatkich bo'lib, alohida komponentlar mezonlarining ekspert baholari ballari yig'indisidir. Ushbu usul asosan xatarlarni baholash borasida gap ketganda, ma'lum darajada subyektiv, avvalo, siyosiy fikrlarga duch kelgan.

Investitsion muhitni baholashda turli milliy va xalqaro agentliklar bergan reyting muhim ahamiyatga ega. Yirik va juda mashhur reyting agentliklari birinchi bo'lib AQSHda tashkil etilgan. Moody's Investors, Standard & Poor's, Fitch – IBCA agentliklari shular sirasidan. Ular o'ndan ortiq mamlakatda o'z vakolat-xonalariga ega bo'lib, barcha davlatlarga barobar standartlar asosida faoliyat yuritadi hamda baholashning bir xil usuli va reyting shkalalaridan foydalanishadi. Bu, bir tomondan, ijobiy holat hisoblanadi, boshqa tomondan, xalqaro moliyaviy bozorlarga mo'ljallangan reytinglar milliy va mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olmaydi.

Investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish yo'llaridan yana biri-bu mamlakat hududlariga investitsiyalarni jalb qilishda nomutanosibliklarni bartaraf etish hisoblanadi. Bularga kuyidagilarni kiritish mumkin:

- yirik xomashyo zaxiralari mavjud bo'lmagan mintaqalarda investitsion faollik past darajada saqlanib qolishi natijasida iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha mintaqalar o'rtasida katta tafovut paydo bo'lmoqda;

- ba'zi mintaqalar va qishloq joylarda axborot – kommunikatsiya, elektr, gaz va suv ta'minoti, transport yo'llari tarmoqlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi, qimmatli qog'ozlar bozorining deyarli mavjud emasligi, qurilishga ruxsat olish, bojxonada rasmiylashtirish jarayonlarining murakkabligi konvertatsiyadagi muammolar jozibador investitsiya muhitini shakllantirishga to'sqinlik qilmoqda;

- iqtisodiyotga jalb qilinayotgan investitsiya resurslarining katta qismi gaz, energetika, rangli metallurgiya kabi tabiiy xomashyo resurslarini o'zlashtirish bilan bog'liq tarmoqlarga yo'naltirilgani uchun xorijiy investitsiyalar asosan bir necha mintaqalardagina to'planib qolmoqda;

- iqtisodiyotni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarga ega bo'lgan yengil va oziq-ovqat sanoati, mashinasozlik, elektronika, mikrobiologiya, farmasevtika, zamonaviy qurilish materiallari ishlab chiqarish kabi asosan yuqori texnologiyali tarmoqlarga investitsiyalar kiritish nisbatan ortda qolmoqda.

12.4. Iqtisodiyotga chet el investitsiyalarini jalb qilishning huquqiy asoslari

Har qanday mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining poydevorini yotqizishda albatta jamiyatni taraqqiy ettirishning fundamenti

hisoblanmish me'yoriy-huquqiy asosni yaratadi. O'zbekiston Respublikasida ham mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab investitsion faoliyatni yuritish, milliy iqtisodiyotga kechayotgan modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonini yanada jadallashtirish, iqtisodiy subyektlar va investorlarni ijtimoiy-iqtisodiy islohatlarda faol qatnashishini ta'min etish uchun mamlakat iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb etishning me'yoriy huquqiy asoslarini yaratishga qaratdi.

Jamiyatdagi investitsion jarayonni tartibga solish, milliy iqtisodiyotda kapital qo'yilmalar yo'nalishini belgilab berish, investorlar tomonidan biznes loyihalarni moliyalashtirilishini rag'batlantirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqilgan va qabul qilingan me'yoriy aktlar va tashkiliy-huquqiy hujjatlarni quyidagilarga tasniflash mumkin:

- milliy iqtisodiyotdagi investitsiya faoliyatiga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlar;

- investitsiya faoliyatini shakllantiruvchi, tartibga soluvchi va yurituvchi davlat institutlari to'g'risidagi tashkiliy-huquqiy hujjatlar;

- soha va tarmoqlar iqtisodiyotiga investitsiya kiritish, rekonstruksiya qilish hamda qurilish ishlarini olib borishga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar;

- investitsiya faoliyatining mintaqaviy jihatlari bilan bog'liq me'yoriy-huquqiy hujjatlar;

- milliy iqtisodiyotdagi investitsiya jarayoniga qatnashuvchi iqtisodiy subyektlarga qaratilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar;

- investitsiya faoliyati bilan bilvosita bog'liq boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar va hokazo.

O'zbekiston Respublikasida investitsiya jarayoniga doir qabul qilingan me'yoriy aktlar va tashkiliy-huquqiy hujjatlar ichida milliy iqtisodiyotdagi investitsiya faoliyatiga doir hujjatlar birlamchi xususiyatni kasb etdi.

Mamlakatda investitsion jarayonlarni tartibga solish, investitsiya faoliyatini yuritishga oid eng asosiy me'yoriy-huquqiy hujjat bu "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni hisoblanadi. Mazkur qonunning maqsadi investitsiya faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Ushbu qonunda shuningdek, investitsiya jarayonlariga bog'liq atama, ta'rif va asosiy tushunchalarning mohiyati ochib berilgan.

Milliy iqtisodiyotdagi investitsiya faoliyatiga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlar turkumiga investitsion jarayon bilan bevosita bog'liq tashkiliy-huquqiy aktlar va qonun hujjatlari kiritildi. Masalan, "Investitsiya va pay fondlari to'g'risida" (9.12.2014 y. O'RQ-380-son) va "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risidagi (22.07.2008-y. O'RQ-163-son) O'zbekiston Respublikasining Qonunlari, "O'zbekiston Respublikasida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonini yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida" (15.03.1994 y. PF-789-son), "Urgut", "G'ijduvon", "Qo'qon" va "Hazorasp" erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to'g'risida" (12.01.2017 y. PF-4931-son) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yilgi Investitsiya Dasturi to'g'risida (23.12.2016 y. PQ-2697-son) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, "Tender savdolarini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" (21.11.2000 y. 456-son) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori va boshqalarni keltirib o'tish mumkin.

Dastavval, ta'kidlash lozimki, milliy iqtisodiyotda investitsiya siyosatini yurituvchi institutsional subyekt davlat hisoblanib, u o'zining muayyan instituti yoki davlat tashkilotlari orqali investitsiya faoliyatini tartibga soladi va yuritadi.

O'zbekiston Respublikasida investitsiya jarayoniga doir qabul qilingan me'yoriy aktlar va tashkiliy-huquqiy hujjatlar tasnifining ikkinchi guruhiga milliy iqtisodiyotda investitsiya faoliyatini shakllantirish, tartibga solish va yuritish bo'yicha davlat institutlari, ularning nizomi hamda ular faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida me'yoriy-huquqiy hujjatlar majmuasi kiritildi.

Investitsiya faoliyatini shakllantiruvchi, tartibga soluvchi va yurituvchi davlat institutlari to'g'risidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar ichida "O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 31-martdagi PF-4996-sonli Farmoni investitsiya siyosatini yurituvchi davlatning institutsional subyekti shakllanishiga qaratilgan tashkiliy-huquqiy hujjat sifatida ulkan ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi yagona davlat investitsiya siyosati shakllantirilishini muvofiqlashtirish va amalga oshirish, shuningdek chet el investitsiyalarini jalb qilishga mas'ul vakolatli davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.

**Milliy iqtisodiyotdagi investitsiya faoliyatiga doir
me'yoriy-huquqiy hujjatlar**

№	Me'yoriy-huquqiy hujjatlar nomi	Me'yoriy - huquqiy hujjatlar raqami, sanasi va uni qabul qilgan tashkilot nomi
1	“Investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni	O‘zR 1998-yil 24-dekabrda qabul qilingan O‘RQ-719-1-sonli Qonuni
2	“Investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zR Qonuniga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish haqida	O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 9-dekabrda qabul qilingan O‘RQ-380-sonli Qonuni
3	Investitsiya va pay fondlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasining Qonuni	O‘zR 2015-yil 25-avgustdagi O‘RQ-392-sonli Qonuni
4	Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risidagi O‘zRning Qonuni	O‘zRning 2008-yil 2-iyulda qabul qilingan O‘RQ-163-sonli Qonuni
5	Investitsiya va xususiylashtirish investitsiya fondlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 25-sentyabrdagi 410-sonli Qarori
6	“O‘zbekiston Respublikasining 2017-yilgi Investitsiya dasturi to‘g‘risida	O‘zR Prezidentining 2016-yil 23-dekabrda qabul qilingan qarori
7	“Investitsiya loyihalarining loyiha oid hujjatlarini ishlab chiqish sifatini oshirish to‘g‘risida”	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-martdagi PQ-2836-sonli Qarori
8	Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 26-oktyabrdagi PF-4853-son Farmoni
9	O‘zR Davlat raqobat qo‘mitasi huzuridagi qimmatli qog‘ozlar bozorini muvofiqlashtirish va rivojlantirish markazining faoliyatini tashkil etish masalalari to‘g‘risida	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 30-martdagi 126-sonli Qarori
10	O‘zbekiston Respublikasida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonini yanada rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 15-martdagi PF-789-son Farmoni
11	“Toshkent” Respublika fond birjasining samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlash va qimmatli qog‘ozlar bozori infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 8 iyundagi 285-sonli Qarori
12	Tender savdolarini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 21 noyabrdagi 456-sonli qarori

Manba: <https://nrm.uz> va <http://www.lex.uz> saytlari ma’lumotlari

**Investitsiya faoliyatini shakllantiruvchi, tartibga soluvchi
va yurituvchi davlat institutlari to'g'risidagi
tashkiliy-huquqiy hujjatlar**

№	Me'yoriy-huquqiy hujjatlar nomi	Me'yoriy - huquqiy hujjatlar raqami, sanasi va uni qabul qilgan tashkilot nomi
1.	O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida	O'zb. Resp. Prezidentining 2017-yil 31-martdagi PF-4996-sonli Farmoni
2.	O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida	O'zb. Resp. Prezidentining 2017-yil 4-apreldagi PQ-2868-sonli qarori
3.	O'zbekiston Respublikasi investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida	Vazirlar Mahkamasining 23.06.2017-yildagi 415-sonli qarori
4.	O'zRning Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi, jamg'arma mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish prinsiplari to'g'risida nizom	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 16-maydagi PQ-350-sonli qaroriga 2-ilova
5.	O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasini tashkil etish va uning faoliyati masalalari to'g'risida	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 30.08.1993 y. 441-sonli Qarori
6.	O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi to'g'risida Nizom	O'zR VM 01.08.2017 y. 571-son qaroriga 1-ilova
7.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Arxitektura ishlari va qurilish ishlari sifatini nazorat qilish inspeksiyasini tashkil etish to'g'risida	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 5-noyabrdagi 296-sonli qarori
8.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Alohida muhim ijtimoiy, madaniy va tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash direksiyasining Ustavi	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-iyundagi 376-sonli qarori
9.	Qurilish birlashmasi aksiyadorlik jamiyatini davlat unitar korxonasi etib qayta tashkil etish to'g'risida	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.12.2017-y. PQ-3449-sonli Qarori
10.	O'zbekiston Respublikasi Davlat raqobat qo'mitasi huzuridagi Qimmatli qog'ozlar bozorini muvofiqlashtirish va rivojlantirish markazi to'g'risida nizom	Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 30-martdagi 126-son qarorining 3-ilovasi

Manba: <https://nrm.uz> va <http://www.lex.uz> saytlari ma'lumotlari

O'zbekiston Respublikasi investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida Vazirlar Mahkamasining 23.06.2017-yildagi 415-sonli qaroriga asosan "O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni bajaradi. Birinchidan, yagona davlat investitsiya siyosatini shakllantirish va yuritish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtiradi, chet el investitsiyalarini jalb qilish sohasidagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqadi.

Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasining har yilgi Investitsiya dasturlari, mintaqaviy va tarmoq investitsiya dasturlari, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish dasturlari, shuningdek investitsiyaviy loyihalarni shakllantiradi.

Uchinchidan, chet el investitsiyalarini jalb qilish, shuningdek O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlar, xalqaro moliya institutlari, chet el hukumatlari moliya tashkilotlari, xorijiy banklar, fondlar, agentliklar, kompaniyalar va xalqaro huquqning boshqa subyektlari bilan investitsiyaviy hamkorlikni olib boradi.

To'rtinchidan, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, O'zbekiston Respublikasining chet eldagi diplomatik vakolatxonalari va O'zbekiston Respublikasining xalqaro tashkilotlardagi doimiy vakillarining, savdo-iqtisodiy masalalar bo'yicha maslahatchilarining chet el investitsiyalarini jalb qilishning asosiy yo'nalishlarini belgilash va amalga oshirish, shuningdek, xalqaro moliya institutlari va chet el investorlar bilan investitsiyaviy hamkorlikni amalga oshirish borasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi.

Beshinchidan, O'zbekiston Respublikasining chet mamlakatlar, xalqaro moliya institutlari, chet el hukumatlari moliya institutlari, yetakchi xorijiy kompaniyalar va bank tuzilmalari bilan investitsiyaviy hamkorlik borasidagi xalqaro shartnomalarini tayyorlash, kelishish va belgilangan tartibda imzolashda qatnashish bo'yicha takliflar kiritadi.

Qayd etish joizki, milliy iqtisodiyotda investitsiya faoliyatini shakllantirish, tartibga solish va yuritish bo'yicha davlat institutlari va ularning faoliyatiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar turkumiga "O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasini tashkil etish to'g'risida" (11.05.2006 y. PF-3751-son) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, "Qurilish birlashmasi aksiyadorlik jamiyatini davlat unitar korxonasi etib qayta tashkil etish to'g'risida"

(28.12.2017 y. PQ-3449-son) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, “O‘zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi to‘g‘risida Nizom” (01.08.2017 y. 571-son) va “O‘zbekiston Respublikasi Davlat raqobat qo‘mitasi huzuridagi Qimmatli qog‘ozlar bozorini muvofiqlashtirish va rivojlantirish markazi to‘g‘risida nizom” (30.01.1996 y. 126-son) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va shu asnodagi me‘yoriy-huquqiy hujjatlarni kiritish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasida investitsiya jarayoniga doir qabul qilingan me‘yoriy aktlar va tashkiliy-huquqiy hujjatlar tasnifining uchinchi guruhiga tarmoqlar iqtisodiyotiga investitsiya kiritish to‘g‘risida me‘yoriy-huquqiy hujjatlar majmuasi kiritildi (5.1.3-jadval).

12.3-jadval

**Tarmoqlar iqtisodiyotiga investitsiya kiritish to‘g‘risida
me‘yoriy-huquqiy hujjatlar**

№	Me‘yoriy-huquqiy hujjatlar nomi	Me‘yoriy - huquqiy hujjatlar raqami, sanasi va uni qabul qilgan tashkilot nomi
1	Jahon banki ishtirokida Magistral tarmoqlarning kichik stansiyalarini zamonaviylashtirish va qayta qurish investitsiya loyahasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.09.2017 y. PQ-3284-sonli Qarori
2	2011–2015 yillarda O‘zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida	O‘zR Prezidentining 2010 yil 15 dekabrda PQ-1442-son qarorida
3	2017–2021-yillarda ko‘mir sanoatini yanada rivojlantirish va modernizatsiya qilish Dasturi to‘g‘risida	O‘zR Prezidentining 2017-yil 13 iyundagi PQ-3054-son qarori
4	“Tebinbuloq koni negizida kon-metallurgiya kompleksi qurilishi investitsiya loyahasini amalga oshirish borasidagi ishlarni tashkillashtirish to‘g‘risida”	O‘zR Prezidentining 2018 yil 12 yanvardagi PQ-3473-son qarori
5	Qadimiy Buxoro turizm zonasini qurish loyahasini amalga oshirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida	O‘zR Vazirlar Mahkamasining 14.10.2017 y. 825-sonli Qarori
6	Navoiy viloyatining Nurota tumanidagi Chashma tarixiy-me‘moriy majmuasini kompleks rekonstruksiya qilish chora-	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 09.10.2017 y. 807-sonli

	tadbirlari to'g'risida	Qarori
7	Ekskavatorlar va gusenitsali texnikani ta'mirlash zavodini qurish investitsiya loyihasini optimallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.01.2017 y. PQ-2719-sonli Qarori
8	2017–2019-yillar davrida dehqon bozorlarini rekonstruksiya qilish va ularning hududida zamonaviy savdo majmualari qurish dasturini tasdiqlash to'g'risida	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.03.2017 y. PQ-2853-sonli Qarori
9	To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida	O'zR Prezidentining 2017-yil 14- dekabrda PF-5285-son Farmoni
10	Shisha idishlar ishlab chiqarish zavodi qurilishini tugallash va foydalanishga topshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 20.11.2008-y. 251-sonli Qarori
11	Toshguzar-Boysun-Qumqo'rg'on yangi temir yo'li qurilishini jadallashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida	O'zR Vazirlar Mahkamasining 21.10.2004 y. 489-sonli Qarori

Manba: <https://nrm.uz> va <http://www.lex.uz> saytlari ma'lumotlari

Milliy iqtisodiyot tarmoq va sohasiga investitsiya kiritish bilan bog'liq me'yoriy-huquqiy hujjatlar turkumiga 2011–2015-yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida (15.12.2010-y. PQ-1442-son), 2017–2021-yillarda ko'mir sanoatini yanada rivojlantirish va modernizatsiya qilish Dasturi to'g'risida (13.06.2017-y. PQ–3054-son), “Tebinbuloq koni negizida kon-metallurgiya kompleksi qurilishi investitsiya loyihasini amalga oshirish borasidagi ishlarni tashkillashtirish to'g'risida” (12.01.2018-y. PQ-3473-son), Ekskavatorlar va gusenitsali texnikani ta'mirlash zavodini qurish investitsiya loyihasini optimallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida (06.01.2017 y. PQ-2719-sonli Qaror) 2017-2019 yillar davrida dehqon ozorlarini rekonstruksiya qilish va ularning hududida zamonaviy savdo ajmualari qurish dasturini tasdiqlash to'g'risida (27.03.2017 y. PQ-2853-son) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari “Toshguzar-Boysun-Qumqo'rg'on yangi temir yo'li qurilishini jadallashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 21.10.2004 y. 489-sonli Qarori va hukumat darajasidagi boshqa hujjatlarni kiritish mumkin. Shuningdek, milliy iqtisodiyotga investitsiya kiritish bilan bog'liq me'yoriy-huquqiy hujjatlar sirasiga tarmoq va

sohalarda qabul qilingan qaror va buyruqlarni ham ta'kidlab o'tish mumkin. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklariga ta'minotsiz kreditlarni berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2017-yil 17-iyundagi 13/1-son qarori shular jumlasidandir.

O'zbekiston Respublikasida investitsiya jarayoniga doir qabul qilingan me'yoriy aktlar va tashkiliy-huquqiy hujjatlarning to'rtinchi yo'nalishi investitsiya faoliyatining mintaqaviy jihatlar bilan bog'liq me'yoriy-huquqiy hujjatlar majmuasidir (5.1.4-jadval).

12.4-jadval

Investitsiya faoliyatining mintaqaviy jihatlar bilan bog'liq me'yoriy-huquqiy hujjatlar

№	Me'yoriy-huquqiy hujjatlar nomi	Me'yoriy-huquqiy hujjatlar raqami, sanasi va uni qabul qilgan tashkilot nomi
1	2009–2012-yillarda Namangan viloyatida kichik biznes, tadbirkorlik va kasanachilikni rivojlantirish dasturi to'g'risida	O'zR Vazirlar Mahkamasining 24.08.2009 y. 246-sonli Qarori
2	2003–2007-yillar davrida Qoraqalpog'iston Respublikasida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi barqaror rivojlantirilishini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 01.08.2002 y. 276-sonli Qarori
3	2016–2018-yillarda Toshkent viloyati shaharlari va tumanlarini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida	O'zR Vazirlar Mahkamasining 09.09.2016 y. 291-sonli Qarori
4	2013–2016-yillarda Qashqadaryo viloyatining sanoat salohiyatini rivojlantirish dasturi to'g'risida	O'zR Prezidentining 2013-yil 2-avgustdagi PQ-2017 sonli qarori
5	2010–2012-yillarda Qo'qon shahrining sanoat salohiyatini rivojlantirish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va mahalliyashtirish loyihalarini amalga oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 11-dekabrda 310-son qarori
6	2016–2018-yillarda Toshkent viloyatida amal qiluvchi sanoat korxonalarini quvvatlarini modernizatsiya qilish va texnik va texnologik qayta qurish hamda yangi investitsiya loyihalarni shakllantirishning prognoz ko'rsatkichlari	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 09.09.2016 y. 291-sonli Qarorining 2-ilovasi

7	2010-2012-yillarda Qo'qon shahrida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida	O'zR Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 11-dekabrda 311-son qarori
8	2013-2015-yillarda Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirish dasturi to'g'risida	O'zR Prezidentining PQ-1940-sonli (20.03.2013 y.) qarori
9	"2016-2018-yillarda Qashqadaryo viloyatining Nishon tumanini kompleks rivojlantirish Davlat dasturi" oziq-ovqat va nooziq-ovqat iste'mol tovarlari va qurilish materiallarini ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiyalash, yangidan barpo etish, texnik va texnologik jihatdan yangilash bo'yicha investitsiya loyihalarini manzilli ro'yxati	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Qashqadaryo viloyatining Nishon tumanini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2016-yil 11-avgustdagi 258-son qaroriga 2-ilova
10	2017-2019 yillarda Toshkent shahrining Mirzo Ulug'bek tumanini kompleks rivojlantirish dasturi	O'zR Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 12-dekabrda 400-sonli qarori 1-ilovasi

Manba: <https://nrm.uz> va <http://www.lex.uz> saytlari ma'lumotlari

Investitsiya faoliyatining mintaqaviy jihatlari bilan bog'liq me'yoriy-huquqiy hujjatlar turkumiga Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi yoki mintaqalarning alohida tarmoq va sohalarini taraqqiy ettirishga qaratilgan loyihalar va investitsion dasturlar yo'nalishini belgilab beruvchi qaror va buyruqlar majmuasi kiritiladi.


2017-2019-yillarda Toshkent shahrining "Mirzo Ulug'bek tumanini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2016-yil 12-dekabrda 400-son va "2016-2018-yillarda Qashqadaryo viloyatining Nishon tumanini kompleks rivojlantirish Davlat dasturi" oziq-ovqat va nooziq-ovqat iste'mol tovarlari va qurilish materiallarini ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiyalash, yangidan barpo etish, texnik va texnologik jihatdan yangilash bo'yicha investitsiya loyihalarini manzilli ro'yxati" 2016-yil 11-avgustdagi 258-son O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda boshqa ma'muriy-hududiy birliklarning investitsion dasturari bo'yicha buyruqlari kiritilgan.

12.5. To'g'ridan to'g'ri investitsiyalar va portfel shaklidagi chet el investitsiyalari

Xorijiy investitsiyalarni mulkchilik shakliga ko'ra xususiy, davlat, xorijiy va aralash investitsiyalarga tasniflash maqsadga muvofiqdir.

Xorijiy investitsiyalarni yo'nalish obyektiga qarab, moliyaviy va real investitsiyalarga ham ajratish mumkin. Rivojlangan mamlakatlarda moliyaviy investitsiyalarning tarkibida asosiy o'rinni xususiy mulk egalarning investitsiyalari tashkil etadi. Xorijiy investitsiyalarning tarkibini qo'yidagicha guruhlash mumkin.

Xorijiy investitsiyalar tarkibidagi to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular ichki jamg'armalar darajasidan ko'proq miqdorda kapital jamg'arish, to'lov balansini qo'llab-quvvatlash va import qilish imkoniyatini kengaytirish orqali iqtisodiy taraqqiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar alohida korxonalarining faoliyati, ishlab chiqarish va kapital samaradorligini oshirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va menejment tizimini takomillashtirishda muhim o'rin tutadi.



12.1-rasm. Xorijiy investitsiyalarning tasniflanishi

Ushbu jarayonlar mahsulot va xizmatlar yetkazib beruvchilar, buyurtmachilar, raqobatchilarga bilvosita ta'sir ko'rsatish orqali ichki bozorni rivojlantirish, ishchilarning malakasi va amaliy tajribasini oshirishda yordam beradi. Xorijiy investitsiyalarning yuqorida qayd etilgan turlari o'ziga xos belgilarga ega (Qarang: 1.1-jadval).

Xorijiy investitsiyalarning o'ziga xos belgilari

Belgilari	To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	Portfel investitsiyalar
Kinib kelishining asosiy maqsadi	Xorijiy firmani nazorat qilish	Yuqori foyda olish
Maqsadga erishish yo'llari	Xorijda ishlab chiqarishni tashkil etish va yuritish	Xorijiy qimmatli qog'ozlarni sotib olish
Maqsadga erishish usullari	- xorijiy firmaga to'liq egalik qilish; - aksiyalar nazorat paketini sotib olish (Xalqaro valyuta) fondi tavsiyasiga ko'ra kompaniya aksiyadorlik kapitalining 25 foizidan kam bo'lmasligi kerak).	Xorijiy firma aksiyadorlik kapitalining kamida 25 foizini sotib olish (AQSH, Yaponiya va Germaniya-10 foiz)
Daromad shakllari	Tadbirkorlik foydasi, dividendlar	Dividentlar, foizlar

Xorijiy investitsiyalarni ichki investitsiyalardan farqli jihatlaridan biri, ularni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan qo'shimcha uch guruhga ajratilgan barcha risklarning oldindan hisoblab chiqilishidir. Xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy mohiyatini anglashda uning xususiyatlarini bilish muhim ahamiyatga ega.

Xorijiy investitsiyalarning quyidagi xususiyatlarini ta'kidlash mumkin:

-xorijiy investitsiyalar bir iqtisodiyotdan ikkinchisiga ko'chayotgan kapital;

-kapitalni o'zga mamlakatga qulayroq qilib joylashtirish maqsadi;

-qo'yilgan sarmoya egasiga qaytib kelgunga qadar nisbatan uzoq muddat davomida yuqori foyda ko'rish;

-qo'shimcha risklarga ega bo'lish;

-aniq maqsadlarga intilish (yuqori daromad olish, yangi bozorlarni egallash, ishonch qozonish);

-o'zga mamlakat qonunchiligidan, imkoniyatlaridan foydalanish asosida vaqtdan unumli foydalangan holda o'z kapitalini o'stirish;

-rag'batlantirish tizimi, kafolatlar, imtiyozlar, ishonchli va o'zaro manfaatli munosabatlarning yo'lga qo'yilishini talab etishi;

-ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish)ni chetga olib chiqish yo'li bilan mahsulotni arzonlantirish, yangi bozorlarni egallash, yuqori daromad olish, boylklarni yanada foydaliroq joylashtirish;

-o'z milliy huquqiy sharoitlarini va o'z milliy investitsiya muhitini kapital qabul qiluvchi o'zga mamlakat milliy huquqiy sharoitlariga, o'zga investitsiya muhitiga almashtirish.

-o'z milliy huquqiy sharoitlarini va o'z milliy investitsiya muhitini kapital qabul qiluvchi o'zga mamlakat milliy huquqiy sharoitlariga, o'zga investitsiya muhitiga almashtirish.

Tayanch iboralar

Investitsion siyosat, ishlab chiqarish salohiyati, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar, investitsiya bozori, investitsiya resurslari, investitsion faoliyat, moliyaviy investitsiyalar, real investitsiyalar, investitsiya muhiti, investitsion jozibadorlik, investitsion samaradorlik, to'lov balansi, tadirkorlik infratuzilmasi, investitsion xatar, investitsion jarayon, investitsiya fondi, investitsion dastur.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Iqtisodiyot tarmoqlariga xorijiy investitsiyalarni jalb etishning ahamiyati va zarurligi nimalardan iborat?

2. Iqtisodiyot tarmoqlariga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda investitsiya muhitining o'rni qanday ta'sir ko'rsatadi?

3. Mamlakatimiz iqtisodiyotining alohida tarmoqlariga kiritiladigan milliy va xorijiy investitsiyalarni rag'batlantiruvchi qanday kafolatlar mavjud?

4. Xorijiy investorlarning ichki bozorda ishlashi uchun rag'batlantiruvchi omillarning mavjudligini qanday baholaysiz?

5. Investitsiyalarni jalb qilish, yo'naltirish va qayta taqsimlash samaradorligini oshirishida jahon amaliyoti tajribalaridan foydalanishning imkoniyatlari mavjudmi?

6. O'zbekistonga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda investitsion muhit jozibadorligini oshirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar?

7. O'zbekiston Respublikasiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning huquqiy-institutsional asoslarini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlarini tavsiflab bering.

XIII BOB. KORXONANING TIJORAT SIRI VA IQTISODIY XAVFSIZLIGI

Mazkur bobda korxonada ishlab chiqarish xavfsizligi, korxonada tijorat siri, korxonaning tijorat sirlarini muhofaza qilish mexanizmi, maxfiy xarakterga egaligi, shuningdek, manfaatdor idora va shaxslarga xavf-xatar tug'dirmagan holda taqdim etish mumkin bo'lgan ma'lumot va ko'rsatichlarni tanlab olishni ko'zda tutuvchi tizim bilan bog'liq jarayonlar to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

13.1. Korxonada iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning maqsad va vazifalari

Xavfsizlik bu murakkab va serqirra kategoriyadir. U asosan va ko'inchincha ishlab chiqarishda foydalanilayotgan vositalarning xavfsizligi nuqtayi nazaridan baholanadi va ko'rib chiqiladi. Shu sababli hozirgacha biz texnika xavfsizligi, piyoda xavfsizligi, oziq-ovqat xavfsizligi yoki zararsizligi kabi tushunchalarni uchratsakda, korxonada xavfsizligiga hali duch kelganimiz yo'q.

Mahsulotlarning zamonaviy namunalarini, ishlab chiqarish texnologiyasi, investitsiya rejalari va boshqalar sanoat ayg'oqchiligining diqqat markazida turib, korxonada va mamlakat uchun ma'lum bir xavf tug'diradi. Shu sababli xavfsizlik va tijorat sirlari muammolari hozirgi bozor va raqobatchilik sharoitlarida iqtisodiyot fanining, jumladan, zamonaviy korxonalar iqtisodiyotining muhim bo'limlaridan biri hisoblanadi.

Korxonada xavfsizligini ta'minlashning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- korxonada va uning barcha bo'linmalarini, mehnat jamoasining davlat tuzilmasi, xorijiy hamkorlar va raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda qonuniy huquqlarini himoya qilish;

- korxonada mulkini saqlash, undan oqilona va unumli foydalanish;

- ishlab chiqarilayotgan mahsulotning ichki va tashqi bozordagi raqobat-bardoshligini oshirish;

- tashkiliy va ishlab chiqarish barqarorligiga erishish, butlovchi qismlar yetkazib beruvchilarga yordamchi va hamkorlarga bir tomonlama qaram bo'lishga yo'l qo'ymaslik;

- barcha tuzilmaviy bo'g'inlardagi xodimlar orasida mehnat intizomini mustahkamlash;

- mehnat unumdorligini oshirish uchun moddiy va ma'naviy manfaatdorligini ta'minlash;

- ishlab chiqarishda fan-texnika yutuqlaridan foydalanish, samarali axborot bazasini rivojlantirish;

- korxonada obro'sini oshirish.

Ko'rsatilgan maqsadlardan kelib chiqqan holda korxonada xavfsizligini ta'minlash vazifalari belgilanib, ular korxonaning ichki tartib-qoidalari va ish tartibida hamda mahsus ishlab chiqilgan chora-tadbirlarda o'z aksini topishi mumkin. Bular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Korxonada ichida hamda tashqi tashkilotlar - hukumat idoralari, boshqaruv strukturasidagi qoidabuzarlik omillari, vakolatni oshirish hollari va hokazolarni aniqlash.

2. Korxonaning barqaror ishlashiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan xavf-xatar hamda bozor kon'yunkturasidagi noqulay o'zgarishlarni aniqlash va zarur choralarini qo'llash.

3. Bo'lajak hamkorlarni o'rganish, ularning moliyaviy ahvolini tahlil qilish va baholash.

4. Iqtisodiy ayg'oqchilikka qarshi chora-tadbirlarni tayyorlash;

5. Korxonada sirlaridan xabardor bo'lgan malakali xodimlarni boshqa korxonalarga jalb qilishning oldini olish.

6. Nosog'lom raqobatchilikni yengish.

7. Korxonada hududi va moddiy resurslarini himoya qilish.

8. Tijorat sirlarini muhofaza qilishni tashkil qilish.

9. Mehnat jamoasi a'zolari orasidagi salbiy fikrlarni aniqlash.

10. Favqulodda hodisalarning oldini olish va xavfsizlikning boshqa choralari.

Ma'lumki, ko'rsatilgan maqsad va vazifalar o'z-o'zidan avtomatik ravishda hal qilinmaydi. Buning uchun, avvalo, o'z ishini yaxshi bilishdan tashqari mohir va yuqori malakaga ega bo'lgan hamda o'zlari ishlayotgan korxonada uchun "jon kuydiruvchi" kadrlar zarur. Ularsiz muvaffaqiyatga deyarli erishib bo'lmaydi.

Xavfsizlik tamoyillari - xavfsizlikni ta'minlash taktika va strategiyasiga bo'lgan asosiy talablar xavfsizlikning maqsad va vazifalarini hal qilishning to'g'ri yo'llarini tanlashdir. Ular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- qonuniylik tamoyillari;
- mustaqillik va mas'uliyat;
- iqtisodiy maqsadga muvofiqlik va foydalilik;
- maqsadli-dasturiy rejalashtirish;
- o'zaro aloqalar va muvofiqlashtirish;
- mehnatni ilmiy tashkil qilish.
- oshkoralik va zaruriy maxfiylikning uyg'unligi
- ixtisoslashuv va yuqori kasbiy malaka.

13.2. Korxonada xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish va boshqarish

Xavfsizlik hodisalarning oldini olish va ogohlantirish chorasi sifatida, har bir alohida holatdagi aniq harakat bo'lib, korxonada xarakter, uning joylashuvi, ahamiyati va hokazolarga bog'liq bo'ladi. Mazkur jarayonda xavfsizlik tizimining o'zini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Uning rahbari xavfsizlik konsepsiyasini ishlab chiqarishning muayyan sharoitlariga nisbatan ishlab chiqishda shaxsan ishtirok etishi zarur.

Xavfsizlik konsepsiyasi birinchidan, korxonaning maqsad va vazifalariga zid kelmasligi, ikkinchidan, korxonada xavfsizligiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan tashqi muhit ta'sirini inobatga olishi zarur. Bu ta'sirni quyidagi chizma ko'rinishida aks ettirish mumkin (13.1- rasm).


Shu bilan bir vaqtda korxonada o'z faoliyatining muhim yo'nalishlari xavfsizligini ta'minlash uchun muayyan chora-tadbirlarni amalga oshirishi kerak va buning uchun avvalo, mos keluvchi qo'riqlash tartibini yaratish lozim. Mamlakatimiz va xorij amaliyoti tajribasi bunda quyidagi faoliyat turlarini ajratib ko'rsatadi:

1. Bino va inshootlar, aloqa tarmog'i qurilma va uskunalari qo'riqlash tartibini ta'minlash.

2. Tezkor xavfsizlik – maxfiy axborotlarga bo‘lgan vakolatni boshqarish, kelib-ketuvchilar, transport va yuk tashishni nazorat qilish, qoidabuzarlik holatlarini tekshirish, axborot xavfsizligini ta’minlash.

3. Xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha ma’muriy faoliyat - personalni tayyorlash va o‘qitish, inspeksiya, taftish va nazorat, muammoli vaziyatlarning oldini olish, istiqbolli chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

4. Moddiy boyliklarni himoya qilish va tabiiy ofatlar bilan kurash - yong‘inlarning oldini olish, yong‘in xavfsizligi va ogohlantirish qurilmalari holatini kuzatib borish va hokazolar.



13.1-rasm. Korxonaxavfsizligiga tashqi muhitning ta'siri

Korxonalar rahbarlari mehnat jamoalarini doimiy ravishda xavfsizlikni ta’minlash natijalari to‘g‘risida xabardor etishlari lozim. Faqat zarur hollardagina xavfsizlik chora-tadbirlari maxfiy bo‘lishi mumkin. Xavfsizlik chora-tadbirlarining maxfiyligi korxonabo‘limlarini zaruriy qoidalarni qo‘llash va ularga amal qilishini nazorat qilishni mahsus tashkil etishni ko‘zda tutadi.

Hozirgi jamiyatning axborotlashtirish va elektronlashtirish sharoitlarida korxonalarining xavfsizligini ta’minlash uchun doimiy ravishda faoliyat ko‘rsatuvchi, tijorat faoliyatining xavfsizligini ta’minlashning barcha shakl va usullarini qamrab oluvchi tizim amal qilishi lozim. Shu sababli xavfsizlik xizmati marketing va menejment

xizmati, valuta, kredit va huquqiy bo'limlar kabi iqtisodiy bo'linmalar bilan chambarchas bog'liqlikda ishlab, iqtisodiy xavfsizlikka ko'proq yondashgan holda ularning faoliyatini to'ldirishi zarur.

13.3. Korxonaning xavfsizlik xizmati, uning tuzilishi va vazifalari

Xavfsizlik xizmati korxonaning tuzilmaviy birligi bo'lib, xavfsizlik tartibini ishlab chiqish, o'rnatish va qo'llab-quvvatlash, shuningdek, unga rioya qilinishini nazorat qilishni amalga oshiradi. U o'z faoliyatida quyidagilarga asoslanishi lozim:

- qo'riqlash tartibini tashkil etish bo'yicha qoidalar;
- rahbar, mutaxassis va texnik xodimlar uchun maxfiy ma'lumotlar bilan ishlash bo'yicha lavozim yo'riqnomasi;
- ma'lumotlarni texnik-muhandislik jihatidan himoya qilishni tashkil etish bo'yicha lavozim yo'riqnomasi;
- xorijiy vakolatxonalar va vakillar bilan ishlash bo'yicha lavozim yo'riqnomasi.

Korxonada xavfsizlik xizmati tarkibida axborot-tahlil bo'linmalari, xavfsizlikni ta'minlash yo'nalishlari bo'yicha tashkiliy bo'g'inlar hamda muayyan vazifalarni bajarish uchun vaqtinchalik tuzilmalar yaratilishi mumkin.

Korxonada rahbariyati yoki aksiyadorlik jamiyati boshqaruvi qaroriga ko'ra, muayyan maqsadlar va yuzaga keluvchi sharoitlarda xavfsizlikni ta'minlashning murakkab vazifalarini hal qilish uchun korxonaning yetakchi mutaxassislarini jalb qilgan holda vaqtinchalik tuzilmalar yaratilishi mumkin.

Belgilangan vazifalarni bajarish uchun korxonaning xavfsizlik xizmati quyidagilarni amalga oshiradi:

- ma'muriy-taqsimlash funksiyasi, xavfsizlik tartibini o'rnatish va ta'minlash, mas'ul shaxslarning korxonada xavfsizligini ta'minlash masalalari bo'yicha huquq va majburiyatlarini belgilash, shuningdek, korxonaning mazkur faoliyat turi sohasidagi vakolat funksiyalarini amalga oshirishga oid qarorlar tayyorlash yo'li bilan amalga oshiriladi;

- xo'jalik-taqsimlash funksiyasi, xavfsizlik xizmatining korxonada xavfsizligini ta'minlashda zarur bo'lgan resurslarni belgilash, korxonada mulki va intellektual boyliklarini saqlash va ulardan oqilona

foydalanishni ta'minlash chora-tadbirlarini tayyorlash va amalga oshirishda ishtirok etishi yo'li bilan amalga oshiriladi;

-hisob-nazorat funksiyasi, tijorat-moliyaviy faoliyatning eng muhim yo'nalishlarini ajratib ko'rsatish va korxonaning moliyaviy barqarorligiga tahdid soluvchi xavf-xatarning oldini o'z vaqtida olish, ularning manbalarini baholash, xavfli holatlarni nazorat qilishni yo'lga qo'yish, korxonada xavfsizligiga ta'sir ko'rsatuvchi salbiy omillarni hisobga olish, shuningdek, korxonaning hayotiy ehtiyojlariga tahdid soluvchi g'irrom raqiblar, ishonchsiz hamkorlar, shaxslar va tashkilotlar haqida ma'lumotlar yig'ish yordamida amalga oshiriladi;

-ijtimoiy-kadrlar funksiyasi, xavfsizlik xizmatining kadrlarni joylashtirish, mehnat jamoalaridagi salbiy fikrlar, ijtimoiy ziddiyatlarning yuzaga kelishi sabablari va sharoitlarini aniqlash, janjallarning oldini olish, xodimlarga yo'riqnoma berish, ularda belgilangan xavfsizlik normalariga rioya qilish uchun javobgarlik tuyg'usini shakllantirishdagi ishtiroki orqali amalga oshiriladi;

-tashkiliy-boshqaruv funksiyasi, korxonada xavfsizligini ta'minlash jarayonini boshqarishning doimiy tashkiliy tuzilmasini yaratish, qo'llab-quvvatlash va o'z vaqtida qayta tashkil etishga boshqaruv ta'sirini ko'rsatish, faoliyatning alohida yo'nalishlari bo'yicha moslashuvchan vaqtinchalik tuzilmalar, alohida bo'g'inlar o'rtasida belgilangan dasturiy maqsadlarga erishish uchun o'zaro aloqalar va muvofiqlashtirishni tashkil etish yordamida amalga oshiriladi;


-rejali-ishlab chiqarish funksiyasi, korxonada xavfsizligini ta'minlash bo'yicha alohida maqsadli rejalar va dasturlar majmuini ishlab chiqish, ularni amalga oshirish, xavfsizlik tartibini o'rnatish va qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlarni tayyorlash va bajarish yordamida amalga oshiriladi;

-tashkiliy-texnik funktsiya, korxonada xavfsizlik tartibini moddiy-texnik jihatdan ta'minlash, mahsus texnikalar hamda yangi, progressiv texnologiyalar, maxfiy tartib va boshqa mahsus faoliyatlarni o'zlashtirish yordamida amalga oshiriladi;

-ilmiy-uslubiy funktsiya, korxonada xavfsizligini ta'minlashning ilg'or tajribalarini to'plash va tarqatish, xodimlarni o'qitishni tashkil etish, korxonada oldida yuzaga keluvchi korxonada xavfsizligini ta'minlashga oid muammolarni hal qilishning ilmiy jihatdan ishlab chiqish va uning bu sohadagi faoliyatini uslubiy ko'rsatmalar bilan ta'minlash yordamida amalga oshiriladi;

- axborot-tahlil funksiyasi, xavfsizlikka oid ma'lumotlarni maqsadli ravishda yig'ish, to'plash va ular bilan ishlash, buning uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni analitik tahlil qilishning texnik va uslubiy vositalarini yaratish va ulardan foydalanish, korxonaning manfaatdor bo'linmalari va alohida shaxslarni xavfsizlik xizmatida mavjud bo'lgan ma'lumotlar bilan ta'minlash yordamida amalga oshiriladi.

Yuqorida keltirilgan funksiyalar korxonada xavfsizlik xizmatining zarur tashkiliy tuzilmasini shakllantirishga imkon beradi. Uning namunaviy tuzilmasi quyida keltirilgan (13.3.1-rasm).



13.3.1-rasm. Xavfsizlik xizmati tuzilmasi

Korxonada xavfsizlik xizmati Nizomida uning maqsad va vazifalari, huquq va majburiyatlari, nazorat-taftish faoliyati belgilab beriladi. Xavfsizlik xizmati o'z faoliyatini korxonada xavfsizligini yuqori darajada ta'minlash va qo'llab-quvvatlash asosida olib borib, quyidagilarni qamrab oladi:

- maxfiy tartibdagi faoliyatni tashkil etish;
- axborot xavfsizligini ta'minlash;
- muhandislik-texnik muhofaza;
- mehnat jamoalaridagi salbiy yo'nalishlarning oldini olishga oid faoliyat.

13.4. Korxonaning tijorat sirlari

Korxonaning tijorat sirlari ishlab chiqarish, texnologik ma'lumotlar, boshqaruv, moliya va shu kabilar bilan bog'liq bo'lib, ularni oshkor qilish korxonaga manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlardir. Korxonaga "tijorat sirlari" toifasining qonunchilikda belgilab berilgan tavsifnomasi shunday.

Mavjud nuqtayi nazarlarga ko'ra, korxonaning tijorat sirlari umumiy holda o'z ichiga quyidagi ma'lumotlarni qamrab oladi:

- korxonaning savdo aloqalari haqida;
- kapital hajmi va tuzilmasi, investitsiya rejaları haqida;
- ta'minotchi va iste'molchilar, tuzilgan shartnomalar haqida;
- ishlab chiqarish hajmi, aylanma mablag'lar va foyda hajmi haqida;
- bahoni shakllantirish siyosati va tovarlar bahosining shakllanishi haqida;
- bank opretsiyalar haqida va hokazolar.

Ko'pincha "tijorat sirlari" tushunchasidan tashqari korxonaning "ishlab chiqarish sirlari" tushunchasi ham qo'llaniladi. U ishlab chiqarish usullari, texnologiyalar, texnik kashfiyotlar, tadqiqot ishlari, mehnatni tashkil qilish, aloqa tarmog'i va shu kabilar haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Bugungi bozor munosabatlari, ayniqsa raqobatchilik muhiti sharoitlarida korxonaga tijorat va ishlab chiqarish sirlarining oshkor qilinishi uning ahvoriga salbiy ta'sir ko'rsatishi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar iste'molchilarini yo'qotishga olib kelishi mumkin. Mutaxassislarning fikriga ko'ra, tijorat sirlariga mansub ma'lumotlarning to'rtidan bir qismi yo'qotilishi ham raqiblar uchun katta imkoniyat yaratadi hamda bir necha oy ichida ma'lumotlar chetga chiqib ketishiga yo'l qo'ygan firmalarning yarmi bankrotga uchrashiga olib keladi. Shu sababli hozirgi paytda tijorat sirlarining huquqiy maqomi va toifasini aniq belgilash, ularni oshkor qilish uchun javobgarlik mexanizmini ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Quyidagi rasmda korxonaga tijorat sirlarini muhofaza qilish mexanizmining asosiy elementlari keltirilgan.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, tijorat sirlarini muhofaza qilish mexanizmi, korxonaning moliyaviy va texnik imkoniyatlari bilan aloqada bo'lganda, shuningdek ma'lumotlarni himoya qilishning ishonchli tizimi

mavjud bo'lgandagina to'liq kuch bilan ishlaydi. Bundan tashqari quyidagilarni to'g'ri tashkil qilish ham muhim ahamiyat kasb etadi:

- tayyor mahsulot (ayniqsa tajriba namunalari) va materallarning ba'zi turlarini hisobga olish va qo'riqlash;
- tadbirkorlik sirlari mavjud bo'lgan hujjatlar bilan ishlash tartibi (ularni hisobga olish, saqlash, yo'q qilish qoidalari va boshqalar);
- hujjatlarni ko'paytirish va ulardan nusxa olish vositalarini nazorat qilish;
- aloqa vositalari va hisoblash texnikasida tijorat ma'lumotlarini himoya qilish;
- korxonada hududi va uning asosiy bino va inshootlarini qo'riqlash;
- mazkur korxonaga begona shaxslar tashrif buyurishini nazorat qilish.



13.4.1-rasm. Korxonada tijorat sirini muhofaza qilish mexanizmi

Yuqorida sanab o'tilgan barcha vazifalarni samarali bajarish boshqaruv apparatida tijorat sirlarini muhofaza qilish bilan shug'ullanuvchi mahsus xizmatlarni yaratishni ko'zda tutadi. Xorij mamlakatlarida mazkur faoliyat bilan firmalarning mahsus bo'linmalari shug'ullanadi. Ular raqobatchilar to'g'risidagi ma'lumotlarni izlash va to'plash bilan ham shug'ullanadi. Shu bilan bir vaqtning o'zida ular savdo hamkorlarining tijorat sirlarini birgalikda himoya qilish imkoniyatini ham rad qilmaydilar. Masalan, ba'zi firmalar faoliyatida tadbirkorlik aloqalari davomida hamkorlarga berilgan ma'lumotlarni birgalikda himoya qilish bo'yicha mahsus shartnomalar tuzish tartibi ko'zda tutilgan.

Sanoati rivojlangan mamlakatlarning (masalan, AQSHning) davlat organlarida mahsus vositachilik xizmatlari mavjud bo'lib, u mijozlarni ularni qiziqtirayotgan korxonalar va tashkilotlar haqidagi ma'lumotlar bilan ta'minlaydi. Mamlakatimizda korxonalar davlatga soliqqa tortish va iqtisodiy ma'lumotlarni yig'ish va ular bilan ishlash tizimi uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etishi qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan. Shuningdek, korxonalar o'z faoliyatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni, jumladan, yillik balansni nashr qiladilar. Shu bilan bir paytda korxonalar tijorat sirlariga oid ma'lumotlarni bermaslik huquqiga ega.

Tijorat sirlari davlat boshqaruv va nazorat idoralari xodimlari orqali chetga chiqib ketishining oldini olish maqsadida korxonalar rahbari ularning vakolatlarini bilishi hamda ular talab qilgan istalgan ma'lumotni emas, balki faqat xizmat vakolatiga doir ma'lumotlarni taqdim etishi zarur. Birinchi o'rinda bu statistika xizmati, monopoliyaga qarshi kurash qo'mitasi, militsiya, moliya, soliq, sanitariya, yong'inga qarshi kurash va boshqa xizmat vakillariga tegishli. Korxonalar rahbari shuningdek, davlat idoralari xodimlarining noqonuniy xatti-harakatlari ustidan arz qilish tartibi, ular tufayli korxonaga yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararni qoplash mexanizmini bilishi va unga amal qilishi zarur.

Ilmiy-texnik, ishlab chiqarish, iqtisodiy va boshqa xizmatlar mutaxassislari o'zi ishlayotgan korxonaning tijorat sirlariga oid ma'lumotlar chetga chiqib ketishi oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan va real yo'qotishlarni to'g'ri va aniq (qiymat shaklida) baholashni o'rganib olishlari zarur.

Korxonalarining maxfiylik shartlariga rioya qilmaslik natijasida yuzaga keluvchi yo'qotishlari umumiy ko'rinishda quyidagilarga olib keladi:

-ilmiy tadqiqotlarga litsenziya sotish imkoniyatlari pasayadi, fan-texnika taraqqiyoti sohasida erishilgan ustunliklar yo'qotiladi, ilmiy-tadqiqot bo'linmalarining yo'nalishni o'zgartirishlari uchun xarajatlari o'sadi;

-ishlab chiqarish faoliyatida zarur bo'lga xomashyo, texnologiya va hokazolarni sotib olishda qiyinchiliklar yuzaga keladi (yoki raqobatchilar tomonidan sun'iy ravishda yaratiladi);

-korxonaning tadbirkorlikdagi sheriklar bilan hamkorligi cheklanadi, foydali shartnomlarni imzolash imkoniyatlari kamayadi, shartnoma majburiyatlarini bajarishda muammolar vujudga keladi;

-korxonaning yangi bozor strategiyasini yaratish, marketing tadqiqotlari tuzilmasini o'zgartirish va hokazolarga sarflanuvchi xarajatlari o'sadi;

-tijorat sirlarini oshkor qilganlarga nisbatan iqtisodiy jazo choralari qo'llash xavfi kuchayadi.

Barcha yo'qotishlarning umumiy miqori qiymatini aniq hisoblash juda murakkab va ko'p mehnat talab qiluvchi jarayon bo'lib, ba'zida ishonchli ma'lumotlar yo'qligi sababli ularni hisoblashning imkoni ham bo'lmaydi. Shu sababli ko'p hollarda korxonalarining ma'lumotlarni himoya qilishga rioya etmaslik bilan bog'liq bo'lgan yo'qotishlarini yiriklashtirilgan ekspert baholash kifoya qiladi.

Yuqorida keltirilgan yo'qotishlarning o'rmini qoplash ko'pincha korxonalardan qo'shimcha xarajatlarni talab qilib, ishlab chiqarish samaradorligi va raqobatchilik kurashida erishish mumkin bo'lgan muvaffaqiyatlar imkoniyatini pasaytiradi. Xuddi shuning uchun ham hozirgi paytda tijorat sirlarini muhofaza qilishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Tayanch iboralar

Xavfsizlik, korxonada xavfsizligi, mahsus ishlab chiqilgan chora-tadbirlar, xavfsizlik tamoyillari, xavfsizlik konsepsiyasi, korxonada xavfsizligiga tashqi muhitning ta'siri, xavfsizlik xizmati, xavfsizlik xizmatining tashkiliy tuzilmasi, korxonaning tijorat sirlari, tijorat sirini muhofaza qilish mexanizmi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Korxonada xavfsizlik deganda nimani tushunasiz?
2. Korxonaning "tijorat sirlari" tushunchasi nimani anglatadi?
3. Korxonada xavfsizlik va tijorat siri o'rtasida qanday aloqadorlik mavjud?
4. Korxonada xavfsizligining asosiy tamoyillarini aytib bering.
5. Korxonaning xavfsizlik xizmati qanday vazifani bajaradi?
6. Bozor sharoitida korxonaning tijorat siri reklama faoliyatiga zid kelmaydimi?
7. Korxonaning tijorat va boshqa sirlarini oshkor qilish qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?
8. Korxonaning tijorat sirlarini muhofaza qilish mexanizmi o'z ichiga nimani qamrab oladi?

XIV BOB. REAL SEKTORDA INNOVATSION FAOLIYAT TUSHUNCHASI, INNOVATSION FAOLIYAT FUNKSIYALARI VA INNOVATSIYALAR TASNIFI

Mazkur bobda real sektorda innovatsion faoliyat tushunchasi, innovatsion faoliyat funksiyalari va innovatsiyalar tasnifi, innovatsion loyiha va innovatsion jarayon tushunchalari, innovatsion tovarni yaratish jarayonining asosiy bosqichlari, korxonalarda ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini boshqarish tizimi bilan bog'liq ma'lumotlar umumlashtirilgan.

14.1. Innovatsion faoliyat tushunchasi

Mehnat, kapital, tabiiy resurslar ishlab chiqarishda muhim ahamiyat kasb etuvchi omillar qatorida yana bir omil – innovatsion resurslar ham paydo bo'ldiki, mazkur omil ilmiy-texnik loyihalarni tijoratlashtirish, ya'ni ulardan bozor raqobati sharoitlarida foyda olish maqsadida tadbirkorlik faoliyatida foydalanish imkoniyatlarini taqdim etdi. Biroq, mazkur omilning rivojlanish holati va darajasi turli davlatlarida turlicha bo'lib, O'zbekistonda ushbu omildan samarali foydalanish borasida ayrim muammolar mavjud. Mazkur muammoning hal etilishi respublikamizda jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan tarmoqlar va hududlar iqtisodiyoti hamda istiqboli uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun, eng avvalo, innovatsiya tizimini qanday ko'rishda shakllantirish, innovatsiya faoliyatini qanday tashkil etish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash lozimligi haqida aniq tasavvur va yo'nalishga ega bo'lish maqsadga muvofiqdir.

Innovatsiyalar jahon iqtisodiyotining barcha sohalarida zamonaviy rivojlanish mazmuniga aylanib ulgurani barchaga ayon va bunga innovatsiya faoliyatini samarali tashkil etish va rivojlantirish orqali erishilganligini hisobga olsak, innovatsiya faoliyatining mazmun-mohiyatini bilish zarurligini anglab yetish mumkin.

Innovatsiya faoliyatining bugungi kunda hayotimiz mazmuniga aylanib borayotganligi va o'z kelajagimizni qurishda maqsad va

strategiyalarimizni amalga oshirish jarayoniga tobora chuqur kirib borayotganligi, shu bilan birga yangidan-yangi imkoniyatlarini taqdim etayotganligi mazkur atamaning mazmunini o'rganish va yoritishga bo'lgan qiziqish va intilishlarni yanada kuchaytirmoqda. Shu manosabat bilan turli iqtisodchi-olimlar va mutaxassislar tomonidan turli mazmundagi ta'riflar ishlab chiqilmoqda, keltirilmoqda. Ular bir-biridan tubdan farq qilmasa-da, biroq, innovatsiya faoliyatining muayyan xususiyatlari, yo'nalishlari va jihatlarini o'zida ifoda etishi bilan ajralib turishini ko'rish mumkin. Bu esa ularning qaysi biri innovatsiya faoliyati atamasining tub iqtisodiy mazmun-mohiyatini batafsilroq ochib berishga xizmat qilishi mumkinligini o'rganishga bo'lgan qiziqishni keltirib chiqaradi.

Rus olimlaridan A.N.Folomev "Innovatsiya faoliyati – tugallangan ilmiy-tadqiqotlar va ilmiy izlanishlar natijalarini o'tkazishga qaratilgan jarayon"¹ degan tushunchani yoqlagan bo'lsa, yana bir necha rus iqtisodchi-olimlari V.V.Glushchenko, I.I.Glushchenkolar tomonidan berilgan ta'rifga ko'ra: "innovatsiya faoliyati – ishlab chiqiriluvchi mahsulot nomenklaturasini kengashtirish, yangilash va sifatini oshirish uchun ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar natijalaridan foydalanish, ularning kelgusi joriy etilishi bilan bog'liq texnologiyalarni takomillashtirish ichki va tashqi bozorlarda samarali amalga oshirilishiga yo'naltirilgan faoliyat"ni anglatadi².

V.L.Popov biz o'rgangan iqtisodchi-olimlardan farqli ravishda innovatsiya faoliyatiga nisbatan birmuncha kengroq va to'liqroq mazmundagi quyidagi ta'rifni beradi: "innovatsiya faoliyati – tugallangan ilmiy-tadqiqotlar va ishlanmalar natijalarini yo bo'lmasa, bozorda sotiladigan, yangi yoki takomillashgan texnologik jarayonda amalga oshiriluvchi, amaliy faoliyatda foydalaniluvchi yangi yoki boshqa takomillashgan mahsulotda erishilgan ilmiy-texnik yutuqlarni, shuningdek, shu bilan bog'liq qo'shimcha ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarni amalga oshirishga qaratilgan jarayon"³.

¹ Фоломьев А.Н. Инновационный тип развития экономики России. – М.: РАГС, 2005. – С. 68. (С. 584)

² Глущенко В.В., Глущенко И.И. Исследование систем управления: социологические, экономические, прогнозные, плановые, экспериментальные исследования. 2-е изд. – М.: ООО НПЦ «Крылья», 2004. С.34.

³ Попов В.Л. Управление инновационными проектами. Учебное пособие. – С.: ИНФРА-М, 2009. – С.11.

Mamlakat hududida joylashgan mulk shakli va tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'iy nazar, korxonalar tomonidan texnika va texnologiyalarni ishlab chiqish innovatsiya faoliyati obyekti hisoblanadi.

Innovatsiya faoliyatida qatnashuvchi mulk shakli va tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'iy nazar barcha yuridik shaxslar, O'zbekiston Respublikasi jismoniy shaxslari, xorijiy tashkilotlar va fuqarolar, shuningdek, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar innovatsiya faoliyati subyektlari hisoblanishadi. Innovatsiya faoliyati subyektlari huquqlari tegishli qonun hujjatlari, shuningdek, bosh Qomusimiz – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan kafolatlanadi.

Innovatsiya faoliyati subyektlari tarkibida innovatorlar ham bo'lishi mumkin. Innovatorlar – bular innovatsiyalar mualliflari (foydali model, loyihaviy qaror, taqsimot takliflari, nou-xau, sanoat namunasi, tijorat belgisi va boshqa turdagi innovatsiyalarni ixtiro qiluvchilar).

Mamlakatda innovatsiya faoliyatining tashkil etilishi va rivojlanishi uchun quyidagi shartlarning mavjud bo'lishi va bajarilishi talab etiladi:

- davlat innovatsiya siyosati – O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati organlari tomonidan mamlakatning innovatsion strategiyasi maqsadlari va ustuvor innovatsion dasturlar va loyihalarni qo'llab-quvvatlash mexnizmlarining ishlab chiqilishi va belgilanishi;

- investitsiya salohiyati (davlat, tarmoq, korxon va tashkilotning) – turli ko'rinishdagi resurslar yig'indisi (moddiy, moliyaviy, intellektual, ilmiy-texnikaviy, iqtisodiy va boshqalarni qamrab olgan holda);

- innovatsiya sohasi – innovatsiyalarni yaratish va tarqatishni o'z ichiga qamrab oluvchi innovatsiya mahsulot (ish, xizmat)larini ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarning faoliyat sohalari;

- innovatsiya infratuzilmasi – innovatsiya faoliyatining amalga oshirilishiga imkon beruvchi, ta'sir ko'rsatuvchi turli muassasalar (innovatsion-texnologik markazlar, texnologik inkubatorlar, texnoparklar, o'quv-biznes markazlari, konsalting va injiniring kompaniyalari, reyting baholovchi agentliklar va boshqa mahsus tashkil etilgan muassasalar);

- innovatsiya dasturi (korxon, tarmoq, hudud, davlat, mintaq, davlatlararo) – innovatsiya loyihalari resurslari, ijrochilari va ularni amalga oshirish muddatlari bo'yicha kelishilgan hamda yangi turdagi mahsulot (texnologiya)larni o'zlashtirish va joylashtirish bo'yicha vazifalarning samarali hal etilishini ta'minlovchi innovatsion loyihalar va tadbirlar kompleksi.

Innovatsiyalarning joriy etilishi o'z strategiyasiga ega bo'lishni talab etadi. Shunga muvofiq, innovatsion strategiya quyidagilardan tashkil topishi maqsadga muvofiqdir:

- yangi mahsulot joriy etish (tovarli innovatsiya);
- ishlab chiqarishni yangi usulini joriy etish (texnologik innovatsiya);
- tovar va xizmatlarning yangi bozorini tashkil etish (bozorli innovatsiya);
- yarimtayyor mahsulot va xomashyo jo'natish bo'yicha yangi manbalarini o'zlashtirish (marketingli innovatsiya);
- boshqarish tuzilmasini qayta tashkil etish (boshqarish innovatsiyasi).

14.2. Innovatsion loyiha va innovatsion jarayon tushunchalari

Innovatsiya loyihasining asosiy maqsadlaridan biri – korxonada yuqori sifatga ega bo'lgan kerakli miqdorda mahsulot ishlab chiqarish layoqatiga ega ekanligini raqobatchilarga isbotlashdan iborat.

“Innovatsion loyiha” tushunchasi bir qancha nuqtayi nazardan qaralishi mumkin:

- innovatsion maqsadlarga erishishga xizmat qiladigan tadbirlar yig'indisi sifatida;
- innovatsion faoliyatni amalga oshirish jarayoni sifatida;
- ushbu tadbirlarni asoslovchi va bayon qiluvchi hujjatlar paketi sifatida.

Ushbu uch jihatlar innovatsion loyihaning innovatsion faoliyatini tashkil qilish va maqsadli boshqarish shakllari sifatidagi ahamiyatini ko'rsatadi. Shunday qilib, innovatsion loyiha – bu resurslar, muddatlar va ijrochilar bo'yicha o'zaro bir-birini asoslaydigan hamda o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lgan, ilm-fan va texnika taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlarida muayyan maqsadlar (vazifalar)ga erishishga qaratilgan jarayonlarning murakkab tizimidir. Innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun ularni moliyaviy asoslash va investitsiyalash muhim ahamiyatga ega. Bunda loyihaviy moliyalashtirish jarayonlari nuqtayi nazaridan o'ziga xos xususiyatlarga ega innovatsion loyihalarni farqlash kerak:

a) investitsion loyihalar, masalan, yangi sanoat obyektlari qurilishiga (energetika, transport, aloqa va h.k.) yirik kapital qo'yilmalar;

b) ilmiy-texnik (innovatsion) – ilg'or texnologiyalar, yangiliklar, mahsulotlar va xizmatlar. Ushbu ikki xil loyiha o'rtasida muhim farqlar mavjud:

1. Sanoat obyektlariga kapital qo'yilmalar haqidagi mavjud moliyaviy axborot, hattoki eng oddiy ilmiy-texnik loyihalarga qaraganda, ayniqsa, ularning erta bosqichlarida, ishonchliroqdir;

2. Innovatsion ilmiy-texnik loyihalar mavhumlikning yuqori darajasiga ega ekanligi bilan farq qilib, ular shunday afzallikka egaki, ular ishlanmaning erta bosqichidayoq katta bo'lmagan moliyaviy yo'qotishlar bilan to'xtatib qo'yilishi mumkin;

3. Ilmiy-texnik loyihalarda axborot investitsiyaviy loyihalarga qaraganda ko'proq cheklanganligi va mos emasligi bilan farq qiladi. Bu esa mustaqil ekspertlarning loyihalarini baholash bo'yicha fikrlarini korrelatsiyalashni nihoyatda qiyinlashtiradi;

4. Innovatsion loyihalar ko'p mezonliligi va yuqori darajali mavhumliligi bilangina farq qilmasdan, balki sifatli baholash bo'yicha ham farqlanadi.

Innovatsion loyihalar g'oyalar, fikrlar va texnik yechimlarning ilmiy-texnik ahamiyati darajasi bo'yicha quyidagi tarzda tasniflanadi:

1) modernizatsion loyihalar, bunda namuna konstruksiyasi yoki asosiy texnologiya tub o'zgarmaydi;

2) novator loyihalar, bunda yangi buyum konstruksiyasi turiga va elementlari xossalriga qarab oldingisidan jiddiy farq qiladi (yangi xossalarni qo'shish, masalan, ushbu turdagi buyumlarda ilgari qo'llanilmagan avtomatlashtirish vositalarini, lekin boshqa turdagi buyumlarda qo'llangan kiritish);

3) ilgarilab boruvchi, bunda konstruksiya ilgarilab boruvchi yechimlarga asoslanadi;

4) pioner loyihalar, ilgari mavjud bo'lmagan materiallar paydo bo'lganda;

5) oldingi va hattoki yangi funksiyalarni bajaradigan konstruksiyalar va texnologiyalar.

Loyihaning ahamiyat darajasi uning murakkabligi, davomiyligi, ijrochilar tarkibi, ko'lam, natijalarni ilgari surish xususiyati bilan belgilanadi, bu loyihani boshqarish mazmuniga ham o'z ta'sirini

o'tkazadi. Hal etilayotgan masalalar ko'lamlariga qarab innovatsion loyihalar quyidagilarga ajratiladi:

1) monoloyihalar – odatda, bitta tashkilot yoki hattoki bitta bo'linma tomonidan bajariladigan loyihalar. Ular bitta innovatsion maqsad qo'yilishi (aniq buyumni, texnologiyani yaratish) bilan farq qiladi, qat'iy vaqt va moliya doirasida amalga oshiriladi, unda loyiha muvofiqlashtiruvchisi yoki rahbari talab etiladi;

2) multiloyihalar – o'nlab monoloyihalarni birlashtiruvchi kompleks dasturlar ko'rinishida taqdim etiladigan, murakkab innovatsion maqsadga erishishga qaratilgan loyihalar, bunday maqsadga, masalan, ilmiy-texnik majmuani barpo etish, yirik texnologik muammoni hal qilish, harbiy-sanoat majmuasining bitta yoki bir guruh korxonalarini konversiyalash kabilar kiradi. Multiloyihani yaratish uchun muvofiqlashtiruvchi bo'lishi joiz;

3) megaloyihalar – bir qator multiloyihalarni va yuzlab monoloyihalarni birlashtiruvchi, o'zaro bitta maqsadlar shajarasi bilan bog'langan ko'p maqsadli kompleks dasturlar bo'lib, markazlashtirilgan moliyalashtirishni hamda muvofiqlashtirish markazidan boshqarilishini talab qiladi. Megaloyihalar asosida tarmoqni texnik qayta qurollantirish, mintaqaviy va federal konversiya hamda ekologiya muammolarini hal etish, mahalliy mahsulotlar va texnologiyalar raqobatbardoshligini oshirish kabi innovatsion maqsadlarga erishish mumkin.

Milliy iqtisodiyotni har tomonlama rivojlantirishda innovatsion jarayonlarni samarali boshqarish innovatsion faoliyatning muhim jihatlaridan hisoblanadi. Shu bois, sanoat korxonalaridagi mavjud moddiy-texnik bazani yangilash, ishlab chiqarish obyektlarini rivojlantirish, yangi faoliyat turlarini o'zlashtirish, ilmiy hajmdor mahsulotlar ishlab chiqarish, korxonalarda innovatsion muhitni yaratish, innovatsion ishlab chiqarishni rag'batlantirish innovatsion jarayonlarni strategik boshqarishning asosiy vazifalaridan biridir. Shu bilan birga, iqtisodiyot tarmoqlarida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, raqobatchilikka asoslangan biznes muhitini yanada rivojlantirishda davlat tomonidan innovatsion siyosatni olib borish muhim ustuvor yo'nalishlardan hisoblanadi. Chunki davlat tasarrufidan chiqarilgan va xususiylashtirilgan korxonalar negizida tashkil etilgan xo'jalik subyektlarida innovatsion jarayonlarni strategik boshqarishning ahamiyati ortib bormoqda.

Innovatsion jarayonlarni boshqarishga oid ilmiy adabiyotlarda "innovatsion jarayon" atamasiga – g'oyalarni aniq bir mahsulot ko'rinishiga kelishini belgilovchi, yangi texnika va texnologiyalar hamda xizmatlardan foydalanishni ommalashtiradigan, ilmiy bilimlarni innovatsiyaga aylinishini ta'minlaydigan jarayon deb ta'rif berilgan

Innovatsion jarayon-kompleks xususiyatga ega bo'lgan va bozorda tijorat muvaffaqiyatiga olib keladigan yangi mahsulotlar yaratish va amalda joriy etish bilan bog'liq jarayondir.

Innovatsion jarayon innovatsiyalarni yaratish, o'zlashtirish va tarqatish bilan bog'liq bo'lib, ularni yaratuvchilar (novatorlar) buyumning hayotiy sikli va iqtisodiy samaradorlik kabi mezonlar bilan boshqaradilar. Innovatsion faoliyat strategiyasi iqtisodiy yoki ijtimoiy sohada betakrorligi tan olinadigan yangiliklarni yaratgan holda raqobatchilardan ilgarilab ketishga qaratilgan.

Har qanday innovatsiyani uni olib boradigan innovatsion jarayonning xususiyatlarini hisobga olib, o'rganish lozimligidan kelib chiqilsa, ilmiy-texnik yangiligi, ishlab chiqarishga qo'llanuvchanligi, tijoriy amalga oshiriluvchanligi kabi xossalari uning uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'rsatilgan xossalardan istalganining mavjudmasligi xususiylashtirilgan korxonada darajasidagi innovatsion jarayon pirovard natijalarida salbiy aks etadi.

Innovatsion jarayonning ilmiy-texnik yangiligi, ishlab chiqarishga qo'llanuvchanligidan farq qilib, tijoriy jihati innovatsiyani bozor ishtirokchilarining real ehtiyojlari orqali anglangan iqtisodiy zaruriyat sifatida ta'riflaydi. Shu bilan bog'liq ravishda innovatsion jarayon tashkilotchilari uning moddiylashtirilishi va tijoratlashtirilishi o'rtasida aniq chegarani ko'rishlari zarur. Agar innovatsiya jarayonining birinchi tarkibiy qismi innovatsiyalar, kashfiyotlar va ishlanmalarni sanoat mahsuloti, mehnat buyumlari va vositalari, ishlab chiqarishni tashkil etish texnologiyalarining yangi texnik jihatdan takomillashgan turlariga aylantirish bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tarkibiy qismi ularning daromad manbaiga aylinishini ta'minlaydi. Demak, ilmiy-texnik innovatsiyalar nafaqat yangiliklarga, balki bozor talabini qondirish layoqati va tovar ishlab chiqaruvchilarga foyda keltirish imkoniyatiga ham ega bo'lishi kerak.

Innovatsion faoliyat doirasi ma'lumki bitta sifatidan ikkinchisiga o'tish resurslar (energiya vaqt, moliya va h.k) sarfini talab etadi. Novatsiya (yangilik)ning innovatsiya (yangiliklarni kiritish)ga o'tish

jarayonida ham turli xildagi resurslar sarfini taqozo etadi. Ularning ichida eng muhimi, asosiylari bo'lib sarmoyalar (investisiyalar) va vaqt hisoblanadi. Bozor sharoitlarida tovarlarni sotish va xarid qilishning iqtisodiy munosabatlar tizimi sifatida innovatsiyali faoliyatning asosiy tarkibiy qismlari (bo'laklari, komponentlari) bo'lib, yangiliklar, investisiyalar (sarmoyalar) va yangiliklarni kiritish xisoblaniladi. Bu tizim doirasida talab, taklif va narx-navo shakllanadi. Yangiliklar (novasiyalar) bozorini, yangilikni kiritish (innovatsiyalar) toza (sof) raqobat bozorini, investitsiyalar kapital bozorini shakllantiradi. Ushbu uchta asosiy komponentlar innovatsiyali faoliyat doirasini (sohasini) paydo qiladi (yaratadi).


Yangikliklar tadbisini sof raqobat bozori

Sof raqobat bozori deb biror xaridor yoki sotuvchi mavjud (joriy) narxlar darajasiga katta ta'sir o'tkazmaydigan vaziyatga mahsulotlarni ayriboshlaydigan sotuvchilar va xaridorlar yig'indisiga aytiladi. Sof raqobat tushunchasidan foydalanish bizga narx bilan bog'liq bo'lgan va bosliq bo'lmagan masalalarni ko'rib chiqishga hojat yo'qligi vijdonga xilof va boshqa turdagi bellashuv va ko'rinishlar (ishlab chiqarish munosabatlarining subyektlari o'rtasidagi eng foydali kapitalni qo'yish doiralari, sotish bozorlari, resurslar manbalari hamda, ilmiy va ilmiy-texnik faoliyat natijalari uchun) dan to'xtash imkoniyatini beradi. Oldinda aytilganidek ilmiy va ilmiy-texnik faoliyat natijasi bo'lgan yangilikdan yangi texnologiyalar, ma'lumotlar, xizmatlar, yangi usullar va boshqalar sifatida jamoat tomonidan tan olingan. yangiliklar tadbisicha vaqt va resurslar sarfi bilan jarayon amalga oshadi. Sog'lom raqobat bozori bu jarayonda ikki tomonlama ishtirok etadi, ya'ni qarama-qarshiliklarni birligi va kurashi sifatida.

Bir tomondan, tijorat korxonalari va xo'jalik yuritishning boshqa subyektlari raqobat kurashida quyidagilarga majburlirlar:

- ishlab chiqarishning texnik darajasini oshirish;
- mahsulotning texnik darajasida yoki xizmatlar tizimini yaxshilash;
- ishlab chiqarish, tashkil etish va boshqarishni rivojlantirish;
- mahsulot va xizmatlar sifatini oshirish;
- ishlab chiqarish sarfini xarajatlarini (kamaytirish) pasaytirish;
- texnik xizmat tizimini takomillashtirish;
- xaridorlarda ekspluatatsion xarajatlarni kamaytirish;

- o'z mahsuloti va xizmatining foydalanish samarasini oshirish;
- sotuv va xarid narxlarining zaruriy darajasini saqlab turish;
- marketing va reklama ma'lumotli faoliyat darajasini ta'minlash;



Ikkinchi tomondan, katta ilmiy texnik ahamiyatga molik bo'lgan yangiliklar tijorat korxonalarining maqsadlariga javob bermasa, uni inkor etadi. Raqobat tijorat korxonalari va xo'jalik yuritishning boshqa subyektlarini rag'batlantirmaydi, balki ularni yangiliklar bozoriga borishni va uning shakllanishida ishtirok etishga majbur qiladi. Yangiliklar bozorida qatnashish quyidagi asosiy ko'rinishlarda amalga oshiriladi:

- o'zining ilmiy, ilmiy-texnik va eksperimental bazasini rivojlantirish;

- ba'zi korxonalar bilan birgalikda kooperativli shartlar asosida tadqiqotlarni o'tkazish;

- ilmiy-tadqiqot va eksperimental ishlarni bajarish bo'yicha boshqa korxonalariga buyurtmalar berish;

- mahsulotni ishlab chikarish va xizmatlarga huquq beruvchi lisenziyaga ega bo'lish;

- tayyor mahsulotni, texnologiyani, nou-xau va boshqa intellektual mulklarni sotib olish;

- aksiyalar, obligatsiyalar, chet el kapitalini jalb etish va qo'shma ishlab chiqarishni tashkil etish yo'li bilan nomaterial aktivlarga ega bo'lish.

Ishlarning bajarilishi ketma-ketligini hisobga oladigan bo'lsak, innovatsiyalarning hayotiy davri **innovatsiyali jarayon** sifatida ko'riladi. Nazariya va amaliyotda mahsulot eki xizmatlar hayotiy davri pog'onalarining tarkibini aniqlovchi yagona yondoshish yo'q. Mustaqil davlatlarlar hamdo'stligi) mamlakatlarida keng qo'llaniladigan mahsulotlar, sifatini boshqarishning majmuyi tizimi uslubiyotida mahsulot hayotiy davrining to'rtta pog'onasi nazarda tutilgan:

- tadqiqot va ishlab chiqilmalar;

- tayyorlash;

- muomala va amalga oshirish;

- ekspluatatsiya va iste'mol.

Xalqaro amaliyotga binoan mahsulot **hayotiy davrida ko'prog kichik pog'onalariga bo'lingan:**

- marketing izlanish va bozorni o'rganish;

- loyihalash va (yoki) texnologik talablarni ishlab chiqish;

- ishlab chiqarish jarayonlarini tayyorlash va ishlab chiqish;

- ishlab chiqarish;

- nazorat sinovlarni o'tkazish va tadqiqot;

- qadoqlash va saqlash;

- mahsulotlarni sotish va taqsimlash;

- montaj va ekspluatatsiya;

- texnik yordam va xizmat ko'rsatish;

- foydalanib bo'lgandan keyin mahsulotni yaroqsizlantirish (utilimizatsiya)

Yangilashni, rivojlanishni xohlamagan korxonani topish juda qiyin.

Uy xo'jaligi uchun mebel, videotexnika, avtomobil va boshqa narsalarni sotib olish yoki yangilash zarur.

Korxonalar uchun yangi texnologiyalar, tashqi va ichki bozorda raqobat oladigan yangi mahsulotlarni o'zlashtirish maqsadga muvofiqdir.

Davlat uchun yangi turdagi qurollar ekologik jihatdan toza energiya turlari, resurslarini tejaydigan texnologiyalar va boshqalar zarurdir. Jahon hamjihatliki esa yer atrofidagi (yaqin) fazni va Marsda uchishlarni o'zlashtirish jaxon okeanining resurslaridan foydalanish va boshqa loyihalarni ko'rib chiqmoqda. Ilm va texnikaning birgalikda rivojlanishi bu narsalarga hozirda erishishga imkoni beradi. Ammo xo'jalik yuritishning xohlagan subyektlari ehtiyojlari ehtiyojlarini qondirishda asosiy chegaralanish bo'lib hamma ko'rinishdagi (ssuda, aylanma, hisssadorlik, ustavli va boshqa) kapital xisoblanadi.

14.3. Innovatsion jarayonga ta'sir qiluvchi omillar

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiyotni modernizatsiyalash borasidagi sa'y-harakatlarning yanada kuchaytirilishi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion jarayonlar uzluksizligini ta'minlash va ko'lamini oshirish bilan tavsiflanadi.

Bu esa ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarini samaradorligi bevosita fan yutuqlariga asoslangan ishlanmalar, ixtiro hamda loyihalar, ilm-fan sig'imi yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni joriy qilish bilan belgilanadi.

Mamlakatimiz korxonalarida innovatsion jarayonlarni yanada rivojlantirishga taalluqli muammolarni o'rganish shuni ko'rsatmoqdaki, innovatsion faoliyatni samaradorligi birinchi navbatda mamlakatda innovatsion muhitni yaxshilashga qaratilgan qonunlar doirasida yagona huquqiy normalar tizimini shakllantiradigan institutsional asoslarni ishlab chiqish darajasiga bog'liq ekanligini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, mamlakatimiz innovatsion faoliyatni rivojlantirishda "Iqtisodiy hamkorlik va rivojlantirish tashkiloti" (IHRT) tomonidan ishlab chiqilgan innovatsiyalarni boshqarish bo'yicha xalqaro standartlar va uslubiy tavsiyalarni chuqur o'rganish zarur. Bularga 1995 yilda IHRT tomonidan qabul qilingan "Ilmiy va ilmiy-texnikaviy sohada band mehnat resurslarini aniqlash" (Manual On The Measurement Of Human

Resources Devoted To S&T - Canberra Manual), 1997-yilda qabul qilingan “Milliy innovatsiya tizimi” (National Innovation System), 2002-yildagi “Ilmiy tadqiqot va ishlanmalar bo‘yicha hisobot standartlari” (Proposed Standard Practice for Surveys of Research and Experimental Development), “Milliy innovatsiya tizimini o‘zgarishi” (Dynamising National Innovation Systems), “Fraskati qo‘llanmasi” (The Frascati Manual) kabi xalqaro standartlar va uslubiy tavsiyalarni ta’kidlashimiz mumkin.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida milliy iqtisodiyotning innovatsion salohiyati birinchidan, innovatsion faoliyatni tartibga soluvchi huquqiy mexanizmlarga bog‘liq bo‘lsa, ikkinchidan, innovatsion loyihalar, g‘oyalar va ixtirolarni moliyalash tizimini rivojlanganlik jihatlariga bog‘liq bo‘ladi. Bu innovatsion jarayonlarning institutsional asoslarini tashkil etadi. Shu nuqtayi nazardan iqtisodiyotni globallasuvi va ishlab chiqarishni modernizatsiyalash sharoitida davlatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri mamlakatning innovatsion salohiyatini oshirish masalalari hisoblanadi. Natijada davlat tomonidan milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash, texnika va texnologik qayta jihozlash, iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini tubdan o‘zgartirish, diversifikatsiya qilish masalalariga ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 7-avgustdagi “Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish va boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 436-sonli, 2008-yil 15-iyuldagi “Innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 916-sonli Qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 10-noyabrdagi “Ilmiy, ilmiy-tadqiqot muassasalari va tashkilotlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 241-sonli, 2008-yil 15-oktyabrdagi “Texnologiyalar transferi Agentligi” Davlat unitar korxonasi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 228-sonli Qarorlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon iqtisodiyotining globallasuvi ishlab chiqarishni muntazam yangilab, modernizatsiya qilib borish zaruratini kun tartibiga yanada o‘tkir qilib qo‘yayotganligi bois ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalari bor kuch-imkoniyati va resurslaridan samarali foydalanishga e‘tibor qaratmoqda. Buning uchun iqtisodiyotning muhim tarmoqlarini yanada rivojlantirish, yangi o‘zak tarmoqlarni barpo etish, tarkibiy

o'zgarishlar, samarali va erkin iqtisodiyotni shakllantirish zarur. Shu bilan birga, milliy iqtisodiyotni raqobatdoshligini oshirish uchun innovatsion mahsulotlar hisobiga korxonalar va tarmoqlar faoliyat sohaslarini kengaytirish maqsadga muvofiq.

Bugungi jahon iqtisodiyotining tobora o'zaro integratsiyalashuvi sanoat korxonalarining raqobat muhitiga moslashuvchan jihatlarni kengroq o'rganish, har tomonlama rivojlanayotgan bozor munosabatlari talablariga mos holda ishlab chiqarishni tashkil etish va samarali boshqarishni zaruratga aylantirmoqda.

14.3.1-jadval

Innovatsion jarayonlarni rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar

Omillar	Innovatsion faoliyatni rivojlantiruvchi omillar	Innovatsion faoliyatga to'sqinlik qiluvchi omillar
Siyosiy	Davlatning monopoliyaga qarshi siyosati, erkin iqtisodiyotni shakllanishi, milliy innovatsion tizimni rivojlanishi	Tadbirkorlik faoliyatidagi byurokratik to'siqlar, xususiy mulkchilikni davlat tomonidan kafolatlanish tizimini to'la shakllanmaganligi, siyosiy beqarorlik
Huquqiy	Intellektual mulk obyektlarini himoya qilish tizimi, mualliflik huquqlarini himoya qilinganlik darajasi	Patent va litsenziya berish to'g'risidagi qonunchilik hujjatlaridagi kamchiliklar
Iqtisodiy	Innovatsion mahsulot ishlab chiqaruvchi va xizmat ko'rsatuvchi xo'jalik subyektlarni rag'batlantirish	Innovatsion bozorlarda raqobatning keskinlashuvi, innovatsion faoliyatni amalga oshirishda iqtisodiy tavakkalchilik va xavfning yuqoriligi
Texnologik	Zamonaviy innovatsion texnologiyalarni qo'llash bo'yicha ilmiy-texnik yutuqlarga erishish, yuqori texnologiyani joriy qilish	Moddiy, ilmiy-texnik va zamonaviy laboratoriya jihozlarini yetishmasligi, korxonalarining asosiy vositalarini ma'naviy eskirganligi
Moliyaviy	Fundamental, amaliy tadqiqotlar, ishlanmalar yoki eksperimental ishlarni moliyalashtirish tizimining samarasi	Yirik investitsion loyihalarni amalga oshirishining kechikishi, innovatsion infratuzilmani shakllantirish jarayonini sustligi
Tashkiliy	Mamlakatning ilmiy va ilmiy-texnik salohiyatini oshirish chora-tadbirlarini belgilash va amalga oshirish	Fan, texnika, iqtisodiyot, biznes va boshqaruvni birlashtiruvchi innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish jarayonlarini sustligi, ilmtalab tarmoqlar uchun mutaxassislarni tezkor tayyorlashni ta'minlovchi yangi dasturlarni etishmasligi

Boshqaruv	Innovatsion, motivatsion, iqtisodiy, tashkiliy-ma'muriy qismlarni o'z ichiga olgan milliy, hududiy hamda iqtisodiyotning ustuvor sohalarni innovatsion rivojlantirish bo'yicha strategiyalar ishlab chiqish	Innovatsion menejment ixtisosligi bo'yicha kadrlarni tayyorlash va ilm-fan sohasida erishilgan yutuqlarni amaliyotga tatbiq etishdagi muammolar
Ijtimoiy	Ta'lim muassasasi moddiy-texnikaviy bazasini mustahkamlash, ishlab chiqarish talablari va jamiyatning rivojlanish darajasiga javob beruvchi, sifatli kadrlarni tayyorlash	Jamiyatda ilg'or g'oyalarni shakllantirish hamda fan va texnikaning rivojlanishini zamon talablariga uyg'unlashtiradigan vositalar hamda globalizatsiya jarayonlariga moslashtirishdagi muammolar

Tarkibiy o'zgarishlar va iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari milliy iqtisodiyotimizning bir bo'g'ini sifatida respublika iqtisodiyotiga, xalqimizning farovon turmush kechirishiga katta hissa qo'shib kelmoqda.

Xorij mamlakatlarida raqobatdosh va arzon ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni mamlakatimizga kirib kelishi mutaxassis va yetakchi olimlardan respublikamizda mavjud bo'lgan sanoat korxonalarini rivojlantirish va samarali faoliyat ko'rsatishiga doir ilmiy asoslangan qirralarini ochib berishni dolzarb masalaga aylantirmoqda. Shularni hisobga olib mazkur sohadagi ilmiy izlanishlarga e'tibor qaratgan holda, innovatsion jarayonlarni rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni quyidagi jadvalda keltirilgandek turkumlashimiz mumkin. Chunki mazkur omillarni har tomonlama tatqiq etish korxonalarida raqobatdosh yangi mahsulotlar ishlab chiqarishga asoslangan innovatsion jarayonlarni boshqarishning samarali yo'llarini ilmiy asoslash hisobiga ish yuritish faoliyatiga ta'sir ko'rsatishi tabiiydir.

Innovatsion faoliyatga to'sqinlik qiluvchi va rivojlanishiga sharoit yaratuvchi omillarni o'rganish mamlakatimizda innovatsion jarayonlarni yanada jadallashtirish, zamonaviy, moslashuvchan innovatsion siyosatni olib borish bo'yicha belgilangan vazifalarni bajarish yuzasidan samarali strategik maqsadlarni belgilab olishga yordam beradi.

Mamlakatimizda biznes subyektlarining innovatsion faoliyati rivojlanish darajasini yuksaltirish uchun iqtisodiyot tarmoqlarini innovatsion rivojlantirish, modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilashning strategik maqsadlariga mos ravishda yaqin yillar ichida zarur shart-sharoitlarni yaratish lozim.

Hozirda rivojlangan mamlakatlar sanoat korxonalarida innovatsion faollikni oshirishda investitsiyalarni strategik boshqarishga alohida e'tibor qaratilgan. Natijada muayyan tarmoqlarda sanoat ishlab chiqarishining samarali amalga oshirilishi hisobiga innovatsion faollikni yanada kuchayishi kuzatilmoqda. Chunki sanoat korxonalarida innovatsion mahsulotlar yaratish va xizmatlar ko'rsatish ko'lamini kengayishi, o'z navbatida, ishlab chiqarish jarayonining yangi ko'rinishlarini joriy qilish, ish o'rinlarni tashkil etish hamda tashqi aloqalarning kengayishiga sharoit yaratadi. Buni sanoati o'sib borayotgan xorij mamlakatlari tajribasida ko'rishimiz mumkin.

Jumladan, yalpi ichki mahsulotida (YaIM) sanoat ulushi yuqori bo'lgan mamlakatlar sifatida Qatar, Bahreyn, Xitoy va Indoneziya davlatlarini ta'kidlashimiz mumkin. Misol uchun, 2011-yilda YaIMda sanoat ulushi Qatarda 74,9 foiz, Bahreyn 66,2 foiz, Xitoyda 48,6 foiz va Indoneziyada 48,1 foizni tashkil etgan. O'zbekistonda esa sanoat mahsulotining YaIMdagi ulushi 2011 yilda 24,1 foizni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2010 yilga nisbatan 6,6 foizga ortgan.

O'zlashtirilgan investitsiyalar miqdori 2011 yilda YaIMga nisbatan Xitoyda 40,5 foiz, Hindistonda 39,0 foiz, Ruminiyada 33,3 foiz, Qatarda 32,1 foiz va Belarusda 31,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, O'zbekistonda bu ko'rsatkich 23,9 foizga teng bo'ldi. Mamlakatimizda 2011 yilda o'zlashtirilgan investitsiyalar miqdori 10,8 mlrd. AQSH dollarini tashkil etib, 2010 yilga nisbatan 11,2 foizga ortdi. Milliy iqtisodiyotning real sektoriga jalb qilingan xorijiy investitsiyalarning hajmi 2,4 mlrd. AQSH dollarini tashkil etdi. Buning natijasida farmatsevtika va mebelsozlikning sanoatdagi ulushi 18,0 foiz, oziq-ovqat sanoati 13,1 foiz, mashinasozlik va avtomobilsozlik sanoati 12,2 foiz, qurilish materiallari sanoati 11,9 foiz hamda kimyo va neft-kimyo sanoatining ulushi 9,4 foizni tashkil etdi.

Milliy iqtisodiyotimizni rivojlantirishda innovatsion faoliyatga e'tibor berish va uni rag'batlantirish, ilmiy-tadqiqot ishlarida xorijiy tajribalarni qo'llash va kadrlar ilmiy salohiyatini oshirish asosiy omil bo'ladi.

Innovatsion faoliyat uchun ilmiy-tadqiqot ishlariga kerakli mutaxassislarni jalb qilish, ularda ilmiy-tadqiqot olib borish bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish, korxonalarining innovatsion salohiyatini yaxshilash uchun xizmat qiladi.

Innovatsion mahsulotlarni yaratishda korxonalarining zamonaviy texnik jihozlar va axborot vositalari bilan ta'minlangan laboratoriyalarning mavjudligi ilmiy-tadqiqotlarning yuqori darajada o'tishini ta'minlash, murakkab ilmiy hisob-kitoblarni o'ta yuqori aniqlik bilan amalga oshirish imkonini beradi.

Korxonalarining innovatsiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni amalga oshirish uchun yetarli moliyaviy mablag'ga ega bo'lishi innovatsiyalarga bo'lgan talabning oshishiga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan bugungi kunning zamonaviy korxonalari innovatsion faoliyatni samarali tashkil qilish uchun har bir innovatsion jarayonni bozor talabidan kelib chiqib amalga oshirishi zarur.

Zamonaviy korxonalarda innovatsion faoliyat tarkibini innovatsion jarayonlar tashkil etadi. Bu faoliyat bir necha jarayonlardan tashkil topgan bo'lib, ular bir-biriga chambarchas bog'liq bo'lgan innovatsion jarayonlarni boshqarish uchun xizmat qiladi.

Yuqorida fikrlardan kelib chiqib, zamonaviy korxonalarda innovatsion faoliyatni tashkil qilish va innovatsiyalarni yaratishda, ularni ishlab chiqarishga tatbiq etish jarayonini yanada takomillashtirish masalalari bo'yicha quyidagilarga alohida e'tibor qaratish lozim:

– korxonalarda asosiy e'tiborni ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish bilan birgalikda, mavjud ilmiy salohiyatini rivojlantirish, ulardan samarali foydalangan holda innovatsiyalarni yaratish va ishlab chiqarishga joriy etishga qaratish;

– zamonaviy korxonalar joylashgan mintaqada faoliyat yurituvchi ilmiy-tadqiqot muassasalar bilan hamkorlik aloqalarini yanada rivojlantirish;

– korxonalaridagi laboratoriyalarni texnik jihatdan tubdan yangilash chora-tadbirlarini amalga oshirish;

– korxonalarda innovatsion mahsulot yaratuvchi ixtirochilarga imkoniyat yaratish, xorijiy mutaxassislar va tajribali ilmiy tadqiqotchilar bilan o'quv kurslari yoki seminarlarni tashkil etish.

Shuni aytish joizki, zamonaviy korxonalarda innovatsion faoliyatni samarali tashkil etishga bo'lgan bunday yondashuv ma'lum bir hudud doirasida korxonalarining innovatsion faoliyatini jonlantirish va innovatsion salohiyatini oshirish uchun xizmat qiladi. Bu esa, barcha turdagi korxonalarining innovatsion faoliyatini rivojlantirish, ma'lum vaqt mobaynida kadrlarning ishlab chiqarish va investitsion


salohiyatlaridan foydalanish u yoki bu innovatsiya ko‘rinishdagi olingan natijalarda namoyon bo‘ladi.

14.4. Innovatsiyalar tushunchasi va ularning tasnifi

Iqtisodiy o‘shishni boshidan kechirayotgan jamiyatda tovarlar va pullar avvaldan odat bo‘lib qolgan yo‘nalishlar bo‘yicha bir-biriga harakat qiladilar. Shumpeter ushbu harakatni iqtisodiy hayotning sirkulyar oqimi deb nomlagan. Iqtisodiy rivojlanish sirkulyar oqimni izdan chiqaradi, sanoatning yangi tarmoqlarini jonlantiradi va eskilari faoliyatini to‘xtatadi. Masalan, avtomobilni ixtiro qilinishi faqatgina avtomobil sanoatini yaratilishiga emas, balki po‘lat, rezina va shisha ishlab chiqarishda sezilarli o‘zgartirishlarga sababchi bo‘ldi. Shu bilan birga avtomobil ot zavodlari va sarrojlik fabrikalari – otlarni ko‘paytirish va egar jabduq tayyorlashga jiddiy zarar keltirib ularni sanoat darajasidan yarimkosiblik hunarmandchiligiga aylantirib qo‘ydi. Biroq iqtisodiy rivojlanish uzluksiz davom eta olmaydi, chunki yangi g‘oyalar har kuni paydo bo‘lavermaydi. Innovatsiya, u bilan birga iqtisodiy rivojlanish, uzuq-uzuq xarakterga ega. Aynan innovatsiyaning uzuq-uzuq xarakteri orqali Shumpeter iqtisodiy sikllarni asoslagan edi. Bu Keynsning “Ish bilan bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi” asarida bildirilgan fikrlar noto‘g‘ri ekanligini asoslaydimi? Yo‘q, albatta. Makroiqtisodiy nazariya tsirkulyar oqimga xos holatlarni juda yaxshi yoritadi, unda o‘zgarishlar faqat miqdoriy xarakterga ega. Va aynan shu holat, uni mohiyati jihatidan sifat o‘zgarishiga olib keluvchi iqtisodiy rivojlanishga qo‘llanilishini cheklaydi. Innovatsiyalarni niyat qilgan va amalga oshiradigan odamlarni Shumpeter tadbirkorlar deb nomlagan. Innovatsion qarorlarni qabul qilib, tadbirkorlar yangi, avval ma‘lum bo‘lmagan ishlab chiqarish omillari kombinatsiyalarni yaratishadi. Aynan shu sababdan, Shumpeter tadbirkorlikni (yoki tadbirkorlik qobiliyatini) klassiklarga noma‘lum bo‘lgan ishlab chiqarishning to‘rtinchi omili deb hisoblagan. Shu yerda birinchi ko‘rinishda mavhum bo‘lib ko‘ringan Shumpeterning nazariyasi kutilmagan holda amaliy tasdig‘ini oldi. Agar tadbirkorlik qobiliyati ishlab chiqarish omili bo‘lsa, demak, uning cheklangan miqdorini boshqa ishlab chiqarish omillarini oshirish jarayonida kamayib borishini keltirib chiqaradi.

Aynan shu xulosaga XX asrning 60-yillarida Chikago universitetining iste'dodli iqtisodchisi Milton Fridman 2 kelgan. Fridman amerika telekommunikatsiyalarining unumliligini kamayib borishini o'rgangan. Va kutilmagan holatda u unumlilikni kamayib borishining boshlanishini yer, mehnat yoki kapitalning cheklanganligi bilan tushuntirib bo'lmashligini angladi. Faqatgina tadbirkorlik qobiliyatining cheklangan miqdori (ya'ni, ishlab chiqarish omillarini birlashtirish qobiliyati) boshqa omillardan foydalanish samarasini pasayishiga olib kelishi mumkin. Shumpeter tomonidan taklif etilgan g'oyalar hozirgi kunda iqtisodiyot fani chegaralaridan chiqib ketgan. Ko'pgina kompaniyalar (shu jumladan, juda kattalari ham) tadbirkorlik tashkilotlariga muvaffaqiyatli aylanmoqdalar, va ularda innovativ qarorlar faqatgina yuqori rahbariyat tomonidan qabul qilinmaydi. Tadbirkorlik tashkiloti barcha innovatsiyalarni, ularning kelib chiqishidan qat'iy nazar, foyda bilan sotishga intiladi. Tadbirkorlik tashkilotlarini paydo bo'lishini Shumpeterning "Iqtisodiy rivojlanish nazariyalari" da qayd etilgan edi. Y.Shumpeterdan so'ng G.Mensh, M.Kaletski, B.Tviss va boshqalarning tadqiqotlari asosida innovatsiyalarning "neoklassik" nazariyalari vujudga keldi. Ushbu sohaning mashhur namoyandalari innovatsiyalarni yangi iste'mol tovarlari, ishlab chiqarishning va tashishning yangi usullari, yangi bozorlardan kelib chiquvchi rivojlanishning "bosh impulsi" deb baholashadi. Bunda ular iqtisodiyotning rivojlanishini siklliligini hisobga olishadi. Iqtisodiy o'sish nazariyasiga ilmiy-texnik yangiliklar ta'siri ostida M.Kaletski katta hissasini qo'shgan. Uning konsepsiyasiga binoan tovar aylanishi sikli doirasida doimiy iqtisodiy o'sishni ta'minlashi mumkin, ammo tizimdagi o'zgarishlar keltirib chiqaradigan impulslar iqtisodiyotni siklik rivojlanishi muvozanatidan "chiqarishi" va uni uzoqmuddatli istiqbolda "sakrash yo'li bilan ro'y berishi"ga sabab bo'lishi mumkin. Bunday impulslarga innovatsiyalar kiradi. M.Kaletskining fikriga ko'ra, innovatsiyalar iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantiradi, uzoqmuddatli istiqbolda iqtisodiy tushkunliklar davomiyligini qisqarishini ta'minlaydi va ko'tarilish davrini uzaytiradi. Ijtimoiy nazariya innovatsion faoliyatni boshqarishda insoniylik munosabatlarning ustuvorliklari bilan bog'liqdir. Unda asosiy o'rinni shaxsning roli, ta'lim darajasi muammolari, ijtimoiy-ruhiy va tashkiliy omillarning tahlili egallagan. Ushbu nazariya uchun muhim jihat bo'lib innovatsiyalarni alohida tashuvchilari sifatida odamlar guruhini ajratib olish hisoblanadi. Innovatsion tadbirkorlik

taraqqiyotining zamonaviy sharoitida “jadallashuv nazariyasi” vujudga keldi. Ushbu nazariya namoyondalari N. Kondratevning uzun to‘lqinlari nazariyasiga asoslangan holda tadbirkorlikni rivojlanishini alohida “g‘arb modeli bo‘yicha” (AQSH) tahlil etishmoqda. G‘arb tadbirkorligi yuqoriroq sur‘atlar bilan rivojlanadi, unda novatorlik, jur‘atlilik, tavakkalchilik yuqoriroq darajada. AQSHda xo‘jalikning eski tarmoqlarini yangilari bilan almashinilishi jarayoni juda tez bo‘lib o‘tadi. Rivojlanishning yuqori sur‘atlari “uchinchi to‘lqin” tarmoqlarida kuzatilmoqda: kompyuter texnikasi va texnologiyasi, dasturiy ta‘minot. Bu esa jadallashuv nazariyasining innovatsion faoliyatning tadbirkorlik bilan bog‘liqligi, innovatsion sohaga sarflangan investitsiyalarning yuqori samarasi, jamiyatning innovatsion taraqqiyotiga davlatning ko‘maklashuv siyosatini olib borilishi zarurati to‘g‘risidagi xulosalarni tasdiqlaydi.



14.4.1-rasm. Texnologik innovatsiyalarning turlari

Jahon xo‘jaligida ro‘y bergan va hali hanuz uning yangi to‘lqinlari u yoki bu ko‘rinishda namoyon bo‘layotgan global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz keyingi 5-6 yilda dunyoning aksariyat davlatlari iqtisodiyotining raqobatbardoshlik darajasini sinovdan o‘tkazmoqda. Keyingi yillarda doimiy ravishda dahon raqobatbardoshlik reytingida eng raqobatbardosh mamlakatlardan deb tan olingan Yaponiya, Germaniya, Finlyandiya kabi davlatlar iqtisodiyotida ham ayrim tarmoqlarda tushkunlik, tanazzul, turg‘unlik yoki pasayish tendensiyalari kuzatilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, iqtisodiyotning yangi sohalarni – tarmoqlardagi innovatsion yo‘nalishlarni jadal rivojlantirishni taqozo

etmoqda. Boshqacha aytganda, qaysi davlatda yangiliklar, yangilanishlar ko'proq va kengroq miqyosda sodir bo'layotgan bo'lsa, shu davlatlar qiyin vaziyatlardan tezroq chiqib ketishmoqda, yangi sohalarga ixtisoslashib olishmoqda.

Innovatsiya tushunchasiga nazariy-ilmiy va amaliy qiziqishlar keyingi 10-15 yilda juda kuchaydi. Ilgari investitsiya, investitsiyalash, investitsiya siyosati, tarkibiy o'zgarishlar va siljishlar hamda tarkibiy siyosat tushunchalari ilmiy jamoatchilik va keng doirada atroflicha qiziqish bilan o'rganilgan bo'lsa, bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri—bu innovatsiya, innovatsion salohiyat, innovatsion siyosat va uning natijalaridir.

Innovatsiya tushunchasiga yondoshuvlar turlicha, shu sababli innovatsiya yoki innovatsion faoliyatga turlicha ta'riflar berilib kelinmoqda. Masalan, bir ta'rifda, innovatsiya — texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta'minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag'lar hisoblanadi. Shuningdek, boshqa ma'noda innovatsiya — ilmiy-texnika yutuqlari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalari va faoliyat doiralarida qo'llanilish, deb ko'rsatiladi⁴.

Mamlakatda barcha sohalarda amalga oshirilayotgan yangilik darajasi bo'yicha texnologik innovatsiyalarni bazis, yaxshilovchi va soxta innovatsiyalarga ajratiladi⁵.

Innovatsion o'zgarishlar amal qilish maydoniga ko'ra, inson faoliyatining barcha sohalari va jamiyatning har bir jabhasini qamrab oladi. Shunga qaramay, boshlang'ich, eng ko'p o'rganilgan texnologik innovatsiyalar sifatida yuqorida keltirilganidek, ishlab chiqarishning yangi texnologik usulining shakllanishi asosida yotuvchi davrga xos innovatsiyalar:


-texnologik ukladlar va texnika (texnologiya) avlodlarini o'zgartirishga turtki bo'luvchi bazis innovatsiyalar;

-yangi texnika modellari va texnologiya modifikatsiyalari yordamida yangi bozorlarni o'zlashtirishga xizmat qiluvchi yaxshilovchi innovatsiyalardir.

⁴ "Ўзбекистон миллий энциклопедияси", 4 —жилд, 169 бет, "ЎзМЭ" Давлат илмий нашриёти, Тошкент, 2002 й.

⁵ Кузык Б.Н., Яковец Ю.Б. Россия — 2050 Стратегия инновационного развития. —М.: «Экономика», 2004, с. 22-28

Texnologik innovatsiyalar tabiat kuchlaridan foydalanish va atrof-muhitga ko'rsatiluvchi zararli ta'sirni kamaytirishning yanada samaraliroq usuli bo'lgan iqtisodiy innovatsiyalar hamda ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish, ishlab chiqarilgan mahsulotlar muomalasi, narx, moliya-kredit, pul mexanizmlari shakllarini o'zgartirishga olib keluvchi va takror ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi iqtisodiy innovatsiyalarning asosi bo'lib xizmat qiladi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, hozirgi iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida texnologik innovatsiyalar asta-sekinlik bilan xususiy sektordagi kompaniyalar rivojlanish strategiyasining bir qismiga aylanib bormoqda.



14.4.2-rasm. Innovatsiyalar klassifikatsiyasi

Qishloq xo'jalik yoki sanoat korxonalarida yangiliklar kiritish mehnat mahsulдорligini oshirish, moliyaviy, mehnat va moddiy resurslarni tejash hamda chiqarilayotgan mahsulot va xizmatlar sifatini oshirishga ko'maklashishga bir qancha misollar keltirish mumkin.

Iqtisodiy ilmiy adabiyot va manbalarda innovatsiyalarni turli belgilariga ko'ra turkumlashga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, bu borada yondashuvlarni quyidagicha umumlashtirish mumkin (14.4.2-rasm).

Innovatsion jarayon nafaqat ishlab chiqarishda balki, ijtimoiy-siyosiy va huquqiy sohalarda ham amalga oshiriladi. Ijtimoiy-siyosiy va huquqiy sohalardagi innovatsiyalar ijtimoiy stratifikatsiya hamda ijtimoiy sinf va guruhlar tarkibida o'zgarishlarga olib keladi.

Korxonalar faoliyatini boshqarish jarayonida kerakli axborot va intellektual resurslarga ega bo'lgan va qaysi innovatsiyani ishlab chiqish yoki ishlab chiqarishga tatbiq etish lozimligini bilgan taqdirda ham u moliyalashtirish muammosiga duch keladi.

Tayanch iboralar

Innovatsion jarayon, innovatsion faoliyat, innovatsion loyiha, davlat innovatsiya siyosati, innovatsion infratuzilma, innovatsiya dasturi, monoloyiha, multiloyiha, megaloyiha, texnologik innovatsiyalar, bazis innovatsiyalar, soxta innovatsiyalar, texnologik avlod, innovatsion samaradorlik.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Innovatsion faoliyat tushunchasini izohlang.
2. Innovatsion loyiha va innovatsion jarayon tushunchalari qanday farqli xususiyatlarga ega?
3. Innovatsion jarayonga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
4. Innovatsiyalarni qanday turlari mavjud?
5. Korxonalar doirasida innovatsion faoliyatni boshqarish tizimiga qanday talablar qo'yiladi?

XV BOB. INNOVATSION FAOLIYATNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLINISHI

Mazkur bobda O'zbekiston Respublikasida innovatsion faoliyatning huquqiy asoslari, innovatsion jarayonlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash shakllari, ilmiy izlanishlar, fundamental tadqiqotlar va innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlashda jamg'armalarning o'rni, innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlanishning nodavlat shakllari, innovatsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishda xorij tajribasi, sanoati rivojlangan davlatlarda ilmiy-innovatsion rivojlanish modellariga doir ma'lumotlar umumlashtirilgan.

15.1. O'zbekiston Respublikasida innovatsion faoliyatning huquqiy asoslari

Ilm-fan yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etish orqali zamonaviy ilg'or texnologiyalardan samarali foydalanish va shu orqali tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, innovatsiya faoliyatini, ya'ni ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik faoliyati yangicha qurilma, yangi usul, yangi moddalarni yaratish va ulardan foydalanish, mavjud qurilmalar, usullarni yangicha yo'sinda qo'llash maqsadida intellektual faoliyatning e'tirof etilgan natijalari (patent, guvohnoma, nou-xau)ni yaratish va foydalanishga yo'naltirish bilan bog'liq munosabatlarni huquqiy tartibga solish tizimini yaratish bugungi kunda alohida dolzarflik kasb etadi. Ta'kidlash lozimki, bir qator davlatlar qonunchiligida innovatsiya faoliyati huquqiy tartibga solingan. Jumladan, Rossiya Federatsiyasida, Qozog'iston Respublikasida innovatsiyalar faoliyatini tartibga soluvchi mahsus qonun hujjatlari qabul qilingan bo'lib, ularda «innovatsiya» tushunchasi, innovatsiya obyektlari va subyektlari, innovatsiya sohasidagi iqtisodiy munosabatlarning asoslariga doir qoidalar mustahkamlangan.

Innovatsiya faoliyatini huquqiy tartibga solishning bugungi kundagi zarurligi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

– ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va ish bajarish sohalariga innovatsiyalarni kiritish o'zining iqtisodiy samaradorligi, talab va taklif qonuniyatlariga javob berishi bilan alohida ahamiyati kasb etarkan, bu sohalarga innovatsiyaning jadal sur'atlar bilan jalb qilinishi ushbu munosabatlarning huquqiy asoslari mavjud bo'lishini taqozo etadi;

– chet eldan yangi texnologiyalarni, yangi qurilmalar, ishlab chiqarish vositalari va yangi moddalar olib kirilishiga keng imkoniyatlar berish va bunda xalqaro standartlarga javob beradigan mahsulotni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish mamlakat iqtisodiy rivojlanishida alohida o'rin tutishidan kelib chiqib, innovatsiyalarni chet eldan jalb etishga nisbatan huquqiy talablarni yaratish zarur bo'ladi;

– mahalliy ishlab chiqaruvchilar, ilmiy-texnik muassasalar tomonidan yaratilgan innovatsiyalar va innovatsion loyihalarning shartnomaviy tartibini qonuniy jihatdan mustahkamlash, yaratilgan yangi innovatsiyalar: yangi texnologiyalar, yangi qurilmalar, yangi moddalar, yangi usullarning huquqiy maqomini va ularga nisbatan huquqlarni belgilash talab etiladi;

– innovatsiya faoliyati subyektlarining huquqiy maqomini belgilash va ular faoliyati, huquqlari kafolatlarining asoslarini o'rnatish, innovatsiya dasturlariga homiylik qilish va davlat tomonidan ko'mak berishning huquqiy vositalarini ishlab chiqish zarur bo'ladi.

Innovatsiya faoliyatining subyektlari innovatsiya dasturlari, loyihalari, tadbirlari va ishlari buyurtmachisi va ijrochisi, investorlari, innovatsiya iste'molchilari, moddiy-texnik resurslar bilan ta'minlovchi, shuningdek, vositachi, innovatsiya jarayoniga xizmat ko'rsatuvchi funksiyalarini bajarishlari mumkin. Agar shartnomada boshqa holat belgilanmagan bo'lsa, buyurtmachi innovatsiya faoliyat ishtirokchilarining tadbirkorlik va boshqa turdagi faoliyatiga aralashmasligi lozim. Buyurtmachi, agar u investor bo'lmasa, O'zbekiston Respublikasi hududida amalda bo'lgan qonun hujjatlariga muvofiq, shartnoma amal qilishi davomida va unda belgilangan vakolatlar doirasida innovatsiyalarga egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqiga ega bo'ladi.

Innovatsiya faoliyati subyektlari innovatsiya faoliyatini amalga oshirishda, O'zbekiston Respublikasi hududida va xorijda tashkil etilgan tanlovlar, auksionlarda ishtirok etishda, ilmiy qimmatga ega bo'lgan mahsulot, texnika va texnologiyani sotib olishda, investorlar mablag'larini jalb etishda, g'irrom raqobatdan himoyalashda, shu-

ningdek, davlat organlarining buyurtmalarini bajarishda davlatning qo'llab-quvvatlashidan foydalanishda bir xildagi huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi. Innovatsiya faoliyatining subyekti innovatsiya faoliyatining yo'nalishini, turlarini, predmetini va obyektlarini mustaqil belgilaydi va o'z xohishiga ko'ra innovatsiya faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan yuridik hamda jismoniy shaxslarni shartnoma asosida jalb qiladi.

Davlatning innovatsiya siyosatini ishlab chiqishda va amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan vakolatlar doirasida amal qilayotgan jamoat innovatsiya birlashmalari jalb etiladi.

Hozirgi kunda davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilinayotgan ko'plab me'yoriy-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi tufayli ilm-fan va innovatsiya faoliyati sohasidagi asosiy yo'nalishlar rivojlanish yo'liga tushib oldi. Ilmiy-texnik salohiyat mustahkamlangani, ilmiy tadqiqotlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning yirik muammolarini hal etishga yo'naltirilgani, mamlakatimizda innovatsiya faoliyatini faollashtirish, belgilangan vazifalarni hal etish uchun katta miqdorda valuta mablag'lari ajratilayotgani shular jumlasidandir.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2016 yil 30 dekabr kuni mamlakatning yetakchi ilm-fan namoyandalari bilan uchrashuvda hukumat a'zolari, vazirlik va idoralar, davlat va jamoat tashkilotlari, tijorat banklari rahbarlari, Fanlar akademiyasi a'zolari, yetakchi oliy o'quv yurtlari rektorlari ishtirok etdi. Uchrashuvda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "Mamlakatimizda yuqori salohiyatga ega, jahon miqyosida e'tirof etilgan olimlar ko'p. Ular o'z maktablarini yaratishi, shogirdlar tarbiyalashi lozim. Yosh avlodni salohiyatli kadrlar etib tarbiyalashdagi birinchi bosqich – maktab ta'limini tubdan takomillashtirish, ilmiy kadrlar va yuksak malakali mutaxassislar tayyorlash jarayonining uzluksizligini ta'minlash zarur. Bu yo'lda hech narsani ayamaymiz", deb ta'kidladi.

Jahonning yetakchi institutlari, universitetlari, ilmiy markazlari va Fanlar akademiyalari bilan ilmiy hamkorlikni yanada rivojlantirishni zamonning o'zi talab qilmoqda, dedi Prezidentimiz. Xorijning yetakchi o'quv va ilmiy muassasalarida ta'lim va ilmiy daraja olgan yurtdoshlarimiz uchun mamlakatimizda qulay shart-sharoitlar yaratib berish, ularni rag'batlantirish choralarini ko'rish kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-sentyabrdagi PF-5185-son «O‘zbekiston Respublikasida Ma‘muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi farmonlari mamlakatimizda intellektual va texnologik salohiyatni oshirishning uzoq muddatli stsenariyalarida asosiy yo‘nalish – innovatsiyalarni rivojlantirish, korxonalarda innovatsion faoliyat bilan faol shug‘ullanishni rag‘batlantirish ko‘rsatib o‘tilgan. Bu iqtisodiyotning ustuvor soha va tarmoqlarini innovatsion rivojlantirishning yangi modellarini shakllantirish imkonini beradigan strategik milliy innovatsiya tizimini yaratish bilan bog‘liq.

Milliy innovatsiya tizimi ilm-fan, sanoat va jamiyat o‘rtasida iqtisodiyotni rivojlantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi, innovatsion taraqqiyot ehtiyojlari esa ilmiy faoliyat ravnaqini belgilab beradi va rag‘batlantiradi.

Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev tomonidan 2018-yilga yurtimizda “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili” deb nomlandi. Mamlakatimiz rahbari bo‘lajak yilga aniq va go‘zal ta‘rif berdi: **Faol tadbirkorlik** biznes faoliyatini innovatsion, ya‘ni zamonaviy yondashuvlar, ilg‘or texnologiya va boshqaruv usullari asosida tashkil etadigan iqtisodiy yo‘nalishdir.

Faol tadbirkorlik biznes faoliyatini innovatsion, ya‘ni, zamonaviy yondashuvlar, ilg‘or texnologiya va boshqaruv usullari asosida tashkil etadigan iqtisodiy yo‘nalishdir. Faol tadbirkor, deganda, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga qodir, eng muhimi, yangi ish o‘rinlari yaratib, nafaqat o‘zini va oilasini boqadigan, balki butun jamiyatga naf keltiradigan ishbilarmon insonlar tushuniladi.

Davlatimiz rahbarining akademiklar va ilm-fan ziyolilari bilan 2016-yil dekabr oyida o‘tkazgan uchrashuvi, joriy yil 17-fevraldagi “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, shuningdek, maktabgacha, maktab, o‘rta mahsus va oliy ta‘lim, akademik ilmni rivojlantirishga doir qabul qilingan qator me‘yoriy-huquqiy hujjatlar soha rivojida yangi davrni boshlab berdi.

Bugungi kunda ham O‘zbekiston Fanlar akademiyasining olimlari buyuk ajdodlari an‘analarini munosib davom ettirib, mustaqil Vatanimizning ilmiy-iqtisodiy, ilmiy-texnik, madaniy, ma‘naviy-

ma'rifiy taraqqiyoti yo'lida keng ko'lamli ilmiy izlanishlar olib bormoqda.

O'zbekistonda davlat ilmiy-texnika dasturlarining ijrochi tashkilotlari hisoblangan 93 ilmiy-ta'lim, 73 oliy ta'lim, 63 konstruktorlik, jami 230 ga yaqin ilmiy-ta'lim muassasasi mavjud. Ularda 11 mingdan ortiq fan doktorlari, ilmiy va boshqa xodimlar fan taraqqiyoti yo'lida xizmat qiladi. Joriy yil davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida 400 dan ziyod fundamental, mingga yaqin amaliy, 370 innovatsion ilmiy-tadqiqot loyihasi bajarilmoqda. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimida 1 ming 400 dan ziyod doktorantlar ilmiy ish bilan mashg'ul. 2017-yilda Fanlar akademiyasining ilmiy hajmdor mahsulotlar eksporti hajmi 3 million 200 mingdan ko'proq AQSH dollarini tashkil etdi.

O'zbekistonda ta'lim sohasiga davlat xarajatlari oxirgi yillarda YaIMning 10 foizidan ortiqni tashkil etmoqda. BMT ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatimizda ta'limga yo'naltirilayotgan xarajatlar davlat budjetining 35 foizdan ortig'ini tashkil etmoqda. Respublikamizda ilmiy, ilmiy-texnik va innovatsion potensialni yaratish va taraqqiy ettirish sohasida katta ishlar amalga oshirilmoqda. Fan tizimini boshqarishni takomillashtirish, ilmiy-innovatsion faoliyatning qonuniy va normativ huquqiy asosini kengaytirish, akademik va oliy ta'lim tadqiqotlarini takomil-lashtirish choralari amalga oshirilmoqda, ishlab chiqarishning innovatsion xarakterini oshirish, axborot va innovatsion infratuzilmalarini yaxshilash, yangi ilmtalab korxonalarini yaratish, yangi yuqori texnologiyalarni joriy etish ishlari ancha faollashmoqda.

Ilmiy tadqiqotlar O'zbekiston Fanlar Akademiyasining ilmiy tadqiqot institutlarida, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining oliy ta'lim muassasalarida, Sog'liqni saqlash vazirligining ilmiy tashkilotlarida, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining ilmiy va o'quv institutlarida, ilmiy va innovatsion markazlarida va boshqa loyiha va tajriba-konstruktorlik tashkilotlarida olib borilmoqda.

Ilmiy faoliyatni rag'batlantirish, oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari va ilmiy xodimlarining moddiy manfaatdorligini tubdan oshirish, shu jumladan, lavozimlar, ilmiy unvon va darajalar o'rtasidagi tabaqalashuvni takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-apreldagi PQ-3655-sonli "Respublika oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari xodimlarining mehnatiga haq to'lash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori

qabul qilindi. Mazkur qaror 2018-yil 1-sentyabrdan boshlab 81 ta oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari va 136 ta ilmiy-tadqiqot institutlari ilmiy xodimlari tarkibining barcha bazaviy lavozim maoshlari miqdorlari sezilarli oshirilishini nazarda tutadi: hammasi bo'lib 38 mingdan ortiq oliy ta'lim muassasalari (28,1 ming odam) va ilmiy-tadqiqot muassasalari xodimlari (8,0 ming odam), shuningdek 1,9 ming doktorantlar.

Qabul qilingan qaror respublikaning oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarining ilmiy salohiyatini mustahkamlash yo'li orqali ta'lim sifatini va ilmiy faoliyatni oshirish masalalarini hal etish, oliy ta'lim muassasalari va akademik ilm-fanini yanada rivojlantirish, ilmiy-tadqiqot faoliyati samaradorligi va natijadorligini oshirish, iste'dodli yosh olimlar va talabalarni ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishga jalb qilishga yordam beradi.

15.2. Innovatsion jarayonlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi

Davlatning ilmiy-texnik siyosati respublikaning ilmiy-texnika salohiyatini quvvatlash va kuchaytirishga qaratilgan hamda o'zining vazifalari va yo'naltirilganligi bo'yicha hududlarning ilmiy-texnikaviy taraqqiyoti uning ichki maqsadlariga zid kelmasligi va ularga muvofiq bo'lishi kerak. Markazlashgan tartibga solishning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

a) ilmiy-texnik rivojlanishda strategik boshqarishning tamoyillarini ishlab chiqish va u ichki sharoitlar hamda imkoniyatlarda amalga oshiriladi: tadqiqotlarga, ustuvor mahsulotni ishlab chiqish va tayyorlashga majburiy xarakterdagi davlat buyurtmasi va ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga hamda yangi mahsulotlarni ishlab chiqarishga bozor ehtiyojlariga monand davlat buyurtmalari;

b) ilmiy-texnik faoliyat va ishlab chiqarishni rivojlantirish jarayonini resurslarning barcha turlari bilan ta'minlash va rag'batlantirish;

v) ilmiy-texnik siyosat subyektlarining ilmiy-texnikaviy va ishlab chiqarish faoliyati daromadlarini taqsimlash va natijalarini baholash. Bular qabul qilingan qonunchilik hujjatlari asosida soliqqa tortish tizimi vositasida amalga oshiriladi. Shu bilan bir qatorda rivojlanishni

vazifalari quyidagi bozor xususiyatlari bo'yicha ham olib borilishi lozim:


a) umumiy bozor munosabatlari doirasida innovatsion mahsulot bozorining konsepsiyasini ishlab chiqish;

b) uni bozorni yaratish bosqichlarini dasturlash;

v) bozor munosabatlarida tanlab olingan model bilan bog'liq holda uni antimonopol jihatidan tartibga solish.

Innovatsion jarayonlarni ko'rsatib o'tilgan tavsiflari shu bilan birga hozirgi jamiyatda davlatning iqtisodiy va ijtimoiy roli davlat organlarining innovatsion faoliyatni tartibga solish bo'yicha funksiyalari va tamoyillarini ham belgilab beradi. Ularning eng muhimlari quyidagi 15.2.1-rasmda keltirilgan.

Davlat tejab olingan umumiqtisodiy va strategiya doirasida xalqaro ilmiytexnikaviy va innovatsion kooperatsiyani rag'batlantiradi, shuningdek yangiliklarning xalqaro miqyosda uzatilishini tartibga soladi.



15.2.1- rasm. Innovatsion faoliyatni tartibga solish funksiyalari

Shunday qilib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- innovatsion jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solinishi zarurligi bir qator jihatlari bilan izohlandi, ular orasida umummilliy, iqtisodiy, ekologik, ijtimoiy, siyosiy jihatlar alohida ahamiyatlidir;

- O'zbekistonda davlatning ilmiy-texnikaviy siyosatini amalga oshirishning eng maqbul yo'li, firkimizcha, selektiv (tanlash yo'li bilan) rivojlanishni ilg'or ilmiy-texnikaviy ishlanmalarni o'zlashtirish bilan birga qo'shib olib borish yo'lidir;

- davlatning ilmiy-texnikaviy siyosati respublikaning ilmiy

- texnikaviy salohiyatini quvvatlashga va kuchaytirishga qaratilgan bo'lishi, shuningdek o'z vazifalari va yo'nalganligi bo'yicha mamlakat ilmiy - texnikaviy rivojlanishining ichki maqsadlariga monand bo'lishi lozim;

- innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab - quvvatlanishining shakllari to'g'ridan - to'g'ri moliyalashtirish; imtiyozli bank ssudalarini berish, venchur fondlarini tashkil etish, soliq imtiyozlarini berish va boshqalardir.

Innovatsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishning shakllari rag'batlantirish, huquqiy bazani yaratish, innovatsion infratuzilmani shakllantirish, kadrlar ta'minoti, innovatsion faoliyatning xalqaro jihatlarni tartibga solish va boshqalardan iborat. Bunday sharoitlarda innovatsion jarayon rivojlanishini boshqarishning o'zagi deb, avvalgidek, takror ishlab chiqarishdagi o'zgarishlarning tarkibiy qismi bo'lgan davlatning ilmiy-texnik siyosati deb hisoblash lozim.

Davlatni ilmiy-texnik siyosatining obyektini innovatsiyalarni yaratish va ijtimoiy taraqqiyotning barcha bo'g'inlariga joriy etish bo'yicha jarayonlar, shuningdek ilmiy-texnik va o'zida fan-texnika yutuqlarini mujassamlashtirgan boshqa mahsulotlar bo'lishi lozim. Davlatning ilmiy-texnik siyosatini amalga oshirishda qo'llanadigan tartibga solishni shakl va usullari (bevosita va bilvosita) mamlakatda iqtisodiyotni erkinlashuvi davriga monand va moslashuvchan bo'lishi lozim.

Innovatsion siyosatni, samarali amalga oshirishni sanoatning yuqori texnologiyasi va ilmtalab tarmoqlarning ustuvor rivojlantirishni ta'minlovchi asosiy mexanizmlarga qonunchilik va me'yoriy-huquqiy aktlar bilan belgilangan moliya-kredit, institutsional o'zgartirishlar, ta'lim, eksport va bojxona sohasidagi faoliyatlar kiradi.

Moliya-kredit siyosatini mexanizmlari o'z ichiga quyidagi asosiy elementlarni oladi:

- innovatsion mahsulotni o'zlashtirish bilan bog'liq innovatsiyalarni moliyalash maqsadida korporativ tuzilmalar doirasida ishlovchi moliya - kredit muassasalari uchun qulay sharoitlar yaratish;

- yuqori iqtisodiy samaradorlikka ega bo'lgan amaliy innovatsion ishlanmalardan tushadigan foyda hisobiga qayta moliyalashni qo'llash;
- venchur investitsiyalashni rivojlantirish;
- davlat korxonalariga, davlat akkreditatsiyasini o'tgan ilmiy tashkilotlarga litsenzion bitimlar asosida ilmiy-texnikaviy mahsulotni sotishdan tushgan mablag'larni (to'g'ri xarajatlar va mualliflik haqlarni chegirib tashlab) maqsadli moliyalash uchun ilmiy-texnik yo'nalishlarda (ilmiy-tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlarini bajarish, uskunalar xarid qilish va h.k.) ishlatishga ruxsat berish;
- milliy budjetning mablag'lari bo'yicha ilmiy-tadqiqot tashkilotlariga va sanoat korxonalariga qarzdorlikni tuzilmasini o'zgartirish va tugatish mexanizmini yaratish;
- yuksak texnologiyalar bo'yicha yo'nalishlarni rivojlanishi bilan bog'langan ilmiy-tadqiqotni, tajriba-konstruktorlik va texnologik ishlarni, innovatsion loyihalarni moliyalash;
- ilmtalab yuksak texnologiyani ishlab chiqarishga mablag' qo'yayotgan investorlarni, shuningdek innovatsiyalarni o'zlashtiruvchi mulkchilikni turli shakllaridagi tashkilotlarni qo'llab - quvvatlash va rag'batlantirish;
- ilmtalab noyob uskunalar va asboblarning lizingini yanada rivojlantirish;
- patent va ixtirochilik faoliyatiga moliyaviy yordam ko'rsatish, intellektual mulkni muhofaza qilishda va MDH davlatlarida va xorijda uning mulkiy huquqlarni quvvatlashda ko'maklashish;
- innovatsion loyihalarni va ularning ijrochilarini tanlab olishning tanlov tizimini takomillashtirish, iqtisodiyot tarmoqlarida nisbatan katta bo'lmagan va o'zini tez oqlaydigan investitsion loyihalarni amalga oshirishning salmog'ini ko'paytirish;
- budjet mablag'lari hisobiga innovatsion dasturlar va loyihalarning ro'yobga chiqarilishi bo'yicha tanlovlarda kichik tadbirkorlik subyektlarini qatnashishga jalb etish va ularga yordamlashish.


15.3. Innovatsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishda xorij tajribasi

Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti tarixi va bugungi kunga nazar tashlaydigan bo'lsak, innovatsion rivojlanishni ta'minlashga ijobiy ta'sir ko'rsatgan omillardan biri ilmiy tadqiqot tajriba konstruktorlik ishlariga (ITTKI) doimiy ajratib turiladigan xarajatlar ekanligini anglash mumkin.

ITTKIga qilingan xarajatlar 2015-yilda 400 mlrd. dollar bo'lsa 2018-yilga kelib 680 mlrd. dollarni tashkil qilgan. Xarajatlarning 10 yillik o'rtacha o'sish sur'ati esa 5,4 foizni tashkil etgan bo'lib, o'sish tendensiyasiga ega bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Buni sohalar bo'yicha taqsimotiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ITTKI da kompyuter va elektronika sanoatiga qilingan xarajatlar yuqori bo'lib 25foiz yoki 166 milliard AQSH dollarini tashkil qildi, ammo 2018-yilda 0,7 foiz ga pasayish tendensiyasi kuzatildi.

ITTKI da sog'liqni saqlash sohasiga qilingan xarajatlar 6 foizga o'sdi va 145 milliard AQSH dollarini tashkil qildi. Prognozlariga ko'ra mazkur soha 2030-yilga kelib ITTKI xarajatlari eng yuqori darajada sarflanadigan tarmoqqa aylanadi.

2015–2017-yillar mobaynida Janubiy Koreyaning innovatsion indeksi o'sish sur'ati Yevropa Ittifoqiga nisbatan ikki marta oshdi. Buni quyidagi rasmda ko'rishimiz mumkin.



15.3.1- rasm. 2015-2017-yillar jahondagi innovatsion indeksning o'sish sur'ati

2015-yil boshiga kelib esa Janubiy Koreya jahondagi 50 ta eng iqtisodi innovatsion rivojlangan davlatlar reytingida birinchi o'rinni egalladi¹. 2015-yil Samsung kompaniyasida qilingan ITTKI xarajatla-

¹ <http://www.bloomberg.com/graphics/2015-innovative-countries/>

rining salmog'i yuqori bo'lib, ushbu kompaniya jahonda yetakchilik qilmoqda.

Janubiy Koreyani yutuqlarini tahlil qilsak, dastlab iqtisodiyotni modernizatsiyalash turli ko'rinishdagi chet el texnologiyalarini o'zlashtirish hisobiga (shartnomalar, litsenziyalar, maslahat xizmatlari shular jumlasidandir) tashkil qilinib amalga oshirildi. Xorij tajribasini o'rganish orqali, Yaponiya bilan hamkorlikda qo'shma venchur firmalari tashkil qilindi. Janubiy Koreyaning innovatsion rivojlanishida yirik korporatsiyalarni (chebollar) qo'llab quvvatlanishi alohida ahamiyatga ega.

Buyuk Britaniyada 2000 yillar boshlaridan innovatsiyalarni rag'batlantirish va rivojlantirishga qaratilgan markazlashtirilgan maqsadli siyosat olib borildi, 2003-yilda esa savdo va sanoat vazirligi tomonidan texnologik sohani rivojlantirish strategiyasi qabul qilindi. 2004 yilda esa texnologik strategiya bo'yicha kengash tuzilib, investitsiyalar yangi texnologiyalarni vujudga keltirish, qo'llab-quvvatlash va tijoratlashtirishni amalga oshirish uchun yo'naltirildi. Uzoqqa mo'ljallangan innovatsion rivojlanish strategiyasi 2008-yilda nisbatan to'liq shakllantirildi.

Buyuk Britaniyada ilm-fan va yuqori texnologiyalarni davlat tomonidan qo'llab quvvatlashda ilmiy izlanishlar va ishlanmalar bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarga nisbatan qo'llaniladigan soliq imtiyozlari asosiy mexanizm bo'lib hisoblanadi. Aytib o'tilgan ko'mak mexanizmidan tashqari Buyuk Britaniyada innovatsion faoliyat yurituvchilarga infrastruktura bazasini yaratish, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni yaratish va ko'mak berish faol yo'lga qo'yilgan².

AQSH iqtisodiyotida innovatsion rivojlanishga o'tishga sharoit yaratishda ilmiy tashkilotlar tomonidan olingan natijalarni tijorat yo'lida ishlatishni osonlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarga katta e'tibor qaratildi. AQSHda 1980 yillarda qabul qilingan «Bey-Doul» va (The «Bayh-Dole Act») va «Stivensona- Uaydler» qonunlari (The «Stevenson-Wydler Act») innovatsion faoliyatda katta hissa qo'shdi. Ikkala qonunning maqsadi davlat moliyasi hisobidan olingan ilmiy-tekshirish ishlari natijalarini shaxsiy sektorda ishlatishga keng sharoit yaratishdir. Shuningdek, AQSHda biznes va ilmiy-tekshirish tashkilotlari o'rtasidagi munosabatlarni yengillatishga qaratilgan ko'pchilik tashkilotlar mavjud. Fundamental fan va innovatsion

² <http://www.innovation.gov.uk/lambertagrcemens>

faoliyatni moliyalashtirish bilan shug'ullanuvchi etalon jamg'arma sifatida AQSH milliy ilmiy fondi (NSF) xalqaro e'tirofga sazovor bo'lgan. Ushbu tuzilma ellik yildan ortiq vaqt mobaynida muvaffaqiyatli faoliyat yuritib kelmoqda. Ikki dastur - Kichik biznes innovatsion tadqiqotlari dasturi SBIR va Texnologiyalarni kichik biznesga yetkazish dasturi STTR misolida AQSHda davlat tomonidan ilmiy va innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlashning mantiqiy mohiyatini kuzatish mumkin³.

Germaniyaning innovatsion siyosatining o'ziga xos tomoni bo'lib ilmiy tadqiqotlarni va innovatsion faoliyatni moliyaviy qo'llab-quvvatlashga davlat tomonidan ko'maklashuvi hisoblanadi. Aynan davlat ilmiy tadqiqot-larni yo'naltirishda katta rol o'ynaydi: oliy ta'lim dargohlaridagi ilmiy tadqiqotlarni 80 foizgacha beshta yirik ilmiy jamiyatlar tomonidan beriladigan grantlar hisobiga olib boriladi. 1950 yillarda Germaniyada innovatsion subyektlarni moliyalashtirishning boshlarida ilk venchur fondlari paydo bo'la boshladi. Bu fondlar kichik biznes kompaniyalarini rivojlantirishga yo'naltirildi. Ilmiy-tadqiqot sohasida davlat va xususiy sektor hamkorligi borasida qabul qilingan dasturlar ijobiy natija berdi. 1970 yili ITTKIga davlat budjetidan ajratilayotgan xarajatlar 70 foizga qisqargan bo'lsa, hozirda 30 foizga kamayganini ko'rish mumkin. Germaniya innovatsion tizimida ixtirolarni ro'yxatga olishni soddalashtirilgan tartibi alohida ahamiyatga ega bo'lib, 1977-yillarga qaraganda patentlar sonini 20 barobarga ko'paygani bunga misol bo'la oladi⁴.

Finlyandiyaning innovatsion rivojlanishida 1980-yillarda tashkil etilgan Sitra innovatsion fondi venchur moliyalashda muhim o'rin tutdi, ushbu fondning maqsadi bo'lib iqtisodni raqobatbardoshligini rivojlantirish, iqtisodni barqaror rivojlanishini, mamlakatda ishbilarmonlik faoliyatini kuchaytirish va Finlandiya korxonalarini xalqaro hamkorligini kuchaytirish xizmat qiladi. Finlandiya milliy innovatsion tizimining davlat segmentida ikkita hal qiluvchi vazirliklarni bo'lishi katta ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim va madaniyat vazirligi ilm bo'yicha siyosatga javob bersa, Finlandiya akademiyasi esa ilmiy tekshirishlarni moliyalashtirishga yo'naltirish uchun asosiy mexanizm hisoblanadi. Bandlik va iqtisodiyot

³ http://usa-patent.ru/patenting/patent_law_usa.html

⁴ Freeman, C. 2002. Continental, national and sub-national innovation systems – complementarity and economic growth. Research Policy 31: 191–211.

vazirligi texnik va innovatsion siyosatga mas'ul bo'lib, moliyalashtirishga yo'naltirish uchun asosiy mexanizm Tekes xizmat qiladi. Tekes agentligi mamlakatni rivojlantirishda muhim institut sanalib, izlanuvchilar hamjamiyatini sanoat va servis sektorlarini qo'llab quvvatlaydi. Tekes har yili Finlandiyadagi 60 foizdan ko'p innovatsion loyihalarni moliyalashtiradi, ularning 80 foizi samarali natijaga ega bo'ldi. Shuningdek Finlyandiyada texnopolis yaratishga katta ahamiyat berilgan, dunyodagi yirik va birinchilardan bo'lgan, dunyoda o'zining o'lchamlari bilan lol qoldirgan "Texnopolis" tarmog'i yaratilgan. "Texnopolis" tarmog'ida 18 ta ilmiy va texnologik parklar kiradi va ulardan 2 tasi mamlakat tashqarisida joylashgan⁵.

Xitoyning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirishga qaratilgan islohotlar 1978 yilda boshlanib, davlatning kelgusidagi taraqqiyoti uchun g'oyat katta imkoniyatlar yaratdi. Xitoy ham Yaponiya kabi o'zining innovatsion rivojlanishining chet eldan patentlar, litsenziyalar xarididan boshlab zamonaviy sanoat tarmog'ini shakllantirishga muvaffaq bo'ldi. Xitoyda innovatsion iqtisodiyotga o'tish rejasi bosqichma-bosqich modelga asoslanib, ushbu jarayonda quyidagi bosqichlardan o'tildi:

1-bosqich - 1978-1984 yillar, bu etap yashirin jarayon deb nomlandi va shu davrda hududiy innovatsion tizim asoslari yaratildi;

2-bosqich—1985 – 1995 yillarni o'z ichiga olib unda hududiyinnovatsion tizim rivojlandi;

3-bosqich 1996 yildan boshlanib regional innovatsion tizimlarni takomillashtirish shaklida hozirgacha davom etmoqda.

Xitoyda bozor iqtisodi, uning mexanizmlari tobora rivojlanmoqda va takomillashmoqda, bozor raqobati va hamkorligi muhiti kuchaymoqda. Korxonalar hamkorlik va mehnatni taqsimlash muammolariga tobora ko'proq ahamiyat berishmoqda. «Ishlab chikarish – universitet faoliyati – ilmiy izlanishlar» zanjiriga asoslangan hamkorlik yanada ko'proq tarqalib kengaymoqda. Korxonalarining mustaqil innovatsion faoliyati regional innovatsion tizimlarni tezlikda takomillashuviga va yaratilishi tugallanishiga imkon bermoqda.

Xitoyning innovatsion rivojlanishining o'ziga xos tamoyili chet eldan investitsiyalarni jalb qilish va tayyor texnologiyalarni xarid qilish,

⁵ Pablo Catalan "The role of S&T Policies in natural resources based economies: the cases of Chile and Finland", School of Public Policy, Georgia Institute of Technology, 685 Cherry Street 30332, Atlanta GA, USA. P.14.

ishlab chiqarishga tatbiq etishdan o'zining xususiy innovatsiyalarini yaratish va yuqori texnologiyali brendlarni vujudga keltirishga ustuvorlik berganligida ham ko'rinadi. Strategik «2006–2020 rejasi» hukumatning xitoycha o'sish modelini shakllantirish, innovatsiyalarni bo'lg'usi iqtisodiy taraqqiyot poydevoriga aylantirishga urinishi bo'ldi⁶.

Hindistonda iqtisodni innovatsion rivojlantirishda kerakli infratuzilma yaratish, texnik, informatsion va uslubiy yordam ko'rsatish, shuningdek davlat moliyalashtirishini jalb qilish orqali innovatsion faoliyat tavakkalchiligini kamaytirishga asosiy e'tibor berildi. Kompaniyalarga faoliyatini kengaytirish bosqichida 1996 yilda Hindiston hukumati tomonidan tuzilgan texnologik rivojlanish Kengashi ko'mak beradi.

Hindiston innovatsion tizimini asosiy elementlaridan biri bo'lib texnologik parklar va inkubatorlar tashkil qiladi. Ushbu tashkilotlarni qo'llab quvvatlash davlatning eng muhim vazifalaridan biri qilib belgilangan:

Hindiston hukumati ilmiy-texnologik parklar yaratish, ilm va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlovchi mahsus Agentlik faoliyat kursatadi. Hindistonda innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun umumiy huquqiy bazani yaratishga katta ahamiyat berilmoqda va natijada 2008-yilda Hindiston hukumati innovatsiyalar doirasida "Milliy innovatsion akt" qonunini qabul qildi. Mamlakatda faoliyat yuritayotgan 45 ta texnoparklarda ishlab chiqarilib eksport qilinayotgan 80 foiz mahsulotlar axborot texnologiyalari sohasiga tegishlidir.

Dunyoning yetakchi 300 dan ortiq transmilliy korporatsiyalar kompyuter dasturlari bo'yicha ishlanmalarini olib kirishib amaliyotga joriy qilishmoqda⁷.

Rivojlangan mamlakatlar milliy innovatsion rivojlanish tizimini ayrim jihatlarini tahlil qilish asosida xulosa qiladigan bo'lsak, dunyoda mavjud mexanizmlarni umumiy va ixtisoslashgan guruxlarga bo'lish mumkin. Umumiy mexanizmlarga institutsional muhitga ta'sir qiluvchilar, mahsus mexanizmlarga esa iqtisodiyotni alohida sohalariga yo'naltirilgan mexanizmlar kiradi. Ular jumlasiga ta'lim, mehnat bozori, xalqaro savdo bo'yicha siyosat va boshqalarni kiritish mumkin.

⁶ Kroll, H. 2011. Exploring the validity of patent applications as an indicator of Chinese competitiveness and market structure. World Patent Information 33: 23-33.

⁷ The Indian Venture Capital Association, IVCA <http://www.indiavca.org/>

15.4. Sanoati rivojlangan davlatlarda ilmiy-innovatsion rivojlanish modellari

Jahon amaliyotida iqtisodiyotni modernizatsiyalashning quyidagi uch modeli farqlanadi: inqilobiy; tabiiy va quvib etadigan modernizatsiya. Tabiiy va quvib etadigan modernizatsiyalash modeli o'rtasidagi farq nimadan iborat? Ular o'rtasidagi asosiy farq davlatning tutadigan o'rnidan iborat. Tabiiy modernizatsiyalash ssenariyalari, rivojlanish variantlari va tizimining o'ziga xos xususiyati, uning umumiy egiluvchanligining yuqoriligi bilan belgilanadi. quvib etadigan modernizatsiyalashda davlatning yetakchi o'rin tutishi yagona to'g'ri rivojlanish yo'nalishini tanlashda xatolikka yo'l qo'yish ehtimolini va harakatlan-tiruvchi kuchlar keskinligini oshirib, tizimli risklar va iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayishini kuchaytiradi. Ushbu davrda iqtisodiy rivojlanish uchun ma'muriy davlat emas, balki katta hamkor talab etiladi.

Inqilobiy modernizatsiya modeli qoloq mamlakatlarda sodir bo'ladi, chunki boshqa yo'l bilan taraqqiy etgan mamlakatlarga etib bo'lmaydi. Jahon amaliyoti ko'rsatishicha, mamlakatlarning xalqaro mehnat taqsimotidagi o'rning yaxshilanishida eng muvaffaqiyatli yo'l tabiiy modernizatsiyalash hisoblanadi.

Tabiiy modernizatsiyalash deganda shunday modernizatsiyalash tushuniladiki, unda modernizatsiyalash jarayonlari mamlakat resurslariga asoslangan holda butun jamiyat manfaatlarini qondirish uchun tabiiy ravishda amalga oshiriladi. Ushbu modernizatsiyalashga AQSHning XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi jadal sur'atlarda rivojlanishini, Ikkinchi jahon urushidan keyingi Germaniya, Fransiya, Yaponiyaning modernizatsiyalanishini, Irlandiyaning XXI asr bo'sag'asida yangi modernizatsiyalanishini misol qilib keltirish mumkin. Jahon iqtisodiyotini modernizatsiyalash amaliyoti bosqichlarini chuqur tahlil qilish tabiiy modernizatsiyalash modeli uchun quyidagi belgilar xos ekanligani aniqlash imkonini berdi:

Birinchi, modernizatsiyalash yoki uni amalga oshirayotgan avlodning maqsadini aniq belgilab olish lozim. Masalan, amerikacha modernizatsiyalash o'z oldiga erkin jamiyat qurish vazifasini qo'ygan edi. Shu bilan bir qatorda, Germaniya va Yaponiyadagi Ikkinchi jahon urushidan keyingi moder-nizatsiyalashning maqsadi vdeologik jihatdan

urushda mag'lub bo'lishdan so'ng tiklanish qobiliyatiga ega ekanligini isbotlab ko'rsatish edi.

Ikkinchidan, millatning hamma qatlamlarining, birlashuvi. Rossiya mutaxassislarining fikricha, modernizatsiya jarayonida faol qatnashuvchi aholini quyidagi besh tabaqaga bo'lish mumkin:

- a) millat g'oyasini eltuvchi siyosatchilar;
- b) resurslarni samarali taqsimlash g'oyasini eltuvchi tadbirkorlar;
- v) mamlakat taraqqiyoti istiqbolini oldindan ko'ra biluvchi, bashorat-lovchilar;
- g) modernizatsiyani tashkil etuvchi xizmatchilar;
- d) jamiyat xavfsizligini kafolatlovchi kuchli institutlar.

Yuqoridagi aholining turli qatlamlarining birlashuvi millatning samarali modernizatsiyalash siyosatini amalga oshirish imkonini beradi. Agar aholining turli qatlamlari o'rtasida kelishmovchiliklar, ixtiloflar bo'lsa, birlik bo'lmagani holda ham inqilobiy modernizatsiyalash uchun shart-sharoitlar vujudga keladi.

Hozirda Rossiyada modernizatsiyalash siyosatini amalga oshirishdagi asosiy muammo millatning faol qatlamlari hisoblangan texnokrat ziyolilar va xususiy tadbirkorlarning ushbu siyosatni amalga oshirishga yetarli darajada jalb etilmaganligi hisoblanadi.

Uchinchidan, o'z kuchiga suyanish va ishonish. Modernizatsiyalashning ushbu belgisi amerikalik iqtisodchi M.Porterning «tashqi texnologiya va tovarlar bozorining barqaror va samarali rivojlanishi uchun ushbu tovarlar va xizmatlar katta sig'imli ichki bozorga ega bo'lishi lozim, ya'ni yangi tovarlar mamlakat ichki bozorida xaridorni topgandan so'ng millat qatlamlarining birdamligi, jipsligi avtomatik tarzda kuchayadi va mamlakatda yirik, zamonaviy kompaniyalar paydo bo'lib, ushbu jarayonning negiziga aylanadi» degan, g'oyasiga asoslanadi.

Modernizatsiyalash jarayonining kuchayishi va chuqurlashuvida mamlakatning kuchli moliya tizimi muhim rol o'ynaydi. AQSHda modernizatsiyalash jarayonida Federal Rezerv tizimi (FRT) va Yaponiyada o'ziga xos kuchli, samarali moliyanoat tizimi yaratildi. Mustaqil moliya tizimining yaratilishi hamda modernizatsiyalash tufayli iqtisodiyot samaradorligining keskin o'sishi mamlakat milliy valutasini xarid qobiliyatini oshiradi va jahon moliya bozorida mavqegini kuchaytiradi. Mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotida qatnashish strategiyasini aniq belgilab olish lozim. Tabiiy modernizatsiyalash

mamlakatning puxta, yaxshi o'ylangan rivojlanish xatti-harakati bo'lib, millatni ortiqcha jalb etishni keskinlashtirish talab etilmaydi va pirovard natijada mamlakat xalqaro mehnat taqsimotida o'zi uchun qulay, muhim o'rinni egallaydi. Quvib etadigan modernizatsiyalash modelining muhim belgisi davlatning jamiyatda gipertroflashgan rol o'ynashidan iboratdir. Ushbu modelda rivojlanayotgan mamlakatlarda jamiyatni joriy boshqarish bilan chuqur, mohiyatan iqtisodiy modernizatsiyalash manfaatlari qarama-qarshi turadi. Ushbu holatni Eronda XX asr oxirida amalga oshirilgan modernizatsiyalash siyosatida kuzatish mumkin. quvib etadigan modernizatsiyalashni amalga oshirish Sharqiy Osiyo mamlakatlarida muvaffaqiyatli sodir bo'lgan. Koreya Respublikasi, Tayvan, Xitoy iqtisodiy qoloqlikni bartaraf etmoqdalar. Ushbu mamlakatlar muvaffaqiyatining muhim sabablaridan biri shundaki, ular o'zlarining asosiy kuchlarini xorijiy mamlakatlar tajriba va yondashuvlarini ko'r-ko'rona ko'chirib olishga emas, balki o'z iqtisodiyotining taraqqiy etgan mamlakatlar xo'jaligiga tabiiy qo'shilishiga e'tibor qaratdilar.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonida Yaponiya, Koreya Respublikasi va Tayvan milliy kapitalning rivojlanishida xorijiy kapitalni jalb etishga nisbatan ustuvorlik berdilar. Ushbu mamlakatlarda davlat mablag'lari hisobiga korxonalar qurildi va xususiy kompaniyalarga berildi. Koreya Respublikasida markazlashuv darajasi yuqori bo'lib, 1961-yilda bank tizimi natsionalizatsiya qilindi. Koreya Yaponiyadan farqli o'laroq, ustuvor tarmoqlarni belgilab oldi va ularga davlat yordamini ko'rsatdi. Koreya iqtisodiyotini modernizatsiyalashda ishlab chiqarilgan mahsulot milliy ichki bozor katta bo'lmagani uchun eksportga yo'naltirildi. Eksport davlat tomonidan soliq imtiyozlari, subsidiyalash, imtiyozli kreditlar berish orqali qo'llab-quvvatlandi. Yaponiya urushdan keyin kichik va o'rta korxonalarni modernizatsiyalashga ustuvorlik bergan bo'lsa, Koreya mamlakat resurslari oz bo'lganligi uchun yirik kompaniyalar va moliya guruhlarini (chebollar) qo'llab-quvvatlashga asosiy urg'u berdi. Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda Sharqiy Osiyo mamlakatlarida iqtisodiyotni modernizatsiyalash uchun xos quyidagi belgilarni ajratish mumkin:

-Yaponiya, Koreya Respublikasi, Tayvanda iqtisodiyotni modernizatsiyalash asosida yer islohoti yotdi;

-rivojlangan moliya (bank) tizimining yaratilganligi. Ushbu mamlakatlarda shakllangan moliya-sanoat guruhlari tarkibiga qonun yo'li bilan tijorat banklari kiritilmadi va ular xususiyashtirildi;

-rejalashtirish va tabiiy bozor rivojlanishining natijasi bo'lgan o'ziga xos sanoat siyosati amalga oshirildi.

O'tish mamlakatlari iqtisodiyotini modernizatsiyalashda Xitoy tajribasi e'tiborga molikdir. Xitoy iqtisodiyotini modernizatsiyalash quyidagi tamoyillarga asoslandi:

1. Davlat tasarrufidagi korxonalarni saqlab qolish va yuqori texnologik taraqqiyotni belgilovchi yangi korxonalarni tashkil etish tashabbusini qo'llab-quvvatlash. Masalan, Xitoyda 1997-2008-yillarda an'anaviy tarmoqlar hisoblangan neft qazib chiqarish 27 foiz, po'lat eritish 3,3 marta o'sgan holda, ilg'or, fan sig'imkorligi yuqori bo'lgan tarmoqlar bo'lmish avtomobillar - 9,1 marta, kompyuterlar va orgtexnika - 13,8 marta, mobil telefonlar ishlab chiqarish 23 martaga ko'paydi.

2. Xitoy iqtisodiyotini modernizatsiyalash to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar va yuqori texnologiyani jalb etishga asoslangan. 2008-yilga kelib mamlakatda jamlangan (Gonkongni qo'shib hisoblaganda) to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 964 mlrd. dollarga yetdi. Mamlakatda yaratilgan 132 ta yirik sanoat kompaniyalarining ishlab chiqarish quvvatlari jahondagi 200 ta eng katta transmilliy sanoat kompaniyalari tarkibiga kirib, ularning hissasiga 2007-yilda sanoat ishlab chiqarishning 30,9 foiz i to'g'ri keldi.

3. Xitoyliklar g'arb texnologiyasini o'rganib, mamlakatda innovatsion nusxa ko'chirishning strategiyasini amalga oshirdilar. Mamlakatda elektrotexnika mahsulotlari, uskunalari va avtomobillar ishlab chiqaruvchi g'arb korxonalari paydo bo'lganidan 3-5 yil o'tib xuddi shunday tovarlar ishlab chiqaruvchi xitoy korxonalari vujudga keldi. Masalan, 2000-2002 yillarda Xitoyda g'arb mamlakatlarining avtomobil yig'uvchi zavodlari yiliga 1,7 mln. dona mashina yig'ib chiqargan bo'lsa, 2008-yilda 13 ta shunday zavodlar 2,1 mln. dona avtomashina ishlab chiqargan holda Xitoy zavodlari 7,3 mln. dona avtomashina ishlab chiqardilar. Mamlakatda o'z tovarlarini jahon bozoriga olib chiqishni qo'llab-quvvatlash orqali modernizatsiya samaradorligi oshirildi. Oxirgi 10 yil mobaynida Xitoyda sanoat mahsulotlari eksporti 7,4 marta o'sdi. Ushbu maqsadga erishish uchun hamma narsa, shu jumladan, ichki va tashqi siyosat mahalliy ishlab chiqarilgan mahsulotni eksportga yo'naltirishni qo'llab-quvvatlashga

qaratildi. Eksportyorlarni kreditlash mexanizmi yaratildi. 1990 yillarning o'rtalaridan boshlab Xitoydagi modernizatsiyalash loyihalarining yetakchi elementi infratuzilmani rivojlantirishdan iborat bo'ldi. 1995-2008-yillarda Xitoydagi avtomobil yo'llari uzunligi 3,1 marta, temir yo'llar uzunligi 40foiz ga, elektroenergiya ishlab chiqarish miqdori 2,8 marta ko'paydi. So'nggi 5 yilda 3,1 mlrd. kv. metr uy-joy qurildi. Mamlakatga jahondagi 50ta eng yirik dengiz portining 17 tasi, 50 ta eng yirik aeroportlarning 6 tasi to'g'ri keladi hamda dunyo savdo flotining 11foiz tegishlidir. Davlat iqtisodiyot bilan birga institut sifatida ham o'zini modernizatsiyalashtirdi. Boshqaruv apparatida ishlovchilar malakasi, kasbiy mahorati tubdan yangilandi, korrupsiya va poraxo'rlikda ayblangan ko'plab davlat xizmatchilari jazolandi va iste'foga chiqarildi. Xitoydagi iqtisodiy mo'jiza sababi esa iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish yillarida investitsiya normasi va eksportning yalpi ichki mahsulotdagi ulushining ortishi, kuchli proteksionizm siyosatini amalga oshirish bilan bog'liqdir.

Mamlakatlarni amalga oshirayotgan innovatsion siyosatiga qarab quyidagi uch guruhga ajratish mumkin: Fanda yetakchilikni saqlab qolishga intilayotgan mamlakatlar. Odatda, ushbu mamlakatlarda innovatsion siklning hamma bosqichlarini qamrab oluvchi yirik miqyosli maqsadli loyihalar amalga oshiriladi (AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya). Qulay innovatsion muhitni yaratish, iqtisodiyot tarkibini optimallashtirishga yo'naltirilgan mamlakatlar (Germaniya, Shvetsiya, Shveysariya). Innovatsion infratuzilmani rivojlantirish, jahondagi ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlarini qabul qilishni ta'minlash, turli sektorlarning fan va texnologiyalar sohasidagi faoliyatlarini muvofiqlashtirish yo'li orqali yangiliklarni rag'batlantiruvchi mamlakatlar (Yaponiya, Koreya Respublikasi). Mamlakatning innovatsion faollik darajasi mamlakatda qabul qilingan innovatsion strategiya va uning ko'rsatkichlari orqali belgilanadi.

Innovatsion strategiya - bu texnologiyalar va boshqaruv texnologiyalaridagi yangiliklarni iqtisodiy rivojlanish yo'nalishlariga muvofiq ravishda tanlash hamda amalga oshirish tizimini o'zgartirish jarayonlarini belgilab beruvchi qoida va normalar yig'indisidir. Iqtisodiyotga yangiliklarni joriy etish, fan sig'imkorligi yuqori mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksport qilishda muvaffaqiyatga erishgan mamlakatlar tajribasini tahlil etish innovatsion rivojlanish strategiyasining quyidagi turlarini ajratish imkonini beradi. Ko'chirib

o'tkazish strategiyasi - mavjud xorijiy ilmiy-texnik salohiyatdan foydalanish va ushbu sohadagi yangiliklarni iqtisodiyotga ko'chirib o'tkazish bilan bog'liq strategiya. Ushbu strategiya birinchi navbatda Yaponiya tomonidan Ikkinchi jahon urushidan keyin qo'llanilgan. O'zlashtirish strategiyasining mazmuni shundan iboratki, unda mamlakat arzon ishchi kuchi va yo'qotilayotgan ilmiy-texnik salohiyatining bir qismidan foydalangan holda taraqqiy etgan mamlakatlarda avval ishlab chiqarilgan mahsulotni ishlab chiqarish o'zlashtiriladi. Keyinchalik mamlakat mustaqil ilmiy-tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlarini amalga oshirish imkonini beruvchi ilmiy-texnik salohiyatni rivojlantiradi hamda faol innovatsion faoliyatni ta'minlaydi. Ushbu strategiya Xitoy va Janubiy-Sharqiy Osiyoning qator mamlakatlarida qabul qilingan. Yaratish strategiyasi — taraqqiy etgan mamlakatlar, avvalombor, AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiyada qo'llaniladi. Ushbu strategiya mamlakatning ilmiy-texnik salohiyatidan foydalanish, xorijlik olimlar va konstruktorlarni jalb etish, universitetlarning fundamental fanlari va firmalarning amaliy fanlarini integratsiyalashtirish orqali muntazam ravishda yangi mahsulotlar, yuqori texnologiyalar yaratishni ko'zda tutadi. Yaratilgan mahsulotlar va yuqori texnologiyalar ishlab chiqarish hamda ijtimoiy sohaga joriy etiladi, ya'ni muntazam ravishda innovatsiyalar yaratib, rivojlantirilib boriladi. Jahon xo'jaligida Trans Milliy Kompaniyalar (TMK) innovatsion rolining ortib borishi. Innovatsion faoliyatning investitsiya resurslari va milliy iqtisodiyot hamda alohida xo'jalik subyektlari raqobatbardoshligi bilan o'zaro aloqadorligining ortishi. Davlatning tartibga solish rolining kuchayishi.

Xorijiy investitsiyalarni jalb qiluvchi mamlakatlar uchun ushbu investitsiyalarni oqilona jalb etish va foydalanish quyidagi ijobiy oqibatlarni yuzaga keltiradi:

-boshqaruv innovatsiyalariga ega bo'lish - marketingni tashkil etish va boshqaruvning ijobiy tajribasiga erishish;

-iqtisodiy tahlilni amalga oshirish, hisob-kitob, hisobga olish va nazorat qilish uchun zamonaviy usul hamda uslubiyotlarni olish;

-texnologik innovatsiyalarga ega bo'lish - qurilish, sanoat ishlab chiqarish, sog'liqni saqlash, madaniyat, maorif va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etish texnologiyalarini o'zlashtirish;

-atrof-muhitni muhofaza qilishni yaxshilash (ekologik innovatsiyalar - ekologik xavfsizlikning zamonaviy vositalarini jalb etish).

Iqtisodiyotni modernizatsiyalashda sanoat siyosati muhim o'rin tutadi. Sanoat siyosati - bu ishlab chiqarishning o'sishiga, fan-texnika yutuqlarini ishlab chiqish va joriy etishga, iqtisodiyotning tarmoq tarkibini yaxshilashga va tayyor mahsulot eksportini rivojlantirishga qaratilgan davlatning uzoq muddatli chora-tadbirlar majmuidir.

Sanoat siyosati modellaridan keng tarqalgan ikki turini ajratib ko'rsatish mumkin.

Birinchisi - g'arbiy Yevropa modeli hisoblanib, unda asosiy urg'u tarkibiy siyosatga beriladi. Bunda istiqbolli tarmoqlarni rivojlantirish va zarar keltiruvchi tarmoqlarni tugatish orqali mavjud tarkibning asta-sekin yaxshilanishi nazarda tutiladi. Ushbu model g'arbiy Yevropaning yirik mamlakatlari iqtisodiyoti tarkibining yuqori diversifikatsiyalanishuvi bilan xarakterlanadi. Sanoat siyosatining ikkinchi modeli - «Sharqiy Osiyo» modeli deb atalib, yuqori texnologiyali tarmoqlarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan.

Sanoat siyosatining ushbu modeli asosida iqtisodiy o'sishning, birinchi navbatda, fan-texnika yutuqlari va yuqori texnologiyalarni o'zlashtirishga (innovatsiyalarga) bog'liqligi yotadi. Sanoat siyosatini amalga oshirish mexanizmida quyidagi vositalardan foydalaniladi:

-to'g'ridan to'g'ri davlat investitsiyalari;

-subsidiyalar;

-soliq va boshqa moliyaviy dastaklar.

Sanoat siyosatida amalga oshirish vositalari o'rtasida quyidagi jihatlar muhim ahamiyat kasb etadi:

-ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va kompaniyaning innovatsion faolligini rag'batlantiruvchi raqobatchilik muhitini yaratish;

-yangi mahsulotlar va yuqori texnologiyalarning yaratilishi, o'zlashtirilishi va tarqalishini ta'minlovchi keng tashkiliy-iqtisodiy tarmoqni shakllantirish.

Tayanch iboralar

.Faol tadbirkorlik, ilmiy-texnik rivojlanish, ilmiy-texnik siyosat, imtiyozli bank ssudalari, venchur kapitali, venchur investitsiya, patent va ixtirochilik faoliyati, ishbilarmonlik faoliyati, innovatsion tizim, inqilobiy modernizatsiya, boshqaruv innovatsiyalari, sanoat siyosati, sanoat siyosati modellari.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. O'zbekiston Respublikasida innovatsion faoliyatning me'yoriy-huquqiy asoslarini qanday normativ hujjatlar tashkil etadi?

2. Innovatsion jarayonlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qanday shakllari mavjud?

3. Ilmiy izlanishlar, fundamental tadqiqotlar va innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlashda jamg'armalar ishtirokini qanday baholaysiz?

4. Innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlanishning nodavlat shakllari.

5. Innovatsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishning xorij tajribasi uchun xos bo'lgan asosiy xususiyatlar.

6. Sanoati rivojlangan davlatlarda ilmiy-innovatsion rivojlanishning qanday rivojlanish modellari mavjud?

XVI BOB. REAL SEKTORDA INNOVATSION FAOLIYATNING TASHKILIY SHAKLLARI VA UNING XUSUSIYATLARI

Mazkur bobda real sektorda innovatsion faoliyatning tashkiliy shakllari va uning xususiyatlari, innovatsion tashkilotlarning turlari va vazifalari, innovatsion tashkilotlarda ilmiy-texnik tajriba konstruktorlik ishlarini tashkil etish yo'nalishlari bilan bog'liq ma'lumotlar berilgan.

16.1. Innovatsion tashkilotlar va ularning ahamiyati

Ilmiy g'oyalarni ishlab chiqish va uni keyinchalik materiallashtirishda yangi tashkiliy tuzilmalar innovatsion tashkilotlar katta rol o'ynaydilar. Bular o'z ichiga universitetlar va ilmiy-ishlab chiqarish korxonalarini o'z ichiga oluvchi yangilik kiritishlarning vujudga kelgan texnologik faol kompaniyalaridir. Bu modelda innovatsion biznes keng innovatsion infratuzilma ichidagi barqaror o'zaro aloqalarni qo'llab-quvvatlaydi, axborotlarni norasmiy almashish va yangiliklarni sotish kanallarini shakllantirishning rivojlangan tarmog'iga ega. Silikonli vodiy bunday alyansning eng mashhur varianti bo'ladi.

Innovatsion tashkilotlar tarkibida quyidagilarga ega:

- texnologik parklar (ilmiy, ishlab chiqarish, innovatsion, biznes-park va h.k.);
- texnopolislar;
- fan va texnologiyalar mintaqalari;
- innovatsiyalar inkubatorlari.

Innovatsion ishlab chiqarishning asosida texnologik tizimlarning egiluvchanligi, o'zgaruvchanligi va moslashuvchanligi, uskunalarni qayta sozlanuvchanligi va ishlab chiqarish quvvatlarini qaytadan ixtisoslashtirilganligi yotadi.

Texnologiyalarni egiluvchanligi va o'zgaruvchanligi ishlab chiqarishni innovatsion jarayonning har xil bosqichlarida parallel

ravishda faoliyat yuritish asosida gorizontaal bo'yicha tashkil qilish bilan birlashadi. Masalan mashinasozlik va asbobsozlikdagi texnologik jarayonlarning ko'pchiligi diskretli (uzilishli) xarakterga ega, bu nouxauni bildiradi. Bu korxonalar belgilangan shartlarda texnoparkning xizmatlari: axborot, kommunikatsiya, marketing, patentlitsenziyali, reklama nashriyot, lizing, vositachilik va boshqa xizmatlarini xarid qilishlari mumkin.

Korxonani parkda bo'lishi muddati shartnomada kelishib olingan va loyihada istiqbolligi va uni iste'molchilarga yetkazib berish imkoniyati bog'liqdir. Parkning himoyasi ostida korxonalar yangi texnologiyalar, tadbirkorlik usullarini faol o'zlashtiradilar, marketing tuzilmalarida kasb egalardan foydalanadilar va natijada o'z mahsulotlarining yuqori raqobatbardoshligini ta'minlaydilar.

Innovatsion tashkilotlarda integratsiyalashish va har tomonlama rivojlanishning o'zaro bir-birlarini to'ldiruvchi jarayonlaridan keng foydalaniladi. Vertikal integratsiyalashish yoki o'tgan bosqichlar bilan uyg'unlashish ham yagona tashkilot doirasida ichki tashkiliy bozor orqali va ham doimiy shartnomalar asosida tashkil qilinishi mumkin.

Integratsiyalashish kompaniyaning ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish faoliyatini faollashtirish sifatida yo'naltirilgandir. Aralash korporativ-bozor asosida doimiy va vaqtincha turdagi, bir tomondan innovatsion davraning barcha bo'g'larini integratsiyalashishga, boshqa tomondan esa alohida korxonalar, innovatsion biznes korxonalari va boshqa tashkilotlar faoliyatini ham bir birlari bilan va bozor iqtisodiyotining boshqa institutlari bilan muvofiqlashtirish va jipslashtirish mexanizmlarini yaratishga asoslangan yangi tashkiliy qurilmalar shakllanadi. Bunday korxonalararo integratsiyalashishning o'ziga xosligi tashqi muhitga ko'proq moslashish va sheriklar faoliyatiga zaruriy ravishda birikish va vaziyatli o'xshashdan iboratdir.

Shunday qilib, yangi kichik innovatsion korxonalar texnoparklarning — mahsuloti bo'ladi. Inkubatorlarda har xil ishlab chiqarish birliklarini bo'lishi korxonalarga ularni ushlab turishga xarajatlarni ancha qisqartirish imkoniyatini beradi. Bu yerda, misol uchun, inshootning ijarasi, sekretarlik, telefon, kompyuter xizmatlaridan birgalikda foydalanish uchun pastroq narx belgilangan. Tadbirkor faoliyatining boshlang'ich bosqichida inkubator menejerlari tomonidan boshqaruv sohasida yordam ko'rsatiladi, u malakali yuristlar, hisobchi, marketologlar xizmatlari tarmog'iga kira oladi.

Inkubatorning, tijorat korxonasi sifatidagi daromadlari inshoot va idora uskunalarini ijaraga olish uchun olinadigan ijara haqi, turli tuman kasbiy xizmatlarni sotishdan daromadlardan vujudga keladi. Mamlakat iqtisodiyoti samaradorligining ortishida bugungi kunda innovatsion tashkilotlarning o'rni beqiyos ahamiyat kasb etmoqda.

Iqtisodiy o'sish sur'atlarini oshiruvchi innovatsiya omilining rivojlanishi va bunda kichik biznes faollashuvi tendensiyalarini tahlil qilish uchun, qoida sifatida, davlatlararo, jumladan mintaqalararo qiyoslash va mavjud zaxiralarni baholash uslublari qo'llaniladi. Ta'kidlash joizki, hozirda barcha rivojlanayotgan mamlakatlar qiyosiy tahlilida mazkur davlatlar iqtisodiyoti modernizatsiyasida ko'proq foydali bo'lgan ilg'or ilmiy-texnik ishlanmalarni selektiv va hamkorlikda rivojlantirish strategiyalari tan olinganligini hisobga olish lozim. Ushbu strategiyalar quyidagilarni ko'zlaydi:

Birinchidan, ilmiy-texnik salohiyatga ega bo'lgan va davlatning innovatsion texnik-texnologik siyosatini kuchaytirish asosida iqtisodiyotning tayanch sohaslarini, ayniqsa innovatsion kichik biznesni, rivojlantirish.

Ikkinchidan, rivojlanish darajasi jahon standartlaridan orqada qolayotgan texnologiya sohaslarini, ayniqsa, innovatsion kichik biznesni rivojlantirish. Jahonning rivojlangan mamlakatlaridagi kichik biznes korxonalari faoliyatining tajribasiga ko'ra, ularning muvaffaqiyatlari innovatsiyalarni boshqarishning bir butun tizimi yaratilgan va bunda, ilm-fan xarajatlarining (YaIMga nisbatan) ortib borganligini kuzatish mumkin. Bunda ko'p sonli texnologik va innovatsion firmalar, aynan, venchur kapitali tufayli rivojlantirilgan. Lekin, global inqiroz yillarida innovatsiyalarga qilingan xarajatlarning o'sishi sekinlashgan. Jahon tendensiyalarini umumlashtirgan holda ko'rish mumkinki, mamlakatning rivojlanish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, innovatsiyalarni davlat hisobidan moliyalashtirish ulushi shunchalik oz bo'ladi va innovatsion jarayonning mustaqillik darajasi yuqori bo'ladi. AQSH va Yaponiyada innovatsion loyihalarni mustaqillik darajasi juda yuqori (davlat ulushi 15 foiz), Xitoy va Hindistonda o'rtacha darajada (15- 30 foiz).

Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OECD) mamlakatlari bo'yicha 50 foiz innovatsiyalarga xarajatlar korxonalarining xususiy mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladi. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalashtirayotgan va texnik qayta jihozlanayotgan mamlakatlar uchun esa, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish darajasi

juda past. Bunda, iqtisodiyotga ajratilgan kreditlar miqdori bo'yicha Xitoyda YaIMga nisbatan 100-140 foiz, Chili va Koreyada 50 foiz, Hindiston va Isroilda esa 50 foizdan kam miqdorida mablag' ajratilgan.

16.2. Innovatsion tashkilotlarning vazifalari

Iqtisodiyotning rivojlanishi bugungi kunda bevosita innovatsion tashkilotlar faoliyati bilan bog'liq bo'lib, bu, o'z navbatida, innovatsion tashkilotlar zimmasidagi mas'ulatlarning yanada ortishiga olib keladi

Innovatsion tashkilotlarning asosiy vazifasi-bu ilmiy-texnik sohada tadbirkorlikni rivojlantirish va yangiliklarning iqtisodiy samaradorligini oshirishga yordam berishdir.

Innovatsiyalarning tijorat muvaffaqiyatining ehtimoli mahsus institutlar, tashkilotlarni shakllanishi va yagona innovatsion sohada shakllangan innovatsion jarayonni ta'minlash tizimlari tufayli keskin oshadi.

Innovatsion sohada innovatsion infratuzilma markaziy rol o'ynaydi, u innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun mablag'larni samarali taqsimlash va xizmatlar ko'rsatishga ko'maklashuvchi sharoitlar yaratish uchun tashkiliy, moddiy, axborot, moliya va kredit bazasidan iborat bo'ladi.

Innovatsion infratuzilmaning holati milliy iqtisodiyotning iqtisodiy o'sish modeli va texnologik rivojlanish darajasi bilan mahkam bog'langan. Rivojlangan mamlakatlarga xos bo'lgan iqtisodiy o'sishning innovatsion modeli o'sishning nobuyumli, innovatsion va axborot omillarining rolini oshishi, hamda ko'p ilm iste'mol qiladigan sohalarni juda tez rivojlanishi bilan ta'riflanadi. Bunday mamlakatlarda innovatsion tuzilmani rivojlanishi konsalting, injiniring, axborot va telekommunikatsion xizmatlarni tashkil qilinishiga asoslangan.

Innovatsion infratuzilmada ilmiy, davlat va ijtimoiy institutlaridan tashqari moliyaviy, investitsion resurslarni jamlanishi va innovatsion faoliyat xatarlarini diversifikatsiyalashga yordam beruvchi investitsion institutlar muhim rol o'ynaydi. Bu yerda sug'urta kompaniyalari, nodavlat nafaqa fondlari, investitsion banklar, investitsion va venchurli fondlar, moliyaviy va investitsion kompaniyalar eng muhim investitsion institutlar bo'ladilar.

Tashkilotning har tomonlama rivojlanishining har xil shakllariga qobiliyati asosiy sohalar, texnologiyalar, mahsulot turlari asosida shakllandi. Innovatsion tashkilotdagi har tomonlama rivojlanishning yetakchilari bo'lgan har xil sohalarning texnologiyalari va yuqori texnologik ishlab chiqarishlar asoslariga suyanishdan iboratdir. Bunday yondashish mahsulotning raqobatbardoshligini qo'llab – quvvatlash va yangi raqobat afzalligini yaratishning zarur sharti bo'ladi.

Daromadlikning yetarlicha me'yoriga ega bo'lgan korxonalar bitta soha imkoniyatlaridan foydalanishda, qoidaga ko'ra, har tomonlama rivojlanishni o'tkazmaydi. Bunda uning o'sish salohiyati pasaya boshlaydi. Ammo bozorlarni to'ldirilishi, o'sish istiqbollari torayishi va yangi texnologiyalarni vujudga kelishi sari yirik tashkilotlar sohalarning tashqarisiga chiqadilar va innovatsiyalar asosidagi har tomonlama rivojlangan mahsulotni taklif qiladilar. Bunda korporatsiyaning o'zi ko'pgina bozorlar, ko'p ilm talab qiladigan ishlab chiqarishlar va innovatsion oqimlar aloqasining markazi bo'ladilar.

Yangi ishlab chiqarishlar va yangi sohalarning— o'zagi raqobatli tuzilmalarni tashkil qiladi, ilmiy – tadqiqot ishlanmalariga yirik investitsiyalarni kiritadi, buning natijasida sotishlar hajmini ko'payishidan iborat bo'ladi. Har tomonlama rivojlanish korxonalar — ichidan (yapon yo'li) yoki—tashqaridan korxonalarni birlashishi, yutib yuborilishi, xarid qilinishi natijasida (amerikaga yo'l) boshlanishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasining iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan bandida "Tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish, erkin iqtisodiy zonalar, logistik markazlar, texnoparklar va kichik sanoat zonalarini tashkil etish, amaldagi zonalarining samaradorligini oshirish, xizmatlar ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlar roli va ulushini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlarning tuzilmasini eng avvalo xizmatlarning zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o'zgartirish, yo'l-transport infratuzilmasini yanada rivojlantirish, iqtisodiyot, ijtimoiy sohaga, boshqarish tizimiga informatsion-kommunikatsion texnologiyalarni joriy etish, qishloq xo'jaligi

mahsulotlarni saqlash, transportirovka qilish va sotish, moliyaviy va boshqa zamonaviy bozor xizmatlarni ko'rsatish infratuzilmasini yanada kengaytirish" kabi vazifalar keltirilgan.

Shulardan kelib chiqqan holda, bugun mamlakatimizni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, iqtisodiyotimizni innovatsion rivojlantirish, sifat jihatdan yangi, zamonaviy tarkibiy tuzilmasini shakllantirish, hududlarimizni kompleks rivojlantirish bo'yicha barcha rejalarimizning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi yo'l-transport va kommunikatsiya infratuzilma tarmoqlarini yuksak sur'atlar bilan rivojlantirishga uzviy bog'liqdir. Shulardan kelib chiqib, bugungi kunda iqtisodiyotimizni innovatsion rivojlantirish va uning raqobatbardoshligini oshirishda yangi texnologiyalar, usullar, nazariya, g'oyalar va klasterlardan foydalanish dolzarb masaladir.

16.1-jadval

Logistik klasterlar turlari

Klassifikatsion belgilari	Logistik klaster tizimlari
Quvvati bo'yicha	Kuchli klasterlar, mustahkam klasterlar, salohiyatli klasterlar
Rivojlanish bosqichlari bo'yicha	Istiqbolli klasterlar, rivojlanayotgan klasterlar, quvvatli klasterlar
Faoliyati bo'yicha	Transport-logistik, bojxona-logistik, industrial-logistik, innovatsion-logistik klasterlar
Iqtisodiy klasterlarga xizmat ko'rsatish soni bo'yicha	Monologistik klaster.
Klaster (o'lchami) sig'imi bo'yicha	Kichik, o'rta, katta
Geografik belgisi bo'yicha	Lokal (mahalliy), hududiy, milliy, xalqaro
Innovatsion rivojlanish darajasi bo'yicha	Yuqori innovatsion klaster

Klaster – hozirgi kunda iqtisodiyotni rivojlantirishning eng faol shakli hisoblanadi. Iqtisodiyotda klaster tushunchasini birinchi marta 1990 yilda amerikalik olim Maykl Porter fanga olib kirgan.

Logistik klaster – bu resurslarni optimal ravishda oxirgi iste'molchiga yetkazib berish uchun logistik funksiyalarni bajarishdagi mustaqil (geografik) bozor subyektlarining mustahkam o'zaro harakat ta'sirlarini amalga oshirish joyi (zonasi, markazi) dir. Logistik klasterlar

tuzilmasi yagona moddiy, moliyaviy va axborot oqimlari bilan bog'liq bo'lgan korxonalar va tashkilotlardan tashkil topadi.

Xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, tadbirkorlar tashqi iqtisodiy faoliyatini yanada rivojlantirish uchun innovatsion logistik klasterlardan foydalanish muhimdir.

Innovatsion logistik klasterlar o'z ichiga quyidagi funksiyalarni qamrab olishi kerak bo'ladi:

- moddiy oqimlarni shakllantiruvchi, iste'mol qiluvchi, qayta shakllantiruvchi bozor subyektlari, ya'ni ishlab chiqaruvchilar, iste'molchilar, tijorat vositachilari;

- yer usti, suv, havo transport turlarining faoliyati bilan shug'ullanuvchi transport kompaniyalari;

- ekspeditor-kuryerlik, ekspeditor-agentlik, brokerlik, aralash yuk tashish operatorlik faoliyatlari, yo'l karterlari konferensiyasi bilan shug'ullanuvchi ekspeditorlik kompaniyalari;

- omborxonalar komplekslari, taqsimlash markazlari va terminallari;

- kichik sanoat zonalarini, texnoparklar, innovatsion markazlar;

- institutsional organlar bilan hamkorlik (transport vazirligi, moliya vazirligi, bojxona qo'mitasi, sanitar-epidemiologiya va veterinar nazorat xizmati);

- yordamchi mutaxassislar, ya'ni sug'urta kompaniyalari, ilmiy-tekshirish tashkilotlari, xodimlarni malakasini oshirish va qayta tayyorlash institutlari, konsalting va analitik tashkilotlar, marketing tashkilotlari;

- transport vositalariga xizmat ko'rsatuvchi texnik yordam ko'rsatuvchi korxonalar, yo'l-transport kompaniyalari, servis xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlari.

Yuqoridagi fikr va mulohazalar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- logistik konsepsiyalar asosida transport, omborxonalar va ekspeditsiya xizmatlarini qamrab olgan kompleks tizimni yaratish istiqbolli soha sanaladi;

- zamonaviy, xalqaro standartlarga javob beradigan, yuqori darajada modernizatsiyalashgan va keng xizmat ko'rsatishlar kompleksiga ega bo'lgan yuklarni to'plovchi va qayta ishlovchi terminal komplekslari, innovatsion logistik markazlar bo'lishi lozimligini talab qiladi;

– erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar va kichik sanoat zonalarni innovatsion tashkil etish, amaldagi zonalarning samaradorligini oshirish, xizmatlar ko‘rsatish sohasini jadal rivojlantirish uchun klasterlar faoliyatini innovatsion logistika asosida tashkil etishni yo‘lga qo‘yish;

– tadbirkorlarning klaster faoliyatini innovatsion rivojlantirishda logistika tamoyillaridan oqilona foydalanish;

– logistika sohasida malakali mutaxassislar tayyorlash va ularning malakalarini oshirishda xorijiy hamkorlikni tashkil qilish masalalariga e‘tiborni qaratish va h.k.

16.3. Innovatsion tashkilotlar tarkibi

Innovatsion tashkilotlar tarkibida quyidagilarga ega:

- texnologik parklar (ilmiy, ishlab chiqarish, innovatsion, biznes-park va h.k.);

- texnopolislar;

- fan va texnologiyalar mintaqalari;

- innovatsiyalar inkubatorlari.

Texnopark iyerarxik tuzilmasini qurish asosida modulli tamoyil yotadi. Uni qurishda foydalaniladigan birinchi element inkubatordir. Texnopark har biri innovatsion xizmatlarning ixtisoslashtirilgan majmuasini taqdim etuvchi tashkilotlarning yig‘indisidan iboratdir.

Texnoparklar tarkibiga quyidagilar kiradi:

-ilmiy;

-ishlab chiqarish;

-innovatsion;

-biznes parklar;

Ilmiy texnologik parklar-innovatsion tadbirkorlikning yana bir territorial tashkiliy turi bo‘lib, bu struktura innovatsion biznes mahsulotini ishlab chikarish va bozorda sotishni tashkil qilishga yordam beradi va shu orqali innovatsion faoliyatni rivojlantirishga yordam beradi.

Texnoparklarning asosiy vazifalari:

1. Ilmiy yangiliklarni texnologiyaga aylantirishdan.

2. Texnologiyani tijorat mahsulotiga aylantirishdan.

3. Kichik korxonalarda yangi yaratilgan mahsulotni ko‘p miqdorda ishlab chiqarishdan.

4. Ilmiy izlanishni olib boruvchi korxonalarni tashkil qilishdan.

5. Ilm bilan bog'liq barcha biznes turlarini qo'llab-quvvatlashdan iborat.

Texnopolis — bu texnoparklar, inkubatorlar yig'indisi va shahar hayotini ta'minlovchi turli tuman tuzilmalarning majmuasidir. Fan va texnologiyalar mintaqasi o'z ichiga texnopolislar, texnoparklar va inkubatorlarni, hamda ilmiy va ishlab chiqarish faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi shoxlanib ketgan infratuzilmani olishi mumkin.

Texnopolislar o'zlari joylashgan mintaqalarni rivojlanishiga shakllantiruvchi ta'sir ko'rsatadilar va quyidagilarga yordam beradilar;

- innovatsion faollikni oshirish;
- innovatsion infratuzilmani shakllantirish;
- yangiliklarni tijoratlashuvini jadallashtirish;
- sanoatni tarkibiy qayta qurish;
- yangi ish joylarini tashkil qilish;
- innovatsion faoliyat mexanizmlarini takomillashtirish, innovatsion sohani institutsiallashtirish (qandaydir yangi ijtimoiy institutlarni ta'asis etish);
- sanoatni rivojlanishining ko'p ilm talab qilishini kuchaytirish;
- iqtisodiyotning innovatsion qobiliyatini takomillashtirishga.

Inkubatorlarning ajralib turgan alomati va tashkiliy xususiyati shundan iboratki, ular aniq tovarni emas, mustaqil xo'jalik subyektini ishlab chiqish bilan shug'ullanadilar. Shunday qilib, yangi kichik innovatsion korxonalar texnoparklarning — mahsuloti bo'ladi. Inkubatorlarda har xil ishlab chiqarish birliklarini bo'lishi korxonalariga ularni ushlab turishga xarajatlarni ancha qisqartirish imkoniyatini beradi. Bu yerda, misol uchun, inshootning ijarasi, sekretarlik, telefon, kompyuter xizmatlaridan birgalikda foydalanish uchun pastroq narx belgilangan. tadbirkor faoliyatining boshlang'ich bosqichida inkubator menejlari tomonidan boshqaruv sohasida yordam ko'rsatiladi, u malakali yuristlar, hisobchi, marketologlar xizmatlari tarmog'iga kira oladi. Inkubatorning, tijorat korxonasi sifatidagi daromadlari inshoot va idora uskunalarini ijaraga olish uchun olinadigan ijara haqi, turli tuman kasbiy xizmatlarni sotishdan daromadlardan vujudga keladi.

Biznes parkda korxonalarining kengroq turli tumanligi harakat qiladilar. Inkubatorlarda tashkil qilingan, unga tegishli bo'lgan va texnologiyalarni topshirish va ilmiy-maslahat xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mualliflik korxonalari; inkubatorlardan chiqqan mustaqil

korxonalar; yirik korxonalariga tegishli bo'lgan, parkka yirik sanoatning fan, kichik va o'rta biznes sohasidan o'tgan bozorning har xil talablarini hajmi va vaqti bo'yicha qanoatlantiruvchi ilmiy tadqiqotlar natijalarini o'zlashtiruvchi korxonalar. Ushbu nuqtayi nazardan uni tashqi muhitga moslashishi tizimning muhim xususiyatidir. Turli-tuman talabni qanoatlantirish uchun korxonalar kichik seriyali va noyob mahsulotni ishlab chiqaradi, uning katta qismi buyurtmaga, shartnomaga mo'ljallangan. Bu boshidan ishlab chiqaruvchi, yetkazib beruvchi va xaridor o'rtasidagi barqaror aloqalarning yuqori darajasini belgilab beradi.

Ko'pgina yapon korxonalarining tashqi muhitga yuqori moslashuvchanligi sotishlar va marketingni tashkil qilish bilan ham izohlanadi, chunki buyurtamani shakllantirish, talab va sotish kanallarini shakllantirish odatda mahsulotni ishlab chiqish va ishlab chiqarish bosqichlaridan oldin keladilar. Korxonalar bozor talablariga yuqori moslashuvchanligida raqiblarni bozorga kirishlarini chegaralovchi asosiy to'siqlar tashkilotning raqobat afzalliklarini tashkil qilishga qobiliyati bo'ladi, korxonaning ilmiy-texnik tajribasi, texnologiyalarning darajasi va yangiligi, patentli monopoliya, tadqiqot bazasining mavjudligi, xodimlarning yuqori malakasi ular sifatida bo'ladi. Korxonaning taraqqiy etishida boyliklar, ijodiy yondashish va kasbiy o'sish va mehnat faoliyatining obro'sini o'sishi bilan birga bo'luvchi innovatsion rivojlanish hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Ishlab chiqarishni innovatsion yo'naltirilganligi boshqaruvning innovatsion xarakteri bilan yaqindan bog'langan: ma'muriy usullar sotsial-psixologiklar tomonidan siqib chiqariladi, xodimning mehnat unumdorligini oshishi esa uni boshqaruv qarorlarini qabul qilishga daxldorligi va sifat jihatidan yangi mehnat undovchi sabablar bilan bog'lanadi.

Strategik markaz bilan yaqindan bog'langan kichik bo'linma xodimlari uchun o'zini yangi innovatsion faoliyatning faol ishtirokchisi sifatida ko'rsatib menejerning ishonchini oqlashga harakat qilish xosdir. Kichik bo'linmalarda mehnatga undovchi sabablar sezilarli ravishda kuchaytiriladi, tashabbus rag'batlantiriladi.

Boshqaruvning innovatsion xarakteri yana shunda namoyon bo'ladi, kichik mustaqil innovatsion bo'linmalar kundalik faoliyatda yirik byurokratik tashkilotlar uchun xos bo'lgan, qarorlarni gorizontol va

vertikal bo'yicha muvofiqlashtirishning murakkab tadbirlari bilan bog'langan emaslar.

Innovatsion ishlab chiqarishning asosida texnologik tizimlarning egiluvchanligi, o'zgaruvchanligi va moslashuvchanligi, uskunalarni qayta sozlanuvchanligi va ishlab chiqarish quvvatlarini qaytadan ixtisoslashtirilganligi yotadi. Texnologiyalarni egiluvchanligi va o'zgaruvchanligi ishlab chiqarishni innovatsion jarayonning har xil bosqichlarida parallel ravishda faoliyat yuritish asosida gorizontaal bo'yicha tashkil qilish bilan birlashadi. Masalan mashinasozlik va asbobsozlikdagi texnologik jarayonlarning ko'pchiligi diskretli (uzilishli) xarakterga ega, bu nou-xauni bildiradi. Bu korxonalar belgilangan shartlarda texnoparkning xizmatlari: axborot, kommunikatsiya, marketing, patent litsenziyasi, reklama nashriyot, lizing, vositachilik va boshqa xizmatlarini xarid qilishlari mumkin.

Korxonani parkda bo'lishi muddati shartnomada kelishib olingan va loyihada istiqbolligi va uni iste'molchilarga yetkazib berish imkoniyati bog'liqdir. Parkning himoyasi ostida korxonalar yangi texnologiyalar, tadbirkorlik usullarini faol o'zlashtiradilar, marketing tuzilmalarida kasb egalardan foydalanadilar va natijada o'z mahsulotlarining yuqori raqobatbardoshligini ta'minlaydilar.

Texnologiyalardan tashqari G'arbda texnologiyalarni kichik va o'rta biznesga topshirish tizimi keng tarqalgan. Masalan, Enxedeza, bunday ishni texnik va ijtimoiy fanlar universiteti qiladi, u yerda ixtisoslashtirilgan tashkilotlar 1920 yillardayoq tashkil qilinganlar. Bu dasturlarning asosiy vazifalaridan biri g'oyalarni bo'yicha tadbirkorlarni topishdir. Maxsus dastur bo'yicha ishlovchi mutaxassislar gazetalarda shaxsiy loyihalarini yoki bir qator korxonalar menejerlarining g'oyalarni bosib chiqaradilar. Bu yerda yana o'z ishini boshlash va biznesni boshlash uchun mablag'lar topish taklif qilinadi.

Tadbirkorlarning javoblari tahlil qilinadi, keyin ular bilan suhbat o'tkaziladi. Inkubator davri davomida IK odatda universitet ilmiy guruhlarini bilan hamkor qiladilar. Bunday kompaniyalarning ajralib turuvchi alomati-bankrotlikning juda past darajasidir.

Innovatsion tashkilotlar, texnoparklar va texnopolislar misolida innovatsion infratuzilmaning ahamiyati ayniqsa sezilarlidir, u fanni bozor muhitiga kirishi, ilmiy-texnik sohada tadbirkorlikni rivojlanishi va yangiliklarning iqtisodiy samaradorligini oshishiga yordam beradi.

Innovatsiyalarning tijorat muvaffaqiyatining ehtimoli mahsus institutlar, tashkilotlarni shakllanishi va yagona innovatsion sohada shakllangan innovatsion jarayonni ta'minlash tizimlari tufayli keskin oshadi. Innovatsion sohada innovatsion infratuzilma markaziy rol o'ynaydi, u innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun mablag'larni samarali taqsimlash va xizmatlar ko'rsatishga ko'maklashuvchi sharoitlar yaratish uchun tashkiliy, moddiy, axborot, moliya va kredit bazasidan iborat bo'ladi.

Tayanch iboralar

Innovatsion tashkilot, texnologik parklar, texnologik mintaqalar, innovatsiyalar inkubatori, texnologik egiluvchanlik, texnopark xizmatlari, innovatsion ifratuzilma, texnopolistlar, biznes parklar, strategik markaz.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Innovatsion tashkilotlarning qanday turlari mavjud?
2. Innovatsion tashkilotlar qanday vazifalarni bajaradi?
3. Ixtisoslashgan va kompleks innovatsion tashkilotlarining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
4. Texnoparklar faoliyatining asosiy mazmun-mohiyati nimadan iborat?
5. Innovatsion tashkilotlarning innovatsion iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashdagi o'rini qanday baholaysiz?

XVII BOB. REAL SEKTORDA INNOVATSION FAOLIYATNING ILMIY ASOSLARI

Ushbu bobda innovatsion faoliyatning ilmiy asoslari, innovatsion rivojlanishning qonuniyatlari, innovatsion tizim tushunchasi va tasnifi, ularning mazmuni hamda xossalari, tizimli yondashuvni qo'llashning qoidalari, optimallik asosidagi, direktiv va xatti-harakatlar asosidagi hamda vaziyatli yondashuv va asosiy usullarning tasnifi bilan bog'liq ma'lumotlar berilgan.

17.1. Innovatsion faoliyatga tizimli yondashuv: asosiy atamalar va tushunchalar

Innovatsion faoliyat makon va zamonda mavjudligi, o'z o'rniga ega ekanligi sababli iqtisodiyotning muhim obyektlaridan biri hisoblanishi tabiiy hol. Bir qator iqtisodiyotga oid adabiyotlarda innovatsion faoliyatning mazmun va mohiyati, uni tasniflash va tavsiflash asoslari, ushbu faoliyatga doir ma'lumotlarni hisob va hisobotda real aks ettirilganligini tekshirish tartibi yetarlicha ochib berilmagan. Shu bois ham innovatsion faoliyatning iqtisodiyot obyekti sifatidagi mohiyatiga, uni tasniflash va tavsiflash asoslariga batafsil to'xtalib o'tish zarur.

«Innovatsion faoliyat» atamasi negizida, avvalambor, «innovatsiya» so'zi, ushbu so'z negizining o'zida esa «novatsiya» so'zi yotadi. O'zbek tili lug'atiga bu so'zlar xorijiy tillardan kirib kelgan. Chunonchi, inglizcha «innovation», ruschasiga «innovatsiya» so'zi lug'atlarida «novovedenie», «novatorstvo» sifatida talqin etilgan. Rus tilida berilgan talqinga ko'ra bu so'z o'zbek tiliga «yangilik kiritish», «yangi usul», «kiritilgan yangilik» kabi ma'nolarda o'girilgan va izohlangan. «Novatsiya», lotincha «novatiop» so'zi rus tilidagi lug'atlarda «izmenenie», «obnovlenie», o'zbek tili lug'atlarida esa «o'zgarish», «yangilanish» ma'nosida talqin etilgan.

«Innovatsiya» atamasi mahsus lugʻatlarda va adabiyotlarda ham turlicha taʼriflangan hamda izohlangan. Chunonchi, rus tilida chop etilgan «Bolshoy buxgalterskiy slovar»da innovatsiya atamasiga «texnika va texnologiya avlodini almashtirishni taʼminlash maqsadida iqtisodiyotga mablagʻ kiritish», «ilmiy-texnik progress yutuqlari natijasi hisoblangan yangi texnika va texnologiya» mazmunlarida taʼrif berilgan.

V.A.Makarenko tahriri ostida nashr etilgan zamonaviy tushuncha va terminlar lugʻatida «innovatsiya» terminiga yana ham kengroq tavsif berilgan. Lugʻatda «innovatsiya» termini quyidagi mazmunda bayon qilingan: «innovatsiya -bu:

- texnika va texnologiya avlodining almashinuvini taʼminlash maqsadida iqtisodiyotga mablagʻ yoʻnaltirish;

- ilmiy-texnika taraqqiyotining mahsuli boʻlgan yangi texnika, texno-logiyadan foydalanish;

- yangi gʻoyalarni ishlab chiqish, sintezlash, yangi nazariya va modellarni yaratish va ularni hayotga tatbiq etish;

- individual tushdagi, takrorlanmas, siyosiy dasturlarni amalga oshirish;

- tilshunoslikda yangidan tashkil etish, nisbatan yangi koʻrinish.

Adabiyotlarda innovatsiya atamasiga «yangilanishga qilingan investitsiya», «yangi jarayon, mahsulot, xizmatlarni amaliy oʻzlashtirish natijasi», «yangi texnika yoki texnologiyaga, mehnatni tashkil qilishga xizmat koʻrsatishga, boshqaruv va boshqa maqsadlarga kiritilgan kapitaldan olingan moddiy hamda nomoddiy mulk» kabi mazmundagi izohlar ham berilgan. Shuningdek, innovatsiyaga yangilikni yaratish, oʻzlashtirish va tarqatish jarayonlari, bu jarayonlarni oʻzida mujassamlashtiruvchi faoliyat sifatida ham taʼriflar berilgan.

Demak, yuqorida keltirilgan taʼriflar, izohlarga asoslanib taʼkidlash joizki, «novatsiya», «innovatsiya», «innovatsion faoliyat» har qanday kishilik jamiyatini, uning iqtisodiy-ijtimoiy hayotini pannaq toptirish uchun amalga oshirilayotgan ishlarni, jarayonlarni, moddiy va nomoddiy koʻrinishdagi yangi yaratilayotgan mulkni ifodalovchi tushunchalardir.

Innovatsiya xoʻjalik yurituvchi subyektlarda amalga oshirilayotgan ishlab chiqarishni, uning moddiy texnika bazasini yangilash hamda rivojlantirish maqsadida yangi gʻoyalar va ishlanmalarni yaratish, oʻzlashtirish va tatbiq etishga qaratilgan mahsus faoliyatdir. Faoliyat sifatida innovatsiyalarni insoniyat mehnat faoliyatining barcha

jabhalarida qo'llash mumkin. Bu faoliyatni yuritish jamiyatda fan-texnika taraqqiyotiga olib keladi.

Innovatsion faoliyat qyyidagi yo'nalishlardagi yangilikni ixtiro qilish joriy qilishni o'zida mujassamlashtiradi:

- yangi texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishning tashkiliy shakli;

- yangi boshqaruv jarayoni va ijtimoiy-iqtisodiy masalalarning hal etilishi, ularga mos ravishda, yangi moliyaviy dastaklar va tashkiliy tuzilmalar.

17.2. Tizimlar tasnifi va ularning mazmuni hamda xossalari

Bugungi kunda innovatsion rivojlanishda innovatsiyalarning chiziqli modeli an'anaviy ravishda yetakchi rol o'ynamoqda. Ushbu modelga muvofiq ishlab chiqilgan fundamental ilmiy g'oyalar amaliy tadqiqotlarda mujassam topmoqda. Bu tadqiqotlar ularni amalga oshirish natijasida ilg'or texnologiyalar vujudga keladigan innovatsiyalar uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Model XX asrda o'zini juda yaxshi ko'rsatdi va avvalgidek, XXI asrda ham rivojlangan mamlakatlarda munosib o'rin egallaydi. Chiziqli modelga qo'shimcha ravishda rivojlangan mamlakatlarda «innovatsiyalar ko'p miqdordagi manbalar modeli» ham asta-sekinlik bilan joriy qilinayotgan bo'lib, unga ko'ra innovatsiyalar innovatsiya tizimining istalgan qismida vujudga kelishi mumkin.

Ilmiy tadqiqotlar innovatsiyalarning muhim harakatlantiruvchi kuchi bo'lib qolaversada, ular bunday yagona kuch hisoblanmaydi. Shu boisdan ilmiy-tadqiqotchilik tashkilotlarining an'anaviy rolini qayta ko'rib chiqish zarur. Yangi bilimlar davlat tadqiqotchilik tashkilotlari yoki kompaniyalarning tadqiqotchilik bo'linmalaridagina emas, balki boshqa ko'plab ijtimoiy strukturalarda ham yaratiladi.

Muhandislar, savdo agentlari, boshqa yollanma xodimlar va iste'molchi innovatsion jarayonga muhim hissa bo'lib xizmat qiladi. Ishlab chiqarish, sotuv va iste'mol sohalaridan kelib tushadigan g'oyalar va takliflar asosida yangiliklarning paydo bo'lishi iqtisodiy agentlar o'rtasida o'zaro aloqalar rivojlangan tizimlar uchun xarakterlidir.

Innovatsion jarayon faqat texnologiyalar sohasi bilan cheklanib qolmay, institutsional, tashkiliy va boshqaruv innovatsiyalarini ham

qamrab oladi. Bu bilimlar amalda mavjud an'anaviy konsepsiyalarga kiritilishi mumkin emas va ba'zida ularning doirasiga sig'maydi ham. Ular muayyan tarmoqda band bo'lgan subyektlarning nomoddiy aktivlarini ifodalaydi; kompaniyalar ushbu bilimlardan maksimal darajada samaradorlik bilan foydalanishlari lozim. Innovatsiyalar ko'p miqdordagi manbalar modeli elementlar xilma-xilligini maksimal darajada hisobga olgan holda rivojlantirish va ularning ijodiy o'zaro aloqalar qilishi uchun sharoitlar yaratish mexanizmiga yo'naltirilgan.

Innovatsiyalar ikkita tayanch modelini tahlil qilish shunday xulosa chiqarishga imkon beradiki, diqqat markazida normativ va subyekt yondashuvlar optimal uyg'unligini izlab topish muammosi qoladi. Bu muammoni hal qilishda ko'pchilik hollarda ikkita paradigma: «innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash» va «innovatsion faoliyat muayyan subyektlarini qo'llab-quvvatlash» o'rtasida tushunilmagan nizolar o'ringa ega bo'ladi. Shuni ta'kidlash joizki, bu paradigmalarni muqobil sifatida ko'rib chiqmaslik kerak, ular bir-birini to'ldirib turishi lozim. Bunga esa «problematizatsiya (fikrlashda muammolarni qo'yish va foydalanish usullar va shakllari) makoni»ni kengaytirish va alohida vazifalarni hal qilish-ning xususiy strategiyalari sifatida yuqorida aytib o'tilgan ikkala yondashuvni o'z ichiga oladigan paradigmaga o'tishdagina erishish mumkin.

Innovatsion rivojlanishga o'tish innovatsion salohiyatni jalb qilish va resurslarni optimallashtirishdan ko'ra ko'proq iqtisodiyotning institutsional strukturasi tizimli o'zgartirishni talab qiladi. Shu boisdan milliy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishini to'xtatib turadigan tendensiyalar namoyon bo'lishi uning eng muhim yo'nalishlarini aniqlashda yangicha yondashuvlar ishlab chiqishni talab etadi. Bu ma'noda innovatsion iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanishini institutsionalizatsiyalash ularni bartaraf etishda muhim bir qadamga aylanadi. Ayniqsa, institutsionalizm metodologik asoslari negizida tuzilgan iqtisodiy holat tahlili qimmatga ega. Mazkur yo'nalish faqat iqtisodiy jarayonlarni emas, balki insonlar hayot faoliyatining boshqa sohalarida ro'y beradigan, iqtisodiyotning real sektori texnologik bazasini shakllantirishga ta'sir etuvchi boshqa jarayonlarni ham hisobga oladi. Institutsional nazariyaning konseptual tamoyillari neoklassik yo'nalishdagi o'ta mavhum, statik (o'zgarmas) yondashuvni bartaraf qilishga imkon beradi va milliy iqtisodiy tizimning innovatsion rivojlanish imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Hozirgi paytgacha

institutsional tahlil bilimlar iqtisodiyoti elementlarining rivojlanishini bashorat qilish va evolutsiyasini baholash uchun juda kam foydalanib kelingan. Shu asnoda D.S.Lvov iqtisodiy tadqiqotlar vositalarini, jumladan, bilimlar iqtisodiyoti metodologik apparatini takomillashtirish obyektiv zaruratini qayd etadi.

Institutsional muhit bu – xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyati va ularning o‘zaro aloqalarini strukturalaydigan qoidalar to‘plami ekanligi sababli institutsional yondashuv doirasida xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyati ikkita asosiy yondashuv: transformatsiya va tranzaksiya yondashuvi asosida tavsiflanadi. Ulardan birinchisining doirasida tadqiqotchilarning e‘tibori xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga ichki omillarning ta‘siriga qaratiladi. O‘z navbatida, ikkinchi yondashuv tashqi omillar ta‘sirini ko‘rib chiqadi. Bunga ko‘ra, O.Uilyamsonning institutsional nazariyalar tasnifiga muvofiq, institutlar tasnifi birinchi navbatda «xo‘jalik yurituvchi subyektga munosabat» belgisi bo‘yicha amalga oshirilishi, ya‘ni ichki va tashqi institutlarga ajratilishi lozim. Demak, bilimlar ishlab chiqarish korxonasi faoliyati yo‘nalishlaridan biri ekanligini hisobga olib, yangi bilimlar ishlab chiqarish institutlari tasnifining boshlang‘ich belgisi ularning xo‘jalik yurituvchi subyektga munosabati hisoblanadi. Bunda birinchi yo‘nalish doirasida korxonasi va firmalar «ichkaridan», ya‘ni yangi bilimlar ishlab chiqarishga turli boshqaruv yondashuvlarida ifodalanadigan me‘yorlar, bitimlar va shartnomalar tizimi orqali tahlil qilinadi.

Ikkinchi yo‘nalish iqtisodiy tashkilotlarni «tashqaridan» tadqiq qilish uchun kalit beradi - xo‘jalik yurituvchi subyekt o‘rtasida o‘zaro aloqa qoidalarini o‘rganishga yo‘naltiradi.

Zamonaviy institutsional nazariya quyidagi asosiy muammolarni hal qilishga asoslanadi: institutlar (muassasalar, tashkilotlar) yuzaga kelishini tushuntirish, ularning o‘zgaruvchan sharoitlarda faoliyat yuritishini o‘rganish, ularning muassasaviy tartib mohiyatini aniqlash va institutsional o‘zgarishlar rolini baholash.

Yuqorida bayon qilingan institutsional iqtisodiyot yo‘nalishlari doirasida tavsiflangan bozor o‘zgarishlari jarayonini o‘rganish an’anaviy iqtisodiy tahlil doirasini kengaytiradi va institutsional tizim faoliyati muammolarini tadqiq etishda umumiy nazariy asoslarni hisobga oladigan kompleksli yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiqligini asoslab beradi.

An'anaviy institutsional tahlilda raqobatli muhit shakllantirishning muhim shartlaridan biri sifatida iqtisodiy subyektlarga huquqlar berish va cheklovlar shakli sifatida institut (muassasa) tushunchasini ajratib ko'rsatamiz. Yangi institutsional iqtisodiyotga xos bo'lgan jihatlar rasmiy va norasmiy qoidalar, shartnoma tizimi tahlili, institutsional tuzilma va tashkilot shakllarini tadqiq etish hisoblanadi. Tizimli yondashuvda ichki tashkil qilishni hisobga olgan holda ham, uni ijtimoiy-iqtisodiy tizimga kiritish nuqtayi nazaridan ham institutsional tarkib va uning o'zgarishini tadqiq etish ko'zda tutiladi. Bulardan keyingisining o'zgarish dinamikasini o'rganish quyidagi shartlardan kelib chiqishi lozim:

birinchidan, dinamika davomida omillar va qarama-qarshiliklar to'plami ta'siri ostida tizimning ham sifat, ham son ko'rsatkichlari o'zgaradi;

ikkinchidan, dinamika toifasi tizimning o'zgarish jarayoni belgilangan yo'nalishini oshkora bo'lmagan holda ko'zda tutadi;

uchinchidan, har qanday ijtimoiy-iqtisodiy tizim dinamika jarayonida o'zining aynan o'xshashligini topadi va yaxlitlikni saqlab qolishga intiladi. Bundan, iqtisodiy tizim dinamikasi asosiy xususiyatlari qatoriga uning barqarorlik, qaytariluvchanlik yoki qaytarilmaslik va yakuniy natijaning noaniqlik darajasi xarakterini kiritish mumkin.

Tizimli metodologiyaga amal qilib, qayd etamizki, tizim elementlarining o'zi uning ichidagi aloqalar xarakterini belgilab beradi, shu sababli iqtisodiy tizimning institutsional dinamikasi asosida xo'jalik yuritish sharoitlarining murakkablashuvi va manfaatlarning o'zgarishiga javoban subyektlarning muvofiqlashtirilgan harakatlari natijasi hisoblangan institutsional struktura o'zgarishlari yotadi.

Iqtisodiy tizim subyektlari o'zining xo'jalik faoliyati jarayonida o'zining xohish-istaklari va tranzaksion samaradorligiga qarab, institutsional rasmiylashtirishdan markazlashmagan tanlov o'tkazadi.

Markazlashmagan tanlov rasmiy institutlar, davlat tomonidan taqiqlanmagan norasmiy institutlar va davlat tomonidan taqiqlangan norasmiy institutlar orasida amalga oshirilishi mumkin. Ularning subyektlari bo'lib bevosita xo'jalik faoliyati qatnashchilari namoyon bo'ladigan markazlashmagan tanlovdan farqli ravishda, institutlarni markazlashgan tarzda tanlash jamiyatning siyosiy tizimi subyektlari tomonidan o'z motivatsiyasi asosida amalga oshiriladigan rasmiy institut-larni ishga tushirish mexanizmini ifodalaydi.

Markazlashgan tanlov jarayonida qonuniy tan olingan rasmiy institutlarni xo'jalik yurituvchi subyekt mutlaq qat'iy talab emas, o'zaro aloqalarini tartibga solish mumkin bo'lgan usullardan biri sifatidagina ko'rib chiqadilar. Shu bilan bir paytda, rasmiy institutlar ko'pincha markazlashgan tanlov subyektlari «ijodi» hisoblanmaydi, balki markazlashmagan tanlov sohasida mavjud bo'lgan norasmiy institutlarni ifodalashning yakuni sifatida namoyon bo'ladi.

17.3. Real sektorda innovatsion faoliyatni tashkil etishning funksional, marketing va integratsion yondashuvlari

Iqtisodiy adabiyotlarda innovatsiya nazariyalarini bir butun sifatida tadqiq etilgan ishlar juda ham kam uchraydi. Innovatsiya mavzusining evolutsiyasiga keladigan bo'lsak, adabiyotlar tahlili quyidagi tarixiy bosqichlarni aniqlash imkonini berdi:

- 10-30 yy. – nazariyaning fundamental asoslari shakllanishi;

- 40-60 yy. – avvalgi davr tayanch innovatsion g'oyalarni rivojlantirish va batafsil o'rganish;

- 70- yy.ning o'rtasidan to hozirga qadar.

Innovatsiyalarning fundamental asoslari shakllanishida “katta to'liqin-lar” nazariyasi asoschisi N.D.Kondratevning tadqiqotlaridan boshlash to'g'riroq bo'lardi. Holbuki, u katta to'liqinlar shakllanishida texnik o'zgarishlarning rolini aniq ko'rsatib bermagan bo'lsada, katta to'liqinlarning ko'tarilishi chog'ida amalga oshmagan ixtirolar amalda o'z ifodasini topishini nazarda tutgan.

N.D.Kondratev o'zining tadqiqot faoliyati natijasida quyidagi asosiy holatlarni aniqlagan:

- sanoat ishlab chiqarishda almashinuv fazalari ketma-ketligining davriyligini aniqlagan;

- davrlarning ko'pligini isbotlagan;

- davrlar modelini ishlab chiqqan

Keyinchalik uning ilmiy qarashlariga Y.Shumpeter tomonidan qo'shimcha kiritildi va u katta to'liqinlarning paydo bo'lishida texnik o'zgarishlar asosiy o'rin tutishini asoslab berdi. Innovatsion rivojlanish

nazariyasi asoschisi Y.Shumpeter o'z tadqiqotlarida quyidagi asosiy holatlarga e'tibor qaratgan¹:

1. Iqtisodiy innovatsiyalarni faqat sanoat bilan bog'lagan holda ularga asosiy urg'u bergan;

2. "Kashfiyot" va "yangilik" tushunchalarini ajratgan;

3. Iqtisodiyotda dinamik o'zgarishlar innovator-tadbirkor tufayli ro'y beradi deb ta'kidlagan;

4. Global davriy inqirozdan faqatgina yangi texnologik qatlamdagi tayanch innovatsiyalarni jahon miqyosida rag'batlantirish orqaligina chiqib ketish mumkin deb ta'kidlagan.

U Kondratev sikllarini harakatga keltiruvchi kuch sifatida *texnik revolyutsiya* tushunchasini kiritdi. U bug' dvigatelining ixtiro qilinishi birinchi Kondratev to'liqiga (1818-1842 yy.), temir yo'lining ixtiro qilinishi ikkinchi to'liqiga (1843-1897 yy.) va elektr dvigateli hamda avtomobilning ixtiro qilinishi uchinchi to'liqiga (1898-1949 yy.) to'g'ri kelishi bejiz emasligini ta'kidlaydi. Y.Shumpeter ushbu o'zgarishlarni innovatsion faollik va tadbirkorlikning gurkirab rivojlanishi bilan bog'laydi.

D.Kodratevning maslakdoshi P.Sorokin ijtimoiy-madaniy sohada innovatsiyalarning asosini yaratdi, ya'ni u – ijtimoiy muhitda innovatsion rivojlanish nazariyasi asoschisi bo'lib, madaniyat va jamiyatning bir nechta turini aniqlagan². Unga ko'ra madaniyat va jamiyat turlaridan birining afzal ko'rilishi jamiyat, mamlakat va madaniyatning o'ziga xos jihatlarini ko'rsatib beradi. Shu tariqa 30 yil davomida innovatsion rivojlanishning fundamental asoslari yaratildi.

Innovatsion rivojlanish nazariyasi rivojlanishining keyingi bosqichi – fundamental xususiyat kasb etmaydi (40-yillardan 70-yillarning o'ratalariga qadar). Ko'pgina olimlarning fikricha bunga Ikkinchi jahon urushi va urushdan keyingi qurol-yaroq poygasining ta'siri katta bo'lgan. Barcha tadqiqotlar amaliy xususiyat kasb etdi. Ammo innovatsiyalar nazariyasi rivojlanishida jiddiy siljishlar sodir bo'ldi.

Ushbu davrdagi fundamental ishlarga ingliz olimi J.D.Bernalning "Jamiyat tarixidagi fan" ("Science in history") nomli monografiyasni kelitirishimiz mumkin. Ushbu monografiyasida u – ilmiy, texnik va ijtimoiy yangiliklar o'rtasida korrelatsiyani asoslagan. Uning fikricha

¹ Shumpeter Y. Business Cycles. Vol. 1, 2. New York, 1939.

² Сорочкин П. Социальная и культурная динамика. СПб.: РГХУ, 2000.

ilm-fanning rivojlanish davri odatda iqtisodiy faollikning va texnik rivojlanishning kuchayish davri bilan mos ravishda sodir bo'ladi.

Ushbu davrga kelib asosiy e'tibor innovatsiyalarning iqtisodiy o'sish bilan bog'liqligiga katta e'tibor qaratila boshlandi. Bu borada e'tiborli ishlarni amalga oshirgan olimlardan biri S.Kuznets bo'lib, u Shumpeter va Bernallarning g'oyalarini rivojlantirdi. U iqtisodiy o'sish belgilarini shakllantirdi va unga ko'ra milliy mahsulotning barqaror o'sishi, texnik rivojlanish, g'oyaviy, institutsional va boshqa o'zgarishlar iqtisodiy o'sish belgilari hisoblanadi³. S.Kuznets innovatsiyalar faqatgina texnologik emas, balki ijtimoiy jihatga ham egaligini ta'kidlab o'tdi. Yangi texnologiyalar salohiyati amalga oshishi uchun u yoki bu tarixiy davrlarda ustunlik qilgan ijtimoiy o'zgarishlar ham zarur deb hisoblagan va 1971 yilda "Davri innovatsiyasi" (epoxalnaya innovatsiya) tushunchasini kiritdi. Uning ta'kidlashicha agar korporatsiyalarsiz sanoat inqilobi, bug' dvigatellarini qo'llash mumkin bo'lmasdi.

Innovatsiyalar nazariyalari zamonaviy bosqichi nemis olimi Gerxard Menshning Kondratev va Shumpeterning katta to'liqlar nazariyasiga bag'ishlangan "Texnologik pat: innovatsiyalar depressiyadan ustun" nomli monografiyasidan boshlanadi. U iqtisodiy o'sish va (tayanch yangiliklar paydo bo'lishi oqibatidagi) davriylikni o'zaro bog'lashga harakat qilgan. Uning fikricha tayanch yangiliklar o'zining salohiyatini yo'qotganidan keyin texnik pat holati yuzaga keladi⁴. Uning tadqiqotlari natijalarini quyidagi asosiy holatlar bilan ajratish mumkin:

- texnik qatlamning hayot siklini tasvirlovchi investitsiyalarning S modelini ishlab chiqqan;

- "texnologik pat" tushunchasini kiritgan bo'lib, unga ko'ra innovatsiyalarsiz undan chiqib ketishning imkoni yo'q;

- innovatsion rivojlanish depressiya fazasidan keyin sodir bo'lishini ta'kidlagan.

Raqobat afzalliklari nazariyasi asoschisi M. Porter innovatsiyalar to'g'risidagi nazariy qarashlari ham innovatsiya nazariyasi rivojiga o'zining salmoqli hissasini qo'shgan. U innovatsiyalar va raqobatbardoshlik

³ Kuznets S. *Secular Movemens in Production and Prices*. New York, 1930.

⁴ Mensch Gerchard. *Stalemate in Technology: Innovations Overcome the Depression*. Cambridge, Massachusetts, 1979.

o'rtasidagi bog'liqlikni o'rgangan⁵ hamda kompaniyaning raqobat afzalliklarini uning innovatsiyalarni o'tkazish va ularni joriy etishi bilan solishtirgan.

Innovatsiya nazariyalari rivojlanishining uchinchi bosqichida e'tiborga molik tadqiqotlarni olib borgan olimlar sifatida quyidagilarni ta'kidlab o'tish lozim: S.Yu. Glazev – “texnologik ukklad” konsepsiyasi asoschisi.

Uning ta'kidiga ko'ra texnologik ukklad – bu texnikaning o'zaro bog'liq bo'lgan va bir birini ketma-ket almashtiruvchi bir qancha avlodlaridir. Uning “texnologik ukklad” konsepsiyasi Kondretevning “katta to'lqinlar” nazariyasi asosida yaratilgan deyish to'g'ri bo'lardi. Birinchi texnologik ukklad birinchi konratev to'lqiniga, ikkinchi ukklad ikkinchi to'lqinga to'g'ri keladi. Hozirda postindustrial mamlakatlar oltinchi texnologik ukkladga o'tish jarayonida turishibdi.

Amerikalik iqtisodchi B.Tviss – innovatsiyalarga jarayon sifatida qaragan va kashfiyotlar yangiliklarga aylanishining muvaffaqiyatliligi bog'liq bo'lgan omillarni ko'rib chiqqan⁶. Uning ta'kidlashicha innovatsiya – jarayon bo'lib, unda kashfiyot yoki g'oya iqtisodiy mohiyatga ega bo'ladi.

Kristofer Frimen–“milliy innovatsion tizimlar” (MIT) konsepsiyasi asoschisi. Frimenning ta'kidlashicha MIT – bu “xususiy va davlat institut va tashkilotlari tarmog'i bo'lib, ularning faoliyati hamda o'zaro aloqalari yangi texnologiyalarning vujudga kelishi, import qilinishi, modifikatsiyalanishi va tarqalishiga olib keladi”.

A.Klyaynknexst– G.Mensh nazariy qarashlarining ko'pgina jihatlarni tanqidiy qarshi oldi va rivojlantirdi.

U G.Menshning depressiya bosqichida yangiliklar klasteri shakllanishiga oid fikrlariga aniqlik kiritgan. Uning aniqlashicha, mahsulotlarga yangilik kiritish (mahsulotlar innovatsiyasi) depressiya fazasida sodir bo'ladi, jarayonga yangiliklar kiritish (jarayonlar innovatsiyasi) esa katta to'lqinning o'sish bosqichida sodir bo'ladi.

Mahsulotlar innovatsiyasi va jarayonlar innovatsiyasi o'rtasidagi farqni R.Kumbos va A.Klyaynknexstlarning o'zaro hamkorlikda yozgan

⁵ Michek E. Porter The Competitive Advantage of Nations, Harvard Business Review, march-april 1990.

⁶ Brain C. Twiss Managing Technological Innovations, London, 1974.

ishlarida keltirilgan quyidagi klassifikatsiyadan aniq va ravshan ko'rish mumkin⁷:

-“Soʻf” mahsulotlar innovatsiyasi (soʻnggi isteʼmol uchun moʻljallangan);

-yangi meditsina jarrohligi, apparatlari va dori-darmonlari;

-yangi investitsion tovarlar (eng avvalo isteʼmol tovar va xizmatlarini ishlab chiqarishga yoʻnaltirilgan);

-yangi texnik uskunalar (ham investitsion ham isteʼmol tovarlarini ishlab chiqarishda foydalanish imkoni mavjud boʻlgan);

-ilmiy instrumentlar (laboratoriya tadqiqotlari uchun moʻljallangan ammo keyinchalik sanoat maqsadlarida foydalanilishi mumkin boʻlgan);

-“Soʻf” jarayonlar innovatsiyasi (faqat ishlab chiqarish omillarini tejashga yoʻnaltirilgan).

Elvin Toffler – postindustrial jamiyat konsepsiyasi mualliflaridan biri boʻlib, oʻzining ilmiy asarlarida insoniyat yangi texnologik inqilobga oʻtmoqda deb taʼkidlaydi va jamiyat rivojlanishini uch “toʻlqin”: agrar, sanoat, axborot toʻlqinlariga ajratadi⁸. Shu boisdan ham koʻpgina adabiyotlarda uchinchi toʻlqin, yaʼni axborot toʻlqini “axborot inqilobi” yoki “texnologik inqilob” deb ham ataladi. U innovatsion jarayonlarni uch bosqichga, yaʼni ijod, amaliyotda qoʻllash va va jamiyatga tarqatish bosqichlariga ajratadi⁹.

Innovatsiya nazariyalari rivojining uchinchi bosqichidagi metodologik ishlar sifatida Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot tashkiloti (IHTT) ishlab chiqqan “Fraskati qoʻllanmasi” hamda IHTTning Yevrostat bilan birgalikda ishlab chiqqan “Oslo qoʻllanmasi”ni taʼkidlab oʻtish lozim deb oʻylaymiz. Mazkur hujjatlar fan va innovatsiyalar statistikasi metodologiyasiga bagʻishlangan ilk hujjatlar hisoblanadi¹⁰. “Innovatsiya” atamasi rivojlanishi davomida unga turli xil taʼriflar berilgan. Shularning eng toʻgʻrisi sifatida Fraskati va Oslo qoʻllanmalarida keltirilgan taʼriflarni keltirish mumkin¹¹.

⁷ Coombs, R.W., A. Kleinknecht: 'New evidence on the shift towards process innovation during the long wave upswing', in C. Freeman (editor): Design, innovation and long cycles in economic development, London: Royal College of Art, 1984, p. 81.

⁸ Alvin Toffler – The Third Wave, 1980.

⁹ Э.Толфлер. Шок будущего — М.: ООО “Издательство АСТ”, 2002, 36-с.

¹⁰ Frascati Manual Proposed Standard Practice for Surveys on Research and Experimental Development, Paris 2002, 8-p.

¹¹ Oslo Manual, Guidelines for Collecting and Interpreting Innovation Data, Third edition, A joint publication of OECD and Eurostat, 2005, 16-p.

Mazkur qo'llanmalar ishlab chiqarishni modernizatsiyalashni chuqurlashtirish, texnik va texnologik qayta jihozlash jarayonlari va natijalari to'g'risida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarishga imkon beruvchi ishonchli statistik ma'lumotlarni shakllantirish bo'yicha uslubiy qo'llanma bo'lib xizmat qilmoqda.

17.4. Innovatsion boshqaruv tamoyillari va asosiy usullarining tasnifi

Innovatsion jarayonlar, innovatsion faoliyat, bu faoliyat bilan band bo'lgan tashkiliy tuzilmalar va ularning xodimlarini boshqarish tamoyillari, usullari va shakllarining majmuasidir.

Boshqaruvning har qanday boshqa sohalar uchun uning quyidagilar xosdir: maqsadni qo'yish va strategiyani tanlash; davraning to'rtta bosqichlari:

- 1) rejalashtirish;
- 2) shartlarni belgilash va tashkil qilish;
- 3) ijro etish;
- 4) rahbarlik.

Korxonada innovatsion boshqaruvning maqsadlari firmaning vazifasi, uning falsafasi, an'analari va tashkilotning hayotiy darajasi bilan bog'liqdir.

Innovatsion boshqaruvning maqsadlari, xarakteri va mazmuni innovatsion boshqaruvning xususiyatlari va uning an'anaviy turlardan katta farq qilinishini belgilab beradi. Iyerarxiyaning har xil darajasidagi (davlat darajasidan boshlab, kichik innovatsion korxonagacha) har qanday innovatsion tizimlarni innovatsion rivojlanishining maqsadi uzoq muddatli iqtisodiy o'sish va yuqori tartibdagi raqobat afzalliklarini ta'minlash uchun innovatsion bazani yaratishdan iboratdir.

Raqobat nazariyasidan kelib chiqqan holda, xuddi fanni rivojlanishi va yangi texnologiyalarni tatbiq etilishining innovatsion salohiyati yuqori

tartibdagi raqobat afzalligini yaratadi. Innovatsion rivojlanish maqsadlarni belgilash va kompaniya rivojlanishi yo'nalish strategik ko'rishga o'zining xususiyatlarini kiritadi, boshqaruv apparati oldida turgan vazifalarni modifikatsiyalaydi.

Innovatsion tadbirkorlikning yuqori xatari, mahsulotlarni mavjud bo'lish davrlarini qisqarishi, yirik seriyali ishlab chiqarishdan voz kechish innovatsion menejer zimmasiga alohida majburiyatlar yuklaydi.

Innovatsion faoliyat sharoitida menejning roli keskin o'sadi, uning shaxsi, qobiliyati, malakasi va kasbiy ko'nikmalari esa haqiqatda ham kompaniya taqdirini belgilab beradi.

Innovatsion boshqaruvning asosiy vazifalarini amalga oshirishda alohidagi o'zaro aloqa va mantiqiy izchillik vujudga keladi. Masalan, boshqaruvning kommunikatsiya, undovchi sabablar, vakolatlarni boshqa topshirish jarayoni kabi protsessual va sotsial – psixologik vazifalarning ahamiyati keskin oshadi. Innovatsion boshqaruvni tashkil qilish usullari orasida shaxslararo munosabatlar, guruhli dinamika qonunlariga suyanuvchi norasmiy turlar ustunlik qiladilar.

Nazoratning har xil turlari o'rtasidagi nisbat o'zgaradi. Ularning barchasi ko'proq o'zini o'zi nazorat qilish, innovatsiyalarning strategik nazorati hamda nazoratning moliyaviy – iqtisodiy turlariga mo'ljallangan. Innovatsion jarayonlarni borishi ustidan nazorat qilish bilan bog'liq kommunikatsiyalar alohida ahamiyat kasb etadi. Ularda protsessual xarakter va axborotlarni almashtirishning uzluksiz jarayoni ustun bo'ladi.

Xodimlarni innovatsion boshqarishda menejmentning vazifalari va usullari alohida o'zgarishlarga duch keladilar. Yangiliklarni ishlab chiqish va tatbiq etilishi, jarayonlarni murakkablashishi, yangi texnologiyalarni paydo bo'lishi xodimdan tegishli malaka va alohidagi kasbiy bilimlar va ko'nikmalarni talab qiladi.

Boshqaruv tuzilmalarda xodim ma'lumotining umumiy darajasini ancha oshishi sodir bo'ladi. Xodimlarning shakllanayotgan turi o'ziga ma'suliyatni olish va qarorlar qabul qilishga qodir xodimlarni talab qiladi. Vakolatlarni boshqachaga topshirish va uning bilan bog'liq tashkilot iyerarxiyasi yuqori darajalarining vakolatlarini qisqarishi xodimlarning tashabbusi, shaxsiy erkinligi va omilkorligini o'sishi bilan yaqindan bog'liq.

Innovatsion boshqaruvda xodim, innovatsion jamoa va umuman innovatsion korxonaning o'zining xulqining turi o'zgaradi. Nafaqat maqsadga qaratilgan ratsional harakat, balki qiymatga qaratilgan ratsional harakat xulqning asosiy tarkibiy qismi bo'ladi.

Tayanch iboralar

Texnologik avlod, innovatsiyalarning chiziqli modeli, institutsional muhit, texnologik revolutsiya, texnologik qatlam, texnologik uklad, deprivatsiya fazasi, innovatsion boshqaruv, ratsional harakat, integratsion yondashuv, novatsiya.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Innovatsion faoliyatga tizimli yondashuvning mohiyati nimadan iborat?

2. Innovatsion faoliyatning tasnifi va ularning mazmuni hamda xossalari.

3. Innovatsion rivojlanishni qonuniyatlarining mohiyati va ularning dinamik rivojlanishi.

4. Innovatsion faoliyatga tizimli yondashuvni qo'llashning qoidalari.

5. Innovatsion faoliyatga marketing yondashuvi, normativ yondashuv, integratsion yondashuvlarning mohiyati nimadan iborat?

6. Innovatsion faoliyatga optimallik, direktiv va xatti-harakatlar asosidagi hamda vaziyatli yondashuvlarning umumiy xossalari.

7. Innovatsion boshqaruv tamoyillari nimadan iborat?

XVIII BOB. REAL SEKTORDA INNOVATSION FAOLIYATDA TAVAKKALCHILIKNI BOSHQARISH ASOSLARI

Mazkur bobda tavakkalchilik tushunchasi va uning turlari, tavakkalchilikni baholash usullari, ishlab chiqarish tavakkalchiligining iqtisodiy chegaralari, tavakkalchilikni kamaytirish zarurligi va yo'llari, tavakkalchilikni optimallashtirish masalalari, tavakkalchilikni boshqarish samaradorligini oshirish yo'nalishlari bilan bog'liq jarayonlar to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

18.1. Tavakkalchilik tushunchasi va uning mohiyati

Bozordagi tavakkalchilik manbasi har turdagi omillar hisoblanib, ularning ehtimoliy tarzda ma'lum va noma'lum darajadagi ta'siri bozorda mos ravishda jarayon va hodisalarning harakatlarini keltirib chiqaradi. Boshqacha qilib aytilsa, tavakkalchilik har doim omillar tarkibida mavjud bo'lib, tabiatan ehtimoliy xarakterga ega qonuniyatlar asosida tarqaladi, ularning ta'siri ostida bozor muhitida rivojlanishi shakllanuvchi voqeiklarga bevosita yoki bilvosita ko'chib o'tadi. Bunday holat o'z-o'zidan bozordagi risklar muammosini dolzarbligini tasdiqlaydi.

Iqtisodiy adabiyotlarda tavakkalchilikning xislat, xususiyat va elementlari, obyektiv va subyektiv jihatlari o'zaro munosabatlari turlicha tavsiflangan. Tavakkalchilikning mohiyati to'g'risidagi xilma-xil fikrlar, ko'p hollarda bu xodisaning serqirraligi amalda mavjud xo'jalik faoliyati qonuniyatlarida uni to'liq tan olinmasligi, real iqtisodiy amaliyotda va boshqaruv faoliyatida yetarlicha qo'llanilmasligi bilan sharxlanadi. Undan tashqari tavakkalchilik bu-bir biriga mos kelmaydigan, ba'zida qarama-qarshi real holatlar yig'indisidan iborat murakkab jarayondir.

Tavakkalchilik tushunchasi rus tilidagi adabiyotlarda «risk» so'ziga ekvivalent sifatida olingan. «Risk» toifasidagi tushunchaga nisbatan mavjud ba'zi bir yondashuvlarni qarab chiqamiz. «Risk» termini

grekcha «ridsikon», «ridsa» soʻzlarida tik qoya, qoyatosh mazmunini anglatsa, italyanacha «risiko» soʻzida-xavfli, xavf-xatar, «risicare» coʻzida qoyalarga chap bermoq-mazmunini anglatadi. Fransoʻzcha «risdoe»-taxlika, xavf-xatar, qoʻrqinch, (tik qoyadan aylanib oʻtishda guyoki tavakkal qilish) mazmunini anglatadi.

Vebster lugʻatida «risk»-zarar yoki ziyon koʻrish imkoniyati, xavf-xatari deyilsa, Ojegova lugʻatida «risk» soʻziga «xavf-xatar holati imkoniyati» yoki muvaffaqiyatli harakab» deb tarif beriladi. Shunisi diqqatga sazovorki, mahsus lugʻatlarda (falsafa, harbiy, iqtisodiy va x.z) «risk» tushunchasi umuman uchramaydi.

Tahlillar adabiyotlarda «risk» toʻgʻrisidagi tushunchaga omadsizlik yoki xavf-xatarga imkoniyat degan tarif keng tarqalganini koʻrsatadi. «Moliyaviy menejment» darsliklarida: -»Risk»-tavakkalchilik-bu bashorat qilinayotgan variantlarga nisbatan daromad ololmaslik yoki zararlarni paydo boʻlish ehtimoli sifatida talqin etiladi.

Yuqorida keltirilgan barcha tariflardan: «tavakkalchilikni xavf-xatar, zarar koʻrish holati»-degan xususiy xislatini ajratib koʻrsatish mumkin boʻladi. Lekin keltirilgan tariflar tavakkalchilikning barcha mazmuni, mohiyatini toʻliq ifodalay olmaydi. «Tavakkalchilik»ning tarifini toʻliq belgilash uchun, oldin «tavakkalchilik vaziyati» tushunchasiga tarif berishimiz kerak, chunki u bevosita «tavakkalchilik»-termini mazmuni bilan oʻzviy bogʻliq. Rus lugʻatida qabul qilingan «Risk» soʻzini «tavakkalchilik» deb tarjima qilish mumkin. Bu terminga yana ekvivalent oʻzbek tilida «qaltislik» va «risk»ni oʻzini ishlatish ham mumkin. Chunki «Tavakkalchilik» soʻzi «Risk»ni toʻla mazmunini oʻzbek tilida ifodalay olmaydi. Tavakkalchilik - oʻzoq mulohaza qilib oʻtirmay, nima boʻlsa boʻlar, «yo ostidan yo ustidan» zaylida qilingan harakat maʼnosida talqin qilinadi. Tavakkalchi tushunchasi esa tavakkalga, tavakkal bilan ish qiluvchi maʼnosini beradi.

Tavakkalchilik tushunchasini anglash aynan shu jarayonda oʻz ifodasini topadi. Subyektning faoliyat rejasi esa bu jarayon tavakkalchilik tushunchasini anglashda oʻz ifodasini topadi. Amalga oshirishga harakat qilish uchun qaror tanlovi bosqichida boʻlganidek, amalga oshirish bosqichida ham mavjud boʻladi. Bu va boshqa hollarda tavakkalchilik konkret ziddiyatlarni noaniq vaziyatda rivojidadagi qarama-qarshi intilishlari orqali amaliy yechimini topish usuli bilan subyekt tomonidan noaniqliklarni olish modelini ifodalaydi.

Tavakkalchilik-bu omadsizlik holatida vaqtincha tanlovga qadar bo'lgan xoldan ham yomon vaziyatda bo'lish imkoniyati mavjud bo'lganida tanlov sharoitida amalga oshiriluvchi faoliyatdir. Bu tarifda omadsizlik xavf-xatar holati bilan bir qatorda, alternativlik (muqobillik) kabi xislat ham ishtirok etadi.

«Tavakkalchilik»-hodisasida uning mohiyatini tashkil etuvchi va o'zaro bog'liq bo'lgan quyidagi asosiy elementlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

-tanlangan muqobillikni (alternativni)amalga oshirish maqsadida ko'zlagan maqsaddan chekinish mumkinligi;

-ko'zlagan natijaga erishishning ehtimolligi.

-ko'zlagan maqsadga erishish uchun ishonchsizlik (ishonchning yo'qligi) -alternativni noaniq sharoitdagi tanlovni amalga oshirish bilan bog'liq moddiy, ma'naviy va boshqa yo'qotishlarning mavjudligi.

Tavakkalchilikning muhim elementlaridan biri bu tanlangan maqsaddan chekinish ehtimolini borligidir. Bunday holdagi farqlanish ijobiy va salbiy xislatda bo'lishi mumkin. Ko'rsatib o'tilgan elementlar, ularning o'zaro bog'liqligi va o'zaro ta'sirchangligi tavakkalchilikning mazmun-mohiyatida namayon bo'ladi. Shu bilan bir qatorda tavakkalchilikka uning mohiyatini anglash imkonini beruvchi bir qancha xislatlar xosdir.

Unga quyidagi xislatlar kiradi:

-qarama-qarshilik (zidlik);

-alternativlik (muqobillik);

-noaniqlik (mavhumlilik).

Qarama-qarshilik-tavakkalchilikning muhim xislatlaridan biri bo'lib u turli qarashlarda namoyon bo'ladi. Tavakkalchilik-faoliyatining xilma-xilligini ifodalar ekan, bir tomondan tanlov muqarrarlik vaziyatida va noaniqlik sharoitidaligi murakkab uslublar bilan umum ahamiyatga moil natijalarni olishga yo'naltirilgan bo'ladi. Shu bilan bir qatorda u konservatizm, dogmatizm, qoloqlik kabi jamiyat taraqqiyotga ruxiy to'siqlarni bartaraf etadi.

Tugamoq bo'luvchi ruhiy to'siqlarni bartaraf etadi va yangi istiqbolli faoliyat turlarini joriy etishga qarshilik jamiyat taraqqiyotiga tormoz qiluvchilarga qarshi muvaffaqiyatni ta'minlashga yo'naltirilgan yangi istiqbolli faoliyat turlarini joriy etishga tashabbuskor ijtimoiy eksprimentlarni yangi g'oyalarni amalga oshirishni ta'minlaydi. Tavakkalchilikning bu xususiyati muhim iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy

ruxiy oqibatga sabab bo'ladi chunki u jamiyat va texnika taraqqiyotini ta'minlaydi, jamoatchilikning fikirlash doirasiga ijobiy ta'sir etadi.

Tavakkalchilikning qarama-qarshi tabiati mavjud tavakkal harakatlarning to'qnashuvida namoyon bo'ladi. Masalan u yoki bu harakatni amalga oshirish uchun maqbul yo'lni tanlagan kishi o'zini tavakkal ish qilgan deb hisoblasa, boshqa odamlar tomonidan u ehtiyotkorlik, har qanday tavakkalchilikdan xolis yoki aksincha deb baholash mumkin.

Tavakkalchilikning muqobillik xususiyati ikki va undan ortiq variantdagi imkoniyatlar yo'nalishlar harakatlar orasidan o'ziga mos keluvchi variantni tanlash zaruratidan kelib chiqadi.

18.2. Tavakkalchilik tasnifi

Tavakkalchilikni bir necha turlarga bo'lish mumkin:

- Ixtiyoridagi bir nechta muqobillikdan tanlovchi subyekt, bashorat qilinayotgan natijalarni olish uchun obyektiv ehtimoliyatiga (statistik tadqiqotlar natijalariga asoslanuvchi) ega bo'ladi.

- Kutilayotgan natijalarni ro'y berish ehtimoli faqatgina subyektiv baholash orqali olinadi, ya'ni subyektiv ehtimollik bilan ish ko'radi. - Alternativlarni amalga oshirish va tanlash jarayonida obyektiv va subyektiv ehtimollikka ega bo'ladi.

- Kutilayotgan natijalarni ro'y berish ehtimoli faqatgina subyektiv baholash orqali olinadi, ya'ni subyekt, subyektiv ehtimollik bilan ish ko'radi. Tavakkalchilik vaziyatlardan «chiqish uchun», subyekt tanlov o'tkazadi va uni amalga oshirishga harakat qiladi.

Qoidaga ko'ra barcha turdagi tavakkalchiliklar o'zaro bog'liq bo'lib ular tadbirkor faoliyatiga bevosita ta'sir etadi. Bu holat tavakkalchilikni optimallashtirish bo'yicha bir to'xtamga kelishni chigallashtiradi va uning vujudga kelishi omillari sabablari, aniq tavakkalchilik tarkibini chuqur tahlil qilishni talab etadi.

Tavakkalchilikni turkumlarga ajratish asoslari bo'lib xizmat qiluvchi muhim elementlarni quyidagilar tashkil etadi:

- vujudga kelish vaqti;
- vujudga kelish uchun asosiy omillar;
- hisobga olish xarakteri;
- keltirib chiqaradigan oqibatlari xarakteri;
- vujudga kelish sohasi va boshqalar.

Vujudga kelish vaqtiga karab tavakkalchilik retrospektiv, hozirgi va perspektiv turlarga ajratiladi.

Retrospektiv tavakkalchilikning xususiyati, uni pasaytirish usullarining tahlil qilish hozirgi va perspektiv tavakkalchilikni aniq bashorat qilish imkonini beradi.

Vujudga kelish omillariga qarab tavakkalchilik siyosiy va iqtisodiy (tijorat) turlariga ajratiladi.

Siyosiy tavakkalchilik-bu tadbirkorlik faoliyatiga ta'sir etuvchi siyosiy vaziyatni o'zgarishiga asoslangan tavakkalchilik (chegaralarni yopilish, boshqa mamlakatlarga tovarlarni kiritishni ta'qiqlanishi, mamlakatda harbiy holatni joriy qilinish va h.k.).

Iqtisodiy tavakkalchilik- bu mamlakat yoki tashkilot iqtisodiyotidagi noxush salbiy o'zgarishlar oqibatida yuzaga keluvchi tavakkalchilik. Ancha keng tarqalgan, hamda xususiy tavakkalchiliklar o'z e'tiborlarini yo'naltirgan iqtisodiy tavakkalchilik bu bozor kon'yukturasi o'zgarishi to'lovga kobillik muvozanatini buzilishi boshqaruv darajasidagi o'zgarishlar bilan bog'liq tavakkalchilikdir. Bu turdagi tavakkalchiliklar bir biri bilan uzviy bog'liq bo'lib aksariyat hollarda ularni amalda bir biridan farqlab bo'lmaydi.

Hisobga olish xarakteriga qarab tavakkalchilik ichki va tashqi turlarga ajratiladi.

Tashqi tavakkalchilikga - bu korxonaga faoliyatiga yoki uning kontakt auditoriyasiga bevosita bog'liq bo'lmagan tavakkalchilik (kontakt auditoriyasi - bu aniq tashkilot faoliyatiga real imkoniyat hamda manfaatdorlik bilan munosabatda bo'luvchi jismoniy va huquqiy shaxslar va ijtimoiy guruhlardir).

Tashqi tavakkalchilik darajasiga juda ko'plab, siyosiy, iqtisodiy, demografik, ijtimoiy, geografik va boshqa omillar ta'sir etadi.

Ichki tavakkalchilikga-tashkilot va uning kontakt auditoriyasi faoliyati bevosita asoslashgan tavakkalchiliklar kiradi. Uning darajasiga tashkilot rahbarining ishbilarmonlik faolligi optimal tanlangan marketing strategiyasi, siyosati va taktikasi va boshqa omillar; ishlab chiqarish potensili, texnik jihozlanganlik ixtisoslashuv mehnat unumdorligi mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi darajalari ta'sir etadi. Keltirib chiqaradigan oqibatlari xarakteriga qarab tavakkalchilik toza va spekulativga ajratiladi.

Toza tavakkalchilik (adabiyotlarda u goho oddiy yoki statik deb nomlanadi) - hamma vaqt amalda tavakkalchilik faoliyatiga yo'qotish olib kelishi bilan xarakterlidir.

Toza tavakkalchilikning asosiy sababi bo'lib tabiiy ofatlar, urushlar, baxtsiz hodisalar, jinoiy harakatlar va tashkilotlarni ishga layoqatsizligi va boshqalar bo'lishi mumkin.

Spekulativ tavakkalchilik (ba'zida adabiyotlarda u dinamik yoki tijorat tavakkalchilik deb yuritiladi) - bu tadbirkor uchun kutilayotgan natijalarga nisbatan qo'shimcha daromad hamda yo'qotish-zarar ham keltirishi bilan xarakterlanadi. Uning asosiy sabablari soliq qonunchiligiga o'zgarishlar kiritishi valuta kursi hamda bozor kon'yukturasidagi o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

Sinfy guruhlariga ko'ra keng tarqalgan vujudga kelish sohasiga ko'ra tavakkalchilik bo'lib uning asosida faoliyat doirasi yotadi. Tavakkalchilikning paydo bo'lishini asosiy xususiyati nafaqat faoliyat doirasi qanday ilova qilinishi, qolaversa aniq subyekt tavakkalchilik faoliyatini qanday amalga oshirayotgani bilan bog'liq.

Sodir bo'lish omillari bo'yicha risklar tabiiy (abiogen, biogen), antropogen (texnogen, biogen), iqtisodiy va siyosiy bo'lishi mumkin. Siyosiy risklar – siyosiy holatni o'zgaruvchanligi bilan belgilanadigan risklar. Iqtisodiy (tijorat) risklari – iqtisodiyotdagi noxush o'zgarishlar bilan belgilanadigan risklar., o'z navbatida, siyosiy va iqtisodiy risklar ichki va tashqi bo'lishi mumkin. Qamrovi bo'yicha tavakkalchiliklar quyidagi turlarga ajraladi:

- xalqaro doirada;
- mamlakat doirasida;
- regional doirada;
- tarmoq ichida;
- korxonalar risklari.

Selektiv tavakkalchilik – portfel shakllantirilishi chog'ida moliyaviy instrumentlarni noto'g'ri tanlash bilan bog'liq risk. Bundan tashqari amaliyotda rahbar yoki tadbirkor o'z faoliyatida:

- mol-mulk talafotiga;
- moliyaviy yo'qotishlarga;
- daromadlarning kamayishiga;
- foyda darajasini aniqlashdagi xatoliklarga yo'l qo'ymaslik va shu jixatlarni yaxshilash maqsadida turli-tuman tavakkalga boradilar. Shunday sharoitda qaysi bir turdagi tavakkalchilikni tanlash, qaysi biri

ko'proq samara berishi mumkinligini aniqlash ko'p jihatdan tavakkalchilik turlarining ilmiy asoslangan tavsifnomasini bilishni taqozo etadi.

Shartli tavakkalchilik oqibatida zarar ham foyda ham ko'rish mumkin. Aytaylik, poyabzal ishlab chiqaruvchilardan biri qo'ng'iroqchali tufli ishlab chiqarishga ahd qildi. Bu muayyan darajadagi tavakkalchilik bilan bog'liq, chunki bu yangilik modaga kirish-kirmasligini hech kim bilolmaydi, albatta. Agar omma tuflidagi qo'ng'iroqchalar be'manilik deb topsa, kompaniya sarflagan pulidan mahrum bo'ladi. Lekin ushbu yechim to'g'ri chiqib, biznes ruhidagi, bu uslub ommalashib ketsa, kompaniya ko'pgina pul ishlab oladi.

Biznes ruhidagi erkin tadbirkorlik tizimi uchun foyda olishni mo'ljallab shartli risk qilish xosdir. Sof riskda, aksincha, zarar kurish ehtimoli bor, xolos. Masalan, har bir korxonada yongan yoki o'g'irlik ro'y berishi mumkin. Bu - sof tavakkalchilik deb ataladi, chunki tadbirkorda bundan foydalanishga hech qanday umid bo'lmaydi. Lekin bu sof tavakkalchilik bilan bog'liq zararni eng kam miqdorda bo'lishi uchun muayyan tadbirlar qurishi mumkin.

Sof tavakkalchilik salbiy (zarar, ziyon) yoki nol natijaga erishish ehtimolini bildiradi. Bunday turdagi riskka tabiat, ekologiya, siyosat, transport va qisman tijorat bilan bog'liq risklar kiradi.

Chayqovchilik (spekulativ) tavakkalchilik ham salbiy (zarar, ziyon), ham ijobiy natija (yutuq foyda)ga erishish ehtimolini bildiradi. Bu turdagi riskka moliya bilan bog'liq bo'lgan ikki turdagi, ya'ni investitsiya va pulning sotib olish qobiliyati bilan borliq bo'lgan risklar kiradi. Sof tavakkalchilik, yuqorida ta'kidlaganimizdek, tabiatga, ekologiyaga, siyosatga, transportga va qisman tijorat bilan bog'liq bo'lgan tavakkalchilik turlarini o'z ichiga oladi. Tabiat bilan bog'liq tavakkalchilik turiga tabiiy ofatlar oqibatida ehtimol qilinadigan zararlar kiradi, masalan, yer qimirlashi, suv toshqini, dovul, epidemiya va boshqalar tufayli ko'rilgan zarar darajasi.

Ekologiya bilan bog'liq tavakkalchilik — bu atrof-muhitning ifloslanishi oqibatida ehtimol (risk) qilinadigan zarar yoki qo'shimcha xarajat.

Siyosat bilan bog'liq tavakkalchilik — bu siyosat beqarorlik oqibatida ehtimol qilinadigan moddiy (moliyaviy) zararlar. Bu tavakkalchilik korxonada faoliyatiga emas, balki mamlakatdagi sotsial-siyosiy barqarorlikka bog'liq, Bunga ommaviy tartibsizliklar, ish

tashlashlar, g'alayonlar, embargoni joriy qilish, hukumatning oldingi shartnomalarini bajarish-dan bosh tortish kabi oqibatlar natijasida ko'rilishi tavakkalchilik qilinadigan zararlar kiradi.

Tijorat bilan bog'liq tavakkalchilik — bu xo'jalik subyektlarining tadbirkorlik faoliyati oqibatida ehtimol tavakkalchilik qilinadigan zararlardir. Bunday turdagi tavakkalchilik, o'z navbatida, ishlab chiqarish, savdo va qisman moliya bilan bog'liq bo'lgan tavakkalchiliklarga bo'linadi.

Ishlab chiqarish bilan bog'liq tavakkalchilik — bu ishlab chiqarish jarayonining to'xtab qolishi yoki bir maromda ishlamayotganligi, texnologiyaning buzilishi, sifatsiz xomashyo oqibati yoki xodimlarning sifatsiz ishlashlari evaziga ehtimol qilinadigan zarar yoki qo'shimcha xarajatlardir.

Savdo bilan bog'liq tavakkalchilik - bu o'zaro to'lovlarning kechiktirilishi, shartnoma shartlarining bajarilmasligi oqibatida ehtimol qilinadigan zarar yoki olinmaydigan daromad.

Moliya bilan bog'liq tavakkalchilik - bu ehtimol qilinadigan moliyaviy zararlar bo'lib, u, o'z navbatida, investitsiya va pulning sotib olish qobiliyati bilan bog'liq, bo'lgan, oxirgisi esa o'z navbatida, inflatsiya va valuta bilan bog'liq bo'lgan risk turlariga bo'linadi.

Inflatsiya bilan bog'liq tavakkalchilik - bu olingan daromadlarning qadri yuqori inflatsiya oqibatida tezroq qadrsizlanishini bildiradi. Valuta bilan bog'liq risk- bu chet el valutasini kursining o'zgarishi oqibatida ko'riladigan katta zararni bildiradi.

Bu risk eskport-import operatsiyalarini, shuningdek, valuta operatsiyalarini baholashda o'ta zarurdir.

Investitsiya bilan bog'liq tavakkalchilik quyidagi turlarga bo'linadi.

Tizimli tavakkalchilik — bu, u yoki bu bozorda konyukturaning yomon-lashishi yoki tushib ketishi oqibatida ehtimol qilinadigan zarar. Bu risk investitsiyani aniq bir obyektga emas, balki muayyan bozor (masalan, valuta bozori, qo'zg'almas mulk bozori va boshqalar) uchun barcha qo'yilgan mablag' bo'yicha riskni ifodalaydi. Bunda investor katta zarar yetkazmasdan turib o'z mablag'ani qaytara olmaydi.

Tizimli tavakkalchilik usulida investitsiyani qaysi bir aktivga (aytaylik, qimmatli qogozlarni yoki qo'zg'almas mulkka) risk qilib sarflash maqsadga muvofiqligi aniqlanadi.

Selektiv tavakkalchilik -bu u yoki bu bozorda investitsiya obyektini noto'g'ri tanlab olinishi oqibatida ko'riladigan risk zarar yoki boy

berilgan naf. Masalan, qimmatli qog'ozlar portfelini shakllantirishda fond birjasidagi qimmatli qogozlar turini noto'g'ri tanlash oqibatida qurila-digan zarar shunday risk turiga kiradi.

Kredit tavakkalchiligi - bu qarz olgan tomonning o'z majburiyatlarini to'lay olmaslik xavfi. Bank yaxshi foyda ko'rish uchun kreditlash xavfini kamaytirish shart.

Bank hamisha qarzning o'z vaqtida va foiz bilan qaytib kelishi qay darajada mumkinligini nazarda tutib riskga boradi. Bunday riskka kreditni to'lash muddatini kechiktirish yoki obligatsiyalarga to'lashni muzlatib qo'yish misol bo'ladi.

Regaonal tavakkalchilik - muayyan regionlarning iqtisodiy holati bilan boglangan bo'lib, u:

- mazkur regionning asosiy mahsulotiga (masalan, respublikamizda paxtaga) bo'lgan kon'yuktura narxining pasayishi oqibatida ko'rilishi mumkin bo'lgan zarar xavfi;

- iqtisodiy yoki siyosiy mustaqillikka erishish oqibatida ko'rilishi mumkin bo'lgan zarar xavfi;

- ishlab chiqarishning keskin tushib ketishi yoki ishsizlik darajasining oshishi oqibatida ko'rilishi ehtimol qilinadigan zarar xavfini ifodalaydi.

Zarar ko'rish xavfini kamaytirish maqsadida tavakkalchilikning o'zi quyidagi muhim belgilar bo'yicha guruhlanadi.

1. Obyektga qarab:

- umumiy tavakkalchilik (bu korxonaning umumiy faoliyatiga xavf tug'diradi)

- mahsus tavakkalchilik.

2. Ishlab chiqarish omiliga qarab:

- xomashyo tavakkalchiligi (miqdoriy, sifat, muddati bo'yicha);

- uskunalar, energiya, xodimlar, kapital tavakkalchiligi.

3. Mahsulotni baholashga qarab:

- sotishdagi tavakkalchilik;

- baholashdagi tavakkalchilik;

- to'lashdagi tavakkalchilik;

- kafolat bo'yicha tavakkalchilik.

Sug'urtalanishga qarab sug'urtalanadigan tavakkalchilik (buni sug'urta fondidan qoplash mumkin), sug'urta qilinmaydigan tavakkalchilik. Bunday guruhlash xavf oldini olish va uni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun juda qo'l keladi.

18.3. Tavakkalchilikni pasaytirish usullari va omillari

Mavjud noaniqliklar va xatarlar tadbirkorni o'z loyihasining foydaliligini chuqur tahlil etishga, ishlab chiqarish va boshqa xarajatlarni tejamkorlik asosida puxta sarflashga, asosiy vositalar va aylanma mablag'lardan samarali foydalanishga, baho siyosatini to'g'ri belgilashga undaydi. Aks holda korxonada faoliyati inqiroz bilan yakun topishi mumkin. Tavakkalchilikni kamaytirishning quyidagi yo'llari mavjud:

1. Tavakkalchilikning paydo bo'lishidan qochish.

2. Tavakkalchilikning ta'sirini kamaytirish.

Birinchi holatda tadbirkor o'z faoliyatiga xavf tug'diradigan har qanday xatarni chetlab o'tishga harakat qiladi. Ikkinchi holatda esa tadbirkor tavakkalchilikning subyekt ishlab chiqarish-moliyaviy faoliyatiga ta'sirini (zararni) pasaytirish choralarini izlaydi.

Tavakkalchilikni kamaytirish yo'nalishlarini belgilashda quyidagi holatlarni hisobga olish kerak:

- agar faoliyat turi muqarrar ravishda tavakkalchilik bilan bog'langan bo'lsa, bunday holatda uni chetlab o'tish imkoniyati bo'lmaydi;

- bir turdagi tavakkalchilikdan qochish uning ikkinchi turini tug'dirishi mumkin;

- tavakkalchilikdan qochish yuqori darajada foyda keltiradigan sohalarida biznes imkoniyatlarini cheklaydi;

- faoliyatning ko'lami yirik va kutilayotgan foydaning miqdori qancha ko'p bo'lsa, tavakkalchilikning yuzaga kelishi ehtimoli ham shuncha yuqori bo'ladi va hokazo.

Tavakkalchilikni kamaytirishda uning ta'sirini o'ziga olish, taqsimlashi yoki boshqalarga o'tkazish mumkin. Tavakkalchilikni o'ziga olish quyidagi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin:

1. Oldindan rejalashtirilgan holda zararlarni qoplovchi mahsus zaxira jamg'armalarini yaratish.

2. Rejalashtirilmagan tavakkalchilikdan ko'rilgan zararlarni foyda yoki aktivlar hisobidan qoplash. Oldindan rejalashtirilgan zaxira jamg'armalarini yaratish o'zini-o'zi sug'urtalash jarayonini anglatadi.

Subyekt favqulodda yuz beradigan tavakkalchilik holatlari uchun foydadan ajratma hisobiga mahsus jamg'arma (tavakkalchilik jamg'armasi) yaratadi. Masalan, subyekt uncha qimmat bo'lmagan uskunani tasodifiy xatarlardan sug'urtalashni mahsus sug'urta kompaniyasi orqali amalga oshirishni ma'qul ko'rmaydi. O'zini-o'zi sug'urtalash zarar ehtimoli kichik bo'lgandagina maqsadga muvofiq.

Ikkinchi holatda, ya'ni rejalashtirilmagan tavakkalchilikni o'ziga olishda subyekt tavakkalchilik natijasidagi yo'qotishlarni foyda yoki aktivlardan qoplashiga to'g'ri keladi. Agar yo'qotishlar hajmi foydadan katta bo'lsa, joriy likvidli aktivlar yoki xususiy kapitalning bir qismidan voz kechishga to'g'ri keladi.

Tavakkalchiligini pasaytirishning yana bir usuli bu tavakkalchilikni taqsimlash yoki birlashtirish yo'li bilan yo'qotishlarni qisqartirish hisoblanadi. Tavakkalchilikni taqsimlash, odatda, subyekt aktivlarini taqsimlash yo'li bilan amalga oshiriladi.

Tavakkalchilikni taqsimlash orqali kamaytirish usullaridan biri – diversifikatsiyalashdir. Uning mohiyati bir-biri bilan bog'liq bo'lgan turli xildagi faoliyat ko'rinishlari o'rtasida kapital quyilmalarni va tovar-moddiy resurslarni taqsimlashdan iborat. Agar tavakkalchilik oqibatida bir faoliyat turidan zarar ko'rilsa, boshqasidan ko'rilgan foyda hisobidan uni qoplash mumkin.

Diversifikatsiyalash ishlab chiqarish, tijorat va investitsiya faoliyati sohalarida tavakkalchilikning darajasini kamaytirish imkonini yaratadi. Uni diversifikatsiyalash quyidagi yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin:

- kapital sarflarni bir nechta faoliyat turlariga bo'lib sarflash;
- har xil turdagi yuqori daromad keltiradigan qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilish;
- moddiy-texnik ta'minoti bo'yicha tashqi sheriklarning sonini ko'paytirish;
- turli sigmentlarni qamrab olgan bozor va iste'molchilarning talabiga mos tovarlar ishlab chiqarish;
- bozor kon'yukturasi va iste'molchilar sigmentiga mos keluvchi turli baho siyosatini yuritish;
- yuk tashuvchi turli transport subyektlari xizmatidan foydalanish;
- tovar-moddiy zaxiralarini bir nechta joyda bo'lib asrash va hokazo.

Amaliyotda diversifikatsiyalash tavakkalchilikni faqat kamaytirishi emas, aksincha oshirishi ham mumkin. Tavakkalchilikni birlashtirish

ikki yoki undan ortiq korxonalarining qo‘shilishi natijasida sodir bo‘ladi va buning natijasida yangi tashkil topgan korxonada dastlabki qaraganda ko‘p aktivga ega bo‘ladi.

Tavakkalchilik xatarlarini pasaytirish yo‘lida tadbirkorlarning o‘z kapitallarini birlashtirishi, ular o‘rtasida olingan foydani va zararlarni bo‘lish imkonini yaratadi. Ushbu holat korxonani tavakkalchilikdan butunlay holi qilmaydi, lekin uning xatar darajasini birmuncha pasaytirishga yordam beradi. Tavakkalchilikni boshqalarga o‘tkazish yoki tavakkalchilik transferti – tadbirkorlik tavakkalchiligini kamaytirishning yana bir usuli hisoblanadi. Bunda tavakkalchilik xatarlari shartnoma asosida ikkinchi bir yuridik shaxs zimmasiga o‘tkaziladi.

Tavakkalchilikni boshqalarga o‘tkazishning ikki tomon uchun ham foydali sabablari mavjud:

1. Tavakkalchilikni o‘ziga olishda ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararlarning miqdori tavakkalchilikni o‘tkazishdagiga nisbatan ko‘p bo‘lishi mumkin.

2. Tavakkalchilik o‘tkaziladigan tashqi subyekt xatarlarni kamaytirishning samarali usullarini bilishi va ko‘proq imkoniyatlarga ega bo‘lishi mumkin.

3. Tavakkalchilikni o‘tkazuvchi ma‘lum to‘lov evaziga ehtimol tutilgan zararlardan o‘zini himoyalashga erishsa, tavakkalchilikni oluvchi o‘tkazuvchilar badali hisobidan daromad ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Tavakkalchilikni o‘tkazishning quyidagi shakllari uchraydi:

1. Qurilish shartnomalari – bunday shartnomani tuzish orqali tadbirkor turli obyektlarni qurish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha tavakkalchilikni qurilish firmasining bo‘yniga o‘tkazadi.

2. Yuklarni asrash va jo‘natish shartnomasini imzolash orqali tadbirkor mahsulotlarni tashish va asrash davrida yuz berishi mumkin bo‘lgan yo‘qotishlar va buzilishlar bo‘yicha xatarlarni ma‘lum to‘lov evaziga transport kompaniyasining zimmasiga o‘tkazadi.

3. Sotish, xizmat ko‘rsatish va ta‘minlash shartnomasi tadbirkorga tovar va xizmatlarni tarqatish bilan bog‘liq tavakkalchilik xatarlarini distribyutorlar zimmasiga o‘tkazish orqali, ehtimol tutilgan yo‘qotishlarni kamaytirishga imkon yaratadi. Bu yo‘l bilan subyekt iste‘molchi sifatida asosiy vositalar va asbob-uskunalarining buzilishi, ishdan

chiqishi xatarlarini kafolat muddati davomida ularni ishlab chiqargan yoki sotgan kompaniyaning zimmasiga o'tkazadi.

4. Ijara-tavakkalchilikni o'tkazishning keng qo'llaniladigan usullaridan biri. Keyingi paytlarda keng tarqalayotgan ijara turlaridan biri moliyaviy ijara yoki lizingdir. Ijaraga beruvchi o'z mulkini ma'lum bir davr oralig'iga ijaraga berib, uning saqlanishi va ishlatilishi bilan bog'liq tavakkalchilikni ijaraga oluvchining zimmasiga o'tkazadi.

5. Faktoring-debitor qarz majburiyatini faktor vositachiga o'tkazayotgan subyektning qarz undirish tavakkalchiligini kamaytirish maqsadida tuziladigan shartnomadir.

Subyektlar o'rtasida debitorlik va kreditorlik qarzlari muammosi paydo bo'lganda, ya'ni tovar-moddiy qiymatliklarni jo'natgan subyekt xaridordan mahsulot haqini o'z muddatida undirolmasa yoki bunday qarzlar shubhali, ularni undirish ehtimoli kam bo'lsa faktoring vositasida qarzni undirish amaliyoti qo'llaniladi.

Faktoringda vositachi korxonasi (odatda bank) qarz bergan subyektdan ma'lum bir komission to'lov evaziga qarzdordan mablag'ni undirish huquqini qo'lga kiritadi. Faktoring shartnomasi tuzilishi bilan subyekt undirolmay turgan qarzning aksariyat qismini faktoring subyektidan (yoki bankdan) oladi. So'ngra faktoring korxonasi qarzdor korxonaga qarzni undirish bo'yicha da'vo qo'zg'atadi. Faktoringning afzalligi shundaki, u noto'lovlar muammosini qisman bo'lsada yechishga imkon beradi.

6. Subyektning faoliyati bilan bog'liq tavakkalchilikni o'tkazishning eng samarali usullaridan biri – sug'urtadir.

Sug'urtalashda subyektning ishlab chiqarish, tijorat, moliyaviy faoliyati yoki tabiiy omillar ta'sirida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarning tavakkalchiligi ma'lum haq to'lash evaziga, shartnoma asosida sug'urta kompaniyasining zimmasiga o'tkaziladi. Tavakkalchilikning biror turi natijasida subyekt zarar ko'rsa, zararining katta qismi sug'urta shartnomasiga asosan sug'urta kompaniyasi tomonidan qoplanadi.

Sug'urta obyekti sifatida quyidagilar chiqishi mumkin:

- subyekt aktivlarini buzilish, ishdan chiqish, yong'in va boshqa tabiiy ofatlardan sug'urtalash, ya'ni mulk sug'urtasi;
- subyekt qabul qiladigan va jo'natiladigan yuklar sug'urtasi;
- qarzga olingan mablag'larning qaytarilmasligi, ya'ni kredit tavakkalchiligi sug'urtasi;

- garovga qo'yilgan mulkni sug'urtalash;
- qishloq xo'jaligi ekinlari va chorva mollarini tabiiy ofatlar, kasalliklar va zararkunandalardan sug'urtalash;
- xodimlarni ishlab chiqarish jarayonidagi baxtsiz hodisalardan sug'urtalash va hokazo.

7. Xedjirlash – moliyaviy yoki tijorat faoliyatida baholarning (valuta kursining) tebranib turishidan yo'qotishlarni kamaytirish uchun tavakkalchilikni fyuchers shartnomalari yordamida sug'urtalash shakli hisoblanadi.

Baho (kurs)ning o'zgarishi tavakkalchiligini sug'urtalashga xizmat qiluvchi shartnoma «xedj» deb ataladi. Xedjrlashni amalga oshiruvchi subyekt «xedjer» deb ataladi. Xedjrlashning ikki turi mavjud:


1. Oshishdan xedjerlash;
2. Pasayishdan xedjerlash.

Oshishdan xedjerlash kelgusida subyekt iste'mol qiladigan moddiy resurslarning narxlarining oshishi ehtimolidan sug'urtalanishi zarur bo'lgan holatlarda qo'llaniladi. Masalan, resursning bahosi (yoki valuta kursi, qimmatli qog'oz narxi) uch oydan keyin o'sadi deb taxmin qilinmoqda va u subyektga 3 oydan keyin kerak bo'ladi. Baholar (kursning) oshishidan ko'riladigan yo'qotishlarni qoplash uchun, resurslarni bugungi kundagi baholarda sotib olish shartnomasini qo'lga kiritish lozim bo'ladi. Agar 3 oydan keyin resursning bahosi oshib ketgan taqdirda ham, fyuchers shartnomasini sotgan subyekt resursni shartnoma sotilgan sanadagi (3 oy oldingi) baholarda yetkazib berish majburiyatini zimmasiga oladi. Shu yo'l bilan oshishdan xedjerlashni amalga oshiruvchi xedjer o'zini kelgusida baholarni oshishidan ko'rilishi mumkin bo'lgan zarardan sug'urtalaydi.

Pasayishdan xedjerlash kelgusida tovarning bahosi pasayishi tavakkalchiligidan qochib, uning oldi-sotdi shartnomasini fyuchers bozoridagi hozirgi baho darajasida sotish bilan bog'liq birja operatsiyasini anglatadi. Pasayishdan xedjerlashni amalga oshiruvchi xedjer kelajakda sotadigan tovar shartnomasini birjada shoshilinch sotib, o'zini kelajakda ko'rishi mumkin bo'lgan zarardan sug'urtalaydi. Xedjer shoshilinch shart-nomalarni sotish yoki sotib olish yordamida bozorlardagi baholarning noaniqligidan kelib chiqadigan tavakkalchilikni kamaytirishga harakat qiladi.

18.4. Tavakkalchilikni boshqarishning uslubiy asoslari

«Tavakkalchilikni boshqarish» - bu boshqaruvning bir turi bo'lib, u yoki bu riskning yuzaga kelish ehtimoli, uning bahosi, ogohlantiruvchi choratadbirlarni ishlab chiqish, zararlarni kamaytirish yoki ulardan qutulish yo'llarini aniqlashni bildiradi¹. Tavakkalchilikni boshqarish tizimining muhim tomoni riskni to'g'ri baholay olishdir. Bu ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlar hajmini obyektiv tasavvur qilish, zararlarning oldini olish choralarini samarali belgilash uchun muhimdir.



18.4.1-rasm. Tavakkalchilikni boshqarishning davriy bosqichlari

Tavakkalchilikni boshqarish jarayoni 18.4.1-rasmda ifodalangan boshqaruv sikli bosqichlari vazifalarini amalga oshirishni taqozo etadi. Tavakkalchilikni boshqarish jarayoni quyidagi boshqaruv sikli bosqichlari vazifalarini amalga oshirishni taqozo etadi.

I. Tavakkalchilikni identifikatsiya qilish: risklar ro'yxatini, tasnifini va riskni yuzaga keltiruvchi hodisalarning mezonini shakllantirish va belgilab olish;

¹ Балабанов И.Т. «Риск и менеджмент» М.: «Финансы и статистика», 1996 г, 127-стр.

II. Tavakkalchilikni baholash: risklarning ehtimollik darajasini miqdor va sifat jihatidan baholash; riskli hodisalarning yuzaga kelish sabablarini aniqlash;


III. Tavakkalchilikni boshqarish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish: riskli hodisalarni kamaytirish bo'yicha muqobiliklarni yaratish.

Risklarni boshqarish bo'yicha ishlab chiqilgan tadbirlarni amalga oshirish: riskli hodisalar oqibatini kamaytirish, natijalarni baholash hamda hujjatlarni rasmiylashtirishdan iborat. Korxonalar har doim tavakkalchilik bilan to'qnash keladilar.

Shuning uchun riskli hodisalarning yuzaga kelish sabablari ham juda ko'pdir. Odatda riskli hodisalarda keskin vaziyatlarni yuzaga keltiruvchi holatlar tushuniladi. Bunday keskin vaziyatli holatlar manbai - xo'jalik faoliyati tadbirkorning, shaxsiy faoliyati, yakuniy natijalarga ta'sir qiluvchi tashqi muhit haqidagi axborotlarning yetishmasligi va hokazolar bo'lishi mumkin.

Tavakkalchilikni tasniflash asosida korxonalar risklarni boshqarish jarayonini yanada samarali yo'lga qo'yishi mumkin bo'ladi. Chunki tasniflangandan so'ng qaysi risklar yuqori xavf-xatarni yuzaga keltiradi va qaysilari ikkinchi darajali ahamiyat kasb etishi aniqlanadi va shu asosda risklarni kamaytirish bo'yicha zaruriy chora-tadbirlarni amaliy ishlab chiqish mumkin bo'ladi. Ishlab chiqarish korxonalari tavakkalchiligini ichki va tashqi tavakkalchilikka bo'lish mumkin. Tashqi risklarning yuzaga kelish manbai bo'lib, tashqi muhit unsurlari hisoblanadi. Tadbirkor bu kabi tavakkalchilikka ta'sir eta olmasligi mumkin, ammo ularni o'z faoliyatida oldindan ko'ra olishi va hisobga ola bilishi kerak. Shuningdek tashqi tavakkalchilikka korxonalar faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lmagan tavakkalchilik kiradi. Bu kabi tavakkalchiliklarga tadbirkorlik faoliyati va iqtisodiyotni boshqarish maqsadida tegishli qonunlarning qabul qilinishi yoki o'zgartirilishi, mamlakatdagi siyosiy o'zgarishlar, ijtimoiy va demografik vaziyatlarning o'zgarishi, tashqi iqtisodiy faoliyatdagi o'zgarishlar, bozor muvozanatidagi o'zgarishlar kiradi. Bunga 1998 yilgi Sharqiy-Janubiy Osiyo mamlakatlarida yuz bergan moliya-kredit tizimidagi xalqaro munosabatlarning buzilishi misol bo'ladi. Ichki tavakkalchilik manbai bo'lib, tadbirkorlik korxonasining ichki vaziyati va holatidagi hodisa va voqealar hisoblanadi. Bu kabi tavakkalchiliklarga menejment faoliyatining samarali amalga oshirilmaganligi, marketing asoslari va siyosatini noto'g'ri yuritish, firma xodimlarining suiste'mollikka yo'l

qo'yishi, firmada kadrlar siyosatidagi xatoliklar, xomashyoning yetishmasligi, sotish konyukturasi o'zgarishi, inflatsiyaning ortib borishi kabilar kiradi(18.4.2-rasm).



18.4.2-rasm. Ishlab chiqarish korxonalarida tavakkalchiligining ichki va tashqi omillari

So'nggi vaqtlarda mahalliy ishlab chiqaruvchi uchun valuta tavakkalchiligi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Valuta tavakkalchiligi - bu valuta kursining o'zgarishi va inflatsiya natijasida yuzaga keladigan moliyaviy zararlar ehtimolligi hisoblanadi. Valuta kursiga ta'sir etuvchi asosiy omillar orasidan to'lov balansi holatini, inflatsiya darajasini, qisqa muddatli kapitallarning tarmoqlararo

migratsiyasini ajratib ko'rsatish mumkin. Shu bilan birgalikda valuta kursining o'zgarishiga talab va taklif munosabatlari, tashqi va ichki siyosiy omillar ham ta'sir etadi. 1998-yildagi Rossiyadagi valuta krizisi, AQSHdagi 2001-yil 11-sentyabr voqealari bunga yaqqol misol bo'la oladi².

Sanoat korxonolari uchun yana bir muhim tavakkalchilik turlaridan biri kredit tavakkalchiligi hisoblanadi. Kredit tavakkalchiligi, firma faoliyatini tashqi mablag'lar asosida moliyalashtirish natijasida, investorlar oldidagi o'zining moliyaviy majburiyatlarini bajara olmaslik imkoniyatlari bilan bog'liqdir. Kredit tavakkalchiligi bilan kreditorlar: bank va boshqa moliyaviy tashkilotlar mol yetkazib beruvchilar va aksiyadorlar o'rtasida yuzaga kelishi mumkin.

Kredit riskining yuzaga kelishiga sabab, kredit oluvchining insofsizligi, ya'ni mablag'larni o'z shaxsiy ehtiyojlariga yoki bo'lar-bo'lmas ishlarga sarflab yuborishi natijasida kredit olgan korxonaning raqobatga dosh bera olmasligi; noxush iqtisodiy konyunktura firma rahbarining omilkor emasligi, shuningdek, tadbirkorlar faoliyatiga moliyaviy, tarmoq, investitsion, innovatsion risklar ham o'z ta'sirini ko'rsatadi³.

Korxonalar risklarini boshqarish hozirgi sharoitda O'zbekistonda avj olib borayotgan kichik va xususiy biznes tadbirkorlari faoliyatini samarali, unumli boshqarish eng muhim, dolzarb muammo ekanligini hisobga olib, xalqaro huquqiy munosabatlarni va mamlakat ichidagi iqtisodiy-huquqiy asoslarni, milliy xususiyatlarni chuqur bilishlari va amalda qo'llashlari lozim bo'ladi.

Buning uchun kerakli konsultatsiyalar olish - (maslahat beruvchi) kompaniyalardan va banklar qoshidagi hamda tovar ishlab chiqaruvchilar hamda tadbirkorlar palatasi qoshidagi mutaxassislar bilan maslahatlashishlari, kompyuter orqali «Interne» axborotlaridan foydalanish har bir tadbirkorning birinchi navbatdagi burchi bo'lib qolmog'i maqsadga muvofiqdir. Korxonalar o'z faoliyatini samarali, xavf-xatarsiz amalga oshirishni boshqarar ekan, jahonda tez o'zgarib borayotgan iqtisodiy, siyosiy jarayonlarni va mamlakat ichidagi o'zgaruvchanlik holatlarini har doim o'rganib borishi tadbirkorlik faoliyati uchun katta samara beradi.

² Крейнина М.Н. Финансовая устойчивость предприятия: оценка и принятие решения. Стр 2-3. <http://www.dis.ru>

³ Первозванский А.А., Первозванский Т.Н. «Финансовый риск: расчет и риск» М., «Инфра-М». С 87. 1999 г

18.5. Tavakkalchilikni baholash va uni optimallashtirish

Turli omillarni iqtisodiyotga ta'sir etishi tabiati va qonuniyatlari iqtisodiyot subyektlari tomonidan ko'pincha doimo uzluksiz, o'z vaqtida, aniq va to'la idrok qilinishi qiyin bo'lganligi sababli va shu munosabat bilan tabiatan ehtimoliy bo'lgan tavakkalchiliklarni xizmatlar bozorida vaqti-vaqti bilan vujudga kelishi tufayli unda sodir bo'luvchi riskli hodisalar, jarayonlar va xatti-harakatlar hozirgacha bu bozorning asosiy muammolardan bo'lib kelmoqda. Bundan kelib chiqib ta'kidlash lozimki, tavakkalchilik xavfi xizmatlar bozorida va unda faoliyat yuritadigan barcha qatnashchilar harakatlarida har doim ishtirok etadi va shu sababli ularni tahlil qilib baholash va boshqarish masalalarini hech qachon moliya nazariyasi va amaliyoti kun tartibidan chiqarib bo'lmaydi.

Tavakkalchilikni baholash – uning darajasini miqdoriy yoki sifat o'lchamlari bilan aniqlashdir. Hozirga kelib tavakkalchilikni baholashda turli usullardan foydalanilmoqda, masalan: organoleptik (dastlabki tarzda ta'sir sifatini baholashda), statistik-empirik (baholashda ko'p vaqt va mablag'ni talab qiladi), umumlashtirilgan ehtimoliy-matematik usullar (ularni qo'llash arzon va qulay). Tavakkalchilikni to'liq va o'z vaqtida adekvat aniqlash asosida ularga ta'sir ko'rsatish mumkin, demak ularni boshqarishning real imkoniyati paydo bo'ladi. Ushbu ma'nodagi holda tavakkalchilik faoliyatning situatsion xarakteristikasi bo'lib, o'zida muvaffaqiyatsizlikni keltirib chiqaruvchi natijaning noaniqligini va mumkin bo'lgan nohush natijalarni aks etadi. Bunday noxush hodisalar va noaniq natijalarni ehtimoliy ravishda vujudga kelishida quyidagilar sabab bo'lishi mumkin: mamlakatdagi qonunchilik va joriy iqtisodiy holatni barqaror emasligi, siyosiy holatni noaniqligi, bozor kon'yunk-turasini, narxlarni, valuta kurslarini o'zgarishi va h.k.

Bozorda shunday qonuniyat mavjudki, unga muvofiq tavakkalchilik darajasi qanchalik past bo'lsa, yuqori moliyaviy natija olish ehtimoli mutanosib ravishda shuncha kam bo'ladi va buning aksi bo'lishi mumkin. Demak, bozor qatnashchisi oldida tavakkalchilik darajasi va moliyaviy natija miqdori orasidagi nisbatni optimallashtirish masalasi turadi. Tavakkalchilik baholashda uch asosiy elementni (unsumni) inobatga olish lozim:

- tavakkalchilik manbai (RM);

- tarkibidan tavakkalchilik tarqaladigan operatsiyalar to'plami;
- tavakkalchilik retseptori (RR). RMni RRga ta'siri bevosita (to'g'ridan to'g'ri) va bilvosita (to'g'ri bo'lmagan) bo'lishi mumkin.

Qatnashchilar juftligi doirasida ichki tavakkalchilik (IR), har qanday juftliklar orasida esa juftlik tavakkalchiliklari (JR) vujudga kelishi mumkin. Ta'kidlash joizki, IR va JR behosta (tashqi omillar sababli oldindan bilmagan holda) va idrokli (subyektiv sababli omillar asosida) ravishda vujudga kelishi mumkin. Bunda idroklilari rivojlangan bozor sharoitida yaqqol prognozlanishi mumkin va professionallar uchun unchalik havf tug'dirmaydi, ya'ni ularni boshqarish mumkin. Ammo bevosita tashqi omillarga bog'liqligi va tabiatan ehtimoliylik xarakteriga ega bo'lganligi sababli qiyin boshqariladi. Shuning uchun bevosita vujudga keluvchi tavakkalchiliklar (BR) amaliyotda muammoli bo'ladi.

Demak, BRlarni boshqarish maqsadida o'rganish masalalari professionallar va oddiy investorlar uchun muhim ahamiyatga ega. Bunda BR va tashqi omillar o'rtasidagi aloqani muhimligini sezish mumkin. Modeldan ko'rinib turibdiki, tashqi omillarning vujudga kelishi BRni rag'batlantiradi, mos ravishda BRni vujudga kelishi esa RMga ta'sir ko'rsatadi. O'z navbatida, RMDan chiqqan riskli operatsiyalar to'plami tarkibida mujassamlashgan ravishda RRga ta'sir ko'rsatadi va natijada RR harakatlarda nohush hodisalar tug'dirib salbiy natijalarni keltirish chiqaradi. Bu natijalar, o'z navbatida, tashqi va ichki omillarga ta'sir ko'rsatadi. Shunday qilib, "Tashqi omillar" – "RM" – "RR" – "Tashqi omillar" ko'rinishidagi zanjirdan iborat A konturi paydo bo'ladi. Bu kontur doirasida (ichida) hosil bo'luvchi har bir zanjir siklida (davrida) vujudga kelgan risklar keyingi zanjir sikliga o'tib, ehtimoliy tarzda ikki barobar oshgan (ustma-ust tushish asosida ortib boruvchi) risklar miqdorini (summasini) keltirib chiqaradi. Odatda oshib boruvchi tavakkalchiliklar darajasini pasaytirish uchun RR (ya'ni qatnashchilar) tavakkalchiliklarni sug'urtalaydilar (kontur V). Bundan ko'rinib turibdiki, kontur V kontur A doirasidaga tavakkalchiliklarni kompensatsiyalashga hizmat qiladi, natijada esa barcha tavakkalchiliklar to'liqligicha sug'urtalovchiga o'tadi. Bu usul dunyoda eng keng tarqalgan bo'lib, tavakkalchilikni boshqarishning sodda usuli hisoblanadi.

Tavakkalchilikni kriterial baholashda kelajak hodisalar to'g'risidagi informatsiya katta ahamiyatga ega. Bunday informatsiya har doim o'zida

ma'lum bir noaniqlikni mujassamlashtiradiki, u asosan bozor hodisalari va iqtisodiyot subyektlarining xatti-harakatlarini oldindan yaqqol, aniq, to'g'ri va to'liq ifodalab bo'lmaydi.

Informatsiyani aniqligi va to'g'riligi uning to'liqligi darajasi bilan belgilanadi. Informatsiya to'liqligining uch darajasini ko'rsatish mumkin: to'la aniq (determinirlashgan), stoxastik (bo'lishi mumkin stoxastik aniq va stoxastik noaniq), to'liq bo'lmagan darajada.

Bozor qatnashchisi uchun moliyaviy instrumentga bo'yicha ko'pincha noaniq bo'ladigan quyidagi informatsiya ahamiyatga ega:

- moliyaviy instrumentni iqtisodiy-xuquqiy ta'minlanganligi asosida bazisiga ekvivalentliligi darajasi;

- likvidliligi;

- xarajatlar;

- tavakkalchilik va natijaviylilik darajasi.

Umuman olganda, informatsiyaning noaniqligi mos ravishda tavakkalchilikni keltirib chiqaradi. Tavakkalchilikni vaqt omili bo'yicha retrospektiv (o'tmishdagi tarixiy), joriy vaqtdagi va kelajakda sodir bo'ladigan tavakkalchiliklarga ajratish mumkin.

Retrospektiv tavakkalchilikni baholash joriy vaqtdagi va kelajakdagi risklarni aniqroq prognoz qilishga yordam beradi. Tavakkalchilikning taxminiy ehtimolini aniqlash turli yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin.

Ilmiy adabiyotlarda tadbirkorlik tavakkalchilikni baholashning 4 usuli keltiriladi:

- statistik usul;

- ekspert usuli;

- analitik usul;

- kombinatsiyalashtirilgan usul.

Statistik usulda subyektning va tarmoqdagi boshqa turdosh subyektlarning bir necha yillik faoliyati davomida yuz bergan tavakkalchilik hodisalari hamda ularning ta'sirida ko'rilgan zararlarning darajasi o'rganib chiqiladi. Boshqacha qilib aytganda bu usul yordamida o'xshash faoliyat bilan shug'ullanadigan xo'jaliklarda ko'riladigan zarar, uning darajalari va takrorlanib turish hollari o'rganiladi.

Ekspert usulida ish tajribasi yuqori va mazkur sohada ekspert hisoblangan yuqori malakali mutaxassislarning fikrlari, aniq hisob-kitoblari va tavsiyalari e'tiborga olinadi. Ya'ni bu usul yordamida tajribali tadbirkorlar fikri yig'iladi, u qayta ishlanadi, menejer va


mutaxassislarning tijorat operatsiyalarda xavfning kutilish darajalaridagi fikrlari tahlil qilinadi.

Analitik usulda iqtisodiy-matematik usullar, vaziyatli ish o'yinlari va ehtimollar nazariyasidagi modellar yordamida tavakkalchilikning darajasiga baho beriladi. Ya'ni ehtimollar nazariyasi, o'yinlar (teorii igr) nazariyasidagi matematik modellarni qo'llashga asoslanadi.

Kombinatsiyalashtirilgan usul yuqorida keltirilgan barcha usullarni yoki ulardan bir nechtasini qo'llash orqali amalga oshiriladi.

Tadbirkorlik tavakkalchiligini hal qilish jarayonida tadbirkor oldida mavjud usullardan birini, ya'ni talabga javob beradiganini tanlash masalasi ko'ndalang turadi. Buning uchun tadbirkor barcha holatlarni tahlil qilib chiqishi kerak.

Tadbirkorlik tavakkalchiligini baholash va hisoblarning aniqligi mutaxassislarning malakasiga va ular hal qilayotgan holatga bog'liq. O'z faoliyati uchun ma'qul bo'lgan tavakkalchilik darajasi, qoida bo'yicha, aktivlar va xususiy kapitalning qiymati, pul oqimlarining miqdori, to'lovga qobillik darajasi, sof foyda va rentabellik kabi ko'rsatkichlar bilan aniqlanadi. Tavakkalchilikning maqsadga muvofikligiga baho berish uchun eng avvalo ehtimol qilinayotgan, xavf darajasiga qarab tavakkalchilikning tayin zonalarini ajratib olish zarur. Shu zonalarining umumiy ko'rinishi 18.5.1-rasmda berilgan.



18.5.1-rasm. Tavakkalchilikning maqsadga muvofiqiligiga baho berish orqali ehtimol qilinayotgan, xavf darajasi zonaları

Zarar kutilmaydigan, ya'ni xo'jalik faoliyatining natijasi ijobiy bo'lgan zona xavfsiz zona deb ataladi. Shu bilan birga tavakkalchilikning

yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan, jiddiy, keskin xavf bo'lgan va o'ta xavfli bo'lgan darajalari mavjud. Yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan tavakkalchilik darajasida ko'rilgan zararlarning miqdori subyektning haqiqatda erishgan sof foydasi miqdoridan oshib ketmagani ma'qul, ya'ni ehtimol qilinayotgan zarar kutiladigan foydadan ko'p bo'lmagan zona tushuniladi. Shunda tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy nutai nazardan maqsadga muvofiq deb topiladi.


Zararning miqdori \leq Sof foyda jiddiy, keskin xavf bo'lgan risk darajasida ko'rilgan zararlarning miqdori subyektning sof foydasidan yuqori, ammo, joriy likvidlikni ta'minlaydigan aktivlarining qiymatidan oshib ketmasligi lozim, ya'ni ehtimol qilinayotgan zarar nafaqat kutiladigan foyda, shuningdek hisoblangan naqd pul daromad (viruchka) dan ham ko'p bo'lgan zona tushuniladi. Boshqacha qilib aytganda, bu yerda tadbirkor nafaqat hech qanday foyda olishni, shuningdek barcha ishlab chiqarish xarajatlari miqdorida to'g'ridan to'g'ri zarar ko'rishgacha risk qiladi. O'ta xavfli bo'lgan tavakkalchilik darajasida ko'rilgan zararlarning subyektning joriy likvidligini ta'minlaydigan aktivlarining qiymatidan oshib, xususiy kapitaliga tenglashishi ham mumkin, ya'ni ehtimol qilinayotgan zararning jiddiy xavf zonasini o'z domiga tortib, undan oshib korxonaning hususiy kapitaliga teng bo'lgan zona tushuniladi. O'ta xavfli tavakkalchilik oqibatida korxonaning bankrotlikka uchrash ehtimoli vujudga keladi.

Joriy likvidli aktivlar < Zararning miqdori \leq Xususiy kapital

Ko'rilgan zararning miqdori korxonaning xususiy kapitalidan ortib ketganda

Zararning miqdori > Xususiy kapital

Korxonaga to'lovga qobilligini yo'qotadi va so'zsiz bankrot deb e'lon qilinadi. Tavakkalchilik egri chizig'i deganda ehtimol qilinayotgan zarar bilan kutiladigan foyda o'rtasidagi bog'lanishni ifodalovchi egri chiziq tushuniladi (18.5.2- rasm).



18.5.2. Ehtimol qilinayotgan foyda taqsimotini tavsiflovchi egri chiziq

Bu yerda foyda tasodifiy miqdor va u normal taqsimot qonuniga binoan taqsimotga ega deb faraz qilinayapti. Bunday yondashuv quyidagilarga yo‘l qo‘yilishini taqozo etadi:


$$\text{Foyda olish ehtimoli (F}_e\text{)} = \text{Hisoblangan foyda (F}_x\text{)}$$

Bu degan so‘z, foyda olish ehtimoli F_e maksimal, umumiy foyda (F) esa matematik kutish ehtimoli sifatida qabul qilinadi degan so‘zdir. Hisoblangan foydadan o‘z yoki ko‘p foyda olish ehtimoli risk darajasi (ehtimoli)ga bog‘liq.

Tafovut ortib borgan sari foyda olish ehtimoli bir xil tarzda kamayib boraveradi. Foydaning (F) hisoblangan foydadan (F_x) kam bo‘lishi korxonaning zarar ko‘rganini (F) ifodalaydi:

$$\Delta F = F_h - F$$

Shu faraz va taxminlarga asoslanib foydadan yutqazish ehtimolini tavsiflovchi egri chiziqni chizish mumkin (18.5.3-rasm).



18.5.3-rasm. Tavakkalchilikning egri chizig'i

Bu yerda, E_x — hisoblangan ehtimollik darajasi E_{yk} — yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan ehtimollik (risk) darajasi;

E_j — jiddiy (keskin) risk darajasi;

E_f — fojiali darajada ehtimol qilish.

Tavakkalchilik darajalari, ya'ni:

F_h , F_{yq} va F_f larning nisbatiga qarab biznesni rivojlantirish yoki rivojlantirmaslik to'g'risida qaror qabul qilish mumkin. Amaliyot quyidagi koeffitsiyentlarni qo'llashni ma'qul deb hisoblaydi:

$F_h = 0,1$ ya'ni 10%

$F_{yq} = 0,01$ ya'ni 1%

$F_f = 0,001$ ya'ni 0,1%

Bu degan so'z, 100 tadan 10 martasida foydadan maxrum bo'lsa, yoki 100 tadan 1 martasida naqd pul (viruchkasi)dan va 1000 tadan 1 martasida xususiy kapitalidan ajralsa, u holda tadbirkorlik kelishuvini tuzmaslik kerak. Shunday qilib, riskning uchta ko'rsatkichi va yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan riskning uchta mezonini asosida muayyan tadbirkorlikning maqsadga muvofiq, yoki nomuvofiqligi to'g'risida umumiy shartlarini ko'rsatish mumkin. Yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan risk darajasi (E_{yk}) yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xavfdan (F_x) katta bo'lmasligi kerak, ya'ni:

$E_{yk} < F_x$ - Jiddiy tavakkalchilik darajasi (E_j) yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xavfdan (F_x) kichik bo'lishi kerak, ya'ni:

$E_f < F_x$ - Fojiali tavakkalchilik darajasi (E_f) fojiali xavfdan (F_f) katta bo'lmasligi kerak, ya'ni:

$E_f < F_f$ Tavakkalchilikni baholashda koeffitsentlardan foydalanish mumkin. Sof foydaga, joriy likvidli mablag'larga va xususiy kapitalga nisbatan tavakkalchilik koeffitsentlarini hisoblash mumkin:

$$K_{sf} = \frac{ZM}{SF}, K_{jlm} = \frac{ZM}{JLM}, K_{xk} = \frac{ZM}{XK}$$

Bu yerda, K_{sf} , K_{jlm} , K_{xk} – sof foydaga, joriy likvidli mablag'larga va xususiy kapitalga nisbatan tavakkalchilik koeffitsentlaridir;

ZM – ko'rilgan zararning miqdori, so'm;

SF – subyektning sof foydasi, so'm;

JLM – korxonaning joriy likvidli mablag'lari, so'm;

XK – korxonaning xususiy kapitali, so'm.

Tavakkalchilik koeffitsentlarini hisoblashda quyidagi holatlarga e'tiborni qaratish kerak. Agar sof foydaga nisbatan hisoblangan tavakkalchilik koeffitsenti birdan ortib ketse, ko'rilgan zarar yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan darajadan ortib, jiddiy zarar tug'diradigan tavakkalchilikka aylanganini bildiradi va zararni miqdorini korxonaning joriy likvidli mablag'lariga nisbatan solishtirish zaruriyati tug'iladi.

Joriy likvidli mablag'larga nisbatan hisoblangan tavakkalchilik koeffitsenti birdan ortib ketganda esa, tavakkalchilik darajasi korxonaga uchun o'ta xavfli ekanligidan darak beradi va zarar miqdorini xususiy kapital bilan solishtirish zaruriyati tug'iladi. Har uchala formulada ham risk koeffitsentlari birdan kichik yoki teng ($K_t \leq 1$) bo'lsagina hisoblanayotgan tavakkalchilik mezoniga mos keladi.

Korxonaga qancha katta kapitalga egalik qilsa, ishlab chiqarish samaradorligi, rentabellik darajasi va joriy aktivlar likvidligi yuqori bo'lsa, uning tavakkalchilikka ta'siri shuncha kam bo'ladi va tadbirkor tavakkalchilik vaziyatlarida qo'rqmasdan masalalarni hal qilishi mumkin.

Tavakkalchilikni baholash har bir tadbirkorning aql-idrokiga bog'liq. Konservativ toifadagi tadbirkorlar, odatda, yangiliklarga ko'p intilmasdan, mumkin bo'lgan har qanday riskdan qochishga harakat qiladilar. Boshqa toifadagi tadbirkorlar esa, agar tavakkalchilik me'yor darajasida bo'lib, uni baholash va oldini olish yoki oqibatlarini pasaytirish mumkin bo'lsa, tavakkal qilish yo'lini tanlaydilar. Ko'pchilik

mutaxassislar fikriga ko'ra, tavakkalga bormasdan biznesda muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi. Shunday qilib, tavakkalchilikning egri chizig'ini chizish, undagi xavf zonalarini aniqlash va shu asosda tegishli qarorlarni qabul qilish tavakkalchilikka baho berishning qudratli qurollaridan biri hisoblanadi.

Tavakkalchilikning egri chizig'ini chizish, undagi xavf zonalarini aniqlash, risk samaradorligiga baho berishda yuqorida keltirilgan tavakkalchilikni baholashning 4 ta usulidan foydalanish mumkin. Bugungi kunda tavakkalchilikni boshqarish bo'yicha yetarli darajada yaxshi tarkib topgan faoliyat mavjuddir. Bu faoliyat quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.

1. Identifikatsiya (Identityfication);
2. Tavakkalchilikni baholash;
3. Tavakkalchilik boshqaruvida maqsad va instrument tanlash;
4. Tavakkalchilikni oldini olish va nazorat qilish;
5. Tavakkalchilikni moliyalashtirish;
- 6 Natijalar bahosi.

Birinchi va ikkinchi yo'nalishlar tavakkalchilik tahlili deyiladi. Tavakkalchilik identifikatsiyasi – sifat tahlili bo'lsa, risk bahosi – miqdoriy tahlildir. Tavakkalchilik tahlillari ichida eng ko'p uchraydigan riskni nazariy boshqaruvi bo'lib statistik usullar hisoblanadi. Usullar: statistik tekshiruv Monte–Karlo esport usullarini baholash analitik usul aloqador tavakkalchiliklarni kattaligi tahlili muhim bosqichlardan biri bo'lib tavakkalchilikni boshqarishda choralar va usullar bosqichi hisoblanadi.

Tavakkalchilikni boshqarishda usul va choralardan foydalaniladi. Qabul qilingan usul doirasida bir necha choralardan foydalanish mumkin. Nazariya va amaliyot tavakkalchilik boshqaruvini to'rt asosiy guruhga ajratib beradi:

1. Siqib chiqarish tavakkalchiligi;
2. Tavakkalchilikni oldini olish va nazorat;
3. Tavakkalchilik sug'urtasi;
4. Tavakkalchilikni singdirish.

To'rtinchi yo'nalish –tavakkalchilikni oldini olish va nazorat oldindan belgilangan reja va dastur asosida tashkiliy texnik tadbirlarni ko'zda tutadi. Bular jumlasida quyidagi tadbirlar kiradi: Risk monitoringi, risk bashorati, tahdid solayotgan xavfdan boshqarmani

xabardor etishning oldini olish va nazorat doirasida mahsus tashkiliy texnik tadbirlar o'tkazish.

Beshinchi va to'rtinchi yo'nalishlar umumiy «tanlangan usulni amalga oshirish» deb ham yuritiladi. Natijalarni baholash-mavjud loyiha doirasidagi faoliyatning menejmentini xulosaviy qismidir;

Loyihaviy faoliyatning quyidagi xususiyatlariga e'tibor beraylik:

A) ishtirokchilarning ko'pligi:

B) sezilarli vaqt cho'zilishi:

S) loyihaviy faoliyatning xarakteriligi

D) halqaro xarakter.

Vaqtinchalik cho'zilish omili. Risklar tahlili investitsiya fazasidan o'rin olgan. Ayni vaqtda bu tahlilning obyekti bo'lib investitsion va ishlab chiqarish fazalaridagi tavakkalchiliklar hamda loyihalarning yopilish fazasidagi tavakkalchiliklar hisoblanadi.

Tahlil o'tkazish vaqtida bu fazalar o'rtasidagi masofa shuni bildiradi:

-ba'zi tavakkalchiliklar identifikatsiya bosqichida hisobga olinmagan bo'lishi mumkin;

-loyihani amalga oshirish shartlarini o'zgarishi natijasida ba'zi tavakkalchiliklar nomuvofiq bo'lishi mumkin;

-loyihaga o'tkazilgan o'zgarishlar natijada ba'zi tavakkalchiliklar to'g'ri kelmasligi mumkin;

-shu tavakkalchilik bo'yicha yangi olingan axborot, bu tavakkalchilikni qayta ko'rib chiqish lozim.

Loyihaning kombinatsiyalashtirilgan xarakteri. Bu omilni loyihaviy tavakkalchilik boshqaruvida hisobga olinishi investitsion oldi fazasida tavakkalchilik tahlili vositasida ko'rib chiqish lozim. Loyiha doirasidagi turli xil faoliyatlarga aloqador holda: ilmiy izlanish, ishlab chiqarish, moliyaviy va boshqalar.

Ishtirokchilarning ko'plilik omili. Loyiha ishtirokchilarining ko'p ekanligi- asosiy (loyihaviy kompaniya, loyiha homiylari va kreditorlar),- ikkilamchi (iste'molchilar, yetkazib beruvchilar va b.) jiddiy obyektlarga olib kelishi mumkin. Birinchidan, har bir ishtirokchi boshqalardan farqli o'laroq o'ziga xos tavakkalchilikka ega.

Ikkinchidan, har bir ishtirokchiga to'g'ri keladigan yuqori tavakkalchilik darajasi ishtirokchilar o'rtasidagi zanjirga bog'liq. Uchinchidan, har bir ishtirokchi uchun loyihaning boshqa ishtirokchilari

o'ziga xos tavakkalchilik olishdir. Bu olishlardan xulosa chiqargan holda, shunga muvofiq tavsiflar berish mumkin:

- barcha loyiha ishtirokchilari tavakkalchilik sharoitida bir tahlil uslubidan foydalanishlari lozim, subyektiv olish tavakkalchilikni minimallashtirish va umumiy maqsadga erishish uchun;

- ishtirokchilar o'rtasidagi tavakkalchilik taqsimoti hech bo'lmasa umumiy ko'rinishda investitsion oldi fazasiga amalga oshirishi mumkin. Agar tavakkalchilik taqsimoti bo'yicha savdolashish keyinroqqa qoldirilsa, loyiha saqlanib qolishda to'xtab qolishi va sarflangan xarajatlar behuda ketishi mumkin. Tavakkalchilik taqsimoti narx kelishishi kabi operatsiyalardan ham muhimroq;

- tavakkalchilikni taqsimlashda uni ishtirokchilar zimmasiga alohida-alohida yoki umuman bo'lib tashlashni o'zi bo'lmaydi, chunki bir ishtirokchining o'z vazifasini bajarmasligi boshqalarni xam o'ziga tortib ketadi va hamma jabr ko'radi. Shuning uchun ishtirokchilar manfaatlari mos keladigan muhit yaratish lozimki, ular o'zlarini «bir qayiqda» deb bilishi kerak;

- har bir ishtirokchi qay darajada bo'lmasin tavakkalchilikning xususiy faktori bo'lib hisoblanadi, tashabbuskor hamkor tanlashda hamkorlarning bu ish borasidagi tajribasi, mutaxassisligi omillarga e'tibor berish hamda hamkorlikning iqtisodiy ahvoli albatta birinchi navbatda ko'rib chiqish lozim.

18.6. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tavakkalchilikni boshqarish samaradorligini oshirish yo'nalishlari

Har qanday ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish korxonasi o'zining faoliyat doirasida tavakkalchilikka uchraydi. Shunday bo'lsada, ma'lum sabablarga ko'ra, avvalo ishlab chiqarish korxonalari faoliyatida vujudga kelishi mumkin bo'lgan tavakkalchiliklar to'g'risida fikr yuritish o'rinli bo'ladi. Iqtisodiy adabiyotda bunday tavakkalchiliklar sanoat, ekologiya, investitsiya, texnik tadbirkorlik tavakkalchiliklari deb ta'riflanadi, ular milliy iqtisodiyotda tez-tez uchrab turadigan tavakkalchiliklar hisoblanadi. Albatta, bu tavakkalchilikning ishlab chiqarish korxonalariga ta'siri bank uchun ham jiddiy ahamiyatga ega bo'ladi. Masalan, tavakkalchilik bilan bog'liq ravishda korxonalar ish natijalarining yomonlashuvi uning pul

oqimlari orqali, bank oldidagi majburiyatlari bajarilishi yoki bajarilmasligi orqali, bank korxonaga mablag'larini investitsiyalaganda esa daromad kelib tushishi kamayishi orqali bank faoliyati umumiy natijalarida o'z ifodasini topadi.

Yuqorida sanab o'tilgan tavakkalchiliklarni bir-biridan butunlay ajralgan holda tasavvur qilish to'g'ri bo'lmaydi. Har bir tavakkalchilik boshqalari bilan uzviy bog'liq ravishda sodir bo'ladi va shu ma'noda iqtisodiyotda uchraydigan tavakkalchiliklar yagona majmuani tashkil etadi deyish mumkin. Masalan, korxonalar moliyaviy investitsiya faoliyatida moliyaviy, tadbirkorlik xatarlariga uchraydi, o'z navbatida, tadbirkorlik faoliyati natijasida moliyaviy tavakkalchiliklar vujudga kelishi mumkin. Agar ishlab chiqarish korxonasi real investitsiyalash bilan shug'ullanadigan bo'lsa, unda albatta sanoatga oid tavakkalchiliklarni ham o'rganish maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda milliy iqtisodiyot tarmoqlarida sanoat, ekologiya, investitsiya, texnik, tadbirkorlik, moliya, tijorat, davlat-siyosiy tavakkalchiliklar sodir bo'lishi ehtimollari mavjudligini qayd etish mumkin. Korxonalar yoki bank faoliyatida alohida tavakkalchilik yoki xatarlar guruh chuqur tahlil etilishi hamda strategik rejalar yoki biznes-reja tuzish va uni amalga oshirishda ularni bartaraf etish yoki yumshatish choralari belgilab olinishi lozim.

Sanoat korxonalarida duch keladigan tavakkalchiliklar deganda korxonalarining zarar ko'rishiga olib keluvchi yoki shlab chiqarish jarayonlarini bir maromda olib borilishiga salbiy ta'sir etuvchi omillar yuzaga chiqishi ehtimoli tushuniladi. Odatda bunday holatga sanoat korxonalarida tabiat kuchlari ta'sirida, yoki ataylab binolar, inshootlarni buzilishi, zarar yetkazilishi, transport va asbob-uskunalarini yo'qotilishi yoki sindirilishi natijasida tushib qoladi. Sanoat korxonalarida uchraydigan tavakkalchiliklarga avariya natijasida fuqarolarning og'ir shikastlanishlari, mashina, asbob-uskunalarini ishdan chiqishini ham kiritish mumkin. Sanoat tavakkalchiliklarini quyidagicha guruhlash ham mumkin:

- tabiiy ofatlar natijasida vujudga keladigan xatarlar – yer silkinishlari, suv toshqini, yer siljishi, dovul-bo'ron, girdob, chaqmoq ta'siri, vulqon va h.k.

- texnogen xatarlar – binolar, qurilmalarning eskirishi, mashina, mexanizm va uskunalarini foydalanishga topshirish va loyihalashtirishda yo'l qo'yilgan xato, kamchiliklar, xizmatchi xodimlarning texnika va

texnologiyalardan foydalanishda yo'l qo'ygan xatolari, asbob uskunalarni o'rnatish hamda ta'mirlash ishlarida shikastlantirish, uchuvchi apparatlarning yoki ularning qismlarining qulab ketishi va h.k.

- aralash xatarlar – inson faoliyati natijasida tabiatdagi mutanosiblikning buzilishi, masalan neft, gazlarni qidiruv burg'ulash jarayonlarida uning otilib chiqib ketishi yoki qurilish ishlarida yer surilishi va boshqalar. Sanoat xatarlarini ko'pgina hollarda ekologik xatarlar sifatida maydonga chiqadi. Atrof-muhitga insonlar tomonidan undagi tabiiy muvozanatning buzilishiga olib keluvchi ta'sir bilan bog'liq bo'lgan xatarlar ekologiya xatarlari deb ataladi. Odatda bunday xatarlar atrof-muhitga ta'sirni to'la o'rganmasdan va oqibatlari bilan hisoblashmasdan qurilish va ishlab chiqarish obyektlarining ishga solinishi tufayli vujudga keladi.

Hozirgi sharoitlarda ekologik xatarlar sanoat xatarlarining uzviy bir qismidir. Atrof-muhitga zarar yetkazish va uni ifloslantirish o'rmonlarni qurib qolishiga, suv miqdorining salbiy tarzda kamayishiga yoki ko'payishiga, havo va yer resurslarining sifat o'lchamlari buzilishiga, biosferaga zarar yetkazuvchi moddalarning chiqib ketishiga va qishloq xo'jalik yerlari meliorativ holatining buzilishiga olib keladi. Ekologiyaga va atrof-muhitga halokatli ta'sir etuvchi sanoat xatarlarning oqibatlarini yaqin va kelajakda yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan ikkita qismga ajratiladi. Yaqin kunlar ichida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan halokat natijasida binolar va inshootlar buziladi, atrof-muhit ifloslanadi, fuqarolarning turli darajada jarohat olishlari ko'payadi. Kelajakdagi ta'sir natijasida yer maydonlari ifloslanadi, suv hamda boshqa tabiat resurslarining ifloslanishi insonlar salomatligiga ta'sir etadi. Ular ifloslanish sodir etilgandan so'ng surunkali ravishda o'zining salbiy natijasini ko'rsatadi, insonlarda turli xil kasalliklar kuzatiladi. Uzoq vaqt davomida ushbu hududlardagi insonlarning yashash sharoitlari yomonlashadi, o'lim soni ortadi, turli hil kasalliklar, bolalar o'rtasidagi o'lim ko'payadi, nogiron bolalar tug'ilishi ortib boradi, ularning aksariyat qismi quvvatsiz bo'ladi. Sanoat xatarlarining muayyan qismi texnika va texnologiyalardan foydalanish bilan bog'liq holda vujudga keladi. Ular avvalo texnik xatarlar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Texnik xatarlar sanoat xatarlarining ham, ular bilan chambarchas bog'langan tadbirkorlik hamda investitsiya xatarlarining ham uzviy bir qismidir. Texnik xatarlar, jumladan, yangi qurilish obyektlarini bunyod etish va ekspluatatsiya qilishda yuzaga chiqadi. Ularning ichida qurilish-montaj

ishlarini bajarish bilan bog'liq xatarlarni va ekspluatatsiya jarayonidagi xatarlari alohida ajratib ko'rsatadilar.

Texnik-montaj xatarlariga quyidagilar kiradi:

- qurilish materiallari va uskunalarining noqulay sharoitlar, tabiiy ofat, portlashlar, atayin zarar yetkazish natijasida yo'qolishi yoki foydalanishga yaroqsiz holga kelib qolishi;

- obyektlarni loyihalashtirish va montaj qilishda yo'l qo'yilgan xatoliklar tufayli ularni qoniqarli yoki doimiy faoliyat yurita olmasligi;

- qurilish obyektlaridagi xodimlarga jismonan zarar yetkazilishi va boshqalar.

Tavakkalchilikni boshqarishdan maqsad nafaqat korxonada yoki faoliyatni bankrotlik (sinish) xavfidan saqlash qanday yo'l bo'lmasin foydani kamayib ketmasligiga intilishdir. Boshqaruvning mohiyati resurslarni ishlatishda eng samarali yo'lni tanlashdir. Xavf-xatarni oldini olish eng avvalo aniq va sifatli ma'lumotga ega bo'lish va mavjud ma'lumotlardan oqilona foydalanishni bilishdir. Menejer yuqori xavf sohasini aniqlashi, xavf darajasini to'g'ri baholay olishi, xavfni tahlil qilishi va ogohlantirishi, xatarlarga qarshi tadbirlarni puxta ishlab chiqishi va ularni unumli qo'llashi lozim.

Korxonada faoliyatida quyidagilar oqibatida xavf-xatar yanada kuchayib ketishi mumkin:

- noto'g'ri qarorlar qabul qilinganda;

- xodimlarni layoqatsizligi tufayli;

- xodimlarni ish taqsimlashda qobiliyat va imkoniyatlarini to'g'ri baholay olmaslik natijasida;

- marketing strategiyasini noto'g'ri yoki sifatsiz ishlab chiqilganda;

- menejment sifati past ekanligida.

Xavfni kamaytirishda axborot tizimini yaxshilash katta ahamiyatga ega. Tavakkalchilikni aniqlash, tahlil qilish va uning darajasini baholash, ogohlantiruvchi tadbirlar ishlab chiqish, uni minimallashtirish, sug'urtalash, zararlarni kamaytirish yo'llarini qidirish, samarali qarorlar qabul qilish bularning barchasi albatta foyda bilan ish faoliyatini yurgizishga xizmat qilmog'i lozim.

Tayanch iboralar

Tavakkalchilik manbasi, tavakkalchilik darajasi, tavakkalchilik xavfi, tavakkalchilik tasnifi, retrospektiv tavakkalchilik, iqtisodiy tavakkalchilik, tashqi tavakkalchilik, ichki tavakkalchilik, spekulativ

tavakkalchilik, baholashdagi tavakkalchilik, rejalashtirilmagan tavakkalchilik, tavakkalchilikni taqsimlash, xedjerlash, tavakkalchilikni boshqarish, xatarlarni identifikatsiyalash, valuta tavakkalchiligi, tavakkalchilikni baholash, texnik-montaj xatarlari.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Tavakkalchilik tushunchasining mohiyati va muqobilik xususiyati.
2. Tavakkalchilikni baholashning qanday usullari mavjud?
3. Tavakkalchilik qanday turlarga ajratiladi?
4. Tavakkalchilikni turkumlashga xizmat qiluvchi elementlar.
5. Tizimli tavakkalchilikning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
6. Tavakkalchilik darajasini kamaytirishning qanday yo'llari mavjud?
7. Tavakkalchilikni kamaytirish yo'nalishlarini belgilashda qanday holatlar hisobga olinishi talab etiladi?
8. Tavakkalchilikni baholashning asosiy elementlari.
9. Sanoat tavakkalchiligini qanday omillarga asosan guruhlanadi?
10. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tavakkalchilikni boshqarish samaradorligini oshirish yo'nalishlari.

XIX BOB. REAL SEKTORDA INNOVATSION FAOLIYATNING KOMPLEKS TA'MINOTI

Mazkur bobda innovatsion faoliyatning huquqiy ta'minoti, normativ aktlar va standartlar, innovatsion faoliyatni boshqarishning resurs ta'minoti va resurslar turlari, innovatsion faoliyatni boshqarishning axborot ta'minoti, ilmiy-texnikaviy axborot resurslarni yaratish jarayoni to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

19.1. Innovatsion faoliyatning huquqiy ta'minoti

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Fanlar akademiyasi yangilanish yo'lini bosib o'tdi, qator yutuqlarga erishdi va xalqaro e'tirofga sazovor bo'ldi. Fanlar akademiyasi muassasalarining jahondagi yirik ilmiy markazlar bilan to'g'ridan to'g'ri ilmiy aloqalari tenglik va o'zaro manfaatdorlik asosida sezilarli ravishda kengayib bormoqda. Xitoy, Janubiy Koreya, Yaponiya, AQSH, Fransiya va Germaniyadagi ilmiy markazlar va institutlar bilan hamkorlik samarali rivojlanmoqda.

Hozirgi kunda davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilinayotgan ko'plab me'yoriy-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi tufayli ilm-fan va innovatsiya faoliyati sohasidagi asosiy yo'nalishlar rivojlanish yo'liga tushib oldi. Ilmiy-texnik salohiyat mustahkamlangani, ilmiy tadqiqotlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning yirik muammolarini hal etishga yo'naltirilgani, mamlakatimizda innovatsiya faoliyatini faollashtirish, belgilangan vazifalarni hal etish uchun katta miqdorda valuta mablag'lari ajratilayotgani shular jumlasidandir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2016-yil 30-dekabr kuni mamlakatning yetakchi ilm-fan namoyandalari bilan uchrashuvda hukumat a'zolari, vazirlik va idoralar, davlat va jamoat tashkilotlari, tijorat banklari rahbarlari, Fanlar akademiyasi a'zolari, yetakchi oliy o'quv yurtlari rektorlari ishtirok etdi. Uchrashuvda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Mamlakatimizda yuqori salohiyatga ega, jahon miqyosida e'tirof etilgan olimlar ko'p. Ular o'z

maktablarini yaratishi, shogirdlar tarbiyalashi lozim. Yosh avlodni salohiyatli kadrlar etib tarbiyalashdagi birinchi bosqich – maktab ta’limini tubdan takomillashtirish, ilmiy kadrlar va yuksak malakali mutaxassislar tayyorlash jarayonining uzluksizligini ta’minlash zarur. Bu yo’lda hech narsani ayamaymiz”, deb ta’kidladi.

Jahonning yetakchi institutlari, universitetlari, ilmiy markazlari va Fanlar akademiyalari bilan ilmiy hamkorlikni yanada rivojlantirishni zamonning o’zi talab qilmoqda, deb ta’kidladi. Xorijning yetakchi o’quv va ilmiy muassasalarida ta’lim va ilmiy daraja olgan yurtdoshlarimiz uchun mamlakatimizda qulay shart-sharoitlar yaratib berish, ularni rag’batlantirish choralarini ko’rish kerak.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-sentyabrdagi PF-5185-son «O’zbekiston Respublikasida Ma’muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida»gi farmonlari mamlakatimizda intellektual va texnologik salohiyatni oshirishning uzoq muddatli senariylarida asosiy yo’nalish – innovatsiyalarni rivojlantirish, korxonalarda innovatsion faoliyat bilan faol shug’ullanishni rag’batlantirish ko’rsatib o’tilgan. Bu iqtisodiyotning ustuvor soha va tarmoqlarini innovatsion rivojlantirishning yangi modellarini shakllantirish imkonini beradigan strategik milliy innovatsiya tizimini yaratish bilan bog’liq.

Milliy innovatsiya tizimi ilm-fan, sanoat va jamiyat o’rtasida iqtisodiyotni rivojlantirish uchun asos bo’lib xizmat qiladi, innovatsion taraqqiyot ehtiyojlari esa ilmiy faoliyat ravnaqini belgilab beradi va rag’batlantiradi.

Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev tomonidan 2018-yilga yurtimizda “Faol tadbirkorlik, innovatsion g’oyalar va texnologiyalarni qo’llab-quvvatlash yili” deb nomlandi. Mamlakatimiz rahbari bo’lajak yilga aniq va go’zal ta’rif berdi: **Faol tadbirkorlik** biznes faoliyatini innovatsion, ya’ni zamonaviy yondashuvlar, ilg’or texnologiya va boshqaruv usullari asosida tashkil etadigan iqtisodiy yo’nalishdir.

Faol tadbirkorlik biznes faoliyatini innovatsion, ya’ni, zamonaviy yondashuvlar, ilg’or texnologiya va boshqaruv usullari asosida tashkil etadigan iqtisodiy yo’nalishdir. Faol tadbirkor, deganda, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga qodir, eng muhimi, yangi ish o’rinlari yaratib, nafaqat o’zini va oilasini boqadigan, balki butun jamiyatga naf keltiradigan ishbilarmon insonlar tushuniladi.

Davlatimiz rahbari qayd etganidek, bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion

rivojlanish yo'liga o'tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda yangi fikr, yangi g'oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi.

Davlatimiz rahbarining akademiklar va ilm-fan ziyolilari bilan 2016-yil dekabr oyida o'tkazgan uchrashuvi, joriy yil 17 fevraldagi "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, shuningdek, maktabgacha, maktab, o'rta mahsus va oliy ta'lim, akademik ilmni rivojlantirishga doir qabul qilingan qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar soha rivojida yangi davrni boshlab berdi.

Bugungi kunda ham O'zbekiston Fanlar akademiyasining olimlari buyuk ajdodlari an'analarini munosib davom ettirib, mustaqil Vatanimizning ilmiy-iqtisodiy, ilmiy-texnik, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyoti yo'lida keng ko'lamli ilmiy izlanishlar olib bormoqda.

O'zbekistonda davlat ilmiy-texnika dasturlarining ijrochi tashkilotlari hisoblangan 93 ilmiy-ta'lim, 102 oliy ta'lim, 63 konstruktorlik, jami 260 ga yaqin ilmiy-ta'lim muassasasi mavjud. Ularda 11 mingdan ortiq fan doktorlari, ilmiy va boshqa xodimlar fan taraqqiyoti yo'lida xizmat qiladi. Joriy yil davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida 400 dan ziyod fundamental, mingga yaqin amaliy, 370 innovatsion ilmiy-tadqiqot loyihasi bajarilmoqda. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimida 1 ming 400 dan ziyod doktorantlar ilmiy ish bilan mashg'ul. 2017-yilda Fanlar akademiyasining ilmiy hajmdor mahsulotlar eksporti hajmi 3 million 200 mingdan ko'proq AQSH dollarini tashkil etdi.

O'zbekistonda ta'lim sohasiga davlat xarajatlari oxirgi yillarda YalMning 10 foizidan ortiqni tashkil etmoqda. BMT ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatimizda ta'limga yo'naltirilayotgan xarajatlar davlat budjetining 35 foizdan ortig'ini tashkil etmoqda. Respublikamizda ilmiy, ilmiy-texnik va innovatsion potensialni yaratish va taraqqiy ettirish sohasida katta ishlar amalga oshirilmoqda. Fan tizimini boshqarishni takomillashtirish, ilmiy-innovatsion faoliyatning qonuniy va normativ huquqiy asosini kengaytirish, akademik va oliy ta'lim tadqiqotlarini takomillashtirish choralari amalga oshirilmoqda, ishlab chiqarishning innovatsion xarakterini oshirish, axborot va innovatsion

infratuzilmalarini yaxshilash, yangi ilm talab korxonalarini yaratish, yangi yuqori texnologiyalarni joriy etish ishlari ancha faollashmoqda.

Ilmiy tadqiqotlar O'zbekiston Fanlar Akademiyasining ilmiy tadqiqot institutlarida, Oliy va o'rta mahsus ta'lim vazirligining oliy ta'lim muassasalarida, Sog'liqni saqlash vazirligining ilmiy tashkilotlarida, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining ilmiy va o'quv institutlarida, ilmiy va innovatsion markazlarida va boshqa loyiha va tajriba-konstruktorlik tashkilotlarida olib borilmoqda.

Ilmiy faoliyatni rag'batlantirish, oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari va ilmiy xodimlarining moddiy manfaatdorligini tubdan oshirish, shu jumladan, lavozimlar, ilmiy unvon va darajalar o'rtasidagi tabaqalashuvni takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-apreldagi PQ-3655-sonli "Respublika oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari xodimlarining mehnatiga haq to'lash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Mazkur qaror 2018-yil 1-sentyabrdan boshlab 81 ta oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari va 136 ta ilmiy-tadqiqot institutlari ilmiy xodimlari tarkibining barcha bazaviy lavozim maoshlari miqdorlari sezilarli oshirilishini nazarda tutadi: hammasi bo'lib 38 dan ortiq oliy ta'lim muassasalari (28,1 ming odam) va ilmiy-tadqiqot muassasalari xodimlari (8,0 ming odam), shuningdek 1,9 ming doktorantlar.

Qabul qilingan qaror respublikaning oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarining ilmiy salohiyatini mustahkamlash yo'li orqali ta'lim sifatini va ilmiy faoliyatni oshirish masalalarini hal etish, oliy ta'lim muassasalari va akademik ilm-fanini yanada rivojlantirish, ilmiy-tadqiqot faoliyati samaradorligi va natijadorligini oshirish, iste'dodli yosh olimlar va talabalarni ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishga jalb qilishga yordam beradi.

19.2. Innovatsion faoliyatni boshqarishning resurs ta'minoti va resurslar turlari

Bugungi kunda respublikamizda ilmiy-tadqiqot olib boruvchi 400 dan ziyod korxonalar ro'yxatga olingan. Keyingi 10 yilda ilmiy-texnika dasturlarini amalga oshirishda 224 ta ilmiy-tadqiqot muassasalari, oliy o'quv yurtlari, tajriba-konstruktorlik tashkilotlari, tajriba-konstruktorlik

va kichik innovatsion markazlar qatnashib kelmoqdalar. O'zbekistonning ilmiy potentsiali 36 ming kishidan iborat bo'lib, unda 2549 fan doktori, 9254 fan nomzodi va 15,7 ming tadqiqotchilar mavjud. Ilmiy tadqiqotlar O'zbekiston Fanlar Akademiyasining 45 ta ilmiy tadqiqot institutlarida, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining (OO'MTV) 36 ta oliy ta'lim muassasasida (OTM), Sog'liqni saqlash vazirligining 34 ta ilmiy tashkilotlarida, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining 30 ta ilmiy va o'quv institutlarida, 79 ta ilmiy va innovatsion markazlarida va boshqa ular tarkibiga kirmaydigan loyiha va tajriba-konstruktorlik tashkilotlarida olib borilmoqda. Ilmiy kadrlarni tayyorlashda dasturiy yondashuv amalga oshirilib, ta'lim bosqichlarida islohotlar chuqurlashtirilmoqda.

O'zbekistonda ta'lim sohasiga davlat xarajatlari nisbiy jihatdan yuqori hisoblanadi. Keyingi 10 yil maboynida ularning darajasi YaIMning 10 foizidan ortiqni tashkil etdi. Bugungi kunda, BMT ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatimizda ta'limga yo'naltirilayotgan xarajatlar davlat budjetining 35 foizdan ortig'ini tashkil etmoqda. Boshqacha aytganda, O'zbekiston davlat budjetidan har yili 35 foiz mablag' aynan ta'lim-tarbiya sohasiga yo'naltirilmoqda. Shuningdek, respublikamizda ilmiy, ilmiy-texnik va innovatsion potentsialni yaratish va taraqqiy ettirish sohasida katta ishlar amalga oshirilmoqda. Fan tizimini boshqarishni takomillashtirish, ilmiy-innovatsion faoliyatning qonuniy va normativ huquqiy asosini kengaytirish, akademik va oliy ta'lim tadqiqotlarini takomillashtirish choralari amalga oshirilmoqda, ishlab chiqarishning innovatsion xarakterini oshirish, axborot va innovatsion infratuzilmalarini yaxshilash, yangi ilmtalab korxonalarini yaratish, yangi yuqori texnologiyalarni joriy etish ishlari ancha faollashmoqda.

Mintaqalarda ilmiy loyihalarni tashkil etish va joriy etish maqsadida innovatsion faoliyat va texnologiyalar transferiga mas'ul xududiy markazlar ishlab turibdi. Markazlar ilmiy-texnika sohasidagi mustaqil agentliklar bo'lib, ular erkin va demokratik tarzda boshqariladi. Boshqaruv tarkibiga mahalliy hokimiyatlar, korxonalar, ilmiy va o'quv yurtlarining vakillari kiradi. Hozirgi kunda respublikamizda innovatsion faoliyat va texnika transferi bo'yicha 8 ta hududiy markaz faoliyat olib bormoqda. Ular Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Buxoro, Surxondaryo, Kashqadaryo, Farg'ona, Andijon, Namangan viloyatlarida joylashgan.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi haqida gapiradigan bo'lsak ularda "bilimlar iqtisodiyoti"ning shakllanishida davlatning fan sohasidagi buyurtmasidagi ulushi kamayib, yirik korporatsiyalarning ilmiy bo'limlari, kichik va o'rta miqyosdagi ilmtalab firmalarning mamlakat ilmiy-texnik rivojlanishidagi hissasi ortib bormoqda. Respublikamizdagi innovatsion taraqqiyot davlat, kichik biznes va fuqarolik jamiyatlari institutlarining tizimli va maqsadga yo'naltirilgan harakatlariga tayangan holda davom etmog'i lozim. Bu maqsadlarni amalga oshirish uchun OTMda innovatsion faoliyat, innovatsion menejment, texnologiyalar transferi va tijoratlashtirish, intellektual mulk nazariyasi va huquqiy asoslari, innovatsion loyihalarni boshqarish, bozorga yo'naltirish sohasida faoliyat yurituvchi kadrlar tayyorlanishi zarur, OTMlarida shunday kurs va o'quv dasturlarini yaratish maqsadga muvofiq.

Inson resursini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan yondashuv bilimlar jamiyati konsepsiyasini tashkil qiladi va qashshoqlikka qarshi kurash samaradorligini ta'minlab, rivojlanish siyosati asosini yaratgan holda, inson huquqlari hamda asosiy erkinliklariga to'liq rioya qilishni ta'minlashi lozim. Negaki, bilim va rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlik bilimlar jamiyatini barpo etish uchun asos bo'lib, bilim iqtisodiy ehtiyojlarni qondirish vositasi va rivojlanishning ajralmas bir bo'lagi sanaladi. Rivojlanayotgan bilimlar jamiyati markazida siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy o'sish sur'ati qashshoqlikka qarshi kurash, fuqarolik va siyosiy huquqlarni ilgari surish maqsadlari o'rtasidagi ijtimoiy bog'liqlikni yaqqol namoyon etadi.

So'nggi yillarda yangi hodisalar va tushunchalarni o'rganadigan ko'plab ilmiy adabiyotlar paydo bo'ldi. Birinchi navbatda, bilimlarni yaratish va ulardan samarali foydalanishga bag'ishlangan tarjima ishlarini qayd etish lozim. Bilimlarga asoslangan iqtisodiyotga bevosita taalluqli bo'lmagan ayrim nashrlar intellektual kapital va bilimlar menejmenti nazariyasining u yoki bu jihatlarini ishlab chiqmoqda. A.A.Dinkin, N.I.Ivanova, S.M.Klimovning ishlari ushbu mavzudagi dastlabki Rossiya nashrlari sirasiga kiradi. 2003-yilda Rossiya Federatsiyasi Prezidenti huzuridagi Rossiya davlat xizmati akademiyasining mualliflar jamoasi ishi chop etildi. Shu yili A.N.Kozirev va V.L.Makarovning fundamental ishi, shuningdek, bilimlar iqtisodiyoti bo'yicha o'quv qo'llanmasi nashr etildi. BMT Rivojlanish Dasturining Rossiyada bilimlarga asoslangan jamiyat tashkil

topishiga bag'ishlangan 2004-yilgi yillik to'plam mamlakat ilmiy g'oyasiga jiddiy o'zgarish kiritdi.

Fan bilan ishlab chiqarish o'rtasidagi uzviy hamkorlikni ta'minlashning asosiy shartlaridan biri texnologiyalar transferining bozor mexanizmidir. Bu jarayonni tezlashtirish uchun milliy sanoatimizda yangi texnologiyalarni yaratish va mavjudlarini qo'llashni, olimlar tomonidan biznes takliflarini rag'batlantiruvchi mexanizm yaratilishi lozim. Konsepsiyada ta'kidlanganidek, bunday mexanizm sifatida davlatning texnologiyalar transferini qo'llab-quvvatlaydigan ilmiy va sanoat korxonalarining konsorsiumi bo'lishi mumkin. Agar korxonada yangi ishlanmani bozorda sotib olmoqchi bo'lsa va olimlar ilmiy tashkilot vakillari sifatida ilmiy tadqiqotlarni nihoyasiga yetkazishda, sanoat texnologiyasini yaratishda qatnashmoqchi bo'lsa, unda bu jarayon, loyiha davlat tomonidan moliyalashtirilishi mumkin. Bunday holatda ishlanmalarni nihoyasiga yetkazish xarajatlarini qisman yoki to'la davlat qoplashi (ya'ni sanoat korxonasi yoki ilmiy-tadqiqot institutining riski pasayadi), ilmiy-tadqiqot instituti tayyor mahsulotni sotishdan olinadigan foydadan o'z ulushini olishi mumkin (ya'ni konsorsiumda ishtirok etish manfaatdorligi oshadi).

Institutsional tub o'zgarishlar, bilimlar iqtisodiyotining "ijtimoiy kapital" deb nom olgan qismini tadqiq etish bo'yicha ishlarni alohida blokka ajratish mumkin. Bu borada F.Fukuyamaning ijtimoiy kapital singari toifani jiddiy ravishda rivojlantirib, to'ldiradigan ishi alohida e'tiborga loyiq. Ushbu toifa G'arbda iqtisodiy va ijtimoiy tadqiqotlarda keng qo'llanilmoqda.

Mehnatni bilimlar bilan almashtirish olimlarga mehnat faoliyatini ijodkorlik, innovatsiyalar, g'oyalarni ishlab chiqish bo'yicha ajralib turadigan yangi faollik turiga almashtirish mumkinligi haqida gapirishga asos bo'ladi. Bu yerda gap axborot to'plash va uni qayta ishlash bo'yicha tan olingan hamda ma'naviy yo'naltirilgan faoliyat – intellektual faollik haqida bormoqda.

19.3. Ilmiy-texnikaviy axborot resurslarini yaratish

Innovatsion jarayonlarni axborot bilan ta'minlashning asosiy masalalaridan biri, korxonada tuzilmaviy o'zgarishlarni avtomatlashtirilgan monitoring o'tkazish amallari hisoblanadi. Shunga bog'liq ravishda korxonada innovatsion ma'lumotlar va bilimlar banklarini doimiy

ravishda yangilab borish va ulardan foydalanish maqsadida korxonada tasarrufida innovatsion axborot ta'minoti markazlarini (IATM) yaratish maqsadga muvofiqdir.

Innovatsion loyihalarni samarali tatbiq etish uchun axborot tarkibini optimallashtirish yuqorida aytib o'tilganidek korxonada tasarrufida aylanuvchi axborot oqimlarini chuqur tahlil etishga asoslanadi. Axborot oqimlarini tahlil qilish va ularni modellashtirish innovatsiyalarning alohida yo'nalishlari dinamikasini miqdoriy jihatdan o'rganish uchun asosiy usullaridan biri hisoblanadi. Axborot oqimlarining qiymatlarini o'zgarishi asosida innovatsiyalarning alohida yo'nalishlarini rivojlanishi tezligini va umumiy holda axborot muhitini rivojlanishini ko'rsatish mumkin. Umumlashtirilgan klaster tahlil usullariga asoslangan mexanizmlar innovatsion ishlanmalardagi yangi yo'nalishlarni o'zida shakllantiruvchi axborot oqimlaridagi yangi turdagi axborotlar birliklarini (term) aniqlash imkonini yaratadi. Klaster tahlili, fraktallar nazariyasi va avtomodel jarayonlarni mohirona qo'llanilishi asosida ushbu yangi axborotlarning umumiy axborot oqimlaridagi o'zaro bog'liqliklari darajalarini baholash imkonini yaratadi.

Axborot modelining fazoviy – vektor modelini quyidagicha ifodalanadi:

$TF * IDF$. Bu yerda TF – termning lokal chastotasi (Term Frequency).

IDF – ushbu termda mavjud bo'lgan yangi axborotning paydo bo'lishining teskari chastotasi qiymati (Inverse Document Frequency).

Bunda termning lokal chastotasi axborot oqimidagi qiymatini ifodalasa, teskari chastota esa umumiy axborot oqimidagi termning noyobligini ifodalaydi. Shuning uchun bu ikkita qiymatning birgalikdagi ifodasi termning qiymatini aniqlash mezonini ifodalaydi.

Innovatsiyalarni yaratish va tatbiq qilishda vaqt mezonini muhim ahamiyatga ega. Demak, innovatsiyalarga taalluqli bo'lgan axborot oqimlaridagi termlar ham vaqt mobaynida o'z qiymatini yo'qotadi va bu qiymat yo'qolishini qandaydir emperik qonuniyat bilan ifodalash mumkin.

Terminlarni o'z ichiga olgan axborot oqimlarini vaqt mobaynida ifodalanishini quyidagicha izohlash mumkin:

$TF * IDF * e^{-bt}$; Bu yerda b – const. t – term paydo bo'lgandan boshlab o'tgan vaqt intervali.

Umumiy holda innovatsion jarayonlar uchun zarur bo'lgan axborotlar oqimlaridagi yangiliklarni ifodalovchi va vaqt mobaynida

paydo bo'lib shakllanuvchi terminlar umumiy axborot tarkibini optimallashtirishga katta hissa qo'shadi. Axborot oqimining tarkibiy jihatdan tashkillashtiriluvchilarini axborot oqimining fluktuatsiyasi, ya'ni $\sigma(t)$ - standart og'ishlar o'zgarishi asosida miqdoran baholash mumkin va bu qiymat quyidagi formula asosida ifodalanadi:

$$\sigma(t_i) \sqrt{\frac{1}{i} \sum_{k=0}^i (y(t_k) - (y(t_0) + v(t_i - t_0)))^2} \quad (1)$$

Investitsion-innovatsion loyihalarni tatbiq etishning axborot ta'minoti hajmi va tarkibini optimallashtirish yuqorida qayd etilganidek axborot muhitini yaratish asosida amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Hozirgi paytda innovatsiyalar uchun axborot muhitining hajmi va o'zgarishlari dinamikasi bo'yicha statistik ko'rinishga ega bo'ladi.

Axborot muhitining ko'plab modellarida ushbu muhitga taalluqli bo'lgan turli yo'nalishlarni ifodalovchi to'plamlar o'rtasidagi tuzilmaviy aloqalar o'rganiladi. Bunda ushbu to'plamlarning miqdoriy xususiyatlari gipperbolik taqsimotga bo'ysunadi. Hozirgi kunda axborot muhitini modellashtirishda ushbu muhitni o'z-o'ziga o'xshatish xususiyatiga asoslangan fraktal yondashuvdan foydalanish katta ijobiy natijalar beradi. Bu yondashuvda to'plamlarning o'lchamlari va masshtablari o'zgarganda ularning ichki xususiyati o'z holatini saqlab qoladi.

Axborot muhitini tahlil qilishda fraktallar nazariyasidan foydalanish innovatsion jarayonlarning axborot jihatdan qonuniyatlarini o'rganishga katta yordam beradi. Axborot muhitida o'zaro bog'liq bo'lgan axborot bo'g'inlarini ifodalovchi klasterlar shakllanadilar, kengayadilar va ularning soni ortadi. Klaster tamoyiliga asoslangan tizimlar mustaqil ravishda innovatsion ishlanmalarni ya'ni belgilarini namoyon etadilar va bu ishlanmalarni guruhlari bo'yicha taqsimlaydilar. Klaster tuzilmalar asosida shakllanuvchi axborot muhitining fraktal tuzilmalarining xususiyatlari bir tarafdin innovatsion jarayon bo'g'inlarini tabaqalar bo'yicha taqsimlash parametrlarini ifodalasa, ikkinchi tarafdin esa axborot muhiti xususiyatini akslantiruvchi axborot klasterlari rivojlanishi mexanizmini ifodalaydi.

Innovatsion jarayonlarni amalga oshirish maqsadida yaratiladigan axborot muhitini klasterlarga katta miqdorda ajratilishi mumkin. Bunday klasterlarni fraktallar nuqtayi nazaridan qaraganda fraktallarning

o'zlarini xususiyatlarini ham ifodalash muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki, fraktallar ixtiyoriy sohani maydalanishi holatida har bir bo'lakning o'z o'ziga o'xshashligi xususiyatini ifodalaydi. Demak, innovatsion jarayonlar uchun qabul qilinadigan axborot to'plamlarini ham fraktallar xususiyat-lari orqali ifodalash va axborot bo'g'inlarini ham fraktallar xususiyatiga moslashtirish mumkin. Fraktallar o'z xususiyatlari bo'yicha nochiqiq dinamik tizimlarni tadqiq qilishda hosil bo'ladilar. Bunday dinamik tizim umumiy holda ko'p hadli matematik ifodani iteratsiyalash asosida ifodalanishi mumkin.

Innovatsion jarayonlar uchun zarur hisoblangan axborotlar to'plamini fraktallar nazariyasi asosida tadqiq qilish hamda ularni klaster nazariyasi asosida bo'g'inlarga ajratib xususiyatlariga ko'ra optimal bo'g'inlarni tanlash bunday jarayonlar uchun axborot tarkibini optimallashtirish imkonini yaratadi. Axborot oqimlarini tahlil qilishda klaster usulidan foydalanish yuqori ijobiy natijalarni beradi.

Klaster tahlili asosida innovatsion jarayonlar uchun axborotlarni tahlil qilish usulini ko'rib chiqamiz. Klaster tahlili ko'p o'lchamli statistik vosita bo'lib, sohalarni tanlash bo'yicha axborotlarga ega bo'lgan ma'lumotlarni to'plash amallarini bajaradi hamda ushbu ma'lumotlarni turli guruhlariga ajratgan holda tartiblashtiradi. Klaster tahlilini qo'llanilishida ma'lumotlarga asosiy ikkita talab qo'yiladi, ya'ni ularning bir turdaliligi va to'liqligi. Bir turdalilik holati klasterlanishi zarur bo'lgan ma'lumotlarning o'xshash va umumiy xususiyatga ega bo'lishlarini talab etadi. Klasterlashtirishda birlamchi ma'lumotlar quyidagi turlarga ajraladi:

1. Har bir soha o'z xususiyatlari to'plamlari orqali ifodalanadi va bu xususiyatlar belgilar deyiladi.

2. Obyektlar o'rtasidagi masofa matritsasi. Har bir soha qolgan sohalargacha bo'lgan masofa metrik muhit orqali ifodalanadi.

3. Sohalar o'rtasidagi o'xshashlik matritsasi. Bunda sohaning boshqa sohalar bilan o'xshashlik darajasi metrik muhitdagi tanlov asosida belgilanadi. Hozirgi paytda birlamchi ma'lumotlarni qayta ishlashning bir necha algoritmlari mavjuddir. Q tahlil turi. Bunda sohalar belgilari bo'yicha taqqoslanadi; R tahlil turi. Sohalar asosida ularning belgilarini taqqoslash bo'yicha. RQ tahlil turi. Bu tahlilning gibrid turini ifodalaydi. Klasterlashtirish jarayonini quyidagi 3 ta usulda amalga oshirish mumkin:

1. Klaster tuzilmasini belgilash asosida ma'lumotlarni guruhlarga ajratish. Bunda o'zaro o'xshash bo'lgan sohalarni guruhlashtirish, ma'lumotlarni keyingi qayta ishlash holatlari osonlashtiradi va har bir klasterga alohida tahlil usulini qo'llash orqali yechim qabul qilish jarayoni yengillashadi;

2. Ma'lumotlarni jipslashtirish. Agarda klasterlar soni katta bo'lsa, axborot sohasini har bir klasterdan eng umumiy elementlarini ajratish va ularni bir to'plamga jamlash orqali klasterlar sonini kamaytirish mumkin.

3. Yangiliklarni aniqlash. Bu o'rinda biror-bir klasterga taalluqli bo'lmagan notipik sohalar paydo bo'ladi.

Ushbu 3ta holatda iyerarxik klasterizatsiya usulini qo'llash mumkin. Bunda yirik klasterlar kichik klasterlarga, kichiklari esa mayda klasterlarga bo'linadi va h.k. Bu o'rinda fraktal xususiyati o'z kuchida qoladi. Innovatsion jarayonlar uchun axborot oqimlarini tahlil qilish va optimallashtirishda quyidagi klasterlashtirish usullaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

1. Ehtimollik yondashuvi:

a) K-o'rtacha qiymatlar usuli;

b) K-medians;

v) EM-algoritm;

g) FOREL oilasi algoritmlari;

d) Diskriminal analiz.

2. Sun'iy intellekt tizimi asosidagi yondashuv:

a) S o'rtacha qiymatlarni noaniq klasterlash usuli;

b) Koxonen neyron turi;

v) Genetik algoritm.

3. Mantiqiy yondashuv. Bunda dendogrammalar yechimlar daraxti yordamida yaratiladi.

4. Nazariy-graf yondashuvi:

a) klasterlashning graf algoritmlari.

5. Ierarxik yondashuv.

a) Taksomaniya. Bunda klasterlashtirish masalasi miqdoriy taksomaniya asosida ifodalanadi.

6. Boshqa turli usullar.

a) klasterlashning statistik algoritmlari;

b) klasterlashtirish vositalari ansambli;

v) KRAB oilasi algoritmlari;

g) DBSCAN.

Innovatsion jarayonlar uchun axborot oqimlarini klasterlashtirish va ushbu amal asosida axborot tarkibini optimallashtirish masalalari turli holatlarga ega bo'lishi mumkin. Axborot oqimlaridagi xabarlar hajmi vaqtli qatorlarni tashkil etadi. Bunday vaqtli qatorlarni tadqiq qilish uchun fraktallar nazariyasidan foydalaniladi va ular o'z o'rnida fraktallik xususiyatlariga egadirlar. Shu bilan birga ularni stoxastik fraktallar sifatida izohlash mumkin. Fraktallar nazariyasi innovatsion jarayonlar uchun zarur bo'lgan axborot oqimlarining muhim xususiyatlarini belgilash imkonini yaratadi. Klaster tizimidagi fraktal o'lchov axborot oqimlariga mos kelgan holda axborot muhitining aniq vaqt mobaynida to'ldirilishi darajasini ko'rsatadi va quyidagicha ifodalanadi:

$$N(\epsilon) = \epsilon^{\rho} N_k(t)^{\rho} \quad (2)$$

Bu yerda N – klaster tizimining o'lchami. N_k - klasterlar soni, o'lchami.

ρ - axborot massivining klaster o'lchami ϵ - masshtablashtirish koeffitsiyenti.

Axborot oqimlarini fraktallik xususiyatlarini o'rganish uchun Xyorst ko'rsatkichi qiymatidan foydalaniladi. Bunda xabarlar miqdoridan tashkil etilgan vaqtli qatorlarning aniq muddatdagi qiymatlari inobatga olnadi. Innovatsiyalar uchun zarur bo'lgan i axborot manba uchun Xyorst koeffitsiyenti quyidagicha hisoblanadi:

$$H_i = \log(R_i/S_i)/\log(M/2) \quad (3)$$

Bu yerda R mos keluvchi vaqtli qatorning miqyosi, S esa standart og'ishlar. Innovatsion jarayonlar uchun nafaqat ularga taalluqli bo'lgan axborot manbalaridan ma'lumotlarni olishdan tashqari alohida manbalardan ma'lumotlarning ham qabul qilinishi amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega. Axborot manbalari muhimligini tadqiq qilish natijalari innovatsion jarayonlarni amalga oshirish uchun axborot–izlash tizimlarini tabaqalashtirishda hamda innovatsiyalar uchun muqim va original axborot manbalarini tanlash imkoniyatini yaratadi.

Tayanch iboralar

Innovatsion faoliyat, maqsadlilik, tizimlilik, tashkil etuvchi barcha tarkibiy qismlarning konseptual birligi, innovatsion strategiya, statistika, metodika, noaniqlik, tavakkalchilik, mexanizm, innovatsion iqtisodiyot,

innovatsion taraqqiyot, innovatsion faoliyat, texnologiyalar transferi, innovatsiya jarayonlari.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Innovatsion faoliyatning huquqiy ta'minotini qanday hujjatlar tashkil etadi?

2. Innovatsion faoliyat me'yoriy-uslubiy ta'minot qanday vazifani bajaradi?

3. Innovatsion faoliyatni boshqarishning resurs ta'minoti qanday vazifalarni bajaradi?

4. Innovatsion faoliyatni boshqarishning axborot ta'minoti qanday tarkibiy qismlardan iborat?

XX BOB. REAL SEKTORDA YANGILIKLAR VA INNOVATSIYALAR PORTFELINI SHAKLLANTIRISH

Mazkur bobda real sektorda yangiliklar va innovatsiyalar portfelini shakllantirish, innovatsiya obyektlarining nodirligi asosida raqobatbardoshligini ta'minlash, raqobat ustunliklarini baholash, turli obyektlarning raqobat ustunliklarini ta'minlovchi an'anaviy omillari, yangiliklar va innovatsiyalar portfelining tarkibi bilan bog'liq ma'lumotlar berilgan.

20.1. Innovatsiya obyektlarini ularning nodirligi asosida raqobatbardoshligini ta'minlash asoslari

Ilmiy faoliyat uchun alohida ahamiyatga ega bo'lgan, ilmiy tadqiqot ishlarining saviyasini jahon andozalari darajasiga ko'tarishda muhim o'rin tutadigan hamda o'rnatilgan tartibda «Davlat noyob ilmiy obyektlar ro'yxati»ga kiritilgan ilmiy muassasalar, asbob-uskunalar, kolleksiyalar, kutubxonalar, muzeylar, nodir jamg'armalar va boshqa obyektlar noyob ilmiy obyekt, deb hisoblanadi.

Noyob ilmiy obyektlar bo'yicha ishlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

– matbuotda hamda Fan va texnologiyalar Markazining internet saytida noyob ilmiy obyektlar bo'yicha takliflar berish to'g'risidagi ma'lumotlarni e'lon qilish;

– Fan va texnologiyalar Markaziga taqdim etilgan noyob obyektlar bo'yicha hujjatlarni ko'rib chiqish uchun qabul qilish;

– qabul qilingan hujjatlarni tahlil qilish, ilmiy ahamiyatga ega bo'lgan eng muhim obyektlarni aniqlash va tanlab olingan har bir obyektga ajratiladigan bir yillik moliyaviy mablag' hajmini belgilash;

– noyob ilmiy obyektlar bo'yicha tegishli tavsiyalar, hujjatlar va ma'lumotlarni tayyorlash;

– noyob ilmiy obyektlar bo'yicha materiallarni komissiyada ko'rib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi

Ilmiy texnika taraqqiyotini Muvofiqlashtirish Kengashiga tasdiqlash uchun taqdim etish;

– har bir obyektga ajratiladigan moliyaviy mablag‘ hajmi ko‘rsatilgan noyob obyektlar ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ilmiy-texnika taraqqiyotini Muvofiqlashtirish Kengashi tomonidan ”Davlat noyob ilmiy obyektlar ro‘yxati” sifatida tasdiqlan-gandan keyin bu obyektlar joylashgan ilmiy muassasa bilan Fan va texnologiyalar Markazi o‘rtasida shartnoma tuziladi.

Noyob ilmiy obyektlar faoliyatining monitoringi Komissiya tomonidan Ilmiy-texnika taraqqiyotini Muvofiqlashtirish Kengashi seksiyalari a‘zolari, Fan va texnologiyalar Markazi, tasarrufida noyob obyektlar bo‘lgan vazirlik va idoralar hamda Moliya vazirligining mas‘ul xodimlari bilan birgalikda amalga oshiriladi. Zarur hollarda Komissiya noyob obyektlarning faoliyatini joylarga borib o‘rganib, nazorat qiladi.

Monitoringning maqsadi noyob ilmiy obyektning ishchi holatda saqlanayotganligi, unga zarur texnik va boshqa xizmatlarning ko‘rsatilayotganligi hamda undan yuqori saviyada unumli foydalanilayotganligi, ajratilgan moliyaviy mablag‘ning samarali va maqsadli sarflanayotganligi, noyob obyekt bo‘yicha ilmiy va moliyaviy hisobotlarning o‘z vaqtida topshirilayotganligini kuzatishdan iboratdir. Ushbu holatlardan bironta jiddiy nuqson va kamchiliklar yoki moliyaviy qonunbuzarliklar aniqlangan hollarda Komissiya bu noyob obyektning moliyalashtirilishini davom ettirish maqsadga muvofiq emasligi to‘g‘risida Fan va texnologiyalar Markaziga o‘z xulosasini taqdim etish huquqiga ega. Fan va texnologiyalar Markazi Komissiya xulosasiga asosan noyob ilmiy obyektlarni moliyalashtirishni muddatidan oldin to‘xtatish to‘g‘risida Muvofiqlashtirish Kengashiga taklif kiritadi. Muvofiqlashtirish Kengashi qaroriga asosan noyob ilmiy obyektning moliyalashtirish, belgilangan tartibda, Moliya vazirligi tomonidan to‘xtatiladi.

20.2. Turli obyektlarning raqobat ustunliklarini ta‘minlovchi an‘anaviy omillar

Sof raqobat bozori sotuvchi va oluvchilarning shunday uyushmasiki, unda yuqoridagilar joriy baholarga ta‘sir ko‘rsatmaydi. Sof raqobat tushunchasidan foydalanish bizni narxli, narxsiz, insofsiz va

boshqa xil raqobatlarini ko'rib chiqishdan ozod qiladi va shu bilan birga ishlab chiqarish munosabatlari subyektlari orasida eng foydali sohaga kapital qo'yishni taqsimlash bozori, resurslar manbayi, ilmiy va ilmiy texnikaviy faoliyatning namunalari kabi sohalarda kurashishini o'z ichiga oladi.

Ilmiy va ilmiy texnikaviy faoliyati natijasi sifatida yangilik to yangilik kiritilishi va xalq ommasiga yangi tovarlarni, texnologiyalarni, xilma-xil xizmatlarni, yangi uslublarni va boshqalarni tan olinishida bo'lgan jarayon vaqt va xarajatlar bilan bog'liq.

Sof raqobat bozori bu jarayonda ikkilamchi pozitsiyada namoyon bo'ladi, ya'ni ular o'zlarida birlik va qarama-qarshi tomonlarni kurashini ifoda etadi. Tashkilotning yangiliklar bozorida har xil formada qatnashishini aniqlovchi sharti bo'lib ilmiy va ilmiy texnikaviy faoliyat sohasiga va yangilikni kiritish jarayonini qayta tashkil etish yoki o'qitishga sarflanadigan investitsiya hajmi hisoblanadi.

Rivojlanishni xohlamagan tashkilotni topish qiyin. Uy xo'jaligiga mebel, videojihaz, avtomobil, gilamlar sotib olish yoki yangilash kerak. Korxonaga esa tashqi va ichki bozorlarda raqobat qila oladigan texnologiyalarni sotib olish, o'zining mahsulotini taqsimlash uchun yangi bozorlarni topish, yangi yetkazib beruvchilar va iste'molchilar topish kerak bo'ladi. Davlatga esa yangi xil qurol-yaroqlar, ekologik toza energiyalar, resurslarni iqtisod qiladigan texnologiyalar kerak bo'ladi.

Mars va boshqa sayyoralarni o'zlashtirish, jahon okeani resurslaridan qanday foydalanishning yo'llari kerak. Zamonaviy taraqqiy etgan ilmlar va texnikalar bularning hammasiga bugunoq erishishga yo'l qo'yadi. Ammo yuqorida sanab o'tilgan ehtiyojlarning hammasini asosiy cheklanishi sifatida har xil turdagi (aylanma, aksionerli, venchurli, nizomli va boshqa) kapital namoyon bo'ladi.

Innovatsiya sohasida aniqlovchi rolni uzoq muddatli va o'rta muddatli investitsiyalar o'ynaydi. Innovatsion jarayon, odatda, o'rtacha 3-5 yil va undan yuqori muddatlarda davom etadi. O'zbekiston Respublikasi Davlat mulk qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan O'zbekiston davlat sanoat siyosati konsepsiyasida quyidagi sanoatdagi investitsion siyosati muhim normalarni qonuniy tartibda mustahkamlash ko'rib chiqiladi.

20.3. Tashkilot va uning raqobatchilarining raqobatbardoshligini tahlil qilish

Iste'molchilar bilan o'zaro ta'sir tovarni oldi-sotdi qilish orqali, yetkazib beruvchilar bilan - ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan resurslar oldi-sotdisi orqali, sheriklar bilan o'zaro ta'sir savdo-sotiq xizmatlari orqali va nihoyat raqobatchilar bilan o'zaro ta'sir firmaning raqobat muhitidagi faolligini ro'yobga chiqaruvchi joriy va istiqboldagi tashkiliy chora-tadbirlar tizimi orqali amalga oshiriladi. Korxonaning raqobatbardoshligi uning faoliyatining har bir momentida, har bir ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Korxonaning raqobatbardoshligini quyidagilarni o'z ichiga oladigan salohiyatli fazilatlar sifatida tavsiflash mumkin:

1. Korxonaning iste'molchilar maqsadli guruhining kutishlarini real baholay olish hamda iste'molchi xatti-harakati tendensiyalarini kuzatib borish qobiliyati. Boshqacha aytganda, korxonada iste'molchi talabini ham hozirgi davrda o'z vaqtida, obyektiv va aniq baholay bilishi, ham uning kelajakdagi o'zgarishini bashorat qila olish lozim. Bunday baholash faqatgina maqsadli iste'molchilar guruhining ilmiy modeli negizida bajarilishi mumkinki, ushbu model mazkur iste'molchilarning iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy va ruhiy omillarini hisobga olgan holda zamonaviy sotsiologiya va marketing uslublari asosida ishlab chiqilgan bo'lishi kerak.

2. Ishlab chiqarish natijalari maqsadli guruh iste'molchilarining kutishlariga narx-sifat borasida eng yuqori nafli tovar sifatida muvofiq keladigan qilib ishlab chiqarishni tashkillashtirish qobiliyati. Natijalar haqida so'z borganda chiqarilayotgan tovarning nafaqat iste'molchilik xususiyatlari, balki uning marketing xususiyatlari (narxi, kafolatlari, sotuvdan keyingi xizmat ko'rsatish va h.k.) ham nazarda tutiladi.

3. Samarali joriy marketing siyosatini olib borish qobiliyati.

4. Sotiladigan mahsulot birligini ishlab chiqarish omillari – kapital, ishchi kuchi, xomashyo va materiallar, energiya bilan ta'minlash xarajatlarini pasaytirish uchun sharoitlar yaratish qobiliyati.

5. Tarmoqning boshqa a'zolariga nisbatan yuksakroq texnologik ishlab chiqarishni yaratish va saqlab turish qobiliyati. Buning uchun qo'llanayotgan texnologiyalarni o'z vaqtida yangilab turish lozim. Bular ishlab chiqarishga, sotishga, boshqarishga tegishli bo'lishi mumkin.

6. Innovatsiyalar asosida ishlab chiqarish va marketing sohalarida samarali strategiyani rejalashtirish, tashkil etish va o'tkazish qobiliyati.

7. Yuksak kadrlar salohiyatini ham ijro darajasida, ham boshqaruv darajasida yaratish va rivojlantirish. Ijro etuvchi xodimlarning sifati uning korxonada mavjud ishlab chiqarish texnologiyalaridan samarali foydalanishida hamda istiqbolli texnologiyalarni o'zlashtirishga tayyor turishida namoyon bo'ladi. Mutaxassislarning sifati korxonaning bozorda tutgan o'rini kuchaytirish uchun texnikaviy, texnologik, dizaynerlik va boshqa sohalarni chuqur idrok etishini ta'minlashga qodir bo'lgan, korxonaning strategik maqsadlari bilan uzviy bog'liq funksional vazifalarni qo'yish va hal etishda namoyon bo'ladi.

Boshqaruv xodimlarining fazilatlarini ularning taktika va strategiya borasida tarmoq bozorlarida korxonaning raqobatli o'rini himoya qilish va rivojlantirishning bozor imkoniyatlarini aniqlash va ulardan samarali foydalanish qobiliyatida ko'rinadi.

Yuqorida sanab o'tilgan fazilatlarining ro'yobga chiqarilishi korxonaga uchun ancha vaqt raqobatchilardan real holda ustun bo'lishga imkon yaratadi. Bu ustunliklar korxonaga bozor qiymatining o'sishi, uning savdo markasining mustahkamlanishi, tashqi muhitning nojo'ya ta'sirlariga, jumladan raqobatchilarning hujumiga nisbatan qo'shimcha bardoshlikni kuchaytirish shaklida bo'ladi.


Bularning hammasi birgalikda korxonaning imkoniyatlarini kengaytiradi hamda uning moliyaviy, xomashyo va boshqa bozorlardagi xarajatlari salmog'ini kamaytiradi. Bu narsa mahsulotning narxi va u keltiradigan foydada o'z aksini topadi.

Ishlab chiqarish majmuasining yoki uning ayrim turlarining raqobatbardoshligi korxonaga ishlab chiqarish tizimi umumiy salohiyatining barcha asosiy qismlarda, ya'ni ilmiy-texnik, moliyaviy-iqtisodiy, kadrlar, ishlab chiqarish-texnologik qismlarida tavsiflab beruvchi umumlashtirilgan o'lchovi hisoblanadi.

Biznes sohasida korxonaga ishonchni hamda investorlar uchun jozibadorlikni ta'minlash raqobatga bardoshli ishlab chiqarish majmuasi yoki uning alohida turlari mavjud bo'lgan holdagina mumkin bo'ladi. Investitsiya kiritish esa biznes sohasining parametrlarini, korxonaning umumiy va innovatsion salohiyatini sifat jihatdan ko'tarish imkonini yaratadi.

Ishlab chiqarish darajasida korxonaning ishlab chiqarish tizimi umumiy va innovatsion salohiyatining integral o'lchovi sifatida quyidagi raqobatbardoshlik ko'rsatkichlari bilan baholanadi.

Ishlab chiqarish darajasidagi raqobatbardoshlikka ishlab chiqarish xarajatlarining, ishlab chiqarish sikli davomiyligining, mahsulot sifatini ta'minlashning va boshqa omillarning ta'sirini baholash alohida e'tiborga sazovor. Korxonaning o'ziga xos sharoitlaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqarishning faqat alohida turlarigina raqobatbardosh darajaga erishuvi ehtimoldan xoli emas.



20.3.1-rasm. Ishlab chiqarish tizimi darajasida raqobatbardoshlik ko'rsatkichlari


Korxonada mahsulotlarining raqobatbardoshligi buyurtmachilarning hamda mahsulot egalarining qoniqish darajasi bilan o'lchanadi.

Ushbu integral o'lchovning bosh tarkibiy qismlari jumlasiga sifati, to'liq narx (sotib olish, egalik qilish, utilizatsiya qilish), yetkazib berish muddatlari, sotuvdan keyingi xizmat ko'rsatish, mahsulotni butun hayotiy sikli davomida axborotli qo'llab-quvvatlash kabilarni kiritish mumkin.

Korxonada mahsulotni darajasida mijozlarning mahsulotdan qoniqishi va unga moyilligi, ijobiy munosabatining umumiy o'lchovi sifatida quyidagi raqobatbardoshlik ko'rsatkichlari qo'llanilishi mumkin.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda ko'pchilik korxonalarda ularning raqobatbardoshligini baholashning maqsadga yo'naltirilgan, doimiy amal qiluvchi, ilmiy asoslangan majmuaviy tizimi, shuningdek o'zaro bog'liq maqsad va ko'rsatkichlar bo'yicha strategik boshqaruv tizimi mavjud emas.

Qoidaga ko'ra, asosiy ko'rsatkichlar strategik rejalashtirish bo'limlarida shakllantiriladi, ammo ular ko'proq tezkorlik xususiyatiga ega bo'lib, korxonalarda zamonaviy strategik menejment tizimini tashkil etish, korxonaning bo'limlari va xodimlarining faoliyatini samarali yo'naltirish, motivatsiyalash va o'zaro uyg'unlashtirish imkonini bermaydi.



20.3.2-rasm. Mahsulotning raqobatbardoshlik ko'rsatkichlari

Undan tashqari korxonada faoliyatining samaradorligini baholash ko'rsatkichlari va mezonlari ko'p hollarda muvozanatlashmagan hamda barcha ahamiyatli jihatlarni to'liq aks ettirmaydi, jahondagi eng yaxshi firmalarning ilg'or tajribasini tahlil qilish tizimi esa mavjud emas. Ushbu holat jahon tajribasining rivojlanish dinamikasini ko'rsatkichlar orqali tizimli kuzatish va jahonning yetakchi firmalari orasida korxonalarining o'rnini aniqlash, shuningdek rivojlanishning asosiy tendensiyalarini o'z vaqtida bashoratlash va korxonaning talab

qilinadigan raqobatbardoshligini ta'minlash bo'yicha asoslangan chora-tadbirlar majmuasini ishlab chiqish imkonini bermaydi.

Yangiliklarni kiritishni boshqarishning innovatsion tizimini taxlil etishni bir tomondan - innovatsion strategiyaning (ko'rinishi) turi, ikkinchi tomondan esa tuzilma, texnologiya, kadrlar va firmaning boshqa parametrlari bilan uzviy bog'liqlikda amalga oshirish maqsadiga muvofiqdir. Bozorni firma xulqining strategiyasi hujumkor (agressiv) yoki himoyaviy xarakterga ega bo'lishi mumkin. Kompaniya odatda muvozanatli (balansli) tavakkalchilik bilan xarakterlanadigan o'zining bir qator innovatsion startegiyyalarini yaratadi. Bu qator (to'plam) ham tavakalli (hujumkor), ham xavfsiz (ximoyaviy) strategiyalarni o'z ichiga oladi.

Aggressiv bozor strategiyasi ma'lum bir bozor segmentida va ma'lum sotuv doirasida innovatsiyalar nuqtayi nazardan birinchi, etakchi korxonalar bo'lishga intilishni anglatadi. Xo'jalik faoliyatining ham o'zlashtirilgan, ham yangi jabxalarida yangiliklarni kiritish bo'yicha faol izlanish va ishlab chiqilmalarga yo'naltirilgan xujumkor strategiyasini kompaniya qabul qilishi tashkiliy tuzilmada katta o'zgarishlarni talab qiladi. Innovatsiyalar tashabbuskorlari juda yuqori tavakkalchilik sharoitlarida ishlashadi, lekin yangiliklarni omadli amalga oshirilganlarida, «iqtisodiy mustahkamlik» zaxirasiga ega bo'lishadi. «Iqtisodiy mustahkamlik» ishlab chiqarishning o'rtacha ulushli xarajatlari nisbatan past bo'lgan raqobatbardosh mahsulot portfelining mavjud bo'lishida namoyon bo'ladi.

Faoliyat doirasini va uchastkasi (segmenti) ni to'sri tanlash yangi maxsuslot bilan ilgariylashni strategik rejalashtirish va innovatsiyalarni amalga oshirishda katta xarajatlar to'siqini (ter soxada) yengishga imkon beradi. Bu sohada nisbatan qisqa muddat (2-3 yil) mobaynida tashabbusni (mavqesini) bermaslik, oldingi marralarni ushlab turish zarurdir. Keyinchalik qachonki raqobatchi korxonalar ma'lum mahsulotlar keng ko'lamdagi iste'molchilarni egalashga intilishsa, yo boshqa mumkin bo'ladigan innovatsiyalarga mo'ljalni qaratish yoki juda qattiq raqobatchilik sharoitlarida mavjud mahsulotni sotish uchqun kurashga kirishi kerak. Firma faoliyatining tanlangan umumiy strategiyasidan kelib chiqqan holda bozorda mahsulotga bo'lgan strategiya tanlanadi. Uning moxiyati firma imkoniyatlarini bozordagi vaziyatga muvofiqlashtirishlar, ya'ni ichki muxit tashqi muhitga mos kelishi lozimdir. Strategiyalar turli xil bo'lishlari mumkin, bu yerda eng

asosiysi - maqsadlarga erishish talablarga javob bera oladigan har bir bozor va har bir tovar uchun mosini tanlashdir.

Agressiv yondoshuvning quyidagi bazali strategiyalarini ajratish mumkin

1. Xarajatlar bo'yicha afzallikka erishish. Bunda kompaniya siyosati mahsulotni arzonroq ishlab chiqarish va sotish hisobiga raqobatli afzallikka erishishda namoyon bo'ladi. Masalan, qimmat baxoli xizmatlardan voz kechish, ishlab chiqarish uchun arzonroq bo'lgan mahsulotlar modellarini yaratish, arzon texnologiyalardan foydalanish hisobiga

2. Bozorning konkret, segmentiga strategiya. Bu holatda o'ziga xos iste'molchilar uchun mo'ljallangan bir necha asosiy mahsulotlariga bir necha mahsulotlarga kuchlarni jamlash (konsentrasiyalash) yordamida xarajatlarni nazorat qilish, va raqobatchilari qondira olmagan bozorga xizmat ko'rsatishga aloxida obro'ga erishgan xolda firma past narxlar yoki taxsinga loyiq bo'lgan takliflar orqali bozorning maxsus segmentini ajratadi.

3. Yangi bozorlarga mo'ljalni qaratish. Bir vaqtning o'zida yangi tovarlarni ishlab chiqarish va yangi bozorlarni o'zlashtirishni taqozo etadi. Bu juda tavakkalli va qimmat strategiya lekin aynan u beqaror tashqi muxitda korxonaning mustahkamligini ta'minlashi mumkin. Diversifikasiya firma hozirgi maanfaatlaridan qanchalik uzoq bo'lmagan, har qanday imkoniyatlardan foydalanishni anglatmaydi. Firma shunday faoliyat sohasini aniqlashga intiladiki, unda raqobatli afzalliklaridan samarali foydalanish mumkin bo'ladi. Bu strategiya - ko'pchilik yirik korxonalar ichida keng tarqalgan xodisalar.

Ilmiy-texnikaviy yangiliklarni kiritishning yutuqi va kamchiliklarining sabablarini tadqiqot qilish takrorlanuvchi qator omillari aniqlashga imkon beradi. Albatta bir yoki bir nechta omil va sharoitlarning bo'lmashligi yangiliklarni kiritishga salbiy ta'sir qilishi mumkin, bo'rtirib ko'rsatilganday bo'lsada, haqiqatga yaqinroqdir. Istisno sifatida shuni e'tirof etish mumkinki, ba'zan yangiliklarni kiritish samarasi shunchalik yuqori bo'ladiki, bu holatda hattoki yomon boshqaruv paytida ham yutuq kafolatlangan bo'ladi. Lekin bunday istisnolar boshqaruvni barcha bu omillar va sharoitlarni ta'minlashdan ozod qilmaydi, chunki tajriba shuni ko'rsatadiki, ular keng spektrda yangiliklarni kiritishni muvaffaqiyatli amalga oshirishda muhim bo'lib hisoblanadi.

Eng muhimlari bo'lib quyidagi omillar hisoblanadi:

1. Bozorga mo'ljalni olish.
2. Korxonaga maqsadlariga monandligi.
3. Loyihalarni tanlash va baholashning samarali tizimi.
4. Loyihalarni samarali boshqarish va nazorat.
5. Ijodiy soyalarning manbalari.
6. Yangiliklarni kiritishga korxonaning xayrixohligi.
7. Shaxsiy va jamoa mas'uliyati.

Bozorga mo'ljalni olish. Ilmiy-texnik yangiliklarni kiritish va qayta yaratish jarayoni sifatida ko'rib chiqilganida ta'kidlanganidek, bozor ehtiyojlarini aniqlash juda katta ahamiyatga egadir. «Ixtiro» va «yangiliklarni kiritish» tushunchalari o'rtasida aniq farqni belgilashimiz lozim.

Ixtiro. Soyani ifodalash, ilgari surish.

Yangiliklarni kiritish. Qo'llash (tadbiq etish) ya'ni jarayon, bunda ixtiro yoki soya iqtisodiy mazmun kasb etadi.

Boshqacha aytganda «ixtiro» shunda «yangilikni kiritish» bo'la oladiki, qachonki u bozorda yutuqqa erishsa, ammo aynan ilmiy tadqiqot ishlari va tajriba konstruktorlik ishlari (ITTKI) va marketing sohalari o'rtasidagi o'zaro boslikni yo'lga qo'yish vazifasi ilmiy-texnik yangiliklarni kiritish yo'lida jiddiy to'siqlardan biri bo'lib hisoblanadi, xattoki uni xal qilish zaruriyati o'z vaqtida tushunilgan va nazariy yetarli to'liq asoslangan bo'lsa ham.

Yangi mahsulotni yaratish soyasi odatda yo bozor ehtiyojlaridan kelib chiqqan xolda, yo ITTKI bo'linmalari ichida paydo bo'ladi. Ikkita yo'ldan qaysi biri samaraliroq degan fikr ko'p xollarda qarama-qarshi bo'lib fikrni bildirgan xodimning funksional qarashiga bosliqdir. Texnik va bozor qirralarida o'zaro unumli xarakterlar zarurdir. Bu faqat ikki doiradagi ekspertlarning o'rtasidagi chambarchas aloqalarni tashkil etish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Korxonaga maqsadlariga monandligi. Kelajakda korporasiya o'sishining asosini tashkil etuvchi mahsulotlar va bozorlarni aniqlash va xar qanday rejaning muxim elementi bo'lib hisoblanadi Korxonaga strategiyasini ifodalash o'zining salohiyatiga hamda tashqi muhit munosabatlari bilan bosliq bo'lgan va qiyinchiliklar va imkoniyatlarga e'tiborni talaba qiladi. Bu degani ba'zi bir mumkin bo'ladigan yangi mahsulot (o'ziga jalb qila oluvchi) konkret kompaniyaga mos kelmasligi

mumkin. Chunki kerakli resurslarga ega emas, u yerga o'zining operatsiyalarini kengaytirishga xohishi yo'q.

Loyihalarni tanlash va baholashning samarali tizimi.

Loyihalarni tanlash va baxolash usullarga katta e'tibor beriladi. Bu ITTKI rahbari tomondan qabul qilinadigan yechimning juda muhim va ahamiyatli qirrasidir. Bunda qo'llaniladigan usullar keng ko'lamda tanlanadi - oddiy nazorat varaqlaridan operatsiyalarni tadqiqot qilish texnikasiga asoslangan tahlilgacha, masalan chiziqli dasturlash usullari.

Loyihalarni samarali boshqarish va nazorat. Bunday boshqarishga zaruriyat yaqqoldir. Yetarli bo'lmagan nazorat xarajatlarni oshishiga yoki loyihani bajarish vaqtining ko'payishiga olib keladi. Xarajatlarning o'sishi nafaqat moliyaviy rejalarning buzilganligi, balki yirik loyihalar holatida ishlab chiqilmani muvaffaqiyatli tugatish natijasida kutish mumkin bo'lgan, iqtisodiy manfaatlardan qat'iy nazar kompaniya imkoniyatlaridan yuqori bo'lgan mablag'larni jalb etish zaruriyatidan dalolat beradi.

Ijodiy soyalarning manbalari. Innovatsion faoliyatni ijodkorlardan ajratib bo'lmaydi. Yangiliklarni muvaffaqiyatli kiritish - bu iste'molchi to'lashga tayyor bo'lgan bozorda biror-bir yangilikni taklif qilishdir. Yangiliklarni kiritish sifati bir yoki bir nechta individning saroyib va yaratuvchanlik fikrlashiga bosliqdir. Ijodsiz yangilikni kiritish ham bo'lmaydi.

Kompaniyaning imkoniyatlari quyidagi sharoitlar bilan boslangandir:

1. Ijodkor mutaxassislarni jalb qilish va mavjud jamoani saqlash.
2. Ijodkorlikni rahbatlantiruvchi ishchi holatini yaratish:
- 3 U yoki bu usullardan foydalanish

Yangiliklarni kiritishga korxonaning xayrixohligi Yangiliklarni kiritish o'zgarishni birdiradi. Shu sababli ularni odamlarga xavf deb ham talqin qilish mumkin .

Yuqori rahbarlik innovatsiyalarga olib keluvchi tashkiliy sharoitlarni yaratishda hal qiluvchi rolni bajaradi.

Innovatsion faoliyatning unumli bo'lishi quyidagilarga bolliqdir:

-yuqori rahbarlikning pozitsiyasi;

-tadqiqotchining o'z fikr va mulohazalarini yetkaza olish qobiliyati;

-tadqiqotchi bilan yuqori pog'onadagi boshqaruv o'rtasida kerakli

kommunikatsiyani ta'minlashga imkon beruvchi tashkiliy tuzilma.

Shaxsiy va jamoa mas'uliyati «Yangiliklar o'z-o'zidan kiritilmaydi;» ularni amalga oshirishga erishish lozim. Bu tezis shundan dalolat beradiki, muvaffaqiyatli yangilikni kiritish orqasida bir odam yoki odamlar guruhi turadi. U yoki ular soyani amaliyotga yo'naltirishga javob beradi. Muvaffaqiyat sharti tizimli yondashuv bilan aniqlanadi.

20.4. Innovatsiyalar va innovatsion portfelni rejalashtirish

Zamonaviy iqtisodiy sharoitlarda korxonaning innovatsion salohiyatini ishlab chiqarish doimo o'zgarib borayotgan talablar doirasida amalga oshiriladi, bu esa innovatsion faoliyat dasturlarini uzluksiz takomillashtirishni talab qiladi. Kutilmagan muammo har qanday vaqtda yuzaga kelishi mumkin va siz innovatsion loyihada ishlashni to'xtatib qo'yishingiz yoki hatto to'xtatishingiz kerak bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, iste'molchilar talablari va talabi o'zgarishi mumkin, buning natijasida innovatsion loyiha amalga oshirilishi mumkinligini qayta baholash zarur bo'ladi.

Bunday sharoitda korxonaning innovatsion salohiyatini boshqarish tizimi zarur o'zgartirishlarni amalga oshirish uchun moslashuvchan bo'lishi kerak. Natijada korxonaning innovatsion portfeli turli loyihalardan iborat bo'lishi mumkin: katta va kichik; tugatish va boshlash uchun yaqin. Biroq, har bir loyiha o'ziga xos xususiyatlarga (murakkablik, va boshqalar) qarab, cheklangan resurslarni taqsimlashni talab qiladi.

Shu munosabat bilan, innovatsion loyihalar samarali foydalanish uchun ular qatoriga kiritilishi kerak. Innovatsion salohiyatni amalga oshirishni optimal ravishda amalga oshirish uchun korxonaning innovatsion portfeli imkon qadar barqaror bo'lishi uchun muayyan konturlarga ega bo'lishi kerak.

Portfeldagi muayyan vaqtdagi innovatsion loyihalar soni ularning hajmiga bog'liq bo'lib, ular rivojlanish uchun zarur bo'lgan investitsiya resurslarining umumiy miqdori va yagona loyiha qiymati bilan o'lchanadi. Portfeldagi innovatsion loyihalar soni innovatsion budjetning muayyan vaqtga nisbati loyiha uchun o'rtacha xarajatga nisbati bilan belgilanadi. Shu asosda korxonalar bir vaqtning o'zida qancha innovatsion loyihani samarali boshqarish mumkinligini hal qilishlari

kerak. Yoki bir nechta loyihalarga konsentratsiya qilish yoki mavjud resurslarni ko'proq loyihalarga ajratish.

Ta'kidlash joizki, asosan yirik loyihalardan iborat innovatsion portfel bilan taqqoslaganda, resurslar kichik loyihalar orasida taqsimlanadi. Shu bilan birga, innovatsiya faoliyatiga nisbatan kamroq xarajatlarni talab qiladigan kichik loyihalar odatda sotish va shu bois rentabellik nuqtayi nazaridan kamroq salohiyatga ega bo'lgan yangi mahsulotlarda amalga oshiriladi. Kichkina loyihalar portfeli barqaror innovatsion oqimga olib kelishi mumkin, ularning aksariyati cheklangan bozor salohiyatiga ega, bu esa sotuvga chiqarilgan korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar turiga kirmaydi.

Ta'kidlash joizki, ushbu innovatsion loyihani portfelga kiritish uchun hisobga olish mumkin bo'lgan sifat boshqaruvini va loyihalar uchun xarajatlarni qayta taqsimlash oqibatlarini hisobga olish zarur. Natijada buyurtma portfelini shakllantirish potensial iste'molchilar bilan innovatsion faoliyat natijalari bilan ishlashni o'z ichiga oladi.

Shuningdek, korxonaning innovatsion portfelini yaratish mexanizmini ishlab chiqishda, innovatsion mahsulotlarga bo'lgan talabni to'g'ri prognoz qilish uchun korxonalaridagi mavjud vaziyat uchun juda qiyin, ba'zan esa mumkin emasligini hisobga olish kerak. Bu yerda noaniqlik talabi bor.

Korxonaning innovatsion portfelini shakllantirish mexanizmining keyingi elementi innovatsion faoliyatni loyihaviy moliyalashtirish hisoblanadi. Shu bilan birga, shuni e'tiborga olish kerakki, ayni paytda loyiha va moliyaviy risklar, shuningdek, innovatsion loyihalarni ekspertizadan o'tkazish uchun talablar o'sib bormoqda. Bu masalalar metodik va amaliy hamda tashkiliy rejalarda ham ko'rib chiqilishi kerak, chunki bugungi kunda nafaqat qarz beruvchini, balki mahsulotning eskirishi xavfliligi va xavfini baholaydigan mustaqil maslahatchilarni ham topish qiyin.

Ishonchli asoschilar, investorlar, kafillar, pudratchilar va operatorlardan loyiha guruhini tanlash qiyin. Dunyo amaliyotida loyihalarni moliyalash ko'pincha ushbu turdagi moliyaviy tashkilotni nazarda tutadi, chunki innovatsion loyihani amalga oshirishdan olingan daromadlar qarzni qaytarishning yagona manbai hisoblanadi.

Korxonaning innovatsion portfelini shakllantirish mexanizmini qo'llashda innovatsion loyihalarning ayrim xususiyatlarini hisobga olish kerak. Loyihani moliyalashtirish usullari va yirik kapital qo'yilmalarni

baholash va ilmiy-texnik loyihalarni tanlash uchun zarur bo'lgan moliyaviy tahlil usullari o'xshashligi amalda qo'llaniladigan tartiblarning yetariligi va identifikatsiya qilinishiga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, ikki loyiha o'rtasida muhim farqlar mavjud. Yangi sanoat obyektlarini barpo etishda kapital qo'yilmalar bo'yicha mavjud moliyaviy axborot, eng sodda innovatsion loyihalar, ayniqsa, dastlabki bosqichlarda emas, balki ancha ishonchli.

Ko'proq noaniqlik va xavflilikka ega bo'lgan innovatsion loyihalar rivojlanishning dastlabki bosqichlarida kichik moliyaviy yo'qotishlar bilan yakunlanishi mumkin bo'lgan afzalliklarga ega. Innovatsion loyihalarni tanlab olishda cheklangan axborot omiliga investitsiyalarga nisbatan e'tibor qaratiladi, chunki innovatsion loyihalarda kam ma'lumotlarga duch kelishi ehtimoldan yiroq. Mustaqil ekspertlarning fikrlarini o'zaro bog'lash juda qiyin. Innovatsion loyihalar nafaqat ko'p mezon va muhim noaniqlik va xavflilik darajasidir, balki sifatli baholanadi. Shuning uchun samaradorlikning ajralmas mezonlarini belgilash va olingan natijalarga erishish uchun sa'y-harakatlarning optimal muvofiqligi uchun mahsus tartib zarur. Albatta, eng muvaffaqiyatli loyiha eng ko'p mezonlarga javob beruvchi loyihadir. Shu munosabat bilan tavsiya etilgan innovatsion loyihalardan variantni tanlash juda qiyin, shuning uchun loyiha risklarini minimallashtirish va loyihaning ishlash parametrlarini optimallashtirish uchun innovatsion portfelni shakllantirish mexanizmi qo'llanilishi kerak.

Innovatsion portfel turli loyihalarni o'z ichiga olishi kerak: katta va kichik, uzoq muddatli va qisqa muddatli, maqsad va dastur prinsiplariga xilma-xildir. Bu, o'z navbatida, moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlarni yuqori darajada bajarish bilan bir qatorda korxonada innovatsion strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun innovatsiyalarni optimal amalga oshirish uchun ham zarur. Shu nuqtayi nazardan, portfelning mazmuni ko'pincha qayta ko'rib chiqilishi, yangilanishi kerak.

Korxonaning innovatsion portfelini shakllantirish mexanizmining oxirgi bosqichi innovatsiyalarni innovatsiyalarga joriy etish va sotish uchun ishlab chiqilgan innovatsiyalarni oqilona ajratishdir. Yuqoridagilardan kelib chiqadigan bo'lsak, innovatsion portfel – korxonada tomonidan amalga oshiriladigan va amalga oshiriladigan korxonada tomonidan ishlab chiqiladigan innovatsiyalar va o'z tasarrufidagi to'liq inventarizatsiya qilingan ro'yxat. Korxonaning

innovatsion portfelini shakllantirish mexanizmidan foydalanish innovatsion salohiyatni baholash elementlaridan biri bo'lib, belgilangan iqtisodiyotda innovatsion rivojlanish strategiyasini belgilaydi.

Innovatsion tadbirkorlik yanada yuqori xavf bilan bog'liq. Innovatsion korxonalar rahbari o'z korxonasida o'z korxonasining raqobatbardoshligini yuqori darajada saqlab turish va o'zgaruvchan tashqi sharoitlar, mavjud ilmiy va texnikaviy o'zgarishlar va iste'molchilar talablariga mos ravishda o'z biznesini tez va moslashuvchan ravishda yo'naltirish imkoniyatiga ega bo'lishi uchun o'z loyihalarida «portfeli» bo'lishi kerak.

Innovatsion biznesning o'ziga xosligi shundaki, bozorda innovatsion kompaniya muvaffaqiyatining asosiy omili doimiy innovatsiyalardir. Iste'molchilarning ortib borayotgan talablari, mahsulot va xizmatlarning hayotiy davrini qisqartirish va raqobatning kuchayishi tufayli kichik korxonalar hatto o'z mahsulotlarini va xizmatlarini yaxshilashga, shuningdek, yangi mahsulotlarni ishlab chiqarishga majbur.

Shu sababli, har qanday innovatsion kompaniya doimo to'ldirilishi kerak bo'lgan bir nechta innovatsion loyihalarning «portfeli» bo'lishi kerak. Bunday «portfel» ning mavjudligi nafaqat innovatsion kompaniyaning raqobatbardoshligini oshirish, balki bozor sharoitida innovatsion firmaning omon qolish sharti hisoblanadi. Arge portfeli turli loyihalardan iborat bo'lishi mumkin: katta va kichik; tugatish va boshlash uchun yaqin. Shuni hisobga olish kerakki, har bir loyiha o'ziga xos xususiyatlarga (murakkablik, va boshqalar) qarab, cheklangan resurslarni taqsimlashni talab qiladi. Portfelda muayyan chiziqlar bo'lishi kerak, barqaror bo'lishi kerak, chunki ish dasturi teng ravishda amalga oshirilishi mumkin.

Innovatsiyalarning maqsadi innovatsiyalarni joriy qilish orqali natijalarni olishdir. Innovatsiya doirasini aniqlash uchun ular innovatsion tashkilotning asosiy maqsadlarini ifodalovchi ramzlardan foydalanadilar. Ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini yaxshilash. Ushbu strategiyani amalga oshirishda sezilarli xavf tug'dirishi mumkin, lekin u katta foyda keltirishi mumkin, chunki u to'liq asoslanadi. Boshqa strategiyalarni o'zgartirmasdan turib, tovarlar narxining pasayishi.

Ushbu strategiyani qo'llash past daromad keltirib chiqarishi, ammo bozorda kuchli pozitsiyani egallashga yordam beradi.

- ishlab chiqarish va mehnatni tashkil qilishning yangi usullari, yangi texnologiyalarni ishlab chiqishda ishlab chiqarilgan tovarlar narxini pasaytirish.

- boshqa strategiyalarni o'zgartirmasdan shu bozor uchun tovarlarni ishlab chiqarish (sotish) dasturini ko'paytirish. Ishlab chiqarish ko'laminin oshishi hisobiga daromadlarning ko'payishi kuzatilmoqda.

- eski yoki yangi mahsulotlar uchun yangi bozorni rivojlantirish.

Tayanch iboralar

Noyob ilmiy obyekt, raqobat ustunligi, sof raqobat, raqobat muhiti, ishlab chiqarish natijalari, samarali marketing siyosati, raqobatbardoshlik ko'rsatkichlari, texnologik salohiyat, ishlab chiqarish tizimi, mahsulotning hayotiylik sikli, innovatsiyalar portfeli, innovatsion tadbirkorlik, innovatsion biznes, innovatsion kompaniya.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Innovatsion obyektlarni nodirligi asosida raqobatbardoshlikni ta'minlash yo'nalishlarini tavsiflab bering.

2. Korxonalarda raqobat ustunliklarini baholash qanday omillarga asoslanadi?

3. Turli obyektlarning raqobat ustunliklarini ta'minlovchi an'anaviy omillarini tavsiflab bering.

4. Tarmoq, mintaqa va mamlakat miqyosida raqobat ustunliklari qanday omillardan iborat?

5. Tashkilot va uning raqobatchilarining raqobatbardoshligini tahlil qilishning asosiy ko'rsatkichlari nimalardan iborat?

6. Innovatsiyalar portfeli va uning shakllanish manbalari.

XXI BOB. VENCHUR SHAKLIDAGI INNOVATSION BIZNES

Mazkur bobda O'zbekiston Respublikasida innovatsion faoliyatning huquqiy asoslari, innovatsion jarayonlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash shakllari, ilmiy izlanishlar, fundamental tadqiqotlar va innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlashda jamg'armalarning o'rni, innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlanishning nodavlat shakllari, innovatsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishda xorij tajribasi, sanoati rivojlangan davlatlarda ilmiy-innovatsion rivojlanish modellariga doir ma'lumotlar umumlashtirilgan.

21.1. Venchur kapitalining iqtisodiy vazifalari

Bozor iqtisodiyoti daromadni ko'paytirish va bozordagi ulushlarini saqlab qolish uchun korxonalaridan doimo innovatsion loyihalar, texnologiyalar va mahsulotlar o'z faoliyatlariga joriy etishni talab etadi. Ammo innovatsiyalar vujudga kelishi va amaliyotga tatbiq etilishi bir qancha moliyaviy, tashkiliy va ilmiy qiyinchiliklarga duch keladi.

Jahon amaliyotida innovatsion loyihalarni va korxonalarni moliyalashtirish usuli, o'z xususiyatlariga va infratuzilmasiga ega bo'lgan venchur kapitali bozori yaratilgan. Aynan venchur kapitali g'arb mamlakatlarida innovatsion loyihalarni investitsiyalash jarayonidagi, ichki manbalar chegaralangan vaziyatda va boshqa tashqi manbalar qo'llash imkoniyati yo'qligida, ilmiy yangiliklarni moliyaviy negizi bo'lib xizmat qildi.

Venchur kapitali yoki venchurli moliyalashtirish atamaları inglizcha «venture» so'zidan olingan bo'lib «yuqori riskli yangi korxonalar, faoliyat turi» ma'nosini anglatadi. Venchurli korxonalar deb kichik 3-5 ta yuqori malakali mutaxassislardan (olimlar, kashfiyotchilar va menejerlardan) iborat ilmiy-izlanish korxonasi tushuniladi. Venchurli investor sifatida ushbu kichik venchur korxonasini aksiyadorlik kapitaliga (aksiyalarni sotib olish yo'li bilan yoki investitsion kredit berish orqali) o'z investitsiyalarini uzoq muddatga, kelajakda yuqori daromad olish

maqsadida kiritadigan investorlar tushuniladi. Ular mahsus venchur fondlari, yirik korporatsiyalar, banklar yoki o'z jamg'armalariga ega bo'lgan jismoniy shaxslar ham bo'lishi mumkin.

Venchur loyihalari asosan yuqori texnologik tarmoqlarni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib (kompyuter texnologiyalari, telekommunikatsiya va aloqa sohalari, bio va nanotexnologiyalar, energetika, farmatsevtika va boshqa tarmoqlar) yangi texnologiyalarni, innovatsion loyihalarni joriy etish faoliyati sifatida ham talqin etiladi. Venchurli moliyalashtirish aksiyalarga egalik qilish shaklida yoki investitsion kredit berish orqali innovatsion loyihani investitsiyalab, ma'lum korxonani moliyaviy qo'llab-quvvatlashda, boshqa manbalardan foydalanish mumkin bo'lmagan sharoitda innovatsiyalarga xayotiylik baxsh etadigan moliyalashtirish usulidir.

Venchurli investor o'z mablag'larini fond birjasida aksiyalari erkin savdoda bo'lgan korxonalariga emas, balki barcha aksiyalar ma'lum yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasida taqsimlangan korxonalariga kiritishni afzal ko'radi. Mablag' beg'araz va foizsiz beriladi, undan tashqari bank kreditlari kabi ta'minot talab qilinmaydi (ta'minot sifatida venchur investorning qo'lida faqat sotib olingan aksiyalar bo'ladi). Berilgan mablag'lar shartnoma muddati tugaguncha venchur firmasidan qaytarib olinmaydi. Loyiha muvaffaqiyatli bo'lgan holda kompaniya yuqori daromad oladi va uni aksionerlar va investorlar o'rtasida bo'lishadi. Olinadigan daromad esa aksiya daromadining taqsimoti kabi bo'ladi va investorlarning ulushi 80 foizgacha kelishib olinadi.

Investorlarning maqsadi korxonaga boshqaruvini egallash emas, shuning uchun aksiyalarni aksariyat qismi kichik korxonaga rahbariyatida qoladi, venchurli investor esa ushbu innovatsiyalarni yaratish va amaliyotga tatbiq etish jarayonida faol qatnashadi va ta'sischi sifatida foyda ulushini oladi. Keyinchalik, investitsiya loyihasi amalga oshirilgach, investor o'ziga tegishli aksiyalarni fond birjasida yoki korxonaga rahbariyatiga olgan narxidan yuqoriroq narxga sotadi (chunki korxonaning umumiy qiymati ushbu davrga qadar oshgan bo'ladi) va shu tariqa «o'yindan» chiqadi.

Venchur moliyalashtirishning asosiy afzalligi o'rtacha daromadlilik darajasining yuqoriligi bo'lib, mamlakat iqtisodiyoti bo'yicha ko'riladigan daromaddan 2-3 barobar ko'p miqdorni tashkil etadi. Masalan, AQSH iqtisodiyoti bo'yicha XX asrning oxirgi o'n yilligida o'rtacha daromad darajasi 8 foiz bo'lsa, venchur kompaniyalarining


daromadlilik darajasi o'rtacha 20 foizni tashkil etgan. Shunday qilib, investitsiya loyihalarini venchur kapitali hisobiga moliyalashtirishning xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- Investitsiya loyhasini dastlabki bosqichidan boshlab noaniqlik va risk darajasini yuqoriligi;

- Venchur kapitali egalari foiz va ta'minot shartlarini qo'ymaydilar va uzoq muddatga to'g'ridan to'g'ri aksiyadorlik kapitaliga investitsiyalar kiritadilar;

- Investitsiyalar yuqori ilmiy-texnologik loyihalarga kiritilishi va daromadlilikiga qarab sarmoyalar tarmoqlararo taqsimlanishi. Masalan, AQSHda 1980-yillarda hisoblagich texnikasiga venchur kapitalini 26 foiz sarflangan bo'lsa, 1990-yillarda bu ko'rsatkich 43 foizni tashkil etdi, energetika sohasida esa aksincha, energiya manbalariga narxlar tushgani sababli venchur investitsiyalar hajmi ushbu davrda 20 foizdan 2 foizgacha qisqardi;

- Venchurli investorlar faqat mablag' ajratish bilan chegaralanib qolmaydilar, ular korxonada boshqaruvida faol qatnashib, o'z tajribalari, malakalari, biznes hamkorlari bilan yordam berib, keragicha imkoniyatlar yaratib, venchur kichik korxonasiga «ilm – ishlab chiqarish» jarayonidagi barcha sharoitlar yaratib beradi.



21.1.1-rasm. Venchurli moliyalashtirishning oqibatlari¹

21.1.1-rasmdan ko'rinib turganiday, venchurli moliyalashtirishning investorlar uchun oqibatlari doim ham yuqori daromadlarga olib


¹ Введение в венчурный бизнес. СПб.: «РАВИ», 2003 г. 52-стр

kelavermaydi. Investitsiya kiritilgan loyihalarni 15 foizda turli sabablarga, risklarga ko'ra investor o'z mablag'larini to'liq yo'qotadi, 25 foiz loyihalarda qoplash muddati cho'zilib ketib, investor zarar ko'rishi mumkin, loyihalarni 30 foizda kutilgan daromad milliy iqtisodiyotda olinadigan o'rtacha daromad darajasiga teng keladi va innovatsion loyihalarni 30 foizda yuqori daromad olib keladi (kiritilgan investitsiyalardan 2-10 barobar ko'proq foyda olinadi).

Lekin shuni aytish lozimki, mahsus venchur jamg'armalarida 30foiz loyihalardan olinadigan foydaning yuqori darajasi qolgan loyihalardan ko'rilgan zararni qoplab ketib, kelgusida boshqa loyihalarni moliyalashtirish uchun zaxira fondi tashkil qilish uchun ham imkoniyat yaratadi.

21.2. Venchur kapitali va venchur biznesi

Venchurli biznes bu investitsiyalash jarayonining o'ziga xos shakli bo'lib, bunda moliyaviy mablag'lar jadal rivojlanish salohiyatiga ega korxonalarining qimmatli qog'ozlariga kapital kiritish ko'rinishida moliyalashtiriladi. Biznesning bu turi ilm-fan va yuqori texnologiyalar sohalarida ilmiy tadqiqot natijalarini moliyalashtirishga nisbatan ko'proq mos keladi. Biroq ushbu tadqiqot natijalarini ijobiy bo'lishi kafolatlanmaganligi yuqori tavakkalchilik mavjud bo'lishini taqozo etadi².



21.2.1-rasm. Innovatsion mahsulot yaratilishi bosqichlari³

Investitsiya loyihasini moliyalashtirish bir nechta bosqichda amalga oshiriladi, va loyihani hayotiylik davri investitsiya g'oyasi paydo bo'lgandan boshlab loyiha mahsuloti ishlab chiqarilgach, investitsiyalar

² Завлина Л. Н. Инновационный менеджмент: Справ. Пособие. - М.: ЮНИТИ, 2010. - С. 275.

³ Гимуш Р.И, Матмуродов Ф.М. Инновацион менеджмент. Ўқув қўлланма. Т.: «Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти», 61 б.

qoplanib, investor foyda olgan davrni o'z ichiga oladi. Innovatsion loyihalar ham bundan mustasno emas. Innovatsion mahsulotni yaratish bir nechta fazada amalga oshiriladi (21.2.1-rasmga qarang), har bir bosqich o'z xususiyatlari va turli risk darajasiga ega, undan tashqari turli hajmdagi venchur kapitaliga ehtiyoj bildiradi.

21.2.1-rasmga asosan, venchur loyihasini amalga oshirishda kamida uchta bosqichda kapitalga ehtiyoj seziladi:

1. Boshlang'ich bosqich – tashkiliy ishlar va korxonani tashkil etish tadbirlari, marketing izlanishlari, loyiha qidiruv va ilmiy tekshirish ishlari, biznes-rejani asoslash va shu kabi loyiha oldi tadbirlari uchun;

2. O'rta bosqich – rivojlanish bosqichi bo'lib, loyihani amalga oshirish, ilmiy natijalarni amaliyotda qo'llash, birinchi mahsulot namunalarini ishlab chiqishdan, normal ishlab chiqarish va iste'mol faoliyatiga o'tish uchun;

3. Oxirgi bosqich – innovatsion mahsulotni ommaviy ishlab chiqarilishini tashkil etish, korxonaga aksiyalarini birjada erkin muammola uchun emissiya qilinishi, ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini mustahkamlash uchun mablag' talab qilinadi.

Start venchur investitsiyalari – venchurli moliyalashtirishning eng xatarli turi bo'lib, bu bosqichda venchur kapitali katta hajmda kerak bo'lmasada, aynan shu birinchi bosqichda kapital qaytmaslik ehtimoli baland deb hisoblanadi, chunki bu bosqichda innovatsion ishlab chiqaruvchi korxonaga rasmiylashtiriladi, ilmiy g'oyani rivojlantirishga, ilmiy-tadqiqot izlanishlarga venchur kapitali kerak bo'ladi. Start venchur investitsiyalari ikki turda bo'ladi:

- start oldi moliyalashtirish («seyed» - ekish bosqichi) – innovatsion g'oya mavjud, lekin korxonaga ham, loyiha ham tuzilmagan va ularga sarmoya kerak.

- start-ap moliyalashtirish (start up) – yaqinda tashkil etilgan korxonaga, ammo loyihani amalga oshirishga mablag' yetarlicha emas. Maxsus venchur fondlar tomonidan ushbu ikkita venchurli moliyalashtirish turiga (start oldi va start-ap investitsiyalari) risk darajasi baland bo'lgani uchun ko'p kapital ajratmaydilar – AQSHda umumiy venchur kapital hajmidan o'rtacha 20-25 foiz, Janubi-sharqiy Osiyoda 10-12 foiz, Rossiyada 10 foizga yaqin.

Start moliyalashtirishning oqibatida innovatsion mahsulotning birinchi namunasini yaratishga imkoniyat bo'ladi va ushbu namuna asosida bozor talabini, iste'molchilar reaksiyasini o'rganish mumkin.

Rivojlanishni venchurli moliyalashtirish – bu innovatsion mahsulotni birinchi namunasi yaratilish davridan uni ommaviy ishlab chiqarishni tashkil etish, korxonada zararsizlik nuqtasi darajasini egallash davrigacha bo‘lgan moliyalashtirish turidir. Ushbu venchurli moliyalashtirish turida ham ikkita bosqich ajratish mumkin, ya’ni:

-Dastlabki bosqichni moliyalashtirish – ommaviy ishlab chiqarishni tashkil etish;

-Kechki bosqichni(later stage) moliyalashtirish – ishlab chiqarishni tashkil etilgan va uni kengaytirish salohiyati mavjud bo‘lgan xolda venchur kapitalini kiritish.

Kengaytirishni venchurli moliyalashtirish – ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilganidan so‘ng ham korxonada ba’zi xarajatlar paydo bo‘lishi mumkin, masalan, yangi quvvatlarni qurilishi bilan bog‘liq, savdo tarmoqlarini o‘rnatish bilan bog‘liq va boshqalar. Bu bosqichda venchurli investitsiyalarga ehtiyoj korxonani aksiyadorlik kapitalini umumiy hajmidan o‘rtacha 15-25 foizni tashkil etadi, va bu mablag‘larni tashqi manbalardan jalb etish katta qiyinchilik tug‘dirmaydi, chunki bu bosqichga qadar korxonada to‘liq shakllanib, ishga tushib, o‘z mahsulotiga va iste’molchilariga ega bo‘ladi, shuning uchun venchurli investorlar kelgusi pul oqimlarini va korxonada qiymatini aniq hisob-kitob qilib, investitsiya kiritish to‘g‘risida asoslangan qarorlar qabul qilishlari mumkin. Bu bosqichni so‘ngida venchurli investorlar rejalashtirilgan foydani olib, ushbu faoliyat turini tark etish, boshqa loyihalarga investitsiyalar kiritish to‘g‘risida qarorlar qabul qilishadi. Undan tashqari venchurli moliyalashtirishni yana boshqa turlari ham mavjud, ulardan:

-qutqaruv moliyalashtirish – bankrotlik ostonasida turgan korxonalarni moliyalashtirish, sog‘lomlashtirish tadbirlarini tashkil etish;

- o‘rindosh moliyalashtirish – tashqi moliyalashtirish manbalarini bir qismini korxonaning ichki(aksiyadorlik) kapitali bilan almashtirmoq;

-korxonani qimmatli qog‘ozlar bozoriga chiqish bilan bog‘liq operatsiyalarni moliyalashtirish va boshqalar.

Venchurli investorlar o‘z sarmoyalari kiritganlaridan keyin 5-7-yil o‘tgach, loyiha muvaffaqiyatli amalga oshirilsa, ular bu biznesdan «chiqish» yo‘lini izlaydilar. Investorlar egalik qilgan korxonada ulushi (aksiyalar) sotish bir nechta yo‘li bor, ulardan:

-IPO (initial public offering) – aksiyalarni fond birjasida ochiq ommaviy sotuvga qo‘ymoq;

-To'g'ridan to'g'ri korxonani bir qismini istagan oluvchiga – korxonani o'z rahbariyatiga, boshqa strategik investorlarga, yirik kompaniyalarga, investitsion banklarga va h.k. sotmoq (albatta investor rejalashtirgan foyda miqdorini keltiradigan narxda).

Venchur firmalari ikkita tashkiliy shakllarda tashkil etiladi: mustaqil venchur firmalari va yirik korxonada joylashgan firmalar. Ichki venchurni tashkil etish to'g'risidagi qaror korxonada rahbariyati tomonidan qabul qilinadi va uning faoliyatini bevosita rahbarlardan biri nazorat qiladi. Venchur loyihasini tashkil etish uchun g'oyalarni tanlashda quyidagi ikkita holat hisobga olinishi shart:

-ushbu loyiha vazifasi bosh kompaniya manfaatlarining an'anaviy sohasi bilan mos kelmasligi kerak, ya'ni ichki venchurning maqsadi yaqqol innovatsiyalarni qidirib topishdan iborat;

-ichki venchurlar doirasida amalga oshiriladigan g'oyalarni tanlashda ekspertlar shunga ishonch hosil qilishlari lozimki, yangiliklarning tijorat salohiyati, yaratish, ishlab chiqarish va sotish uchun xarajatlar 50 foizdan 75 foizgacha aniqlik bilan oldindan aytib berilishi mumkin.

Venchur biznesini tashkil etish va uning rivojlanishi borasidagi chet el tajribasining tanqidiy tahlili hamda O'zbekistonda yuzaga kelgan hozirgi iqtisodiy vaziyat Venchur yo'li bilan moliyalash fondini tashkil etishning maqsadga muvofiqligini ta'kidlash imkonini beradi va u, bizning fikrimizcha, uchta bosqichni o'z ichiga olishi kerak.

Birinchi bosqich davlat ishtirokida amalga oshiriladi va u tizimni tashkil etuvchi unsurlarni yaratish, shu jumladan, venchur sanoatini qo'llab-quvvatlash infratuzilmasini, uni rivojlantirishning iqtisodiy va huquqiy shart-sharoitlarini shakllantirish, venchur investitsiyalarining likvidligini ta'minlash, milliy venchur sanoatining ijobiy nufuzini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Hozirgi vaqtda kichik tadbirkorlikka soliq solish, belgilangan imtiyozlarni hisobga olgan holda, korxonalarining jadal rivojlanishini va ularga venchur sarmoyasi oqib kelishini rag'batlantirmaydi. Kichik tadbirkorlik to'g'risidagi soliq solish va ularga soliq kreditlarining berilishi bilan bog'liq qonun hujjatlariga kichik innovatsion texnologik kompaniyalar aylanmalarining o'sishini rag'batlantirishga yo'naltirilgan o'zgarishlarni kiritish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Keyingi bosqichda davlatning bevosita ishtirokidagi venchur fondlarining tashkil etilishi mamlakat venchur sanoatiga xususiy sarmoyani jalb etishning asosiy mexanizmiga

aylanadi. Davlat mablag‘lari xususiy sarmoyadorlar uchun xatarlarni pasaytiradi va xususiy mablag‘larni jalb qilishda katalizator vazifasini o‘taydi. Davlat yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlashning bunday shakli dastlabki bosqichda deyarli barcha mamlakatlarda o‘zining samaradorligini ko‘rsatgan. Venchur fondlaridagi davlat ulushini boshqarish uchun Milliy venchur kompaniyasini tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Venchur yo‘li bilan investitsiyalash milliy tizimining unsurlari mustaqil rivojlanishning barqaror rejimiga chiqadigan uchinchi bosqichda ilgari tashkil etilgan fondlar tarkibidan davlatni chiqishi to‘g‘risida qaror qabul qilinadi. Venchur yo‘li bilan moliyalash fondining faoliyat yuritishini optimallashtirish davlat ishtirokida, ayniqsa tadbirkorlik faoliyatini faollashtirish nuqtayi nazaridan qator tadbirlarni nazarda tutadi. Bunda kichik korxonalar tomonidan uzoq muddatli kreditlarning olinishi tartibotlarini soddalashtirish va moliya lash, investitsiyalashning barqarorligini ta‘minlashga va kichik korxonalar aksiyalarining sotilishiga ko‘maklashuvchi normativ-qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Muhim venchur fondlaridan biri sifatida pensiya fondlarini shakllantirishga, shuningdek venchur yo‘li bilan moliyalash sohasidagi faoliyatni amalga oshirish uchun malakali kadrlarni tayyorlashga alohida e‘tibor qaratish lozim.

21.3. Venchur asosidagi moliyalashtirishning ustuvor yo‘nalishlari


Venchur kapitalidan foydalanib investitsiya faoliyatini amalga oshirish asosan kichik va o‘rta korxonalar tizimida keng tarqalgan bo‘lib, ushbu faoliyat yangi ishlanmalar, texnologiyalar va tovarlar ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan investitsiyalarni qamrab oladi.

Innovatsiyalarning o‘ziga xos jihati sifatida turli darajalardagi tavakkalchiliklar bilan bog‘liq bo‘lishi venchur kapitalidan foydalanish zaruratini taqozo etadi. Xorij tajribasidan ma‘lumki, venchur biznesi sohasida faoliyat yurituvchi korxonalar o‘z investitsiya mablag‘larini asosan aksionerlik kompaniyalarining qimmatli qog‘ozlariga kiritishga harakat qilishadi. Investitsiya mablag‘lari tijorat krediti ko‘rinishida 7-yilgacha bo‘lgan muddatga taqdim etiladi.

Bundan tashqari, venchurli investitsiyalash aralash shaklda ham amalga oshirilishi mumkin bo'lib, bunda investitsiya mablag'larining bir qismi aksionerlik kapitaliga kiritiladi, qolgan qismi esa investitsiya krediti sifatida taqdim etiladi⁴.

Venchurli biznes bu to'g'ridan to'g'ri investitsiyalash tarmog'ining aksionerlik kapitaliga yo'naltirilgan qismi bo'lib hisoblanadi. Venchurli kapitalga yaqin bo'lgan yana bir moliyalashtirish manbai sifatida riskli kapitalni keltirib o'tish mumkin.

Riskli kapital deb innovatsion korxonalar vujudga kelishi va faoliyat yuritishining dastlabki davrida, ya'ni yangi g'oyalarning paydo bo'lishidan to' ijobiy natijalar olinib, yangi mahsulot ishlab chiqarishgacha bo'lgan davrda ushbu korxonani moliyaviy qo'llab-quvvatlashning yagona manbai sifatida namoyon bo'ladigan kapitalga aytiladi. Venchurli kapitalning asosiy maqsadi bo'lib, investitsiya kiritish natijasida yetarlicha yuqori foyda olish hisoblanadi. Bunda investor avval kiritgan investitsiya mablag'lari yordamida ijobiy rivojlanishni ta'minlay olgan korxonaning aktivlari-dagi o'zining ulushini shu sohada faoliyat yuritadigan biror-bir yirik kompaniyaga sotish orqali o'z foydasini oladi. (21.3.1- rasm).



21.3.1-rasm. Innovatsiyalarni moliyalashtirishning kapital manbalari

⁴ Суша Г.З. Экономика предприятия: Учебное пособие. – М.: Новое знание, 2003. –С. 384

Venchurli biznesda dastlabki bosqichlardan o'q yuqori tavakkalchilik xatari mavjud bo'lib, investitsiyalashtirilgan jarayonlarning yakuniy natijalari amalga oshirilgandan keyin ijobiy samaraga erishilmasa moliyalashtirilgan mablag'lardan ajralib qolish holati kuzatilishi mumkin.

Venchur kapitalining investorlari barcha mas'uliyat va moliyaviy risklarni tadbirkor bilan teng sheriklikda o'z zimmlariga olishadi. Tijorat banklarining kredit va qarz mablag'larini olish yetarlicha qiyin va buning bir qancha sabablari mavjud.

Birinchiidan, aksariyat innovatsion loyihalar o'z samarasini bir necha yildan keyingina bera boshlaydi, tabiiyki, kredit mablag'lari uzoq muddatga mo'ljallangan bo'lishi talab etiladi. Bunday holatda bank tomonidan taqdim etilgan kredit mablag'lari muayyan muddatga "muzlatib" qo'yilishiga to'g'ri keladi, bu esa bankning moliyaviy ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatishiga olib keladi.

Ikkinchiidan, banklar uchun moliyaviy risk darajasi juda yuqori hisoblanadi. Kreditning tamoyillaridan kelib chiqib, banklar kredit taqdim etish uchun garov yoki kafolat talab etishadi va bunday holatda tadbirkor tanlov oldida qoladi, ya'ni innovatsion loyiha deb jamiyatdagi mavqei va mol-mulki bilan tavakkal qilish o'rinlimi degan savol aksariyat hollarda o'z tasdig'ini topmaydi. Mana shunday bir holatda tadbirkorga yordamchi va homiy sifatida venchurli biznes investorlari kirib kelishadi.

Iqtisodiy nuqtayi nazardan, investorlarning asosiy maqsadi tadbirkorga yordam berish emas, balkim yuqori foyda olish bo'lib hisoblanadi. Ya'ni, investor bo'sh turgan moliyaviy mablag'larini bank depozitlariga qo'yganda yoki belgilangan miqdorda daromad keltiruvchi qimmatli qog'ozlar xarid qilganda oladigan foydasidan ancha yuqori foyda olish imkoni mavjudligidan kelib chiqib qaror qabul qiladi⁵.


Venchurli investitsiyalar odatda 5-7-yil davomida faoliyat ko'rsatadi. Innovatsion loyihani amalga oshirishni moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlashning quyidagi bosqichlari ajratib ko'rsatiladi:

- 1) fondni (jamg'armani) yaratish;
- 2) kelishuvlarni amalga oshirish (shartnomalarni imzolash);
- 3) investitsiyalash;
- 4) investitsiyalashdan keyingi boshqaruv;

⁵ Николаев В.А. Приоритетные направления венчурного финансирования инновационных проектов. – М.: Дашков и К, 2011.– С. 509

5) biznesdan chiqish jarayonini boshqarish⁶.

Investor tomonidan u yoki bu venchur fondiga investitsiya kiritish to'g'risidagi qarorni qabul qilish uchun u fondlarning memorandumlari (placement memorandum) bilan tanishib chiqadi. Ushbu memorandumlar o'z ichiga faoliyatning maqsad va vazifalari, boshqaruv va nazorat qilishning o'ziga xos xususiyatlari, yutuq va kamchiliklari to'g'risidagi ma'lumotlarni qamrab oladi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, bugungi kunda keng qabul qilingan va dolzarb hisoblanuvchi investitsiya mablag'larini qabul qilishga da'vogarlik qiluvchi korxonalarining quyidagi tasniflanishini keltirib o'tamiz:



21.3.2-rasm. Venchurli investitsiyalar tizimi:
rasmiy va norasmiy shartnomalar (kelishuvlar)


1. Seyed – bu biznes g'oya bo'lib, uni keyingi tadqiqotlar o'tkazilishi uchun moliyalashtirish zarur.

2. Start up – yangi, yosh korxonaga bo'lib, bozorda qisqa faoliyat tarixiga ega. Bunday korxonalarini ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishlari uchun investitsiyalash zarur hisoblanadi.

⁶ Янковский К.П., Мухарь И.Ф. Учебник. Организация инвестиционной и инновационной деятельности. - СПб: Питер, 2012.

3. Early stage – bu shunday korxonalarki, ularda dastlabki tayyor mahsulot namunalari mavjud bo‘lib, ushbu mahsulotlarni tijoratini amalga oshirish bosqichi uchun mablag‘lar talab etiladi.

4. Expansion – bu shunday korxonalarki, ular o‘z faoliyatlarini kengaytirishlari uchun qo‘shimcha moliyaviy mablag‘larga ehtiyojlari mavjud bo‘ladi. Ushbu korxonalar investitsiya mablag‘laridan o‘z faoliyatlarini kengaytirish maqsadida, jumladan, ishlab chiqarishni, sotuv yoki xizmat ko‘rsatishni, qo‘shimcha marketing tadqiqotlarini o‘tkazishni, ustav kapitalini yoki aylanma mablag‘larini kengaytirish maqsadlarida foydalanishlari mumkin⁷.



21.3.3-rasm. Venchur kapitali fondining namunaviy tarkibiy tuzilmasi

⁷ Завлина Л.Н. Инновационный менеджмент. Справ. Пособие. - М.: ЮНИТИ, 2010. - С. 275.

Odatda, kichik va o'rtta korxonalar moliyalashtiriladi, bunda tijorat banklari kreditlaridan farqli ravishda, ulardan hech qanday garov yoki ta'minot hujjatlari talab etilmaydi. Moliyalashtirish – bu venchur fondi kapitaliga yo'naltirilgan mablag'lar bo'lib hisoblanadi (21.3.2-rasm).

Xorij tajribasini o'rganish shuni ko'rsatadiki, venchur fondlari shakllanishining an'anaviy manbalari bo'lib xususiy investorlarning mablag'lari, sug'urta kompaniyalarining mablag'lari, turli pensiya jamg'armalarining mablag'lari, yirik xalqaro tashkilotlarning va shu kabilarning mablag'lari ishtirok etadi (21.3.3-rasm).

Venchurli investitsiyalashning o'ziga xos xususiyatlari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Aksiyalarni pay shaklida xarid qilinishi;
2. Venchur kapitali egasi o'z mablag'larini korxonaning aksionerlik kapitaliga kiritadi.

3. Moliyalashtirilgan mablag'lar firma faoliyatida foydalanilishi bilan birga, firmaning aksiyalari hali birjada kotirovka qilinmaydi;

4. Kapital yo'naltirilgan korxonalar fan sig'imkorligi yuqori mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bo'ladi;

5. Kapitaldan yangi yuqori texnologik korxonalar foydalanishi mumkin bo'lib, ushbu korxonaning hayotiy davri tugamagunga qadar venchur kapitali egasi o'z xohishiga ko'ra kiritgan kapitalini qaytarib ololmaydi;

6. Moliyalashtirish faqatgina o'sish salohiyati mavjud deb taxmin qilinayotgan korxonalarga nisbatan amalga oshiriladi, yuqori foyda olayotgan korxonalarga nisbatan esa yo'q;

7. Venchur kapitali innovatsion korxonalarni rivojlantirishga yo'naltiriladi, bu bir tomondan tavakkalchilikning yuqori bo'lishini anglatrsa, boshqa tomondan foyda olish ehtimolining ham shunchalik yuqori bo'lishini anglatadi;

8. Yuqori texnologik korxonalarga venchurli kapital ko'rinishida investitsiya kiritishning bosh maqsadi yuqori foyda olish hisoblansa, yana bir maqsad sifatida yangi bozorlarga chiqish imkoniyatini yuzaga kelishini aytib o'tish mumkin;

9. Investitsiyalar muayyan muddatga taqdim etiladi;

10. Venchur kapitali egasi yangi korxonani investitsiyalash haqida qaror qabul qilar ekan, foyda olish borasida huquqlarini qanday amalga oshirilishi mumkinligini ham aniq belgilab olishi kerak.

21.4. O'zbekistonda venchur asosida moliyalashning istiqborllari

O'zbekiston Respublikasida o'z xususiyatlariga ega innovatsion salohiyat shakllangan. Aynan qishloq xo'jaligi va irrigatsiya, meditsina va farmatsevtika, fizika, sanoat, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini barpo etish kabi sohalardagi innovatsion goyalarni moliyalashtirish, jahon innovatsiya bozorida rivojlangan davlatlar bilan bir qatorda o'z joyimizni egallashga yordam beradi.

Venchurli moliyalashtirishni qo'llash esa iqtisodiyotimizni innovatsion rivojlanishga utishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Besh yildan buyon o'tkazib kelinayotgan innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalar respublika yarmarkalarida bu sohada kapitalga bo'lgan talab kattaligi namoyon bo'lmoqda. Ammo bu kapitalni taklifi milliy iqtisodiyotda faqat davlat jamgarmalari mablag'lari bilan chegaralangan. Venchur kapitali hisobiga investitsiya loyihalarini moliyalashtirish zaruratidan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasida venchurli moliyalashtirishning rivojlanishi Amerika va Yevropa mamlakatlarining boy tajribasi asosida va, albatta, milliy iqtisodiyotimizni «O'zbek modelini» xususiyatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshirish, venchurli moliyalashtirish institutlarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Avvalambor innovatsion faoliyatni moliyalashtirishga boshqa manbalarni, ya'ni xususiy sektor, korxonalar, banklar, sug'urta kompaniyalar, chet el investorlarni mablag'larini keng jalb etish lozim. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa iqtisodiyoti Qo'mitasi milliy venchur sanoatini shakllantirish bo'yicha rivojlanayotgan davlatlarga tavsiyanoma ishlab chiqqan. Unda barcha Yevropa va boshqa mamlakatlar tajribasiga tayangan holda ushbu sohani rivojlantirishda ma'lum tartib-qoidalarga amal qilishni tavsiya etgan.

Venchur sanoatini barpo etishda avvalo davlat katta rol o'ynaydi. Tavsiyanoma bo'yicha davlat huzuridagi jamg'armalar venchur kapitalining boshlangich manbasi sifatida, keyinchalik asta-sekin xususiy sektorni ham jalb qilishda va investitsion tajriba ortirishga katta ahamiyatga ega. Hukumat ushbu fondlarni shakllantirishda umumiy kapitalning ma'lum foizini manfaatdor xususiy investorlarga taqdim etishi lozim, kelgusida ixtirochilar va tadbirkorlar bu sohani xususiyatlari va afzalliklarini tushunib etganidan so'ng, venchurli moliyalashtirishga bo'lgan ishonch ortganidan so'ng, ushbu sohada

investitsion faollik oshishi ta'minlanadi. Aynan shunday yondashuv ko'plab davlatlarda qo'llanilgan: Kanada, Isroil, Qozog'iston, Latviya, Rossiya, Irlandiya, Finlyandiya, Fransiya, Germaniya, Daniya va boshqa mamlakatlarda. Milliy iqtisodiyotimizda bu tavsiyalarni qo'llashga barcha sharoitlar mavjud. Masalan, Fanlar Akademiyasi qoshidagi innovatsiyalarni moliyalashtiruvchi jamg'arma asosida Yevropa iqtisodiyoti Qo'mitasi tavsiyalarini qo'llash mumkin. Kelgusida venchurli moliyalashtirish yo'lga qo'yilgach, innovatsion g'oyalarni tanlov asosida moliyalashtirish imkoniyati yaratiladi.

Venchurli moliyalashtirishning yana bir afzalligi – uning qo'llash uchun mamlakatda maxsus me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinishi talab etilmaydi, ko'pchilik rivojlangan davlatlarda venchurli moliyalashtirishni huquqiy asosi bo'lib investitsiya va innovatsiya sohasidagi mavjud qonunlarga qo'shimchalar kiritish yo'li bilan amalga oshirilgan, dunyo bo'yicha faqat ikkita davlatda - Vengriya va Hindistonda venchur biznesini tashkil etishga doir alohida qonunlar qabul qilingan.

O'zbekistonda investitsion faoliyatning me'yoriy-qonuniy bazasi yaratilib, har yili takomillashtirib borilmoqda. Mustaqillik yillarida chuqur islohotlar natijasida bizning davlatimizda qulay investitsiya muhiti yaratildi, xorijiy investorlarga keng imtiyozlar va kafolatlar berildi, undan tashqari Navoiy erkin iqtisodiy hududi va maxsus industrial zona «Angren» tashkil etildi. Ushbu islohotlarni chuqurlashtirish zaminida kelgusida xorijiy investorlar ishtirokidagi xorijiy venchur fondlar ochilishi yoki qo'shma investitsiya jamg'armalar tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Undan tashqari, bu jamg'armalar ta'sisichisi yoki innovatsion mahsulotni buyurtmachisi sifatida yirik sanoat korxonalarimiz ham qatnashishlari mumkin, chunki sanoat korxonalari uchun innovatsion g'oyalar va mahsulotlarni doimiy ravishda o'z faoliyatlarida qo'llash - bozor iqtisodiyoti, raqobatni asosiy talabidir.

Venchurli moliyalashtirish texnologiyasi bankrot korxonalarni moliyalashtirish kabi faoliyat turidan risk darajasi baland emas, shuning uchun banklar xizmat turlarini ko'paytirish zaminida ushbu moliyalashtirish turidan foydalanishlari mumkin. Ayniqsa innovatsion mahsulotni ishlab chiqarish bosqichlari bo'yicha oladigan bo'lsak, boshlang'ich bosqichlarda mablag'ga ko'p hajmda ehtiyoj talab etilmasada, risk darajasi ancha baland bo'ladi, mahsulot birinchi

namunasi ishlab chiqarilganidan so'ng esa, ommaviy ishlab chiqarishni tashkil etish uchun katta hajmda mablag' talab etiladi – aynan shu bosqichda (risk darajasi nisbatan pastroq bo'lganida) banklar – moliyaviy resurslarni asosiy markazi sifatida, venchur kapitali hisobiga investitsiya loyihalarini moliyalashtirishlari mumkin va banklararo raqobatda yetakchilikni qo'lga kiritishlari mumkin.

Venchurli moliyalashtirish har qanday iqtisodiyotda yangi innovatsiyalarni hayotga tatbiq etish, ilm-texnika taraqqiyotini yuksaltirish imkoniyatini yaratar ekan, respublikamiz iqtisodiyotida ham venchur biznesini rivojlantirish mavjud intellektual boyligimizdan foydalanish samaradorligini oshiradi va iqtisodiyotimizning taraqqiyotiga zamin yaratadi.

O'zbekistonda venchur sarmoyasini rivojlantirish quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirilishi mumkin:

- qulay investitsiya muhitini yaratish;
- venchur sarmoyasi oqib kelishini rag'batlantirish uchun qonunchilik bazasini yaratish;
- venchur investitsiya fondini tashkil etish;
- sarmoyadorlar uchun xatarni pasaytirish, soliq imtiyozlarining tegishli tizimi orqali texnologiyaga investitsiyalar kiritishga yo'naltirilgan venchur fondlarini tashkil etishni rag'batlantirish;
- qimmatli qog'ozlarning ikkilamchi bozorini rivojlantirish;
- soliq solishning imtiyozli sharoitlari, qarzlar sxemalari (birinchi xarid qilish huquqi), axborot va maslahat xizmatlariga ega bo'lgan yangi yuqori texnologik loyihalarni yaratish tashabbusini amalga oshirish.

Respublikada venchur sarmoyasi fondlarini yaratish manbalari to'g'risida yuqorida bildirilgan fikrlarga yakun yasab quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

Iqtisodiyot rivojining innovatsiya yo'lini tanlagan mamlakatimiz uchun venchur biznesini yaratish va uning faoliyat yuritishi texnologik rivojlanishning ustuvor yo'nalishlarini tanlash, ustuvor moliyalash yo'nalishlarini belgilash; innovatsion loyihalashtirish uchun intellektual va axborot infratuzilmasini barpo etish; inson resurslaridan innovatsiya sohasida maksimal darajada foydalanish imkonini beruvchi innovatsiya menejmentini rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish, innovatsiya sohasining qonunchilik bazasini yangilash, ayniqsa soliq solish sohasida; innovatsiya sektorini ajratgan holda va tugallangan eng samarali tadqiqot loyihalarini qidirib topish orqali ilmiy sohani tarkibiy o'zgartirish

imkonini beradi. Shunday qilib, innovatsiya loyihalarini moliyalash manbasi sifatida venchur biznesini rivojlantirish, nazarimizda, kichik innovatsion tadbirkorlik sohasidagi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Tayanch iboralar

Faol tadbirkorlik, ilmiy-texnik rivojlanish, ilmiy-texnik siyosat, imtiyozli bank ssudalari, venchur kapitali, venchur investitsiya, patent va ixtirochilik faoliyati, ishbilarmonlik faoliyati, innovatsion tizim, inqilobiy modernizatsiya, boshqaruv innovatsiyalari, sanoat siyosati, sanoat siyosati modellari.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. O'zbekiston Respublikasida innovatsion faoliyatning me'yoriy-huquqiy asoslarini qanday normativ hujjatlar tashkil etadi?

2. Innovatsion jarayonlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qanday shakllari mavjud?

3. Ilmiy izlanishlar, fundamental tadqiqotlar va innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlashda jamg'armalar ishtirokini qanday baholaysiz?

4. Innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlashning nodavlat shakllari.

5. Innovatsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishning xorij tajribasi uchun xos bo'lgan asosiy xususiyatlar.

6. Sanoati rivojlangan davlatlarda ilmiy-innovatsion rivojlanishning qanday rivojlanish modellari mavjud?

XXII BOB. YANGILIKLAR DASTURI VA LOYIHALARNI ISHLAB CHIQUISH

Mazkur bobda innovatsion loyihaning iqtisodiy mazmuni, uni rejalashtirish va shakllantirish bosqichlari, innovatsion loyihaga qo'yiladigan talablar, innovatsion loyihalarni boshqarishni o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

22.1. Innovatsion loyiha tushunchasi va uning asosiy elementlari

Innovatsiya loyahasining asosiy maqsadlaridan biri – korxonaya yuqori sifatga ega bo'lgan kerakli miqdorda mahsulot ishlab chiqarish layoqatiga ega ekanligini raqobatchilarga isbotlashdan iborat.

“Innovatsion loyiha” tushunchasi bir qancha nuqtayi nazardan qaralishi mumkin:

- innovatsion maqsadlarga erishishga xizmat qiladigan tadbirlar yig'indisi sifatida;
- innovatsion faoliyatni amalga oshirish jarayoni sifatida;
- ushbu tadbirlarni asoslovchi va bayon qiluvchi hujjatlar paketi sifatida.

Ushbu uch jihatlar innovatsion loyihaning innovatsion faoliyatini tashkil qilish va maqsadli boshqarish shakllari sifatidagi ahamiyatini ko'rsatadi. Shunday qilib, innovatsion loyiha – bu resurslar, muddatlar va ijrochilar bo'yicha o'zaro bir-birini asoslaydigan hamda o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lgan, ilm-fan va texnika taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlarida muayyan maqsadlar (vazifalar)ga erishishga qaratilgan jarayonlarning murakkab tizimidir.

“Loyiha” tushunchasi bilan bir qatorda, “innovatsion dastur” degan tushuncha ham mavjud. Bu tushunchalar o'zaro chambarchas bog'langan. Dastur – bu loyiha shakllaridan biri, dasturlash esa (dasturni shakllantirish) – loyihalar hayot sikli bosqichlaridan biri bo'lsa-da, ularning xususiyatlari anchagina farqlanadi, dastur qo'shimcha qator yangi xususiyatlarni orttiradi. Innovatsion dastur loyihalarning

(multiloyiha va megaloyihalar) murakkab kombinatsiyasi bo'lib, boshqaruv obyekti sifatida alohida loyihadan yoki o'zaro bir-biri bilan juda zaif bog'langan, tashkilot yoki uning ijrochilari tomonidan bajariladigan loyihalardan juda kuchli farq qiladi. Dasturni faqat yirik tashkilotlar birlashmasi, masalan, FPG (moliyaviy sanot guruhleri), yirik korporatsiyalar konsorsiumi, mintaqa yoki megapolis, federal organlar va h.k.lar shakllantirishi va amalga oshirishi mumkin. Innovatsion dasturlarni shakllantirish va amalga oshirishga ko'plab misollar mavjud.

Innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun ularni moliyaviy asoslash va investitsiyalash muhim ahamiyatga ega. Bunda loyihaviy moliyalashtirish jarayonlari nuqtayi nazaridan o'ziga xos xususiyatlarga ega innovatsion loyihalarni farqlash kerak:

a) investitsion loyihalar, masalan, yangi sanoat obyektlari qurilishiga (energetika, transport, aloqa va h.k.) yirik kapital qo'yilmalar;

b) ilmiy-texnik (innovatsion) – ilg'or texnologiyalar, yangiliklar, mahsulotlar va xizmatlar.

Ushbu ikki xil loyiha o'rtasida muhim farqlar mavjud:

1. Sanoat obyektlariga kapital qo'yilmalar haqidagi mavjud moliyaviy axborot, hattoki eng oddiy ilmiy-texnik loyihalarga qaraganda, ayniqsa, ularning erta bosqichlarida, ishonchliroqdir;

2. Innovatsion ilmiy-texnik loyihalar mavhumlikning yuqori darajasiga ega ekanligi bilan farq qilib, ular shunday afzallikka egaki, ular ishlanmaning erta bosqichidayoq katta bo'lmagan moliyaviy yo'qotishlar bilan to'xtatib qo'yilishi mumkin;

3. Ilmiy-texnik loyihalarda axborot investitsiyaviy loyihalarga qaraganda ko'proq cheklanganligi va mos emasligi bilan farq qiladi. Bu esa mustaqil ekspertlarning loyihalarini baholash bo'yicha fikrlarini korrelatsiyalashni nihoyatda qiyinlashtiradi;

4. Innovatsion loyihalar ko'p mezonliligi va yuqori darajali mavhumliligi bilangina farq qilmasdan, balki sifatli baholash bo'yicha ham farqlanadi.

Innovatsion loyihalarni ishlab chiqishda zamonaviy innovatsion loyihalar, odatda, katta investitsiyalarni talab qilishini, ular esa doim ham bo'lavermasligini hisobga olish zarur. Shuning uchun investitsiyalar haqidagi masala ancha qiyin hal etiladigan muammodir, chunki mazkur loyihaning zarurligini, foydaliligini va samaraliligini isbotlash kerak bo'ladi. Bu holatda asosiysi moliyalashtirish manbaini tanlash, uning

hajmini, vaqt bo'yicha to'lovlar darajasi va hokazodir. Bu holatda investor o'ziga loyihaning mohiyatini tushuntirib berish, hamkorlik qanday afzallik berishini, va eng asosiysi, ular oladigan eng minimal va eng yuqori foyda miqdorini namoyish qilish talab etiladi. Ushbu ko'rsatkichlarning hammasini investorlarni kapital ajratishga ishonitirish uchun tegishli tarzda rasmiylashtirish kerak.

Innovatsion loyiha tushunchasi 2 xil ma'noda (ishlatiladi) qo'llaniladi:

-qo'yilgan maqsadlarga erishishni ta'minlovchi u yoki bu xarajatlarni amalga oshirishni nazarda (ko'zda) tutuvchi ish, faoliyat, tadbir sifatida:

- u yoki bu xarjni amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan tashkiliy huquqiy va hisob moliyaviy hujjatlarning tizimini sifatidir.

Loyihani yaratish va amalga oshirish quyidagi pog'onalarni o'z ichiga oladi:

- innovatsion g'oya (fikir) ning shakllanishi ;
- innovatsion imkoniyatlarning tadqiqoti ;
- loyihani texnik iqtisodiy asoslash (TIA) ;
- kontrakt (shartnoma) hujjatlarni tayyorlash;
- loyiha hujjatlarni tayyorlash ;
- qurilish montaj ishlari (KMA);
- obyektning ekspluatatsiyasi.

Innovatsion soya (fikir) ning shakllanishi - pog'onasi deganda harakatlarning o'ylangan rejasi tushuniladi.

Birinchi pog'onada avvalambor, investitsiyalarning subyektlari va obyektlari va ularning shakllari va soya yaratuvchisining maqsadiga muvofiq manbalari aniqlanadi.

Investitsiyalarning subyekti bo'lib, tijorat korxonalari va investitsiyalardan foydalanadigan xo'jalik yuritishning boshqa subyektlar hisoblanadi.


Investitsiyalarning obyektiga quyidagilar kiradi:

- yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish va xizmatlarni bajarish uchun mo'ljallangan quriladigan, qayta quriladigan yoki kengaytiriladigan binolar, inshootlar, (asosiy fondlar)

-bir maqsadni (dasturni) bajarishga qaratilgan quriladigan yoki qayta quriladigan obyektlar majmui.

Innovatsion loyiha yetarlicha batafsil tuzilishi kerak, chunki bo'lajak investor loyiha bilan tanishganda mo'ljallanayotgan dastur

haqida to'liq tasavvurga ega bo'lishi va uning maqsadlarini tushunishi lozim. Innovatsion loyihani qay darajada detallashtirish va uning tarkibi bo'lajak dastur va u tegishli soha hajmlariga bog'liq. Masalan, qandaydir mahsulotni ishlab chiqarish yoki innovatsion texnologiyani joriy etishni yo'lga qo'yish ko'zda tutilayotgan bo'lsa, juda batafsil reja ishlab chiqilishi lozim, uning qanchalik batafsilligi innovatsion dasturning yakuniy mahsuloti murakkabligiga va mazkur mahsulot bozorining murakkabligiga bog'liq.



22.2. Innovatsion loyiha turlari va uning mazmuni

Innovatsion loyihalar g'oyalar, fikrlar va texnik yechimlarning ilmiy-texnik ahamiyati darajasi bo'yicha quyidagi tarzda tasniflanadi:

1) modernizatsion loyihalar, bunda namuna konstruksiyasi yoki asosiy texnologiya tub o'zgaraydi;

2) novator loyihalar, bunda yangi buyum konstruksiyasi turiga va elementlari xossalari qarang oldingisidan jiddiy farq qiladi (yangi xossalarni qo'shish, masalan, ushbu turdagi buyumlarda ilgari qo'llanilmagan avtomatlashtirish vositalarini, lekin boshqa turdagi buyumlarda qo'llangan kiritish);

3) ilgarilab boruvchi, bunda konstruksiya ilgarilab boruvchi yechimlarga asoslanadi;

4) pioner loyihalar, ilgari mavjud bo'lmagan materiallar paydo bo'lganda;

5) oldingi va hattoki yangi funksiyalarni bajaradigan konstruksiyalar va texnologiyalar.

Loyihaning ahamiyat darajasi uning murakkabligi, davomiyligi, ijrochilar tarkibi, ko'lami, natijalarni ilgari surish xususiyati bilan belgilanadi, bu loyihani boshqarish mazmuniga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Hal etilayotgan masalalar ko'lamlariga qarab innovatsion loyihalar quyidagilarga ajratiladi:

1) monoloyihalar – odatda, bitta tashkilot yoki hattoki bitta bo'linma tomonidan bajariladigan loyihalar. Ular bitta innovatsion maqsad qo'yilishi (aniq buyumni, texnologiyani yaratish) bilan farq qiladi, qat'iy vaqt va moliya doirasida amalga oshiriladi, unda loyiha muvofiqlashtiruvchisi yoki rahbari talab etiladi;

2) multiloyihalar – o'nlab monoloyihalarni birlashtiruvchi kompleks dasturlar ko'rinishida taqdim etiladigan, murakkab innovatsion maqsadga erishishga qaratilgan loyihalar, bunday maqsadga, masalan, ilmiy-texnik majmuani barpo etish, yirik texnologik muammoni hal qilish, harbiy-sanoat majmuasining bitta yoki bir guruh korxonalarini konversiyalash kabilar kiradi. Multiloyihani yaratish uchun muvofiqlashtiruvchi bo'lishi joiz;

3) megaloyihalar – bir qator multiloyihalarni va yuzlab monoloyihalarni birlashtiruvchi, o'zaro bitta maqsadlar shajarasi bilan bog'langan ko'p maqsadli kompleks dasturlar bo'lib, markazlashtirilgan moliyalashtirishni hamda muvofiqlashtirish markazidan boshqarilishini talab qiladi.

Megaloyihalar asosida tarmoqni texnik qayta qurollantirish, mintaqaviy va federal konversiya hamda ekologiya muammolarini hal etish, mahalliy mahsulotlar va texnologiyalar raqobatbardoshligini oshirish kabi innovatsion maqsadlarga erishish mumkin.

Megaloyihalarni shakllantirish va amalga oshirish bir qator tarmoqlar, mintaqalar, moliya-sanoat guruhleri va yirik korporatsiyalar, mamlakatlar guruhleri sa'y-harakatlarini birlashtirishni talab etishi mumkin.

Bajarilayotgan ishlar hajmlari va davomiyligiga qarab loyihalar:

- qisqa muddatli (1 yilgacha);
- o'rta muddatli (5 yilgacha);
- uzoq muddatli (5 yildan ortiq) bo'lishi mumkin.

Loyiha bosqichlari va pog'onalari tarkibi uning tarmoq va funksional mansubligiga qarab belgilanadi.

22.3. Innovatsion loyihalarni rejalashtirish va ishlab chiqish tartibi

Innovatsion loyihaning tarkibi, shuningdek, taxminlanayotgan sotuv bozori ko'lamiga, raqobatchilarning bor-yo'qligiga va dastur natijalaridan foydalanish istiqbollariga bog'liq.

Innovatsion loyihaning asosiy bo'limlari quyidagilar (variant):

1. Umumiy obzor (taklif etilayotgan innovatsion loyihaning maqsadi va mohiyati, taklif etilayotgan innovatsiyaning turi, loyihani amalga oshirishdan kutilayotgan haqiqiy foyda hamda loyihani amalga oshirishga sarflanadigan xarajatlar miqdori va turlari).

2. Tovarlar yoki xizmatlar tavsifi (taklif etilayotgan tovarlar va xizmatlar bayoni, ulardan foydalanish sohasi, yangiligi va patent bilan himoyalanganligi, dizaynning o'ziga xosligi, tovarlar va xizmatlarning asosiy texnik-iqtisodiy va iste'mol tavsiflari, ularning rasmdagi tasviri, tovarlar va xizmatlar afzalliklari, sertifikatlash va h.k.).

3. Tovarlar va xizmatlarni sotish bozorlari (sotuv bozori turi, istiqbolli bozorlar, ularning joylashuvi va tavsifi, bu bozorlarda firmaning bashoratlanayotgan ulushlari, salohiyatli iste'molchilar tavsifi, yangi tovarlar va xizmatlarga talabni belgilovchi omillar, sotuvlarning salohiyatli hajmlari va hokazolar).

4. Tovarlar va xizmatlar raqobatbardoshligi (raqobatchi firmalarning qisqacha tavsifi, yangi tovar yoki xizmatning raqobatchi firmadagi o'xshash tovar yoki xizmatga nisbatan raqobat afzalliklari, firma tovarlar va xizmatlar raqobatbardoshligini himoya qilish uchun qo'llaydigan raqobat strategiyalari va hokazolar).

5. Marketing rejasi (amalga oshirilayotgan loyihaning marketing maqsadlari va strategiyasi, loyihani amalga oshirish natijasida firma taklif qiladigan tovarlar va xizmatlarni ilgari surish hamda sotish strategiyasi, tovar yoki xizmatni sotishni rag'batlantirish usullari, mijozlarga sotishdan keyin xizmat ko'rsatishni tashkil qilish, taklif etiladigan tovarlar yoki xizmatlar haqida ijtimoiy fikrni shakllantirish, marketing budjeti va h.k.).

6. Ishlab chiqarish rejasi (yangi tovarlar ishlab chiqarishni bozorga, ta'minotchilarga, ishchi kuchiga, transport yo'llari va h.k.larga nisbatan joylashuvi, ishlab chiqarish maydonlari, quvvatlari va ularni kengaytirish imkoniyatlari, moddiy-texnik, insoniy va boshqa resurslar manbalari va ularga ehtiyoj, ulardan foydalanish imkoni, ishlab chiqarishni kooperatsiyalash imkoniyatlari, ishlab chiqarish hajmlari va xarajatlari, qo'llanilayotgan texnologiyalar, ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va tovarni ishlab chiqarishni kengaytirish muddatlari, ishlab chiqarishning ekologikligi va h.k.).

7. Tashkiliy reja (tashkiliy tuzilma, xodimlarga, mutaxassislarga bo'lgan ehtiyoj, ularni mehnatga jalb qilish shakllari, kasblar bo'yicha ish haqining zaruriy darajasi, mehnatni rag'batlantirish tizimi, xodimlarni kasbiy tayyorlash, malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimi, loyihani amalga oshirishga boshchilik qilayotgan ma'muriy-boshqaruv xodimlar haqidagi ma'lumotlar va h.k.).

8. Loyihaning yuridik ta'minoti (firmaning tashkil qilingan va ro'yxatdan o'tkazilgan sanasi, kim tomonidan va qayerda ro'yxatga olingan, yuridik manzili, faoliyati turi va amalga oshirilayotgan operatsiyalar xarakteri, mulkchilik shakli, kapital mansubligi, firmaning nufuzli aksiyadorlari, paychilari, mazkur faoliyat turi uchun litsenziya, mazkur faoliyat turlari bo'yicha boshqa tashkilotlar bilan shartnomalar va kelishuvlar).

9. Iqtisodiy tavakkalchilik. Sug'urtalash (tavakkalliklar guruhlari ro'yxati, ular manbalari va vujudga kelishi ehtimoli yuqori bo'lgan davrlar, loyihaning iqtisodiy qaltisligiga baho berish, tavakkalliklardan sug'urtalash dasturi, sug'urta polislar nusxalari va h.k.).

10. Moliyalashtirish strategiyasi (loyihani amalga oshirish uchun moliyaviy mablag'lar va ularning manbalari, kredit va aksiyadorlik kapitali ko'rinishidagi mablag'lar ulushi, kredit olish shartlari, moliyaviy mablag'larni kiritishning iqtisodiy rentabelligi, loyihaga kiritilgan

mablag'larni qaytarish muddatlari, kutilmagan xarajatlarni qoplashga mo'ljallangan moliyaviy mablag'lar zaxirasi va h.k.);

11. Moliyaviy reja (loyihani amalga oshirish natijasidagi tovarlar va xizmatlarni sotish hajmlari, loyihani amalga oshirish uchun yillar bo'yicha kapital xarajatlari va ular qamraydigan xususiy mablag'lari, uzoq muddatli va qisqa muddatli kreditlar, tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish hamda sotish bo'yicha joriy daromadlar va xarajatlar balansi va h.k.). Keyin ilovalar (dastlabki ma'lumotlar olingan hujjatlar, shartnomalar, litsenziyalar va h.k. nusxalari) keladi va xulosa beriladi.

Ta'kidlash joizki, innovatsion loyihalarni tahlil qilish va tanlash turli texnik yechimlar hamda moliyaviy-iqtisodiy omillarni hisobga olib yangilik hayotiy siklining barcha bosqichlarida xarajatlarni bashoratlash imkonini beradigan usullar va uslublar jamlanmasi asosida olib boriladi. Har qanday loyiha (dastur) quyidagi holatlardan ko'rilishi mumkin:

a) texnik, bunda texnik-texnologik alternativlar; dasturning miqdori (ko'lam, hajmi); uni amalga oshirish muddatlari, moliyaviy, mehnat va moddiy-texnik manbalarning ochiqligi va yetarliligi; dastur natijalarini amalga oshirish uchun bozor sig'imi; kutilmagan omillarni hisobga olgan holda dasturga sarf-xarajatlar; dastur bo'yicha ishlarni bajarish jadvali o'rganiladi va tahlil qilinadi;

b) kommertiya, u marketingni, resurslar manbalari va ularni olish shartlari, dastur bo'yicha ishlarni bajarish shartlari va natijalarni amalga oshirishni tahlil qilishni ko'zda tutadi;

v) ekologik, u loyihani tahlil qilishda alohida o'ringa ega, chunki inson faoliyati bilan atrof-muhit o'rtasidagi o'zaro aloqalar yetarlicha o'rganilmagan. Innovatsion loyihani ekologik tahlil qilish vazifasi – atrof-muhitga yetkazilishi mumkin bo'lgan zararni aniqlash va uni kamaytirish yoki oldini olish choralarini belgilash;

g) tashkiliy tahlil, uning maqsadi – loyihani amalga oshirish doirasida tashkiliy, huquqiy va ma'muriy vaziyatga baho berish hamda ushbu faoliyat sohasida zarur tavsiyalarni ishlab chiqish.

Innovatsion loyiha portfelini shakllantirish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi:

1. Innovatsion loyihalarni dastlabki tanlash. Bosqichning maqsadi – taqdim etilgan innovatsion loyihalarni umumlashtirilgan tahlildan o'tkazish va baholash. Ushbu bosqich quyidagi odimlarni o'z ichiga oladi:

a) innovatsiyalarni amalga oshirishning tashkilotning asosiy muammolari yechimini taklif eta oladigan asosiy yo'nalishlarini belgilash;

b) ajratib olingan yo'nalishlar bo'yicha ekspertizalar olib borish uchun loyihalarni taqsimlash;

v) ekspertizaning ishchi usulini ishlab chiqish;

g) ekspert guruhlar ishini tashkil qilish (NIO yoki marketing bo'limi boshqa bo'linmalardan mutaxassislarni jalb etgan holda);

d) hisob-kitoblar va ekspertizalar natijalari bo'yicha loyihalarga dastlabki baho berish;

e) istiqboli yo'q loyihalarni chiqarib tashlash. Mazkur bosqichda loyiha bitta eng muhim mezon (masalan, iqtisodiy samaradorlik mezoni) bo'yicha tanlanadi, bunda baholash parametri past bo'lgan loyihalarni chiqarib tashlashdan iborat oddiy qoidadan foydalaniladi.

2. Ustuvor (boshlang'ich) yo'nalishlar bo'yicha portfelni shakllantirish. Bosqichning maqsadi – loyihalarni ustuvorliklar bo'yicha puxta tahlil qilish va taqsimlash. Bu yerda quyidagi qadamlar ko'zda tutiladi:

a) innovatsion loyihalarni bir nechta mezonlar (3 – 5 ta) bo'yicha tahlil qilish;

b) loyihalarning ustuvorlik darajasini aniqlash;

v) loyihalarni ustuvorlik darajalari bo'yicha taqsimlash. Barcha loyihalar tegishli shkala bo'yicha, masalan, "past", "o'rtadan past", "o'rtadan yuqori", "yuqori" baho bilan baholanadi.

22.4. Innovatsion loyihalarni boshqarish va amalga oshirishning dasturli-maqsadli usullari

Innovatsion faoliyatni boshqarish mexanizmi u yoki bu subyektning innovatsion rivojlanish maqsadi yo'nalishidan kelib chiqib, o'zida turli usul va vositalar yig'indisini mujassamlashtiradi.

Innovatsion sohadagi boshqaruv qarorlarining natijaviy tayyor mahsulotga aylanishini ta'minlovchi samarali mexanizmni ishlab chiqish milliy korxonalarimizning bugungi kundagi dolzarb masalalaridan biridir. Ayni paytda mazkur mexanizmning muhim tarkibiy qismi hisoblangan innovatsion faoliyatni tashkil etishning metodik asoslarini shakllantirmay turib, masalani hal etish mumkin emas. Aslida

innovatsion sohaga tegishli tushunchalar hali to'la shakllantirilmagan. Shuning uchun innovatsion faoliyatning tabiati va mazmun-mohiyatiga turlicha qarashlar mavjud bo'lgan bir paytda xo'jalik subyektlari mavjud imkoniyat va cheklanishlarni hisobga olgan holda, ushbu sohada samaraliroq siyosat ishlab chiqishga imkon beruvchi aniq takliflarga ehtiyoj sezadilar. Shu nuqtayi nazardan, innovatsion faoliyat metodikasini ishlab chiqish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Innovatsion faoliyatni tashkil etishning taklif etilayotgan metodikasi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- maqsadlilik;
- tizimlilik;
- tashkil etuvchi barcha tarkibiy qismlarning konseptual birligi.

Mazkur metodikani ishlab chiqishning asosiy maqsadi sanoat korxonalari innovatsion faoliyatini tashkil etish bo'yicha ma'lum dastur yaratish hisoblanadi. Qo'yilgan maqsaddan kelib chiquvchi vazifalar quyidagilardan iborat:

- korxonada innovatsion faoliyatni tashkil etish ishlarining mazmuni va mantiqiy izchilligini ta'minlash;

- innovatsiyalarning yaratilishi va tarqalishi bo'yicha korxonaning barcha bo'g'inlari hamda xizmat bo'limlari faoliyatining muvofiqligini ta'minlovchi mos tashkiliy tuzilmani ishlab chiqish;

- innovatsion faoliyatning muayyan jihatlari bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish;

- korxonada innovatsion faoliyatning maqsadlilik va tizimlilikini ta'minlash;

- korxonada innovatsion faoliyatni ilmiy asosda tashkil etish.

Ushbu metodika quyidagi asosiy tarkibiy qismlardan tashkil topadi:

1. Innovatsiya tushunchasini hamda innovatsion faoliyatning mazmunini aniqlashtirib olish. Ta'kidlab o'tganimizdek, hozirgi paytda "innovatsiya" tushunchasini aniqlab beruvchi, shu jumladan, dunyo mamlakatlari qonunchiligida turli xildagi izohlar mavjud. Xususan, Rossiya Federatsiyasining innovatsiyalar to'g'risidagi qonunida innovatsiya amaldagi qonunchilikka ko'ra intellektual mulk sifatida tan olingan, ilmiy, ilmiy-tadqiqot yoki ilmiy-texnik faoliyat natijasi sifatida tavsiflangan. Masalan, Rossiya Federatsiyasining amaldagi rasmiy statistikasi innovatsiyaga "innovatsiya bu – innovatsion faoliyatning pirovard natijasi sifatida bozorga chiqarilgan yangi yoki mukammallashtirilgan mahsulot yoki xizmatlar hamda amaliyotda

foydalanishga joriy etilgan yangi yoki mukammallashtirilgan texnologik jarayon yoki ishlab chiqarish (xizmat) usullaridir”, deya ta’rif berilgan. Innovatsiya faqatgina bozorga chiqarilganda yoki ishlab chiqarish jarayoniga qabul qilingandagina namoyon bo’ladi. O‘z-o‘zidan ma’lum bo’ladiki, korxonaning innovatsion faoliyati rasmiy statistikada qayd etilishi bilangina amalga oshgan hisoblanmaydi. Tashkiliy-boshqaruv sohasida (aynan marketing sohasida) innovatsiyalarsiz korxonaning samarali innovatsion rivojlanishini ta’minlab bo’lmaydi.

Boshqarish metodologiyasiga bu kabi yondashuv innovatsion faoliyatning yaxlit tashkiliy tuzilishini shakllantirish imkonini yaratadi.

2. Korxonada innovatsion faoliyatning tashkiliy tuzilishini ishlab chiqish. Innovatsion faoliyat tanlab olingandan keyin uning, maqsadli yo‘nalishi innovatsion vazifalarning tuzilishini aniqlab beradi. Bunda korxonaning hajmi, o‘ziga xos xususiyatlari, ishlab chiqarayotgan mahsulotining hajmi va nomenklaturasi kabi turli omillar yuqori ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun, innovatsion faoliyatni boshqarish har bir turdagi korxonaga uchun alohida xarakterga ega. Bunda e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan umumiy jihat shundan iboratki, u butun tashkiliy tuzilmaga uzviy bog‘liq bo‘lishi lozim. Bundan tashqari, turlicha darajalarda boshqaruv qarorlarini shakllantiruvchi turli bo‘g‘inlar faoliyatini muvofiqligini ta’minlashi ham zaruriy shartlardan hisoblanadi. Chunki, alohida mahsulot turi bo‘yicha ham, butunligicha barcha yo‘nalishlar bo‘yicha ham innovatsion loyiha va dasturlarni amalga oshirish korxonaga uchun bir xil darajada muhim ahamiyatlidir.

3. Innovatsion strategiyani ishlab chiqish. Korxonaning innovatsion strategiyasi agressivlik (hujumkorlik) darajasiga ko‘ra turlicha farqlanishi yoki o‘zida mudofaa xususiyatini ham kasb etishi mumkin. Strategik menejmentda agressivlik tushunchasi korxonaning o‘z texnologiyasi, mahsulotlari turlari va marketing strategiyasiga o‘zgarish kiritishining tezligi va radikalligi darajasini aks ettiradi. Innovatsion menejmentga mos holda ta’kidlab o‘tish joizki, innovatsion strategiyaning agressivligi, birinchi o‘rinda, ishlab chiqilgan va joriy etilayotgan yangilikning radikallik darajasiga bog‘liq. Korxonaning innovatsion agressivligini belgilashda innovatsiyalarni yaratish chastotasi, joriy etish tezligi, innovatsion-investitsion faoliyatni moliyalashtirish ko‘lami kengligi va innovatsiyaning bozor marketingining intensivligi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

4. Innovatsion faoliyat samaradorligini baholash va tahlil qilish metodikasi. Innovatsion faoliyat tahlili quyidagi yo'nalishlarni o'z ichida mujassamlashtirishi zarur:

- korxonaning o'z bo'sh pul mablag'lari va umumiy moliyaviy holati tahlili;
- innovatsion loyihalar uchun xarajatlar tahlili;
- ko'rib chiqilayotgan, joriy etishga qabul qilingan, joriy etilayotgan, joriy etilgan va rad etilgan loyihalarning tuzilmaviy tahlili;
- innovatsion loyihalarni joriy etish va ularning samaradorligini baholashni hisobga olish tizimini tadqiq etish;
- joriy etilgan innovatsion loyihalarning korxonaning butun xo'jalik faoliyati natijalariga ta'sirini baholash;
- korxonaning moddiy resurslari va kadrlar bazasi salohiyatining innovatsion faoliyatni amalga oshirishga tayyorligi tahlili;
- innovatsion faoliyatni amalga oshirish samaradorligining integral ko'rsatkichlari;
- korxonaning innovatsion rivojlanishiga tashqi muhit ta'sirining tahlili.

5. Innovatsiyalar marketingi metodikasi. Marketing faoliyati o'zida bozorni kompleks tadqiq qilish, innovatsiyalarni yaratishni rejalashtirish, ularning raqobatbardoshligi, narx siyosati, siljitish, sotuvini tashkil etish hamda servis xizmat ko'rsatishni tezlashtirishni nazarda tutadi. Mos ravishda, ko'rsatib o'tilgan barcha yo'nalishlar bo'yicha alohida metodikalar ishlab chiqilishi mumkin.

Tayanch iboralar

Innovatsion loyiha, innovatsion dastur, innovatsion g'oya, modernizatsion loyiha, navotor loyiha, pioner loyiha, marketing rejasi, tashkiliy reja, iqtisodiy tavakkalchilik, moliyalashtirish strategiyasi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Innovatsion loyiha" tushunchasiga ta'rif bering.
2. "Innovatsion loyiha" va "innovatsion dastur" tushunchalari o'rtasida qanday farqli xususiyatlar mavjud?
3. Innovatsion loyihalarning qanday turlari mavjud?
4. Ilmiy-texnik innovatsion loyihalarning o'ziga xos xususiyatlari nimadan iborat?

5. Bajarilayotgan ishlar hajmlari va davomiyligiga qarab innovatsion loyihalar qanday turlarga bo'linadi?

6. Innovatsion loyihalarni shakllantirishning marketing rejasida qanday vazifalar belgilab beriladi?

7. Korxonalarda innovatsion loyiha portfelini shakllantirish bosqichlari.

8. Innovatsion loyihalarni boshqarish va amalga oshirishning dasturli-maqсадli usullarida maqsadlilik, tizimlilik, tashkil etuvchi barcha tarkibiy qismlarning konseptual birligi tamoyillarini izohlab bering.

XXIII BOB. ILMIY-TADQIQOT VA TAJRIBA-KONSTRUKTORLIK ISHLARINI TASHKIL ETISH

Mazkur bobda ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini tashkil etish tamoyillari va vazifalari, ixtiroga bo'lgan huquqni rasmiylashtirish tartibi, innovatsion loyihalarni patentlashtirish va litsenziyalash tartibi, innovatsion loyihalar ekspertizasi va uni olib borish usullari to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

23.1. Ilmiy-tadqiqot tajriba-konstruktorlik ishlari (ITTKI), vazifalari, tamoyillari va bosqichlari

Innovatsion markazlarda ilmiy tadqiqot tajriba konstruktorlik ishlarini tashkil etishga alohida ahamiyat beriladi.

Ilmiy – tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlari (ITTKI)ning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- tabiat va jamiyatni rivojlanishi sohasida yangi bilimlar olish, ularni qo'llashning yangi sohalari;

- ishlab chiqarish sohasidagi materiallashtirishning tashkilot tovarlari raqobatbardoshligi me'yorlarining strategik marketingi bosqichida ishlab chiqilgan imkoniyatlarini nazariy va tajribaviy tekshirish;

- yangiliklar va innovatsiyalar portfelini amalda bajarish.

Sanab o'tilgan vazifalarni amalga oshirish resurslardan foydalanishning samaradorligi, tashkilotlarning raqobatbardoshligi, aholining turmush darajasini oshirishga imkon beradi.

ITTKIning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. Har qanday muammolarni hal qilish ratsional boshqaruv qarorlarini qabul qilishda menejmentning avvalroq ko'rib chiqilgan ilmiy yondashishlari, tamoyillari, vazifalari, usullarini bajarilishi. Ilmiy menejmentning qo'llaniladigan tarkibiy qismlarining miqdori boshqaruv obyektining murakkabligi, qiymati va boshqa omillar bilan belgilanadi.

2. Innovatsion faoliyatni kishilik kapitalni rivojlanishiga qaratish

Ishlab chiqishlar yangi materiallar, mahsulotlar yoki qurilmalarni yaratish, yangi jarayonlar, tizimlar va xizmatlarni tatbiq etish yoki ishlab chiqarilayotgan va amalga kiritilganlarni ancha takomillashtirishga qaratilganlar. Ularga quyidagilar kiradi:

a) muhandislik obyekti yoki texnik tizimning belgilangan konstruksiyasini ishlab chiqish (konstruktorlik ishlari);

b) g'oyalari va yangi obyektiv variantlarini, shu jumladan notexnikni, chizma yoki, belgili vositalar tizim darajasida ishlab chiqish (loyiha ishlari);

v) texnologik jarayonlarni, ya'ni fizik, kimyoviy, texnologik va boshqa jarayonlarni belgilangan foydali natijani ishlab chiqaruvchi mehnatning yaxlit tizimi bilan birlashtiruvchi usullarni ishlab chiqish (texnologik ishlar).

Ishlab chiqishlar tarkibiga statistika yana quyidagilarni kiritadi:

-tajribaviy namunalar (yaratilayotgan yangiliklarning prinsiplial xususiyatlariga ega noyob modellar)ni yaratish;

-Ularni texnik va boshqa ma'lumotlar olish uchun zarur vaqt davomida sinovdan o'tkazish va tajriba to'plash, u keyinchalik yangiliklarni qo'llash bo'yicha texnik hujjatlarda o'z aksini topishi kerak;

-qurilish uchun loyiha ishlarining belgilangan turlari, ular oldingi tadqiqotlarning natijalaridan foydalanishni ko'zda tutadilar.

Tajriba, eksperimental ishlar ilmiy tadqiqotlar natijalarini tajribali tekshirish bilan bog'liq ishlab chiqishlar turlaridir. Tajriba ishlari yangi mahsulotlarning tajribali namunalarini tayyorlash va o'rganib olish, yangi (takomillashtirilgan) texnologik jarayonlarni o'rganib olish maqsadiga ega. Eksperimental ishlar ITTKI o'tkazish uchun zarur maxsus (nostandart) uskunalari, apparatlar, asboblari, qurilmalar, stendlar, matnlarni tayyorlash, ta'mirlash va ularga xizmat ko'rsatishga qaratilganlar.

Fanning tajriba bazasi – tajriba, eksperimental ishlarni bajaruvchi tajribali ishlab chiqarishlar (zavod, sex, ustaxona, tajriba eksperimental bo'linma, tajriba stansiyasi va h.k) majmuasidir. Shunday qilib, TKIning maqsadi yangi texnika namunalarini yaratish (modernizatsiyalash)dan iborat, ular tegishli sinovlardan keyin seriyali ishlab chiqarishga yoki bevosita iste'molchiga topshirishlari mumkin. TKI bosqichida texnik tadqiqotlar natijalarining yakuniy tekshirilishi o'tkaziladi, tegishli texnik hujjatlar ishlab chiqiladi, yangi texnikaning namunalarini tayyorlanadi va

sinovdan o'tkaziladi. Iсталgan natijalarni olish ehtimoli ITI dan TKI sari oshib boradi.

Yangi mahsulotni sanoat ishlab chiqarishni o'zlashtirilishi ITTKI ning yakunlovchi bosqichi bo'ladi.

ITTKI natijalarini tatbiq etishning quyidagi darajalari (sohalari) ni ko'rib chiqish kerak:

1. ITI natijalaridan yakunlangan ITI ning rivojlanishi bo'lgan yoki fan va texnikaning boshqa muammolari va yo'nalishlari doirasida bajarilayotgan boshqa ilmiy tadqiqotlar va ishlab chiqishlarda foydalanish.

2. ITTKI natijalaridan eksperimental namunalar va laboratoriya jarayonlarida foydalanish.

3. TKI va eksperimental ishlar natijalarini tajribali ishlab chiqarishda o'zlashtirish.

4. ITTKI va tajribali namunalar sinovlari natijalarini seriyali ishlab chiqarishda o'zlashtirish.

5. Texnik yangiliklarni ishlab chiqarishga keng ko'lamda tarqatish va bozor (iste'molchilar)ni tayyor mahsulotlar bilan to'ldirish.

ITTKI ini tashkil qilish hujjatlarning quyidagi sohalararo tizimlariga asoslanadi:

- Davlat standartlashtirish tizimi (DST);
- Konstruktorlik hujjatlarining yagona tizimi (KHYaT);
- Texnologik hujjatlarning yagona tizimi (THYaT);
- Ishlab chiqarishni texnologik tayyorlashning yagona tizimi (IChTTYaT);
- Mahsulotni ishlab chiqish va ishlab chiqarishga qiyin tizimi;
- Davlat mahsulotlar sifati tizimi;
- Davlat -Texnikadagi ishonchlilik tizimi;
- Standartlar va mehnat xavfsizligi tizimi (SMXT) va boshqalar.

23.2. Ixtiroga bo'lgan huquqni rasmiylashtirish

Ixtiro patentining amal qilish qonun xujjatlarida nazarda tutilgan holatlarda patent egasining iltimosnomasiga binoan Patent idorasi tomonidan ko'pi bilan 5 yil muddatga uzaytirilishi mumkin. Bunday ixtiro patentining amal qilishini uzaytirish tartibi Patent idorasi tomonidan belgilanadi.

Sanoat namunasi patentining va foydali model patentining amal qilish muddati patent egasining iltimosiga binoan Patent idorasi tomonidan tegishli 5 yilga hamda 3 yilga uzaytirilishi mumkin. Ixtiro hamda foydali model patenti ta'minlaydigan huquqiy muhofaza hajmi ularning formulasi bilan, sanoat namunasi patenti ta'minlaydigan xuquqiy muhofaza hajmi esa buyumning (maket, rasmning) tasvirida aks ettirilgan muhim belgilari va (yoki) ularning kombinatsiyasi (bundan buyon matnda uning muhim belgilari majmui deb yuritiladi) bilan belgilanadi. Sanoat mulki obyektga patenti, shuningdek uni olish huquqi meros bo'lib o'tadi. Davlat tomonidan mahfiy deb tan olingan sanoat mulki obyektining huquqiy muhofazasi alohida qonunchilik bilan tartibga solinadi. Ixtiro sifatida ko'rsatilgan obyekt yangi, ixtirochilik darajasiga ega va uni sanoatda qo'llash mumkin bo'lsa, huquqiy jihatdan muhofaza qilinadi. Ixtiro, texnika taraqqiyoti darajasidan ma'lum bo'lmasa, yangi deb hisoblanadi.

Patent idorasi intellektual mulk obyektlariga talabnomalarni ko'rib chiqish uchun qabul qiladi va davlat ekspertizasini o'tkazadi. Davlat ekspertizasini o'tkazish ko'p bosqichli jarayon bo'lib, unda talabnoma berilgan obyektning belgilangan talablarga muvofiqligi tekshiriladi. Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalariga patent, dastlabki patent olish uchun berilgan talabnomalar bo'yicha davlat ilmiy-texnika ekspertisasi o'tkaziladi, u rasmiy, dastlabki va mohiyati bo'yicha ekspertizaga bo'linadi. Ixtiro, sanoat namunalariga dastlabki patentlar, shuningdek foydali modelga patent dastlabki ekspertiza o'tkazilgandan so'ng, ixtiro va sanoat namunalariga patentlar esa mohiyati bo'yicha ekspertiza o'tkazilgandan so'ng beriladi. Mohiyati bo'yicha ekspertiza talabnoma beruvchining iltimosnomasiga ko'ra o'tkaziladi, bunday iltimosnoma patent olish uchun talabnoma berilgan sanadan boshlab 12 oy mobaynida berilishi mumkin.

Mohiyati bo'yicha ekspertiza o'tkazish to'g'risidagi iltimosnoma talabnoma beruvchi yoki boshqa shaxs tomonidan dastlabki patent olish uchun talabnoma berilgan sanadan boshlab istalgan vaqtda, lekin dastlabki patentning amal qilish muddati tugamasidan oldin berilishi mumkin. Rasmiy ekspertiza vaqtida birinchi navbatda talabnomaning to'g'ri rasmiylashtirilganligi tekshiriladi. Masalan, talabnomaning to'liqligi (zarur xujjatlarning mavjudligi, talab etiladigan nusxalar soni va hokazo) tekshiriladi, oldindan noto'g'riligi ma'lum bo'lgan talabnomalar (masalan, sanoat namunasi taklif etiladi, lekin ixtiroga

patent berilishi so'raladi) ajratiladi, shuningdek boshqa rasmiy jihatlari (muallifning imzosi, talabnoma beruvchi korxonalar muhri va hokozalar mavjudligi) tekshiriladi. Rasmiy ekspertiza natijasida to'g'ri rasmiylashtirilgan talabnomaning berilgan sanasi bo'yicha obyektning ustuvorligi belgilanadi.

Ekspertizaning keyingi bosqichlari dastlabki ekspertiza (dastlabki patentlarga talabnomalar uchun) va mohiyati bo'yicha ekspertiza (patentga talabnomalar uchun)dir. Bu ekspertizalar vaqtida patent so'ralayotgan obyektning belgilangan patentga layoqatlilik mezonlariga mosligi tekshiriladi. Agar obyekt patentga layoqatlilik mezonlariga mos bo'lsa, u tegishli ixtiro, foydali model, sanoat namunasi deb tan olinadi. Qonunga muvofiq ko'rsatilgan obyektlar uchun quyidagi mezonlar belgilangan:

- ixtirolar uchun — uning yangiligi, ixtiro darajasi va sanoatda qo'llanilishi;

- foydali model uchun - uning yangiligi va sanoatda qo'llanilishi;

- sanoat namunasi uchun-uning yangiligi, o'ziga xosligi va sanoatda qo'llanilishi.

Patent ekspertizasi o'tkazish vaqtida foydalaniladigan eng muhim tushuncha texnika darajasi tushunchasidir. Texnika darajasi o'z ichiga ixtironing ustuvorlik sanasigacha jahonda barcha uchun ma'lum bo'lgan va barcha foydalanadigan ma'lumotlarni oladi. Dastlabki ekspertizaning mohiyat jihatidan ekspertizadan farqi eng avvalo shundaki, dastlabki ekspertiza vaqtida talabnoma berilgan obyektning (ixtiro, foydali model) mahalliy yangilik talablariga muvofiqligi tekshiriladi, ya'ni patent ekspertlari faqat O'zbekistondagi mavjud patent hujjatlarini tekshiradilar, mohiyat jihatidan ekspertizada esa obyektning jahon texnika darajasiga muvofiqligi tekshiriladi.

Dastlabki ekspertiza va mohiyat jihatidan ekspertiza o'tkazishning belgilangan me'yoriy muddatlari tegishli 3 oy va 2 yilni tashkil etadi. Talabnoma beruvchilar uchun bu Jarayonlarni tezlashtirish, «tezlashtirilgan ekspertiza» o'tkazish mumkin, buning uchun belgilangan patent bojarini to'lash zarur. Tovar belgisini berish: to'g'risidagi talabnomalar bo'yicha ekspertiza tovar belgisini dastlabki ekspertiza va talabnomada ifodalangan belgini ekspertizadan o'tkazishdan iborat. Dastlabki ekspertiza talabnoma Patent idorasiga kelib tushgan sanadan boshlab bir oylik muddat ichida, ifodalangan belgini ekspertiza esa dastlabki ekspertiza tugallan-gandan so'ng

talabnoma Patent idorasiga kelib tushgan sanadan boshlab o'n ikki oy mobaynida o'tkaziladi, bunda belgining tovar belgilarini ro'yxatga olish shartlariga muvofiqligi tekshiriladi.

Sanoat mulki obyektlarini ekspertizadan o'tkazish jarayonida ekspertlar talabnoma beruvchidan yetishmagan, talabnomaga aniqlik kirituvchi materiallarni so'rab olish va boshqa masalalarda murojaat qilish huquqiga egadirlar. Patent idorasi o'tkazilgan davlat ekspertizasi natijalari bo'yicha muhofaza hujjatlari - patent, dastlabki patent, guvohnoma berish to'g'risida qaror qabul qiladi yoki bunday hujjatlarni berishni rad qiladi.

Patent idorasi ma'lumotlar rasmiy ravishda chop etilgandan so'ng uch oy o'tgach patent egasiga (yoki tovar belgisi egasiga) muhofaza hujjati, tegishlicha patent, dastlabki patent yoki guvohnoma beradi. Patent, dastlabki patent yoki guvohnoma O'zbekiston Respublikasi nomidan beriladi va Patent idorasi rahbari tomonidan imzolanadi. Shuni qayd etib o'tish kerakki, hamma vaqt bitta obyektga faqat bitta muxofaza hujjati (patent, dastlabki patent yoki guvohnoma) beriladi. Agar patentning egasi bir nechta bo'lsa (masalan, ikki firma yoki ikki hammuallif) ular bitta patent oladilar. Bunda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizoli masalalarni, masalan, hujjatning asli va nusxalari kimda bo'lishini o'zaro kelishib oladilar yoki ular asl nusxani navbati bilan o'zlarida saqlashlari mumkin va hokazo.

O'zbekiston Respublikasining "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi Qonuni 06.05.1994-yilda qabul qilingan va mazkur qonunga 30.07.2008-da o'zgartirish kiritilgan. Ushbu Qonunning asosiy maqsadi O'zbekiston Respublikasidagi ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalarni huquqiy muhofaza qilish hamda ulardan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Sanoat mulki obyektlari to'g'risidagi qonun hujjatlari va boshqa hujjatlardan iborat. O'zbekiston Respublikasi Davlat patent idorasi sanoat mulki obyektlarini huquqiy muhofaza qilish sohasidagi davlat siyosatining amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Patent idorasi sanoat mulki obyektlariga patent berish haqidagi talabnomalarni ko'rib chiqish uchun qabul qiladi, ular bo'yicha davlat ekspertizasini o'tkazadi, ularni davlat ro'yxatiga oladi, sanoat mulki obyektlariga patentlar beradi, rasmiy axborotnoma nashr etadi, sanoat mulki obyektlari to'g'risidagi qonun hujjatlarining qo'llanilishiga doir qoidalar qabul qiladi va tushuntirishlar beradi hamda O'zbekiston

Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan. Patent idorasi to'g'risidagi nizomiga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Davlat budjeti mablag'lari, patent bojlari, shuningdek Patent idorasi tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar va taqdim etiladigan materiallar uchun to'lanadigan haq Patent idorasi faoliyatini moliyalashtirish manbalari hisoblanadi.

Patent idorasining Apellatsiya kengashi qarorlar qabul qilishda mustaqildir va o'z faoliyatida ushbu Qonun hamda boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

Apelyatsiya kengashi:

Patent idorasining talabnomada ko'rsatilgan sanoat mulki obyektlari xususidagi qarori ustidan;

- sanoat mulki obyektlariga patent berilganligiga qarshi manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan;

- sanoat mulki obyektlari patentlarining haqiqiylikiga qarshi berilgan apelyatsiyalarni ko'rib chiqadi.

Apellatsiya kengashi o'z vakolatlari doirasida apelatsiyalarning boshqa turlarini ham ko'rib chiqishi mumkin.

Apelatsiya kengashi to'g'risidagi nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Sanoat mulki obyektiga bo'lgan huquq muallifga (hammualliflarga) yoki uning (ularning) huquqiy vorisiga (huquqiy vorislariga) tegishli bo'ladi va patent bilan tasdiqlanadi.

Agar sanoat mulki obyektini bir nechta shaxs bir-biridan mustaqil ravishda yaratgan bo'lsa, patent olish huquqi patent berish haqidagi talabnomani Patent idorasiga birinchi bo'lib topshirgan shaxsga tegishli bo'ladi.

Muallif (hammualliflar), agar o'zi (o'zlari) yaratgan sanoat mulki obyektini boshqalar g'ayriqonuniy o'zlashtirib olishi natijasida bu obyektga talabnoma topshirilgan yoki patent olingan bo'lsa, patent berilganligiga qarshi e'tiroz bildirish yoxud patent egasi sifatida o'ziga (o'zlariga) patentning o'tkazilishini sud tartibida talab qilish huquqiga ega.

Sanoat mulki obyektining patenti davlat ekspertizasi o'tkazilganidan keyin beriladi.

Sanoat mulki obyektining patenti sanoat mulki obyektini ustuvorligini, unga mualliflikni va patent egasining sanoat mulki

obyektiga egalik qilish, undan foydalanish hamda uni tasarruf etishga doir mutlaq huquqini tasdiqlaydi.

Foydali model patenti foydali modelning yangiligini, uning haqiqiylikini va patent egasining foydali modelga egalik qilish, undan foydalanish hamda uni tasarruf etishga doir mutlaq huquqini tasdiqlaydi.

Sanoat namunasi patenti sanoat namunasining yangiligi va o'ziga xosligini, uning haqiqiylikini hamda patent egasining sanoat namunasiga egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etishga doir mutlaq huquqini tasdiqlaydi.

Sanoat mulki obyektini patentning to'la hajmdagi huquqiy muhofazasi yoki bu muhofazaning faqat bir qismi haqiqiy emasligini isbotlash vazifasi patentni haqiqiy emas deb da'vo qilayotgan taraf zimmasiga yuklanadi.

Patent egasining mutlaq huquqi sanoat mulki obyektini ro'yxatga olinganligi to'g'risidagi ma'lumotlar Patent idorasining rasmiy axborotnomasida e'lon qilingan sanadan e'tiboran amalda deb hisoblanadi.

Patent idorasiga patent berish haqidagi talabnoma topshirilgan sanadan e'tiboran hisoblaganda ixtiro patenti yigirma yil mobaynida, sanoat namunasi patenti o'n yil mobaynida, foydali model patenti besh yil mobaynida amal qiladi.

Ixtiro patentining amal qilishi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda patent egasining iltimosnomasiga binoan Patent idorasi tomonidan ko'pi bilan besh yil muddatga uzaytirilishi mumkin. Bunday ixtiro patentining amal qilishini uzaytirish tartibi Patent idorasi tomonidan belgilanadi.

Sanoat namunasi patentining va foydali model patentining amal qilish muddati patent egasining iltimosnomasiga binoan Patent idorasi tomonidan tegishincha besh yilga hamda uch yilga uzaytirilishi mumkin.

Ixtiro hamda foydali model patenti ta'minlaydigan huquqiy muhofaza hajmi ularning formulasi bilan, sanoat namunasi patenti ta'minlaydigan huquqiy muhofaza hajmi esa buyumning (maketning, rasmning) tasvirida aks ettirilgan muhim belgilari va (yoki) ularning kombinatsiyasi (bundan buyon matnda uning muhim belgilari majmui deb yuritiladi) bilan belgilanadi.

Sanoat mulki obyektini patenti, shuningdek uni olish huquqi meros bo'lib o'tadi.

Agar ixtiro sifatida ko'rsatilgan obyekt yangi, ixtirolik darajasiga ega va uni sanoatda qo'llash mumkin bo'lsa, u huquqiy muhofaza qilinadi.

Agar ixtiro texnika taraqqiyoti darajasidan ma'lum bo'lmasa, u yangi deb hisoblanadi.

Agar ixtiro texnika taraqqiyoti darajasi haqidagi ma'lumotlardan yaqqol ayon bo'lmasa, u ixtirolik darajasiga ega bo'ladi.

Texnika taraqqiyoti darajasi ixtiro ustuvorligi sanasiga qadar jahonda ommaga oshkor bo'lgan har qanday ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Ixtironing yangiligini aniqlash chog'ida birmuncha oldin ustuvorlikka ega bo'lgan holda topshirilgan va chaqirib olinmagan patent berish haqidagi talabnomalar ham hisobga olinadi.

Agar ixtirodan sanoat, qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash va boshqa sohalarda foydalanish mumkin bo'lsa, u sanoatda qo'llash mumkin deb hisoblanadi.

Ixtiroga taalluqli axborotning muallif, talabnoma beruvchi yoki ulardan bevosita yoxud bilvosita shu axborotni olgan har qanday shaxs tomonidan ommaviy tarzda oshkor etilishi, agar ixtiroga patent berish haqidagi talabnoma axborot oshkor etilgan sanadan e'tiboran ko'pi bilan olti oy ichida Patent idorasiga topshirilgan bo'lsa, ixtironing patentga layoqatligini tan olishga ta'sir ko'rsatadigan holat sifatida e'tirof etilmaydi. Bunda ushbu holni isbotlab berish vazifasi muallif, talabnoma beruvchi zimmasida bo'ladi.

Har qanday sohada:

mahsulotga (xususan, qurilma, modda, mikroorganizm shtampi, o'simliklar yoki hayvonlar hujayralarining turlariga);

usulga (moddiy vositalar yordamida moddiy obyekt ustida xatti-harakatlarni amalga oshirish jarayoniga) taalluqli bo'lgan texnik yechim ixtiro sifatida e'tirof etiladi.

Quyidagilar ixtiro sifatida e'tirof etilmaydi:

- ilmiy nazariyalar va matematika usullari;
- tashkil etish va boshqarish usullari;
- shartli belgilar, jadvallar, qoidalar;
- aqliy operatsiyalarni bajarish qoidalari va usullari;
- elektron hisoblash mashinalari uchun algoritmlar va dasturlar;
- binolar, inshootlar, hududlarni rejalashtirish loyihalari va chizma sharhlari;

- estetika talablarini qanoatlantirishga yo'naltirilgan, buyumlarning faqat tashqi ko'rinishiga oid yechimlar;
- integral mikrosxemalarning topologiyalari;
- o'simlik navlari va hayvon zotlari;
- jamoat manfaatlariga, insonparvarlik va axloq qoidalariga zid yechimlar.

Agar foydali model sifatida ko'rsatilgan obyekt yangi bo'lsa va uni sanoatda qo'llash mumkin bo'lsa, u huquqiy jihatdan muhofaza qilinadi.

Agar foydali modelning muhim belgilari majmui texnika taraqqiyoti darajasidan ma'lum bo'lmasa, u yangi deb hisoblanadi.

Texnika taraqqiyoti darajasi talabnomada ko'rsatilgan foydali model amalga oshirishi mumkin bo'lgan vazifalarni bajara oladigan vositalar haqidagi O'zbekiston Respublikasida hamma foydalana oladigan barcha ma'lumotlarni, shuningdek ularni qo'llashga doir ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Foydali model, agar undan amalda foydalanish mumkin bo'lsa, sanoatda qo'llash mumkin deb hisoblanadi.

Foydali modelga taalluqli axborotning muallif, talabnoma beruvchi yoki ulardan bevosita yoxud bilvosita shu axborotni olgan har qanday shaxs tomonidan ommaviy tarzda oshkor etilishi, agar foydali modelga patent berish haqidagi talabnoma axborot oshkor etilgan sanadan e'tiboran ko'pi bilan olti oy ichida Patent idorasiga topshirilgan bo'lsa, foydali modelning patentga layoqatliligini tan olishga ta'sir ko'rsatadigan holat sifatida e'tirof etilmaydi. Bunda ushbu holni isbotlab berish vazifasi muallif, talabnoma beruvchi zimmasida bo'ladi.

Qurilmalarning konstruktiv yo'l bilan bajarilishi foydali modellarga taalluqlidir.

Agar sanoat namunasi sifatida ko'rsatilgan obyekt yangi va original (o'ziga xos) bo'lsa, u huquqiy muhofaza qilinadi.

Agar sanoat namunasining muhim belgilari majmui sanoat namunasiga ustuvorlik berish sanasiga qadar jahonda ommaga oshkor bo'lgan ma'lumotlardan ayon bo'lmasa, u yangi deb e'tirof etiladi.

Sanoat namunasining yangiligini aniqlash chog'ida birmuncha oldin ustuvorlikka ega bo'lgan holda topshirilgan va chaqirib olinmagan patent berish haqidagi talabnomalar ham hisobga olinadi.

Sanoat namunasi, agar uning muhim belgilari majmui buyum xususiyatlarining ijodiy jihatlari bilan bog'liq bo'lsa, original deb e'tirof etiladi.

Sanoat namunasi taalluqli axborotning muallif, talabnoma beruvchi yoki ulardan bevosita yoxud bilvosita shu axborotni olgan har qanday shaxs tomonidan ommaviy tarzda oshkor etilishi, agar sanoat namunasi patent berish haqidagi talabnoma axborot oshkor etilgan sanadan e'tiboran ko'pi bilan olti oy ichida Patent idorasiga topshirilgan bo'lsa, sanoat namunasi patentga layoqatligini tan olishga ta'sir ko'rsatadigan holat sifatida e'tirof etilmaydi. Bunda ushbu holni isbotlab berish vazifasi muallif, talabnoma beruvchi zimmasida bo'ladi.

Buyumning tashqi ko'rinishini ifodalaydigan badiiy-konstruktorlik yechimi sanoat namunalari jumlasiga kiradi.

Quyidagilar sanoat namunalari deb e'tirof etilmaydi:

- matbaa mahsulotlari;
- arxitektura obyektlari (kichik arxitektura shakllaridan tashqari), sanoat, gidrotexnika inshootlari va boshqa stasionar inshootlar;
- suyuq, gazsimon, sochiluvchan yoki shunga o'xshash moddalardan iborat o'zgaruvchan shakldagi obyektlar;
- buyumning faqat texnik vazifasi bilan bog'liq bo'lgan yechimlar;
- jamoat manfaatlariga, insonparvarlik va axloq qoidalariga zid yechimlar.

Ijodiy mehnati bilan sanoat mulki obyektini yaratgan jismoniy shaxs shu obyektning muallifi deb e'tirof etiladi.

Agar sanoat mulki obyektini bir nechta jismoniy shaxsning birgalikdagi ijodiy mehnati asosida yaratilgan bo'lib, ular o'rtasida tuzilgan shartnomada boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, ularning barchasi shu obyektning teng huquqli hammualliflari deb e'tirof etiladi.

Mualliflik huquqi boshqaga o'tkazilmaydigan va topshirilmaydigan shaxsiy nomulkiy huquqdir.

Sanoat mulki obyektining patenti quyidagilarga beriladi:

sanoat mulki obyektining muallifiga (hammualliflariga) yoki uning (ularning) merosxo'riga (merosxo'rlariga);

muallif yoki uning merosxo'ri tomonidan patent berish haqidagi talabnomada yoki sanoat mulki obyektini ro'yxatdan o'tkazilgunga qadar Patent idorasiga topshirilgan talabnoma beruvchini o'zgartirish haqidagi

arizada ko'rsatilgan yuridik va (yoki) jismoniy shaxslarga (ularning o'zi rozi bo'lgan taqdirda);

ushbu moddada nazarda tutilgan hollarda ish beruvchiga.

Xodim tomonidan o'z xizmat vazifalarini yoki ish beruvchidan olgan aniq topshiriqni bajarish munosabati bilan yaratilgan sanoat mulki obyektining patentiga bo'lgan huquq, agar bu hol ular o'rtasida tuzilgan shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa, ish beruvchiga tegishli bo'ladi.

Agar ish beruvchi bilan muallif (hammualliflar) o'rtasidagi shartnomada ushbu moddaning ikkinchi qismidagi qoidalar nazarda tutilgan bo'lmasa, u holda muallif (hammualliflar) talabnoma topshirish va sanoat mulki obyektining patentini o'z nomiga olish huquqiga ega bo'ladi. Bunda ish beruvchi patent egasiga shartnomada belgilanadigan miqdorda tovon to'lab, o'z ishlab chiqarishida tegishli sanoat mulki obyektidan foydalanish huquqiga ega bo'ladi.

Ish beruvchi sanoat mulki obyektini sir saqlagan taqdirda muallifga (hammualliflarga) mutanosib ravishda haq to'lashi shart, haq miqdori shartnomada belgilanadi.

Agar sanoat mulki obyektidan o'z xohishicha foydalanish boshqa patent egalarining huquqlarini, shu jumladan, boshqa shaxslarning mazkur obyektidan foydalanishini taqiqlab qo'yish huquqini buzmasa, bunday foydalanish patent egasiga tegishlidir, shu zaylda foydalanish ushbu Qonunga muvofiq patent egasining huquqini buzish deb hisoblanmaydigan hollar bundan mustasno.

Bir nechta patent egasiga qarashli bo'lgan sanoat mulki obyektidan foydalanish borasidagi o'zaro munosabatlar ular o'rtasidagi kelishuvga binoan belgilanadi. Bunday kelishuv bo'lmagan taqdirda, har bir patent egasi muhofaza qilinayotgan sanoat mulki obyektidan o'z xohishicha foydalanishi mumkin, lekin qolgan patent egalarining roziligisiz obyektga mutlaq litsenziya berishga yoki patentni o'zga shaxsga topshirishga haqli emas.

Patent egasi patent bilan tasdiqlangan sanoat mulki obyektiga bo'lgan huquqni patentdan o'zganing foydasiga voz kechish to'g'risidagi shartnoma bo'yicha yoki sanoat mulki obyektidan foydalanish huquqini litsenziya shartnomasi bo'yicha har qanday yuridik yoxud jismoniy shaxsga (shaxslarga) topshirishi mumkin. Patentdan o'zganing foydasiga voz kechish to'g'risidagi shartnoma va litsenziya shartnomasi Patent idorasida ro'yxatdan o'tkazilishi kerak.

Patent egasi foydalanilayotgan sanoat mulki obyektlari patentanganligini ko'rsatuvchi ogohlantirish tamg'asidan foydalanishi mumkin.

Patent egalari patent ro'yxatga olingan sanadan boshlab uch yil mobaynida sanoat mulki obyektidan foydalanmasa yoki yetarli darajada foydalanmasa, ushbu muhofaza etilayotgan sanoat mulki obyektidan foydalanishni xohlovchi va foydalanishga tayyor har qanday shaxs, patent egasi litsenziya shartnomasi tuzishdan bosh tortgan taqdirda, o'ziga majburiy nomutlaq litsenziya berishni so'rab sudga iltimosnoma bilan murojaat qilishi mumkin.

Quyidagi hollar patent egasi mutlaq huquqining buzilishi sifatida e'tirof etilmaydi:

O'zbekiston Respublikasida muhofaza qilinayotgan sanoat mulki obyektlaridan tarkib topgan qurilmalarni Sanoat mulkini muhofaza qilish bo'yicha Parij konventsiyasi ishtirokchisi bo'lgan boshqa davlatning transport vositasida mazkur vosita vaqtincha yoki tasodifan O'zbekiston Respublikasi hududida turgan vaqtda, basharti bu qurilmalardan faqat mazkur vositaning ehtiyojlari uchun foydalaniladigan bo'lsa, qo'llash;

– patentlar bilan muhofaza qilinayotgan sanoat mulki obyektlaridan tarkib topgan vositalar ustida ilmiy tadqiqot yoki tajriba o'tkazish;

– patentlar bilan muhofaza qilinayotgan sanoat mulki obyektlaridan tarkib topgan vositalarni tabiiy ofatlar, halokatlar, epidemiyalar va boshqa favqulodda holatlarda qo'llash;

– patentlar bilan muhofaza qilinayotgan sanoat mulki obyektlaridan tarkib topgan vositalarni, agar bu vositalar fuqarolik muomalasiga qonuniy yo'l bilan kiritilgan bo'lsa, qo'llash;

– patentlar bilan muhofaza qilinayotgan sanoat mulki obyektlaridan tarkib topgan vositalarni daromad olmay shaxsiy maqsadlarda qo'llash;

– dorixonalarda shifokor retsepti bo'yicha dorilarni bir marotabalik tayyorlash.

Patent bilan muhofaza qilinayotgan sanoat mulki obyektlaridan ushbu Qonunning 11 va 32-moddalarida nazarda tutilgan qoidalarga xilof ravishda foydalanayotgan har qanday shaxs patent egasining mutlaq huquqini buzuvchi hisoblanadi.

Tegishli patentlangan sanoat mulki obyektini o'z ichiga olgan mahsulot yoki buyumni ruxsatsiz tayyorlash, qo'llash, import qilish, sotishga taklif etish, sotish, fuqarolik muomalasiga boshqa yo'sinda kiritish yoki shu maqsadda saqlab turish, shuningdek ixtiro patenti bilan muhofaza qilinayotgan usulni qo'llash yoxud ixtiro patenti bilan

muhofaza qilinayotgan usulda bevosita tayyorlangan mahsulotni fuqarolik muomalasiga kiritish yoki shu maqsadda saqlab turish patent egasi mutlaq huquqining buzilishi deb e'tirof etiladi. (O'zR 30.07.2008-y. O'RQ-164-son Qonuni tahriridagi qism), (Oldingi tahririga qarang)

Sanoat mulki obyektidan patent egasining mutlaq huquqini buzgan holda foydalanayotgan shaxslar patent egasining talabiga ko'ra:

– patent egasining mutlaq huquqini buzuvchi harakatlarni to'xtatishlari;

– patent egasiga yetkazilgan zararining o'rni qonun hujjatlariga muvofiq qoplashlari shart.

Patent berish haqidagi talabnoma muallif, ish beruvchi yoki ularning huquqiy vorisi (bundan buyon matnda talabnoma beruvchi deb yuritiladi) tomonidan Patent idorasiga topshiriladi.

Patent berish haqidagi talabnomalarga belgilangan miqdorda patent boji to'langanligini yoki patent boji to'lashdan ozod qilishning yoxud uning miqdori kamaytirilishining asoslarini tasdiqlaydigan hujjat ilova qilinadi.

Patent berish haqidagi talabnoma hujjatlariga doir talablar Patent idorasi tomonidan belgilanadi.

Patent berish haqidagi talabnoma shaxsan, patent vakili yoki ishonchli shaxs orqali topshirilishi mumkin.

Ixtiroga patent berish haqidagi talabnoma (bundan buyon matnda ixtiro haqidagi talabnoma deb yuritiladi) bitta ixtiroga yoki yagona ixtirochilik fikrini (ixtiro birligi talabini) tashkil etgan tarzda bir-biri bilan uzviy bog'langan ixtirolar guruhiga taalluqli bo'lishi kerak.

Ixtiro haqidagi talabnoma:

– ixtironing muallifi (hammualliflari) va kimning nomiga patent berish so'ralayotgan bo'lsa, ana shu shaxs, shuningdek ularning turar joyi yoki joylashgan manzili ko'rsatilgan patent berish haqidagi arizani;

– ixtironing uni amalga oshirish uchun yetarli bo'lgan darajada to'liq ochib berilgan tavsifini;

– ixtironing mohiyatini ifodalovchi hamda uning tavsifiga to'la muvofiq bo'lgan formulasini;

– agar ixtironing mohiyatini tushunish uchun zarur bo'lsa, chizmalar va boshqa materiallarni;

– ixtiro referatini o'z ichiga olishi lozim.

Foydali modelga patent berish haqidagi talabnoma (bundan buyon matnda foydali model haqidagi talabnoma deb yuritiladi) bitta foydali

modelga yoki yagona ijodkorlik fikrini (foydali model birligi talabini) tashkil etgan tarzda bir-biri bilan uzviy bog'langan foydali modellar guruhiga taalluqli bo'lishi kerak.

Foydali model haqidagi talabnoma:

– foydali modelning muallifi (hammualliflari) va kimning nomiga patent berish so'ralayotgan bo'lsa, ana shu shaxs, shuningdek ularning turar joyi yoki joylashgan manzili ko'rsatilgan patent berish haqidagi arizani;

– foydali modelning uni amalga oshirish uchun yetarli bo'lgan darajada to'liq ochib berilgan tavsifini;

– foydali modelning mohiyatini ifodalovchi hamda uning tavsifiga to'la muvofiq bo'lgan formulasini;

– agar foydali modelning mohiyatini tushunish uchun zarur bo'lsa, chizmalar va boshqa materiallarni;

– foydali model referatini o'z ichiga olishi lozim.

Sanoat namunasiga patent berish haqidagi talabnoma (bundan buyon matnda sanoat namunasi haqidagi talabnoma deb yuritiladi) bitta sanoat namunasiga taalluqli bo'lishi kerak va u shu namuna variantlarini (sanoat namunasi birligi talabini) qamrab olishi mumkin.

Sanoat namunasi haqidagi talabnoma:

– sanoat namunasining muallifi (hammualliflari) va kimning nomiga patent berish so'ralayotgan bo'lsa, ana shu shaxs, shuningdek ularning turar joyi yoki joylashgan manzili ko'rsatilgan patent berish haqidagi arizani;

– buyumning tashqi ko'rinishi haqida to'la-to'kis, bor tafsiloti bilan tasavvur qilish imkonini beruvchi buyum aks ettirilgan tasvirlar turkumini, maket yoki rasmni;

– agar sanoat namunasining mohiyatini ochib berish uchun zarur bo'lsa, buyum umumiy ko'rinishining chizmasi, ergonomik sxemasi, konfeksion xartasini;

– sanoat namunasining undagi muhim belgilar majmuini aks ettirgan tavsifini o'z ichiga olishi lozim.

Sanoat mulki obyektini ustuvorligi patent berish haqidagi talabnoma Patent idorasiga topshirilgan sanaga ko'ra belgilanadi.

Sanoat mulki obyektini ustuvorligi:

Sanoat mulkini muhofaza qilish bo'yicha Parij konvensiyasi ishtirokchisi bo'lgan boshqa davlatda (konvensiya ustuvorligi) topshirilgan birinchi talabnoma qayd etilgan sana bo'yicha, agar mazkur

sanadan e'tiboran ixtiro haqidagi talabnoma va foydali model haqidagi talabnoma o'n ikki oy ichida, sanoat namunasi haqidagi talabnoma esa olti oy ichida Patent idorasiga kelib tushgan bo'lsa, belgilanishi mumkin. Agar konvensiya ustuvorligi so'ralgan talabnoma uni beruvchiga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra belgilangan muddatda topshirib ulgurilmasa, bu muddat Patent idorasi tomonidan ko'pi bilan ikki oyga uzaytirilishi mumkin. Konvensiya ustuvorligi huquqidan foydalanish istagidagi talabnoma beruvchi o'zining ana shu istagini talabnomani topshirish chog'ida ko'rsatib o'tishi va (yoki) zarur materiallarni talabnoma topshirilgan sanadan e'tiboran ko'pi bilan uch oy ichida Patent idorasiga taqdim etishi shart;

qo'shimcha materiallar topshirilgan sana bo'yicha, agar talabnomaga ilova qilingan qo'shimcha materiallar talabnomada ko'rsatilgan sanoat mulki obyektini mohiyatini o'zgartirib yuboradi deb topilishi munosabati bilan ularni qabul qilish mumkin emasligini Patent idorasi talabnoma beruvchiga bildirgan sanadan e'tiboran uch oy muddat tugagunga qadar bu qo'shimcha materiallar talabnoma beruvchi tomonidan mustaqil talabnoma sifatida rasmiylashtirilgan bo'lsa, belgilanishi mumkin; (O'zR 30.07.2008-y. O'RQ-164-son Qonuni tahriridagi xat boshi)

– shu talabnoma beruvchining Patent idorasiga birmuncha oldin taqdim etgan, ushbu sanoat mulki obyektining mohiyatini ochib beruvchi talabnomasi topshirilgan sana bo'yicha, agar bunday ustuvorlik so'ralayotgan talabnoma birmuncha oldin berilgan ixtiro haqidagi talabnoma va foydali model haqidagi talabnoma kelib tushgan sanadan e'tiboran o'n ikki oy ichida va birmuncha oldin berilgan sanoat namunasi haqidagi talabnoma kelib tushgan sanadan e'tiboran olti oy ichida topshirilgan bo'lsa, belgilanishi mumkin. Bunda birmuncha oldin topshirilgan talabnoma chaqirib olingan deb hisoblanadi.

Sanoat mulki obyektini ustuvorligi oldin topshirilgan bir nechta talabnoma yoki ularga doir qo'shimcha materiallar asosida bu talabnomalar va qo'shimcha materiallarga nisbatan ushbu moddada belgilangan shartlarga rioya qilingan holda belgilanishi mumkin. (O'zR 30.07.2008-y. O'RQ-164-son Qonuni tahriridagi qism)

Agar davlat ekspertizasi jarayonida patent berish haqidagi o'xshash talabnomalar ayni bitta ustuvorlik sanasiga ega ekanligi aniqlansa, u holda patent Patent idorasiga oldinroq sana bilan jo'natilganligi isbotlangan talabnoma bo'yicha, basharti jo'natilgan sanalari ham bir xil

bo'lib chiqsa, qaysi birida Patent idorasining ro'yxatga olish kirim raqami oldin qayd etilgan bo'lsa, shu talabnoma bo'yicha beriladi.

Sanoat mulki obyektini ustuvorligi birmuncha oldin ustuvorlik so'ralgan, chaqirib olingan patent berish haqidagi talabnoma kelib tushgan sanaga ko'ra belgilanishi mumkin emas.

Patent berish haqidagi ajratilgan alohida talabnoma bo'yicha sanoat mulki obyektini ustuvorligi Patent idorasiga topshirilgan dastlabki talabnoma sanasiga ko'ra belgilanadi.

Talabnoma beruvchi patent berish haqidagi qaror qabul qilingunga qadar ixtiro haqidagi talabnomani foydali model haqidagi talabnoma, foydali model haqidagi talabnomani esa ixtiro haqidagi talabnoma qilib o'zgartirishga haqlidir. Bunday o'zgartirishlar chog'ida birinchi talabnomaning ustuvorligi saqlanib qoladi.

Talabnomalarni o'zgartirish tegishli patent boji to'langandan so'ng amalga oshiriladi.

Patent idorasi patent berish haqidagi talabnoma bo'yicha rasmiy ekspertiza, foydali model haqidagi talabnoma ekspertizasi hamda ixtiro haqidagi talabnomaning yoki sanoat namunasi haqidagi talabnomaning mohiyati bo'yicha ilmiy-texnika ekspertizasidan iborat bo'lgan davlat ekspertizasini o'tkazadi.

Talabnoma beruvchi patent berish haqidagi talabnoma topshirilgan sanadan e'tiboran ikki oy mobaynida talabnomada ko'rsatilgan sanoat mulki obyektining mohiyatini o'zgartirmagan holda unga tuzatishlar, aniqliklar yoki qo'shimcha materiallar kiritish huquqiga ega. Patent berish haqidagi talabnoma bo'yicha tuzatishlar, aniqliklar yoki qo'shimcha materiallar patent boji to'langan taqdirda, ko'rsatilgan muddat o'tganidan keyin, lekin Patent idorasi patent berish haqida qaror qabul qilguniga qadar taqdim etilishi mumkin.

Belgilangan talablar buzilgan holda rasmiylashtirilgan patent berish haqidagi talabnoma yuzasidan talabnoma beruvchiga so'rov yuborilib, unda shu so'rov yo'llangan sanadan e'tiboran uch oy ichida tuzatishlar kiritilgan yoki etishmayotgan materiallarni taqdim etish taklif qilinadi. Agar talabnoma beruvchi so'ralgan materiallarni yoki belgilangan muddatni uzaytirish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rsatilgan muddatda taqdim etmasa, patent berish haqidagi talabnoma chaqirib olingan hisoblanadi. Belgilangan muddat talabnoma beruvchining iltimosnomasiga ko'ra shu muddat o'tgan sanadan keyin ko'pi bilan o'n ikki oyga uzaytirilishi mumkin.

Sanoat mulki obyektini birligi talablari buzilgan holda topshirilgan patent berish haqidagi talabnoma yuzasidan talabnoma beruvchiga tegishli so'rov unga yuborilgan sanadan e'tiboran uch oy muddat ichida ushbu obyektlardan qaysi biri ko'rib chiqilishi lozimligini xabar qilish hamda tegishincha talabnoma hujjatlariga aniqliklar kiritish taklif qilinadi. Dastlabki talabnoma materiallariga kiritilgan boshqa obyektlar alohida talabnomalarga ajratilishi mumkin. Agar talabnoma beruvchi ushbu obyektlardan qaysi birini ko'rib chiqish zarurligini xabar qilmasa va aniqlik kiritilgan materiallarni taqdim etmasa, ixtiro, foydali model formulasida yoki sanoat namunasi tavsifida birinchi qilib ko'rsatilgan obyekt davlat ekspertizasidan o'tkaziladi.

Davlat ekspertizasi so'rovi bo'yicha materiallarni taqdim etishning talabnoma beruvchi tomonidan o'tkazib yuborilgan muddatlari, belgilangan muddatlarni uzaytirish muqarrarligini taqozo etgan sabablar tasdiqlangan va patent boji to'langan taqdirda, Patent idorasi tomonidan tiklanishi mumkin. O'tkazib yuborilgan muddatlarni tiklash to'g'risidagi iltimosnoma talabnoma beruvchi tomonidan o'tkazib yuborilgan muddat tugagan kundan boshlab ko'pi bilan o'n ikki oy ichida topshirilishi mumkin.

Talabnoma beruvchi sanoat mulki obyektini tegishli davlat reyestrda davlat ro'yxatidan o'tkazilgunga qadar davlat ekspertizasining istalgan bosqichida patent berish haqidagi talabnomani chaqirib olishi mumkin.

Patent berish haqidagi talabnoma materiallaridagi ma'lumotlar Patent idorasi tomonidan sir saqlanishi kerak va ular haqidagi axborot talabnoma beruvchi yoki patent egasining rozilgisiz berilmaydi. Talabnoma materiallaridagi axborotni ixtiro haqidagi talabnoma to'g'risidagi yoki foydali model va sanoat namunasi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar rasmiy ravishda e'lon qilingunga qadar oshkor etganlik qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

Agar ixtiro haqidagi talabnoma yoki foydali model haqidagi talabnoma materiallarida davlat sirlarini tashkil qilgan ma'lumotlar mavjud bo'lsa, bunday talabnoma bo'yicha ish yuritish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Patent idorasi tomonidan ko'rib chiqish uchun qabul qilib olingan patent berish haqidagi talabnomalar talabnoma beruvchilarga qaytarilmaydi.

Rasmiy ekspertiza patent berish haqidagi talabnoma topshirilgan sanadan boshlab ikki oy o'tgandan keyin Patent idorasi tomonidan o'tkaziladi. Talabnoma beruvchining iltimosnomasiga binoan rasmiy ekspertiza ko'rsatilgan muddat o'tmasidanoq boshlanishi mumkin. Bu holda talabnoma beruvchi iltimosnoma topshirilgan paytdan boshlab qo'shimcha patent boji to'lamasdan talabnoma materiallariga o'z tashabbusi bilan qo'shimchalar, tuzatishlar va aniqliklar kiritish huquqidan mahrum bo'ladi.

Rasmiy ekspertiza mobaynida taqdim etilgan taklifning huquqiy muhofaza ta'minlanadigan sanoat mulki obyektlariga qay darajada muvofiqligi ko'rib chiqiladi. Rasmiy ekspertiza natijalari bo'yicha Patent idorasining qarori talabnoma beruvchiga ma'lum qilinadi.

Talabnoma beruvchi Patent idorasining qarori ustidan qaror yuborilgan sanadan e'tiboran uch oylik muddat ichida Apelyatsiya kengashiga apelyatsiya berishi mumkin. Apelyatsiya kengashi apelyatsiya kelib tushgan sanadan e'tiboran ikki oylik muddat ichida uni ko'rib chiqishi lozim.

Apelyatsiya kengashining qarori ustidan qaror qabul qilingan sanadan e'tiboran olti oy ichida sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Ixtiro haqidagi talabnoma to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rib chiqish uchun qabul qilingan talabnoma topshirilgan sanadan e'tiboran o'n sakkiz oy o'tganidan keyin rasmiy axborotnomada e'lon qilinadi. E'lon qilinadigan ma'lumotlar tarkibi Patent idorasi tomonidan belgilanadi.

Talabnoma beruvchining iltimosnomasiga ko'ra Patent idorasi ko'rib chiqish uchun qabul qilingan ixtiro haqidagi talabnoma topshirilgan sanadan e'tiboran o'n sakkiz oy o'tguniga qadar ixtiro haqidagi talabnoma to'g'risidagi ma'lumotlarni e'lon qilishi mumkin.

Ixtiro haqidagi talabnoma to'g'risidagi ma'lumotlar e'lon qilinganidan keyin har qanday shaxs ushbu talabnomaga doir hujjatlar bilan tanishib chiqishga haqli. Ixtiro haqidagi talabnomaga doir hujjatlar bilan tanishib chiqish tartibi Patent idorasi tomonidan belgilanadi.

Patent idorasi patent boji to'langan taqdirda foydali model haqidagi talabnomani ekspertizadan o'tkazadi. Patent boji rasmiy ekspertizaning talabnoma ko'rib chiqishga qabul qilingani to'g'risidagi qarori talabnoma beruvchiga yuborilgan sanadan e'tiboran uch oy ichida to'lanishi mumkin. Ko'rsatilgan muddat o'tkazib yuborilgan taqdirda talabnoma chaqirib olingan deb hisoblanadi.

Ekspertiza o'tkazilayotganda talabnomada ko'rsatilgan obyektning ushbu Qonun 7-moddasida belgilangan patentga layoqatlilik shartlariga muvofiqligi tekshiriladi.

Agar ekspertiza natijasida talabnoma foydali modellar sifatida muhofaza qilinadigan obyektlarga taalluqli bo'lmagan taklif to'g'risida ekanligi aniqlansa, Patent idorasi patent berishni rad etish haqida qaror qabul qiladi, talabnoma beruvchi bundan xabardor qilinadi.

Agar talabnoma ekspertizasi natijasida foydali model haqidagi talabnoma materiallari qo'yilgan talablarga mos ekanligi aniqlansa, Patent idorasi foydali modelga patent berish to'g'risida qaror qabul qiladi, talabnoma beruvchi bundan xabardor etiladi.

Foydali model sifatida talabnomada ko'rsatilgan obyektning patentga layoqatlilik shartlariga muvofiq emasligi aniqlangan taqdirda Patent idorasi foydali modelga patent berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi, talabnoma beruvchi bundan xabardor etiladi. (O'zR 30.07.2008-y. O'RQ-164-son Qonuni tahriridagi qism)

Talabnoma beruvchi Patent idorasining qarori ustidan qaror yuborilgan sanadan e'tiboran uch oylik muddat ichida Aplyatsiya kengashiga apelyatsiya berishi mumkin. Aplyatsiya kengashi apelyatsiya kelib tushgan sanadan e'tiboran ikki oylik muddat ichida uni ko'rib chiqishi lozim.

Aplyatsiya kengashining qarori ustidan qaror qabul qilingan sanadan e'tiboran olti oy ichida sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Patent idorasi patent boji to'langan taqdirda, talabnoma beruvchining yoki har qanday shaxsning iltimosnomasiga ko'ra ixtiro haqidagi talabnomaning mohiyati bo'yicha ilmiy-texnika ekspertizasi o'tkazadi. Iltimosnoma talabnoma topshirilayotganda yoki ko'rib chiqish uchun qabul qilingan talabnoma topshirilgan sanadan e'tiboran uch yil ichida topshirilishi mumkin. Talabnoma beruvchi kelib tushgan iltimosnomalar haqida Patent idorasi tomonidan xabardor qilinadi.

Ixtiro haqidagi talabnomaning mohiyati bo'yicha ilmiy-texnika ekspertizasi o'tkazish to'g'risidagi iltimosnomani topshirish muddati bunday iltimosnoma bilan birgalikda patent boji to'langanligini tasdiqlovchi hujjat taqdim etilgan taqdirda, talabnoma beruvchining talabnoma topshirilgan sanadan e'tiboran uch yil o'tguniga qadar topshirilgan iltimosnomasiga ko'ra Patent idorasi tomonidan ko'pi bilan ikki oyga uzaytirilishi mumkin.

Ixtiro haqidagi talabnomaning mohiyati bo'yicha ilmiy-texnika ekspertizasi o'tkazish to'g'risidagi iltimosnoma uch yillik muddatda kelib tushmagan taqdirda, ixtiro hakidagi talabnoma chaqirib olingan hisoblanadi.

Patent idorasi patent boji to'langan taqdirda, sanoat namunasi haqidagi talabnomaning mohiyati bo'yicha ilmiy-texnika ekspertizasi o'tkazadi. Patent boji rasmiy ekspertizaning patent berish haqidagi talabnoma ko'rib chiqish uchun qabul qilinganligi to'g'risidagi qarori talabnoma beruvchiga yuborilgan sanadan e'tiboran uch oy muddat ichida to'lanishi mumkin. Ko'rsatilgan muddat buzilgan taqdirda, talabnoma chaqirib olingan hisoblanadi.

Agar ixtiro haqidagi talabnomaning yoki sanoat namunasi haqidagi talabnomaning mohiyati bo'yicha ilmiy-texnika ekspertizasi natijasida talabnoma beruvchi taklif qilgan formula bilan ifodalangan ixtiro sifatida talabnomada ko'rsatilgan obyektning yoki muhim belgilari majmui bilan ifodalangan sanoat namunasi sifatida talabnomada ko'rsatilgan obyektning belgilangan talablarga mosligi aniqlansa, Patent idorasi patent berish haqida qaror qabul qiladi.

Ixtiro yoki sanoat namunasi sifatida talabnomada ko'rsatilgan obyektning patentga layoqatlilik shartlariga mos emasligi aniqlangan taqdirda, Patent idorasi patent berishni rad etish haqida qaror qabul qiladi.

Talabnoma beruvchi Patent idorasining qarori ustidan qaror yuborilgan sanadan e'tiboran uch oylik muddat ichida Apelyatsiya kengashiga apelyatsiya berishi mumkin. Apelyatsiya kengashi apelyatsiya kelib tushgan sanadan e'tiboran to'rt oy ichida uni ko'rib chiqishi lozim.

Apelyatsiya kengashining qarori ustidan qaror qabul qilingan sanadan e'tiboran olti oy ichida sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Ixtiroga ixtiro haqidagi talabnoma to'g'risidagi ma'lumotlar e'lon qilingan sanadan ixtiro davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi haqidagi ma'lumotlar e'lon qilinadigan sanaga qadar vaqtinchalik huquqiy muhofaza beriladi.

Agar ixtiro haqidagi talabnoma chaqirib olingan bo'lsa yoki ushbu talabnoma bo'yicha Patent idorasi tomonidan patent berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilinib, bu qaror ustidan shikoyat berish imkoniyati tugagan bo'lsa, vaqtinchalik huquqiy muhofaza yuz bermagan hisoblanadi.

Ixtirodan uning vaqtinchalik huquqiy muhofazasi davrida foydalanayotgan shaxs ixtiroga patent olinganidan keyin patent egasining talabiga ko'ra unga miqdori patent egasi bilan kelishuv asosida belgilanadigan pul to'lovini to'lashi shart.

Patent idorasi patent berish to'g'risida qaror qabul qilganidan so'ng sanoat mulki obyektini tegishincha Davlat ixtirolar reyestrda, Davlat foydali modellar reyestrda yoki Davlat sanoat namunalari reyestrda davlat ro'yxatiga oladi.

Patent idorasi sanoat mulki obyektlari ro'yxatga olinganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan rasmiy axborotnoma nashr etadi. E'lon qilinadigan ma'lumotlarning to'liq ro'yxati va tarkibi Patent idorasi tomonidan belgilanadi.

Sanoat mulki obyektiga patent berish obyekt ro'yxatga olinganligi haqidagi ma'lumotlar rasmiy axborotnomada e'lon qilingan sanadan e'tiboran o'n kun o'tganidan keyin Patent idorasi tomonidan amalga oshiriladi.

Sanoat mulki obyektini patenti O'zbekiston Respublikasi nomidan beriladi va Patent idorasi rahbari tomonidan imzolandi.

Sanoat mulki obyektini patenti bir nechta kishi nomiga so'ralganda ularga bitta patent beriladi.

Sanoat mulki obyektini patentining shakli va unda ko'rsatiladigan ma'lumotlar tarkibi Patent idorasi tomonidan belgilanadi.

Berilgan sanoat mulki obyektini patentidagi ko'zga yaqqol tashlanib turgan va texnik xatolar patent egasining talabiga ko'ra Patent idorasi tomonidan tuzatiladi.

Sanoat mulki obyektini patenti Apelyatsiya kengashiga berilgan apelyatsiya bo'yicha istalgan vaqtda huquqiy muhofazaning to'liq hajmida yoki uning faqat bir qismi bo'yicha quyidagi asoslarga ko'ra haqiqiy emas deb e'tirof etilishi mumkin:

muhofaza qilinadigan sanoat mulki obyektini patentga layoqatlilik shartlariga mos emasligi;

ixtiro, foydali model formulasida yoki sanoat namunasining muhim belgilari majmuida talabnomaning dastlabki materiallarida bo'lmagan belgilarning mavjudligi.

Sanoat mulki obyektini patentining to'la hajmdagi huquqiy muhofazasi yoki bu muhofazaning faqat bir qismi haqiqiy emasligini isbotlash vazifasi patenti haqiqiy emas deb da'vo qilayotgan taraf zimmasida bo'ladi.

Sanoat mulki obyektiga patent berish Apelyatsiya kengashiga apelyatsiya topshirilishi munosabati bilan to'xtatib turilishi mumkin.

Apelyatsiya kengashining qarori ustidan qaror qabul qilingan sanadan e'tiboran olti oy ichida sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Agar nizo sudda ko'rib chiqiladigan bo'lsa, nizo hal etilguniga qadar sanoat mulki obyektiga doir ishni yuritish Patent idorasi tomonidan to'xtatib turiladi.

Sanoat mulki obyektini patentning amal qilishi uning ushbu Qonunga muvofiq belgilangan amal qilish muddati o'tganidan keyin tugatiladi.

Sanoat mulki obyektini patentning amal qilishi:

patentni o'z kuchida saqlab turganlik uchun patent bojlari belgilangan muddatda to'lanmaganda;

patent egasi Patent idorasiga topshirgan arizaga asosan muddatidan ilgari tugatiladi.

Sanoat mulki obyektini patentning amal qilishi muddatidan ilgari tugatilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar Patent idorasining rasmiy axborotnomasida e'lon qilinadi.

Patentni o'z kuchida saqlab turganlik uchun patent boji belgilangan muddatda to'lanmaganligi sababli amal qilishi tugatilgan sanoat mulki obyektini patentning amal qilishi patent egasining iltimosnomasiga ko'ra tiklanishi mumkin. Bunday iltimosnoma patentning amal qilishi tugatilgan sanadan e'tiboran uch yil muddat ichida, biroq patentning ushbu Qonunda nazarda tutilgan amal qilish muddati tugaguniga qadar Patent idorasiga topshirilishi mumkin.

Patent egasining iltimosnomasiga patentning amal qilishini tiklash uchun belgilangan miqdordagi patent boji to'langanligini tasdiqlovchi hujjat ilova qilinishi kerak.

Sanoat mulki obyektini patentning amal qilishi tiklanganligi to'g'risidagi ma'lumotlar rasmiy axborotnomada e'lon qilinadi.

Sanoat mulki obyektini patentning amal qilish muddati tugatilgan sana bilan patentning amal qilishi tiklanganligi to'g'risidagi ma'lumotlar e'lon qilingan sana oralig'idagi davrda sanoat mulki obyektidan foydalanishni boshlagan yoki buning uchun zarur tayyorgarlik ko'rgan shaxs ishlab chiqarish hajmlarini kengaytirmagan holda sanoat mulki obyektidan bepul foydalanish huquqini saqlab qoladi.

Patent egasi yozma ariza berib, sanoat mulki obyektini patentidan voz kechish huquqiga ega.

Bir nechta patent egalaridan birining sanoat mulki obyektini patentidan voz kechishi patentning amal qilishi tugatilishiga olib kelmaydi.

Sanoat mulki obyektini patentidan voz kechish Patent idorasi patent egasidan yozma ariza olgan sanadan e'tiboran amal qila boshlaydi.

Patent egasi sanoat mulki obyektini patentidan voz kechish niyati to'g'risida muallifni xabardor qilishi shart. Muallif bunday holda patentga egalik qilishda ustuvor huquqqa ega bo'ladi.

Agar sanoat mulki obyektini patenti litsenziya shartnomasining obyektini bo'lsa, shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, patentdan litsenziya egasining roziligi bilangina voz kechish mumkin bo'ladi.

Mahsulotda (buyumda) ixtironing, foydali modelning formula mustaqil bandiga kiritilgan har bir belgisi yoki unga muvofiq bo'lgan belgi qo'llanilgan bo'lsa, bu mahsulot (buyum) patentlangan ixtiro, foydali modeldan foydalanilgan holda tayyorlangan, ixtiro patenti bilan muhofaza etiladigan usul esa, qo'llanilgan deb e'tirof etiladi.

Mahsulotni olish usuliga berilgan patentning amal qilishi aynan shu usul yordamida olingan mahsulotga ham tatbiq etiladi. Bunda aksini isbotlovchi dalillar bo'lmasa, bu yangi mahsulot patentlangan usulda olingan deb hisoblanadi.

Agar mahsulotda patent berilgan sanoat namunasining muhim belgilari majmui bo'lsa, u patentlangan sanoat namunasidan foydalanilgan holda tayyorlangan deb e'tirof etiladi.

Sanoat mulki obyektini ustuvorligi belgilangan sanaga qadar uning muallifidan mustaqil tarzda aynan o'xshash bo'lgan yechimdan foydalangan yoki shunga yetarli darajada tayyorgarlik ko'rgan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs ishlab chiqarish hajmini kengaytirmagan tarzda, keyinchalik ham undan bepul foydalanish huquqini saqlab qoladi.

Avval foydalanganlik huquqi boshqa yuridik yoki jismoniy shaxsga faqat aynan o'xshash echimdan foydalanilgan yoki shunga yetarli darajada tayyorgarlik ko'rilgan ishlab chiqarish bilan birgalikda topshirilishi mumkin.

Patent egasi bo'lmagan har qanday shaxs patent bilan muhofaza qilingan sanoat mulki obyektidan faqat patent egasining ruxsati bilan litsenziya shartnomasi asosida foydalanishga haqli.

Patent egasi sanoat mulki obyektidan foydalanish huquqini har qanday shaxsga berish to'g'risida (ochiq litsenziya) Patent idorasiga ariza topshirishi mumkin. Bu holda patentni o'z kuchida saqlab turganlik uchun undiriladigan patent boji shunday ariza to'g'risidagi ma'lumotlar Patent idorasi tomonidan e'lon qilinganidan keyingi yildan boshlab ellik foizga kamaytiriladi.

Ochiq litsenziyani olish istagini bildirgan shaxs patent egasi bilan nomutlaq litsenziya berish to'g'risida shartnoma tuzishi shart. Shartnoma shartlari bo'yicha nizolar sud tomonidan ko'rib chiqiladi. Patent egasining ochiq litsenziyaga nisbatan huquq berish haqidagi arizasi chaqirib olinmaydi.

Sanoat mulki obyektidan patent egasining roziligisiz mutanosib miqdorda unga tovon to'lagan holda foydalanilishiga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda ruxsat berishi mumkin.

Agar patent egasi sanoat mulki obyektidan uning tarkibida boshqa yuridik yoki jismoniy shaxsga qarashli muhofaza qilinayotgan o'zga obyekt qo'llanilishi tufayli foydalana olmasa, patent egasi mazkur shaxsdan bu obyektidan shartnomada nazarda tutilgan shartlar asosida foydalanish uchun litsenziya berishni talab qilishga haqlidir.

Mualliflarga va sanoat mulki obyektlaridan foydalanuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarga soliq solish va kredit berishda imtiyozli shartlar belgilanadi, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq boshqa imtiyozlar beriladi.

Sanoat mulki obyektlariga huquqiy muhofaza berish bilan bog'liq yuridik ahamiyatga ega harakatlarni bajarganlik uchun patent bojlari undiriladi. Patent bojlari Patent idorasiga to'lanadi.

Patent bojlarining miqdori va ularni to'lash muddatlari, ularni to'lashdan ozod qilish, to'lov miqdorlarini kamaytirish yoki ularni qaytarib berish uchun asoslar, shuningdek patent bojlaridan foydalanish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Patent bojlari talabnoma beruvchi, patent egasi va boshqa manfaatdor shaxs tomonidan to'lanadi.

Patentni o'z kuchida saqlab turganlik uchun patent bojini to'lash maqsadida qo'shimcha patent boji to'langan taqdirda, patent egasiga olti oylik imtiyozli muddat beriladi.

Agar patentni o'z kuchida saqlab turganlik uchun patent boji va qo'shimcha patent boji imtiyozli muddat mobaynida to'lanmasa, patentning amal qilishi belgilangan muddatda patent boji to'lanmagan kundan e'tiboran tugatiladi.

Patent vakili yuridik va jismoniy shaxslarning Patent idorasi oldidagi vakillik huquqini amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashaydigan O'zbekiston fuqarosi patent vakili bo'lishi mumkin. Patent vakillariga qo'yiladigan malaka talablari, ularni attestastiyadan o'tkazish va ro'yxatga olish tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida doimiy yashovchi jismoniy shaxslar yoki chet ellik yuridik shaxslar sanoat mulki obyektlarini patentlash bo'yicha ishlarni va ular bilan bog'liq bo'lgan yuridik ahamiyatga ega harakatlarni Patent idorasida ro'yxatga olingan patent vakillari orqali amalga oshiradilar.

O'zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan, biroq vaqtincha uning hududidan tashqarida turgan jismoniy shaxslar sanoat mulki obyektlarini patentlash bo'yicha ishlarni va ular bilan bog'liq yuridik ahamiyatga ega harakatlarni O'zbekiston Respublikasi doirasida yozishmalar olib borish uchun manzilni ko'rsatgan holda, patent vakilisiz amalga oshirishlari mumkin.

Patent vakilining vakolatlari ishonchnoma bilan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasining yuridik va jismoniy shaxslari sanoat mulki obyektlarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda boshqa davlatlarda patentlash huquqiga ega.

Davlat sirlarini o'z ichiga olmaydigan ixtirolar va foydali modellarni boshqa davlatlarda patentlash tegishli talabnoma Patent idorasiga topshirilgan kundan e'tiboran uch oy o'tganidan keyin amalga oshirilishi mumkin.

Chet ellik yuridik va jismoniy shaxslar ushbu Qonunda nazarda tutilgan huquqlardan O'zbekiston Respublikasining yuridik va jismoniy shaxslari bilan teng ravishda yoki kelishuv prinsipi asosida foydalanadilar.

Sanoat mulki obyektlarini huquqiy muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

Sanoat mulki obyektlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

Kashfiyot deb bilim darajasiga tubdan o'zgartirish olib kiradigan ilgari noma'lum bo'lgan, ammo obyektiv mavjud bo'lgan moddiy nuqtaning hodisa, xossa va qonuniyatlarini tushuntirib beruvchi ta'limotga aytiladi.

Kashfiyotni himoya qilish maqsadi:

- Ilmiy mazmun ishonchliligini tasdiqlash uchun;
- Muallif va davlat ustunligini o'rnatish;
- Kashfiyot muallifining xususiyatlarini tan olish va unga tegishli imtiyozlar berish;
- Kashfiyot bilan bog'liq ilmiy-texnologik masalalarni hal qilishda ko'maklashish;
- Fan va texnikada, foydalanish uchun kashfiyotlarni davlat tomonidan ma'lumot uchun qabul qilinishi va hisobga olinishi;

Kashfiyot quyidagi hollarda e'tirof etiladi:

- Ilgari noma'lum bo'lgan, agar birinchi topilgan kungacha davlatimizda yoki xorijda e'lon qilinmagan bo'lsa, uchinchi shaxsга yetkazilmagan bo'lsa;
- Agar jiddiy xususiyatga ega bo'lib dunyoni ilmiy o'rganishga muhim hissa qo'sha olsa, bilim darajasiga tubdan o'zgartirishlar olib kirsa shu jumladan fan va texnika ravnaqi borasidagi yangi yo'nalishlar va yangi texnika yechimlarga asos solsa;
- Ilgari ma'lum bo'lgan nazariy tushunchalarni umuman o'zgartirib yuborsa;
- Ilgari ilmiy jihatdan tushuntirilmagan ilmiy haqiqatlarni izohlay olsa.

Kashfiyot quyidagi hollarda e'tirof etilmaydi:

- Foydali qazilmalar ijtimoiy fanlar sohasidagi jo'g'rofiy arxeologik kashfiyotlar tan olinmaydi.

Kashfiyotni himoya qilish maqsadi.

- Ilmiy mazmun ishonchlilikni tasdiqlash uchun;
- Mualliflik va davlat ustunligini o'rnatish;
- Kashfiyot muallifining xizmatlarini tan olish va unga tegishli imtiyoz berish;
- Kashfiyot bilan bog'liq ilmiy texnik masalalarni hal qilishda ko'maklashish;

- Fan va texnikada foydalanish uchun kashfiyotlarni davlat tomonidan ma'lumot uchun qabul qilinishi va hisobga olinishi.

Kashfiyot obyektlari–xodisa, xossa va qonuniylikdir:

- Hodisa deb ilgari noma'lum bo'lgan bilim darajasini tubdan o'zgartirishga olib keladigan obyektiv mavjud bo'lgan moddiy dunyo mohiyatining nomoyon bo'lish shakliga aytiladi.

- Xossa deb, ilgari noma'lum bo'lgan bilim darajasini tubdan o'zgartirishga olib keladigan moddiy dunyoni borlig'ining obyektiv mavjud sifatli tomoniga aytiladi.

- Qonuniylik deb, ilgari noma'lum bo'lgan bilim darajasini tubdan o'zgartirishga olib keladigan moddiy dunyo hodisalari va xossalari o'rtasidagi obyektiv mavjud bo'lgan barqaror munosabatiga aytiladi.

Kashfiyot ustunligi ilmiy qoidaning birinchi marta ta'riflab berilgan kundan, uning matbuotda e'lon qilingan vaqti va uchinchi shaxsga yetkazilgan kundan belgilanadi.

Kashfiyotni aniqlash tartiblari.

Kashfiyotlarni aniqlash deb – insonlarga javob beruvchi muhim ilmiy qoidalarni ma'lum qilmoq ilgari noma'lum bo'lgan obyektiv mavjud bilim darajasiga tubdan o'zgartirish kiritadigan ilmiy dalillarni belgilashga aytiladi.

Kashfiyotni aniqlash to'rt bosqichda o'tkaziladi:

1-bosqich – asos qidiruv tadqiqotni ilmiy amaliy injenerlik tadqiqotdan ajratish lozim. Tadqiqotning obyekti tabiiy yoki texnik bo'lishi mumkin va uni tartibli amalga oshirish kerak.

2-bosqichda – Kashfiyot predmeti hodisa, xossa, qonuniylikni oldindan belgilashga aytiladi.

3-bosqichda – Kashfiyot shakliga muvofiq kashfiyot predmeti qat'iy shakllanadi.

4-bosqich – bunda ilmiy qoida jamoatchilik tomonidan muhokama qilinadi.

Kashfiyot mualliflariga Diplom beriladi. Diplom quyidagilarni tasdiqlaydi:

- Taklifning kashfiyot deb tan olinishini;
- Mualliflik huquqi;
- Qanday, qachon yaratilganligini;
- Qanday hodisa, xossa qonuniyatni tushuntirib berishini.

23.3. Patent va litsenziya tushunchalari

Patentlash - O'zbekiston Respublikasi tashkilotlari, korxonalari, ayrim fuqarolarining chet el patentlari va boshqa tegishli muhofaza hujjatlarini ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalariga olish maqsadida, shuningdek tovar belgilarini amalga oshiriladigan barcha ishlar majmui. Mamlakatdagi sanoat mulklarini chet elda patentlashning umumiy maqsadi mamlakatdagi fan va texnika yutuqlaridan patent egasining roziligisiz chet el firmalari foydalanishidan himoya qilishdir:

1. Sanoat mahsuloti eksport himoyasi. Eksport obyektlarida foydalaniladigan sanoat mulklarini muvaffaqiyatli patentlash mazkur obyektlarning raqobatbardoshligini oshiradi. Ularga talab oshadi, patent bilan muhofazalangan tovarlarni ancha yuqori narxlarda sotish imkoni yuzaga keladi, valutasi foydali bo'lgan mamlakat tanlanadi, tashqi bozorda mustahkam o'rin egallanadi.

2. Chet mamlakatlarga butlovchilarni yetkazib berish himoyasi. Patentli sanoat mulklarini mana shunday obyektlar uchun mazkur yetkazib beruvchilar patent muhofazasini ta'minlaydi.

3. Sanoat mulklaridan foydalanish uchun litsenziyalar sotish. Litsenzion huquqiy munosabatlar mohiyati shundaki, huquqlar beriladi va litsenzion bitimga kirishuvchi tomonlar - Litsenziat (xaridor) va Litsenziar (sotuvchi) o'rtasida munosabat yuzaga keladi. Patentlashgan sanoat mulklaridan foydalanish uchun litsenziya sotish shartnoma (litsenzion shartnoma) asosida rasmiylashtiriladi, unga ko'ra patent egasi litsenziatga sanoat mulklaridan foydalanishga ijozat beradi. Mahsulotni eksport qilish xalqaro savdodagi mavjud cheklovlar tufayli foydasiz bo'lib qolgan hollarda litsenzion shartnomadan foydalaniladi.

4. Patentlarni ayirboshlash. O'zbekiston tashkilotlari va chet el firmalari o'rtasida keng ko'lamdagi ilmiy-texnikaviy va iqtisodiy shartnomalardan ko'zda tutilishi mumkin. Ayirboshlash majburiy bo'lishi ham mumkin, bunda patent huquqlariga zid kelib qoladi, bunday hol turli talabnomachilarga ikki va undan ortiq patent berilganda, shulardan bitta patent asosiy, boshqalaridan foydalanish uncha bog'liq bo'lmaganda yuzaga chiqadi.

5. Ishlab chiqarishni blokirovkalash. Ko'pchilik rivojlangan mamlakat-larning firmalari sanoat mulklarini muayyan tarmoqda ishlab chiqarish rivojining to'xtatish uchun sanoat mulkini patentlashtiradi. Ular patentlashgan sanoat mulkini o'z korxonalarida qo'llamaydilar va

boshqa firmalar sanoat mulklaridan belgilangan muddat ichida foydalanishlariga ruxsat bermaydilar. Sanoat mulklarini chet elda patentlash muallif yoki talabnoma beruvchi tavsiyasi asosida amalga oshiriladi. Sanoat mulklarini patentlash bo'yicha ish olib borayotgan tashkilot patentlashtiruvchi hisoblanadi.

Litsenziya – sanoat mulki obyektlari, nou-xau va boshqa ilmiy-texnikaviy yutuqlardan foydalanish uchun muayyan to'lov asosida huquqini berishi mumkin. Bularni huquqiy nuqtayi nazardan ikki guruhga bo'lish mumkin.

Birinci guruh huquqiy muhofazasi ichki qonunchilik va xalqaro shartnomalar asosida ta'minlanadi. Bular ixtiro, sanoat namunasi, foydali model, tovar belgilari.

Ikkinchi guruh shunday huquqiy muhofazadan foydalanmaydigan ilmiy-texnikaviy yutuqlarga taalluqlidir. Bular texnikaviy, boshqaruv, iqtisodiy, moliyaviy va boshqa bilimlar, yangi texnika, jarayon va materiallarni ishlab chiqish, o'zlashtirish va sotish bilan bog'liq tajriba va malakalardir. Huquqni berishli litsenzion shartnoma bilan rasmiylashtiriladi, unga muvofiq bir tomon (litsenziar) ikkinchi tomon (litsenziat)ga shunday vaziyatni - amalda va huquqda - yaratish kerakki, litsenziat shart-nomada belgilangan shartlar bo'yicha va ko'lamda muayyan texnikaviy yechimni ishlab chiqishga joriy etish va foydalanishi mumkin bo'lsin, ikkinchi tomoni esa buning uchun tegishli haq to'lashi yoki boshqacha ko'rinishda tovon berishi shart.

Litsenzion shartnoma-litsenziar va litsenziat o'rtasidagi sodir etilayotgan savdo bitimi bo'yicha huquq va majburiyatlarini tartibga soluvchi texnologik bilimlarni berish va o'zlashtirish xususidagi o'ziga xos savdo munosabatlarini ifodalashning huquqiy shakli. Shuning uchun litsenzion shartnoma tuzishda bitim shartnomasiga qat'iy amal qilish lozim.

Litsenzion shartnoma bo'yicha beriladigan huquq ko'lamiga bog'liq holda to'liq, mutlaq va mutlaq bo'lmagan litsenziyalar farqlanadi. To'liq litsenziya - asosan patent litsenziyasi, unga muvofiq litsenziar (patent egasi) Litsenziatga sanoat mulki obyektidan foydalanish huquq hech qanday cheklovlarsiz muhofaza hujjatining amal qilishi uchun olgan butun muddatiga beradi. Mutlaq litsenziya bo'yicha litsenziat obyektidan kelishilgan miqyosda foydalanish huquqini oladi. Ko'p hollarda miqyos bitim amal qilish muddati va hudud bo'yicha belgilanadi. Mana shu

miqyosda litsenziar huquqdan o'zi ham foydalana olmaydi, uni uchinchi shaxsga bera olmaydi.

Xalqaro iqtisodiy hamkorlikda ko'pchilik milliy kompaniyalar ishtirok etgan taqdirda litsenziyalash mamlakat uchun o'ta zarur bo'lgan mahsulotni sotib olish uchun chet el valutasidan oqilona foydalanishni, ishlab chiqarishda mahalliy mahsulot ishlab chiqaruvchilarga importning usishi zarar keltirmasligi, oziq – ovqat mahsulotlarning yetishmovchiligini oldini olish va ichki qishloq xo'jalik bozorini tartibga solish, chet el va milliy mahsulotlarning salmog'ini tartiblash maqsadida bajariladi. Yevropa mamlakatlarida litsenziyalash tartibi o'tgan asrning 70 – 80 yillarida to'liq shakllandi.

Hozirgi kunda deyarli barcha g'arb mamlakatlarida majburiy importga ruxsat berish bir qancha mahsulotlarga, o'z navbatida, mahsulotlarning ham turlari ko'p bo'lib, ularni eksport qilish uchun litsenziya beriladi. Hozirgi kunda narxlarning inflatsiyasi va erkin konvertatsiyalangan valutaga muhtoj bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlarda litsenziyalash tashqi iqtisodiy aloqalarni tartibga solishda keng qo'llanilmoqda. Bu davlatlarning hujjatlari mahsulotlarning ko'p turiga litsenziya joriy qilinmoqda.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda, bundan tashqari savdo narxlariga qo'shimcha turli xil talablar qo'yilmoqda. Masalan, chet el savdo materiallariga mamlakat mahsulotlaridan sotib olish mamlakatimizdagi mashinalarni import qiluvchilarga savdo jarayonini moliyalashtirish manbasi borligini tasdiqlashni talab qilmoqda. Rivojlangan va sobiq Ittifoq mamlakatlarida tashqi iqtisodiy aloqalarni litsenziyalash tizimlarida bir biridan farqi bo'lsada, ularning umumiy tasniflari ham bor. Avvalo barcha davlatlar asosan ikki xil litsenziyalashni qo'llashadi: asosiy (bosh) va shaxsiy. Bosh litsenziya xo'jalik subyektiga miqdoriy va narxiy tomonidan cheklanmasdan mahsulotlar barcha yoki aniq ko'rsatilgan mamlakatlar bilan savdo qilish uchun beriladi, shaxsiy litsenziya esa belgilangan mahsulot bilan bir marta savdo qilish uchun beriladi. Bu hujjatda nafaqat mahsulotni oluvchi, balki mahsulot miqdori, savdo qilish muddati ham ko'rsatiladi. Buning barchasi eksport – import operatsiyalarni qattiq nazorat qilish imkoniyatini beradi. Ikkinchi umumiy xususiyati iqtisodiyotning va tashqi savdo faoliyatini rivojlanish bilan shug'ullanuvchi cheklangan idoralarga litsenziyalar berishdan iborat. Uchinchi umumiy xususiyatlari ularning tulovligi. Hukumat tashqi savdo jarayonlariga ro'xsat berganligi uchun mukofat

olib tashqi iqtisodiy savdo aloqalar apparatini saqlash xarajatlarini davlat budgetidan eksportchi va importchilarga yuklatiladi. Xalqaro iqtisodiy aloqalarda ilmiy – texnik yutuqlarini litsenziya sotish bilan rivojlantirish afzalroq, chunki litsenziyalar bilan xalqaro savdo oddiy mahsulot bilan qilinadigan savdoga nisbatan jadal qadamlar bilan bajariladi.

Qisqa muddatlarda iqtisodiyot, texnika va texnologiyalarda yirik muvaffaqiyatlarga erishgan mamlakatlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki litsenziyalarni va "nou - xau" larni sotib olish ancha afzalroq. Ma'lumki, yangi mahsulotni ishlab chiqarish uchun 60 – 70 oy muddat kerak. Litsenziya kiritish esa o'rtacha 52 oyni tejab qoladi, tajribalar o'tkazish va ko'p miqdorda mahsulot chiqarishni yo'lga qo'yish uchun xarajatlar miqdorini keskin kamaytiradi. Litsenziyalarni import qilish foydali, chunki chiqarilgan mahsulotlar uchun ketgan xarajatlar litsenzion to'lovlarga nisbatan 25 marta ko'proq. Yangi texnologiyalar 40% ga ish unumdorligini oshiradi, ishchilarning malakasi esa faqat 15% ga oshiriladi. Litsenziya sotib olishning ahamiyatli sabablari:

- mahsulot ishlab chiqarishda vaqtinchalik oqsoqlikni bartaraf etish;
- birovning patentini aylanib o'tish imkoniyati yo'qligi;
- vaqt tejalishi. Litsenziya sotib olish mahsulot sifatini 93 – 99 % darajasiga kutarish imkoniyatini beradi, shu muammoni mustaqil hal qilishda esa bu daraja 70 – 80% ga etadi.

Litsenziya sotishning ahamiyatli sabablari:

- tayyor mahsulotlarni eksport qilish imkoniyatlari yo'qligi, qiyinchilik to'g'irishi, chiqarilayotgan mahsulotning hajmi kamligi, boj to'lovlarning yuqoriligi, davlat tomonidan sotish hajmini cheklanishi va h.k.

- mazkur litsenziya asosida mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun uskuna va xomashyoni sotishdan foyda olish imkoniyati yo'qligi.

Litsenziya bilan savdo qilish litsenzion kelishuvlarni imzolash bilan bajariladi. Litsenzion kelishuv deganda bir (litsenziar) yakka-yu yagona xuquqqa ega bo'lgan shaxs boshqa bir shaxsga (litsenziatga) mukofot berish evaziga litsenziyadan foydalanib shu ko'rsatilgan chegarada ruxsat berish tushuniladi. Hozirgi kunda litsenzion kelishuvga qo'yidagilar kiradi:

- patentlangan ixtirolar;
- patent bilan himoyalangan ixtirolar (ariza berilgan, lekin patent hali berilmagan hollar);

- “nou - xau” patent olinmagan texnik, savdo va tashkiliy bilim va tajribalar, bular ayrim belgilangan shaxslarga ma'lum bo'lib ular moddiy ustunlikka ega bo'ladi.

- sanoat namunalari;

- tovar belgilari. Litsenzion kelishuvlar kelishuv turiga qarab huquqiy himoyalangan obyektlar (patentlangan litsenziyalar) va huquqiy himoyalangan obyektlar (patentlanmagan litsenziyalar)ga bo'linadi. Litsenzion kelishuvlarda patentlar va “nou - xou”larni farqlab “nou - xau” o'ziga xos litsenzion obyektini ekanligini ta'kidlash mumkin. “Nou - xau”ning mohiyati to'g'risida Yaponiya firmalari tomonidan sotiladigan litsenziyalar nisbati misolida aytish mumkin. Patent uchun litsenziyalar umumiy sonidan 20%, “nou-xau” bilan birgalikda patentlar uchun litsenziyalar 30%, faqatgina “nou - xau”ni litsenziyalash esa 50% ni tashkil etadi. Xalqaro tajribada ikki guruh - “toza” va “yordamchi” litsenziyalardan foydalaniladi. Toza mahsulotlar tarkibida faqat “nou - xau” yoki ixtiroga tuzilgan litsenzion kelishuvlar kiradi. Bunday sotuvlar mashina va uskunalar bo'yicha bajarilishi mumkin. Yordamchi litsenziyalar odatda umumiy shartnomalar tarkibida bo'lib ayrim hollarda jamlangan uskunalar litsenziyalariga kiradi. Bu holatlarda alohida litsenzion kelishuvlar imzolamaydi va o'larning narxlari shartnomaning umumiy narxidan alohida bo'lmaydi. Berilgan huquqlar hajmiga qarab litsenzion kelishuvlar quyidagi turlarga bo'linadi:

- oddiy litsenziya shartnomasi;

- to'liq litsenziya shartnomasi;

- faqatgina belgilangan litsenziya shartnomasi;

- sublitsenziya shartnomasi.

Oddiy litsenziya shartnomasiga asosan litsenziarga kelishuvdagi mahsulotni mustaqil ravishda foydalanishga va shunga o'xshash litsenziyani uchinchi shaxslarga ham berishi mumkin. To'liq litsenziya shartnomasiga asosan litsenziar kelishuv litsenziyasidan faqat o'zi foydalanadi. To'liq litsenziya shartnomasi tuzilganda litsenziar ixtiroga berilgan huquqidan to'liq va muddatsiz voz kechadi. Tashqi savdo kelishuvlarda bunday shartnomalar deyarli ishlatilmaydi. Faqatgina belgilangan mahsulotlarga oid litsenziya shartnomasi asosan litsenziar litsenziatga mahsulotlarni sotishga ruxsat beradi va shartnoma muddatida uchinchi shaxslarga berishga va shu vaqtda o'ziga berilgan chegarada o'zining foydalanishi cheklanadi. Sublitsenziya shartnomasi –

litsenziat tomonidan uchinchi shaxslarga beriladigan litsenziya va bu oddiy litsenziya shartnomasiga o'xshaydi.

Litsenzion kelishuvlarida litsenziar ixtirodan yoki boshqa texnik echimdan foydalanish, sotish shartlari ko'rsatiladi. Odatda litsenzion kelishuvlardagi asosiy shartlariga quyidagilar kiradi:

- kelishuv tomonlari haqida ma'lumotlar (litsenziar va litsenziat to'g'risida ma'lumotlar);
- litsenzion kelishuvdagi atamalar izohi;
- kelishuv faoliyat yuritadigan hududni aniqlash;
- litsenzion kelishuvdagi mahsulotlarning tavsifi, bunda kafolatlangan texnik va iqtisodiy ko'rsatkichlar keltiriladi;
- litsenziatga beriladigan xuquqlari va unga yuklatiladigan vazifalar belgilanadi, taqdim etiladigan litsenziyaning turi ko'rsatiladi;
- ixtirodan foydalanish shakllari, maksimal va minimal hajmi va ixtirodan foydalanish muddati ko'rsatiladi;
- litsenziarning kerakli texnik hujjatlari, mahsulot namunalari, uskuna va mashinalarni yetkazish kabi vazifalari belgilanadi.

23.4. Innovatsion loyihalar ekspertizasi va uni olib borish usullari

Ekspertizada rejaning hamma tomonlarini va loyiha oqibatlarini detallashtirilgan holda yoritish lozim. Ushbu bosqichda loyihani joriy etish uchun asos solinadi. Ekspertiza bosqichida loyiha rejasi loyiha samaradorligini baholash uchun baza hisoblanadi.

Ekspertizaning asosiy vazifasi loyihaning hamma ijobiy va salbiy tomonlarini hisobga olgan holda, uning qiymatini aniqlashdir. Ekspertiza loyihaning yutuq va zarar tomonlarini har tomonlama chuqur yoritishdan tashkil topgan. Ushbu bo'limda quyidagilar chuqur o'rganiladi:

- texnik reja va uning tugallanish darajasi;
- atrof-muhitga ta'siri;
- tijorat kelajagi, mahsulotlarga bozordagi talab;
- milliy rivojlanish uchun loyiha oqibatlarini iqtisodiy tahlili;
- moliyaviy tahlil, loyihaning korxonaga moliyaviy faoliyatiga ta'sirining tahlili;
- ijtimoiy tahlil;
- institutsional tahlil.

Texnik ekspertizaning hajmi loyiha komponentlari tarkibiga bog'liq, ammo ko'pchilik hollarda quyidagi texnik omillar tahlil qilinadi:

- loyiha komponentlarining o'lchamlari va o'zaro munosabatlari;
- loyiha uchun o'rnatilayotgan materiallar, dastgohlar, jarayonlar va texnik sistemalarning mustahkamligi;
- loyiha uchun resurslarning mavjudligi va sifati;
- loyiha uchun foydalanilayotgan servis darajasi va infrastrukturaning mustahkamligi;
- loyihani amalga oshirish va ishlatish uchun taklif qilinayotgan metodlar;
- kontraktlar tuzish tartibi, materiallarni sotib olish mexanizmi;
- loyihani amalga oshirish bosqichlari, muddati va bajarilishi.

Texnik ekspertizada kapital mablag'lar va xarajatlar tahlil qilinishi va jismoniy omillarga kerakli o'zgartirishlar kiritilganligi aniqlash lozim.

Loyihaning tijorat aspekti sarflanadigan resurs va xizmatlarni sotib olish va ishlab chiqarilgan mahsulotni sotish bo'yicha tadbirlardan tarkib topgan. Bu yerda birinchi navbatda xomashyo yetkazuvchilar bilan tuzilgan kontraktlar ekspertiza qilinadi, chunki samarasiz sotib olish faoliyat xarajatlarning ko'payishiga olib keladi va loyihadan olinadigan foydani kamayishiga olib keladi. Ushbu ekspertiza davlat va loyiha to'g'risida quyidagi ma'lumotlarni talab qiladi:

- mahalliy tovar va xizmatlarning mavjudligi, bahosi va sifati;
- mahalliy qayta ishlovchi va qurilish sanoatining imkoniyati;
- kontrakt bo'yicha eksport va import jarayonlarini boshqaruvchi qoida va mahalliy qonunlar;
- shartnomani bajarmaganlik uchun javobgarlik shakllari;
- loyiha xususiyatlari bo'yicha ma'lumotlar;
- kerakli ishlab chiqarish quvvati, material va xizmatlar ro'yxati;
- tuzilgan kontraktlar soni, hajmi va turi;
- mol yetkazish grafigi;
- foydalanilayotgan mol yetkazish usuli.

Ko'pchilik hollarda loyiha uchun kerakli material va xizmatlarni xalqaro savdo konkurslarida sotib olish maqsadga muvofiqdir. Chunki ushbu konkurslarda baholar past, shartnoma sifatli bo'ladi. Shuning uchun Jahon banki kontraktlarni faqat ushbu konkurslarda tuzishni taklif qiladi. Ushbu ekspertizaning yana bir vazifasi marketing tomonidan

loyihaga baho berishdir. Ya'ni mahsulot xarajatlarini qoplash va foyda olishni ta'minlovchi bahoda sotilishi mumkinligini aniqlashdir. Umuman qilib olinganda ushbu bo'limda quyidagi tahlillarni o'tkazish talab qilinadi:

- resurslarning sifati va ularning baholarini aniqlash;

- mahsulotlarga talab marketing bo'yicha tadbirlar ehtimollar bo'yicha sotish bahosi.

Loyihani tabiatga bog'liqligini hisobga olgan holda marketing quyidagilardan tashkil topgan bo'lishi kerak:

- loyiha mahsulotlarini tashish, saqlash va sotish;

- sotib olish uchun kreditlarning mavjudligi;

- iste'molchilarni himoyalash va boshqa qonun va standartlar.

Moliyaviy ekspertiza loyihaning moliyaviy hayotiylikini tekshiradi va loyihani asosli boshqarish uchun chora-tadbirlar ishlab chiqaradi.

Moliyaviy ekspertiza hamma vaqt o'z ichiga moliyaviy rejani yoritishdan tashkil topgan. Bundan tashqari moliyaviy ekspertiza quyidagi ko'rsatilgan omillarni hisobga oladi:

- loyiha rentabelligi;

- loyihada moliyaviy foyda oluvchilar uchun moliyaviy natijalar, moliyaviy tavakkalchilik;

- loyihaning milliy budjetga ta'siri;

- firmaning moliyaviy avtonomlik darajasi;

- moliyaviy faoliyat standartlari.

Moliyaviy ekspertizaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- moliyaviy istiqbollar asoslanganmi;

- baho siyosati va tariflar darajasi to'g'rimi;

- xarajatlarni kamaytirish yoki mehnat sig'imi ko'rsatkichlarini yaxshilash mumkinmi.

Ekspertiza loyiha rejasi va natijasi hamma aspektlarini detalli umumlashtirib beradi. Ushbu bosqichda loyihani joriy qilishga asos solinadi. Ekspertiza bosqichida qabul qilingan loyiha rejasi loyiha samaradorligini baholovchi baza bo'lib xizmat qiladi. Ekspertizaning asosiy tomonlaridan biri ijtimoiy aspektidir. Ijtimoiy aspektlar, ijtimoiy tashkilotlarni, an'anaviy va sistema boyliklarni o'z ichiga oladi. Ma'lum rayon uchun tuzilgan loyiha rejasi jamiyat munosabatlarini, u er aholisining demografik xarakteristikasini hisobga olgan bo'lishi lozim. Ko'pchilik hollarda loyiha qatnashchilari odamlarning faoliyati bo'yicha

aniqlangan guruhlarga tegishli bo'lib qoladi (transportdan foydalanuv-chilar, talabalar, kolxozchilar va hokazo).

Tayanch iboralar

Innovatsion markaz, ilmiy-texnika taraqqiyot, tajriba konstruktorlik ishi, eksperimental namuna, standartlashtirish tizimi, konstruktorlik hujjatlari, mehnat xavfsizligi tizimi, rasmiy ekspertiza, tezlashtirilgan ekspertiza, litsenzion bitim, ishlab chiqarishni blokirovkalash, litsenzion shartnoma, litsenziar, institutsional tahlil, loyiha komponentlari, texnik ekspertiza, loyiha rentabelligi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Ilmiy-tadqiqot tajriba-konstruktorlik ishlarining vazifalari va tamoyillari.

2. Ilmiy-tadqiqot tajriba-konstruktorlik ishlari qanday bosqichlardan tashkil topadi?

3. Ixtiroga bo'lgan huquqni rasmiylashtirish jarani qanday bosqichlardan iborat?

4. Moliyaviy ekspertiza qanday ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi?

5. Texnik ekspertizaning hajmi loyiha komponentlari tarkibiga kiruvchi qanday omillar tahlilini talab etadi?

6. Ekspertizaning ijtimoiy aspekti tarkibi qanday omillarni o'z ichiga oladi?

XXIV BOB. INTELEKTUAL MULK VA INTELLEKTUAL MULK BOZORI

Mazkur bobda intellektual mulk tushunchasi, uning mazmun-mohiyati, intellektual mulk bozori faoliyati, intellektual mulk bozori rivojlanishining tarixiy asoslari, intellektual mulk bozori faoliyatini tartibga solishning milliy va jahon tajribasidagi o'ziga xos xususiyatlar, O'zbekistonda intellektual mulk bozori faoliyatini rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

24.1. Intellektual mulkning mohiyati va obyektlari

«Intellekt» - lotincha soʻz boʻlib «aql» ma'nosini bildiradi. Intellektual faoliyat natijalari ijodiy faoliyat hisoblanadi. Bu ko'p hollarda aqliy mehnat kishilari – yozuvchilar, shoirlar, rassomlar, olimlar, injener texnik xodim va boshqalar faoliyatining mahsullaridir. Bu mahsullar o'zining yangiligi yoki o'ziga xosligi, takrorlanmas belgilariga ega bo'ladi. Shu sababli ham ularga nisbatan odatdagi ashyo, moddiy obyektga nisbatan qo'llaniladigan huquq meyorlarini qo'llab bo'lmaydi. Bu mahsullar fuqarolik qonunlari bilan qo'riqlanishi uchun quyidagi shartlarga javob berishi kerak:

- haqiqatda ijod mahsuli bo'lishi, ya'ni original (o'ziga xos) bo'lishi;
- betakror bo'lishi;
- biron-bir obyektiv shaklda ifoda etilishi.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari intellektual faoliyatning quyidagi natijalarini farqlaydi:

- ixtiro, foydali model, sanoat namunalari;
- seleksiya yutuqlari;
- mualliflik va turdosh huquqlar obyektlari - fan, adabiyot, san'at asarlari, audivizual asarlar, radio eshittirishlar va televizion ko'rsatuvlari, asarlar ijrolari, EHM uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumot bazalari;
- integral mikrosxemalar toplogiyalari.

Insonning ijodiy tafakkuri bu obyektlar doirasini tinmay kengaytirib bormoqda. Intellektual faoliyat natijasini yaratgan ijodkor yaratgan mahsuliga intellektual mulk huquqiga ega bo'ladi.

Intellektual mulk obyektlar fuqarolik huquqining boshqa obyektlari - ashyolar, qimmatbaho qog'ozlardan quyidagi xususiyatlari bilan farq qiladi.

A) intellektual faoliyat natijalari ko'p hollarda moddiy ko'rinishda emas balki, g'oya bilan axborot shaklida namoyon bo'ladi.

B) G'oya, bilim shaklidagi intellektual mulk obyektiga odatda moddiy ashyoga egalik qilganday egalik qilish mumkin emas.

S) Bunday obyektlardan bir vaqtning o'zida cheksiz doiradagi shaxslar foydalanishi mumkin.

D) Intellektual mulk huquqi obyektlariga mulk huquqining bemuddat ekanligi haqidagi qoida qo'llanilmaydi.

E) qonunda belgilangan muddatlar o'tishi bilan intellektual mulk sohibining ma'lum intellektual mulkiga nisbatan huquqlari bekor bo'ladi va bu obyektlar umuminsoniy boylikka aylanadi, har nima undan ma'lum shartlar asosida tekin va ruxsatsiz foydalanishga haqli bo'ladi.

F) intellektual mulk obyektlariga nisbatan mulk huquqini himoya qilishda vijdonan da'voni qo'llash imkoniyati amalda mavjud emas.

G) Intellektual mulk huquqi obyektlariga nisbatan odatdagi mulk huquqi emas, mutlaq huquqlar haqidagi qoidalar qo'llaniladi.

Z) Intellektual mulk huquqining amal qilishi, ayni vaqtda ma'lum hudud bilan chegaralangan bo'ladi. Ixtiroga berilgan O'zbekiston Respublikasi Patent idorasini patenti bilan ixtiro davlatimiz hududida amal qiladi.

K) Ko'pgina intellektual mulk obyektlariga nisbatan ularning mualliflar shaxsiy huquqlari mavjud bo'lib, bu obyektlardan foydalanuvchilarda bu shaxsiy huquqlarga rioya qilishlari lozim. Ushbu xususiyatlarga ega bo'lgan intellektual faoliyat natijalariga quyidagilar kiradi:

– Fan, adabiyot, san'at asarlari, eshittirish tashkilotlarining ijrosi, fonogrammalari va ko'rsatuvlari;

– EHM dasturlari va ma'lumot bazalari;

– Ixtiro, foydali modellar, san'at namunalari seleksiya yutuqlari;

– Oshkor etilmagan axborot, shuningdek ishlab chiqarish siri ya'ni nou-xaular.

Shuningdek, fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining o'zlarini uning ishlab chiqargan tovarlari, bajargan ishlari va ko'rsatadigan xizmatlarining alomatlarini aks ettiruvchi vositalar ham intellektual faoliyat natijalariga tenglashtiriladi. Bunday belgilarga:

- firma nomlari;
- tovar belgilari;
- tovar chiqarilgan joyning nomi;

Ko'rsatiladigan xizmatlar va bajariladigan ishlar ham fuqarolik huquqining obyektlari bo'lishi mumkin. Ma'lumki, fuqarolar va tashkilotlar o'zlariga qonun yoki o'zaro tuzilgan shartnomalar bo'yicha yuklatilgan xizmatlarni yoxud ishlarni amalga oshiradilar. Masalan, pudrat shartnoma-siga muvofiq xilma-xil kiyimlar, uy-ro'zg'or ashyolari va boshqa narsalarni tayyorlaydilar, ta'mirlaydilar. Qurilishga oid pudrat shartnomasiga binoan turar joy qurilishi va boshqa qurilish ishlari amalga oshiriladi. Omonat shartnomasi bo'yicha mulklar omonat saqlanadi.

Topshiriq shartnomasi yuzasidan fuqaro va tashkilotlarning turli topshiriqlari amalga oshiriladi. Vositachilik shartnomasi bo'yicha fuqarolarning buyumlari sotish uchun qabul qilinadi va sotiladi, jamoa xo'jaliklari a'zolarining o'zlaridan ortiqcha qishloq xo'jalik mahsulotlari ham sotish uchun qabul qilinib, keyinchalik vositachilik asoslarida sotiladi va hokazo. Ishlarning natijasi moddiy ko'rinishda bo'ladi.

Xizmat ko'rsatish tufayli, masalan, repititorlik xizmati tufayli ilma'rifat o'quvchiga singdiriladi, sayyohlik xizmati tufayli sayyohlarga tegishli xizmat ko'rsatiladi. Xizmatlarning natijasi odatda, g'oyaviy, nomoddiy ko'rinishda bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunlari intellektual faoliyat natijalarini quyidagicha farqlaydi:

- ixtirolar, foydali model, sanoat namunalari;
- mualliflik va turdosh huquqlar obyektlari – fan, adabiyot, san'at asarlari, radioeshittirishlari va televidenie ko'rsatuvlari, EHM dasturlari va ma'lumotlar ba'zalari.

Fuqarolik Kodeksining 97-moddasiga binoan yuridik shaxsni induviduallashtirish vositalari, jismoniy va yuridik shaxslarning mahsulotlari va xizmatlari ham intellektual faoliyat natijalariga tenglashtiriladi.

Fuqarolik Kodeksining 97-moddasiga muvofiq intellektual faoliyat natijalari va ularga tenglashtirilgan induviduallashtirish vositalariga nisbatan fuqaroning yoki yuridik shaxsning mutlaq huquqi e'tirof etiladi.

Buning ma'nosi shundan iboratki mutloq huquq egasi intellektual faoliyat natijalari va induviduallashtirish vositalaridan foydalanish va tasarruf etishda faqat o'zigagina tegishli bo'lgan huquq egasidir. Bu huquqlar egasi 3 shaxsga bu obyektlardan foydalanishga ruxsat berishi yoki ta'qiqlab qo'yishga haqli.

Intellektual faoliyat natijalarini yaratish, ulardan foydalanish, ularni tasarruf etish va huquqiy muhofaza qilishda vujudga keladigan munosabatlarni Fuqarolik Kodeksi moddalari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 1994-yil 6-mayda qabul qilingan «Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida»gi qonunlar tartibga soladi.

24.2. Intellektual mulk bozorini rivojlanishining tarixiy asoslari

Ma'lumki intellektual mulkning turli obyektlari bo'yicha xalqaro miqyoslarda o'nlab, yuzlab xalqaro bitimlar, kelishuvlar, konvensiyalar amal qiladi. Ularning dastlabkilari XIX asrning ikkinchi yarmida ishlab chiqilgan. Ularning ishlab chiqib qabul qilinishiga turtki bergan holat – bu intellektual mulk obyektlarini xalqaro miqyoslarda muhofaza etishdir.

Odatda, har bir mamlakat qonunlari shu mamlakat hududida intellektual mulk obyektini himoya qiladi. Agarda masalan, ixtiro, sanoat namunasi bo'yicha patent egasi bu obyektlar bo'yicha bir necha mamlakatda huquqiy muhofaza olmoqchi bo'lsa, bu mamlakatlarning har birida patent olmog'i lozim bo'ladi. O'z fuqarolarini intellektual mulk obyektiga nisbatan xorijiy davlatlarda huquqiy muhofazaga olishni kafolatlash maqsadida 1883-yilda 11 davlat sanoat mulkini muhofaza qilish bo'yicha Parij Konvensiyasini imzoladi va Xalqaro Parij Ittifoqini tuzdi. Hozirgi vaqtda ushbu Konvensiyani 110 dan ortiq mamlakat imzolagan. O'zbekiston Respublikasi ham Parij Konvensiyasining ishtirokchisi hisoblanadi. Konvensiyada uning qatnashchisi bo'lgan davlatlar sanoat mulkining ayrim sohalari bo'yicha mahsus bitimlar tuzishi mumkinligi nazarda tutilgan. Albatta bunday bitimlar Konvensiyaga zid bo'lmasligi shart.

Parij Ittifoqi kotibiyati vazifasini BMT bajaradi. Konvensiyaning dastlabki matni 1883-yilda tuzilgan, 1891-yilda Madridda Tushuntirish bayonnomasi bilan to'ldirilgan, 1900-yilda Brusselda, 1911-yilda Vashingtonda, 1925-yilda Gaagada, 1934-yilda Londonda, 1958-yilda Lissabonda, 1967-yilda Stokgolmda qayta ko'rib chiqilgan va 1979-yilda unga tuzatishlar kiritilgan. Konvensiya barcha davlatlar uchun ochiq.

Ratifikatsiya yorlig'i yoxud qo'shilish haqidagi hujjat BMT Bosh direktoriga saqlash uchun topshirilishi lozim. Tovarlarining kelib chiqishi bo'yicha yolg'on yoki chalg'ituvchi ko'rsatkichlarning oldini olish to'g'risida Madrid bitimi 1891-yilda imzolangan bo'lib, ushbu bitim 1891-yilda tuzilgan. 1911-yilda Vashingtonda, 1925-yilda Gaagada, 1931-yilda Londonda, 1958-yilda Lessabonda va 1967-yilda Stokgolmda qayta ko'rib chiqilgan. Ushbu bitim Parij Konvensiyasi ishtirokchilari bo'lgan davlatlar uchun ochiqdir. Ushbu bitimga asosan agarda tovarning kelib chiqishi bo'yicha yolg'on yoki chalg'ituvchi ko'rsatkichlar bo'lsa va ko'rsatkichlar ishtirokchi davlatlardan birining yoki uning hududini tovarning kelib chiqish joyi yoki tayyorlangan mamlakat sifatida bevosita yoki bivosita ko'rsatsa bunday tovarlarni olib kirishga arest solinadi yoki ularni olib kirish ta'qiqlanadi yoki ularni olib kirishga nisbatan boshqa choralar yoki sanksiyalar qo'llaniladi.

Bitimda bunday arest solishni talab qilish va uni amalga oshirish holatlari va usullari belgilab qo'yilgan. Ushbu bitimga asosan tovarning kelib chiqish manbaiga nisbatan ommani chalg'itishi mumkin bo'lgan har xil reklama belgilari va bu belgilardan foydalanib tovarni namoyish etish, sotishga va ulardan foydalanishga taklif etish taqiqlanadi. Har bir ishtirokchi davlatlarning sudlari qanday nomlar ushbu bitim ta'sir doirasiga kirmasligini belgilashga haqli (vinochilik mahsulotlarining mintaqaviy nomlaridan tashqari).

Olimpiya ramzlarini muhofaza qilish bo'yicha Nayrobi shartnomasi 1981yilda imzolangan. Ushbu shartnoma Butunjahon intellektual mulk tashkiloti, Parij Ittifoqi, BMT yoki BMT bilan bog'liq bo'lgan u yoki bu ixtisoslashtirilgan muassasalarning a'zolari bo'lgan davlatlar uchun ochiqdir. Ushbu shartnomaning ishtirokchisi bo'lgan barcha davlatlar Olimpiya ramzlarini beshta tutash halqalar tasvirlarini xalqaro olimpiada qo'mitasi ruxsatisiz tijorat maqsadida (reklama e'lonlarida, tovarlarda tovar belgisi sifatida) foydalanishdan muhofaza qilishi shart. Shartnoma shuningdek Olimpiya ramzlaridan tijorat maqsadlarida foydalanish

uchun ruxsat berishda olinadigan litsenziya bo'jlaridan tushgan daromadning bir qismi tegishli manfaatdor milliy olimpiya qo'mitalari hisobiga o'tkazilishini nazarda tutadi.

Patent kooperatsiyasi to'g'risida shartnoma 1970-yil tuzilgan bo'lib, sharnomaga 1979, 1984-yillarda qayta ko'rib chiqilgan. Ko'p hollarda yuridik adabiyotlarda bu shartnoma uning inglizcha nomi bosh harflari bilan «RST» deb ham beriladi. RST Parij Konvensiyasi a'zolari bo'lgan barcha ishtirokchi davlatlar uchun ochiqdir. O'zbekiston Respublikasi ham ushbu shartnomaning ishtirokchisi hisoblanadi. Shartnomada «Xalqaro» patent talabnomasi berilishini nazarda tutadi. Bunday talabnoma ishtirokchi davlatning har qanday fuqarosi yoki unda istiqomat qiluvchi shaxs tomonidan berilishi mumkin.

Talabnoma uni berayotgan shaxs fuqarosi bo'lgan yoki hududida yashab turgan ishtirokchi davlatning milliy patent idorasiga beriladi. Agarda talabnoma beruvchi Yevropa patent konvensiyasining ishtirokchisi bo'lgan davlatning fuqarosi bo'lsa yoki uning hududida istiqomat qiluvchi shaxs bo'lsa xalqaro talabnoma Yevropa patent idorasiga berilishi mumkin; agar talabnoma beruvchi Barbados, Madagaskar, Shri Lanka yoki Afrika intellektual mulk tashkiloti a'zosi bo'lgan davlatning fuqarosi bo'lsa yoki uning hududida istiqomat qilsa xalqaro talabnoma BIMTga berilishi mumkin.

So'ngra xalqaro talabnoma xalqaro izlanishlar yoki qidirishlar predmeti bo'lib hisoblanadi. Bunday izlanishlar yoki qidirishlar yirik patent idoralarinin biri tomondan amalga oshiriladi (ya'ni Avstraliya, Avstriya, Rossiya, AQSH, Shvetsariya, Yaponiya va Yevropa patent idorasi). Bunday qidiruvlar natijasida xalqaro izlanishlar to'g'risida hisobot tayyorlanadi. Bu hisobotda xalqaro talabnomada ilgari surilgan ixtironing patent sofligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan va boshqa shaxslarga berilgan patentlarning hujjatlari, ya'ni e'lon qilingan hujjatlarning havolaki ro'yxati o'z ifodasini topadi. Xalqaro izlanishlar haqidagi hisobot talabnoma beruvchiga yuboriladi. U esa, o'z navbatida, agarda hisobot xulosasidan uning patent olish ehtimoli kamligi anglashilsa talabnomani qaytarib olishi mumkin.

Agarda talabnoma beruvchi milliy yoki mintaqaviy patent olish maqsadida xalqaro talabnomani qoldirishni istasa u muayyan shartlarga rioya qilgan holda har bir belgilangan idoraga bu idoraning rasmiy tilida tayyorlangan talabnomalar berishi lozim. Bunda u xalqaro talabnoma berilgandan keyin 20 oy muddat ichida, biroq agarda bu talabnoma

avvalgi talabnomaning ustuvorligiga dahl qiladigan bo'lsa, o'sha avvalgi talabnoma berilgandan boshlab 20 oygacha muddat ichida belgilangan miqdorda boj to'lashi lozim. Agarda talabnoma beruvchi «Dastlabki xalqaro ekspertiza xulosasi»ning berilishini so'rsa, 20 oylik muddat yana 10 oyga uzaytiriladi. Bunday xulosa yirik patent idoralari tomonidan tayyorlanishi lozim va taqdim etilgan ixtironing patentga layoqatli ekanligi to'g'risidagi fikri majburiy kuchga ega bo'lmaydi.

Patent protsedurasi maqsadlari uchun mikroorganizmlarni elektronlashtirishni xalqaro tan olish haqida Budapesht shartnomasi 1977-yilda imzolangan bo'lib, ushbu shartnoma 1980 yilda qayta ko'rib chiqilgan. Shartnoma Parij Konvensiyasi ishtirokchilari bo'lgan davlatlar uchun ochiqdir.

Odatda patent berishning sharti – ixtironing mohiyatini oshkor qilish hisoblanadi. Oshkor qilish esa ixtironing yozma bayoni orqali amalga oshiriladi. Biroq ixtiro mikroorganizmlar bilan yoki ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lsa, ixtironi yozma tasvirlash, bayon etishning iloji yo'q. U omma uchun ochiq bo'lgan ixtisoslashtirilgan muassasalarda mikroorganizmlar namunalarini deponlashtirish orqali amalga oshiriladi.

Shartnomada ko'rsatilgan deponlashtirish bo'yicha xalqaro organ ilmiy muassasa hisoblanib, mikroorganizmlarni, o'simliklarni, shtamplarini, kolleksiyalarini saqlashni amalga oshirishga qodir bo'lishi lozim. Bunday muassasa deponlashtirish bo'yicha xalqaro organ maqomini olish uchun ishtirokchi davlatlardan biri BIMT bosh direktoriga ushbu muassasa shartnomada belgilangan talablarga javob berishi haqida kafolat berishi shart.

Hozirgi paytda jahon bo'yicha 25 ta bunday muassasa bor. Ulardan 2 tasi AQSHda, 3 tasi Rossiya Federatsiyasida, Buyuk Britaniyada 7 ta, Koreya Respublikasida 2 ta, Avstraliya, Belgiya, Bolgariya, Vengriya, Germaniya, Ispaniya, Niderlandiya, Sloveniya, Fransiya, Chexiya va Yaponiyada 1 tadan joylashgan. Shartnoma eng avvalo bir necha ishtirokchi davlatga patent talabnomasi bergan depozitor uchun qulaydir.

Kelib chiqish joylari nomlarini va ularni xalqaro qayd etishni muhofaza etish to'g'risida Lissabon bitimi 1958 yilda tuzilgan bo'lib, 1967-yilda Stokgolmda qayta ko'rib chiqilgan va 1979 yilda uning matniga tuzatishlar kiritilgan. Ushbu bitim Parij Konvensiyasi ishtirokchi davlatlari uchun ochiqdir. Bitimdan ko'zlangan maqsad kelib chiqish joylari nomlarini muhofaza qilishni ta'minlash hisoblanadi.

Ya'ni bunday mamlakat, tuman yoki joyning geografik nomi shu mamlakatdan, tumandan yoki joydan kelib chiqqan buyumning tovarni belgisi bo'lib xizmat qiladi. Bunday belgi qo'llashning asosiy sharti buyumning tovar sifati va xususiyatlari, u kelib chiqqan joyning geografik muhiti, shu jumladan tabiiy va insoniy omillar bilan mutloq yoki o'ziga xos ravishda bog'liq bo'lishi shart.

24.3. Intellektual mulk obyektlarini himoya qilishning huquqiy asoslari

Bugungi kunda intellektual mulkka oid qonunchilikning izchil isloh qilinayotgani intellektual mulkning asosiy kategoriyalardan biri sifatida rivojlanayotganidan dalolat beradi, chunki intellektual mulk iqtisodiy rivojlanishning asosiy ko'rsatkichlaridan biri yoki ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida, bir birlik mahsulot va xizmat uchun xarajatlar birligini kamayib borishini belgilab beruvchi ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Respublikamizda ham intellektual mulkka oid qonunchilik joriy etilib, tarkiban va mazmunan yillar davomida jahon standartlariga mos ravishda yangilandi. Jumladan, O'zbekiston Jahon intellektual mulk tashkilotiga (BIMT) 1991-yilda a'zo bo'ldi.

O'zbekistonda intellektual mulk huquqlarini muhofazalash bilan bog'liq masalalarni tartibga soluvchi quyidagi qonunlar amal qiladi:

- 1996 yil 30 avgustda qabul qilingan "Mualliflik huquqlari va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonun;

- 1994 yil 6 mayda qabul qilingan va 1997-yil 26-dekabrda o'zgartirilgan "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi qonun;

- 1993 yil 7 mayda qabul qilingan va 1997-yil 26-dekabrda o'zgartirilgan "Tovar belgilari va xizmat ko'rsatish belgilari to'g'risida"gi qonun;

- 1994 yil 6 mayda qabul qilingan "EHM va ma'lumotlar bazalari uchun dasturlarni huquqiy muhofazalash to'g'risida"gi qonun; 1996 yil 30 avgustda qabul qilingan "Seleksiya yutuqlari to'g'risida"gi qonun;

- 2001 yil 12 mayda qabul qilingan "Integral mikrochizmalar topologiyasini huquqiy muhofazalash to'g'risida"gi qonunlardir. O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq davlatimizda intellektual

mulk sohasida vakolatli organ sifatida O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi faoliyat yuritadi:

O'zbekiston Respublikasi Davlat patent idorasi, uning vazifasi sanoat mulki obyektlarini muhofazalash sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirishdan iborat. Muallifga shuningdek mualliflik nomi huquqi ham berilgan bo'lib, unga muvofiq muallif o'z obyektiga o'zining nomi yoki boshqa nomni berishi huquqiga ega. Intellektual mulk obyektlariga mulkiy huquqlar fuqaro yoki yuridik shaxsning shu obyektga alohida huquqlaridir. Faqat alohida huquqlar egasi intellektual mulk obyektidan boshqa shaxslar foydalanishiga ruxsat berishi yoki man etilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasining mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risidagi qonun hujjatlari fan, adabiyot va san'at asarlarini (mualliflik huquqi), sahna asarlarini, ijrolarni, fonogrammalarni, efir va kabel orqali ko'rsatuv hamda eshittirishlar beruvchi tashkilotlarning ko'rsatuv va eshittirishlarini yaratish hamda ulardan foydalanish natijasida kelib chiqadigan intellektual mulk sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Alohida huquqlar faqat qonunda ko'zda tutilgan hollarda va faqat intellektual mulk obyektlaridan normal foydalanishga hamda uning egasining qonuniy manfaatlariga zarar yetkazilmagan taqdirdagina cheklanishi mumkin.

Milliy qonunlarimizda patent huquqi, mualliflik huquqi va turdosh huquqlar e'tirof etilgan holda, barcha tafakkur mulkining huquqiy muhofaza qilinishi aks etgan.

Respublikamizda intellektual mulkni himoya qilish tizimining yaratilishini quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin.

Birinchi bosqich – 1991-1995 yillarga to'g'ri kelib, bu davr jahon patent tizimi tajribasini o'rganish, sohaga oid ixtisoslashgan xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lish, milliy qonunchilik asoslarini yaratish, davlatning vakolatli organi, ya'ni Davlat patent idorasi, Mualliflik huquqini himoya qilish agentligining tashkil etilishi va oyoqqa turishi yillari bo'ldi.

Ikkinchi bosqich – 1996-2002 yillarga to'g'ri keladi. Bu davrda intellektual mulk boyliklarini huquqiy jihatdan muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlari takomillashtirildi.

Uchinchi bosqich – 2003-yildan boshlanib, hozirgacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Huquqiy muhofaza qilinadigan intellektual mulk obyektlari haqida jamoatchilikni xabardor qilish, respublikamizda olib borilayotgan sohaga oid islohotlarni dunyo jamoatchiligiga yetkazish,

sohaga oid milliy qonunchilikning qo'llanishi, omma o'rtasida targ'ibot ishlarini yuritish kuchayganini shu yillarda ko'rish mumkin.

Keyingi yillarda iqtisodiyotni modernizatsiyalash, ishlab chiqarish sohalariga innovatsiyalarni keng joriy qilish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, zamonaviy mahsulotlarni jahon bozoriga chiqarish va xalqaro savdo tizimida munosib o'rinni egallash yo'lida ulkan ishlar qilinmoqda. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidentining 2006-yil 7-avgustdagi «Fan va texnologiyalar rivojlanishining muvofiqlashtirish va boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi hamda 2008-yil 1-iyuldagi «Innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorlarida yaqin yillarga mo'ljallangan yo'nalishlar belgilab berildi. Ayniqsa, bu borada «O'zbekiston Respublikasining Intellektual mulk agentligini tashkil etish to'g'risida»gi qaror yuqorida ko'rsatilgan muhim masalalarni hal etish, intellektual mulk sohasida yagona davlat siyosatini yuritish yo'llarini ko'rsatib berdi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 8-iyunda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining intellektual mulk agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, agentlik JIMTda va intellektual mulk sohasidagi boshqa xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarda mamlakatimiz nomidan ish yuritadi.

24.4. Intellektual mulkni himoya qilishning jahon tajribasi

XIX asrning oxirlariga kelib intellektual faoliyat mahsullari taraqqiyotning belgilovchi omiliga aylangach, xalqaro miqyoslarda ilmiy texnikaviy bozor vujudga keldi, turli mamlakatlarda bu sohani tartibga soluvchi qonunlarni yaqinlashtirishga obyektiv zarurat tug'ildi. Buning o'ziga xos ifodasi sifatida sanoat mulki tushunchasi vujudga keldi, uning huquqiy rejimi belgilari 1883 yil 20 martda tuzilgan sanoat mulkini muhofaza qilish bo'yicha Parij Konvensiyasida mustahkamlab qo'yildi., o'z navbatida, bunday jarayon mualliflik huquqida ham sodir bo'ldi va 1886 yilda tuzilgan adabiy va badiiy asarlarni huquqiy muhofaza qilish to'g'risidagi Bern Konvensiyasida o'z aksini topdi.

1967-yil 14 iyulda Stokgolmda qabul qilingan Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT)ni ta'sis etish haqidagi Konvensiyada

intellektual mulk huquqi obyektlari doirasi belgilandi va binobarin «intellektual mulk» tushunchasi ma'lum ma'noda huquqiy asosga ega bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi 1993-yildan buyon Parij Konvensiyasi ishtirokchisi va BIMT a'zosi bo'lganligi sababli intellektual mulk va sanoat mulki tushunchasi bizning huquqiy tizimimiz uchun ma'lum ma'noda ahamiyatga ega. BIMT ta'sis Konvensiyasining 2-moddasi (7-qism)ga asosan quyidagilar intellektual mulk huquqi obyekti hisoblanadi.

- 1) adabiy, badiiy asarlar va ilmiy ishlar;
- 2) artistlarning ijrochilik faoliyati, fonogrammalar va radioeshittirishlar;
- 3) inson faoliyatining barcha sohalaridagi ixtirolar;
- 4) sanoat namunalari;
- 5) ilmiy kashfiyotlar;
- 6) mahsulot belgilari, xizmat belgilari va tijorat nomlari va belgilari (ramzlari);
- 7) g'irrom raqobatning oldini olish;
- 8) sanoat, adabiy va badiiy faoliyat sohalarida intellektual faoliyatdan kelib chiquvchi boshqa huquqlar¹.

Sanoat mulki deganda inson tafakkuri, ijodining mahsuli bo'lgan va amaliyotda qo'llaganda moddiy yoki boshqacha tarzda samara beradigan natijalari tushuniladi. Sanoat mulki iborasi uning qo'llanish doirasini cheklangan ma'noda talqin etadi va bu mulk obyektlari amalda tatbiq etish sohalarini to'liq qamrab olmaydi. Bunday noaniqlik o'zining tarixiy ildizlariga ega.

Ma'lumki sanoat mulkining asosiy turi bo'lgan ixtirolar dastlab asosan sanoatda bevosita qo'llanilgan va keyinchalik moddiy ishlab chiqarish va ijtimoiy turmushning boshqa sohalarida tatbiq etila boshlagan. Biroq bu davrga kelib, «sanoat mulki» tushunchasi Yevropa tillarida va Yevropa mamlakatlari qonunlarida mustahkam o'rnatilgan qolgani uchun garchi yetarli darajada aniq ifodalangan ibora bo'lmasa ham tegishli ibora bilan almashtirilmadi.

Parij Konvensiyasining 1-2-moddasiga asosan sanoat mulkining muhofaza obyektlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- 1) ixtirolar;
- 2) foydali modellar;
- 3) sanoat namunalari;

¹ Интеллектуальная собственность. Ч.1. Новосибирск.: Наука. 1999. 14-6.

- 4) mahsulot belgilari;
- 5) xizmat belgilari;
- 6) firma nomi;
- 7) kashfiyot;
- 8) manbani (mahsulot kelib chiqish manbasi) ko'rsatuvchi ma'lumot;
- 9) mahsulot kelib chiqish (tayyorlash) joyining nomi;
- 10) g'irrom raqobatning oldini olish².

Seleksiya yutuqlari (o'simliklarning yangi navlari va hayvonlarning yangi zotlari) ham ko'p hollarda sanoat mulki obyektlariga tenglashtiriladi.

Yuqorida ko'rsatilgandek, intellektual mulk tarkibiga kashfiyotlar ham kiradi. Biroq kashfiyotlarning fuqarolik huquqiy rejimi boshqa obyektlarga nisbatan farq qiladi. Kashfiyot ham ijodiy faoliyat mahsuli bo'lib, moddiy olamning ilgari noma'lum bo'lgan qonuniyatlari hodisalarini ochish, aniqlash hisoblanadi. Ilgari amalda bo'lgan Fuqarolik kodeksining 546-566-moddalarida kashfiyotchilik huquqi mustahkamlab qo'yilgan edi. Bunga asosan kashfiyot Davlat ro'yxatidan o'tkazilib, uning muallifi kashfiyot qilganligini, uning ustuvorlik sanasini guvohlantiruvchi diplom berish, mukofot berish va boshqa mulkiy va shaxsiy xarakterdagi imtiyozlarga ega bo'lish nazarda tutilgan edi. Ammo yangi FKda kashfiyot mahsus huquqiy maqomga ega ijodiy faoliyat mahsuli sifatida belgilanmagan. Buning asosiy sababi shundan iboratki, kashfiyotga bo'lgan huquq u yoki bu shaxsning undan foydalanishga bo'lgan mutlaq huquqini nazarda tutmaydi, chunki u xarakteri bo'yicha u yoki bu subyektda monopoliya (mutloq tegishli) obyekt bo'la olmaydi. Shu sababli ham u ko'p mamlakatlarda bevosita huquqiy muhofaza ostiga olinmagan. 1978 yilda BIMT doirasida kashfiyotlarni xalqaro ro'yxatga olish haqida Jeneva Konvensiyasi tuzilgan. Lekin ushbu Konvensiyada ham ilmiy kashfiyotlarning maxsus muhofaza shakli nazarda tutilmagan. Ba'zi mualliflar buning sababini kashfiyot mulkiy muomala obyekti bo'lishiga layoqatli bo'lgan ijodiy mahsulotni vujudga keltirmaydi, balki moddiy olam haqidagi tasavvurlarimizni chuqurlashtirib, bilimlarimizni boyitadi, anglab yetish, bilib olish vazifalarini hal etadi xolos, degan qarashlar bilan

² Парижская конвенция по охране промышленной собственности. Женева. ВОИС. 1990.

izohlaydilar va bundan kashfiyot bilan bog'liq munosabatlar Fuqarolik-huquqiy tartibga solish predmeti bo'la olmaydi degan xulosaga keladilar.

24.5. O'zbekistondagi intellektual mulk bozori

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan oq fan taraqqiyotini va innovatsion texnologiyalarni rivojlantirishga, intellektual mulk huquqini ro'yobga chiqarishga va himoyasini ta'minlashga doir huquqiy mexanizm larni shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratila boshlandi. Pirovardida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 8 avgustdagi "Ilmiy va innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq, ilmiy-texnik salohiyatni yanada mustahkamlash, uni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning eng dolzarb masalalarini hal etishga safarbar etish hamda Hamdo'stlik mamlakatlarida birinchilardan bo'lib innovatsion faoliyatni faollashtirish choralari belgilandi.

Qisqa muddatlarda mamlakatimizda intellektual mulk egalari va ularning huquqlarini himoya qiluvchi qonunchilik bazasi shakllandi. Bu borada qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar va amalga oshirilgan ishlar samarasi yil sayin ko'zga tashlanib bormoqda. Masalan, 2003-2006 yillar davomida 7 mingga yaqin ilmiy-texnikaviy yutuqlar ro'yxatga olingan bo'lsa, keyingi 5 yil oralig'ida bu boradagi ko'rsatkich 10 mingdan oshib ketdi.

Jumladan, astronomiya sohasida — quyosh sistemasida yangi planeta ochildi, 30 ta yangi o'zgaruvchi yulduzlar aniqlandi va fotometrik monitoring uchun ko'p vaqt talab qiladigan yulduzlarning jadvali tuzildi. Fizika sohasida — dunyoda ilk bor soliton va soliton komplekslarining paydo bo'lish mexanizmi aniqlanib, optik solitonlar nazariyasi hamda turli muhitlarda noxiziqli to'lqinlarning tarqalishi va evolutsiyasi nazariyasi yaratildi.

Matematika sohasida — kvant ehtimollar nazariyasi muammolarini yechish uchun yangi usullar kashf etildi. Informatsion texnologiyalar bo'yicha dunyoda birinchi bo'lib yarim nodir minerallarni to'la nodirlashtirish texnologiyasi ishlab chiqildi. Olmaliq TMK, Navoiy TMK va «O'zmetkombinat» IBda energiyani 20 foizga tejash imkonini beruvchi qurilmaning joriy etilishi natijasida bir yilda o'rtacha 377,4 mln. kVt.soat energiya tejali b 24 mlrd.so'm iqtisodiy samaraga erishish

imkoni vujudga keldi. Bunday misollarni juda ko‘plab keltirish mumkin. Erishilayotgan yutuqlar fuqarolarimizning ilmiy-texnikaviy ijod erkinligidan keng foydalanayotganligi barobarida, mamlakatimizning iqtisodiy qudratini rivojlantirishga, jahon hamjamiyati oldidagi mavqeyini oshirishga xizmat qilayotgani bilan ham e’tirofga molikdir.

Milliy va xalqaro tajribadan ma’lumki, iqtisodiyot va jamiyatning taraqqiyot darajasi ko‘p jihatdan intellektual mulkni himoya qilish bo‘yicha yaxshi rivojlangan va izchil yo‘lga qo‘yilgan tizimga bog‘liq. Zero, iqtisodiyotdagi samaradorlik ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalar va ixtirolarning joriy etilishi evaziga yuksalib boradi. Intellektual mulkning taraqqiy etishi o‘z navbatida, iqtisodiyotga sarmoyalar kiritilishiga, innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi esa xalq xo‘jaligining modernizatsiyalashuviga hissa qo‘shadi. Shu boisdan mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi mualliflik huquqlari va intellektual mulkni ishonchli himoya qilishning huquqiy kafolatlari va mexanizmlarini kuchaytirish zarurligiga ham alohida e’tibor qaratildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 24-may kungi “O‘zbekiston Respublikasining Intellektual mulk agentligini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori bilan intellektual mulk sohasida bir-biridan mustaqil faoliyat yuritib kelgan Davlat patent idorasi hamda O‘zbekiston mualliflik huquqini himoya qilish respublika agentligi negizida O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi tashkil etildi. Natijada xalqimizning ilmiy-texnikaviy ijod erkinligidan samarali foydalanishi uchun yanada kengroq sharoitlar yaratildi. Intellektual mulk sohasida yagona davlat siyosatini yuritish, yagona yondashuvni ta’minlash, mamlakatimizning ushbu sohadagi xalqaro shartnomalarini tayyorlash va hayotga tatbiq etish bo‘yicha yaxlit tizim vujudga keldi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, O‘zbekiston 1991 yildan buyon Jahon intellektual mulk tashkilotining a’zosi hisoblanadi. Jahon intellektual mulk tashkiloti bugungi kunda 180 dan ortiq davlatni o‘zida birlashtirgan xalqaro tashkilotdir. Bundan tashqari, dunyoning ko‘plab davlatlarida intellektual mulk sohasidagi munosabatlarni tartibga solish bo‘yicha yagona davlat organi faoliyat yuritadi.

Masalan, Shveysariyada — Shveysariya federal intellektual mulk instituti, Buyuk Britaniyada — Intellektual mulk ofisi shular jumlasidandir. Ushbu tashkilotlar intellektual mulkni himoya qilish bo‘yicha yagona davlat organi sifatida mualliflar, noshirlar hamda ijrochilarning mulk huquqlarini birgalikda boshqarishga qaratilgan infratuzilmani o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston Respublikasining Intellektual mulk agentligiga ixtirolar, sanoat namunalari, foydali modellar, tovar belgilari hamda intellektual mulkning boshqa obyektlarini himoya qilish, ular bo‘yicha huquq egalarini himoya qilish, ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalar va ixtirolar, ilmiy-texnik va sanoat ishlanmalarini, seleksiya yutuqlarini, badiiy-kons trukturlik va boshqa turdagi ijodiy ishlarning keng joriy etilishiga ko‘maklashish, shuningdek, intellektual mulk obyektlarini ekspertiza qilish va ularni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, intellektual mulkni himoya qilish masalasida yagona pozitsiyani ishlab chiqish va bu sohada xalqaro miqyosda O‘zbekiston Respublikasi manfaatlarini himoya qilish hamda tegishli xalq aro va mintaqaviy tashkilotlar faoliyatida ishtirok etishni ta‘minlash kabi bir qator vazifalar yuklatildi.

O‘zbekiston Respublikasining Intellektual mulk agentligi xalqaro tashkilotlar bilan yaqindan hamkorlik qilish asnosida ilmiy-texnik yutuqlarni innovatsion tadbirkorlikka joriy etish uchun yaxshi shart-sharoit yaratadi. Bu o‘z navbatida, iqtisodiyotimiz samaradorligini ko‘tarishga ko‘maklashadi, bozor munosabatlarini yanada rivojlantirish va mamlakatimiz intellektual salohiyatini yuksaltirishda, xalqimiz farovonligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Sohadagi rivojlanishlarga mutanosib ravishda “Intellektual mulk to‘g‘risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi. 2011 yil 28 dekabr kuni kuchga kirgan mazkur Qonunga ko‘ra, amaldagi bir necha qonun normalari yangilandi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma‘lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasi 2-qismi chiqarib tashlandi. Natijada O‘zbekiston Respublikasining yuridik va jismoniy shaxslarining EHM uchun yaratilgan dastur yoki ma‘lumotlar bazasini boshqa davlatlarda ro‘yxatdan o‘tkazishiga bo‘lgan cheklovlar bartaraf etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2001 yil 12 mayda qabul qilingan “Amalga oshirilishi uchun litsenziyalar talab qilinadigan faoliyat turlarining ro‘yxati to‘g‘risida”gi Qaroriga 1-ilovaning ayrim normalari amaldagi qonun hujjatlariga muvofiqlashtirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligining intellektual mulk obyektlariga nisbatan huquq egalarining huquqlarini himoya qilishga doir imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 328, 329 va 331-moddalari ham

takomillashtirildi. Natijada, O'zbekiston Respublikasining Intellektual mulk agentligi — intellektual mulk obyektlariga nisbatan huquq egalarning huquqlarini himoya qilishni ko'zlab sudlarga kiritadigan da'volar yuzasidan davlat boji to'lashdan ozod etildi.

Shuningdek, Fuqarolik kodeksi hamda "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi, "Seleksiya yutuqlari to'g'risida"gi, "Integral mikrosxemalar topologiyalarini huquqiy muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida"gi qonunlarning tegishli normalari ham yangi nom va atamalar bilan takomillashtirildi.

Tayanch iboralar

Intellektual mulk, foydali model, intellektual mulk bozori, intellektual mulk obyekti, tovar belgisi, sanoat namunasi, intellektual faoliyat, patent psedurasi, mualliflik huquqi, ijod erkinligi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Intellektual mulk tushunchasini izohlang.
2. Intellektual mulk obyekti tushunchasi va uning mazmuni.
3. Intellektual mulk obyektlarining qanday turlari mavjud?
4. Intellektual mulk obyektlarini himoyalashda xalqaro konvensiyalar va xalqaro tashkilotlarning o'rni nimadan iborat?
5. O'zbekiston Respublikasining Butunjahon intellektual mulk tashki-lotidagi kuzatuvchilik va a'zolik faoliyati.
6. O'zbekistoda intellektual mulkni himoya qilish tizimining shakllanish qanday bosqichlardan iborat?
7. Intellektual mulk obyektlari muhofazasini ta'minlashda chet el tajribasi va uning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida nimalarni bilasiz.
8. Intellektual mulk bozor faoliyatiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
9. O'zbekiston Respublikasida intellektual mulk bozori faoliyatini qanday baholaysiz?

XXV BOB. YANGILIKLARNI ISHLAB CHIQARISHNI TASHKILIY – TEXNOLOGIK TAYYORGARLIGINING ASOSLARI

Mazkur bobda texnologiyalarning rivojlanish tendensiyasi va ularning tasnifi, ishlab chiqarishni tashkiliy-texnologik tayyorgarligining vazifalari, xususiyatlari va bosqichlari, ishlab chiqarishning tashkiliy-texnikaviy darajasini tahlil qilish va uning istiqbollari bilan bog'liq ma'lumotlar berilgan.

25.1. Ishlab chiqarishning tashkiliy-texnik darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimini baholash: kompleks iqtisodiy tahlilning maqsadi, vazifasi, axborot manbai

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish moliya-xo'jalik faoliyatining samarali yuritilishi, korxonaning texnik va tashkiliy jihatdan rivojlanishi, tashqi iqtisodiy, ijtimoiy faoliyat natijalariga bog'liq sanaladi.

Ishlab chiqarish rivojlanishining asosiy sharti texnika progressidir. Korxonaning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari texnika, texnologiya va ishlab chiqarishni boshqarish darajasiga ko'p jihatdan bog'liq.

Texnika, texnologiya ishlab chiqarishni tashkillashtirish bilan uzviy aloqador va biri ikkinchisiz yuqori samara bermaydi. Xo'jalik faoliyatini tashkiliy-texnik jihatdan tashkillashtirish – kompleks uzluksiz jarayon bo'lib, mahsulot ishlab chiqarishning ilmiy-texnik darajasining rivojlanishi, ishlab chiqarishda ilmiy-texnik progress yutuqlaridan foydalanish, ishlab chiqarish texnologiyasini muvofiqlashtirish, xo'jalik yuritish metodlarini jamlikda o'z ichiga oladi.


Xo'jalik subyekting tashkiliy-texnik darajasi kompleks tahlilining vazifalari:

1) ishlab chiqarishning ilmiy-texnik darajasini aniqlash va uning korxonada faoliyatining natijalariga ta'sirini baholash;

2) ishlab chiqarishni boshqarish, mehnat va mehnat sharoitini tashkil etish samaradorligini baholash;

3) korxonaning ishlab chiqarish quvvatining shakllanishi, uning o'sishini tahlili, ishlab chiqarish quvvatlaridan unumli foydalanish yo'llarini belgilash;

4) ishlab chiqarishning tashkiliy-texnik darajasini oshirish imkoniyatlarini aniqlash.



25.1-rasm. Ishlab chiqarishni tashkiliy-texnik darajasini kompleks iqtisodiy tahlil etish tizimi

Korxonaning tashkiliy-texnik darajasi deb ishlab chiqarish vositalarining erishgan o'sish darajalari, tashkil etish va boshqaruv metodlariga aytiladi.

Korxonaning tashkiliy darajasini kompleks tahlil etish uslubi quyidagi uch guruhdagi analitik ko'rsatkichlar: texnika va texnologiya holati darajasi; ishlab chiqarishning tashkiliy darajasi; ishlab chiqarishning boshqa faoliyat turlarini o'rganishga asoslangan.

Birinchi guruhdagi ko'rsatkichlar mahsulotning sifati va progressivligi, texnika va texnologiya, ilmiy-tadqiqot ishlar darajalarining holati, korxonaning texnika jihatdan ta'minlanishi, yangi texnika samaradorligini ifodalaydi.

Ikkinchi guruhdagi ko'rsatkichlar ishlab chiqarishni tashkil etish darajasi, ishlab chiqarishni markazlashuvi va joylashishi, ishlab chiqarish jarayonining davomiyligi, mehnatni tashkil etish va boshqaruv darajalari, mehnat jamoasining ijtimoiy sharoiti kabilardan iborat.

Uchinchi guruh ma'lumotlari doirasida korxonaning tashqi iqtisodiy faoliyati, aloqalari, ish faoliyatining natijalari tadqiq qilinadi. Tashkiliy-texnik ko'rsatkichlarni tadqiq etish jarayoni jamlukda korxonaning kompleks tashkiliy-texnik darajasi va ishlab chiqarishning shart-sharoitini tavsiflaydi.

$$K_j = \sqrt[n]{PRK}, \quad k_j = \sqrt[n]{k_1 k_2 k_3 k_4 k_5 k_6 k_7 k_8}.$$

Bunda K_j – tashkiliy-texnik darajani tahlil etish tizimida jami o'rganilayotgan ko'rsatkichlarni kompleks baholash; $\sqrt[n]{PRK}$ – ko'rsatkichlarning o'sish (pasayish) koeffitsiyentlarining ko'paytmasi;

n – tashkiliy-texnik daraja va ishlab chiqarish sharoitini ifodalovchi ko'rsatkichlar soni (ular soni 8 ta);

k_1 – ilmiy-texnik darajalar tahlili ko'rsatkichlarining jami;

k_2 – ishlab chiqarish texnologiyasi darajalarining tahlili ko'rsatkichlarining jami; k_3 – ishlab chiqarishni tashkil etish tahlili ko'rsatkichlarining jami; k_4 – korxonada boshqaruvi darajasi ko'rsatkichlarini baholash; k_5 – ishlab chiqarishni tashkil etish va mehnatga haq to'lash ko'rsatkichlari darajasini baholash; k_6 – mehnat jamoasi ijtimoiy sharoitini baholash natijalarining ko'rsatkichlari; k_7 – tashqi iqtisodiy faoliyat tahlili ko'rsatkichlari va uni baholash; k_8 – ishlab chiqarishning boshqa jarayon ko'rsatkichlarining tahlili va uni baholash.

Moddiy ishlab chiqarishning barcha tarmoqlarida tashkiliy-texnik darajalarni oshirish natijalari ishlab chiqarishning uch elementlaridan foydalanish orqali yuzaga keladi; mehnat, mehnat vositalari va predmetlari. Ishlab chiqarish resurslaridan foydalanishning sifat

ko'rsatkichlari mehnat unumdorligi, fond qaytimi, material sig'imi, oborot mablag'lar aylanishi hisoblanadi.

Korxonaning tashkiliy-texnik darajasi tahlilining axborot manbalari:

– korxonaning ishlab chiqarish va moliya-xo'jalik faoliyatining yillik hisoboti;

– yillik va choraklik bo'yicha buxgalteriya hisoboti;

– ishlab chiqarish quvvati balansi;

– mashina va uskunalar pasport ma'lumotlari;

– loyiha-smeta va boshqa texnik hujjatlar.

25.2. Ishlab chiqarishni tashkil etish tahlili va uni takomillashtirish yo'llari

Ishlab chiqarishni tashkillashtirish mavjud mehnat, moddiy va pul resurslaridan unumli foydalanishni o'zida aks etgan kompleks tadbirlar yig'indisidan iborat. Ishlab chiqarishni tashkillashtirish mahsulot ishlab chiqarish hajmi, shartnoma, majburiyatlarning bajarilishi, xarajatlarni kamaytirish, ijtimoiy va iqtisodiy muammolar echimini o'z ichiga oladi. Kompleks tahlil orqali korxonaning ishlab chiqarishini tashkil etish darajasi, haqiqiy va bazis davridagi ko'rsatkichlarini taqqoslash tufayli ko'rilgan tadbirlar rejasining bajarilishini baholay-di; ishlab chiqarishni tashkil etishning takomillashtirishni xo'jalik faoliyati natijalariga bo'lgan ta'sirini aniqlaydi; rezervlar hisoblanadi va ulardan foydalanish yo'llarini belgilaydi. Qimmatli uskuna, mexanizm, mehnat resurslaridan to'liq foydalanmaslik ishlab chiqarish xarajatlarining ortib ketishiga olib keladi.

Ishlab chiqarishni tashkil etish darajasini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlar quyidagilar hisoblanadi:

1) ishlab chiqarishni ixtisoslashuv va kooperatsiyalashuv darajasi;

2) ishlab chiqarish jarayonining davom etish muddati va strukturasi;


3) ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligi;

4) ishlab chiqarishning maromiyligi;

5) ishlab chiqarishning faollik darajasi.

Ishlab chiqarishni tashkil etish darajasini kompleks baho-lash tizimida ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi, tig'izligi va ixchamlik ko'rsatkichlari hamda ishlab chiqarishning ta'minlanish va xizmat

ko'rsatish ko'rsatkichlari muhim o'rin egallaydi. Bozor munosabatlari sharoitida korxonalarni ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvi mahsulot tannarxini pasaytirish, unumdorlik darajasini oshirishda asosiy omil hisoblanadi. Ishning natijasida ishlab chiqarish maromi, ishlab chiqarishning faolligi ham muhim ahamiyat kasb etadi.



25.2.rasm. Ishlab chiqarishni tashkil etish daraja ko'rsatkichlari va ularni baholash

Ixtisoslashuv darajasining yuqori bo'lishi texnika, ishlab chiqarish texnologiyasi va uni tashkillashtirishning takomillashuviga va korxonaning mavjud resurslardan unumli foydalanishiga olib keladi. Ishlab chiqarishni ixtisoslashuv darajasining kompleks tahlili bir necha ko'rsatkichlar orqali amalga oshiriladi. Ixtisoslashuv darajasi sexda ishlab chiqarilgan mahsulot tipi, o'lchami, jami mahsulotdagi mahsus bo'linmalarining tutgan ulushlari orqali aniqlanadi va baholanadi. Ehtiyot qism va detallarni yetkazib berish bo'yicha tutgan ulushlari baholashning asosiy ko'rsatkichlari sifatida qabul qilinishi mumkin.

Ishlab chiqarishni tashkillashtirishning kompleks tahlilining asosiy maqsadi ishlab chiqarishning mutanosibligi, uzluksizligi, maromiyligi ko'rsatkichlari bajarilishini baholashdan iborat.

Ishlab chiqarishda tashkillashtirishning mutanosibligi sex, bo'lim, ishchi o'rinlarida vaqt birligi ichida yaratilgan mahsulotni korxonaning ishlab chiqarish imkoniyatlariga mos kelishi tushuniladi. Mutanosiblik tahlili orqali ayrim bo'g'inlardagi to'liq foydalanilmagan quvvatlar aniqlanadi. Tahlil natijalaridan kelib chiqqan xulosalar asosida belgilangan chora-tadbirlarni mutanosiblikni yanada mustahkamlashga safarbar etish lozim. Ishlab chiqarish intensivligi darajasini oshirishda ishlab chiqarish jarayonini *uzluksizligi* muhim o'rin tutadi. Uzluksizlik koeffitsiyenti (K_u) quyidagicha aniqlanadi:

$$K_u = \frac{t_{max}}{t_{sv}}$$
 Bunda: t_{max} – ishlab chiqarishning texnologik siklini

davomiyligi; soatda; t_{sv} – ishlab chiqarish sikllari davomiyligi, soatda.

Ishlab chiqarishning tashkiliy darajasini oshirishning yo'nalishlari ishlab chiqarishning markazlashuvi va kooperatsiyalash hisoblanadi.

Ishlab chiqarish markazlashuvining tahlilida guruhlashtirish usulini qo'llash orqali tarmoq ichidagi korxonalarining ishlab chiqargan mahsuloti, asosiy ishlab chiqarish fondlari, mehnat unumdorligi, tannarxi, fond qaytimi va boshqa ko'rsatkichlar o'rganiladi. Ishlab chiqarishni kooperatsiyalash korxonalar o'rtasidagi hamda korxonalar ichidagi o'zaro aloqalarni ifodalaydi.

Kooperatsiyalash darajasini tahlil etish uchun quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi:

- 1) mahsulot tannarxida kooperatsiyalash asosida olingan yarimfabrikat, butlovchi buyumlarning tutgan ulushi;
- 2) korxonalar bilan kooperatsiyalash aloqasidagi korxonalar soni;
- 3) jami ishlab chiqarish hajmida kooperatsiyalash asosidagi buyurtma qiymati.

Ishlab chiqarishning davomiylik muddati va strukturasi (DMS) ishlab chiqarishni tashkil etishning asosiy ko'rsatkichi hisoblanadi. Davomiylik muddati mahsulot konstruksiyasini xususiyati, ishlab chiqarishning texnik darajasi, ishlab chiqarishni tashkil etishning shakl va uslublari samaradorligiga bog'liq. Ishlab chiqarish siklining kompleks tahlili mahsulotning asosiy turi bo'yicha olib boriladi va ishlab chiqarish sikli davomiylik muddati o'zgarishini asosiy texnik-iqtisodiy omillari bo'yicha baholaydi.

Korxonaning tashkiliy-texnik va moliyaviy resurslaridan foydalanish rezervlarini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Rezervlar o'z mohiyatiga ko'ra bir-biridan quyidagicha farqlanadi:

a) mahsulot hajmini oshirish, uning assortimenti va strukturasi takomillashtirish rezervlari;

b) mahsulot tannarxining xarajat elementlari va moddalari bo'yicha pasaytirish rezervlari;

v) foydani oshirish, moliyaviy holatini mustahkamlash bo'yicha rezervlar;

g) sotishdan ko'rilgan rentabellik, balans aktivi. Kapitalning rentabelligini oshirish rezervlari.

25.1-jadval

Mahsulotning ishlab chiqarish siklining davomiylik muddatining tahlili

Mahsulot turi	DMS norma-soatda		DMS ning bazis davridan farqlanishi				
			Jami		Shu jumladan o'zgarish sababi		
	bazis davr	haqiqatda	norma-soat	foiz	konstruk-siyasi	texnika va texnologiyasi	ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etish
A	3,36	3,24	-0,12	-3,6	0,2	-1,3	-2,5
B	7,13	6,39	-0,74	-10,4	-2	-3,4	-5

25.3. Mehnatga haq to'lash va mehnat jamoasining ijtimoiy sharoiti holatining kompleks tahlili

Mehnatni tashkil etish darajasi, korxonaning mehnat re-surslari bilan ta'minlanishi va ulardan samarali foydalanish ko'rsatkichlari, barcha ishlarning hajmi va ularning o'z muddatida bajarilishi o'z aksini mahsulot ishlab chiqarish hajmi, tannarxi, foyda va boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlarda topadi.

Mehnatni tashkil etishning kompleks tahlilida quyidagi ko'rsatkichlar hisob-kitobi amalga oshiriladi.

- mehnatni fond bilan qurollanishi;
- asosiy va yordamchi ishchilarning to'g'ri joylashishi;

- mehnatni ilmiy jihatdan tashkil etish;
- ishchi o‘rinlarining ergonomika talablariga mos kelishi;
- ishlab chiqarishni boshqaruvida xodimlarning faol qatnashishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratilishi.

Mehnatning texnik jihatdan qurollanish ko‘rsatkichlari:

$$\text{Xodimlarning fond bilan qurollanishi} = \frac{\text{Asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymati}}{\text{Xodimlarning ro'yxat bo'yicha soni}};$$

$$\text{Xodimlarning elektr quvvati bilan qurollanishi} = \frac{\text{Foydalanishda sarflangan elektr quvvati, kvm - soat}}{\text{Xodimlarning ro'yxat bo'yicha soni}};$$

$$\text{Xodimlarning texnika bilan qurollanishi} = \frac{\text{Texnika vositalarining qiymati}}{\text{Xodimlarning ro'yxat bo'yicha soni}}.$$

25.4. Texnik-tashkiliy chora-tadbirlar samaradorligini baholash va ularning o‘zgarishiga omillar ta‘sirining tahlili

Korxonada o‘z faoliyati davomida pul mablag‘larini ishlatishi tufayli ma‘lum samaraga erishadi. Korxonada rahbari bir qarorga kelishi uchun qiyosiy samaradorlik natijalariga tayanadi. Olingan natijaning xarajatga nisbati samarani ifodalaydi. Samaradorlikni baholash mezonining bir qancha turlari mavjud.

Ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishning o‘zgarishi-ning mehnat unumdorligiga ta‘siri quyidagicha aniqlanadi:

$$\Delta y = 100 \left(\frac{y_p}{y_x} - 1 \right)$$

Bunda: y_p, y_x – reja va haqiqatdagi mehnatni tashkil etish darajalari. Mahsulot ishlab chiqarish hajmini mehnatni tashkil etishning haqiqiy darajasini reja bo‘yicha ko‘zda tutilgan darajaga qadar yetkazish hisobiga oshirish:

$$\Delta N = N_x \left(\frac{y_p}{y_x} - 1 \right)$$

Bunda N_x – hisobot davridagi mahsulot hajmi.

Mahsulot hajmining ortishi bilan o'zgarmas xarajatlarning mahsulot birligidagi ulushi pasayishi tufayli tannarx pasayishiga erishiladi. Mahsulot hajmining ortishiga mos holda o'zgaruvchan xarajatlar ham ortib boradi.

Rejalashtirilgan mahsulot tannarxi quyidagicha aniqlanadi:

$$S_p = S_{o'zchan} \frac{y_p}{y_x} + S_{o'zmax}$$

$S_{o'zchan}$, $S_{o'zmax}$ – mahsulot birligi tannarxidagi o'zgaruvchan, o'zgarmas xarajatlar.

Haqiqatdagi mehnatni tashkil etish darajasini reja darajasigacha yetkazish orqali foyda (R) ni oshirish:

$$p = N_x + \Delta N \cdot S_p$$

Ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etish darajalarini oshirish bo'yicha rejadagi ishlab chiqarish rentabelligi darajasi (foiz)

$$Pp = 100 * \left(\frac{Np}{F + E} \right),$$

bunda F, E – o'rganilayotgan davrdagi asosiy ishlab chiqarish fondlari va moddiy qimmatliklardagi oborot mablag'lari.

Korxonada faoliyatining iqtisodiy ko'rsatkichlarining nisbiy o'zgarishi haqiqatdagi mehnatni tashkil etish darajasini reja darajasigacha yetkazish quyidagicha aniqlanadi (foiz):

– mahsulot ishlab chiqarish hajmining ortishi:

$$\Delta N = \left(\frac{N_p}{N_x} - 1 \right) * 100,$$

– mahsulot birligi tannarxining pasayishi:

$$\Delta S = \left[\frac{S_p}{S_x} \right] * 100,$$

– foydaning ortishi:


$$\Delta P = \left(\frac{P_p}{P_x} - 1 \right) * 100,$$

– ishlab chiqarish rentabelligining ortishi:

$$\Delta P = 100 * \left(\frac{P_p}{P_x} - 1 \right),$$

S_p, S_x – reja va haqiqatdagi mahsulot birligi tannarxi.


Sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash bo'yicha tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning uslubiy asosini quyidagicha belgilash mumkin: - moliyaviy kapitalga nisbatan milliy ishlab chiqarishda ijtimoiy-iqtisodiy subyektlar tizimini shakllantiruvchi xususiy mulkchilik vositasi sifatida yondashish; - hududlardagi sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash salohiyatini baholash, iqtisodiy rivojlanish va iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlaridan foydalangan holda ishlab chiqarishni tashkiliy-texnologik darajasini baholash usuli; - iqtisodiy subyektlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga bo'lgan qobiliyati va imkoniyatini belgilovchi texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarga asoslangan sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilishning iqtisodiy samaradorligini baholash vositasi. Sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash imkoniyatini belgilovchi asosiy mezon korxonada o'z rivojlanish jarayonini rejalashtirish va prognoz qilish qodirligi hisoblanadi. Ushbu jarayonlarni boshqarishni 25.3-rasmda keltirilgan shaklda tavsiflash mumkin.



25.3-rasm. Sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash jarayonlarini boshqarish

Shu o'ringa, qiymatni yaratish jarayoni uzoq muddatli davrda muvozanatlashgan holda shakllanadi va aksiyadorlar uchun qiymat, barqaror va uzluksiz o'sishi ta'minlanadi. Bozor munosabatlari sharoitida zarur shart-sharoit (imkoniyat) nuqtayi nazaridan korxonaning moliyaviy-iqtisodiy salohiyati ko'rsatkichidan tashqari yana bir muhim ko'rsatkich bu – xaridorlarning ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmi va sifatiga bo'lgan talablari o'zgarishini qondira olish imkoniyati nuqtayi nazaridan korxonaning yangilanish qobiliyati, ya'ni korxonani modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga qodirligi ko'rsatkichi shakllanadi.

Shunday ekan, joriy an'anaviy 1-davrda o'zlashtirilgan mahsulot keyingi 2- davrda yangi jarayonlarni rejalashtirish va amalga oshirish uchun ma'lum iqtisodiy zaxira yaratish imkonini beradi, ya'ni uzluksiz innovatsion texnologiyani ishga tushirish korxonaga barqaror rivojlanishini ta'minlaydi va modernizatsiya qilish imkonini yaratadi. Bu yerda cheksiz sonli bosqichlar ko'rsatilgan bo'lishi mumkin, biroq sifat jihatdan farq qiladigan uchta umumlashtirilgan aniq davrlar keltirilgan, ya'ni: joriy davr (D_j), uzoq muddatli (D_{um}) va kelajak davrlarni strategik rejalashtirish (D_{sr}), shuningdek, ular sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash strategiyalarini baholash va diagnostika qilish imkonini beradi (25.4-rasm).



25.4-rasm. Modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash asosida sanoat korxonalarini barqaror rivojlantirish

Mezonlar sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash jarayonlarini ta'minlovchi tizimli omillarni o'zida aks ettiradi, ya'ni:

- o'z mablag'larining mavjudligi;-
 - moliyaviy kreditning foiz darajasi;
 - investitsion loyihalarni amalga oshirish uchun kredit olish mexanizmining rivojlanganligi;
 - texnik va texnologik baza holati;
 - investitsion xatarlar; investitsiyalarning daromadliligi darajasi;
- investitsiya jarayonlarini tartibga soluvchi huquqiy-me'yoriy bazaning rivojlanganligi va boshqalar.

Sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga qodirligi Qy_1 ni tavsiflovchi omillar, ya'ni mahsulotni ITTKIning turli bosqichlari va uni o'zlashtirish, ishlab chiqarish va sotish bosqichida bo'lishi mumkin. Bu sharoitda korxonaning tarkibiy barqarorlik darajasini baholovchi ko'rsatkichni topishni talab etadi.

Ushbu yondashuvdan foydalanish korxonada rivojlanishini rejalashtirish va prognoz qilish jarayonlarini aniqlash imkonini yaratadi. Jumladan, ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi va korxonada faoliyatining quyidagi asosiy ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro uyg'unlikni ochib beradi. Ya'ni:

- kapital yangilanish vaqti;
- yangi mahsulotni o'zlashtirish va tayyorlash vaqti;
- mahsulotni ishlab chiqarish va bozorda sotish vaqti;
- bozorda talab yuqori bo'lgan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar turlari.

Sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga qodirligini baholash mezonlari quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- ko'rkamlilik, ya'ni ikkilamchi vazifalarni emas, balki asosiy qarorlar samaradorligini baholash imkonini yaratish;
- tahlil qilinayotgan parametrlarga tanqidiy yondashish, ya'ni har qanday tahlil qilinayotgan parametrlarning o'zgarishi mos ravishda mezon o'zgarishiga olib kelishi lozim;
- soddalik – unga ikkilamchi darajali miqdorlar ta'sir etmasligi lozim, ya'ni ko'p mezonli vazifalarni yechish juda qiyin hisoblanadi.

Tayanch iboralar

Ishlab chiqarishning tashkiliy-texnik darajasi, tashkiliy-texnik daraja tahlili, tashkiliy-texnik darajani kompleks tahlil etish tizimi, tahlilning axborot manbalari, ishlab chiqarishni tashkil etish ko'rsatkichlari, ixtisoslashuv darajasi, ishlab chiqarishni markazlashuv darajasi, ishlab chiqarish strukturasi, mehnatni texnik jihatdan qurollanish ko'rsatkichlari, mehnatni tashkil etish ko'rsatkichlari, texnik-tashkiliy choralar samaradorligi, mehnatni tashkil etishning mehnat unumdorligiga ta'siri.

Nazorat va muhokama uchun savollar


1. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosiy omillariga nimalar kiradi?
2. Tashkiliy-texnik darajaning kompleks tahlili deb nimaga aytiladi?
3. Tashkiliy-texnik darajaning kompleks tahlilidagi asosiy vazifalar nimalardan iborat?
4. Ishlab chiqarishni tashkillashtirish deb nimaga aytiladi?
5. Ishlab chiqarishni tashkil etish ko'rsatkichlarini ayting.
6. Ixtisoslashuv darajasi yuqori bo'lishining ahamiyati nimalardan iborat?
7. Ishlab chiqarish markazlashuvi tahlilida guruhlashtirish usulini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
8. Xodimlarni asosiy fondlar, elektr quvvati, texnika bilan qurollanishi qanday aniqlanadi?
9. Mehnatni tashkil etish ko'rsatkichlari nimalardan iborat?
10. Ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishning o'zgarishini mehnat unumdorligiga ta'siri qanday aniqlanadi?

XXVI BOB. REAL SEKTORDA INNOVATSION FAOLIYATIDA BASHORAT QILISH ASOSLARI

Mazkur bobda bashorat qilish tushunchasi, innovatsiyalarni prognozlash, innovatsiyalar ta'minotini bashorat qilish, innovatsiyalarni bashoratlashda turli yondashuvlar evolutsiyasi, asosiy tushunchalar va uslublari, innovatsion-texnologik rivojlanishning jahon miqyosidagi bashoratlari bilan bog'liq ma'lumotlar berilgan.

26.1. Bashorat va prognozlash tushunchalari

Tabiat va jamiyatda yuz beradigan tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayon(hodisa, voqeylik)larning rivojlanish xususiyatlari va ularning kelgusidagi holatini aniqlashning shakllari sifatida ilmiy jamoatchilik o'rtasida bashorat, gipoteza, prognoz va reja kabi shakllari tan olinadi. Jarayonlarni oldindan ko'ra(ayta) olishning ushbu shakllari ilmiy-tadqiqot metodologiyasida ham muhim o'rin tutadi.



26.1-rasm. Oldindan ko'ra(ayta) olish shakllari

Gipoteza qadimgi grek tilidan olingan bo'lib «ὑπόθεσις»-»taxmin» degan ma'noni bildirib, tabiat va jamiyatdagi jarayonlarni ilmiy-nazariy jihatdan o'rganishda muhim metodik vazifani o'taydi. Faylasuflar va ilmiy tadqiqot metodologiyasi bilan shug'ullanuvchi olimlarning umumiy fikriga ko'ra gipoteza haqiqat va yolg'onning o'rtasida mavjud bo'lib, unga asoslangan yoki uni qo'llash natijasida olingan natijalarga qarab u haqiqatga yoki yolg'onga aylanadi. Shu bilan birgalikda

gipoteza ilmiy tadqiqot jarayonlarida boshqaruvchi rolni ham o'ynaydi va u ilmiylik xususiyatlari bilan qorishib ketadi. Gipoteza shu tufayli ham tabiat va jamiyatdagi ro'y beradigan hodisa va voqeiylik hamda munosabatlarning kelgusidagi holatini aniqlashda katta ahamiyat kasb etadi.

Gipotezaning qo'yilishi esa ilmiylikka undaydi va shu orqali u prognoz tushunchasi bilan qorishib ketadi. Prognoz esa gipotezalarga tayangan holda ilmiy-qonuniyatlarga asoslanadi. O'rganilayotgan jarayonning kelgusidagi holatini aniqlashda ularni birga qo'llash muhim metodik yo'llanmalarni beradi va ular birgalikda rejalarni shakllantirishga asos bo'ladi.

Prognozlashtirish boshqaruv tizimining muhim va zaruriy elementi hisoblanadi. Prognozlashtirish natijasida boshqaruv jarayonida boshqaruv obyektining kelgusidagi holati va unga ta'sir etuvchi omillarning yo'nalishlari aniqlanadi.

Boshqaruvni amalga oshirishdan ko'zlangan maqsadga erishishning taktik yo'nalishlari va unga o'zgartirish imkoniyati paydo bo'ladi. Rossiyalik iqtisodchi olim N.N.Moisevning ta'kidlashicha har qanday iqtisodiy obyektning prognozlashtirish uchta xususiyatga: tizimlilik, obyektivlilik va bilish mumkinlik kabilarga ega bo'ladi, shu jihatdan har qaysi obyektning prognozlashtirish jarayoniga fundamental nuqtayi nazardan qarashga to'g'ri keladi. Iqtisodiyotda obyektiv ravishda yuz beradigan jarayon va hodisalar mohiyati va o'rniga qarab murakkabligi bilan farqlanadi. Ushbu jarayonlarning kelgusidagi holatini aniqlash o'z-o'zidan ham shunday maqomda bo'ladi. Iqtisodiy nazariyalarda bunday jarayonlarning kelgusidagi holatini aniqlashga doir yo'nalishlar paydo bo'lishiga turtki bo'ldi, pirovardida esa murakkablik va xaos(tartibsizlik) nazariyalari vujudga keldi.


Rejalashtirish va prognozlashtirish jarayonlari asosan «Futurologiya» termini bilan izohlangan. «Futurologiya» (lot. futurum — kelajak va ...logiya) — keng ma'noda insoniyat kelajagi, umumbashariy muammolar haqidagi umumiy konsepsiya yoki tasavvurlar majmuasi; tor ma'noda — ijtimoiy jarayonlar hamda fan-texnika taraqqiyotiga oid sohalardagi jarayonlarni izchilikda o'rganish va kelajagini bashorat qilish imkoniyatini beradigan fan sohasi.

Hozirgi vaqtda futurologiyada ikkita asosiy yo'nalish kuzatiladi. Birinchi yo'nalish - «ekologik pessimizm» tarafdorlari insoniyat rivojining salbiy oqibatlarini bashorat qilsalar, ikkinchi yo'nalish —

ilmiy-texnikaviy optimizm namoyandalari texnologiya taraqqiyotining ijobiy imkoniyatlari asosida insoniyat tsivilizatsiyasini saklab qolish mumkin, deb hisoblaydilar.

Murakkablik nazariyasiga ko'ra iqtisodiy jarayonlarni prognozlashtirish murakkabligiga qarab murakkablashadi va prognoz natijalarining obyektivligi ham past bo'ladi. Ushbu nazariyaga muqobil ravishda «xaos nazariyasi» taraflari esa murakkab hodisalarni prognoz qilish natijasida variantlarning eng ishonchlisini tanlash munosabatlariga katta e'tibor beradi.

Tadqiqotlarga asoslanib aytish mumkinki, bashorat va prognoz kabi tushunchalar ilmiy kategoriyalar sifatida o'xshash bo'lsada, ammo jarayon(hodisa, munosabat, voqeilik)larning kelgusidagi holatini izohlashda ichki mazmuni jihatdan farqlanadi. Bu farqlanish ularning mohiyati bilangina emas, shuningdek, ularda qo'llaniladigan usullar va natijalarning ishonchligi bilan farqlanadi. Natijalarning farqlanishi esa har doim ham bir xil bo'lmagan. Dastlabki, vaqtlarda diniy bashoratlarda boshqalarga nisbatan ustunlik yuqori bo'lgan. Falsafiy qarashlardagi bashoratlarda esa aksariyat hollarda bashoratlar g'ayritabiiy xususiyatlarga ega bo'lgan. Shu boisdan ilmiy adabiyotlarda bashoratlar teologik va intuitiv turlarga bo'linadi. Teologik bashoratlar zamirida diniy qarashlar yotadi. (Teologiya (yun. theos — xudo va ...logiya) — xudoning mohiyati va irodasi haqidagi diniy ta'limotlar majmui.) Texnologik bashoratlarning aksariyati xudo tomonidan insoniyatga yuborilgan payg'ambarlar, valiy, ilohiy qobiliyatga ega shaxslar tomonidan insoniyat kelajagi, diniy munosabatlarning rivojlanish holatlari, dunyoning intihosi va shu kabi masalalarga bag'ishlangan bo'lib, ularda iqtisodiy masalalar deyarli o'rin olmagan.



26.2-rasm. Bashorat va prognoz tushunchalarining farqlanishi

Tarixiy evolutsion rivojlanish natijasida turli xil qarashlarning vujudga kelishi bashorat borasida haqiqatni dalil bilan isbotlamasdan, bevosita fahm-farosat bilan anglab olish qobiliyatiga, fikran ilg'ab olish («aqliga kelish») yo'li bilan tajriba doirasidan chiqish, shaxsiy qobiliyati yoki bilib olinmagan aloqalar, qonuniyatlarni jonli shaklda umumlashtirishga asoslangan intuitiv bashoratlar vujudga kela boshladi. (Intuitsiya (lot. intuitio — sinchiklab qarayman). Bashorat qilishning mazkur turi tadqiqotchilarning fikricha hissiy, aqliy va mistik turlarga bo'linadi va bashorat qilish ham insonning aqliy mushohada va boshqa sezgi obrazlariga bog'liq bo'lmagan holda intuitiv sezish oqibatida, hodisalarning mohiyatini birdaniga aql bilan ilg'ab olish natijasida, ilohiy qudrat bilan muloqot jarayonida vujudga keladigan mutlaqo ongsiz ilohiy ilhom mistik idrok qilish natijasida oldindan aytishga asoslanadi. Manbalarga ko'ra bunday yo'nalishdagi bashoratlarga asoslangan holda davlatni idrok qilish tajribalari ham mavjud, chunonchi, qadimgi Rimda «Sivillinlar kitobi» deb nom olgan kitobdagi bashoratlar davlatni boshqarish va uning kelgusidagi maqomini aniqlashning muhim manbai sifatida foydalanilgan. Ammo olamni bilishga, uning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini tadqiq etishga qaratilgan bilimlarning chuqurlashib borishi bashoratni ilmiy asoslangan va ideologiyaga asoslangan turlariga bo'linishga olib keldi.

Bashoratning bunday tarzda qo'yilishi rutinli (muttaassiblikka) va dinami-kaga asoslangan ijtimoiy hayot kechirish, qolaversa iqtisodiyotni yuritishga ma'lum bir darajada turtki bo'ldi, ya'ni jamiyatning rivojlanishi, unda insonlarning turmush tarzining kelgusidagi holati mutaassiblikka bog'langanligi iqtisodiy taraqqiyotni rivojlanmasligiga salbiy ta'sir etgan, iqtisodiy faollikni, taraqqiyotni susaytirgan, iqtisodiy individlar ongiga salbiy ta'sir qilgan. Fanning rivojlanib borishi esa bashoratning ilmiy asoslanishga o'tishini tezlashtirdi, jamiyatdagi obyektiv qonuniyatlar kashf etila boshlandi, pirovardida esa bashorat bilan birgalikda prognozlash jarayonlari kuchayib bordi. Bundan ko'rinadiki, prognoz tushunchasi bashoratdan ilmiy asoslanganligi, qonuniyatlarga, tahlillarga va mushohadalashning tartibli amalga oshirilishiga asoslanishi bilan farqli xususiyatlarga ega bo'ladi.

Bashorat qilishni ishlab chiqish va undan foydalanish hozirgi sharoitda rejalashtirishni takomillashtirish hamda uning ilmiy darajasini oshirishning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Bashorat nazorat ko'rsatkichlarini ishlab chiqish va rejani qabul qilish maqsadida innovatsiyalarni joriy, o'rta va uzoq muddatli rejalashtirish uchun ilmiy asoslangan materiallarni tasvirlaydi. Shunday qilib bashorat va reja bir-biriga zid bo'masligi kerak, balki innovatsion menejmentning umumiy jarayonida rejali ishlarning o'zaro boshlangan pog'onalari sifatida ko'rilishi lozim.

Bashoratlash-rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish asosida ob'ektning rivojlanish bashoratlarini shakllantirishning butun bir jarayonidir.

Bashorat rejani tuzish va uni asoslash uchun xizmat qiladigan ishlab chiqilmadir.

Bashoratlash jarayoni quyidagi pog'onalardan iborat:

- ma'lumotli ta'minlash;
- innovatsion jarayonlarining oldingi rivojlanishini tahlil qilish;
- bashoratning usulini tanlash va uni baholash ;
- uzluksiz matematik ifodalash va uni algoritmlash;
- EXM yordamida modellashtirish; (andozalash)
- bashoratlashning o'zi;
- bashoratning eng yaxshi variantini tanlash.

Bashoratlashning asosiy funksiyalari

- qonuniyatlarni mavjud va mumkin bo'ladigan tendensiyalarini ilmiy tahlil qilish;

- rivojlanishning erishilgan darajasini baholash;
- kelajakda innovatsion jarayon rivojlanishining tendensiyalarini aniqlash.

Bashoratlash innovatsion menejmentning borishiga faol ta'sir etishning obyektiv imkoniyatlarini hisobga oladi. Hozirgi paytda bashoratlashda foydalanishga tavsiya qilingan 130 dan ziyod usullar modellar va namunaviy priemlar ma'lum.

Bashoratning konkret usullari obyektiv, subyektiv va tizimliga bo'linadi. Obyektiv usullar odatga ko'ra bilishning aniq ilmiy uslubiga ya'ni ekstropolyatsiya va iqtisodiy matematik modellashtirishdan foydalanishga tayanadi. Subyektiv usullar esa mutaxassislarining aholashiga asoslanadi. Tizimli usullar kelajakni alohida elementlarning ma'lum tuzilmasi sifatida tasvirlaydi. Shu bilan bir vaqtda bu elementlarning o'zaro aloqalarini modellashtiradi. Hozirgi paytda asosiy usullar sifatida sifatli tahlil qilish, ekstropolyasiya, ekspertli baholash va modellashtirish ta'kidlanadi. Ba'zan matematik statistik usullari,

umumiy ilmiy(mantiqiy) usullar, trend usullar va sababli aloqalar tahlili, mashinali imitatsiya usullari va dialektika usullari to'g'risida gap boradi.

Iqtisodiy vaziyat bashoratning bosh maqsadi - qulay imkoniyatlardan samarali foydalanish uchun kompaniya nima qilish kerak va kelajakda iqtisodiy muhitda sodir bo'ladigan o'zgarishlardan kelib chiqqan holda xavflarga qanday javob qaytarish lozimligini aniqlashdir. ITTKIning strategiyasini ishlab chiqishda ham bashoratdan shu tarzda foydalanishadi.

ITTKI avvalambor ro'y berishi mumkin bo'lgan ilmiy texnikaviy o'zgarishlarga bevosita aloqadordir. Ammo texnologiyani ko'p sonli boshqa omillar iqtisodiy (ijtimoiy siyosiy)dan ajralgan holda bashoratlash mumkin emas. Chunki bu tendensiyalar murakkab holda bir-biri bilan boslangandir, ilmiy-texnikaviy bashoratlash ko'pincha umumiy iqtisodiy bashoratlash jarayonlarini qamrab oladi.

O'sib borayotgan raqobatchilik sharoitlarida ma'lum siyosiy yo'ldan borish maqsadga muvofiqdir. Iqtisodiy o'zgarishlarga raqobatchilarning qanday javob berishini bilish qimmatli ahamiyatga ega bo'lib bormoqda, bunga balki hech qachon erishib bo'lmas lekin shunday bo'lsa ham raqiblarning imkoniyatlarini tahlil qilish va bashorat qilgan holda ular tomonidan mantiqiy javoblar bo'lishini bilish imkoniyati mavjud bo'ladi.

Shunday qilib, strategiyani ifodalash uchun iqtisodiy vaziyatni bashoratlash ahamiyati quyidagi 3 ta qirrada aks etadi:

- bo'lajak xavflar va qulay imkoniyatlarning tahlili;
- kutilmagan hollarni istisno qilish;
- biznes sohasida yangi raqobatbardosh texnologiyalarni izlash

Progressiv ilmiy-texnik loyihalar bilan boshliq bo'lgan xarajatlarning sezilarli o'sishi ma'lum. Fan va texnikaning rivojlanishiga mablag'larni qo'yuvchi tadbirkor o'zining moliyaviy ahvolini yomonlashuviga olib keluvchi tavakkallikka bormaydi, agarda istiqbolli kelajakda jamiyat uchun yaxshi natijalar berishi mumkin bo'lsa ham. U noaniqlikni to'g'ri baholay olishi va faqat keyin qaror qabul qilishi lozim.

Loyihani qabul qilish mumkinligini baholashda bashoratning aniqligini qator tadqiqot qilishda olingan natijalarni yodda tutmoq lozim. Ular yaqqol shuni ko'rsatadiki, bashoratlar qariyb doimo optimistikdir ya'ni texnikaning yangilik darajasi qancha yuqori bo'lsa, uni to'g'ri baholash olmaslik shuncha yuqori bo'ladi.

Loyihani amalga oshira borgan sayin qo'shimcha ma'lumotlar bashoratini yana ham aniqroq bo'lishiga imkon beradi. Shu sababli, agarda biz to'g'ri yechim qabul qilmoqchi bo'lsak, quyidagilarga intilmog'imiz lozim:

- loyiha bo'yicha yechimlarni qabul qilishga jalb qilingan hamma rahbarlar ITTKI doirasidagi muqarrar noaniqlik bilan bog'liq bo'lgan baholashdagi mumkin bo'ladigan xatolar hajmini to'liq tushuna bilishi;

- qayerda mumkin bo'lsa o'sha yerda maksimal aniqlikni ta'minlash;

- baholashdan to'g'ri foydalanish.

Baxolashda xatolar quyidagi sabablar tufayli ro'y beradi.

- xarajatlar va konkret vazifalarni hal qilish muddati haqida ilmiy texnik mutaxassislarining sayoz tasavvurlari;

- texnik qiyinchiliklarni yengish va bozor o'zgarishlarini hisobga olish maqsadida loyihani ishlab chiqish jarayonida unga o'zgarishlar kiritish;

- notexnik omillar masalan, inflatsiya;

- yangi omillar masalan tabiatni muhofaza qilish qonunchiligi;

- ishlab chiqarish va maishiy xarajatlarni past baholash.

26.2. Prognozlash va uning turlari

Prognozning axborot bazasi bo'lib hisobotlar (aholining tabiiy va mexanik harakatlarining joriy hisoboti) va maxsus tashkil etilgan statistik kuzatuvlar (aholini ro'yxatdan o'tkazishlar, maxsus tanlama ijtimoiy-demografik tadqiqotlar, aholining turli ro'yxat va kartotekalari) hisoblanadi.

Prognoz rejalarni bajarilishini aniqlash uchun xizmat qiladi. Ammo prognoz tahlillari reja bajarilish yoki bajarilmasligi mumkin bo'lgan oqibatlarni aniqlash va foydalanish imkonini beradi. Prognozlar obyektning xarakteri, mazmun mohiyati va prognoz vaqtiga komplekslikning masshtabi va darajasi, ularning darajasiga qarab farqlanadi.

Oldindan aytib berish va ko'rish - bu turli ma'nolarga ega biri biriga yaqin tushunchalardir. Oldindan aytib berish - bu mantiqiy xulosalar asosida subyekt yoki obyektning kelajakdagi holati haqidagi mulohazalardir. Oldindan ko'ra bilish - bu obyektning qonuniy

rivojlanishini anglashga asoslangan obyektning kelajakdagi holati haqida mulohazalardir.

Ilmiy bo'lmagan oldindan ko'rish real bo'lmagan, o'zaro bog'langan fantastik ko'rish (fol ochish, Nostradamus bashoratlari). Empirik ko'rish insonlarning har kungi tajribalariga asoslanadi (masalan, xalq primetalari). Ilmiy oldindan ko'ra bilishning uch shakli mavjud: gipoteza, prognoz va reja plan.

Gipoteza – bu sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yoki sodir bo'lmaydigan u yoki bu holatni rivojlanishi haqidagi farazlar. Gipoteza darajasida qoida bo'yicha tadqiq etilayotgan obyektning rivojlanishi haqidagi miqdor tavsiflari, umumiy qonuniyatlari beriladi.

Prognoz – bu obyektning kelajakdagi holati haqida, unga erishish muddatlari va alternativ yo'llari haqidagi ehtimol ilmiy asoslangan mulohaza tushuniladi. Gipoteza bilan taqqoslaganda u aniqligi yuqori bo'lgan, nafaqat miqdor balki, sifat tavsiflariga ega.

Reja tadqiq etilayotgan holatni, obyektning aniq qism voqelikni ko'ra bilish va oldiga qo'ygan maqsadni aniq qo'yishni nazarda tutadi Prognoz va reja o'rtasidagi farqlar:

- 1) reja direktiv xarakterga ega bo'lsa, prognoz – esa tavsiya etuvchi;
- 2) rejani ishlab chiqishda doim prognoz ishlab chiqilishini talab etadi.

- 3) prognoz ko'p variantli, reja esa unday emas.

Prognoz qilish jarayonining ijtimoiy ildizini albatta insoniyatning olamini bilishi va unda uning o'rni kelajakda qanday bo'lishi mumkinligini bilishga intilishiga borib taqalsa, uning iqtisodiy ildizini kishilik jamiyatida taqsimot munosabatlarining murakkablashib borishi, jamiyat sivilizatsiyasi natijasida ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalari ajraluvi natijasida ular o'rtasidagi nisbat(proporsiyani)ni o'rnatishga ehtiyojning mavjudligi tashkil etadi. Boshqacha qilib aytganda sohalari o'rtasidagi nisbat munosabatlarini o'rnatish esa davlatning jamiyatda sinfiy siyosiy kuch sifatida yuzaga kelishini taqozo etadi., o'z navbatida, esa davlat bunday proporsiyalarni ta'minlashda taqsimot munosabatlarini tartiblashdan foydalanadi, ya'ni ishlab chiqarish sohasida yaratilgan qiymatni qayta taqsimlash maqsadida turli xil markazlashgan pul fondlarini tashkil etish bilan hal etadi. Albatta bunday pul fondlari sifatida davlat budjeti (xazinasini)ning manbalarini aniqlash, uni chamalash(prognozlash) davlat moliya xo'jaligining muhim qirralari sifatida namoyon bo'ladi. Bundan ko'rinadi, davlat

jamiyatda taqsimot munosabatlarida faol ishtirok etib, o'zi faoliyatining moliyaviy asoslarini ta'minlashga harakat qiladi, bunday moliyaviy manbalarni joriy etish, uni undirish bilan birgalikda uning darajasini(kelajakdagi hajmini) doim aniqlab turish uning manfaatlariga mos keladi.

Bu jarayon asosan falsafiy-tarixiy shakllanish deb atalib, unda diniy, hissiy va filosofik yondashuvlar ustun bo'lgan va eramizdan avvalgi IV-V asrlargacha ushbu yo'nalishdagi bashoratlar hukmron bo'lib, falsafiy bashoratlarning asosini Platon va Konfutsiyilar ta'limoti tashkil etadi. Keyingi bosqich XV-XVI asrlarga tegishli bo'lib, bu bosqichda nazariy va amaliy ishlanmalar chuqurlashtirildi, bashoratlar insonning aqliy faoliyati natijalariga tayanildi va bashoratda tashqi muhitning ta'sirlari baholandi va mantiqiy xulosalarga asoslandi. XIX-XX asrlarda prognoz va rejalashtirishda muhim bosqich bo'lib, bu davrlarda prognozlashtirish va rejalashtirish jarayonlarida turdi xil modellar va metodlar qo'llanila boshlandi, prognoz ko'rsatkichlari rejalashtirishda, qolaversa davlat boshqaruvida e'tiborga oлина boshlandi.

Prognozlashtirish va rejalashtirishning hozirgi bosqichi asosan XX asrdan hozirgi kunlargaacha davrni qamrab olib, bu davrlarda prognozlash jarayonini algoritmlash, uning informatsion bazasini oshirish, axborot texnologiyalardan keng foydalanila boshlandi, uning natijalarini ishonchliligining oshishi, prognoz jarayoniga ta'sir qiluvchi omillarni baholashning chuqurlashuvi bilan izohlanadi.

Prognoz-grekcha(prognosis) so'z bo'lib-"oldindan ko'ra bilish," "oldindan aytish" degan ma'noni bildiradi. Iqtisodiy-ijtimoiy mohiyati bu- ko'zlangan maqsadga erishish(iqtisodiy holatga erishish)ning ilmiy asoslangan holda turli xil variantlarini baholashdan iboratdir.

Prognoz va reja ishlab chiqilgandan keyin bir qator aniq chora-tadbirlar, davri boshlanadi. Ko'pincha bu jarayon dasturni ishlab chiqish shaklida amalga oshiriladi.

Dastur – bu maqsadlari va vazifalari aniq shakllangan, bajarilish muddati bo'yicha, moliyalashtirish manbalari va aniq bajaruvchilar kelishilgan hujjat hisoblanadi.

Prognostika – bu prognoz ishlab chiqish qonuniyatlari haqidagi ilm. U istalgan tabiat obyektini rivojlanishini prognozlash metodlarini qurish tamoyillarini o'rganadi. Uning predmetiga prognoz tuzish tamoyillari va prognozlash metodlarini qurishni ishlab chiqish bilan bog'liq bo'lgan

barcha savollar kiradi. Prognoz kelajakni tavsiflab berish uchun u yoki bu sohadagi sodir bo'ladigan o'zgarishlardan oldinroq yuradi.

Prognoz qilinayotgan obyektning rivojlanish tendensiyalari qancha vaqtliroq topilsa, boshqaruv shunchalik samaraliroq bo'ladi. Amaliyotda prognozning 3 xil turi bor: qisqa muddatli (1 yildan 5 yilgacha), o'rta muddatli (5 yilgacha) va uzoq muddatli (15 yil va undan yuqori). Hozirgi kunda jadal rivojlanayotgan ilmiy texnika davrida uzoq muddatli prognoz o'z ahamiyatini yo'qotgan. Qo'shma korxonalarda qisqa muddatli prognozlarni 5 yildan ko'p bo'lmagan davr bilan cheklangan holda ishlab chiqishadi.

Boshqaruv tizimida prognoz quyidagi muhim vazifalarni bajarilishini ta'minlaydi:

- maqsadlarni aniqlash va prognoz qilinayotgan obyektning rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarini aniqlash;

- prognoz qilinayotgan obyekt rivojlanishi mumkin bo'lgan har bir variantlarni realizatsiyasini ijtimoiy va iqtisodiy natijalarini baholash;

- prognoz qilinayotgan obyekt rivojlanish mumkin bo'lgan variantlarni har birini ta'minlash uchun kerak bo'lgan chora-tadbirlarni aniqlash;

- chora-tadbirlar dasturini amalga oshirish uchun kerak bo'ladigan resurslarni baholash. Boshqaruv tizimida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni prognozlash va vazifalarining turli-tumanligi prognozni qurishni metodlari va har xil sistemalarini qo'llanilishini talab etadi. Har bir prognoz kerakli informatsiyaning olinishi, uning ishonchliligi asoslangan, baholangan, qayta ishlanishi natijasida paydo bo'ladi. Prognoz ishlab chiqish uchun qanday ma'lumotlarni olish – informatsiya tashuvchining tanloviga, uni olish usullariga, tahlil qilinayotgan obyekt rivojlanishini baholovchi mahsus hisob-kitoblarga bog'liq. Boshqaruv tizimida prognoz quyidagi muhim vazifalarni bajarilishini ta'minlaydi:

- maqsadlarni aniqlash va prognoz qilinayotgan obyektning rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarini aniqlash;

- prognoz qilinayotgan obyekt rivojlanishi mumkin bo'lgan har bir variantlar realizatsiyasini ijtimoiy va iqtisodiy natijalarini baholash;

- prognoz qilinayotgan obyekt rivojlanishi mumkin bo'lgan variantlarni har birini ta'minlash uchun kerak bo'lgan chora-tadbirlarni aniqlash;

- chora tadbirlar dasturini amalga oshirish uchun kerak bo'ladigan resurslarni baholash.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida prognozlash jarayoniga asoslanadigan asosiy tamoyillar ichida quyidagilarni ajratish mumkin:

1) prognozning doimiy asoslanganligi (tabiat, jamiyat rivojlanishi qonuniyatlarini hisobga olib ilmiy metodla yordamida ishlab chiqish);

2) prognozlashning uzluksizligi (mamlakatda, iqtisodiyotda vaziyatlarning o'zgarishini hisobga olib prognoz doimo to'g'rilanib (korrektirovka) turishi kerak);

3) istiqbol va joriy prognozlashning muvofiqligi (prognozlash o'zaro bog'liqlikda amalga oshiriladi, lekin ustivorlik istiqbol prognozlashga beriladi);

4) prognozlarning kelishilganligi (ishlab chiqilgan prognoz aralash prognozlar bilan o'zaro bog'langan bo'lishi kerak);

5) prognozning ko'p variantlilik, alternativlilik (prognozning bir necha variantlari ishlab chiqilishi, vaziyatlarning o'zgarishi holatlarida boshqa variantlardan foydalanish uchun talab etiladi. Odatda prognozni uch varianti mavjud: optimistik, pessimistik va realistik);

6) asosiy omillarni tanlash (prognozlashda hisob-kitoblarga tadqiq etilayotgan jarayonga ta'sir etuvchi omillar kiritilgan bo'lishi kerak). Buning dolzarbligi shundaki, iqtisodiy jarayonlarning o'zi murakkab, ko'p omilli va hamma omillarning ta'sirini hisobga olish qiyin);

7) prognoz ishlab chiqishning tizimlilik (prognozlash jarayonini bir tomondan bir butun tizim sifatida, ikkinchi tomondan esa alohida mustaqil bo'limlardan tarkib topgan murakkab tizim sifatida qaralishi);

8) prognozlarning verifikatsiyalanganligi (prognoz bahosi ishonchli va asoslangan bo'lishi kerak);

9) adekvatlilik (prognoz modelining real hayotga, tendensiyalarga, qonuniyatlarga maksimal yaqin bo'lishi kerak);


10) rentabellik (ishlab chiqilgan prognozdan samarauni ishlab chiqish uchun qilingan xarajatlardan yuqori bo'lishi kerak). Prognozlash tamoyillari prognozlash modellari va turli metodlarini metodologik yagonaligini ta'minlaydi.

Prognoz qilish turlari jud ko'p. Chunki, tabiat va jamiyatdagi har qaysi jarayon va hodisalarda rivojlanish jarayoni davom etadiki, ularning kelgusidagi holatini bilishga intilish prognoz jarayoni orqali amalga oshiriladi. Prognoz tushunchasi va uning mohiyatini o'rganish maqsadida iqtisodiy va boshqa adabiyotlarda uning turlariga yondashuvlarni o'rganish va tahlil qilish asosida ularni yondashuvimiz bo'yicha ma'lum bir mezonlar asosida guruhlariga ajratdik.

Prognozning mohiyatini chuqurroq o'rganish maqsadida ularni ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni qamrab olishi; ko'lami va funksional

belgisiga ko'ra guruhlab o'rganish maqsadga muvofiq. Bunday guruhlash ular o'rtasidagi o'zaro aloqalarning yo'nalishlarini, ya'ni bir-biriga ta'sirini aniqlash imkoniyatini ham kuchaytiradi.

Tabiiy-iqlim jarayonlarni qamrab oluvchi prognoz guruhiga kiruvchi prognoz turlari, masalan, resurslarni prognozlashtirish yerosti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha prognoz ko'rsatkichlarida muhim rol o'ynasa, demografik prognozlashtirish esa jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va pensiya fondining mablag'larini prognoz qilish hamda real jismoniy shaxslar bo'yicha soliq to'lovchilarning dinamikasini hamda aholining daromad keltiruvchi va transfert oluvchilar o'rtasidagi nisbatni ko'rsatib beradi.



26.3-rasm. Prognoz turlari

26.3. Innovatsion-texnologik rivojlanishni jahon miqyosida bashoratlari

Ilmiy-texnikaviy jarayonlarni prognoz qilish va uning ilg'or natijalari oqibatida esa ishlab chiqarish va uning omillarini joylashtirishga imkon yaratadi, chunki, atom elektr energiyasidan foydalanish va uni ishlab chiqilishi energiya ishlab chiqarish va uning

iste'molini aniqlashning prognoz ko'rsatkichlariga katta ta'sirga ega, axborot texnologiyalari sohasidagi yangi o'zgarishlar, bu sohadagi prognozlar yangi turdagi «mahsulotlarni» beradi, ularning amalga oshirilishi esa boshqa sohalardagi taraqqiyotni kuchaytirishga xizmat qilishi bilan bir qatorda prognoz jarayonlarini tezlashtirishga yordam beradi(masalan, Exsel programmasi, dasturiy mahsullar, ekonometrik hisoblarni amalga oshiruvchi mahsus programmalar va shu kabilar).

Prognoz turlarini makro va mikro darajada guruhlash ular o'rtasida o'zaro bog'liqlikni aniqlash bilan birgalikda prognozni amalga oshirish jarayonlarining tashkiliy jihatlari va ularda qo'llaniladigan metodlar, prognozning oldiga qo'yilgan maqsad va olinadigan natijalarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Makroiqtisodiy prognoz milliy iqtisodiyot darajasida kechadigan va makro darajada yuz beradigan umumiy qonuniyatlarga bo'ysunadigan jarayonlarni qamrab olib, milliy iqtisodiyot, sohalar, tarmoqlar, hamda xalqaro munosabatlarga oid prognoz ko'rsatkichlarini ifodalasa, mikrodarajadagi prognoz hududlar, korxonalar, jismoniy shaxslar kesimida prognoz qilinayotgan obyektlarning prognoz ko'rsatkichlarini aks ettiradi. Ta'kidlash lozimki, prognoz turlari ichida iqtisodiy prognoz ham ko'lami, ham murakkabligi, qolaversa, boshqa prognozlarning umumiy yo'nalishlarini ko'rsatib berishda katta ahamiyatga ega.

Iqtisodiy prognozlar ko'lami, muddatligi, funksional belgisi, jarayonlarni qamrab olishiga ko'ra ma'lum guruhlariga bo'linadi. Iqtisodiy prognozlar muhim xususiyati shundaki, ular bir tomondan iqtisodiy qonunlar asosida mavjud bo'lib harakat qilsa, boshqa tomondan ularning holatiga ta'sir etuvchi omillar ham ichki jihatdan ham tashqi jihatdan ta'sir etadi. Iqtisodiy prognozlarni to'g'ri amalga oshirish faqat ularning ichki xususiyatlarini emas, balki, boshqa omillarning xususiyatlarini ham birdek baholashni taqozo qiladi, bu iqtisodiy prognozning boshqa prognozlardan muhim farqini ifodalaydi. Iqtisodiy prognozlar funksional belgisiga qarab turkumlash ularni tadqiq etishning yo'llarini aniqlashga xizmat qiladi.

Tayanch iboralar

Bashoratlash, bashoratlash usullari, prognozlash, gipoteza, ekologik pessimizm, texnologik bashorat, o'rta muddatli, prognozlar, makroiqtisodiy prognozlar.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Bashoratlash va prognozlash tushunchalarining qanday farqli xususiyatlari mavjud?
2. Prognozlash usullari.
3. Quyidagi tushunchalarga ta'rif bering: prognoz, gipoteza, prognostika, oldindan ayta olish.
4. Prognozlash tamoyillarini va mohiyatini ochib bering.
5. Prognoz bilan rejaning farqi va umumiy tomonlari nimalardan iborat?
6. Boshqaruv tizimida prognoz qanday vazifalarni bajarilishini ta'minlaydi?
7. Innovatsiyalarni bashorat qilishning o'ziga xos usullari nimalardan iborat?
8. Innovatsiyalar ta'minotini bashorat qilishning qanday usullarini bilasiz?
9. Innovatsiyalarni ijtimoiy va ekologik oqibatlari nimalardan iborat?
10. Texnologik bashoratlash tushunchasi va uslublari.

XXVII BOB. REAL SEKTORDA INNOVATSIYALAR MARKETINGI

Mazkur bobda real sektorda innovatsiyalar marketingi va uning o'ziga xos xususiyatlari, ilmiy texnikaviy tashkilotlarda marketing faoliyatini tashkil etish jarayoni, innovatsion mahsulotning bozor harakati, Ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan texnologik yangiliklar marketingini takomillashtirish masalari bilan bog'liq ma'lumotlar tadqiq etilgan.

27.1. Innovatsiyalar marketingining o'ziga xos xususiyatlari


Marketing va innovatsiya tushunchalari hozir kunning yangiligi emaski, bu tushunchalarni o'tgan asrda ham tadbirkorlar va siyosatchilar o'z faoliyatlarida qo'llab kelib, dolzarbligini ta'kidlab o'tganlar. O'sha vaqtda bu bo'yicha umumiy tushunchalar bo'lsada, "innovatsion marketing" nima yoki innovatsiya haqida so'z ketganda yangi ko'rinishdagi oziq-ovqat va iste'mol tovarlari, texnika va texnologiyalarga oid, shu g'oyalarni ijtimoiy ko'rinishda bo'lishi, mahsulot yoki xizmatlarni oson va samarali tijoratlashtirish degan fikrlar olg'a surilgan.

XXI asr, ya'ni axborot asriga kelib butun dunyo olimlari-yu hamda tadbirkorlari marketing va innovatsiyani biri-biriga yaqin aloqador deb to'laqonli tan olinganligi hamda zamonaviy korxonalar faoliyatida innovatsion marketing texnologiyalaridan foydalanish davr talabi ekanligi hammamizga ma'lum. Bozordagi muhosasiz raqobat sharoitida mahsulot yoki korxonani davomiyligini ta'minlash uchun innovatsion marketing faoliyatining quyidagi ko'rinishlari vujudga kelgan; boshlang'ich innovatsion g'oyalarni qidirish va innovatsion salohiyatni aniqlash bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish, yangi mahsulot realizatsiyasi va yangi faoliyat (xizmat) turini yaratish yoki barcha innovatsion jarayonlarni boshqarish bo'yicha yangi usullar ishlab chiqish, sotishni

muvofiglashtirish uchun yangi sharoitlar yaratish bo'yicha chora-tadbirlarini kiritish lozimligini aytib o'tishimiz mumkin.

Bugungi kunda "Innovatsion marketing" marketing faoliyatida yangi paydo bo'lgan yo'nalish hisoblanib, innovatsion mahsulot va xizmatlarni shakllantirishda ishlab chiqarish texnologiyalarni joriy etish hamda ushbu innovatsion g'oyani tijoratga tayyorlashni amalga oshiradi. U korxonaga innovatsion mahsulotni maksimal samara bilan joriy qilish imkonini beradigan usul va vositalar majmuidan foydalanadi.

Innovatsion marketing texnologiyalarini o'z vaqtida qo'llash innovatsiyalar ishlab chiqish bilan bog'liq tavakkalchilikni kamaytiradi, chunki ular potensial talabni baholash, maqsadli bozor segmentini aniqlash va ishlanmalarni davom ettirish kerakmi, ular kutilgan samarani beradimi degan savollarga javob berishga imkoniyat yaratadi.



27.1.1-rasm. Innovatsion marketing va an'anaviy marketing vositalarida mahsulotlarni bozorga siljitishning umumiy ko'rinishi

Innovatsion marketingning asosiy maqsadi innovatsiyalarni bozorga kiritish strategiyasini ishlab chiqish va yangi mahsulotni bozorda mustahkam o'rin egallashini ta'minlash, an'anaviy marketingdan farqli ravishda innovatsion marketingning vositalari asosida innovatsiyalar bozorini tadqiq etish, bozorni kuzatish, bozor kon'yunkturasini tahlil qilish, talabni shakllantirish, iste'molchilar xulq-atvori bo'yicha bozor segmentlarini ishlab chiqish yotadi.

Xizmat ko'rsatishda esa "innovatsion marketing", ayirboshlash natijasida yangiliklarga bo'lgan ehtiyojni qondirish orqali foyda olishga

yo'naltirilgan inson faoliyati majmuini tushunmoq lozim. Bu faoliyat yangiliklarga ehtiyojni aniqlashdan tortib yangi innovatsion xizmatlarni yaratish, bozorga kirib borish, xizmatlarning hayotiylik davri, amaliyotda qo'llash, innovatsion xizmatlarni sotib olish uchun xaridorlarni qiziqishini orttirish, yangiliklarga bo'lgan talabni va ularni yaratilish istiqbollarini aniqlash kabi vazifalarni o'z ichiga oladi.

Xizmat ko'rsatish innovatsiyasi va xizmatlar innovatsiyasi ilm-fan va amaliyotga yetarli darajada qo'llanilmagan keng tushunchali atamadir. Innovatsion mahsulot va innovatsion xizmatning asosiy farqli belgilardan biri shundaki, innovatsion xizmat yangilik bozordagi muvaffaqiyati tegishli texnik bilimlarni amalga oshirish jarayonini innovatsion mahsulotga nisbatan kamroq talab qiladi.

Innovatsion xizmatni tijoratlashtirishda texnikaga nisbatan ko'proq iqtisodiy va ijtimoiy sohadagi jarayonlarni qamrab oladi.

Innovatsion marketingga, bir tomondan, innovatsion mahsulotni siljitish, ikkinchi tomondan, har qanday mahsulotni innovatsion vositalar yordamida siljitishga yo'naltirilgan faoliyat sifatida ta'rif berishimiz mumkin. Demak, innovatsion marketingga berilgan ta'rifdan kelib chiqib mahsulotni siljitishda marketingning u yoki bu vositasidan foydalanishimiz mumkin.

Ushbu marketingning vositalari mahsulot siljitish holatidan foydalanish quyidagicha ifoda etiladi:

- an'anaviy marketing vositalaridan innovatsion mahsulotlarni siljitishda foydalanish;

- an'anaviy mahsulotni innovatsion marketing vositalari bilan siljitishda foydalanish;

- innovatsion marketingdan ham an'anaviy mahsulotlarni ham innovatsion mahsulotlarni siljitishda qo'llash. Bu rasmda ko'rsatilgan kombina-tsiyalarning eng murakkabi innovatsion mahsulotni yashirin talab davrida innovatsion marketing vositalari yordamida siljitish hisoblanadi. Ammo an'anaviy mahsulotni doimiy talab sharoitida an'anaviy marketing vositalari yordamida siljitishning eng oddiy usuli sifatida qarashimiz mumkin.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, har bir faoliyatda yangicha qarash, yangi usullarda xomashyolarni yaratish va ishlab chiqarishga sarflash, iste'molchilar ehtiyojini to'laqonli qondirishga qaratilgan faoliyatini amalga oshirish, innovatsion mahsulotni siljitishgacha bo'lgan barcha jarayonlarning har birida innovatsion

marketingni o'zida namoyon qiladi. Zamonaviy bozor sharoitida innovatsion marketing innovatsion faoliyatning bir turi sifatida yuzaga kelar ekan, bunda, yangi mahsulot va xizmat turlarini ishlab chiqish jarayonlarini o'zlashtirishda ko'proq e'tibor ushbu innovatsion mahsulotlarni baholashga emas, balki bozorni o'rganishga qaratiladi. Bu esa, o'z navbatida, innovatsion mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarining yangi mahsulotlari yoki ko'rsatadigan xizmatlarini samarali va muvaffaqiyatli bozorga siljitishda innovatsion marketing texnologiyalaridan foydalanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

27.2. Mustaqil ilmiy texnikaviy tashkilotlarning marketing faoliyati

Innovatsion faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar va innovatsion faoliyatda ishtirok etuvchi jismoniy shaxslar ishtirokchilar innovatsion faoliyat subyektlari hisoblanadi. Innovatsion marketing faoliyatiga yordam kursatuvchi innovatsion infratuzilma korxonalar, investorlar, ilmiy tadqiqot institutlari, maorif muassasalari, davlat xokimiyat organlari subyektlaridir. Innovatsiyalar marketing jarayoni 3 faza: yangi mahsulotni yaratish-sanoat ishlab chiqarishni o'zlashtirish-tarkatishdan iborat (27.1-jadval).

27.1-jadval

Innovatsiyalar marketing jarayoni fazalari

Yangi mahsulotni yaratish	Ishlab chiqarishda o'zlashtirish	Tarqatish, sotish
Ilmiy tadqiqot va Tajriba konstruktorlik Ishlari – ITTKI. Yangi Mahsulot va jarayon Tijoratidan Foydalanishni Ta'minlovchi loyihalar Yaratish. Intellektual (sanoat) mulkchilik Subyektlarini himoya qilish	Tajribaviy ishlab chiqarishni tashkil etish. Texnologik jarayonlarni sozlash. Standartlashtirish, attestatsiya, litsenziyalash. Bozorni shakllantirish.	Seriyaviy Ishlab Chiqarish, sotish va xizmat ko'rsatish Doirasini Kengaytirish (imitatsiya)

Fazalarning har biri o'zicha samaradorlik tavsifiga ega. «Loyixa» fazasi o'tishining ijobiy natijasi-texnika muvaffaqiyatining mavjudligidir. O'zlashtirish fazasi uchun tijoratdagi muvaffaqiyat ya'ni mahsulot yoki jarayonning tijoratlashtirilishidagi imkoniyat xarakterli. Doirasini kengaytirish fazasi uchun esa loyiha investitsiyaga foyda hech bulmaganda korxonalar kapitalidan foydalanish alternativ xarajatlardan tashqari foyda beradigan moliyaviy muvaffaqiyat ko'rsatkichi muhim.

Marketing tadqiqotlariga ko'ra, sanoati yuksak rivojlangan mamlakatlarda ilmiy loyihalarning 40 foizi texnik, 33 foizi tijorat, 27 foizi moliyaviy muvaffaqiyatga ega. Bunday yuqori samaradorlik xususiy kompaniyalarning bir maqsadni ko'zlagan innovatsion faoliyatning natijasi bilan belgilanadi. Korxonalar, odatda nisbatan arzon tadqiqot yordamida jiddiy texnologik murakkabliklar yo'qotilmaguncha shuningdek, talabgorlar ta'siri va ishlab chiqarish xarajatlarning o'zgarishi ko'p bo'lganda yangi mahsulot ishlab chiqarishni yoki jarayonni boshlamaydi. ITTKI tugallangan bosqich (0,8foiz) boshlanadigan 3000 g'oyadan faqat bittasi (0,03foiz) va 125 ta loyihadan bittasi moliyaviy muvaffaqiyatga erishadi xolos.

Innovatsion marketing bilan shug'ullanuvchi korxonalar tijoratdan samara olish uchun iste'molchini mo'ljallashi ishlab chiqarishi mumkin bo'lgan (marketingning asosiy tamoyili) yangilikni emas, balki iste'molchiga haqiqatdan ham zarur bo'lgan yangilikni taklif etishi lozim. Shundan keyin kiritilgan yangilikka unga qo'yilgan konsepsiya nuqtayi nazardan yondashishni ko'rib chiqish taqozo etiladi. Kiritilgan yangilik borgan sari iqtisodiy turmushning muhim o'rni bo'lib qoladi. O'zbekiston sanoat ishlab chiqarishi AQSH, Yaponiya va Germaniya singari mamlakatlarga nisbatan, ancha orqada ekanligi yangi texnikaning qo'llanishi bilan bog'liq ekan, degan fikrga endilikda uzil-kesil kelindi. Hozirgi sharoitda korxonalar uchun oyoqqa turib olish yoki hatto kelgusida texnikaviy yangilanishda shoshilinch ravishda kiritilgan yangiliklarni qo'llash hayotiy muhim masaladir. Kiritilgan yangiliklarning singdirilishidagi muhim omillardan biri, chamasi uning hozirgi paytdagi murakkabligi va bilim darajasining bir-biriga o'zaro bog'liqligi hisoblanadi.

Innovatsiyalar marketingi O'zbekistonda innovatsion faoliyatning rivojlantirilishi lozim bo'lgan sohalaridan biridir. Ma'lumki, rejali iqtisodiyot sharoitlarida mahsulot iste'molchilari to'g'risida qarorlar markazlashtirilgan tarzda qabul qilinib, ishlab chiqaruvchilarga yangi

o'zlashtirilayotgan mahsulot turlari sotuvi strategiyasi to'g'risida o'ylashga zarurat mavjud emasdi. Bozor islohotlarining 2-3 yillarida iste'mol bozorining katta hajmi korxonalar rahbarlarining marketing sohasida loqaydligini keltirib chiqargan edi. Biroq, davlat dasturlar tizimi va innovatsion korxonalarining zaruriy moddiy-texnik va moliyaviy resurslar bilan ta'minlanishi tegishli markazlashtirilgan tarzda amalga oshirish bo'lmaganligi, ko'pchilik innovatsion korxonalarini mahsus ishlab chiqarishni qisqartirib, ommaviy iste'mol uchun texnologik liniyalar sotib olishga majbur qildi. Bu kabi qarorlarning asosiy qismi IK faoliyatini saqlab qolish va turli yo'llar bilan ishlab chiqarish jamoalari shtat jadvalini qisqartirmaslik yuzasidan qabul qilinar edi. Keyinchalik ma'lum bo'ldiki, ushbu strategiya muvaffaqiyatsizlikka yuz tutdi. Iste'mol bozori tez to'yinib, buning natijasida to'xtatilgan ishlab chiqarish ma'naviy eskirishga uchradi.

Hozirgi kunda innovatsion korxonalar oldida ishlab chiqarish texnologik bazasini yangilash, ishlab chiqariladigan mahsulot sifatini oshirish, sotuv bozorlarini kengaytirish, shuningdek, eksport salohiyatini oshirish kabi dolzarb vazifalar turibdi. Ushbu vazifalarni samarali hal etish faol innovatsion siyosat yuritish va innovatsion korxonada marketing faoliyatini rivojlantirishni talab etadi. Marketing bu bozorni tadqiq etish, bozor konyukturasi ma'lumotlari asosida mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarishni boshqarish va tartibga solish borasidagi faoliyatdir.

Agar yirik innovatsion korxonada marketingga boshqaruvning eskirgan shakllari inersiyasi natijasida e'tibor berilmayotgan bo'lsa, kichik biznes va xususiy sektorda ushbu holatning sabablari sifatida ijtimoiy-ruhiy omillar asos bo'ladi. Hozirgi kunda innovatsiya sohasidagi tadbirkorlar qatlamini asosan, sobiq olimlar va ixtirochi menejerlar tashkil etadi. Oldingi kasbi va sobiq iqtisodiy sharoiti ta'sirida tadbirkorlarning ushbu guruhi o'zining asosiy e'tiborini birinchi o'rinda innovatsiyalarning foydali xususiyatlariga qaratadi, ikkinchi o'rinda esa moliyaviy manbalarni izlash hamda va oxirgi o'rinda o'z biznesini tashkil etish va potensial sotuv bozorlarini tahlil qilish haqida bosh qotiradi. Bunday sharoitda muvaffaqiyatli innovatsiya qonuniyat bo'lmay, balki qandaydir omadli tasodifga aylanishi turgan gapdir.

Innovatsion siklda harakatlanish, g'oyadan boshlab uning shakl o'zgartirishigacha innovator-tadbirkor sotuv masalasiga duch keladi. Innovatsion korxonada marketingning amal qilmasligi sharoitida u

bozorga o'z tavakkali va qo'rquvi asosida chiqib, iste'molchi innovatsiyalarini baholash va qabul qilishini kutib o'tirishi lozim bo'ladi. Bunda yangi mahsulotning iste'molchi tomonidan qabul qilinmaslik xavfi yuqori bo'lib, undan tashqari vaqt ham ishlab chiqaruvchi va uning mahsulotiga qarshi ishlaydi. Agar innovator innovatsiyalar marketingini korxonada menejmentning asosiy tashkil etuvchisi sifatida talqin etsa, tegishli bozor segmentlarini prognozlash, innovatsiyalarning iste'mol xususiyatlari narxlarini rejalashtirish, reklama xarajatlarini hisoblash asosida, innovatsiyalarning iste'molchi tomonidan qabul qilinmaslik xavfini ancha pasaytirishga erishadi.

Bugungi kunda marketing uch jihat birligi sifatida tushuniladi:

1) Biznesning mahsus falsafasi;

2) Bozordagi holatni baholash va unga ta'sir etishga imkon beruvchi vositalar kompleksi;

3) innovatsion korxonada bozor strategiyasi amalga oshuvchi boshqaruv funksiyasi.

Hozirgi davrda korxonalarimizda marketing tushunchasiga boshqaruv funksiyasi sifatida qaralib, marketing vositalarining cheklangan majmuini qo'llashadi. Bunda ular marketingning birinchi jihatini, ya'ni uning innovatsion korxonada boshqaruv tizimini va uning strategiyasini bozorning itsiqboldagi rivojlanishi nuqtayi nazaridan baholashga imkon beruvchi asosiy jihatini nazardan chetda qoldirmoqda. Marketingni bu kabi cheklangan va tor tushunishning asosiy sababi innovatsion korxonalarimizda menejment darajasining xorijiy kompaniyalarga nisbatan orqada ekanligi, korxonaning bozordagi mavqeyini shakllantiruvchi biznesning ideologiyasi mavjud emasligi hisoblanadi.

27.3. Ilmiy-texnikaviy mahsulotning bozordagi harakati


Bozor strategiyasida tutgan o'rniga qarab yangi mahsulotlar quyidagicha klassifikatsiya qilinadi:

- Agar korxonada uchun mahsulot yangi bo'lsa va unga yangi tovar belgisi (marka) berilsa, u innovatsion mahsulot jumlasiga kiritiladi. Masalan, «Maksvel Xaus»ning «Koppio» sovutilgan kofesi shunday mahsulotdir.

-Agar mahsulotga yangi marka nomi berilsa va u korxonada avval mavjud bo'lgan mahsulot jumlasidan bo'lsa, unga «flang mahsulot» deyiladi.

-Agar korxonada mavjud toifadagi mavjud markaning yangi boshqacha modellari, o'lchamlari, ta'm va rangini ishlab chiqarsa, bu liniya orttirmasi deyiladi. Agar mavjud mahsulot yangi maqsadlarda va yangi toifa o'rnida qo'llanilsa, u «texnologik orttirma» deyiladi. Agar korxonada yangi toifadagi mahsulotni yaratib, u uchun mavjud marka nomini qo'llasa, bu franchayzli orttirma deyiladi. Jeneral Motorsning yangi kredit kartochkalarini joriy etishi bunga misol bo'la oladi. Bu kompaniya avtomobil ishlab chiqaruvchi korxonada bo'lsada, uning kredit kartochkasi uchun ham bir xildagi marka nomini ishlatishi korxonada obro'si, tajribasi va quvvati yangi mahsulotning ham xususiyatlari tarkibiga kirishini bildiradi. Ammo bu strategiyani xavfi ham yuqoridir, uzoq muddatda marka nomi obro'sini va aniqligi yo'qotib boradi.

Yangi mahsulot ishlab chiqishda va ularni bozorga kiritishda muvaffaqiyatga erishgan korxonalar faoliyatini tahlil etish natijasida bu jarayon 27.3.1-rasmda ko'rsatilganidek, bir necha bosqichlardan iboratligi aniqlangan.



27.3.1-rasm. Yangi mahsulot ishlab chiqish jarayoni bosqichlari

Vaziyat tahlili amalga oshirilgandan keyin strategiya qanday yo'nalishlarda rivojlanishi kerakligi aniqlanadi. Yangi mahsulot strategiyasi quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

A) Yangi mahsulot parametrlari (xususiyatlari)

B) Yangi mahsulot ishlab chiqarish maqsadlari.

S) Maqsadlarga erishish uchun amalga oshiriladigan tadbirlar.

Korxonaga qanaqa turdagi va toifadagi mahsulotni ishlab chiqarishni mo'ljallayotgani va bu mahsulot qanday afzalliklarga ega bo'lishi kerakligini aniq qayd etishi zarur. Yangi mahsulot borasidagi maqsadlar quyidagi ko'rinishda bo'lishi mumkin: o'sish (tez sur'atda yoki cheklangan), bozor hissasi (agressiv o'sish yoki bozor hissasini himoya qilish), sotuv hajmini oshirish, foyda darajasini oshirish Yangilik yaratish jarayoni dasturi esa quyidagicha bo'lishi mumkin:

- iste'molchilar fikri asosida yangilik yaratish yoki korxonaning texnik qobiliyatiga qarab yangilik yaratish.

- yangilikni o'z imkoniyatlari doirasida kashf etish yoki boshqa kompaniyalardan imitatsiya qilish. Ba'zi menejerlar kashfiyotlarga nisbatan liniya orttirmalari va egizak mahsulotni ishlab chiqarishni afzal deb biladilar, chunki bunda muvaffaqiyatsizlikka uchrash ehtimoli kamroq bo'ladi. AQSH kompaniyalari daromadining 28 foizi innovatsiyalarni sotishdan kelsa, liniya kompaniyalarida bu ko'rsatkich 44 foizni tashkil etadi. G'oyani shakllantirish. Bu bosqich mahsulotlarni shakllantirish jarayonidagi «Fikriy izlanish» (brainstorming) amalidir. Bunda yangi mahsulotlar g'oyasi turli manbalar orqali izlanadi. Ko'p hollarda, korxonaning o'z ilmiytadqiqot xodimlari yetarli darajadagi g'oyalarga ega bo'lmaydi. Shuning uchun yangi mahsulot g'oyalari raqobatchilar, mijozlar, vositachilar singari boshqa turli manbalardan olinadi.

Yangi mahsulot g'oyalari bir necha bosqichli baholovchi testlar orqali filtrlanib, iqtisodiy tahlil uchun mahsus mezonlar ham yaratilishi zarur. Mezonlar qanchalik aniq bo'lsa, g'oyani baholash sifati shunchalik oshadi. Baholash jarayoning yana bir muhim qismi bu - g'oya testidir. Bu test alohida iste'molchilar va ularning kichik guruhlarining yangi g'oya va kompaniyaga munosabatini aniqlashni o'z ichiga oladi. Korxonaga «fokus guruhlaridan, iste'molchilar paneli va individual intervyulardan foydalanishi mumkin. Biroq, g'oya testini texnikaviy innovatsiyalar uchun qo'llashning samarasi past bo'ladi, chunki mijozlar murakkab yangi xususiyatlarni yetarlicha anglay

olmasliklari mumkin. G'oya testi mahsulot uchun aniq bozorni aniqlash, qanday xususiyatlar bozorda iste'molchilar uchun muhimlik kasb etishi, yangi mahsulot mavjud mahsulotga nisbatan qanday qabul qilinishi va iste'molchilar xatti-harakati qanday bo'linishi baholash uchun kerakdir.

Innovatsiyalarga ehtiyoj mahsulot hayotiylik davrining oxirgi bosqichida dolzarflik kasb etsada, innovatsion g'oyalarni yaratish va yangi ishlanmalarni doimiy joriy etish korxonaga muvaffaqiyatining asosiy garovi hisoblanadi. Shu sababli innovatsion marketingni amalga oshirish innovatsion korxonaga (ayniqsa, kichik korxonaga) yuqori raqobatbardoshligining asosiy sharti hisoblanadi. Yangi ishlanmani bozorga olib chiqishda narx belgilash siyosati va sotuv kanallarini yaratish marketingning yuqori ahamiyatga ega ko'rinishlaridandir.

Narx siyosati korxonaga o'zi uchun belgilaydigan aniq marketing strategiyasiga muvofiq ravishda shakllantiriladi. Yangiliklar narx ishlab chiqarish zararsizligi tahlili asosida shakllantirilishi mumkin. Bu holda narx korxonaga xarajatlarini qoplashi zarur va narxni aniqlashda mahsulot tannarxini hisoblash asosiy tadbir hisoblanadi. Ikkinchi holda narx itse'molchi tomonidan sotib olinadigan mahsulot qiymatini qabul qilishi asosida shakllantirilishi mumkin. Buning uchun innovatsion korxonaga itse'molchilarning raqobatchilar mahsulotlar qiymati bo'yicha tasavvurlarini aniqlashi zarur. U yoki bu mahsulotni xarid qilishda quyidagi omillar hal qiluvchi rol o'ynaydi: narx sharoitlari, mahsulot sifati, sotuvdan oldingi va keyingi servis xizmati ko'rsatish. Shuningdek, yangi mahsulotga narx sotuv bozorlari uchun kurash hamda innovatsion korxonaga raqobatbardoshligini oshirish vositasi sifatida ko'rib chiqilishi mumkin. Bunda innovatsion korxonaga muayyan bozor segmentini qo'lga kiritish hamda o'z pozitsiyasini mutsahkamlash maqsadida vaqtincha o'z mahsuloti sotuvidan keladigan foydadan voz kechadi.

Korxonaning taqsimot siyosati mahsulot oqimi va sotuv kanallarini rejalashtirish, shuningdek, sotuv va agentlik tarmoqlarini yaratish, ularga mos keluvchi ombor va magazinlarni shakllantirishdan iboratdir. Sotuv tizimining asosini innovatsion korxonaga hamda xaridorlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning bir yoki bir necha variantlari tashkil etishi mumkin:

- ❖ To'g'ridan to'g'ri shartnoma asosida yoki o'z chakana savdo tizimi orqali yangi mahsulotni itse'molchilarga yetkazish;
- ❖ Ulgurji savdo xaridorlariga sotish;
- ❖ Mustaqil chakana-savdo tarmog'ida sotuvlar;

Franchayzingni tashkil etish va xaridorni o'zlashtirilgan sotuv va xarid liniyalari, ishlab chiqarish, sotuv texnologiyalari va mijozlar to'plami bilan ta'minlagan holda franshiza litsenziyasini sotish.

Strategik qirralar texnikaviy - yangiliklarini kiritishning muxim elementlari bo'lib xisoblanadi. Chunki ular yo'nalishlarning kengligini (ko'lamini) aniqlaydi. Bu yo'nalishlarda ilmiy-texnikaviy resurslardan foydalanish mumkin bo'ladi. Ammo strategiya konkret mahsulot yoki jarayonni ishlab chiqish (yaratish) natijasida xaqiqatga aylanishi mumkin. Aynan mahsulot yoki jarayonni ishlab chiqish (yaratish) olim, konstruktor, texnolog ish vaqtining asosiy qismini tashkil qiladi.

Shuni tushunish lozimki, ITTKI larga xarajatlar - bu korxonalar kelajagini belgilashdir. Lekin ular firmaning yuqori rahbariyati uchun ma'qul bo'lgan ko'rsatkichlar yordamida asoslangan bo'lishlari kerak. Ilgari qattiq holda bahoning bo'lmaganligi moliyaviy muvaffaqiyatsizlikka olib kelardi. Bundan tashqari shuni ta'kidlash lozimki, mukammal tasdiqni talab qiluvchi yakuniy baholash tavakkallikka borishni xohlamaydigan rahbarlarni kamdan-kam hollarda qoniqtiradi.

ITTKI lari dasturini boshqarish murakkab jarayon.

Bu yerda oddiy javoblar yo'q. Bundan tashqari ITTKI lari rahbari ko'pincha uning oldida turadigan masalalarni yechish uchun yetarli tayyorgarlikka ega bo'la olmaydi. Texnikaviy masalalarga tushunish (loyiqlik) o'z-o'zidan muhim bo'lib qolsa, ham lekin faqat bir tashkil etuvchisi bo'lib hisoblanadi. So'nggi yillarda tadqiqotlik va innovatsion faoliyat ko'lamining o'sishi universal reseptlarni ishlab chiqishga olib kelmagan bo'lsa ham ularning mazmunini tushunishga imkon beradi. Yutuqni belgilovchi omillarni ko'rib chiqamiz. Strategik yondashuv (yuqorida ko'rib chiqilgan).

Inson omili ITTKI lari rahbar shunday jamoani yaratishi lozimki bunda har bir mutaxassis maksimal darajada faoliyat ko'rsatib foyda keltira olsin.

ITTKI lari korporasiyaning boshqa funksiyalari bilan samarali integratsiyasini ta'minlovchi tegishli tashkiliy tuzilma ham muhim ahamiyatga egadir.

Boshqarishning professional usullaridan foydalanish boshqaruvni takomillashtirishning muhim qismini tashkil etadi. Bu usullar loyihalarni baholash boshqarish, tavakkallikni tahlil qilish, moliyaviy baholash,

budjetni boshqarish va boshqa usullarini o'z ichiga oladi. Bular amaldagi usullar bo'lib, ulardan keng ko'lamda foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Kelajakka mo'ljal qilish. Hozirvaqtlik - bu yangiliklarni kiritishning mohiyatidir. U kerakli mahsulotni o'zlashtirish yoki kerakli jarayonni joriy qilishni o'z vaqtida amalga oshirishda namoyon bo'ladi. Bu yerda ilmiy-texnikaviy yutuqqa «chiqish» (erishish) va tegishli texnologiyani bashoratli baholash muhim joy egallaydi.

Amaliy tajribani samarali o'zlashtirish yangiliklarni muvaffiqiyatli va muvaffiqiyatsiz tadbir etish misollarida amalga oshadi. Innovatsion jarayonning spetsifik qirralarini tadqiqot qilish bilan birga ular rahbarlarga ko'p hollarda muvaffaqiyatsizlikka olib keladigan xatolarni qilmaslikka yordam beradi. Shu bilan bir vaqtda bu misollar yutuqning zaruriy sharoitlarini ko'rsatib bersa ham, ular konkret vaziyatda konkret maqsadlarga erishishda nisbatan kam foydalidir. Afsuski, yangiliklarni kiritish samarali bo'lish kutilgan paytda muvaffaqiyatsizlikka uchraganlik misollari ham tez-tez uchrab turadi, yoki teskarisi. Demak nazariya ham yetarli darajada puxta ishlab chiqilmagan. Bundan tashqari loyihalarni amalga oshirishga mas'ul bo'lgan rahbarlarning o'z ishiga sadoqati va bor kuch - g'ayratini safarbar qilishiga katta e'tibor beriladi.

Shunday qilib yangiliklarni kiritish sohasida tadqiqotchilar asosli isbotlash mumkin bo'lmaydigan jarayonlar, holatlarni yetarli darajada tushunib yetishga taalluqli yakuniy xulosalar qilishga ularni ifodalashga harakat qilmasliklari lozim. Shu bilan bir vaqtda rahbarlar shunday doimo shunday vaziyatda bo'ladilarki unda ularning chuqurroq jarayonlarni tushinishi yetarli bo'lmaydi. Lekin shunga qaramasdan, ular yechim qabul qilish zaruriyatidan qocha olmaydi.

Yangiliklarni kiritishda konsepsiyalar protseduralar va usullar muhim rol o'ynashadi.

27.4. Innovatsion marketingning turlari

Innovatsion marketing sotsial yo'naltirishga, izdoshlarga ega. Strategik va operativ tashkil qiluvchilar uning eng muhim turlari bo'ladilar.

Strategik marketing tadqiqotlarini asosiga bozor holatini keyinchalik bozor segmentlarini ishlab chiqish, talabni tashkil qilish va

shakllantirish, xaridoni modellashtirish bilan tahlil qilish qo'yiladi. Tadbirkorlik korxonasi boshidan bozorni egallash segmentlashtirishni kengaytirish va chuqurlashtirish o'zining iste'molchilarni yaratishga qaratilishi kerak. Bozorlar va tashqi muhit omillarini tahlil qilishdan tashqari zamonaviy marketing nafaqat bugungi kunning iste'molchilarini o'rganadi, balki kelajakda ehtimol bo'lganlarini ham shakllantiradi. Strategik marketing korxonaning marketing va sotsiologiya xizmatlari xodimlarining iste'molchilarning yaqindan aloqasiga kritilgan (anketalar to'ldiri, telefon bo'yicha so'rov, reprezentiv tanlov olishlar va h.k.).

Ko'pgina kichik va o'rta korxonalar o'zlarining marketing xizmatlariga ega bo'lishga imkoniyatlari yo'qligi sababli mutaxassislar maslahatlari, ko'rgazmalariga borish, kataloglarni o'rganish, xaridorlar bilan bevosita aloqani kengroq qo'llashlari kerak. Ishlab chiqaruvchi va xaridor o'rtasidagi doimiy teskari aloqaga asoslangan marketingning majmuaviy turi («Marketing mira») xatarni pasaytirishning eng muvaffaqiyatli yo'li bo'lishi mumkin. Tadbirkor xaridorlarni uning muhiti, xulqi, istaklari, anglab etolmagan butun turli tumanligiga ko'rinishi kerak.

Nafaqat mahsulotning turli tuman navlarini ishlab chiqarish, balki bir vaqtda harakatlarni yangilarini o'rnini almashtiruvchi va siqib chiqaruvchi modifikatsiyalarni tezroq ilgari surish maqsadida o'z mahsulotini muddatidan oldin mahalliy eskirishi taktikasini yaratishga jamlanishi kerak.

Yangilikka talabga munosabatga ega makroiqtisodiy omillar, shu jumladan aholi, uni o'sish sur'atlari, aholi jon boshiga daromad va iste'mol, iste'mol narxlarining indeksi, «iste'mol savatchasi», inflatsiya sur'atlari umumiy iqtisodiy tahlilga imkon beradilar. Bundan tashqari bunga yuridik va institutsional sharoitlarni o'rganish, hamda bunday mahsulotning importi va eksporti, kvotalashtirish, standartlar bo'yicha cheklashlar, majburiyatlar, soliqlar va subsidiyalar bilan bog'liq qonunchilik amaliyoti ham kiradi. Bunga bunday mahsulotni milliy ishlab chiqarishning mavjud darajasi, importning mavjudligi va imkoniyati, eksportning mavjud darajasi importning o'rnini bosuvchi mahsulotni ishlab chiqarish va to'ldiruvchi yangiliklar haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilish zarur.

Innovatsion marketingning qoidalariga muvofiq yangi tovarni qabul qilish quyidagi bosqichlardan tashkil topadi:

1. Birlamchi xabardorlik. Iste'molchi innovatsiya haqida xabar topadi, yetarlicha axborotga ega emas.


2. Tovarni tanish. Iste'molchi ba'zi bir axborotga ega, yangilikka qiziqadi: yangilik haqida qo'shimcha axborotlar (reklama, prospektlar, ma'lumotnomalarni qidirishi mumkin).

3. Yangi tovarni identifikatsiyalash. Iste'molchi yangilikni sinovdan o'tkazishi haqida qaror qabul qiladi. Iste'molchi yangilikni o'zining ehtiyojlari bilan tanishtiradi.

4. Yangilikdan foydalanish imkoniyatlarini baholash.

5. Iste'molchi innovatsiya va xarid qilish ehtimoli haqidagi ma'lumotlarni olish maqsadida yangilikni sinovdan o'tkazadi.

6. Test natijalari bo'yicha yangilikni xarid qilish yoki yaratishga investitsiya kiritish haqida qaror qabul qilish.



27.4.1-rasm. Bozorni tadqiqot qilish tizimi

Yangi tovarni qabul qilish bosqichlaridan tashqari marketologlariga iste'molchilarni ularni yangiliklarga moyilliklari darajasi bo'yicha tasniflash zarur. Masalan, ko'pgina iste'molchilarga innovatsiyalarni qabul qilishda qandaydir psixologik to'siq vujudga keladi, ammo samarali reklama va marketing tadbirlaridan keyin innovatsiyani qabul qilgan va qabul qilmaganlar o'rtasidagi nisbat o'zgaradi, birinchilarining soni qat'iy oshib boradi.

Innovatsiyaning ba'zi bir turlari aynan bir kunda ommaviy bo'lib ketadi, boshqachasiga buning uchun uzoq vaqt talab qilinadi. Innovatsiyani qabul qilinishi sur'atlariga beshta ta'rif ta'sir ko'rsatadi:

- usullarning vorisligi va birga bo'la olishligi, yangi qabul qilingan iste'mol boyligi va innovatsiya iste'molchilarining tajribasiga mos kelishi darajasi. Masalan, buxgalteriya hisobi, hisoblash texnikasini innovatsion qo'llash uchun dasturiy mahsulotlarning muvaffaqiyati tizimni iste'molchilarning psixologiyasi va odatlariga, turg'un ishchi tartib va psixologik stressni kamaytirish imkoniyatiga moslashishga bog'liq;

- Murakkablik, ya'ni uning mohiyati va tatbiq etish tamoyillari, hamda foydalanishdan foydani tushunishning nisbatan qiyinligi;

-innovatsiyani tatbiq etish jarayonini bo'linuvchanligi, ya'ni yangilikni bosqichma bosqich kiritish va natijani asta sekin baholash imkoniyati.

- kommunikatsiyon ko'rgazmalilik, ya'ni inovatsiyani qo'llashdan foydalilik va foydani tushunarli bayon qilish imkoniyati.

Iqtisodiy rivojlanishning innovatsion turi hammadan avval determinatsiyalanganlikni keskin pasayishi va umuman tizimi murakkablashishini bildiradi. Tashqi muhitning o'zining sotsial va siyosiy janjallari va iztiroblari, axborotli va texnologik o'zgarishlari bilan yuqori faolligida iqtisodiy tizim va uning tuzilma tashkil qiluvchi xulqi borgan sari ehtimolli va oldindan aytib bo'lmaydigan xarakterga ega. Bunday sifatlarda korxonalarni yashab qolishi rahbarlarning qobiliyati, ularni kutilmagan vaziyatlarda to'g'ri yo'lni tanlay bilishlar, xatarni ko'ra olishlariga to'g'ridan to'g'ri bog'liq.

Novatorlik korxonasi rivojlanishining mantiiqi og'irlik markazini operativ taktik rejalashtirish va boshqarishdan strategik darajaga, boshqaruvning yangi turini shakllantirish darajasi-innovatsion marketingga ko'chishiga olib keladi. Unda an'anaviy tamoyillarning har xil fragmentlari saqlanib qolinadi, ammo ulardan vaziyatli tahliliga nisbatan qo'llanishida foydalaniladi. Bu yangiliklar, sarmoyalar manbalari va yangi bozorlarni uzluksiz qidirish sharoitlarida korxon qobiliyatini muvofiqlashtirishga imkon beradi. Innovatsion marketingda samarali rahbarlikning usullari, yondoshishlari va yo'llari vaziyatga muvofiq o'zgaradi.

Innovatsiyalar yashash davrining har bir bosqichida marketingning har xil usullari va yondoshishlari, har xil stratgeiyasi va taktikasi talab qilinadi. Yangi tovarni sotish kanallarini pozitsiyalashtirish (joylashishi)

ni shakllantirishni o'z ichiga oluvchi yangilikni bozorga kirib borishi strategiyasi va taktikasi marketing tadbirlarining muhim yo'nalishi bo'ladi. Joylashtirish-yangilikni bozorda mavjud bo'lgan tovarlar qatoridagi joyini belgilash tizimini bildiradi. Joylashtirishdan maqsad – yangilikni bozordagi o'rni mustahkamlashdir. Yangi tovarni joylashtirish hammadan avval yangilik va mavjud bo'lgan tovarlar o'rtasidagi Raqobatni bildiradi.

Marketing tizimining yakunlovchi bosqichi-operativ marketing, bu bosqichda strategik innovatsion marketing konsepsiyalarini amalga oshirishning yangi shakllari ishlab chiqiladi.

Operativ marketing bozordagi yangilik yashash davrlarining bosqichlari bilan mahkam bog'langan. Yangilik yashash davrining boshlang'ich nuqtasini belgilash ayniqsa muhim. Innovatsiyalarni bozorda mavjud bo'lishi yashash davrining birinchi bosqichida innovatsiyaga e'tiborni jamlash va diffuziyalash uchun axsus tadbirlar zarur. Masalan, sotishlarning adekvat kanallarini shakllantirish, mavjud bo'lgan eskilarni modifikatsiyalash va moslashtirish zarur. Bu yerda marketingning samaradorligi bir qator omillar: innovatsion reklamaning faolligi, innovatsiyani bozorga chiqishining muvofiq vaqti, innovatsiyaning mavjud bo'lgan tovarlar mavzusidagi xulqining variantini tanlash, ehtimol bo'lgan raqiblar xulqini bashoratlash, hamda bozorning tuzilishi yangi tovarga qanchalik mos kelishiga bog'liq. Bu sharoitlarda marketing nafaqat yangilikni bozorda joylashishini, balki texnologik bozorga joylashishini ta'minlashi, yangilik va boshqa tovarlar avlodlari o'rtasidagi vazifasiviy raqobatni engib o'tishi shart.

Innovatsion loyihaning marketing tadqiqoti o'tkazilishi ya'ni bozor va bozor muhitiga oid ma'lumotlarni tartibli ravishda qayta ishlash nihoyatda muhimdir.

Marketing tadqiqotining vazifasi — ma'lumotlarni to'plash va talqin etish (izohlash), shuningdek strategik yoki marketing xususiyatiga ega bo'lgan qarorlar qabul qilish uchun asos yaratish.

Marketing tadqiqoti asosan talabni (oxirgi iste'mol va savdo talabini) hamda raqobatni, xaridorning xatti-harakati va iste'molchining ehtiyojlarini, raqobatchi mahsulotlar va marketing vositalarini tahlil qilishdan iborat. Bunda individual subyektlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni, ularning umuman bozorga munosabatini, shuningdek ijtimoiy, ekologik va iqtisodiy omillarning ta'sirini inobatga olish kerak. Innovatsion loyiha uchun talab etiladigan marketing tadqiqotining

doirasi loyihani (va muqobillarni) tanlash va asoslash hamda tegishli marketing konsepsiyasini yaratish zarurati bilan bog'liq. Tadqiqot ishi rejalashtirish jarayoniga muvofiq ravishda bosqichma-bosqich olib boriladi. Tabiiyki, keyingi barcha qarorlar soni axborotning baholanish sifatiga bog'liq. Tadqiqot bosqichida yo'l qo'yilgan har qanday xato marketing konsepsiyasi noto'g'ri bo'lishiga olib kelishi va butun loyihani barbod bo'lish xavfi ostiga qo'yishi mumkin.

Marketing tadqiqoti boshlanishidan va keyinchalik marketing konsepsiyasini shakllantirishda avval marketing funksiyalarini, uning qurollarini, shuningdek yangilik kiritish mo'ljallanayotgan bozorning asosiy ko'rsatkichlarini (xususiyatlarini) kim va nima belgilashini aniq tasavvur qilish kerak. Korxonalar bozorda mustaqil va alohida holda hamda iqtisodiyot yoki ijtimoiy-iqtisodiy tizim doirasida faoliyat ko'rsata olmaydi. Xuddi ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtasida bo'lganidek, raqobatchilar va sheriklar o'rtasida ham muayyan aloqadorliklar mavjud. Bozorni tahlil qilish uchun ham, marketing konsepsiyasi tuzish uchun ham ishlab chiqaruvchilar va oxirgi iste'molchilar, shuningdek mahsulot sotish bilan bog'liq vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan qurollar va vositalar o'rtasidagi ushbu aloqadorliklarni (ularni marketing tizimi sifatida izohlash mumkin) tushunish zarur.

Yangilik uchun marketing qurollarini tanlash nafaqat iste'molchilarga, balki bozordagi barcha ishtirokchilarning maqsadlari va harakatlariga ham bogliq. Har bir ishtirokchi eng maqbul strategiya va marketing kompleksini belgilashdan oldin boshqa ishtirokchilarning maqsad va rejalarini ko'rib chiqishi kerakligi bois bu maqsadlar va harakatlar o'zaro bog'liqdir. Marketingga sistemali yondashuv bozor ishtirokchilari va ular faoliyati o'rtasidagi o'zaro aloqalarni tushunishni osonlashtiradi. Bu tizimning elementlariga korxonalar va tashkilotlar ham bozordagi ayirboshlash jarayonida aniq bir rol bajaradigan alohida shaxslar ham kiradi. Masalan, bu yuqori baholar siyosatiga amal qiluvchi raqobatchi; past narxlar siyosatini olib bora oladigan va binobarin, past sifatlil mahsulotga ega bo'lishi mumkin bo'lgan boshqa raqobatchi bo'lishi mumkin; ulgurji sotuvchilar hamda xaridorlarga alohida xizmatlar taklif etuvchi chakana sotuvchilar mavjud bo'lishi mumkin va nihoyat (lekin oxirgi navbatda emas) xarid qobiliyati turlicha bo'lgan iste'molchilar mavjud.

Bozor ishtirokchilari (tizim elementlari) o'rtasida yuzaga keladigan va marketing tadqiqotiga taalluqli bo'lgan o'zaro munosabatlar birinchi navbatda ularning faoliyatida namoyon bo'ladi. Bu faoliyatning ko'rinishlariga tovar va xizmatlar ayirboshlash, to'lovlar tizimi hamda sotuvchilar va xaridorlarning bevosita muloqoti jarayonida marketing vositalaridan foydalanish kiradi. Innovatsion loyihaning datslabki bosqichida marketing tadqiqoti odatda bozorni tahlil qilishga (asosan talab va taklifni tahlil qilishga) qaratiladi. Ko'pincha tadqiqot ishida marketing vositalariga yetarli e'tibor berilmaydi yoki ular umuman ko'rib chiqilmaydi, holbuki asosiy raqobatchilarning marketing kompleksini baholash va ushbu kompleksni muayyan loyiha uchun belgilash mazkur loyihaning tipi va miqyosiga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu jihatdan qaraganda, rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlarda amalga oshirilayotgan loyihalar o'rtasida farq yo'q.

Talab va bozorni tahlil qilishning uchta muhim maqsadi mavjud bo'lib, ular innovatsion tadqiqot va innovatsiyalarni joriy etish bosqichlari uchun nihoyatda muhimdir. *Birinchi*dan, "bozor-loyiha" o'zaro munosabat tizimi boshqaruvchilar uchun ravshan bo'lishi kerak; *ikkinchi*dan, strategik cheklovlar va muammolar aniqlanishi lozim; va nixoyat loyihaning strategik variantlari tasvirlanishi zarur.

Ish quyidagi reja asosida tashkil qilinishi kerak:

- maqsaddagi bozorning tuzilishini baholash;
- iste'molchilarni tahlil qilish va bozorni segmentlash;
- mahsulot o'tkazish yo'llari (kanallari)ni tahlil qilish;
- raqobatni tahlil qilish;
- ijtimoiy-iqtisodiy muhitni tahlil qilish;
- korporativ (ichki) tahlil;
- marketing axborotini oldindan baholash;
- xulosalar, istiqbollor, tavakkallar (xatarlar).

Tahlilning chuqurligi yoki mufassallik darajasi har bir muammoning murakkabligi va loyiha yoki uni baholash uchun ahamiyati bilan bog'liq.

Muammolarni tasniflash matritsasi bilan har bir muammoga qo'yiladigan talablarning turiga (tipiga) muvofiq foydalanish mumkin.

I tipidagi talablar:

- juda batafsil va to'liq tahlil;
- bozor va raqobatning to'liq tahlili;
- kelgusi strategik variantlarni batafsil ko'rib chiqish;

• funksional strategiyalarni (marketing ishlab chiqarish va sh.k.) asta-sekin takomillashtirish hamda asosiy va eng muhim taxminlarni tekshirish yoki asoslash.

II tipdagi talablar:

- muammolarni batafsil tahlil qilish;
- eng muhim strategik muqobillarni taxminiy baholash;
- eng muhim funksional strategiyalarni asta-sekin takomillashtirish.

III tipdagi talablar:

- loyihaga daxldor asosiy muammolarni tavsiflash, baholash;
- konsepsiyani muqobil variantlarini batafsil o'rganmagan holda umumiy tahlil qilish.

IV tipdagi talablar:

- loyiha shartlarini oddiy baholash;
- konsepsiyani faqat eng muhim yoki kritik jihatlardan kelib chiqib tayyorlash.

4-jadval

Muammolar tasnifi

Muammoning yangiligi va murakkabligi	Muammoning loyiha uchun muhimligi		
	Katta	O'rtacha	Kichik
Yuqori	I	I	II
O'rtacha	I	II	III
Kichik	II	III	IV

Innovatsion loyihani yaratish odatda I tipdagi talablarga asoslanadi, holbuki oxirida tadqiqotning hamma muammoli jihatlari ham bu toifaga mos kelavermaydi. Masalan bozorni tahlil qilish muammolarining ayrim jihatlari loyiha uchun kam ahamiyatli bo'lishi hamda o'rta yoki kichik murakkablik darajasidagi jihatlar bo'lishi mumkin. Odatda innovatsion loyihani tayyorlash II tipdagi talablarga, imkoniyatlarni tadqiq etish esa — III yoki IV tip talablariga javob berishi kerak.

Talab etiladigan axborotni olishning ikkita asosiy usuli mavjud va ko'p hollarda ikkala usul qo'shib ishlatiladi. Umumlashtiruvchi miqdoriy baholar butunlay yoki asosan "kabinet tadqiqoti" natijalariga

(masalan, datslab boshqa maqsadlarda to'plangan yoki tayyorlangan statistika ma'lumotlar yoki hisobotlarda mavjud bo'lgan ma'lumotlarga) tayanadi. Ancha batafsil miqdor, shuningdek sifat ko'rsatkichlari odatda marketing tadqiqotining butunlay boshqacha usullaridan foydalanish ya'ni "dalada" — ma'lumotlarni bevosita intervyu olish, test o'tkazish va kuzatishlar orqali to'plash va baholash natijasida olinadi. Axborotni baholashning ushbu ikki usuli bozor o'lchamlari va xususiyatlarini aniqlash jarayonida yozma manbalar tabiiy ravishda intervyu, test va kuzatuvlar ma'lumotlari bilan to'ldirishi kerakligi sababli bir-birini qoplaydi. Puxta tanlab olingan shaxslardan intervyular olish bozor haqida zarur ma'lumotlar olishning samarali usulidir.

Kabinet tadqiqotlarining butun imkoniyatlaridan foydalanib bo'lmaguncha dala tadqiqotlariga kirishmaslik lozim. Bir tomondan, dala tadqiqotlari o'tkazish bilan bog'liq turli xil moliyaviy xarajatlarni kamaytirish, boshqa tomondan, korrespondentlarning haddan tashqari uzoq vaqt intervyu olishga salbiy munosabatlarining oldini olish uchun korxonada va tashqarisida tayyorlangan mavzuga aloqador barcha yozma materiallarni to'plash va tahlil qilish zarur.

Bozor haqidagi axborotning ikki turi farqlanadi: bozor haqidagi umumiy axborot hamda bozorning muayyan segmenti (iste'molchilar guruhi, mahsulot yoki mahsulotlar guruhi) haqidagi aniq axborot. Ko'pchilik marketing tadqiqotlarida quyidagi ma'lumotlar mavjud bo'ladi:

- mahsulotga bo'lgan talab bilan bog'liq umumiy iqtisodiy ko'rsatkichlar, aholi soni va uning o'sish sur'atlari, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad va iste'mol, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot va uning yillik o'sishi, daromadlarning taqsimlanishi;

- mazkur mahsulotlarni iste'mol qilish, ishlab chiqarish, import qilishga, standartlar, cheklovlar, bojlar, soliqlar, shuningdek subsidiyalar va rag'batlantirishning boshqa shakllari, kredit nazorati va valutani tartibga solishga doir davlat siyosati, amaliyot va qonunchilik;

- mamlakat ishlab chiqarishining natural va qiymat ko'rinishidagi mavjud darajasi, jumladan ichki iste'mol uchun mo'ljallangan va bozorga chiqarilmaydigan mahsulotni ishlab chiqarish darajasi;

- importning qiymat va natural ko'rinishdagi mavjud darajasi (SIF baholari bo'yicha va ichki qiymat asosida);

- substitutlar (o'rinbosar tovarlar) hamda ularga yaqin tovarlarni ishlab chiqarish va import qilish;

- taqchil iste'mol resurslari va butlovchi qismlar;
- ishlab chiqarishning davlatning iqtisodiy rivojlanish rejalarida belgilangan hamda ko'rib chiqilayotgan mahsulotlar va texnologiyalar, substitutlar va butlovchi qismlarga aloqador bo'lgan rejalashtirilayotgan ko'rsatkichlari;

- mavjud eksportning natural va qiymat ko'rinishidagi natijasi;
- iste'molchilarning xatti-harakatiga xos xususiyatlar — urf-odatlar, (individual va jamoa bo'lib) reaksiya ko'rsatishlari, shuningdek savdo amaliyoti. Bozorning muayyan segmenti uchun muayyan talab va bozor axboroti identifikatsiya qilinishi hamda ushbu ma'lumotlarning innovatsion loyihani ishlab chiqish uchun yaroqliligi aniqlanishi kerak. Biroq, ma'lumotlarning qamrab olinish doirasi loyihaning tabiatiga, shuningdek marketing tadqiqotlarining tipi va darajasiga bog'liq. Shu masalada birorta tasnif ishlab chiqish yoki qandaydir qoidalar taklif etish qabul qilinmagan. Bir holda sanoat ishlab chiqarishining o'tmishdagi ko'rsatkichlari hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lishi, boshqa holda esa chalg'itishi mumkin. Bu gap import, o'tmishdagi iste'mol va baholar haqidagi ma'lumotlarga ham taalluqli. Har bir holatda hal qiluvchi omillar ko'rib chiqilishi kerak, chunki ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlarda bo'sh bozor kuchlari sust amal qiladi.

Hamda hisobning turli tizimlari ma'lumotlarning ancha buzib ko'rsatilishiga olib kelishi mumkin. Mahsulotga bo'lgan talab bozorning nomukammalligidan dalolat beruvchi monopolitsik yoki oligopolitsik raqobat hamda ichki korxonalarda ishlab chiqarilgan tovarlardan olinmaydigan katta import bojlarini o'z ichiga oladigan savdo siyosati singari omillar bilan tiyib turilishi mumkin. Sun'iy ravishda oshirib yuborilgan ichki baholar import qilinishi qattiq cheklangan muayyan tovarlarga majburlab tiqishtirilgan bo'lishi mumkin. Biroq mahsulot katta miqdorda kirib kelganidan so'ng talabning xususiyati va binobarin narx sohasidagi vaziyat keskin o'zgaradi.

Biroq muayyan mahsulot uchun kerak bo'ladigan aniq talab va bozor axborotini, yaroqlilik darajasi va ushbu axborotdan innovatsion loyiha ishlab chiqishda foydalanish imkoniyatini yoki tadqiqot natijalari asoslanishi kerak bo'lgan muqobil ma'lumotlarni identifikatsiya qilish zarur. Har bir holat uchun axborot manbalari aniqlanishi va keltirilishi lozim. Muhim axborot rasman e'lon qilingan ma'lumotlardan (statistik ma'lumotnomalar, yozishmalar hamda resurslar, mintaqalar yoki iqtisodiyot sektorlariga oid hukumat agentliklari, tashkilotlar yoki savdo

palatalari singari uyushmalar o'tkazadigan tadqiqot ma'lumotlaridan olinishi mumkin. Bunday ma'lumotlar kamdan-kam hollarda yetarlicha to'liq hamda marketing tadqiqotlarining maqsadlari uchun batafsil bo'ladi va ishning boshlang'ich nuqtasi bo'lib xizmat qilishi mumkin xolos. Rivojlanayotgan mamlakatlarda odatda umumiyqisodiy ko'rsatkichlarga oid ma'lumotlar bo'ladi, mavjud ishlab chiqarish haqidagi raqamlarda ifodalangan axborot esa noto'g'ri yoki olish qiyin bo'ladi. Ba'zi bir rivojlanayotgan mamlakatlarda bunday ma'lumotlar mahfiy hisoblanadi, chunki muayyan sohalaridagi ishlab chiqarishga taalluqli bo'ladi.

Masalan, import haqidagi ma'lumotlarni har doim ham olib bo'lmaydi va ko'pincha eski bo'ladi. Ko'p hollarda ko'rsatkichlar qo'shilgan holda taqdim etiladi, ularni yiriklashtirish esa qiyin bo'ladi (agar umuman mumkin bo'lsa). Muayyan mamlakat hukumati import haqidagi oxirgi statistik ma'lumotlarni bermasa, boshqa mamlakatlar eksportiga doir statistik ma'lumotlarni tahlil qilib vaziyatni tasavvur qilish mumkin. Kabinet tadqiqoti odatda miqdor ko'rsatkichlarini aniqlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi va ko'pincha har xil yozma manbalarga, hukumatning mahsus statistik to'plamlariga murojaat etish zarur. Talab va bozorni tadqiq etish uchun qamrab olish lozim bo'lgan davrlar har xil. Ba'zi hollarda o'n yildan ortiq davrga oid ma'lumotlar bu davrdagi anormal o'zgarishlar oqibatida yetarli bo'lmasligi mumkin; boshqa holatda ketma-ket kelgan uch yoki to'rt yil ichida zarur materialni olish mumkin bo'lmaydi. Bitta oxirgi yil raqamlari umumiy qatordan tushib qolishi mumkin, o'shanda ulardan prognoz hisob-kitoblari uchun asos sifatida foydalanib bo'lmaydi.

Bozor va talabni tahlil qilish borasida marketing tadqiqotlari tashkiloti taklif etgan birinchi qadam — loyiha uchun maqsadli bozorni aniqlash, ushbu bozorning tuzilishini tavsiflash va tahlil qilishdir. Bozor tuzilishini aniq identifikatsiya qilish va sifat jihatdan tahlil qilish uni tadqiq etishning poydevorini tashkil qiladi. Marketing tizimining elementlari o'rtasidagi barcha muhim aloqalarni ya'ni sanoatning tuzilishini (ta'minotchilar, korxonalarining turlari, sanoat yoki tarmoqning tashkil qilinishini), iste'molchilarning xususiyatlari, ish bilan bandlik yoki raqobatning xususiyati, shuningdek tovarlarni o'tkazishning tuzilishini baholash va tavsiflash muhim.

Bozor tuzilishini tahlil qilgandan keyin iste'molchilar, ularning ehtiyojlari va xatti-harakatini identifikatsiya qilish lozim. Quyidagi jihatlar tahlil qilinishi kerak:

- Bozorda nima sotib olinayapti?
- Nima uchun sotib olinayapti? Sotib olish motivlari qanday?
- Kim xaridor, kim sotib olish haqida qaror qabul qilayapti, qaror qabul qilishda ishtirok etayati?
- Qachon sotib olinayapti (qaror qabul qilish jarayoni, xarid odatlari, masalan fasllar bo'yicha xaridlar)?
- Qancha sotib olinayapti (xaridlar soni va tezligi, chastotasi)?
- Qayerda xarid qilinayapti?

Bu masalalar marketing kompleksini shakllantirishdan oldin puxta tekshirilishi kerak. Turli bozorlarda xaridorlar o'zlarini turlicha tutadilar: iste'mol tovarlari va ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan tovarlar o'rtasida farq bo'lishi tabiiy.

Iste'mol tovarlari bozori quyidagi jihatlarga ega:

- iste'molchi o'zi ko'pincha qisman anglaydigan bir qator ehtiyojlarga ega bo'ladi;
- taklif etilayotgan tovar iste'molchi uchun nafaqat funksional, balki emotsional (hissiy) ahamiyatga ham ega;
- ko'pincha haqiqiy qaror qabul qilish jarayoni bo'lmaydi; iste'molchi ko'proq shakllangan urf-odatlar yoki qo'qqisdan yuzaga kelgan sotib olish istagiga suyanib, savdo markasiga qaraydi;
- iste'molchining fikri nihoyatda muhim.

Ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan tovarlar (texnologiyalar) bozori quyidagi xususiyatlarga ega:

- sotib olinayotgan buyumlar ishlab chiqarish jarayonida foydalanish uchun mo'ljallanadi;
- iste'molchilarning ehtiyojlari ko'pincha aniq ifodalangan maqsadlarga asoslanadi;
- qaror qabul qilish jarayoni ko'pincha murakkab bo'lib, o'z fikrlariga ega bo'lgan ko'plab yetakchilari bo'lgan tashkilotlar ichida yuz beradi;
- xaridor ko'pincha mahsulotni chuqur biladi yoki u haqida mahsus bilimga ega bo'ladi;
- iste'molchi bilan birinchi marta uchrashish hamda shartnoma tuzish o'rtasida nisbatan ko'p vaqt o'tadi.

Tahlil umuman bozor uchun ham, uning har bir segmenti uchun ham amalga oshirilishi mumkin. Biroq bozorni iste'molchilarning tabaqalashgan xatti-harakatlari asosida muayyan segmentlarga bo'lish maqsadga muvofiqdir. Buning utsiga, bozorni segmentlashtirish—marketing vositalaridan samarali foydalanishning asosiy datslabki shartidir.

Bozor segmenti quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- segmentda iste'molchilarning xatti-harakati iloji boricha bir xil bo'lishi lozim;
- segment boshqalaridan aniq ajralib turishi kerak;
- segment o'lchamlari bozorning alohida (differensiallashgan) qismida amal qiluvchi korxonalar xarajatlarini qoplay olishi uchun ancha katta bo'lishi kerak.

Segmentatsiya quyidagi omillarga asoslanishi mumkin:

- jug'rofiy yoki til bilan bog'liq me'zonlar (millat, mintaqa, shahar yoki qishloq aholisining ko'pligi va h.k.);
- ijtimoiy-demografik me'zonlar: individual (yosh, jins, daromad, ma'lumot, kasb, oilaning kattaligi va h.k.) yoki korxonaga taalluqli (sanoatning o'lchami, tarmog'i va h.k.);
- psixologik me'zonlar (iste'molchilarning yangilikni qabul qilish qobiliyati, ularning hayotiy maqsadlari, mavqei va sh.k.).

Odatda bozorni tahlil qilishning birinchi qadami bozorning amaldagi hajmini (masalan, muayyan bozorda yoki uning segmentidagi sotuvlarning joriy hajmini) hamda bozor salohiyatini — umuman bozorda bo'lishi mumkin bo'lgan eng katta talabni batafsil baholashga tayyorlash hisoblanadi. Ikkinchi qadam -kelgusi bozor hajmining qay darajada kattalashishini prognozli baholash, bu masala quyida marketing ma'lumotlarini bashorat qilish haqidagi bo'limda ko'rib chiqiladi. Bu — korxonaning bozordagi amalda bo'lgan yoki rejalashtirilayotgan ulushi haqidagi masalani hal etishning asosidir. Bozorning maqsadli ulushi sotuv hajmini va binobarin, ishlab chiqarish dasturini, ishlab chiqarish quvvatlarini hamda materiallarga va iste'mol qilinayotgan resurslar, ishchi kuchi, investitsiyalar va shu kabilarga bo'lgan muayyan talablarni bashorat qilish uchun asos yaratadi.

Bozorni segmentlarga bo'lish va tahlil qilish o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, binobarin, ular doimo birlashtirilishi va alohida ko'rib chiqilmasligi kerak. Bozorni boshqa mamlakatlarga tarqatish imkoniyati har qanday miqyosdagi ko'pgina loyihalar uchun ko'rib

chiqilishi va eksport sotuvlari — korxonaning ishlab chiqarish quvvatini aniqlashda inobatga olinishi kerak. Ishlab chiqarish quvvatlari oshib borishi bilan o'z mamlakati bozoriga qaraganda ancha katta bozorni ta'minlash imkoniyati paydo bo'ladi.

5-jadval

Bozor hajmi va ulushi

Bozor imkoniyati			Bozor hajmi
Kutilayotgan talab			Mavjud sotuv hajmi
Bozor ulushi			
Korxonona yoki loyihaning mavjud yoki rejalashtirilayotgan ulushi			

Garchi loyiha datslab importning o'rmini bosish vositasi sifatida mo'ljallangan bo'lishi mumkin bo'lsa-da, shunga qaramay u yo ishlab chiqarishning eng boshida, yo bir qancha vaqt o'tgach ishlab chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirish, sifatga qo'yiladigan tegishli xalqaro standartlarga javob beradigan, raqobatbardosh narxdagi mahsulotni bozorga chiqarish uchun muayyan eksport salohiyatiga ega bo'lishi mumkin. Masalan, neft-kimyo korxonasi yoki o'g'it zavodi ishlab chiqarish boshlangan zahoti tashqi bozorga chiqishi mumkin. Yirik elektr uskunalar ishlab chiqaradigan korxonalar uchun esa ularning ishlab chiqarish quvvatlari yetarlicha o'zlashtirilishi, mahsuloti esa to'liq sinovdan o'tishi uchun bir necha yillar kerak bo'lishi mumkin. Ushbu hollarning barchasida eksport imkoniyatlarini baholash zarur. Shunday qilib, eksport bozorlarini aniqlash — talabni bashorat qilishning muhim jihati.

Quyidagilar xalqaro raqobatning rivojlanishiga imkon berishi mumkin: miqyos effektining ta'siri (masalan, ishlab chiqarish yoki marketingda); joylashgan yerning ustunliklari; xalqaro kooperatsiyaning yuzaga kelishi; texnologiyalardan foydalanish imkoniyati va h.k. Boshqa tomondan, quyidagilar xalqaro savdoga halal berishi mumkin: transportda tashish va omborlarda saqlash xarajatlarining kattaligi; tovar yetkazib berish shart-sharoitlariga ta'sirchanlik; mahsulotga qo'yiladigan turli milliy talablar; importga qo'yiladigan cheklovlar, valuta nazorati va qat'iy sanoat standartlari kabi savdo to'siqlari.

Firmalar rivojlanayotgan mamlakatlarda o'zlashtirishni rejalashtirayotgan yoki boshlagan mahsulotlar uchun (bu esa ushbu mamlakatlardan keladigan tovarlar va xizmatlarning ko'pchiligi) boshlang'ich nuqta bo'lib quyidagilarni tahlil qilishga xizmat qilishi kerak: ushbu mamlakatlar import xaridlarining oxirgilari; bunday import birligining qiymati; eksport qiluvchi mamlakatlar; import qilinadigan mahsulotning xususiyatlari. Bunday axborot ichki ishlab chiqarish nuqtayi nazaridan, mahsulotning raqobatbardoshligini tekshirish uchun ham zarur.

Birinchi navbatda aniqlanishi qiyin bo'lmagan mahsulotlarning xalqaro bozordagi narxi va sifatini bilib olish kerak. Eksport hamda o'z mamlakati beradigan imtiyozlar ta'minlashi mumkin bo'lgan ustunliklarni inobatga olgan holda narx omillarini identifikatsiya qilish mumkin.

So'ngra muayyan mahsulotga nisbatan eksport imkoniyatining jug'rofiy yo'nalishini aniqlash kerak. Ko'pchilik mahsulotlar uchun xalqaro bozorlar mavjudligi va ulardan ayrimlari boshqalariga qaraganda mashhurroq bo'lganligi bois aniq cheklovlar inobatga olinishi lozim. Fotoapparatlar, rangli televizorlar, stereofonik apparatlar va elektron kalkulatorlar kabi iste'mol tovarlari bozori xalqaro, ammo nihoyatda raqobatli bozorlar hisoblanadi. Biroq mahsulot sifat va texnologiya jihatidan raqobatbardosh bo'lsa, qadam-baqadam jahon bozorida mustahkam o'rin egallashi lozim. Lotin Amerikasida ishlab chiqarilgan hamda texnologiyasi, sifati va narxi bo'yicha raqobatbardosh bo'lgan mahsulotlar Osiyo bozorlariga chiqa olmasligiga olib keladigan sabablar mavjud emas. Bunday holatlarda barcha mamlakatlarni batafsil tekshirish zarurati yo'q. Tashqi bozorni o'rganishni birinchi navbatda kirib borish lozim bo'lgan muayyan juda muhim bozorlardan boshlash mumkin. Ishlab chiqarish quvvatlari o'sib borayotgan bozor talablarini qondira oladigan darajaga ko'tarilganida asta-sekin boshqa mamlakatlarga chiqish kerak.

Shunday qilib, innovatsiya loyihasida, quyidagi savollarga javob bo'lishi kerak:

- korxonada o'zining xalqaro miqyosdagi faoliyatini kengaytirib, strategik ustunliklarga ega bo'ladimi?

- u qanday aniq ustunliklarga ega bo'ladi (masalan, ishlab chiqarish miqyosini kengaytirib tejamkorlikka erishish)?

• tashqi bozordagi raqobat qay darajada va qaysi sohalarda loyihaga xavf soladi?

• korxonaga jug'rofiy jihatdan cheklangan makonda faoliyat yuritib, kelajakda qanday ustunliklarga ega bo'lishi mumkin?

Bozorning boshqa mamlakatlargacha kengayishi imkoniyatini ko'pchilik loyihalar uchun o'rganish kerak. Imkoniyatdagi eksport bozorlarining jug'rofiy joylashuvini kirib borish darajasi xususidagi real prognozlar asosida aniqlagandan keyin tanlab olingan mamlakatlarda maxsus bozor tadqiqotlari o'tkazish zarur. Bunday tadqiqot miqyosi loyihaning taxmin qilinayotgan eksportga mo'ljallanganlik darajasiga qarab o'zgarib turishi mumkin.

Eksport bozorlarini belgilovchi omillar ichki bozorlarga ta'sir etuvchi omillarga qaraganda murakkabroq bo'lish tamoyiliga ega. Garchi baholash va bashoratlash usullari asosan bir xil bo'lsada, muayyan mamlakatlarni o'rganishda ularni alohida-alohida ko'rib chiqish zarur. Bunday tadqiqot miqyosi loyihaning taxmin qilinayotgan eksportga mo'ljallanganlik darajasiga bog'liq. Shunday qilib eksport tadqiqotlar miqyosi tashqi bozorda o'tmishda bo'lgan import ta'minot (tovar yetkazib berish) va kelajakka qaratilgan umumiy baholar bilan muayyan tashqi bozorda kelgusi talabni batafsil prognozlash o'rtasidadir. Biroq bu juda kam hollarda ya'ni muayyan mahsulot eksportining istiqbollari bunday qimmat tadqiqot o'tkazishni oqlagan taqdirdagina qo'llaniladi.

Sotuv yoki o'tkazish kanallari — ishlab chiqaruvchilarni oxirgi iste'molchilar bilan bog'lovchi zanjir. Ushbu vositachilik funksiyasini odatda mahsus korxonalar, agentliklar yoki o'zlarining marketing qurollaridan foydalanuvchi vakillar bajaradi. Bundan tashqari bu kanallar ayni vaqtda ishlab chiqaruvchi bilan iste'molchi o'rtasida axborot ayirboshlash yo'llaridir. Oxirgi iste'molchiga alohida va birgalikda olib boradigan uchta asosiy "yo'nalish" mavjud: ulgurji sotuvchilar orqali chakana sotuvchilarga, faqat chakana sotuvchilar orqali hamda bevosita iste'molchilarga. Tovarni o'tkazish kanallari bozorni o'rganish natijalari asosida tanlanishi kerak.

Ulgurji sotuvchilar orqali tovar o'tkazish. Bu kanal eng qimmatli funksiyani amalga oshiradi, bunda tovarlarning keng assortimenti muomalaga chiqariladi va ko'plab mayda chakana savdo nuqtalariga yetkazib berilishi kerak bo'ladi. Bu kanalning ustunligi quyidagilarda:

- ulgurji sotuvchi ko'pincha tovarlarni omborda saqlash va zaxira yaratish uchun ularning katta partiyalarini qabul qiladi;

- ulgurji sotuvchi mayda sotuvchilarning ko'pchiligini qamrab oladi;

- ishlab chiqaruvchining tovarni tashish muammolari, hisob-kitoblarni rasmiylashtirishi va kreditlarni nazorat qilishi nisbatan oddiy bo'ladi;

- ishlab chiqaruvchi aloqada bo'lishi zarur bo'lgan sotuvchilar uncha ko'p bo'lmaydi.

Chakana sotuvchilar orqali tovar o'tkazish. Tovar o'tkazish hech qanday cheklovlar bilan bog'liq bo'lmasligi yoki ayrimlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Birinchisi qisqa vaqt oralig'ida juda keng miqyosdagi iste'molchilar sotib oladigan ayrim markali tovarlar hamda xuddi shu tariqa xarid qilinadigan ba'zi markasiz tovarlar uchun bo'lishi mumkin. Tanlab ya'ni ayrim cheklovlar bilan tovar o'tkazish savdo markasiga ega bo'lgan va davlat yoki mintaqa miqyosida reklama qilinayotgan yuksak sifatga ega bo'lgan, shuningdek o'rnatilishi yuqori darajadagi malakani va sotuvdan keyin xizmat ko'rsatishni talab etishi mumkin bo'lgan mahsulotlar uchun yaroqlidir. Uzoq vaqt foydalanadigan ba'zi tovarlarni aynan shu tariqa sotish maqsadga muvofiq. Tanlab o'tkazishning ustunligi, bundan tashqari yana shundaki, ishlab chiqaruvchi iste'molchiga yaqinroq bo'ladi hamda ishlab chiqaruvchi bilan chakana sotuvchi o'rtasidagi aloqalar ancha yaqin bo'ladi.

Bevosita iste'molchiga o'tkazish. Bevosita sotish — sanoat mahsulotlari va ishlab chiqarishda foydalaniladigan tovarlarni sotish uchun mo'ljallangan odatdagi kanal. Unga "xarajatlar — samaradorlik" ko'rsatkichining eng katta bo'lishi xosdir, holbuki ba'zi tarmoqlarda ditsributorlar bo'lishi zarur bo'lishi mumkin. Ishlab chiqaruvchilarning agentlarini mavjud yoki tashkil qilinayotgan korxonalar, uzoqda joylashgan bozorlarga chiqadigan kattaroq korxonalar yoki muayyan cheklovlarga ega bo'lgan bozor sharoitida faoliyat ko'rsatadigan korxonalar tayinlashi mumkin. Bunday agentlar odatda mahsulotni omborda saqlash uchun emas, balki o'tkazish uchun javob beradi. Ular o'zlari sotadigan narsalarini zavoddan buyurtma asosida oladilar, ularni sotgani uchun komission haq oladilar. Eksport hududida ishlab chiqaruvchining agenti vazifasini importyor bajaradi. Uning zimmasiga boshqa majburiyatlar (masalan, bojxonalar hujjatlarini rasmiylashtirish) ham yuklatilishi mumkin; biroq importyor tovarlarni qayta sotish uchun xarid qiladi.

Agar ishlab chiqaruvchi tovar o'tkazish funksiyasini o'z zimmasiga olsa, bu hol iste'molchilar bilan yaqinroq aloqa o'rnatish va ularga yaxshiroq xizmat ko'rsatish masalasida ustunliklar berishi mumkin. Bevosita sotuvlarning boshqa kanallari — ko'chama-ko'cha tashib yurib sotish va pochta orqali buyurtma berishdir.

Loyihaning marketing qurollari savdo agentlarining marketing kompleksini qo'llab-quvvatlashi kerak. Ularning asosan mahsulotni o'rash (idishlarga joylashtirish) va harakatlantirish sohasida yotadigan manfaatlarini avvalboshidan hisobga olish kerak.

Loyiha vaziyatini baholash raqobatchilarning mo'ljallarini ham inobatga olishi kerak. Raqobatchilarni tahlil qilganda e'tiborni ayrim asosiy raqobatchilarga yoki o'xshash xatti-harakatga ega bo'lgan ularning guruhlariga qaratish muhim.

Tahlilning ikkinchi bosqichi ayniqsa puxta bajarilishi kerak. Bunda quyidagi savollarga e'tibor berish lozim:

- raqobatchilar o'z marketing qurollaridan qanday foydalanadilar?

- ular qaysi maqsad guruhlarini (segmentlarini) va qanchalik keng o'zlashtiradilar?

- ular qaysi segmentlarda eng kuchli bo'lib, ularning zaif joylari qayerda?

6-jadval

Raqobatchilarning imkoniyatdagi reaksiyalari xarakterining bahosi

Raqobatchilarning maksadlari	Raqobatchilarning o'zlari haqidagi baholari
Reaksiyalarning xarakteri: Raqobatchilar o'zlarining mavjud ahvollaridan qoniqadilarmi? Raqobatchilardan qanday choralar yoki harakatlarni kutish mumkin? Raqobatchilarning zaif joylari nimalarda? Raqobatchilardan kutiladigan eng kuchli reaksiyalar nimalardan iborat?	
Raqobatchilarning xatti- harakati	Raqobatchilarning eng kuchli va zaif tomonlari

Bozorni o'rganish, shuningdek, sanoat kichik sektorini tahlil qilish, loyihaning tegishli iqtisodiy va ijtimoiy muhitini baholashdan iborat bo'lishi kerak. Ushbu tahlil quyidagi asosiy savolga javob berishi lozim: raqobat muhitidagi muvaffaqiyatning asosiy omillari va ushbu muayyan

sektorga xos bo'lgan asosiy imkoniyatlar va xatarlar nimalardan iborat? Tahlil, umuman olganda, ushbu kichik sektorning hayotiy sikli, uning foydalilik darajasi hamda ushbu sanoat kichik sektorini o'z ichiga oladigan keng ijtimoiy-iqtisodiy muhitga qaratilishi kerak.

Kichik sektorning hayotiy sikli alohida ahamiyatga ega. Biroq hayotiy sikl fazalari ular jahon iqtisodiyoti yoki alohida mamlakat iqtisodiyotining holati bilan munosabatda qurilayotganligiga qarab birbiridan farq qilishi mumkin. Shunday qilib loyiha qaratilgan bozorni aniq belgilash — baholashning hayotiy muhim jihati.

Hayotiy sikl fazasining identifikatsiyasi muhim o'rin tutadi, chunki u mavjud va kelgusi bozor imkoniyatlari, bozor hajmi va ulushi xususida xulosalar chiqarish uchun asos bo'lib ham xizmat qiladi. Raqobatli kurashda muvaffaqiyat qozonish uchun hayotiy siklning har bir fazasi uchun har xil strategiyalar qo'llanishi kerak.

Kichik sektorda raqobat qanchalik kuchli bo'lsa, sotuvchilar operatsiyalardan olishi mumkin bo'lgan foydaga ko'rsatiladigan bosim shunchalik katta bo'ladi. Raqobatning jadalligi, rasmda ko'rsatilganidek asosan kirish va chiqish to'siqlarining balandligiga, kichik sektor hayotiy siklining fazasiga, substitut- mahsulotlarning bosimiga hamda xaridorlar va ta'minotchilarning o'zaro kelishuvga kelish qobiliyatiga bog'liq.

Tayanch iboralar

Innovatsion marketing, bozor segmenti, innovatsion xizmatlar, innovatsion mahsulotlar, an'anviy marketing, innovatsion marketing fazalari, texnologik orttirma, mahsulot ishlab chiqarish strategiyasi, mahsulot parametrlari, novatorlik korxonasi, operativ marketing.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Innovatsion marketingning o'ziga xos xususiyatlari nimadan iborat?
2. Innovatsion marketingga ta'rif bering.
3. Innovatsion marketing majmuasi tushunchasini qanday izohlaysiz?

4. Innovatsion tovarlarni ishlab chiqarishning qanday usullari mavjud?

5. Innovatsion tovarlarni rejalashtirishning qanday vazifalari mavjud?

6. Innovatsion mahsulotning bozor ko'rsatkichlariga nimalar kiradi?

7. Korxonada innovatsion marketing samaradorligini qanday omillar belgilab beradi?

XXVIII BOB. REAL SEKTORDA INNOVATSION LOYIHALARNING IQTISODIY SAMARADORLIGI

Mazkur bobda innovatsion faoliyatga kiritilgan investitsiyalar, real sektorda innovatsion loyihalarning iqtisodiy samaradorligi, innovatsiyalarni amalga oshirishdan va yangiliklarni sotishdan olinadigan iqtisodiy samara va innovatsion samaradorlikni tahlil qilish bosqichlari yuzasidan tegishli ma'lumotlar berilgan.

28.1. Innovatsion faoliyatga kiritilgan investitsiyalar

Tashqi bozorga chiqish hamisha raqobat kurashiga kirishish va o'z mahsulotlariga (brendiga), mavqeiga va o'rniga ega bo'lishni anglatadi. Bozorlar mahsulot bilan g'oyat to'yingan, taklif talabdan ustun bo'lgan hozirgi sharoitda har bir mahsulot va uning ortida turgan ishlab chiqaruvchi o'z iste'molchisiga ega bo'lish uchun kurash olib borishga majbur. Xaridorning ayrim ehtiyojlari teng yoki qisman o'zgaradigan sharoitlarda bir xil yoki har xil mahsulotlar ayni bir paytda taklif etiladi. Bunday sharoitda iste'molchi o'zining mablag'iga qarab, ehtiyojni ko'proq va yuqori darajada qondiradigan tovarni tanlaydi. Mabodo tovari qimmat va sifatsiz bo'lsa, bunday kompaniya raqobat bozorida o'z o'mini saqlab qololmaydi. Shunday ekan, har qanday korxonada, qolaversa, mamlakat raqobat kurashida o'z o'rnini va mavqeini yo'qotmasdan saqlab qolishi, kelgusi istiqbolini yaratish uchun innovatsion faoliyatga e'tibor qaratishi hamda uni rivojlantirishga urinishi lozim. Bu borada o'rta muddatli istiqbolda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilab bergan eng muhim dasturiy hujjat – 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida keltirilganidek:

– eng avvalo, zamonaviy ishlab chiqarishni joriy etishga mo'ljallangan innovatsion g'oyalar hamda texnologiyalarni, faol tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishga;

– hududlar ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatining barqaror o'sishi va aholining hayot darajasi hamda farovonligini oshirishga ko'maklashuvchi fan va innovatsion faoliyatni jadal rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga;

– ilg‘or fikrlaydigan, tashabbuskor va mas‘uliyatli xodimlar hamda fuqarolarni har tomonlama amaliy qo‘llab-quvvatlashga¹ alohida e‘tibor qaratish ushbu sohaning yanada rivojlanishini ta‘minlaydi.

Ushbu ustuvor vazifani ado etish sanoat korxonalarini oldiga ishlab chiqarish quvvatlarini yanada oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash, bozor raqobatlariga bardosh berish, o‘z mijozlarini ko‘paytirish, shu asosda, pirovard natijada olinadigan foydani yanada oshirish, korxonalarda innovatsion boshqaruv usullarini takomillashtirishni asosiy vazifa qilib qo‘ymoqda. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, hozirgi kunda bozor iqtisodiyoti sharoitida innovatsion faoliyat samaradorligini yanada oshirish lozim.

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining hozirgi rivojlanishi innovatsiya, yangi texnika va texnologiyalarning ishlab chiqarishga tatbiq etish hamda korxonalar va tashkilotlarning o‘zida ham innovatsion g‘oya hamda ishlanmalar tayyorlashga bog‘liq bo‘lib, bu insoniyat taraqqiyoti va nazariy-amaliy bilimlari bilan amalga oshiriladi. Shu bois, respublikamizda 2017-yilning o‘zida ta‘lim sohasini moliyalashtirishga jami investitsiyaning 2,0 foizi (1188,4 mlrd. so‘m) va professional, ilmiy va texnik faoliyatni moliyalashtirishga 1,3 foizi (781,7 mlrd. so‘m) ajratilgan (28.1.1-jadval).

28.1.1-jadval

Innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun kiritilgan investitsiyalar (mlrd. so‘m)²


Ko‘rsatkichlar	2010 yil	2011 yil	2012 yil	2013 yil	2014 yil	2015 yil	2016 yil	2017-yil
Ta‘lim	408,3	404,2	631,1	759,7	792,8	963,7	1330,6	1188,4
Jamiga nisbatan foizda	2,7	2,2	2,8	2,6	2,3	2,3	2,7	2,0
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	498,9	547,2	674,4	678,3	1118,1	895,4	501,9	781,7
Jamiga nisbatan foizda	3,3	3,0	3,0	2,4	3,2	2,1	1,0	1,3

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 22 январдаги “2017–2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини “Фаол тадбиркорлик, инновацион гоълар ва технологияларни қўллаб-қувватлаш йили”да амалга оширишга оид давлат Дастури тўғрисида”ги Фармони. <http://lex.uz>.

² www.stat.uz Ўзбекистон Республикаси Давлат Статистика қўмитаси расмий ахборот сайти маълумотлари

28.1.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2017-yilda 2010 yilga nisbatan ta'lim sohasiga kiritilgan investitsiya hajmi 2,9 barobar oshib, 1188,4 mlrd. so'mga hamda professional, ilmiy va texnik faoliyatni moliyalashtirishga esa mos ravishda 1,6 barobar oshib, 781,7 mlrd. so'mga yetdi.

Har qanday korxonada innovatsion faoliyatining natijasi muvaffaqiyatli va samarali bo'lishi ko'p jihatdan uni moliyalashtirish manbalarini va usullarini aniqlashga bog'liq. Innovatsion faoliyatni moliyalashtirish manbalari bo'lib davlat, turli korxonalar, moliya-sanoat guruhlar, kichik biznes korxonalar, investitsiya va innovatsiya jamg'armalari, mahalliy boshqaruv organlari, jismoniy shaxs va boshqalar hisoblanadi. Ularning barchasi xo'jalik yuritish jarayonida ma'lum darajada ishtirok etib, innovatsion faoliyatni rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi².



28.1.1-rasm. Iqtisodiy faoliyatning foyda va zarar ko'rsatkichi

Sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatni moliyalashtirishni yaxshi asoslangan tizimini yaratish, moliyaviy mablag'larni jamg'arish va innovatsion harakatlar uchun sarflashga sharoit yaratadi³.

Innovatsion faoliyatni moliyalashtirishni tashkillashtirish tamoyillari, avvalo, ularning moliyalash manbalarining ko'pligiga va

² Астапов К. Инновации промышленных предприятий и экономический рост //Экономист. 2002. №6. С 5-6.

³ Ильяжков А.В. Проблемы финансирования инновационной деятельности предприятия //Современные исследования социальных проблем. Электронный научный журнал -2012.-№1.

turli-tumanligiga, moliyaviy foydaning o'sishini ta'minlay oladigan innovatsiyalarni moliyalashtirishga asoslanadi.

28.1.1-rasmdan kuzatish mumkinki, 2017-yilda har ikki yo'nalishda ham 2010 yilga nisbatan o'sish bo'lib, ta'lim sohasidan 8,6 mlrd. so'm va professional, ilmiy va texnik faoliyatidan 126,5 mlrd. so'm foyda olishga erishilgan. Bu esa, o'z navbatida, qisqa muddat mobaynida professional, ilmiy va texnik faoliyatdan ko'p daromad olish mumkinligini anglatadi.

28.2. Innovatsion faoliyat samaradorligi ko'rsatkichlari tizimi

Iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish va yuksak darajadagi iqtisodiy o'sishni ta'minlash muhim ahamiyatga egadir. tajribalardan ma'lumki, barcha tarmoqlarda va ular tarkibidagi korxonalarda innovatsion faoliyatning rivojlanganligi mamlakat iqtisodiyotini inqiroz holatidan talofatsiz chiqib ketishni ta'minlaydi. Shu bilan birga innovatsiya faoliyati ma'lum darajada xarajatlarni talab etadi va jiddiy xavf-xatarlarga moyil bo'ladi. Bunday holat korxonalar innovatsion faoliyati uchun uzviy bog'liqdir. Shu nuqtayi nazardan korxonalar innovatsion faoliyati muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Loyihaning tijorat samaradorligi (moliyaviy asosi) talab qilinadigan daromad normalarini ta'minlovchi moliyaviy xarajat va natijalarning o'zaro munosabati bilan aniqlanadi.

Tijorat samaradorligi loyiha uchun to'laligicha hisoblanganidek alohida ishtirokchilar uchun ham ularning qoida bo'yicha qo'yilmalari hisobi bilan ham hisoblanishi mumkin. Uning uchun t-qadamda (et) samara sifatida real pul oqimi xizmat qiladi. Har bir faoliyat chegarasida pul vositalarining oqimi $Pf(t)$ va chiqib ketishi $Of(t)$ bo'lib o'tadi. Ular orasidagi farqni $Ff(t)$ deb belgilaymiz:

$Ff(t)=Pf(t)-Of(t)$, bu yerda $i=1, 2, 3$, Loyihani amalga oshirishning har bir davrida investitsion va operatsion faoliyatda kelib chiqqan va chiqib ketgan pul vositalari orasidagi farqni real pul oqimi $Ff(t)$ deb belgilaymiz:

$$F(t) = (P1(t)-O1(t)) = (P2(t)-O2(t)) = A1(t)-A2(t)$$

Budjet samaradorligi ko'rsatkichlari loyihaning amalga oshirish natijalarini tegishli (federal, regional va mahalliy) budjetning daromadi va xarajatlarga ta'sirini aks ettiradi.

Loyihada ko'zda tutilgan regional va federal qo'llab-quvvatlash choralari asoslash maqsadida foydalanuvchi budjet samaradorligining asosiy ko'rsatkichi bo'lib budjet samarasi hisoblanadi. Loyihani amalga oshirishning t-qadami uchun budjet samarasi (Bt) loyihani amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlar (Rt)dan daromadni (Dt) oshirish sifatida aniqlanadi. $B(t)=P(t)-D(t)$.

Integral budjet samarasi B(t) formula bo'yicha diskontlangan yillik budjet samaralarining yig'indisi sifatida yoki budjet integral daromadlari (Dint)ning integral budjet xarajatlarini (Ring) oshirish sifatida hisoblanishi mumkin. Xalq xo'jaligi iqtisodiy samaradorligining ko'rsatkichlari loyiha samaradorligini butunlay xalq xo'jalik, shuningdek, loyihani amalga oshirishda qatnashuvchi region, tarmoq va tashkilotlarning qiziqishlari nuqtayi nazaridan aks ettiradi. Xalq xo'jaligida iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini hisobga olishda loyiha natijalari tarkibiga quyidagilar kiradi.

Hosilaviy ishlab chiqarish natijalari (mamlakat ishtirokchi tashkilotlarining iste'mol mahsulotidan tashqari tashqi va ichki bozorda butan ishlab chiqarish mahsulotlarining realizatsiyasidan tushgan mablag'). Bu yerda, shuningdek, loyihani amalga oshirish jarayonida ishtirokchilar tomonidan tashkil etiluvchi mulk va intellektual mulkni (kashfiyotlardan foydalanish huquqiga litsenziya, nou-xau, EHMLar uchun dasturlar va h.k.) sotishdan tushgan mablag'lar ham kiradi. Qiymatlilik bahoga tegishli bo'lmagan ijtimoiy, ekologik, siyosiy va boshqa natijalar xalq xo'jaligi samaradorligining qo'shimcha ko'rsatkichlari sifatida qaraladi va loyihani davlat qo'llab quvvatlash yoki realizatsiya xarajatidagi qarorlarni qabul qilish bilan hisobga olinadi.

Loyiha xarajatlari tarkibiga loyihani amalga oshiruvchi barcha ishtirokchilarning loyihada ko'zda tutilgan va uni realizatsiya qilishga lozim bo'lgan, joriy va bir vaqtdagi xarajatlari kiritiladi. Shuning uchun hisobga quyidagilar kiritilmaydi:

– iste'molchi tashkilotlarning loyihani boshqa ishtirokchilari bo'lgan ishlab chiqaruvchilardan mahsulotni olishga bo'lgan xarajatlar;

– loyihaning bir ishtirokchilari tomonidan yaratilgan (qurilgan, tayyorlangan) va ishtirokchilar tomonidan foydalanuvchi asosiy vositalar bo'yicha amortizatsiya chegirmalari;

– Rossiya ishtirokchilari tashkilotlarining davlat budjeti daromadlariga bo'lgan to'lovlarning barcha turlari, shuningdek, soliq to'lovlari ham kiradi. ekologik normativlar va sanitar me'yorlarni bajarmaganlik uchun jarima va sanksiyalar xalq xo'jalik xarajatlari tarkibida me'yorlarning buzilishining ekologik oqibatlari loyihaning ekologik natijalari tarkibida aholida belgilanmagan va g'oyaning natijalari tartibiga qiymatlilik ma'nosida kiritilmagan taqdirda hisobga olinadi;

– investitsion loyihani realizatsiyasi ishtirokchilari qaroriga kiritilgan O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki, uning agentlari va tijorat banklarining kreditlari bo'yicha foizlar;

– xorijiy ishtirokchilarning xarajatlari. Investitsion loyihani amalga oshirish jarayonida ishtirokchi tomonidan vaqtincha foydalanuvchi asosiy vositalar quyidagi usullardan biri yordamida hisobga olinadi;

– asosiy vositalarning qoldiq qiymati ularning qo'llashni boshlash vaqtida bir vaqtdagi xarajatlar tarkibida kiritiladi; tugatish vaqtida bir vaqtdagi xarajatlar bu vositalarning qoldiq qiymatidan kamayib boradi – ko'rsatilgan asosiy vositalar uchun ijara to'lovlari ulardan foydalanish vaqtida joriy xarajatlar tartibiga kiritiladi.

Region (tarmoq) darajasida iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini hisoblashda loyiha natijalari tarkibiga quyidagilar kiradi: – regional (tarmoq) ishlab chiqarish natijalari: loyiha ishtirokchilari, region (tarmoq) tashkilotlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot realizatsiyasidan tushgan mablag'.

Xarajatlar tarkibiga faqatgina loyihaning ishtirokchilari– tashkilotlarining xarajatlari kiritiladi:

– ishlab chiqarish natijalari;

– tashkilot ishchilari va ularning oila a'zolarining shaxsiy ehtiyojlarga sarflangan ijtimoiy natijalardan tashqari ishlab chiqarilgan mahsulotni realizatsiya qilishdan tushgan mablag'. Bunga xarajatlar tarkibiga tashkilotlarning faqat qayta hisoblashi bir vaqtdagi va joriy xarajatlari kiritiladi.

Investitsiyalash bo'yicha qarorlarni qabul qilish quyidagi har xil omillar ta'sirida murakkablashadi: investitsiyalar turi, investitsion loyihaning qiymati, oson loyihalarning ko'pligi, moliyaviy resurslarning

cheklanganligi, tavakkalchilik va h.k. shubhasiz, qarorlar qator alternativ yoki o'zaro mustaqil loyihalar bo'lgan taqdirdagina qabul qilinishi kerak.

Investitsion xarakterdagi qarorlarni qabul qilish boshqaruv faoliyatining boshqa xohlagan turidek har xil shakllangan va shakllanmagan uslublardan foydalanishga asoslangan. Hayotning har xil hodisasi uchun yaroqli universal uslub mavjud emas.

28.3. Korxonalarining innovatsion salohiyati va uning samaradorligi

Innovatsion salohiyatning umumiy iqtisodiy samaradorligini baholash uchun quyidagi ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish mumkin:

1. Integral samaradorlik - E_T :

$$E_T = \sum_{t=0}^{T_p} (P_t - Z_t) \cdot \alpha_t$$

Bu yerda: T_p - kelgusi davr; P_t - t-yil natijasi; Z_t - t-yilda innovatsiyalar uchun xarajat;

α_t -diskontirlangan koeffitsiyent. Integral samaradorlikni boshqacha, sof diskontlangan daromad, sof hozirgi qiymat yoki sof kamaytirilgan qiymat deb ham atalishi mumkin.

Innovatsiyalar rentabelligi indeksi - J_R . Uni daromad yoki foyda indeksi deb ham atash mumkin. Daromadlilik indeksleri hisobot davridagi qilingan daromadlarning qaytarilgan qiymat indeksi hisobiga nisbati quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$J_R = \frac{\sum_{t=0}^{T_p} D_j \cdot \alpha_t}{\sum_{t=0}^{T_p} K_t \cdot \alpha_t}$$

J_R - rentabel indeksi;

D_j - t-davr daromadi;

K_t - t-davrda innovatsiyalarga qilingan investitsiyalarning miqdori.

Agar integral samaradorlik- E_i ijobiy bo'lib, rentabel indeksi- $J_R > 1$ bo'lsa, bu ikki ko'rsatkich bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. $J_R > 1$ da innovatsion loyiha iqtisodiy jihatdan samarali hisoblanadi. Aksincha, loyiha rentabellik indeksi $J_R < 1$ -samarasiz deb hisoblanadi.

Rentabellik me'yori EP bir necha yillar uchun diskontlangan daromadlarning qiymati innovatsion investitsiyalarga tenglashtirilgan

chegirmalarning stavkasini aks ettiradi. Bunday holda innovatsion loyihaning daromadlari va xarajatlari hisoblangan vaqtga to'g'ri keladi:

$$D = \sum_{t=0}^T \frac{D_t}{(1+E_p)^t} \quad K = \sum_{t=0}^T \frac{K_t}{(1+E_p)^t}$$

D-yillik pul daromadlari;

K- innovatsiyalarga qilingan dastlabki investitsiyalar.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining hozirgi rivojlanishi innovatsiya, yangi texnika va texnologiyalarning ishlab chiqarishga tatbiq etishga bog'liq bo'lib, bu insoniyat taraqqiyoti hamda nazariy – amaliy bilimlar bog'liqligi bilan amalga oshiriladi.

Innovatsiyalarni alohida korxonalar va qolaversa butun iqtisodiyotning faoliyat ko'rsatishiga qay darajadagi ta'sirini chuqur o'rganish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasida ushbu sohada amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Turli mulkchilik shaklidagi korxonalarining innovatsion salohiyatini baholashda esa quyidagilarni aniq belgilash lozim:

1. Korxonalarni innovatsiyalarning riskli yo'liga qadam qo'yishiga undovchi rag'batlar.

2. Korxonalar uchun innovatsiyalarni amalga oshirish.

28.1-jadval

O'zbekiston Respublikasi korxonalari tomonidan yaratilayotgan innovatsion mahsulotlar, ishlanmalar va xizmatlarning iqtisodiy ko'rsatkichlari

Yillar	Jami innovatsion mahsulotlar, ishlanmalar va xizmatlar ishlab chiqargan korxonalar, birlik	Innovatsion mahsulotlar, ishlanmalar va xizmatlar hajmi, mlrd.so'm	Innovatsion mahsulotlar, ishlanmalar va xizmatlar uchun xarajatlar mlrd.so'm
2010	289	1849	264,4
2011	385	1348,7	372,6
2012	338	3635,9	311,9
2013	683	4614,7	4634,2
2014	1601	7043	3757,4
2015	2134	8023	5528,5
2016	2374	10688,2	2571,4

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

Makrodarajada innovatsiyalar samaradorligini aniqlashda mamlakatda yaratilayotgan innovatsion mahsulotlar, ishlanmalar va xizmatlarni amaliyotga tatbiq etish hamda o'zlashtirish sifatli, raqobatbardosh, yangi

mahsulot ishlab chiqarish yoki yanada samarali va modifikatsiyalangan texnologiyalardan foydalanish asosida olayotgan foyda miqdorini oshirishga erishish bilan baholanadi.

Quyidagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, O'zbekiston Respublikasida 2010 yilda 289 ta korxonalar 1849 mlrd. so'mlik innovatsion mahsulotlar, ishlanmalar va xizmatlar ishlab chiqargan bo'lsa, 2016 yilda ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda 2374 ta va 10688,2 mlrd. so'mni tashkil etdi. Ta'kidlash joizki, ushbu korxonalar sonini shu davrlarda faoliyat ko'rsatgan jami korxonalar soniga nisbatan oladigan bo'lsak, innovatsion mahsulotlar, ishlanmalar va xizmatlar ishlab chiqarish bilan shug'ullangan korxonalar 2010 yilda (229,9 ming) atiga 2,3 foiz va 2016 yilda (285,3 ming birlik) esa 12,0 foizga tengligi aniqlandi.

Muvaffaqiyatli innovatsiyalar foyda va hattoki qo'shimcha foyda keltiradi. Biroq qo'shimcha foyda yoki qo'shimcha foyda yo'lidagi innovatsion bo'sag'adan barchasi ham o'ta olmaydi. Yangi mahsulot va texnologiyalarni o'zlashtirish davrida xarajat baland bo'ladi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi korxonalarini tomonidan yaratilayotgan innovatsion mahsulotlar, ishlanmalar va xizmatlarga qilingan xarajatlari 2010 yilda 264,4 mlrd. so'mga teng bo'lgan bo'lsa, 2016 yilda ushbu ko'rsatkich 2571,4 mlrd. so'mga teng bo'lib, 2015 yilga nisbatan 53,5 foiz kamaygan. Bu borada Vazirlar Mahkamasining "sanoatda ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish va mahsulot tannarxini pasaytirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilingan. Unga ko'ra, mahalliy korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbar-doshligini yanada oshirish, ularni ishlab chiqarish hajmlarini ko'paytirish hamda ichki va tashqi bozorlarda sotish va shu asosda sanoat ishlab chiqarishning barqaror rivojlanishi va eksport salohiyat o'sishini ta'minlash ko'zda tutilgan.

Innovatsion salohiyat taktik va strategik ko'rinishga ega bo'lgan quyidagi asosiy vazifalarni o'z ichiga oladi:

- tashqi va ichki bozorlardagi mahsulotning real raqobatbardoshligini baholash;
- ishlab chiqarish va undan foydalanish umumiy xarajatlarini minimumga olib kelgan holda sifatning berilgan darajasini ta'minlash;
- investitsiyalarning zaruriy hajmini va ularni innovatsion jarayon bosqichlarini hamda ishtirokchilari o'rtasida taqsimlanishini aniqlash;

- yangi mahsulot sifatiga bo'lgan xarajatlar va ishlab chiqaruvchining innovatsion faoliyati natijalarining o'zaro aloqasini aniqlash.

Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida innovatsiyalarni amalga oshirish samaradorligini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Hisobga olinadigan natija va xarajatlarga bog'liq holda samaradorlikning quyidagi turlari mavjud.

Innovatsion loyiha samaradorligining asosiy ko'rsatkichlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

-tijoratli (moliyaviy) samaradorlik - loyihada ishtirok etuvchilar uchun amalga oshirishning moliyaviy oqibatlarini xisobga oladi;

-budjetli samaradorlik - davlat, xudud va maxalliy budjet uchun loyihani amalga oshirishning moliyaviy oqibatlarini aks ettiradi;

- xalq xo'jaligi iqtisodiy samaradorligi - innovatsion loyiha ishtirokchilarining to'g'ridan-to'g'ri (bevosita) moliyaviy manfaatleri chegarasidan chiquvchi va qiymatli o'lchovni taqozo etuvchi loyihani amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar va natijalarni hisobga oladi.

Shahar, hudud yoki mamlakat manfaatlarini chertib o'tuvchi (teguvchi) yirik masshtabdagi loyihalar uchun xalq xo'jaligi iqtisodiy samaradorligini baholash tavsiya qilinadi.

Tijoratli samaradorlik (moliyaviy) zaruriy daromad me'yorini ta'minlovchi moliyaviy xarajatlar va natijalar nisbati bilan aniqlanadi.

Budjet samaradorligining asosiy ko'rsatkichi bo'lib loyihada ko'zda tutilgan davlat va hududiy moliyaviy qo'llab-quvvatlashning tadbirlarini asoslash uchun foydalaniladigan budjet samarasi hisoblanadi. Ushbu loyihani amalga oshirishda tegishli budjet daromadini xarajatlardan (ustunligi) oshirish bilan aniqlanadi.

Xalq xo'jaligi iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichlari loyihaning xalq xo'jaligi manfaatleri nuqtayi nazaridan samaradorligini aks ettirib, ularni hisoblashda quyidagi natijalar kiritiladi. (Qiyamat ko'rinishida):

-yakuniy ishlab chiqarish natijalari;

-xorijiy davlatlar banklar va firmalarning kreditlari va zayomlarini, import to'lovlardan tushumlar va h.k.;


- ijtimoiy va ekologik natijalar

-bevosita moliyaviy natijalar.

28.4. Innovatsion faoliyat samaradorligini tahlil qilishni tashkil etish

Milliy iqtisodiyotni innovatsion salohiyati, korxonalar ishlab chiqarayotgan tovarlarga doimiy tarzda yangi o'zgartirishlar kiritilishiga, yangi mahsulotlar yaratilishiga, iste'molchilar talablarini qondirish uchun ilmiy-texnik taraqqiyotning eng yangi yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etilishida namoyon bo'ladi. Bularning barchasi bozordagi mavjud mavqeni ushlab turish, korxonaning uzoq muddatli iqtisodiy samaradorligini ta'minlash va jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuviga imkoniyat beradi.

Innovatsion salohiyat iqtisodiy rivojlanishni ilmiy-texnikaviy yoki ishlab chiqarish jarayonini amaliy jihatdan tubdan yangilash va takomillashtirishning asosiy omili ekanligidan kelib chiqqan holda, fundamental ilmiy tadqiqotlar asosan iqtisodiyot tarmoqlarini samarali rivojlantirish bo'yicha tegishli iqtisodiy siyosatga asoslangan holda olib borishi lozim.



28.3.1-rasm. Innovatsion mahsulotlar, ishlanmalar va xizmatlarning samaradorlik turlari

Innovatsion salohiyat yangi ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish, mavjudlarini rag'batlantirish hisobiga yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarish va xizmatlarni ko'rsatishni tashkil etishda o'z ifodasini topadi. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan korxonalarining innovatsion salohiyatini rivojlantirish, kelgusida ushbu sohadagi boshqaruv tizimini mustahkamlash, yangi tur mahsulot ishlab chiqarish va yangi texnologiyalarni yaratuvchi xodimlarni rag'batlantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqishga bog'liq bo'ladi.

Tayanch iboralar

Mahsulot brendi, innovatsion g'oya, loyihaning tijorat samaradorligi, regional va mahalliy budjet, integral budjet samarasi, hosilaviy ishlab chiqarish, investitsion loyiha, investitsion loyiha samaradorligi, realizatsiya.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Innovatsion loyihalarga yo'naltirilgan investitsiyalarning samaradorligi qanday baholanadi?

2. Innovatsion mahsulotlar va ishlanmalar samaradorligining qanday turlari mavjud?

3. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar startegiyasida innovatsion rivojlanishni ko'zda tutuvchi qanday vazifalar belgilangan?

4. Respublikada innovatsion faoliyatni rivojlantirishning qaysi yo'nalishlarida investitsion sarflar darajasi yuqori?

5. Innovatsion faoliyatni moliyalashtirish tamoyillari qanday omillarga asoslanadi?

6. Innovatsion loyihaning tijorat samaradorligi qanday aniqlanadi?

7. Innovatsion loyihaning iqtisodiy samaradorligi qanday aniqlanadi?

8. Innovatsion loyihaning rentabellik darajasi qanday holatda samarasiz hisoblanadi?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.–T.: «O'zbekiston», 2018 yil
2. O'zbekiston Respublikasining «Xususiy korxonalar» to'g'risida Qonuni, 11.12.2003 yil
3. O'zbekiston Respublikasining «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi Qonuni, 06.05.2014 yil
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947 sonli Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 26 oktyabrdagi "Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4853-sonli Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 20 dekabrda gi «Eksportga ko'maklashish va uni rag'batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-4069-sonli Farmoni.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 15 dekabrda gi «2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishari to'g'risida»gi PQ-1442 sonli Qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 mayda gi «Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-3698-son Qarori.
9. Sh.M.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T.: O'zbekiston, 2017 yil.
10. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: «O'zbekiston», 2016 yil.
11. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash–yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi. – T.: «O'zbekiston», 2017 yil.

12. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: «O‘zbekiston», 2017 yil.

13. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qat‘iyat bilan davom ettirish.–T.: «O‘zbekiston», 2013 yil.

14. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari.–T.: «O‘zbekiston», 2009 yil.

15. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish—eng oliy saodatdir.–T.: «O‘zbekiston», 2015 yil.

16. Ortikov A. Sanoat iqtisodi. Darslik.–T.: TDIU, 2009 yil.

17. Salixov S.A. Innovatsion faoliyatni boshqarish. Darslik.–T.: TDIU, 2013 yil.

18. Qosimov R.S, Xodiyev B.Yu, Bekmurodov A.Sh. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturini O‘rganish bo‘yicha Ilmiy uslubiy risola.–T.: «MA’NAVIYAT, 2017 yil.

19. Maxmudov E.X. Korxonalar iqtisodiyoti. O‘quv qo‘llanma. –T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi. «ADIB» nashriyoti, 2010 yil.

20. Xodiev B.Yu., Berkinov B.B. Korporativ boshqaruv. O‘quv qo‘llanma. –T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi. «ADIB» nashriyoti, 2010 yil.

21. G‘ulomov S.S, Alimov R.X, Salimov B.T va boshq. Mikroiqtsodiyot. Darslik.–T.: «Sharq», 2001 yil.

22. Vaxabov A.V, Xajibakiyev Sh. X, Mo‘minov N.G.Xorijiy investitsiyalar. O‘quv qo‘llanma. — T: «Moliya», 2010 yil.

23. Ермолаев С.А, Капканщиков С.Г.Структурная политика государства в механизме экономического роста: учебное пособие. - Ульяновск: УлГТУ, 2005 год.

24. Карлоф Б. Деловая стратегия. – М.: Экономика, 2008 год.

25. Хубулава Н.М. Организация и управление малым бизнесом (теория и практика). – М.: Издательский комплекс, 2009 год.

26. Асаул А.Н. и др. Основы бизнеса на рынке ценных бумаг. Учебник.- СПб., 2008 год.

27. Борисова.О.В. и другие. Корпоративные финансы. Учебник и практикум.- М.: Юрайт, 2015 год.

28. Веснин В.Р. Управление персоналом в схемах. М., 2007 год
29. Перекрестова Л.В, Романенко Н.М, Сазонов С.П. Финансы и кредит. Учебник. М.: изд. центр «Академия», 2013 год.
30. Донцова О.И, Логвинов С.А. Инновационная экономика: стратегия и инструменты формирования: Учебное пособие. - М.: АльфаМ: НИЦ ИНФРА-М, 2015 год.
31. Vaxabov A.V, Jumayev N.X, Xoshimov E. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi: sabablari, xususiyatlari va iqtisodiyotga ta’sirini yumshatish yo‘llari. –Т.: Akademnashr, 2009 yil.
32. Axunova G.N. i dr. Finansi predprinimatelstva.-Т.: Iqtisod-Moliya, 2009 yil.
33. Elmirzaev.S.E. Korporativ moliya. O‘quv qo‘llanma.-Т.:Iqtisod-moliya, 2015 yil.
34. B.Yu.Xodiyev, Sh.Sh.Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik.-Т.: «Barkamol fayz media», 2017 yil.
35. Maxmudov N.M, Xomidov S.O. O‘zbekiston sanoati: rivojlanish omillari, tendensiyasi va muammolari. Monografiya.-Т.: «IQTISODIYOT», 2017 yil.

II. Asosiy adabiyotlar

1. Gadoyev E.F, Kuziyeva N.R, Ashurova N.B. Soliq siyosati strategiyasi O‘quv qo‘llanma. – Т.: EL-PRESS. 2013 yil.
2. Гончаренко Л.П, Арутюнов Ю.А. Инновационная политика. Учебник. – М.: 2009 год.
3. Адлер Ю.П. Послание возмутителя спокойствия: предисловие научных редакторов к книге Э.Деминга Выход из кризиса: новая парадигма управления людьми, системами и процессами.-М.:Альпина Бизнес Букс.-2007 год.
4. Сенге П. Пятая дисциплина. Искусство и практика самообучающихся организаций.- М.: Изд. Олимп-бизнес.-2003 год.
5. Ивасенко А.Г. Ивасенко А.Г, Никонова Я.И. Иностраннные инвестиции. Учебное пособие – М.: КНОРУС, 2010 год.
6. Хазанович Э.С. Иностраннные инвестиции. Учебное пособие – М.: КНОРУС, 2009 год.
7. Freyeman, C. 1987. Policy and Economic Performance – Lessons from Japan. London Pinter Publishers.
8. Nelson, R. 1987. Understanding technological change as an Evolutionary process. Elsevier Science ltd.

9. Гольдштейн Г.Я. Стратегический инновационный менеджмент. Учебное пособие. - Таганрог: Издательство ТРТУ, 2004.

10. Доклад Торгового представительства Российской Федерации в Финляндии. Материал rusfintrade.ru за 2015 год.

11. Доклад Центра аналитического и методологического сопровождения Российской Федерации. Израиль. Отчет по результатам изучения мирового опыта в области развития инновационной деятельности. 2013.

12. Йўлдошев Н.Қ, Мирсаидова Ш.А, Голдман Й.Д. Инновационный менеджмент – Т.: ТДИУ. Дарслик 2012 йил.

13. Иванов В.В. Территория высокой концентрации научно-технического потенциала в странах ЕС / В.В. Иванов, Б.И. Петров, К.И. Плетнев. – Москва: Сканрус, 2001.

14. Завгородняя В.В. Особенности финансирования науки и инноваций в зарубежных странах на примере Великобритании и Китая. Журнал «Молодой ученый», №7, 2017. С 245-250.

15. Калятин В.О., Наумов В.Б. Никифорова Т.С. Опыт Европы, США и Индии в сфере государственной поддержки инноваций. «Российский юридический журнал», №1 (76), 2011.

16. Киселев В.Н., Рубальтер В.А., Руденский О.В. Инновационная политика и национальные инновационные системы Канады, Великобритании, Италии, Германии и Японии. Бюллетень ЦИСН. 2009.

17. Кондратьева Е.В. Национальная инновационная система: теоретическая концепция, 2015. Электронная статья в ИЭОПП СО РАН.

18. Мутанов Г. Абдыкеримова Г. Информационная система оценки инновационных проектов. Усть-Каменогорск: ВКГТУ. 2010

19. Мутанов Г.М. Инновации: создание и развитие. – Алматы, Казах университета, 2012 с.

20. Abulqosimov N.P, Abulqosimov M.H. Iqtisodiyotga oid atama va tushunchalarning izohli lug'ati. - T.: 2017 yil.

21. Журавлев П.В, Одегов Ю.Г, Волгин Н.А. Управление человеческими ресурсами: опыт индустриально развитых стран. Учебное пособие. М.: Изд-во Экзамен, 2002 год.

22. Bababekova D.Sh, Tursunov B.O. Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishning shart-sharoitlari va asosiy yo'nalishlari. Monografiya. -T.:«VneshInvestProm». 2018 yil.

23. Bababekova D.Sh, Tursunov.B.O. Korxonada iqtisodiyoti va innovatsiyalarni boshqarish. Uslubiy qo'llanma.-T.:«VneshInvestProm», 2017 yil.

24. Narziyev J.P, Tursunov O.S. Innovatsion menejment. Uslubiy qo'llanma. Toshkent, TAYI. 2006 yil.

25. Зикриллаева Н.А. Теоретические аспекты повышения конкурентоспособности национальной экономики в системе рыночных отношений (на материалах реального сектора экономики Узбекистана). Автореф. дисс. пред. на соис.уч.степ. к.э.н. -Т.: 2008 год.

26. Чернолес Г.В. Интеллектуальный капитал предприятия: стратегия управления и методика оценки. Автореферат, Санкт-Петербург-2009 год.

27. Umarov I. Oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish istiqbollari. Monografiya. –T.: Fan va texnologiyalar, 2014 yil.

28. Allaberganov Z.G. Tejamkorlikning konseptual asoslari va uning ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlari. Monografiya.-T.:«Fan va texnologiya». 2015 yil.

29. Зинов В.Г. Менеджмент инновации: Кадровое обеспечение.-М.: Дело, 2005 год.

III. Kўshimcha adabiyotlar

1. Лин Цфу, Цой Фан, Ли Чжоу. Китайское чудо: экономическая реформа, стратегия развития. - М., 2001 год.

2. Райзберг Б.А, Лозовский Л.Ш, Стародубцева Е.Б. Современный экономический словарь.– М.: 2006 год.

3. Frank J. Fabozzi, Borjana Racheva-Iotova, Risk management and portfolio optimization for markets. Ecole De Management De Normandie, France 2014 year.

4. Ketels C. Clusters, Cluster Policy, and Swedish Competitiveness in the Global Economy. Expert Report no. 30 to Sweden's Globalisation Council, 2009 year.

5. Tursunov B.O. Eksport salohiyatidan samarali foydalanishda raqobat muhitining o'rni. «Innovatsion texnologiyalar» ilmiy jurnali. 2017 yil, №3-son.

6. Bababekova D.Sh. Sanoat tapmoqlari raqobatbardoshligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari. «Iqtisod va moliya» ilmiy jurnali. 2018 yil, №2-son.

7. Yoziyev G'.L. Innovatsiya nazariyasi: shakllanish hamda rivojlanish bosqichlari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali, 2015 yil, №5-son.

8. Xujakulov X.D, Sayfullayev S.N. O'zbekiston sanoati tarmog'ining tarkibiy o'zgarishlarini xalqaro tasniflash asosida statistik o'rganish. Iqtisodiyot va ta'lim. 2017 yil, №6-son

9. Шадманов Э.Ш., Бабабекова Д.Ш. Бюджетная пропорциональность и его роль в системе функционирования национальной экономики. «Молодой учёный» 2016 год, № 7.

10. Иванов Я.Е.Зарубежный опыт инновационного развития малого бизнеса. «Молодой ученый» 2013 год, №12.

11. www.mineconomy.uz - O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi rasmiy axborot sayti.

12. www.mf.uz - O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi rasmiy axborot sayti.

13. www.cbu.uz – O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti ma'lumotlari.

14. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.

15. www.stat.uz- O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy axborot sayti.

16. www.uza.uz - O'zbekiston Respublikasi Milliy Axborot Agentligi rasmiy axborot sayti.

17. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

18. www.ereport.ru - Обзорная информация по мировой экономике

19. www.stplan.ru - экономика и управление

20. www.dis.ru/fm/ - журнал «Финансовый менеджмент» .

21. www.eup.ru - Экономика и управление на предприятиях: научно-образовательный портал.

TEST SAVOLLARI

1. Korxonani tashkil qilishdagi ta'sis hujjatlarida nimalar ifodalaniladi?

- A. Korxonaning huquq va majburiyatlari;
- B. Korxonaning faoliyat samaradorligi mezonlari;
- C. Korxonani tashkil qilish tartibi;
- D. Korxonaning istiqboldagi faoliyat strategiyasi.

2. Korxonada ta'sis hujjatlari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Korxonada nizomi, mehnat shartnomasi;
- B. Korxonada nizomi, registratsiya nomeri;
- C. Korxonada nizomi, ta'sis shartnomasi;
- D. Korxonada nizomi, biznes – reja.

3. Korxonaning hayotiylik davri qanday bosqichlardan iborat?

- A. Tashkil qilish, boshqarish, biznes-reja, bankrotlik va tugatish;
- B. Tashkil qilish, reorganizatsiya, restrukturizatsiya, sanatsiya, bankrotlik va tugatish;
- C. Tashkil qilish, reorganizatsiya, boshqarish, restrukturizatsiya, sanatsiya, bankrotlik va tugatish;
- D. Boshqarish, restrukturizatsiya, sanatsiya, bankrotlik va tugatish.

4. Korxonada qanday muammolar hal etilishi lozim?

- A. Korxonada qay tarzda faoliyat yuritishi kerak va daromad nimaga bog'liq bo'ladi?
- B. Xomashyo yetkazib beruvchilar va iste'molchilar bilan qanday ishlash kerak?
- C. Ishlab chiqarish sur'atini qanday oshirish mumkin?
- D. Raqobat kurashida qanday omillar muvaffaqiyat keltiradi?

5. Qaysi javobda korxonaning aniq maqsadlari ko'rsatilgan?

- A. Foyda, atrof-muhit muhofazasi, ishlovchilarning ish haqini ko'paytirish;
- B. Talabni qondirish, xarajatlarni kamaytirish;
- C. Foyda, talabni qondirish, atrof-muhit muhofazasi;
- D. Foyda, xarajatlarni kamaytirish.

6. Qaysi tarmoqqa qarashlilikiga ko'ra korxonalar qanday turlarga bo'linadi?

- A. Ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaruvchi, iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi;
- B. Yirik, o'rta, kichik;
- C. Ixtisoslashgan, universal va aralash;
- D. Ishlab chiqarish, noishlab chiqarish.

7. Hajmiga ko'ra korxonalarning qanday turlari mavjud?

- A. Ishlab chiqarish, noishlab chiqarish;
- B. Yirik, o'rta, kichik;
- C. Ixtisoslashgan, universal, aralash;
- D. Ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaruvchi, iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi.

8. Ixtisoslashuv darajasiga ko'ra korxonalarining qanday turlari mavjud?

A. Yirik, o'rta, kichik;

B. Ixtisoslashgan, universal, aralash;

C. Ishlab chiqarish va noishlab chiqarish;

D. Ishlab chiqarish vositalari, ishlab chiqaruvchi, iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi

9. Korxonaning tijorat hisobida ishlashini belgilovchi asosiy mezon nima?

A. asosiy maqsadi — mahsulot ishlab chiqarish;

B. asosiy maqsadi — xarajatlarni pasaytirish;

C. asosiy maqsadi — foyda olish;

D. asosiy maqsadi — iste'molchilarning talabini qondirish orqali foyda olish.

10. Mas'uliyati cheklangan jamiyat ta'rifi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

A. paylarga ajratilgan ustav kapitalini miqdori ta'sis hujjatlari bilan belgilanuvchi, o'z mulki chegarasida majburiyatlarga ega bo'lgan jamiyat;

B. ta'sis shartnomasi asosida tuzilgan, jamiyat ustav kapitaliga majburiy ravishda pul yoki mulkiy paylar bilan kirgan, ularning miqdori orqali har bir ta'sischini mas'uliyati belgilangan jamiyat;

C. ustav kapitali paylarga ajratilgan, ularning miqdori ta'sis hujjatlari bilan belgilangan va ustav kapitali banklar orqali tan olingan jamiyat;

D. ta'sischilar va banklar orqali ustav kapitali tan olingan va ustav kapitali paylarga ajratilgan jamiyat.

11. Litsenziya nima?

A. Qoidalariga amal qilish lozimligini tasdiqlovchi hujjat;

B. Faoliyatni to'xtatishni majburlovchi asosda tasdiqlovchi hujjat;

C. Faoliyat turini amalga oshirish uchun tegishli ruxsatnoma;

D. Mahsulot ishlab chiqarish miqdorini tasdiqlovchi ruxsatnoma.

12. Korxonani restrukturizatsiyalash...

A. korxonaga bankrotligi;

B. korxonaning ishlab chiqarish bo'linmalari faoliyat natijalari va xarajatlarini hisobga oluvchi xo'jalik yuritish;

C. korxonaga faoliyatini moliyaviy sog'lomlashtirish;

D. korxonaga yuridik shaxs maqomini bermasdan mustaqil balans va hisob raqamiga ega bo'lgan tarkibiy bo'linmalarni shakllantirish.

13. Korxonaga faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi ichki omillar qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A. Davlat, resurs yetkazib beruvchilar, pul mablag'lari, raqobatchilar soni;

B. Davlat, resurs yetkazib beruvchilar, aholi va raqobatchilar soni;

C. Personal, davlat, pul mablag'lari, axborot;

D. Personal, ishlab chiqarish vositalari, pul mablag'lari, axborot

14. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonaga faoliyatining asosiy maqsadi nima?

A. mahsulot hajmini ko'paytirish;

- B. mavjud resurslardan samarali foydalanish;
- C. mahsulot sifatini yaxshilash;
- D. foyda olish.

15. Ijara korxonasining faoliyat xususiyatlari nimada aks ettiriladi?

- A. ustavda;
- B. ijara shartnomasida;
- C. ijara qonunchiligida;
- D. ta'xis shartnomasida.

16. Korxonani bankrotlikdan saqlashga doir tadbirlar umumiy holda qanday guruhlarga bo'linadi?

- A. Kuzatish, o'zaro kelishuvlar, qarzlardan kechish, subsidiya berish, samarali biznes-reja tuzish;
- B. Kuzatish, tashqi boshqaruv, o'zaro kelishuvlar;
- C. Tashqi boshqaruv, samarali biznes-reja tuzish, qarzlardan kechish.
- D. Tashqi boshqaruv o'zaro kelishuvlar, xarajatlarni kamaytirish.

17. Korxonani tasniflashga asos bo'ladigan qanday belgilar mavjud?

- A. Ixtisoslashuv, ishlab chiqarish tarkibi, mehnat vositalari;
- B. Ixtisoslashuv, korxonaning joylashuvi, ishlovchilar soni;
- C. Ixtisoslashuv, ishlab chiqarish tarkibi, ishlovchilar tarkibi;
- D. Ixtisoslashuv, ishlab chiqarish tarkibi, ishlab chiqarish salohiyatining quvvati.

18. Korxonaning ishlab chiqarish komponentlari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Personal, mehnat vositalari, mehnat predmetlari, energiya, axborotlar;
- B. Personal, mehnat vositalari, mehnat unumdorligi, energiya, axborotlar;
- C. Personal, mehnat vositalari, mehnat predmetlari, ishlab chiqarish salohiyati;
- D. Mehnat vositalari, mehnat predmetlari, energiya, reklama.

19. Sof tavakkalchilik qanday ehtimolni bildiradi?

- A. Salbiy yoki nol natijaga erishish ehtimolini;
- B. Ham salbiy, ham ijobiy natijaga erishish ehtimolini;
- C. Tabiiy ofatlar oqibatida shakllanadigan zarar ehtimolini;
- D. To'g'ri javob yo'q.

20. Quyidagilardan yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xavf zonasini aniqlang:

- A. zarar darajasi ko'lami $>$ jami xarajat + foyda;
- B. zarar darajasi ko'lami = hisoblangan foyda darajasi ko'lami;
- C. zarar darajasi ko'lami = xususiy kapital;
- D. foyda olish ehtimoli = hisoblangan foyda.

21. Quyidagilardan fojeali xavf zonasini aniqlang.

- A. zarar darajasi ko'lami $>$ jami xarajat + foyda;
- B. zarar darajasi ko'lami = hisoblangan foyda darajasi ko'lami;
- C. zarar darajasi ko'lami = xususiy kapital;
- D. foyda olish ehtimoli = hisoblangan foyda.

22. Tavakkalchilik samaradorligiga baho berishda qanday usulni qo'llash talab etiladi?

- A. statistik usul;
- B. ekspert usuli;
- C. analitik usul;
- D. to'g'ri javob yo'q.

23. Kartel nima asosida tashkil topadi?

A. bozorda nazorat o'rnatish maqsadida bir xil mahsulot ishlab chiqaruvchilar o'rtasida tuzilmagan bitim asosida;

B. bir tarmoq korxonalarining mahsulotni birgalikda sotishga asoslangan kelishuvi asosida;

C. bir yoki bir necha tarmoq korxonalarining birlashuvi asosida;

D. yirik chora-tadbirlarni moliyalashtirish, ilmiy-texnik va ekologik dasturlarni birgalikda amalga oshirish asosida.

24. Korxonada mehnatga haq to'lash qanday shaklda amalga oshiriladi?

A. ishbay-vaqtbay;

B. kishi-soat;

C. mehnat-soat;

D. yaratilgan mahsulotga nisbatan.

25. Korxonada personalini o'qitishning asosiy turlari:

A. attestatsiyasiz mustaqil bilim olish orqali yoki ish joyida;

B. ixtisoslashtirilgan muassasalarda ishdan ajralgan va ajralmagan holda;

C. ixtisoslashtirilgan muassasalarda eksternat bilan attestatsiya orqali;

D. ixtisoslashtirilgan muassasalarda ishdan ajralgan va ajralmagan holda, attestatsiyasiz mustaqil bilim olish orqali yoki ish joyida.

26. Mehnatni ijtimoiy sharoitlari qanday omillardan iborat?

A. jismoniy va ruhiy omillar;

B. atrof-muhitga ta'sir etuvchi va ruhiy omillar;

C. atrof-muhitga ta'sir etuvchi, jismoniy va ruhiy omillar;

D. jismoniy omillar, atrof-muhitga ta'sir etuvchi omillar.

27. Korxonani tashkil qilish qanday tamoyillarga asoslanadi?

A. G'oya, xodimlarni tanlash, talabning mavjudligi, ro'yxatdan o'tish, ishlab chiqarishni boshlash;

B. G'oya, raqobatchilarni topish, talabning mavjudligi, moliyalashtirishni shakllantirish, ro'yxatdan o'tish;

C. G'oya, iste'molchilarni tanlash, chetdan investisiya jalb qilish, eksport qilish, xodimlarni yollash;

D. G'oya, ta'sischi'larni tanlash, talabning mavjudligini o'rganish, moliyalashtirishni shakllantirish, ro'yxatdan o'tish.

28. Korxonada faoliyatini tashkil etish qanday hududiy omillarga asoslanadi?

A. Talabning mavjudligi, fan-texnika yutuqlarining rivojlanish darajasi, ishlab chiqarish xarajatlarining pastligi;

B. Talabning mavjudligi, resurslar salohiyati, tarmoqni rivojlantirish imkoniyatlarining mavjudligi;

C. Taklifning mavjudligi, resurslarning arzonligi, aholi sonining o'sishi;

D. Taklifning mavjudligi, mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarining pastligi, eksport imkoniyatlarining kengligi.

29. Birlashuviga ko'ra korxonalarining qanday turlari mavjud?

A. konsern, konsorsium va xolding;

B. ishlab chiqarish, respublika, mintaqaviy, milliy va transmilliy korxonalar;

C. respublika, mintaqaviy va transmilliy kompaniyalar, konsern, konsorsium va xolding;

D. aksionerlik va jamoat birlashmalariga asoslangan korxonalar.

30. Aksionerlik jamiyati majburiyatlari bo'yicha aksiyadorlar qanday javob berishadi?

A. to'liq;

B. qisman;

C. ma'lum ma'noda;

D. olingan foyda miqdorida.

31. Dividend nima?

A. korxonada foydasiga beriladigan mablag';

B. aksiyadorlik jamiyatining daromadi;

C. aksiyadorga beriladigan mablag';

D. aksiyador ulushi.

32. Dividend qanday muddatlarda beriladi?

A. yilning har choragida;

B. har yarim yilda;

C. bir yilga bir marta;

D. yilning har choragida, yarim yilda, yiliga bir marta.

33. MCHJning ustav kapitali qanday tashkil topadi?

A. pul mablag'laridan;

B. qimmatbaho qog'ozlardan;

C. qismlarga bo'lingan kapitaldan;

D. qatnashchilarning pul va qimmatli buyumlaridan;

34. MCHJ bir shaxs tomonidan tashkil etilishi mumkinmi?

A. mumkin;

B. mumkin emas;

C. faoliyat sohasiga bog'liq;

D. ish ko'lamiga bog'liq.

35. MCHJ qatnashchilari jamiyat faoliyati bilan bog'liq yo'qotishlarni qaysi miqdorda ko'radilar?

A. jamiyat majburiyatlarining to'liq miqdorida;

B. mavjud qimmatbaho qog'ozlar bahosi miqdorida;

C. sarmoyalari miqdorida;

D. kiritilgan qiymati miqdorida.

36. Mulknı huquqiy kategoriya sifatida ro'yobga chiqarish jihatları qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Egalik qilish, tasarruf etish, ko'paytirish;
- B. Egalik qilish, tasarruf etish, foydalanish;
- C. Tasarruf etish, foydalanish, sotish;
- D. Tasarruf etish, foydalanish, ko'paytirish.

37. Korxonaning sof foydasi nima?

- A. daromaddan xarajatni ayirgandan qolgan qismi;
- B. foydadan soliqlar chegirgandan so'ng qolgan qismi;
- C. daromaddan ishlab chiqarish xarajatlarini ayirgandan qolgan qismi;
- D. daromaddan xarajatni ayirgandan qolgan qismi, daromaddan ishlab chiqarish xarajatlarnı ayirgandan qolgan qismi.

38. Korxonada "mehnat bo'limi"ni joriy maqsadları bu?

- A. yangi mahsulotni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish;
- B. ishlab chiqarish bo'yicha yangi texnikani joriy qilish;
- C. yuqori quvvatga ega bo'lgan mahsulot modelini ishlab chiqish;
- D. bitta ishchiga to'g'ri keladigan mahsulot ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish.

39. Korxonaning raqobatlashuvi nima?

- A. boshqa korxonalar bilan iqtisodiy kurashi;
- B. korxonalarining o'z huquqlarini talab qilishi;
- C. korxonalar o'rtasida mahsulotni sotish va ishlab chiqarish bo'yicha o'zaro kurash;
- D. korxonaning mahsulotiga talabgorlarnı ko'payishi borasidagi natijalar.

40. Axborotlar mazmuniga ko'ra qanday guruhlarga bo'linadi;

- A. ichki axborotlar va tashqi axborotlar;
- B. iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy, tashkiliy-texnikaviy axborotlar;
- C. korxonaga, bo'lim, sex va uchastkalarga doir axborotlar;
- D. oddiy, shartli, doimiy o'zgarib turuvchi axborotlar.

41. Quyidagi axborot turlarini qaysi biri axborot mazmunini aks ettiradi;

- A. oddiy axborot;
- B. joriy axborot;
- C. dastlabki axborot;
- D. funksional axborot.

42. Quyidagılardan qaysi biri rejalashtirishning asosiy tamoyillariga kiradi?

- A. Ilmiylik; uzluksizlik; reallik; o'zgaruvchanlik; optimallik; kam xarajatlilik;
- B. Ilmiylik; uzluksizlik; o'zgaruvchanlik; optimallik, kam xarajatlilik;
- C. Ilmiylik; uzluksizlik; reallik; o'zgaruvchanlik; optimallik;
- D. Ilmiylik; uzluksizlik; reallik; o'zgaruvchanlik; foydalilik.

43. Bashoratning ta'rifi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A. Bashorat - korxonaning kelgusidagi ahvoli va uni amalga oshirish to'g'risidagi ilmiy asoslangan mulohaza;

B. Bashorat - korxonaning kelgusida ahvoli va uni amalga oshirish to'g'risidagi biznes-reja;

C. Bashorat-korxonaning biznes-rejasi;

D. Bashorat - korxonaning o'tmishdagi ahvoli hisobga olingan ilmiy asoslarning muhim natijalari.

44. Iqtisodiy samara deganda nima tushuniladi?

A. qo'yilgan kapitalning investitsiyalash natijasida olingan foyda;

B. qo'yilgan kapitaldan olingan daromadning ma'lum vaqtdan keyin qo'yilgan kapitalga tenglashishi;

C. investitsiya natijasida olingan foyda bilan investitsiya miqdori o'rtasidagi nisbat;

D. investitsiyaning milliy daromaddagi ulushi.

45. Iqtisodiy samaradorlikni oshirishdan korxonada qanday manfaatlarga ega?

A. Imijini mustahkamlaydi; xodimlar ahvoli yaxshilanadi; xarajatlarni kamaytiradi;

B. Barqarorlikka erishadi; imidjini mustahkamlaydi; raqobatchilarni o'rganadi;

C. Barqarorlikka erishadi; xodimlarning ahvoli yaxshilanadi; xarajatlarni kamaytiradi;

D. Barqarorlikka erishadi; imijini mustahkamlaydi; xodimlar ahvoli yaxshilanadi.

46. Ijtimoiy mehnat unumdorligi qanday aniqlanadi?

A. yalpi ijtimoiy mahsulot /barcha sohalarida band bo'lganlar soni;

B. yalpi ijtimoiy mahsulot/moddiy tarmoqlarda band bo'lganlar soni;

C. milliy daromad/moddiy tarmoqlarda band bo'lganlar soni;

D. ish vaqti xarajatlari/ayrim turdagi mahsulot xarajatlari.

47. Mehnat unumdorligi qanday aniqlanadi?

A. Sarflangan vaqt miqdori yaratilgan mahsulot qiymatiga bo'linadi;

B. Yaratilgan mahsulot qiymati sarflangan vaqt miqdoriga bo'linadi;

C. Yaratilgan mahsulot qiymati asosiy mahsulot qiymatiga bo'linadi;

D. Sarflangan vaqt miqdori jami resurslarning qiymatiga bo'linadi.

48. Xarajatlar rentabelligi qanday aniqlanadi?

A. Korxonada foydasi avanslashgan kapitalga bo'linadi va 100 ga ko'paytiriladi;

B. To'la tannarx korxonada foydasiga bo'linadi va 100 ga ko'paytiriladi;

C. Korxonada foydasi to'la tannarxga bo'linadi va 100 ga ko'paytiriladi;

D. Korxonada foydasi mehnat haqi xarajatlariga bo'linadi va 100 ga ko'paytiriladi.

49. Korxonada iqtisodiy samaradorlikni asosiy mezon nima?

A. Mavjud resurslardan tejamli foydalanib ko'proq va sifatliroq mahsulot ishlab chiqarish;

B. Mavjud resurslardan tejamli foydalanib, korxonada ishchilarining moddiy farovonligini oshirish;

C. Mavjud resurslardan tejamli foydalanib korxonada xarajatlarini kamaytirish;

D. Mavjud resurslardan tejamli foydalanib bozorda ustunlikka erishish.

50. Xarajatlar konsepsiyasi bo'yicha iqtisodiy samaradorlikni umumlashtiruvchi ko'rsatkich nima?

A. Tannarx;

B. Mehnat unumdorligi;

C. Rentabellik;

D. Xarajatlar samaradorligi.

51. Rentabellikning iqtisodiy ma'nosi nima?

A. Kam xarajat qilib ko'proq foyda olish;

B. Iste'mol qilingan resurslar sig'imi;

C. Iqtisodiy samaradorlik darajasi;

D. Iste'mol qilingan resurslar qaytimi.

52. Xalq xo'jaligining umumiy samaradorligi qanday aniqlanadi?

A. Milliy daromadlarni yillik o'sishi sarflangan kapital xarajatlarning o'sishiga bo'linadi;

B. Sarflangan kapital xarajatlarning o'sishi milliy daromadning yillik o'sishiga bo'linadi;

C. Olingan foyda kapital xarajatlarning o'sishiga bo'linadi;

D. Olingan ish haqi kapital xarajatlarning o'sishiga bo'linadi.

53. Ishlab chiqarishning ijtimoiy samaradorligi oshirishga ta'sir ko'rsatuvchi omil – bu?

A. Ishlovchilarning malakasi;

B. Fan-texnika taraqqiyoti;

C. Xorijiy investitsiyalar;

D. Davlatning xarajatli yordami.

54. Kapital qo'yilmalar – bu?

A. asosiy vositalarni sotib olish, qurish, ta'mirlash, rekonstruksiya qilish va kengaytirish uchun sarflangan mablag'lar;

B. aylanma mablag'lar bilan ta'minlashga qaratilgan xarajatlar;

C. xodimlarning tajriba va malakalarini oshirishga yo'naltirilgan mablag'lar;

D. ijtimoiy sohalariga sarflangan mablag'lar.

55. Tovarni qaysi hayotiylik davrida korxonada yuqori foyda oladi?

A. hayotga tatbiq etish;

B. pasayish;

C. yuksalish;

D. ishlab chiqish.

56. Sotishining "Ishlab chiqaruvchi - ulgurji savdogar - iste'molchi" kanalini nima ishlab chiqaradigan korxonada tezroq tanlab oladi?

A. saqich;

B. avtomobillar;

C. kir yuvish vositalari;

D. atir- upalar.

57. Maqsadli bozorga chiqishda differentsiyalangan marketing strategiyasi qanday holatda maqsadga muvofiq emas?

A. tovar siyosatida firma differentsiya strategiyasini ishlatasa;

B. firma butun bozorni maqsadli bozor sifatida tanlasa;

C. xaridorlar bozorida turli ehtiyojlar darajasi yuzaga kelsa;

D. xaridorlar bozorda umumiy ehtiyojlar yuzaga kelsa.

58. Mahsulotning material sig'imi nimani belgilaydi?

A. materiallardan samarali foydalanish darajasini;

B. mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan materiallarning umumiy sarfini;

C. mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan materiallar normativ ko'rsatkichini;

D. tayyorlangan mahsulotlarning material sarfini.

59. Zaxiralarning martalardagi aylanuvchanligi qanday aniqlanadi?

A. zaxiralar/aylanma mablag'lar;

B. aylanma mablag'lar/zaxiralar;

C. o'rtacha zaxiralar/bir kunlik xarajat;

D. sotish hajmi/o'rtacha zaxiralar.

60. Asosiy fondlarni baholashning qanday usullari mavjud?

A. Tiklanish qiymati bo'yicha, qoldiq qiymati bo'yicha, bozor baholar bo'yicha;

B. Boshlang'ich qiymati bo'yicha, tanlanish qiymati bo'yicha, bozor baholari bo'yicha;

C. Boshlang'ich qiymati bo'yicha, qoldiq qiymati bo'yicha;

D. Tiklanish qiymati bo'yicha, qoldiq qiymati bo'yicha, ekspert xulosasi bo'yicha.

61. Amortizatsiya deb nimaga aytiladi?

A. Asosiy fondlarni sotib olish jarayoniga;

B. Asosiy fondlar qiymatini tayyorlanayotgan mahsulotga o'tkazish jarayoniga;

C. Asosiy fondlarni sotib olish uchun baholash qiymatiga;

D. Asosiy fondlarni jismoniy eskirishiga.

62. Asosiy fondlarning eskirishi qanday turlarga bo'linadi?

A. Jismoniy, ma'naviy;

B. Jismoniy, intellektual;

C. Ma'naviy, moddiy;

D. Ma'naviy, amortizatsiya.

63. Fond qaytimi qanday aniqlanadi?

A. Asosiy ishlab chiqarish fondlarini o'rtacha yillik qiymatini bir yillik pul tushumiga bo'lib topiladi;

B. Bir yillik pul tushumini amortizatsiya ajratmalariga bo'lib topiladi;

C. Bir yillik pul tushumini asosiy ishlab chiqarish fondlarni o'rtacha yillik qiymatiga bo'lib topiladi;

D. To'g'ri javob keltirilmagan.

64. Fond qaytimi ko'rsatkichi qanday xarakterlanadi:

A. 1 so'mlik asosiy ishlab chiqarish fondlariga to'g'ri keladigan tovar mahsulotlari o'lchamining hajmi orqali;

B. mehnatni texnik jihatdan qurollanganlik darajasi orqali;

C. 1 so'mlik realizatsiya qilingan mahsulot uchun asosiy fondlarni solishtirma xarajatlari orqali;

D. asosiy vositalarning yangilanish koeffitsiyenti orqali.

65. Quvvatlarning mutanosiblik koeffitsiyenti qanday aniqlanadi?

A. ishlab chiqarish dasturining asbob-uskunalarini rejali ish vaqti fondiga nisbati orqali;

B. ishlab chiqarish dasturining ishlab chiqarish quvvatlatiga nisbati orqali;

C. mehnat talabchanligining jami asbob-uskuna rejali ish vaqti fondiga nisbati orqali;

D. mehnat talabchanligining bir smena uchun asbob-uskuna rejali ish vaqti fondiga nisbati orqali.

66. Quyidagilar qaysi biri korxonaning moddiy bazasini tashkil qiladi?

A. Asosiy va aylanma fondlar;

B. Asosiy fondlar, aylanma mablag'lar, zaxiralar;

C. Asosiy fondlar, aylanma mablag'lar, foyda;

D. Asosiy fondlar, aylanma mablag'lar, ish haqi va moddiy rag'batlantirish fondi.

67. Asosiy fondlarni boshlang'ich qiymat bo'yicha baholashni qanday tushunasiz?

A. Asosiy vositalarni yaratish yoki sotib olish uchun sarflangan xarajatlar majmui;

B. Asosiy fondlar yoki ularning biron-bir qismini hozirgi paytdagi inflyatsiya va boshqa omillarni hisobga olgan holda baholash;

C. Asosiy fondlarning eskirishini inobatga olgan holda, birlamchi va qayta tiklash qiymatlari o'rtasidagi farq ko'rinishidagi baholash;

D. Natural va qiymat bo'yicha baholash.

68. Korxonaning aylanma mablag'lari nimalardan tashkil topadi?

A. Muomala fondlari, kelgusi davr xarajatlari;

B. Ishlab chiqarish aylanma fondlari, tugallanmagan ishlab chiqarish;

C. Ishlab chiqarish aylanma fondlari, muomala fondlari;

D. Muomala fondlari, mehnat kreditlari.

69. Ishlatilishiga ko'ra aylanma mablag'lar qanday turlarga bo'linadi?

A. Ishlab chiqarish aylanma fondlari; muomala fondlari;

B. Mehnat vositalari; tugallanmagan ishlab chiqarish; zaxiralar;

C. Mehnat vositalari; tugallanmagan ishlab chiqarish va kelgusi davr xarajatlari;

D. Mehnat predmetlari; mehnat vositalari.

70. Ishlab chiqarish tadbirkorligi...

- A. mahsulot ishlab chiqarish, ish bajarish, xizmat ko'rsatish, ma'lum ma'naviy qiymatlarni yaratish;
- B. savdo-vositachilik sohasidagi tadbirkorlik;
- C. bank sohasidagi tadbirkorlik;
- D. qishloq xo'jaligi sohasidagi ishlab chiqarish.

71. Aylanma mablag'larning shakllanish manbalari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Foyda; kreditlar; ish haqi fondi; aksiyalar miqdori; dotatsiyalar; budjet mablag'lari; qayta taqsimlash resurslar; kreditorlik qarzlari;
- B. Foyda kreditlar; ustav kapitali; pay bo'naklari;
- C. Foyda; kreditlar; ish haqi fondi; aksiyalar miqdori; dotatsiyalar;
- D. Budjet mablag'lari; qayta taqsimlash resurslar; kreditorlik qarzlari.

72. Aylanma mablag'laridan foydalanish samaradorligini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlarga qaysilar kiradi?

- A. Aylanma mablag'larning aylanuvchanligi; o'z va qarzga olingan aylanma mablag'lar nisbati;
- B. O'z va qarzga olingan aylanma mablag'larning nisbati; korxonaning to'lovga qobiliyatligi; korxonaning likvidligi; ish haqi bo'yicha xarajatlar miqdori; aylanma mablag'larning aylanuvchanligi;
- C. O'z aylanma mablag'lari miqdori; o'z va qarzga olingan aylanma mablag'lar nisbati;
- D. korxonaning to'lovga qobiliyatligi; korxonaning likvidligi; aylanma mablag'larning aylanuvchanligi;

73. Korxonaning aylanma mablag'larining aylanuvchanligini tezlashtiruvchi omillarga quyidagilardan qaysi biri kiradi?

- A. Investitsiya faoliyatini samarali shakllarini tanlash; xarajatlarni kamaytirish;
- B. Ishlab chiqarish zaxiralarini yaratish; xodimlarni moddiy rag'batlantirishni kuchaytirish;
- C. Debitorlik qarzlarini o'z vaqtida qaytarish; investitsiya faoliyatini samarali shakllantirishni tanlash;
- D. Ishlab chiqarish zaxiralarini yaratish; debitorlik qarzlarini o'z vaqtida qaytarish.

74. Korxonaning debitorlik qarzi ko'payishiga nima sabab bo'ladi?

- A. sotilgan mahsulotlarning o'z vaqtida pulini to'lamasligi;
- B. sotilgan mahsulot va ko'rsatilgan xizmatlarning mablag'i o'z vaqtida to'lanmasligi;
- C. korxonaning ishining to'xtab qolishi;
- D. korxonaning bankrotga uchrashi.

75. Marjinal foyda — bu?

- A. mahsulot sotishdan tushgan tushumdan korxonaning doimiy xarajatlarini ayirmasi;

B. sotishdan tushgan tushumlardan, korxonaning o'zgaruvchan xarajatlarini ayirmasi;

C. sotishdan tushgan tushumlardan korxonaning jami xarajatlari ayirmasi;

D. o'zgaruvchan xarajatlardan doimiy xarajatlar ayirmasi.

76. Bozor narxi — bu...

A. tovarlarga bo'lgan talab va taklif natijasida aniqlangan narxlar;

B. chakana savdoda sotilayotgan tovarlarning narxlari;

C. tovarlarning oldi-sotdisiga qadar sotuvchi va xaridor o'rtasida kelishilgan narx;

D. ulgurji savdoda sotilayotgan tovarlar narxi.

77. Aqliy (intellektual) investitsiyalar - bu...

A. daromad olish va asosiy kapital qiymatini ko'paytirish maqsadida uning tasarrufida bo'lgan korxonalar aktivlari;

B. korxonaning intellektual boyliklarni xarid qilishga sarflagan mablag'lari;

C. korxonaning ekologiyani asrashga sarflagan mablag'lari;

D. korxonalar asosiy vositalarini vujudga keltirish va takror ishlab chiqarishga, moddiy ishlab chiqarishning barcha shakllarini rivojlantirishga qo'shiladigan investitsiyalar.

78. Investitsiya faoliyatining obyekti....

A. kapital qurilishlar, inshootlar;

B. kapital, innovatsion, ijtimoiy investitsiyalar;

C. investorlar, kreditorlar;

D. moddiy va nomoddiy ne'matlar.

79. Investitsiya normasi deb nimaga aytiladi?

A. foyda bilan investitsiya miqdori o'rtasidagi munosabatga;

B. qo'yilgan kapitalning investitsiyalash natijasida olingan kapital miqdoriga;

C. qo'yilgan kapitaldan olingan daromadning ma'lum vaqtdan keyin qo'yilgan kapitalga tenglashishiga;

D. investitsiyaning milliy daromaddagi ulushiga.

80. Korxonaning kadrlar siyosati o'z tarkibiga nimalarni oladi?

A. Ishga olish; malakani oshirish; lavozimlarni oshirish; haq to'lash;

B. Ishga olish; malakani oshirish; lavozimlarni oshirish; haq to'lash; jamoada ruhiy muhit yaratish;

C. Ishga olish; ishdan bo'shatish; jamoada ruhiy muhit yaratish; malakani oshirish; haq to'lash;

D. Malakani oshirish; lavozimlarni oshirish; haq to'lash; ishdan bo'shatish; ish bilan bandlikni oshirish.

81. Boshqarishning iqtisodiy metodlari – bu?

A. boshqarish apparatining muayyan strukturasi tuzish;

B. buyruqlar, farmoyishlar va qo'llanmalar chiqarish, ularning bajarilishini nazorat qilish;

C. kadrlarni to'g'ri tanlash;

D. iqtisodiy manfaatlardan foydalanish.

82. Rotatsiya - bu...

- A. Tashkilot ichidagi ko'chish;
- B. Firmalararo ko'chish;
- C. Mamlakatlararo ko'chish;
- D. To'g'ri javob yo'q.

83. Personalni boshqarish tizimi - bu?

- A. Kadrlarni to'g'ri joylashtirish;
- B. Ijodiy sheriklarni tanlash;
- C. Rahbariyat buyruqlarini tushuntirish;
- D. To'g'ri javob yo'q.

84. Chiziqli - shtabli struktura qanday tashkil etiladi?

- A. har bir rejali rahbar qoshida ixtisoslashgan xizmatlar, maslahatchilar kengashini tuzish orqali;
- B. har bir boshqaruv bo'g'iniga muayyan funksiyalarni birlashtirib qo'yish orqali;
- C. barcha quyi rahbarlar va ishlab chiqarish yacheykalarini korxonaga rahbariga bo'ysundirish orqali;
- D. barcha funksional bo'limlarni mustaqil ishlashini ta'minlash orqali.

85. Korxonani imidji – bu?

- A. xaridorlarni korxonaga to'g'risidagi fikri;
- B. korxonaning boshqa xuddi shunday shakldagi korxonalardan afzallik tomonlari;
- C. korxonaning savdo belgisi qayerlarda ma'lumligi; uning asosiy xaridorlari kimlar ekanligi;
- D. korxonaga o'z mijozlari doirasida erishgan obro'-e'tibori va nufuzi;

86. Strategik qaror-bu?

- A. bir xil muammoga daxldor bo'lib, barcha bo'g'inlar uchun birdek amal qiladigan qaror;
- B. bir doiradagi muammoga taalluqli bo'lib, korxonaning muayyan bir bo'limi yoki bir guruh xodimlar yuzasidan qabul qilinadigan qaror;
- C. yuqori boshqaruv organlari tomonidan tub va istiqbolli dasturlarni ishlab chiqish maqsadlarida qabul qilinadigan qaror;
- D. korxonaning joriy va tezkor rejalarini tuzish maqsadida qabul qilinadigan qaror.

87. Biznes reja – bu?

- A. korxonaning rivojlanish strategiyasini belgilab beruvchi asosiy hujjat;
- B. asosan ishlab chiqarish bo'limining rejasi;
- C. asosan marketing bo'limining rejasi;
- D. asosan moliyaviy reja;
- E. tashkiliy va huquqiy reja.

88. Xodimlarni rejalashtirish – bu?

- A. inson omiliga bo'lgan ehtiyojni oldindan aniqlash;
- B. ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan ehtiyojni oldindan aniqlash;
- C. mavjud va kerak bo'ladigan ish joylariga bo'lgan ehtiyojni aniqlash;

D. ishchilarga bo'lgan sharoitni o'zgartirib berish.

89. **Tovar tashishining vazifasi haq:**

A. tovarlar harakatchilik bosqichini va ularning qo'llanilish sharoitini ko'rsatish.

B. tovarni tarkib qilib ishlagida bo'lgan ish me'morlarini izlab topish.

C. ilg'ri bo'lgan tovarlar tovar ishlarini bajarish.

D. tovarni paxtalar.

90. **Buzorni tashish qaysi me'morlar to'rtida amalga oshiriladi?**

A. buzor hajmi, o'sishi dinamikasi, ish yuritish bo'yicha tashkilot, qo'llanilish sharoitlarini ko'rsatadigan usullar, tovarlar tashish.

B. buzorning joylashuvi, geografik joylashuvi bo'yicha tashish, buzorning hajmi.

C. buzor tashish sharoitini, buzor hajmi, tovarni tashish sharoitini ko'rsatish.

D. buzorni tashish sharoitini, buzorning tashish sharoitini, buzor sharoitini.

91. **Karavonni buzor tashish sharoitini ko'rsatishning vazifasi nima?**

A. tashish sharoitini ko'rsatish.

B. tovarni tashish sharoitini.

C. tashish sharoitini.

D. tashish sharoitini ko'rsatish.

92. **Buzor tashish sharoitini ko'rsatishning vazifasi nima?**

A. buzor tashish sharoitini ko'rsatish.

B. buzor tashish sharoitini ko'rsatish, buzor tashish sharoitini ko'rsatish va tashish sharoitini ko'rsatish sharoitini ko'rsatish.

C. tashish sharoitini ko'rsatish.

D. buzor tashish sharoitini ko'rsatish.

93. **Tovar tashish sharoitini ko'rsatish haq:**

A. tovarning tashish sharoitini ko'rsatish.

B. tovarni tashish sharoitini ko'rsatish, tovarni tashish sharoitini ko'rsatish.

C. tashish sharoitini ko'rsatish.

D. tovar tashish sharoitini ko'rsatish.

94. **Tovar tashish sharoitini ko'rsatish haq:**

A. tovarning tashish sharoitini ko'rsatish.

B. tashish sharoitini ko'rsatish, tovar tashish sharoitini ko'rsatish.

C. tashish sharoitini ko'rsatish, tovar tashish sharoitini ko'rsatish.

D. tashish sharoitini ko'rsatish, tovar tashish sharoitini ko'rsatish.

95. **Tovar tashish sharoitini ko'rsatish sharoitini ko'rsatish haq:**

A. tovar tashish sharoitini ko'rsatish, tovar tashish sharoitini ko'rsatish va tashish sharoitini ko'rsatish sharoitini ko'rsatish.

B. tovar tashish sharoitini ko'rsatish, tovar tashish sharoitini ko'rsatish va tashish sharoitini ko'rsatish sharoitini ko'rsatish.

MUNDARIJA

KIRISH	3
---------------------	----------

I BO'LIM. KORXONA IQTISODIYOTINING UMUMIY ASOSLARI

I BOB. KORXONA IQTISODIYOTI VA INNOVATSIYALARNI BOSHQARISH KURSINING MAZMUNI VA VAZIFASI	7
1.2. Fanni o'rganish uslubiyoti va usullari	9
1.3. Fanning boshqa iqtisodiy fanlar bilan aloqasi	10
1.4. Iqtisodiy tizimlarning turli modellari.....	11
1.5. Bozor iqtisodiyoti va bozor modeli	14

II BOB. KORXONA – MUSTAQIL XO'JALIK YURITUVCHI BOZOR SUBYEKTI	18
2.1. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida milliy iqtisodiyotni rivojlanishi va aholi bandligini ta'minlashda korxonaning o'rni va roli	18
2.2. Korxonada majburiyatlarining iqtisodiy mohiyati va uning tarkibiy tuzilishi	21
2.3. Korxonaning ichki va tashqi muhiti. Korxonaning ishlab chiqarish va bozor munosabatlari	26
2.4. Xo'jalik yuritishning zamonaviy bozor tizimi tomonidan korxonada faoliyatiga qo'yiladigan talablar	27

III BOB. KORXONANI TASHKIL ETISH VA FAOLIYATINI TO'XTATISH	30
3.1. Korxonani tashkil etishning huquqiy asoslari va tamoyillari	30
3.2. Korxonani tashkil etishning zaruriy ta'sis hujjatlari.....	32
3.3. Korxonani davlat tomonidan ro'yxatga olinishi.....	33
3.4. Korxonani tugatish va qayta tashkil qilish.....	35
4.1. Boshqaruv korxonada faoliyatidagi obyektiv zarurat.....	37
4.2. Boshqaruvning obyekti va subyekti.....	44

4.3. Boshqaruvning tashkiliy tuzilmalari	47
4.4. Islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida boshqaruvning maqsadi, vazifalari va tamoyillari	49
4.5. Boshqaruv tizimini ishlab chiqarishning samaradorligiga erishish va korxonaning iqtisodiy barqarorligiga yo'naltirish.....	56

V BOB. KORXONA FAOLIYATINI REJALASHTIRISH VA BASHORAT QILISH.....60

5.1. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida biznes-rejalashtirish korxonani boshqarishdagi muhim qurol sifatida.....	60
5.2. Korxonada rejalashtirishning uslubiy asoslari, tamoyillari va vazifalari	62
5.3. Korxonalarda rejalashtirish va bashorat qilish.....	70
5.4. Rejalashtirish texnologiyasi va korxonalar rejalari tuzilmasi	74
5.5. Biznes-reja, uning mazmuni va ishlab chiqish tartibi.....	79

VI BOB. ISHLAB CHIQRISHNING IQTISODIY VA IJTIMOIIY SAMARADORLIGI84

6.1. Bozor munosabatlari sharoitida samaradorlikning o'rni va ahamiyati	84
6.2. Ishlab chiqarish samaradorligining mohiyati, mezonlari va ko'rsatkichlari.....	90
6.3. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari.	96

VII BOB. KORXONANING ASOSIY FONDLARI VA ISHLAB CHIQRISH QUUVATI 100

7.1. Asosiy fondlarning mohiyati va ularning korxonalar faoliyatidagi o'rni.....	100
7.2. Korxonalarda asosiy fondlarni eskirishi, ularni baholash va ta'mirlash.....	103
7.3. Asosiy fondlardan foydalanishni yaxshilash yo'llari va ko'rsatkichlari.....	110
7.4. Korxonaning ishlab chiqarish quvvati	114

VIII BOB. KORXONANING AYLANMA MABLAG'LARI.. 118

8.1. Aylanma mablag'lar tushunchasi, iqtisodiy tabiati va ularning korxonalar faoliyatidagi ahamiyati.....	118
8.2. Aylanma mablag'larning tuzilmasi va harakati hamda ularning korxonalar iqtisodiyotiga ta'siri	121
8.3. Aylanma mablag'larni normalashtirish.....	126

8.4. Aylanma mablag'lardan foydalanish ko'rsatkichlari va ularning aylanishini tezlashtirish yo'llari	133
---	-----

IX BOB. KORXONADA MEHNAT RESURSLARI VA ULARDAN FOYDALANISH, MEHNATNI TASHKIL ETISH VA HAQ TO'LASH..... 138

9.1. Korxonaning kadrlar salohiyati.....	138
9.2. Bozor munosabatlari sharoitlarida korxonaning kadrlar siyosati..	141
9.3. Korxonalarda mehnatga haq to'lash	144

X BOB. ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI, FOYDA VA RENTABELLIK..... 148

10.1. Xarajatlar tushunchasi va uning tasniflanishi	148
10.2. Foyda va uning shakllanish manbalari, taqsimlash tartibi hamda ko'paytirish yo'llari.....	151
10.3. Rentabellikning mohiyati va ko'rsatkichlari	154

XI BOB. KORXONANING INVESTITSION FAOLIYATI . 159

11.1. Korxonalarda investitsiyalashning asosiy manbalari va yo'nalishlari.....	160
11.2. Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholash	171

XII BOB. CHET EL INVESTITSİYALARI VA ULARNI JALB ETISH BO'YICHA INVESTITSION SIYOSAT..... 179

12.1. Davlatning investitsion siyosati	179
12.2. O'zbekiston iqtisodiyotiga chet el investitsiyalarini jalb qilishning zaruriyati	181
12.3. Investitsion muhitning jozibadorligini oshirish	184
12.4. Iqtisodiyotga chet el investitsiyalarini jalb qilishning huquqiy asoslari	189
12.5. To'g'ridan to'g'ri investitsiyalar va portfel shaklidagi chet el investitsiyalari	198

XIII BOB. KORXONANING TIJORAT SIRI VA IQTISODIY XAVFSIZLIGI 202

13.1. Korxonada iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning maqsad va vazifalari.....	202
13.2. Korxonada xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish va boshqarish..	204
13.3. Korxonaning xavfsizlik xizmati, uning tuzilishi va vazifalari	206
13.4. Korxonaning tijorat sirlari.....	209

XIV BOB. REAL SEKTORDA INNOVATSION FAOLIYAT TUSHUNCHASI, INNOVATSION FAOLIYAT FUNKSIYALARI VA INNOVATSIYALAR TASNIFI.....	214
14.1. Innovatsion faoliyat tushunchasi.....	214
14.2. Innovatsion loyiha va innovatsion jarayon tushunchalari	217
14.3. Innovatsion jarayonga ta'sir qiluvchi omillar	224
14.4. Innovatsiyalar tushunchasi va ularning tasnifi.....	230
XV BOB. INNOVATSION FAOLIYATNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLINISHI.....	236
15.1. O'zbekiston Respublikasida innovatsion faoliyatning huquqiy asoslari	236
15.2. Innovatsion jarayonlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi	241
15.3. Innovatsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishda xorij tajribasi	244
15.4. Sanoati rivojlangan davlatlarda ilmiy-innovatsion rivojlanish modellari.....	250
XVI BOB. REAL SEKTORDA INNOVATSION FAOLIYATNING TASHKILY SHAKLLARI VA UNING XUSUSIYATLARI.....	258
16.1. Innovatsion tashkilotlar va ularning ahamiyati.....	258
16.2. Innovatsion tashkilotlarning vazifalari	261
16.3. Innovatsion tashkilotlar tarkibi	265
XVII BOB. REAL SEKTORDA INNOVATSION FAOLIYATNING ILMIY ASOSLARI	270
17.1. Innovatsion faoliyatga tizimli yondashuv: asosiy atamalar va tushunchalar.....	270
17.2. Tizimlar tasnifi va ularning mazmuni hamda xossalari.....	272
17.3. Real sektorda innovatsion faoliyatni tashkil etishning funksional, marketing va integratsion yondashuvlari.....	276
17.4. Innovatsion boshqaruv tamoyillari va asosiy usullarining tasnifi.....	281
XVIII BOB. REAL SEKTORDA INNOVATSION FAOLIYATDA TAVAKKALCHILIKNI BOSHQARISH ASOSLARI	284
18.1. Tavakkalchilik tushunchasi va uning mohiyati	284
18.2. Tavakkalchilik tasnifi.....	287

18.3. Tavakkalchilikni pasaytirish usullari va omillari	293
18.4. Tavakkalchilikni boshqarishning uslubiy asoslari.....	298
18.5. Tavakkalchilikni baholash va uni optimallashtirish	302
18.6. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tavakkalchilikni boshqarish samaradorligini oshirish yo‘nalishlari	312

XIX BOB. REAL SEKTORDA INNOVATSION

FAOLIYATNING KOMPLEKS TA'MINOTI.....317

19.1. Innovatsion faoliyatning huquqiy ta'minoti	317
19.2. Innovatsion faoliyatni boshqarishning resurs ta'minoti va resurslar turlari	320
19.3. Ilmiy-texnikaviy axborot resurslarini yaratish.....	323

XX BOB. REAL SEKTORDA YANGILIKLAR VA

INNOVATSIYALAR PORTFELINI SHAKLLANTIRISH...330

20.1. Innovatsiya obyektlarini ularning nodirligi asosida raqobatbardoshligini ta'minlash asoslari	330
20.2. Turli obyektlarning raqobat ustunliklarini ta'minlovchi an'anaviy omillar.....	331
20.3. Tashkilot va uning raqobatchilarining raqobatbardoshligini tahlil qilish.....	333
20.4. Innovatsiyalar va innovatsion portfelni rejalashtirish.....	341

XXI BOB. VENCHUR SHAKLIDAGI INNOVATSION

BIZNES346

21.1. Venchur kapitalining iqtisodiy vazifalari	346
21.2. Venchur kapitali va venchur biznesi.....	349
21.3. Venchur asosidagi moliyalashtirishning ustuvor yo‘nalishlari ...	353
21.4. O‘zbekistonda venchur asosida moliyalashning istiqborllari.....	359

XXII BOB. YANGILIKLAR DASTURI VA LOYIHALARNI

ISHLAB CHIQISH363

22.1. Innovatsion loyiha tushunchasi va uning asosiy elementlari.....	363
22.2. Innovatsion loyiha turlari va uning mazmuni	366
22.3. Innovatsion loyihalarni rejalashtirish va ishlab chiqish tartibi....	368
22.4. Innovatsion loyihalarni boshqarish va amalga oshirishning dasturli-maqсадli usullari.....	371

XXIII BOB. ILMIY-TADQIQOT VA TAJRIBA-KONSTRUKTORLIK ISHLARINI TASHKIL ETISH.....376

23.1. Ilmiy-tadqiqot tajriba-konstruktorlik ishlari (ITTKI), vazifalari, tamoyillari va bosqichlari.....	376
23.2. Ixtiroga bo'lgan huquqni rasmiylashtirish.....	378
23.3. Patent va litsenziya tushunchalari.....	404
23.4. Innovatsion loyihalar ekspertizasi va uni olib borish usullari.....	409

XXIV BOB. INTELEKTUAL MULK VA INTELEKTUAL MULK BOZORI413

24.1. Intellektual mulkning mohiyati va obyektlari.....	413
24.2. Intellektual mulk bozorini rivojlanishining tarixiy asoslari.....	416
24.3. Intellektual mulk obyektlarini himoya qilishning huquqiy asoslari.....	420
24.4. Intellektual mulkni himoya qilishning jahon tajribasi.....	422
24.5. O'zbekistondagi intellektual mulk bozori.....	425

XXV BOB. YANGILIKLARNI ISHLAB CHIQRISHNI TASHKILY – TEXNOLOGIK TAYYORGARLIGINING ASOSLARI429

25.1. Ishlab chiqarishning tashkiliy-texnik darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimini baholash: kompleks iqtisodiy tahlilning maqsadi, vazifasi, axborot manbai.....	429
25.2. Ishlab chiqarishni tashkil etish tahlili va uni takomillashtirish yo'llari.....	432
25.3. Mehnatga haq to'lash va mehnat jamoasining ijtimoiy sharoiti holatining kompleks tahlili.....	435
25.4. Texnik-tashkiliy chora-tadbirlar samaradorligini baholash va ularning o'zgarishiga omillar ta'sirining tahlili.....	436

XXVI BOB. REAL SEKTORDA INNOVATSION FAOLIYATIDA BASHORAT QILISH ASOSLARI442

26.1. Bashorat va prognozlash tushunchalari.....	442
26.2. Prognozlash va uning turlari.....	448
26.3. Innovatsion-texnologik rivojlanishni jahon miqyosida bashoratlari.....	453

XXVII BOB. REAL SEKTORDA INNOVATSIYALAR MARKETINGI.....	456
27.1. Innovatsiyalar marketingining o'ziga xos xususiyatlari.....	456
27.2. Mustaqil ilmiy texnikaviy tashkilotlarning marketing faoliyati...	459
27.3. Ilmiy-texnikaviy mahsulotning bozordagi harakati.....	462
27.4. Innovatsion marketingning turlari	467
XXVIII BOB. REAL SEKTORDA INNOVATSION LOYIHALARNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	487
28.1. Innovatsion faoliyatga kiritilgan investitsiyalar	487
28.2. Innovatsion faoliyat samaradorligi ko'rsatkichlari tizimi	490
28.3. Korxonalarining innovatsion salohiyati va uning samaradorligi..	493
28.4. Innovatsion faoliyat samaradorligini tahlil qilishni tashkil etish	497
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	499

E.SH.SHODMONOV, D.SH.BABABEKOVA,
B.O.TURSUNOV

KORXONA IQTISODIYOTI VA INNOVATSIYALARNI BOSHQARISH

Darslik

Muharrir N.Rustamova
Badiiy muharrir K.Boyxo‘jayev
Kompyuterda sahifalovchi O.Fozilova

Nashr. lits. AI № 305. 18.12.2018.
Bosishga ruxsat 19.11.2019-yilda berildi.
Bichimi 60x84 ¹/₁₆. Ofset qog‘ozi №2.
“Times New Roman” garniturası.
Shartli b.t. 30,4. Nashr hisob t. 31,6.
Adadi 50 dona. 1-buyurtma.

“IQTISOD-MOLIYA” nashriyoti
100000, Toshkent, Amir Temur, 60 «A».

«HUMOYUNBEK-ISTIQLOL MO‘JIZASI»
bosmaxonasida chop etildi.
100000, Toshkent, Amir Temur, 60 «A».

QAYDLAR UCHUN

ISBN 978-9943-13-871-1



9 789943 138711